

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasи

«BOSHQA TARMOQLARDA AUDITNING XUSUSIYATLARI»  
fanidan

## O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Ta'lif sohasi: 230 000-Iqtisod  
Ta'lif yo'naliishi 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)



QARSHI-2021

Tuzuvehi:

Sh.Butunov "Buxgalteriya hisobi va audit"  
kafedrasi katta o'qituvchisi

Mazkur o'quv-uslubiy majmua "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining 2021 yil "06" 09 gi 12-sonli, Iqtisodiyot fakulteti Uslubiy komissiyasining 2021 yil "10" 09 dagi 12-sonli, institut Uslubiy Kengashining 2021 yil 22-09 dagi 12-sonli yig'ilishlarida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

Iqtisodiyot fakulteti  
Uslubiy komissiyasi raisi:

"Buxgalteriya hisobi va audit"  
kafedrasi mudiri:

Sh. Turdiyev

A.Qurbanov

A.Alikulov



## KIRISH

“Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari” fani bo'yicha yaratilgan mazkur o'quv-uslubiy majmua «Audit» fanidan amaliy mashg'ulot o'tish uchun o'quv qo'llanma bakalavriatning 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan. Mazkur o'quv-uslubiy majmua davlat ta'lim standartlari, fan bo'yicha o'quv dasturi auditorlik faoliyatining milliy standartlari(AFMS)ga asoslangan holda yaratilgan.

To'plam o'quv-uslubiy majmua elementlarini o'z ichiga qamrab olib, unda fanning o'quv dasturi, sillabus, har bir mavzu bo'yicha nazariy dars uchun o'quv materiallari(ma'ruza matni), amaliy mashg'ulot uchun tarqatma materialar, glossariy, tarqatma materiallar va mustaqil ta'lim topshiriqlaridan tashkil topgan. Bu, o'z navbatida, darslarini amaliy ma'lumotlar asosida, muhokama va munozara asosida tashkil etishga imkoniyat yaratadi.

O'quv-uslubiy majmuaning mavzulari auditni tashkil etish jarayoni, auditorning huquq va majburiyatlari, auditorning ahloqiy meyorlari va buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotni haqqoniyligini aniqlash maqsadida hisob ishlarining barcha bo'limlarini tekshirish masalalarini o'z ichiga olgan. Shuningdek, unda auditorlik tekshiruvining barcha yo'nalishlari bo'yicha maqsad va vazifalar to'g'ri aniqlangan. Har bir bo'limni bajarilishi bo'yicha topshiriqlar va ko'rsatmalar berilgan.

O'quv-uslubiy majmuaning o'rganilishi, o'z navbatida, auditorlik jarayonining ketma-ketlik asosida bajariladigan ishlarini, ya'ni uni rejalashtirishdan toki auditorlik hisobot tuzish va auditorlik xulosani rasmiylashtirishgacha bo'lgan auditorlik amallarini bajarishga yordam beradi. Bundan tashqari, auditorning tekshiruv o'tkazish texnikasi va usuli bo'yicha olgan bilimlarini yanada kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua orqali talabalar o'zini-o'zi mustaqil nazorat qilishi va bilimlarini joriy nazoratdan o'tkazishda foydalanilishlari mumkin. Shuningdek, o'quv-uslubiy majmuada har mavzu bo'yicha xorij tajribasi asosidagi ma'lumotlar ham keltirilgan. Bu, o'z navbatida, talabalarga mustaqil ravishda auditorlik faoliyatining xorij tajribasini o'rganishga amaliy yordam beradi va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**“BOSHQA TARMOQLARDA AUDITNING XUSUSIYATLARI” FANIDAN O’QUV  
MATERIALLARI**

## **1-MAVZU: “BOSHQA TARMOQLARDA AUDITNING XUSUSIYATLARI” FANINING PREDMETI, OB’EKTI VA METODI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **REJA:**

- 1. Boshqa tarmoqlarda auditning mohiyati, maqsadi va vazifalari**
- 2. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining predmeti va ob’ektlari**
- 3. Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining xususiy va umumiy metodlari tavsifi**

**Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:** Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari, fanining predmeti va ob’ektlari, savdo korxonalarida audit o'tkazish tartibi, qishloq xo'jaligi korxonalarida audit o'tkazish tartibi, qurilish tashkilotlarda audit o'tkazish tartibi, transport tashkilotlarda audit o'tkazish tartibi

#### **1. Boshqa tarmoqlarda auditning mohiyati, maqsadi va vazifalari**

Audit – bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisob va u bilan bog’liq moliyaviy axborotlarini me’yoriy hujjatlarga muvofiqlik darajasi to’g’risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir.

Auditorlik faoliyati va auditorlik kasbining ta’rifi O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi qonunida quyidagicha keltirilgan:

Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlari ko’rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Auditorlik xizmatlari auditorlik tekshiruvlarini va ushbu Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlarni o’z ichiga oladi.

Birinchi ta’rifda auditning tafsiloti keng bayon etilgan bo’lsa, so’ngisida auditorlik faoliyati tekshiruv o’tkazish jarayoni bo’lishidan tashqari professional xizmat ko’rsatish bilan bog’liq tadbirkorlik faoliyati ekanligi ham ta’kidlangan.

O’zbekistonda davlat hoqimiyyati va boshqaruvi organlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish qonun bilan taqiqlangan.

Auditor – auditor malaka sertifikatiga ega bo’lgan jismoniy shaxsdir. Auditorning malaka sertifikati – auditorning malakasini tasdiqlovchi va auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xizmatlari ko’rsatish huquqini beruvchi hujjat

Agar auditor auditorlik tashkilotining shtatida turgan bo’lsa yoki auditorlik tashkiloti u bilan fuqarolik-huquqiy tusdagagi shartnomaga tuzgan bo’lsa, u auditorlik tekshiruvi o’tkazishga jalb etilishi mumkin.

O’zbekistonda auditorlik faoliyati mustaqil yuridik shaxs huquqiga ega auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Qonunga ko’ra Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo’lgan yuridik shaxsdir.

O’zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi qonunida 9 modasida “Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to’g’riliği va buxgalteriya hisobi to’g’risidagi qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo’jalik yurituvchi sub’ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog’liq moliyaviy axborotini auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir”

Xulosa qilib Auditorlik tekshiruvi ikki maqsadga: birinchidan tekshirilayotgan sub’ekt moliyaviy hisobotining ishonchliligi bo'yicha xulosa berish; ikkinchidan mamlakat moliyaviy bozoriga ishonchli axborot berishni ta’minlash qaratilgan.

Ushbu maqsadlarni barish uchun auditorlik tekshiruvi oldiga quyidagi vazifalar belgilangan:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy hisobotlarining tahlili va ishonchliligin tasdiqlash;
- xo'jalik faoliyati samaradorligini real va haqqoniy baholash;
- mulkdorlar, aktsiyadorlar, investorlar, kreditorlar va boshqa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflarni ishlab chiqish.

Auditorlik faoliyatining maqsad va vazifalari tavsifidan kelib chiqib, xamda qonunda belgilanishiga ko'ra auditorlik teshiruvlari kuyidagi guruxlarga: majburiy auditorlik tekshiruvi, tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xamda nazarat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvi ajratiladi. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari esa quyidagilardan iborat: buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish; moliyaviy hisobotni tuzish; milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish; buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menedjment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati;

Auditorlik faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan shaxslardan, shuningdek har qanday uchinchi shaxslardan *mustaqillik*;
- auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda *xolislik*;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazayotgan auditorlik tashkilotlari mustaqil ravishda *ishlash usullari va metoddalarini tanlashi*;
- auditorlik tekshiruvini amalga oshirayotgan shaxslarning *professional kompitentligi*;
- auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda olingan *axborotlarning maxfiyligi*.

Auditorlik tekshiruvlari ishlab chiqarishni rejashtirish va tashkil etish, korxonadagi tartib, mehnat va texnologik intizomni, tovar-moddiy zahiralarning omborlar va boshqa saqlash joylaridagi hisobi, mulklarning saqlanishi, hisob-kitoblar holati va korxona moliya-xo'jalik faoliyati hamda uning natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan boshqa ko'plab holatlarni qamrab oladi. Shuning uchun auditorlik hisobotida korxona moliya-xo'jalik faoliyati va uning natijalariga bevosita ta'sir-ko'rsatadigan, hamda hisob ma'lumotlari va hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligin pasaytirishiga olib keladigan, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi katta kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar berilishi lozim

## **2. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining predmeti va ob'ektlari**

Auditning o'ziga xos predmeti va ob'ektlari mavjud. Audit maxsus fan sifatida ma'lum maqsadga qaratilgan va bir qancha vazifalarni bajaradi. Auditning perdmesti xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ularning faoliyatlarini hisoblanadi. Ma'lumki korxonalar o'z ustavlariga asosan faoliyat yuritadilar. Ushbu faoliyat jarayonida moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalaniladi. Korxonalarning aktivlari doimiy ravishda daromad, foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Lekin, ushbu natijalarga faqat qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilgan holda erishish mumkin. Korxonalar o'z faoliyatlarida me'yoriy hujjatlarga, qabul qilingan qoidalarga rioya qilishlari shart. Har bir korxona o'zining hisob siyosatini belgilaydi va unga asosan hisob-kitoblarni yuritadi. Audit paytida korxona

faoliyatining qabul qilingan qonunlarga monandligi, hisob ma'lumotlarining korxona moliyaviy-xo'jalik ko'rsatkichlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Auditning predmeti taftishdan o'larоq korxonaning faqat bir faoliyat turi yoki bиргина ко'rsatkichi bo'lishi mumkin. Misol uchun, savdo faoliyati, ishlab chiqarish faoliyati yoki bo'lmasa pul mablag'lari, tovarlar, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta operatsiyalari va boshqalar. Auditning predmetiga korxona moliyaviy hisobotning to'g'riliqi, hisob siyosatiga, soliq siyosatiga to'liq amal qilinishlikni tekshirish ham kiradi. Auditning aniq predmeti yoki ob'ekti mijoz bilan tuzilgan shartnomaga bevosita bog'liq bo'ladi.

Bozor sharoitida korxonalarning faoliyati kengayib har tomonlama rivojlanmoqda. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida "Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari" fanining asosiy ob'ektlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz:

- mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan opretsiyalar;

- moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko'rsatkichlar ( xarajatlar, daromadlar, foyda (zararlar);

- valyuta operatsiyalari;

- tashqi iqtisodiy faoliyat, shu jumladan xorijiy sarmoyalar;

- hisob-kitob operatsiyalari ( debitorlik, kreditorlik qarzları);

- qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq jarayonlar.

Shunday qilib "Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari" fanining predmeti va ob'ektlari quyidagi tartibda guruhlash mumkin:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatları va uning o'ziga xos munosabatlari;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'ziga xos aktivlari va majburiyatları;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning alohida jarayonları.

Auditning asosiy predmeti bo'lgan korxonalarning faoliyatları quyidagilarga bo'linadi:

- ishlab chiqarish faoliyati;

- savdo faoliyati;

- xizmat ko'rsatish faoliyati.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatları o'z navbatida quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- ta'minot jarayoni;

- ishlab chiqarish jarayoni;

- realizatsiya jarayoni.

Jarayonlar xo'jalik operatsiyalari orqali sodir bo'ladi.

Xo'jalik jarayonlarning auditi ma'lum ko'rsatkichlarni tekshirish orqali amalgamoshiriladi. Ushbu ko'rsatkichlarning ikkiga bo'lish mumkin:

- miqdor ko'rsatkichlari;

- sifat ko'rsatkichlari.

Miqdor ko'rsatkichlar – ishlab chiqarilan mahsulotlar, sotilgan tovarlar, bajarilgan xizmatlar hajmidan iborat.

Sifat ko'rsatkichlar – faoliyat yuritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, foyda, mehnat unumdarligini ifodalaydi. Korxonalarning alohida jarayonlari va ko'rsatkichlari auditning ob'ektlari hisoblanadi.

Auditning predmetiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga dolzarb masalalarda konstalting xizmatlarini ko'rsatish ham kiradi. Auditorlar va auditorlik taskilotlari korxonalarga o'zaro tuzilgan shartnomalarga asosan «Biznes reja» tuzish, hisob siyosatini belgilash, soliqlarni to'g'ri hisoblash, mahsulot tannarxini aniqlash, moliyaviy hisobot tuzish kabi masalalarda yaqindan yordam beradilar.

### **3. Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining xususiy va umumiy metodlari tavsifi**

Auditning o'ziga xos usullari va uslubiyati mavjud. Bu usullar auditning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Korxonada audit o'tkazish mutaxassis auditordan ma'lum bilimni va ish tajribasini talab qiladi. Bozor sharoitida turli mulkka asoslangan korxona va firmalarning faoliyatlarini bir-biridan farq qiladi. Ularning so'nggi moliyaviy natijalari ham turli operatsiyalar va omillar tufayli shakllanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining qabul qilingan qonun-qoidalarga monandligini ekspertiza qilish, baholash, asosli xulosalarga kelish va tavsiyalar berish auditordan ko'p bilim va saviyani talab qiladi. Audit natijasida ishonchli xulosaga kelish ushbu jarayonda qo'llaniladigan usullarga bevosita bog'liqidir. Ushbu usullarning turi ham ko'p.

Audit uslubining asosida mantiqiy mulohaza, ilm-fan yutuqlari, xo'jalik jarayonining o'zgaruvchanligi yotadi. Korxonalar faoliyatidagi operatsiyalar tufayli mablag'lar bir shakldan boshqa shaklga o'zgarib turadi. Ushbu jarayon natijasida korxona samara (naf) olishi kerak. Bu samara, o'z navbatida qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilingan holda erishilgan bo'ladi. Noqonuniy operatsiyalar mijozlarga faqat zarar keltiradi, xolos.

Audit jarayonida iqtisodiyotimizga xos bo'lgan xalqaro amaliyotda keng foydalaniladigan usullar qo'llaniladi. Auditor audit usullarini mustaqil ravishda belgilaydi va qo'llaydi. Ushbu usullar tarkibi auditning predmeti, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liqidir. Audit nazariyasi va amaliyotida ushbu usullarning quyidagi turlari keltirilgan:

- solishtirish usuli (iqtisodiy hodisalar, ko'rsatkichlarni o'zaro va biznes-reja bilan solishtirish);
- gipoteza usuli (hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha "yashirin iqtisodiyot" natijalarini aniqlashda keng foydalamiladi);
- tahlil va sintez usuli (audit ob'ekti bo'lgan ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi);
- taftish usuli (korxonaning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi);
- inventarizatsiya usuli (korxonadagi huquqiy aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga monandligi tekshiriladi);
- kalkulyatsiya usuli (bajarilgan ishlar, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi, umumi ovqatlanish korxonalarda esa taomlarning sotilish bahosi aniqlanadi);
- ekspertiza usuli (hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi);
- buxgalteriya schyotlari va ikkiyoqlama yozuv usuli ( korxona aktivlari va majburiyatlarining harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi schyotlari orqali tekshiriladi);
- balans usuli (korxonadagi hodisalar, jarayonlarni rasmiy lash-tirish, dastlabki ma'lumotlarni umumlashtirish orqali nazorat qilish).

Auditor tekshirish jarayonida me'yorlashtirish, baholash, guruhlash usullaridan ham foydalaniladi. Audit usullari har bir hodisaning kelib chiqish sabablari, ularning oqibatlari, ho'jalik jarayonlarining qonun-qoidalarga (mezonlarga) muvofiqligini aniqlashga yordam berishi kerak. Auditorlik faoliyatining rivojlanishi tufayli uning uslubi, unda qo'llaniladigan usullar ham takomillashib boraveradi. Keyingi paytlarda maxsus adabiyotlarda auditning quyidagi usullariga katta e'tibor berilmoxda: xodimlar (yoki uchinchi shaxslar) bilan og'zaki so'rovlardan o'tkazish, tekshirilayotgan korxona bo'yicha muqobil (alternativ) balans tuzish, audit ob'ektlari bo'yicha testlar anketalar o'tkazish, kompyuter axborotlari

texnolgiyalaridan keng foydalanish kabi usullar. Shuni ham qayd qilish kerakki, auditorlar (auditorlik tashkilotlari) audit jarayonida qabul qilingan umumiy (an'anaviy) usullardan foydalanish bilan bir qatorda ular o'zlariga ma'qul bo'lgan yoki boshqalar uchun "tijorat siri" hisoblangan noan'anaviy (lokal) usullardan ham foydalanishlari mumkin. Audit o'tkazishda milliy va xalqaro audit standartlariga asoslanadi. Shunday qilib, auditda qo'llaniladigan usullar uning turi, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liq bo'ladi.

«Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanini o'rganish uchun bakalavr-iqtisodchi davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan quyidagi iqtisodiy fanlar atamalariga va bilimlari bilan bevosita aloqada bo'ladi: iqtisodiyot nazariyasi, moliya, pul, kredit va banklar, soliqlar va soliqqa tortish, buxgalteriya hisob, moliyaviy va boshqaruv tahlili, audit va boshqa ixtisoslik fanlari.

#### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari**

1. Boshqa tarmoqlarda audit deganda nimani tushunasiz?
2. Boshqa tarmoqlarda auditning ahamiyati nimada?
3. Boshqa tarmoqlarda auditning oldiga qanday maqsad va vazifalar qo'yilgan?
4. Boshqa tarmoqlarda audit nechta shakl va turga bo'linadi?
5. Boshqa tarmoqlarda auditning iqtisodiy tahlil fanidan qanday farqli va unga o'xshash tomonlari mavjud?
6. Ichki audit bo'limini ishini samarali deb hisoblash mumkinmi, agar u bo'lim bosh buxgalterga bo'ysinsa?
7. Agar audit nazoratni samarali shakli bo'lsa, barcha korxonalarda uni o'tkazish majburiyatini olishi lozimmi?
8. Nima sababdan auditorlik tashkiloti ochiq aktsionerlik jamiyatni sifatida tashkil etilishi mumkin emas?
9. Ichki audit xizmati samarali ishlayotgan bo'lsa, ochiq aktsionerlik jamiyatlarida Boshqa tarmoqlarda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish lozimmi?
10. Qaysi nuqtai nazar aktsioner uchun to'g'iroq: nazorat shaklini ixtiyoriy tanlash huquqiga egaligi, yoki bu xuquqdan maxrumligimi?
11. Audit nazariyasi boshqa tarmoqlarda auditorlik tekshiruvi o'tkazishga tayyorlanishda qanday ta'sir ko'rsatadi?
12. Auditorlik faoliyatining predmeti deganda nimani tushunasiz?
13. Boshqa tarmoqlar auditni jarayonida qanday tekshiruv metodlaridan foydalilanadi?
14. Boshqa tarmoqlarda audit moliyaviy nazoratning boshqa shakllaridan qanday farq qiladi?
15. Boshqa tarmoqlarda auditning ob'ekti nima, sub'ektlari kimlar?
16. Boshqa tarmoqlarda audit fanining iqtisodiy fanlar bilan aloqadorligi?
17. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fani predmetining mohiyati nimalarda aks etadi?
18. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining ob'ektini qanday izohlaysiz?
19. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining qanday metodlari mavjud?
20. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanida qanday xususiy usullar qo'llaniladi?
21. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining Audit va Amaliy audit fanlari bilan qanday o'zaro bog'liqligi mavjud?
22. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining «Buxgalteriya hisobi» fani bilan qanday o'zaro bog'liqligi mavjud?

## **2-MAVZU. “QURILISH TASHKIOTLARI ASOSIY FAOLIYATI AUDITINING XUSUSIYATLARI”**

### **REJA:**

- 1. Qurilish tashkilotlari faoliyati auditining o’ziga xos xususiyatlari.**
- 2. Qurilish tashkilotlarida kapital qo’yilmalar auditining maqsadi, vazifalari va ma’lumot manbalari.**
- 3. Qurilish tashkilotlarida kapital qo’yilmalar auditining umumiyyet rejasini va ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**
- 4. Kapital qo’yilmalarning tarkibi va kapital qo’yilmalar auditini o’tkazish tartibi.**
- 5. Qurilish tashkilotlarida audit o’tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.**
- 6. Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayoni auditining xususiyatlari.**
- 7. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar auditining maqsadi, vazifalari va ma’lumot manbalari.**
- 8. Qurilish tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar va asosiy vositalar auditining umumiyyet rejasini va ish dasturini tayyorlash xususiyatlari.**
- 9. Qurilish tashkilotlarida tayyorlov-ombor xarajatlarini hisobga olish va taqsimlash jarayoni auditti.**
- 10. Materiallarning omborda va buxgalteriyada hisobga olish holatini audit qilish tartibi.**
- 11. Bajarilgan va buyurtmachilarga topshirilgan qurilish-montaj ishlari hisobining auditti.**
- 12. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar hisobini tekshirish xususiyatlari.**
- 13. Xo’jalik usulidagi kapital qo’yilmalar auditti.**

**Mavzu bo’yich tayanch-so’z va iboralar:** Kapital qo’yilmalar, pudrat usulida bajariladigan kapital qo’yilmalar, xujalik usulida bajariladigan kapital qo’yilmalar, tugallanmagan kapital qo’yilmalar, kapital kurilish,pudratchi tashkilotlar, kurilish – montaj ishlari,pudrat shartnomasi,loyixa – smeta xujjatlari, inventarlash, omborxonalar, ombor hisobi, ombor varaqalari, ombordagi tovar qoldig’i, ombor mudiri, pul, pul muomalasi, registrlar, reja, revvizitlar, tovar-moddiy boyliklari, tovar-moddiy zaxirasi, tovar aylanmasi, tovarlar qoldig’ining me’yori.

### **1. Qurilish tarmog’i faoliyati auditining o’ziga xos xususiyatlari**

Respublikamiz o’z mustaqilligini qo’lga kiritgan davrdan boshlab yurtimizda bunyodkorlik va qurilish jarayoni jadal rivoj topa boshladi, bunda, ayniqsa, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar orqali mazkur jarayon o’z yo’lida rivojlanib bormoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalar deganda qurilish-montaj faoliyati uchun matkriallar va yarim tayyor mahsulotlar etkazib berish bilan shug’ullanuvchi korxonalar tushuniladi.

*Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini xarajatlari - bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo’lib, daromadlar va xarajatlar kontseptsiyasiga ko’ra, o’sha davrning o’zida daromad keltirishi kerak.*

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarning to’g’ri hisobga olinishini ta’minlash, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini aniq hisoblash maqsadida

xarajatlarni mezonlari bo'yicha turkumlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan mu-kammal va aniq bo'ladi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni hisobga olishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy natijalarini hisobga olgan holda boshqaruv qaror-larini qabul qilish uchun sub'ekt ma'muriyatini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida haqiqatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazorat o'rnatish, ularni me'yoriy va rejadagi hajmi bilan taqqoslash, kelgusidagi iqtisodiy strate-giyasini shakllantirish;
- baholash va moliyaviy natijalarini hisoblash uchun ishlab chi-qarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxini hisoblash;
- sub'ektning tarkibiy bo'linmalari ishlab chiqarish faoliya-tining iqtisodiy natijalarini aniqlash va baholash;
- uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lган ishlab chiqarish texnolo-giyalarining qoplanishi, bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha rentabellik darajasi, ularga qo'yilgan kapitallar-ning samaradorligi va faoliyati bo'yicha boshqaruv hisobi ma'lumot-larini bir tizimga keltirish.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotni tayyorlash uchun moddiylashtirilgan mehnat sarflarining pul shaklidaga ifodasidir. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri rejulashtirish va hisobga olish maqsadida ular ma'lum tartibda turkumlarga ajratiladi:

1. Mahsulotni tayyorlashdagi texnik-iqtisodiy roliga qarab:
  - asosiy;
  - ustama.
2. Ayrim mahsulot turlarining tannarxiga qo'shilishi (taqsimlanishi)ga qarab:
  - bevosita (to'g'ri);
  - bilvosita (egri).
3. Tayyorlanayotgan mahsulot miqdoriga bog'liqligiga qarab:
  - o'zgaruvchan;
  - o'zgarmas (shartli).
4. Xarajatning turiga qarab:
  - iqtisodiy elementlar;
  - kalkulyatsiya moddalari.
5. Tarkibiga qarab:
  - bir elementli;
  - kompleks.
6. Ishlab chiqarish bilan bog'liqligiga qarab:
  - ishlab chiqarishdagi;
  - noishlab chiqarishdagi.
7. Mahsulot tannarxini hosil qilishdagi xarakteriga qarab:
  - unumli;
  - unumsiz.
8. Rejaga kiritilishiga qarab:
  - rejulashtiriladigan;
  - rejulashtirilmaydigan.
9. Hosil bo'lish joyiga qarab:
  - sex;

- uchastka;
- bo'lim;
- brigada.

10.Taqvim davriga tegishliliga qarab:

- joriy davr;
- kelgusi davr;
- kelajakdag'i xarajatlar rezervi.

Malakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishida qurilish tarmog'i muhim o'rini tutadi. Aynan ushbu tarmoqqa kiruvchi qurilish tashkilotlari orqali iqtisodiyotning barcha sohasiga real investitsiyalar kiritiladi. Qurilish tarmog'i mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha sohasida yangi quvvatlarni qurish, ishga tushirish, mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash, rekonstruktsiya qilish, kengaytirish, ta'mirlash va boshqa shu kabi ishlarni amalga oshirishning bosh ijrochisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilangan xalq xo'jaligi tarmoqlari klassifikatoriga muvofiq qurilish tashkilotlarining alohida turlariga quyidagi tarmoq kodlari ajratilgan:

60000 -Qurilish;

61000 -Pudrat va xo'jalik usulida qurilish, montaj va boshqa ishlarni olib boruvchi umumqurilish va ixtisoslashgan tashkilotlar;

62000 -Ishlab chiqarish maqsadidagi bino va inshootlarni kapital ta'mirlashni bajaruvchi tashkilotlar;

63000 - Noishlab chiqarish maqsadidagi bino va inshootlarni ta'mirlash, aholi buyurtmasiga ko'ra yashash joylarini ta'mirlash va qurish ishlarni bajaruvchi tashkilotlar;

65000 - Burg'ulash ishlarni bajaruvchi tashkilotlar;

66000 - Loyiha, loyiha-qidiruv va qidiruv tashkilotlari;

69000 - Qurilish xo'jalik boshqarmalari

## **2. Qurilish tashkilotlarida kapital qo'yilmalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.**

Mulkiy shakli va yuridik maqomiga ko'ra qurilish tashkilotlari ochiq aktsiyadorlik jamiyatlari (OAJ), mac'uliyati cheklangan jamiyatlari (MChJ), xususiy korxonalar (firmalar) va davlat unitar korxonalari bo'lishi mumkin. Ushbu maqomdagi qurilish tashkilotlarini tuzish va ular faoliyatini yuritish respublikamizda bu turdag'i qurilish tashkilotlarilar to'g'risidagi qonunlar va qonun osti hujjatlari, shuningdek ushbu tashkilotlarning ta'sis hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Qurilish tashkilotlarida auditning asosiy maqsadi ularning moliyaviy hisobotlarining to'g'riliqi va haqqoniyligini, O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan meyoriy – huquqiy xujjatlarga mos kelishligini tekshirishdan iboratdir.

Auditorning vazifasi qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarning to'g'riliqi va haqqoniyligini tekshirishdan iboratdir.

Qurilish tashkilotlari auditining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat;

- hisobga olinadigan ob'ektlarda qilingan barcha kapital xarajatlarni turlari bo'yicha o'z vaqtida, to'liq va aniq aks ettirilganligini tekshirish;

- kapital qo'yilmalar rejasi, ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy vositalar ob'ektlarini ishga tushirish rejalarining bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

- moliyalashtirish asosida belgilanadigan rejaning bajarilishi va ichki zahiralarni safarbar qilish ustidan nazoratni ta'minlash kabilarni kiritish mumkin;

- sodir bo'layotgan operatsiyalarining qonuniyligini tekshirish;

- tuzilgan shartnomalarning qonuniyligini tekshirish;
- loyiha-smeta hujjatlarini to'g'ri to'ldirilganligini tekshirish;
- qurilish tashkilotining aktivlarining to'g'rilingini tekshirish;
- buyurtmachilar bilan o'zaro hisob-kitoblar to'g'rilingini tekshirish;
- qurilish tashkiloti daromadining shakllanishi, qurilish montaj ishlarining tannarxi va yakuniy moliyaviy natijalarni tekshirish.

Auditorlik tekshiruviga jarayonida buxgalteriya hisobining yuritilishi va moliyaviy hisobotning to'g'ri shakillanganligi hamda dastlabki xujjalarning holati tekshiriladi. Shuningdek, hisob yuritiladigan kompyuter ma'lumotlar bazasiga alohida e'tib qaratiladi.

Qo'rilibshda audit o'tkazilganda asosiy e'tibor moddiy qiymatliklarning saqlanishiga, qurilish – montaj ishlariga sarflanadigan materiallar qiymatining shakillanishiga va qurilish ishlarining bajarilishiga qaratiladi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazishda qo'rilibshda tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy huquqiy xujjalarni quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi» Qonuni, 1996 yil 30-avgust(Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirish kiritilgan O'zR 30.04.2013 y. O'RQ-352-son Qonuni, O'zR 07.10.2013 y. O'RQ-355-son Qonuni,O'zR 27.12.2013 y. O'RQ-361-son Qonuni, O'zR 14.05.2014 y. O'RQ-372-son Qonuni)

2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risidagi» Qonuni, yangi tahriri 2000 yil 26- may.

3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 1996 yil 29-may.

4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Yangi taxriri 2007 yil 22 noyabrdan tasdiqlangan.

5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. 21.12.1995 yil tasdiqlangan.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM» 1999 yil 5-fevraldag'i 54сонli qaroriga ilova.

7. 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" (AV tomonidan 14.08.1998 y. 474-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 26.07.1998 y. 17-17/86-son bilan tasdiqlangan).

8. 2-son BHMS "Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar" (AV tomonidan 26.08.1998 y. 483-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 20.08.1998 y. 41-son bilan tasdiqlangan).

9. 3-son BHMS "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (AV tomonidan 27.08.1998 y. 484-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 25.08.1998 y. 43-son bilan tasdiqlangan).

10. 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralalar" (AV tomonidan 17.07.2006 y. 1595-sun bilan ro'yxatga olingan moliya vazirining 15.06.2006 y. 52-sun buyrug'i bilan tasdiqlangan).

11. 5-son BHMS "Asosiy vositalar" (AV tomonidan 20.01.2004 y. 1299-sun bilan ro'yxatga olingan moliya vazirining 09.10.2003 y. 114-sun buyrug'i bilan tasdiqlangan).

12. 15-son BHMS "Buxgalteriya balansi" (AV tomonidan 20.03.2003 y. 1226-sun bilan ro'yxatga olingan moliya vazirining 12.03.2003 y. 45-sun buyrug'i bilan tasdiqlangan).

13. 17-son BHMS "Kapital qurilishga oid pudrat shartnomalari" (AV tomonidan 23.12.1998 y. 579-sun bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 02.11.1998 y. 58-sun bilan tasdiqlangan).

14. 19-son BHMS "Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish" (AV tomonidan 02.11.1999 y. 833-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 19.10.1999 y. EG/17-19-2075-son bilan tasdiqlangan).

15. Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risidagi Nizom (AV tomonidan 14.01.2004 y. 1297-son bilan ro'yxatga olingan moliya vazirining 23.12.2003 y. 131-son Buyrug'i bilan tasdiqlangan).

16. Tovar-moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalar berish va ularni ishonchnomalar bo'yicha berish tartibi to'g'risida Nizom (AV tomonidan 27.05.2003 y. 1245-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 62-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).

Normativ xujjatlar qo'rilib tashkilotlari faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning aniq jixatlarini hamda soliq qonunchiligiga oid taraflarini yoritib beradi.

Qurilish tashkilotlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda foydalaniladigan manbalar buxgalterlik hisobning korxonada qabul qilingan tashkiliy shakliga ham bog'liq. Bular hisobni qo'lida yuritish sharoitida: jurnal-orderlar, vedomostlar, kartochkalar: avtomatlashtirilgan hisob sharoitida esa kompyuter dasturlari, mashinagrammlaridir. Lekin shuni unutmaslik kerakki, hisobning har qanday shakli sharoitida ham kapital qo'yilmalarning harakatiga oid muomalalar (kirimi, chiqimi, xo'jalik ichidagi siljishi, ta'mirlanishi) me'yoriy hujjatlar va dastlabki hujjatlashtirishning unifikatsiyalangan idoralararo shakllari bilan rasmiylashtirilishi lozim. Ular qatoriga quyidagilar kirdi:

- kapital qurilishning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish ma-salalarini tartibga soladigan asosiy me'yoriy hujjatlar;
- korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrugi;
- kapital qurilishlarni hisobga olishda korxonada qo'llaniladigan analitik va sintetik hisob registrlari;
- buxgalteriya hisobotlari;
- loyihalash xujjatlar;
- smeta xujjatlar;
- bajarilgan ishlarni ko'rsatadigan, sarflangan resurslarni qo'rsatadigan qo'rilib ishlari bo'yicha qabul qilish dalolatnomalar;
- qurilish chizmasi va davom etish me'yorlari, titul ro'yxati (№1 forma), qapital qurilish rejasasi (№7 forma), pudrat shartnomasi, operativ hisob ma'lumotlari, asosiy fondar va kapital qo'yilmalar rejasining amalda sinash bo'yicha hisobot. Audit uchun qurilish muddatlarasi sifatida davlat komissiyasining ob'ektini topshirish dalolatnomalari asos bo'ladi;
- alohida qurilish ob'ektlari uchun qo'llaniladigan bajarilgan ishlarni jurnali (forma №KS-6);
  - moddiy javobgar shaxs, ya'ni ishlarni bajaruvchi, qurilish uchastkasi boshlig'i hisoboti (№ M-19 forma);
  - №KS -2 va № KS-3 formalari;
  - 1010 –“Hom ashyo va materiallar” scheti bo'yicha hisob registrlari;
  - 0810, 0820, 0830, 0840, 0890 schetlar bo'yicha hisob registrlari, jurnal-order tizimida qaydnomalar;
  - bosh kitob;
  - moliyaviy hisobot.

### **3. Qurilish tashkilotlarida kapital qo'yilmalar auditining umumiyligi rejasiga va ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**

Kapital qo'yilmalar auditorliq dasturini tuzishda quyidagi savollarni kiritish tavsiya etilada;

loyixani bajarish uchun kerakli xujjatlarning o'zgarishlarni inobatga olgan holda tahlilini o'tkazish

- rejalashtirilgan va haqiqatdagi qo'rsatgichlarni taqqoslash;
- qo'rilibshni boshqarishning umumiyligi tahlili;
- xujjatlar aylanishi tizimini tahlil qilish;
- qo'rilibsh jarayonida moliyaviy, soliq va boshqaruv hisoblarining tahlilini o'tkazish;
- ijro xujjatlari (umumiyligi ish jurnali, maxsus ish jurnali) auditi;
- hisobot xujjatlari (bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi, bajarilgan ishlarni yurituvchi jurnal) auditi;
- qurilish jarayonida rejalashtirilgan va haqiqiy sarflangan xarajatlar tahlili;
- pudrat shartnomasini baholash;
- materiallarning reja va bozor baholarini solishtirish;
- kamomadlar auditi;
- xujjatlarda keltirilgan ish xajmini baholash (umumiyligi qiymatni ko'rsatuvchi hisob – kitob jadvallarini tekshirish).

Kapital qurilish jarayonida quruvchi qurilishiga mo'ljallangan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq kelib tushishini; bu mambalardan yig'ma smeta hisob-kitoblariga muvofiq foydalanishi; qurilishning uskuna, asbob, inventar va ayrim material turlari bilan ta'minlanishi, shuningdek qurilish pudrat usulida olib borilayotgan bo'lsa qurilish-montaj ishlarning bajarilishini nazorat kiladi; ishga tushirilayotgan ob'ektlarning inventar qiymatini va qurilish jarayonida qilinayotgan hamda asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar miqdorini belgilaydi.

Yuqorida aytildiganlardan kelib chiqib kapital qurilishning hisob ob'ektlariga:

kapital qo'yilmalarni o'z mablag'lari vositasida mablag' bilan ta'minlashda badallar bo'yicha operatsiyalarni hisobga olish;

bajarilgan ishlarni pudrat tashkilotlari bilan hisob-kitoblarni hisobga olish;

yangi qurilish va ishlab turgan korxonalarni kengaytirish, ta'mirlash, texnika qayta jixozlash va quvvatlarni saqlash xarajatlarni hisobga olish.

Kapital qurilish xo'jalik usulida olib borilganda hisobga olish ob'ektlariga qurilish-montaj ishlarning bajarishga aloqador xo'jalik moliya operatsiyalari qo'shiladi.

Kapital qurilishda mablag', kredit bilan ta'minlash va hisob-kitoblarni hisobga olish.

Umumiyligi qoidalari:

Kapital qo'yilmalarni mablag' va kredit bilan ta'minlash jarayonida banklar nazorat vazifalarini amalda qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

Banklar qurilishlarini pudrat shartnomasiga ko'ra titul ro'yxatlari asosida qurilishning butun davrida va qurilishning smeta qiymati doirasida uzlusiz mablag' va kredit bilan ta'minlaydilar.

Kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash.

Davlat kapital qo'yilmalarini mablag' bilan ta'minlash:

-titul ro'yxatlari Uzbekiston Vazirlari Mahkamasi tasdiqlanadigan yangi korxona va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish hamda ishlab turganlarini kengaytirish uchun buyurtmachilarining o'z mablag'lari va byudjet mablag'lari hisobiga, boshqa ishlab chiqarish qurilishlari bo'yicha buyurtmachilarining o'z mablag'lari hisobiga;

- ishlab turgan ishlab chiqarishlarni texnik qayta uskunlash va ta'mirlash ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi mablag'lari hisobiga;

- ishlab chiqarish maqsadlarida ob'ektlar sotsial-madaniy tadbirlar va turar joy qurilishi fondining mablag'lari va boshqa shunga o'xshash fondlar hamda byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

O'z mablag'lari etishmagan hollarda kapital qo'yilmalar yuqorida aytilgan xarajat turlari bo'yicha bank kreditlari hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi.

Davlat markazlashgan kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash va qurilishdagi hisob-kitoblarni yuritishda boshqaruvchilik vazifalarini bajaruvchi vazirlik, idora va tobe tashkilotlar banklarga kapital qurilishning yillik rejalarini, kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash rejalarini va boshlanayotgan qurilishlarning titul ro'yxatlarini butun qurilish davri uchun tobe korxona, birlashma, tashkilot hamda muassasalarga rejalarini etkazib berish belgilangan muddatlarda taqdim etadir.

Qurilish tashkilotlarida auditni o'tkazish xususiyatlari bo'yicha olib boriladigan izlanishlarda ko'yidagi yo'nalishlarni qo'rsatish mumkin:

- qurilish sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini o'rganish;
- auditorlik tekshiruvini boshlashda shartnomalarni o'rganish;
- qurilish ishlari bilan bog'liq moddiy zaxiralarni tekshirishda, ularning montaj qilinadigan va vaqtinchalik saqlanadigan uskunalarga sarflanadaiga xarajatlarni inobotga olgan holda tasniflanishini o'rganish;
- operatsion faoliyatni tekshirishda e'tibor qurilish ishlari tannarhiga kiritilmaydigan xarajatlar(ma'muriy xarajatlar, ta'minlash xarajatlari)ni o'rganishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Qurilish tashkilotlarida audit dasturiga kiritilishi lozim bo'lgan savollar tartibi.

Auditorlik amallarining nomlanishi va mazmuni	Auditorlik dalillarini olish amallari	Ma'lumot manbalari, auditor ish xujjatlari	Auditorlik amallarining natijalari
<b>Qurilish – montaj ishlarning bajarilishini tekshirish dasturi</b>			
Qurilish - montaj ishlarini topshirish dalolatnomalarining to'g'ri rassmiylashtirilganligi tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish	№KS-6 forma bo'yicha bajarilgan ishlar hisobini yurituvchi jurnal	Buyurtma beruvchi tashkilot va pudrat tashilotlarida mayjud xarajatlar hisobiga ta'lqli ma'lumotlarning muvofiqligini belgilash
Bajarilgan ishlar xajmini tekshirish, Inventarizatsiyada ishtirok etish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, moddiy qiymatini o'lchash	№ KS-2 formasi bo'yicha qo'rilib montaj ishlarning bajarilishi bo'yicha dalolatnomasi, inventarizatsiya dalolatnomalari,	Loyixa smeta xujjatlarida tasdiqlangan alohida ishlarni bajarish bo'yicha faktlarni aniqlash,
<b>Kapital qurilishni amalga oshirish bilan bog'liq material xarajatlarni tekshirish bo'yicha dastur</b>			
Ishlab chiqarishga sarflangan materiallarning haqiqiy tannarxining	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, kuzatish, muqobil balans	Tashkilot hisob siyosati; hisobotlar, materiallarni hisobdan chiqarish	Materiallar buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilayotganligin tekshirish, TMZ larni

hisob siyosatida keltirilgan baholash tizimiga muvofiqligini tekshirish	tayyorlash	dalolatnomalari	baholashda tashkilot uchun qulay tavsyanomalarini ishlab chiqish
Qurilish materiallarining haqiqiy tannarxining hisob bahosidan og'ishishlarning to'g'ri sarflanishini tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish, hisob qoidalariga muvofiq kelishini tekshirish	Hisob – kitoblar, hisobotlar, materialarning sarflanishi bo'yicha dalolatnomalar	Materiallarning buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilishini tekshirish
Materiallarning qo'shimcha sarflanishi bo'yicha nakladnoy talabnomalarini va ularning keyinchalik hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish	Nazoratlash Kuzatish	0800 schyoti bo'yicha Bosh kitobda yuritilishi, nakladnoy – talabnomalar (M-1 shakl); materiallar hisobi bo'yicha kartochkalar(M-17 shakl, №18 qaydnomalar)	Materiallarning haqiqatda jo'natilgan miqdoridan ortiqcha sarflanishi orqali qurilish tannarhining oshirib qo'rsatilishini tasdiqlash
Yonilg'i moylash materiallarining mashina va mexanizmlariga to'g'ri sarflanishini tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish, tasdiqlash	Yonilg'i moylash materiallarining me'yirlari Mashina va mexanizmlarining hisobini yuritishi jurnali	Me'yordan ortiqcha yonilg'i moylash materiallarining sarflanishini aniqlanishi
Mashina va mexanizmlarga elektr energiyaning sarflanishini asoslanishi	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish, tasdiqlash	kVt/s sarflar normasi, hisob jurnali	Me'yordan ortiqcha elektr energetikaning sarflanishini aniqlanishi
Mashina va mexanizmlarni jalb etilishi bo'yicha xarajatlarni tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish	№2 shakl bajarilgan ishlar bo'yicha dalolatnomalar, № KS-3 ma'lumotnomasi, №ESM -7 ma'lumotnomasi	Shartnoma munosabatlarning to'g'ri rassmiylashtirishini tekshirish, xarajatlar hajmining nomuvofiqligining aniqlanishin

#### 4.Kapital qo'yilmalarning tarkibi va kapital qo'yilmalar auditini o'tkazish tartibi.

**Kapital qo'yilmalar** - bu xujalikning takror ishlab chikarishini kengaytirish hamda uning sifatini yaxshilashga yunaltirilgan xarajatlar majmuidir. Kapital qo'yilmalar xajmi korxonalarni kurish, kengaytirish, texnik kayta jixozlash va uning ishlab chikarish kuvvatlarini saklash, shuningdek, ishlab chikarish maksadlarilagi asbob- uskuna,

transport vositalari va boshka asosiy fondlarni xarid kilishning barcha moliyalashtirish manbalari xisobiga kilingan xarajatlarning umumiy summasiga nisbatan belgilanadi.

Uzbekiston iktisodiyotida kurilish sanoati asosiy urinni egallaydi. Kapital kurilishning ustidan nazorat kilish uchun korxonalarda kapital kurilish buyicha nazorat bulimlari tashkil etiladi.

Qurilish tashkilotlari auditining asosiy maksadi ularning moliyaviy xisobotlarining tugriligi va xakkoniyligini, Uzbekiston respublikasida kabul kilingan konunchilikka mos kelishligini tekshirishdan iboratdir.

- kapital qo'yilmalar xajmiga;  
- korxonani kurish va ishga tushirish( ishga tushirish – sozlash xarajatlari)ning asosiy sarflari;

- ishlab turgan muassasalar ( maktab, kasalxona, bolalar bogchalari va shu kabilar ) ni byudjet klassifikatsiyasining 12-moddasi buyicha asosiy vositalar xarid kilish xarajatlari;

- ilmiy tadkikot ishlari kurilmalarining tarkibiy namunalari, shchuningdek, sanoat sinovlari uchun urnatiladigan mashina va uskunalarining tajribalarini tayyorlash va kabul kilingan ixtirolarni sinash xarajatlari;

Sub'ektlar faoliyatida shunday xarajatlar xam mavjud buladiki , ular belgilangan tartibga kura kapital qo'yilmalar xajmiga kiritilmaydi;

- bino, inshoot, asbob – uskunalar va boshka asoisy vositalarni kapital remonti(ta'mirlash) xarajatlari ;

- er va urmon kurilish ishlari, shuningdek erni yaxshilash xarajatlari ;

- ishga tushirish sozlash ishlari vaktida uskunalarini demontaj va montaj kilish buyicha xarajatlar;

- komplektlash, yigish buyicha nuksnlarni tuzatish va bunga alokador mashina, uskuna va kurilmalarni sinash xarajatlari ;

- kurilish – montaj ishlarning kiymatiga kiritilgan kurilishning ayrim mashina va uskunalarini montaj va demontaj kilish ishlari kiymati;

- asosiy vositalarni tugatish xarajatlari;

- kismlarga ajratib buzish, uskunalarini demontaj kilish va shu kabilar kiymati (joyni yangi kurilishga tayyorlash yoki ishlab turgan korxonalarini ta'mirlash va kengaytirishga alokador kurilish smetasida nazarda tutilgan ishlar bundan mustasno);

- kurilish vaktida kurilish tashkilotlarining ustama xarajatlari xisobiga amalga oshiriladigan vaktinchalik ( titul ruyxatiga kirmagan ) bino, inshoot va kurilmalar ( idora xamda prorab ustalar , omborxonalari, dushxona, isinish, korovulkxona, ob'ektdagi ombor va shiyponlar) kiymati,

- maxsus omborlar va moslamalar kiymati ( ayrim buyumlarni seriyali yoki ommaviy ishlab chikarishda yoki ma'lum buyurtmalarni bajarishda foydalaniladigan );

- keltirilgan yoki kurilish maydonida tayyorlab kuyilgan, ammo ishga jalb kiligmagan detal, blok, krnstruktsiya va boshka kurilish materiallarni kiymati;

- ulgurji baxolarda xisobga olingan uskunalar , extiyot kismlarning kiymati ;

- kuruvchi shartnomasi asosida boshka korxona va tashkilotlar uchun bajariladigan ishlar kiymati .

Auditor asosiy vositalar tugri kirim kilinganligini, extiyot kismlarning kiymati tugri aks ettirilganligini, xarajatlар tugri xisobga olinganligini dikkat bilan tekshirishi lozim.

Auditorlik tekshiruvini utkazishning asosiy manbaalari kuyidagilardan iborat:

1. Uzbekiston Respublikasi «Buxgalteriya xisobi tugrisidagi» Konuni,1996 yil 30-avgust.

2. Uzbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati tugrisidagi» Konuni, yangi taxriri 2000 yil 26- may.

3. Uzbekiston Respublikasi Fukarolik Kodeksi 1996 yil 29-may.

4. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Maxsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chikarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi tugrisida NIZOM» 1999 yidl 5-fevraldagi 54-sonli karoriga ilova.

5. 1-Sonli «Xisob siyosati va Moliyaviy xisobotlar» BXMS ,1998-yil 26-iyul , 14- avgustda Adliya Vazirligidan ruyxatdan utgan .

6. 17-Sonli «Kapital kurilishga oid pudrat shartnomalari»BXMS

7. 19-Sonli « Inventarlashni tashkil etish va utkazish» BXMS 1999 yil 2- noyabrda 833-son bilan Adliya vazirligidan ruyxatdan utgan.

Yangi kurilishlarda kapital qo'yilmalarni xisobga olish va kurilishning borishi ustidan nazoratni, kurilayotgan korxona direktsiyasi, ishlab turgan korxonalarda esa bevosita shu korxona raxbariga buysunuvchi kapital kurilish bulimii amalga oshirida.

Kurilayotgan kurilish korxona direktsiyasi smetalarida nazarda tutilgan mablaglar xisobiga, ishlab turgan korxonalarda esa kapital kurilish bulimiini saklash xarajatlari, ya'ni davr xarajatlari smetasida nazarda tutilgan mablaglar xisobiga amalga oshiriladi. Kurilayotgan korxonalar direktsiyalari shuningdek kuruvchi bulgan ishlab turgan korxona va tashkilotlar kapital qo'yilmalar buxgalteriya xisobini xam olib boradilar. Auditor Ushbu kapital kurilishda buxgalteriya xisobi tugri yuritilganligini va kurilish-montaj ishlari tugri olib borilganligini tekshirishi lozim.

##### **5. Qurilish tashkilotlarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.**

Bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun buyurtmachilar va pudratchilar o'tasidagi hisob-kitoblar korxonalar, ishga tushiriladigan kompleks va ob'ektlar qurilish uchun shartnoma baholari bo'yicha qilinadi. Shartnoma bahosi pudrat tashkiloti pudrat shartnomasiga ko'ra ob'ektda bajaradigan ishlarning qiymatidir. Shartnoma bahosi butun qurilish davomida o'zgartirilishi mumkin emas.

Shartnoma baholarini aniqlash va kelishi tartibi tasdiqlangan qurilishda shartnoma baholarini aniqlash hamda qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalarda belgilab berilgan.

Metodik ko'rsatmalarga ko'ra shartnoma bahosiga quyidagilar kiritilgan:

- korxona, bino, inshoot, ularning navbatlari, ishga tushiriladigan komplekslar qurish qiymatining yig'ma hisob-kitob sistemalarida aniqlangan qurilish montaj ishlarning smeta qiymati yoki bu ishlarning texnik-iqtisodiy asoslash va texnik iqtisodiy hisob-kitoblar (TIX) tarkibida aniqlangan hisob-kitob qiymati;

- pudratchi faoliyatiga taaluqli boshqa ish va xarajatlarning bir qismi (masalan, smetalarda hisobga olinadigan materiallar qiymatidagi farq uchun tovon to'lash xarajatlari, belgili xizmat muddati yoki bu ishlarning o'taganlik uchun to'lovlar xarajatlari, mehnatga bir yo'la haq to'lash xarajatlari, mehnatni tashkil qilish etishning vaxta metodi xarajatlari (shuningdek yangi o'zlashtirilayotgan xududlarda qurilishni tashkil etishga aloqador xarajatlar;

- nazarda tutilgan ish va xizmatchilarning qurilish yig'ma smeta hisob-kitoblariga yoki TIA va TIX larda aniqlanadigan shartnoma baholarida hisobga olinadigan qurilish-montaj ishlari va boshqa xarajatlar qiymatiga kiritiladigan mablag'lar umumiy rezervining bir qismi, bundan buyurtmachi etkazib beradigan materiallar, buyumlar va konstruktsiyalar qiymatiga o'tadigan summalar istisno qilinadi.

- ish chizmalari bo'lgan ob'ektlar bo'yicha - shu chizmalar asosida tuzilgan bosh pudratchi bilan kelishilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan ob'ekt smetalari asosida.

Bunda agarda pudrat tashkilotlari bilan loyixa echimlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan bo'lsa shartnoma bahosi kamaymaydi.

Agarda buyurtmachi belgilangan tartibda loyixa xujjatlariga tuzatishlar kiritsa, buning okibatida qurilish-montaj ishlarining xajmi va tarkibi o'zgaradigan bo'lsa, shartnoma bahosiga pudratchi bilan kelishib aniqliklar kiritish lozim. Buyurtmachi va bosh pudrat tashkiloti o'tasidagi kelishmovchilikka oid qarorni vazirlik-buyurtmachi rahbarlari vazirlik - pudratchi rahbarlari bilan kelishib, 20 kunlik muddatda qabul kiladilar. Kelishilmagan bo'yicha pirovard qaror davlat qurilishi, hamdo'stlik respublikalari idoralariga qurilishlari bo'yicha hamdo'stlik respublikalar davlat qurilish komitetlari qabul kiladilar.

Agarda qurilishda ikki yoki undan ortiq bosh pudrachi qatnashsa, shartnoma bahosi har bir bosh pudratchi uchun belgilanadi.

Buyurtmachi pudratchining korxona quvvatini oshirish taklifini qabul qilsa, qurilishning smeta qiymati va shartnoma bahosi loyixa bo'yicha mazkur korxona quvvati birligiga qabul qilingan xarajatlar salmog'i asosida aniqlanadi. Bunda buyurtmachining quvvati oshirishga aloqador qo'shimcha xarajatlari aniqlik kiritilgan smetada nazarda tutilgan mablag'lar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi.

Shartnoma bahosi investitsiya jarayonining barcha qatnashchilari uchun o'zgarmasdir.

Qurilishning to'liq smeta qiymati korxona, bino, inshootlar loyixalarida yoki hisob-kitob qiymati texnik-iqtisodiy asoslash va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarda aniqlanadi, hamda shartnoma bahosi bosh pudrat tashkilotlari bilan kelishilgandan so'ng tasdiqlanadi.

Qurilish qiymatini yig'ma smeta hisob-kitoblarida va texnik iqtisodiy asoslash va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarda bo'yicha shartnoma bahosi keltiriladi, bunda qurilish-montaj ishlarining qiymati ajratib ko'rsatiladi.

Buyurtmachilar pudrat tashkilotlari schyotlariga bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun qurilishda xo'jalik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha hisob-kitoblar va kredit bilan ta'minlash to'g'risidagi asosiy qoidalarilan kelib chiqib quyidagi tartibda haq to'laydi.:

1. Bajarilgan pudrat ishlariga har oyda bajarilgan ishlar xajmi va qiymati hamda texnologik bosqich va ishlar kompleksi bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi buyurtmachi imzolangan ma'lumotnomasi asosida shartnoma baholarida haq to'lanadi.

Bajarilgan ishlar uchun pirovard hisob-kitob buyurtmachi va pudratchi o'tasidagi ob'ekt qurilishi yakunlanib, uni ishga tushirish haqidagi aktni davlat qabul komissiyasi (ishchi komissiya) tasdiqlangandan so'ng to'lanadi.

Texnologik bosqichlar va ishchilar majmui bo'yicha tegishli ob'ektlarda pudrat shartnomasida nazarda tutilgan chorak rejalarini (yil boshidan o'suvchi yakinda hisobga olinadigan) bajarilmagan holda buyurtmachi bajarilgan ishlarga haq to'lamaydi. Bunday holatda banklar pudrat tashkilotlariga tugallanmagan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplashga muvaqqat ehtiyojiga kredit berish huquqiga ega.

2. Qurilish butunlay tugallangan va buyurtmachiga taxt qilib topshirilgan ob'ektlarga ularning to'liq smeta qiymati xajmida davlat qabul komissiyasi (ishchi komissiya) tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan aks asosida haq to'lanadi.

Ishlab turgan korxonalarini texnik qayta jixozlash, ta'mirlashda hamda turar-joy hamda ijtimoiy-madaniy va maishiy maqsadlardagi ob'ektlar qurilishida xo'jalik usulida

bajarilgan ishlar, etkazib berilgan materiallar va uskunalar. Shuningdek boshqa xarajatlarga moliya bilan ta'minlab schyotidan haq to'lanadi. Ayrim hollarda bu maqsadda hisob-kitob schyotlari ochilishi mumkin.

Ilgari ishning chorak rejasi bajarilmaganligi uchun hisob-kitoblarni yakunlash maqsadlarida, shuningdek, qurilish tugallangandan keyin ob'ekt bo'yicha umuman yakuniy hisob-kitoblarni ta'minlash maqsadlarida va pudrat tashkilotlariga ssuda berish uchun resurslar yaratish maqsadida buyurtmachilar vaqtincha bushagan kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlashga mo'ljallangan mablag'larni maxsus schyotlarga o'tkazadilar.

Agarda qurilish ishlab chiqarish rivojlantirish va ijtimoiy-madaniy tadbirlar hamda turar-joy qurilishi fondlari hisobiga qilinayotgan bo'lsa, mablag'lar maxsus hisob-kitob hisobot oydan keyingi oyning 5 chislosidan kechiktirmay mablag' bilan ta'minlash schyotlaridan ko'rsatilgan maxsus schyotlarga o'tkazilishini ta'minlaydigan har bir buyurtmachi uchun qilinadi.

Maxsus cheklarga o'tkaziladigan mablag'larning xajmi:

chorak ish rejalari bajarilishida qoloqlik haqiqiy bajarilgan ishlar qiymati va to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) ishlar o'rtasidagi farq sifatida yo'l qo'yilgan hollarda, ob'ekt bo'yicha qurilish montaj ishlari 95 foiz va undan yuqori bajarilganda - bu ishlar qiymatining 5 foizi (va kamroq) xajmda aniqlanadi.

Buyurtmachilar bron qilingan mablag'lar pudrat tashkilotlarining vaqtincha ehtiyojlari uchun berilgan ssudalar va ob'ekt qurilishi tugallangunga qadar sarflar uchun berilgan kreditni to'lash manbaidir.

Korxonaning asosiy vositalariga va nomoddiy aktivlariga investitsiyalar haqida, shuningdek mahsuldor va ish hayvonlarining (qiymatidan qat'iy nazar, korxonaning aylanma mablag'lari kiruvchi parrandalardan, quyonlardan, asalarilardan, yo'l va qo'riqlovchi itlardan, tajriba ostidagi quyonlardan tashqari) asosiy podasini tashkil qilish bo'yicha xarajatlar haqidagi axborotlar quyidagi schyotlarda umumlashtiriladi:

0810 - «Tugallanmagan qurilish»

0820 - «Asosiy vositalarni sotib olish»

0830 - «Nomoddiy aktivlarni sotib olish»

0840 - «Asosiy podani tashkil qilish»

0850 - «Erni obodonlashtirish»

0860 - «Uzoq muddatga olingen asosiy vositalarni obodonlashtirish»

0890 - «Boshqa kapital qo'yilmalar»

0810 - «Tugallanmagan qurilish» schyotida imorat va inshootlarni barpo etish, kapital qurilish smetalarida, smeta loyixa hisoblarida va titul ro'yxatlarida ko'zda tutilgan asbob-uskunalarini, vositalarni, inventarlarni va boshqa jixozlarni xarid qilish bo'yicha sarflangan (qurilish pudrat yoki xo'jalik usulida amalga oshirilishidan qat'iy nazar) xarajatlar hisobga olinadi.

0820 - «Asosiy vositalarni hisobga olish» schyotida asosiy vositalarni xarid qilish yoki korxonaning o'zida asosiy vositalar ob'ektlarni yaratish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olinadi.

0830 - «Nomoddiy aktivlarni sotib olish» schyotida nomoddiy aktivlarni xarid qilish yoki korxonaning o'zida nomoddiy aktivlar ob'ektlarni yaratish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olinadi.

0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotida: asosiy podaga o'tkaziladigan xo'jalikdagi yosh maxsuldar va ish hayvonlarini o'stirish bo'yicha xarajatlar; asosiy poda uchun xarid qilingan katta yoshdag'i va ish hayvonlarining qiymati, hayvonlarni etkazib berish bilan bog'lik sarflarni ham qo'shan holda; boshqa korxonalardan tekinga olingen

katta yoshdag'i hayvonlarni xo'jalikka olib kelish bilan bog'liq sarflar hisobga olinadi. Asosiy podaga o'tkaziladigan yosh hayvonlar haqiqiy tannarx bo'yicha baholanadi. Asosiy podaga o'tkazilgan yosh maxsuldar va ish hayvonlarining barcha turlarining qiymati yil davomida 1110 - «O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar» schyotidan 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotining debetiga yil boshidagi balans qiymati bo'yicha hisobga olinadigan, yil boshidan to hayvonlarni asosiy podaga o'tkazish paytiga qadar bo'lgan davrda ortgan vazni yoki o'sgan vaznining reja tannarxini qo'shgan holdagi qiymati bo'yicha hisobdan chiqariladi. Bir paytning o'zida, yosh hayvonlarni asosiy podaga o'tkazishda 0170 - «Ish hayvonlari» va 0171 - «Mahsuldor hayvonlar» schyotlari debetlanadi va 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyoti kreditlanadi. Yil oxirida hisobot kalkulyatsiya tuzilgadan keyin yil davomida o'tkazilgan yosh hayvonlarning ko'rsatilgan qiymati bilan uning haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq 1110 - «O'stiruvdagi va boquvdagi hayvonlar» schyotidan 0840 - «Asosiy podani tashkil etish» schyotiga, xayvonning bahosini bir vaqtning o'zida aniqlashda 0170 - «Mahsuldor hayvonlar» schyotiga qo'shimcha yozuv yoki storno qilish yo'li bilan hisobdan chiqariladi.

Chetdan xarid qilingan katta yoshdag'i hayvonlarning qiymati 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotining debetiga ularni xarid qilishning haqiqiy tannarx bo'yicha, etkazib berish sarflari qo'shilgan holda kirim qilinadi.

Asosiy podani tashkil qilishning tugallangan muomala bo'yicha xarajatlar 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotida 0170 - «Ishchi - «Mahsuldor hayvonlar» schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

Kapital qo'yilmalarning hisobga oluvchi schyotlarining debeti bo'yicha asosiy vositalar ob'ektlarning dastlabki qiymatiga o'rnatilgan tartibda kiritiladigan, quruvchilarning ushbu ob'ekt uchun haqiqatda sarflangan barcha xarajatlari, shuningdek, korxonaning asosiy vositalarini, nomoddiy aktivlarni xarid qilish, asosiy podani tashkil qilish va boshqa kapital qo'yilmalar bilan bog'lik xarajatlar aks ettiriladi.

Qurilish va asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'lik, lekin o'rnatilgan tartibda asosiy vositalar ob'ektlarning dastlabki qiymatiga kiritilmaydigan xarajatlar kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlardan 9430 - «Boshqa muomalaviy sarflar» yoki 8890 - «Boshqa maqsadli tushumlar» schyotlarining debetiga hisobdan chiqariladi.

Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha saldo (qoldiq) korxonaning tugallanmagan qurilishga, asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni xarid qilishga sarflangan kapital qo'yilmalar miqdorini, shuningdek, asosiy podani tashkil qilish bo'yicha tugallanmagan xarajatlar summasini aks ettiradi. Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha analistik hisob kapital qo'yilmalarning har bir yo'naliishi bo'yicha yuritiladi. Bunda analistik hisobning tashkil etilish quyidagi xarajatlar haqida ma'lumotlar olish imkoniyatini ta'minlashi kerak:

\* qurilish ishlari va rekonstruktsiyaga, burg'ulash ishlari, asbob-uskunalarni yig'ishga, yig'ishni talab qiluvchi asbob-uskunalarni xarid qilishga, yig'ishni talab qilmaydigan asbob-uskunalarni xarid qilishga, shuningdek, kapital qo'yilmalarning smetalarida ko'zda tutilgan asboblar va inventarlarni xarid qilishga, loyixa-qidiruv ishlari, kapital qo'yilmalar bo'yicha boshqa xarajatlar yuzasidan;

\* asosiy vositalarni va nomoddiy aktivlarni xarid qilishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar bo'yicha asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni turlari va nomlari bo'yicha sarflangan xarajatlar yuzasidan;

asosiy podani tashkil qilish bilan bog'lik kapital qo'yilmalar bo'yicha, hayvonlarning turlari bo'yicha (yirik shoxli hayvonlar, cho'chkalar, qo'ylar, otlar va boshqalar) sarflangan xarajatlar yuzasidan to'liq axborotlarni yig'ishi lozim.

Smetada nazarda tutiladigan boshqa kapital ishlar va xarajatlar turlari bo'yicha hisobga olinadi. 0800 - «Kapital qo'yilmalar» schyotiga amalga oshirishga ko'ra (turli, schyotlar kreditlar) yoki chet tashkilotlar schyotlarini bank tomonidan to'lashga qabul qilishi asosida kiritiladi.

Buyurtmachi tomonidan bajarilgan ishlar smeta qiymatiga kirmaydigan boshqa xarajatlarga to'lash pudrat tashkilotlarining schyotlari bo'yicha qilinadi. Ular har oyda haqiqiy xarajatlar to'g'risidagi buxgalteriya ma'lumotlari asosida taqdim qilinadi. Bu xarajatlarga ishlarning harakatdagi xarakteridaligi ustamalari, uzoq shimolda va unga tenglashtirilgan joylarda ishslash ustamalari mehnatga haq to'lashning ishbay mukofoti usullari qo'llagadagi qo'shimcha to'lovlar kiritiladi.

Foyda va zararlarni hisobga olish. Qurilish montaj ishlarini bajarish usulidan qat'iy nazar quruvchining buxgalteriya hisobida foyda va zararlar schyoti kiritiladi. Foyda va zararlar summasi quruvchi hisobida saldo qilinmaydi. Olingan jarima, penya va neustoykalar, shuningdek chetga realizatsiya qilingan moddiy boylik va xizmatlardan olingan foyda quruvchi hisobida foyda va zararlar schyotiga kiritiladi. Bu schyotda hisobga olingan foyda summasi yillik hisobot tasdiqlanadigan keyingi yilda kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlashning boshqa manbalari tarkibiga kiritiladi.

Quruvchi zararlar tarkibida kuyidagilarni hisobga oladi:

uskuna moddiy boylik va xizmatlarni chetga realizatsiya qilishdan ko'rilgan zararlar; debitor qarzni hisobdan chiqarish zararlari, bundan aybdor shaxslar zimmasiga yuklangan zararlar mustasno;

moddiy boyliklarning ishdan chiqishi va tabiiy ofat tufayli tugallanmagan qurilish bino va inshootlarning buzilishidan ko'rilgan zararlar, bundan aybdor shaxs va tashkilotlardan undirish uchun taqdim etilgan summalar mustasno;

quruvchi asosiy vositalarning tugatilishidan zararlar, tabiiy ofat tufayli ishdan chiqqan asosiy vositalardan ko'rilgan zararlardan tashqari.

Zararlar summasi ularni boshqa kapital ishlar va xarajatlar tarkibida ob'ektlarning inventar qiymatiga kiritish mumkin bo'lishi uchun yil oxirida 0800 «Kapital qo'yilmalar»ni hisobga olish schyotlariga hisobdan chiqariladi («Obektlarning inventar qiymatiga qo'shiladigan zararlar» bandi).

Zararlar bir necha qurilish ob'ektlariga o'tkaziladigan hollarda ular tugallanmagan qurilishning ham, hisobot yilda ishga tushirilgan ob'ektlarning ham smeta qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Xo'jalik moliyaviy faoliyatidagi hamda buzishlar tufayli nazarda tutilgan holatlarda ishlab turgan korxona va tashkilotlarga foiz, jarima, penya va neustoykalar to'lash bo'yicha xarajatlar asosiy faoliyat natijalariga yangi ko'rileyotgan korxonalar bo'yicha esa yuqori turgan tashkilot markazlashgan fondlari va rezervlari hisobiga o'tkaziladi.

Kapital qurilish pudrati shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun neustoyka (jarima, penya) va buzish natijasida pudratchilar zararining qoplash xarajatlari davlat arbitraji idoralarining qarori bilan undirilgan hollarda ko'rsatilgan summalar hisob-kitob schyotidan yoki vazirlik (idora)ning moliyaviy yordamga mo'ljallangan rezervini hisobga olish schyotidan hisobdan chiqariladi.

Korxona va tashkilotlar uchun to'langan summalarini 9910 - «Foyda va zarar» schyotida (vazirlik yoki idoralarga - moliya yordamga mo'ljallangan rezervni hisobga olish schyotida) aks ettirishlariga pudratchilarining davlat arbitraj organining buyrug'i ilova qilingan inkassa topshiriqlari asos bo'ladi.

Hisob-kitob va kredit operatsiyalariga aloqador qurilish-buyurtmachilarning moliya bilan ta'minlash yoki ssuda schyotlaridan olingan foiz, jarima, penya va neustoykalar

summalar korxona, tashkilot yoki vazirlikning asosiy faoliyatida har oyda hisobot oyidan keyingi 5 sanasidan kechiktirmay tiklanadi. Buyurtmachilar yangi summa to'g'risidagi ma'lumotnomani idoraga taqdim etishlari lozim. Agarda korxona, tashkilot, vazirlik ko'rsatilgan muddatda yuqorida aytigan mablag'larni tiklamasa buyurtmachini mablag' bilan ta'minlovchi bank muassasalari bu summani chorakda bir marta korxona yoki tashkilotlarning hisob-kitob schyotlariga yoki vazirlik (idora)ning moliyaviy yordamga mo'ljallangan rezervini hisobga olish schyotiga inkassa topshiriqlarini taqdim etib undirib oladi.

Inkassa topshiriqlarini takdim etishga bank muassasalariga chorak buxgalteriya hisobotiga qo'shib topshiriladigan korxona (tashkilot)lar asosiy faoliyati (vazirlik idoralarning rezerv schyotidan yoki ssuda schyotlaridan to'langan foiz, jarima, penya va neustoykalar to'g'risidagi ma'lumotnomasi asos xizmatini o'taydi.

Quruvchi sub'ektlar asosiy vositalarni sotganda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar qilinadi:

9210 - «Asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotish va boshqa hisobdan chiqarishlar»ni hisobga oluvchi schyotlar debeti.

0100 - «Asosiy vositalar» schyotining krediti sotilgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati hisobdan chiqaradi.

Asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar hisobi. Asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar 0810 «Kapital qo'yilmalar» schyotning 0820 schyotida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xujjatlar (bank to'langan yoki to'lashga qabul qilingan) asosida hisobga olinadi. Ularni quyidagicha taqsimlash qabul qilingan:

1. Qurilishning yig'ma smeta hisob-kitoblarida, shuningdek kapital qo'yilmalar rejasida nazarda tutilgan xarajatlar:

oldingi qilinadigan xarajatlar ob'ektlar qurilishiga aloqador geologik kidiruv, tadqiqot ishlari va boshqalar.

Ob'ektlar qurilishiga ulushli qatnashish tartibida beriladigan davlat, kooperativ, jamoa tashkilotlari va jamoa xo'jaliklaridan boshqa kapital ishlari va xarajatlar tarkibida nazarda tutiladigan mablag'lar hisobiga xarid qilingan bino va inshootlar (olangan bino va inshootlar ishlab turgan korxona hamda tashkilotlar hisobotida esa boshqa tushumlar sifatida aks ettiriladi):

import uskuna uchun texnologik xujjatlarni xarid qilishga. Agarda uning qiymati uskunaning shartnomasi qiymatiga aloxida kiritilgan bo'lsa.

Shuni nazarda tutish kerakki, belgilangan tartibda ilgari qurilish loyixa-smeta xujjatini tasdiqlangan organ belgilaydigan qo'shimcha smeta aniqlangan mablag'lar hisobiga qurilishni konservatsiya qilish xarajatlari.

2. Qurilish qiymatining yig'ma smeta hisob-kitoblarida nazarda tutilgan xarajatlar:

xo'jalik usulida olib borilayotgan qurilishlardagi qurilish-montaj tashkiloti fondiga ajratmalar;

qurilishni tugallanmagan va belgilangan tartibda bepul boshqa korxona (tashkilot)larga berilgan ob'ektlar bo'yicha xarajatlar (bu xarajatlarni hisobdan chiqarishda tegishli qabul-tekshiruv aktlari, bundan tashqari qabul qilayotgan tomonning bu xarajatlar hisobida aks ettirilganligi haqidagi ma'lumotnomasi asos bo'ladi);

xo'jalik usulida olib borilayotgan qurilishlarni ular uchun belgilangan oborot vositalari normativida, bu pudrat shartnomasida hisoblanadi. Pudrat usuliga o'tkazishga bepul berilgan moddiy boyliklar qiymati, boshqa tashkilotlarga belgilangan tartibda bepul berilgan va kapital qo'yilmalar hisobiga xarid qilingan uskunalar qiymati, qurilish ishchi

kadrlarni asosiy faoliyati moliya rejasida nazarda tutilgan rejali jamg'armalar hisobiga tayyorlash xarajatlari (ishni xo'jalik usulida olib borayotgan quruvchilar).

Tabiiy ofat tufayli asosiy vositalar bo'yicha zararlar, ularni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish ruxsat etilgan, qurilish tugallangan va belgilangan tartibda kapital qo'yilmalar hisobiga hisobdan chiqarishga ruxsat etilgan ob'ektlarni buzish, demontaj qilish va ko'riqlash xarajatlari.

Amaldagi qoidalar nazarda tutadigan boshqa xarajatlar.

#### **6. Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayoni auditining xususiyatlari**

Hozirgi paytga kelib, qurilish tashkilotlar faoliyatining auditorlik tekshiruvi muhimligi oshib bormoqda. Auditorlik xizmati mamlakatimizga kirib kelganiga unchalik ko'p bo'lGANI ham yo'q.

Auditorlik tekshiruvlarining oldindi taftish xizmatidan farqi sezilarli katta.

Auditorlik tekshiruvi ham boshqa barcha sohalar kabi audit jarayoni natijalarini hujjatlashtirishni talab qiladi. hammamizga ma'lumki, hujjatlashmagan ma'lumot vaqt o'tishi bilan o'z asl mohiyati va mazmunini yo'qtadi.

Auditorlik tekshiruvini, jumladan, moliyaviy natijalar hisobini audit qilishdan oldin audit dasturi tuziladi. Audit dasturi audit umumiy rejasini rivojlantirish hisoblanadi va audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalari mazmunining batafsil ro'yxatini o'z ichiga oladi. Dastur auditor assistentlari uchun batafsil yo'riqnomasi bo'lib xizmat qiladi va bir vao'tning o'zida auditorlik tashkiloti va auditorlik guruhining rahbarlari uchun ish sifatini nazorat qilish vositasi hisoblanadi.

Auditor audit dasturini hujjatlari rasmiylashtirishi, har bir bajariladigan auditorlik rusum-qoidasini raqam yoki kod bilan belgilashi kerak, toki auditor ish jarayonida o'zining ish hujjatlarida ularga havola qilish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Mohiyatiga ko'ra auditorlik rusum-qoidalari o'z ichiga buxgalteriya hisobida hisobvaraqlar bo'yicha oborotlar va qoldiq to'g'ri aks ettirilganligini batafsil tekshirishni oladi. Auditorlik rusum-qoidalari dasturi ana shunday aniq batafsil tekshirishlar uchun auditor harakatlari ro'yxatidan iborat bo'ladi. Rusum-qoidalari uchun auditor tomonidan moliyaviy natijalarning to'g'ri shakllantirilganligi va hisobga olinganligini tekshirishni belgilashi va u bo'yicha audit dasturini tuzishi kerak bo'ladi.

bir bo'limi bo'yicha auditorning ish hujjatlarida rasman aks ettirilgan xulosalari, auditorlik hisoboti (qurilish tashkilotlari rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasini tuzish uchun fakt materiali, shuningdek, qurilish tashkilotlarining moliyaviy hisoboti to'g'risida auditorning holis fikrini shakllantirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar hisobi auditini amalga oshirishda ular moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Accounting Standards), auditning xalqaro standartlari (International Auditing Standards), O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari va auditning milliy standartlari asosida amalga oshiriladi. Auditor tomonidan xarajatlar tekshirilayotganda ma'lum soha, ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chio'qan holda auditorlik tekshiruvi amalga oshiriladi. Masalan, auditor xarajatlarni hisobga olinishini tekshirishni boshlashdan oldin ichki nazoratning usulini test bilan aniqlashi lozim. Bizning fikrimizcha, bu nafaqat ichki nazorat tizimining ishonchliliginini baholash, balki auditorlik tekshiruvi o'tkazish dasturiga tuzatish kiritishga ham imkon yaratadi.


Auditorlik tekshiruvining yakunlari ma'lumki, auditor tekshiruvi yakuni bo'yicha tuzilgan hisobot bilan tamomlanadi. Auditor xulosasi audit tekshiruv o'tkazilayotgan

qurilish tashkilotlari moliya hisobotining ob'ektivligi va ishonchliligidan guvohlik beruvchi hujjatdir.

Tekshiruvning barcha zaruriy jarayonlari o'tkazilganidan so'ng auditor moliyaviy natijalar hisobi auditining rejasi va dasturining barcha bo'lim va moddalari to'liq va sifatli bajarilganligi, shuningdek, rejaning barcha xato va qonunbuzarliklarni aniqlash vositasi sifatidagi o'rnini baholashi lozim. Bundan tashqari auditor moliyaviy natijalar hisobi auditi natijalarini guruholashtirishi, tizimga solishi va analitik tahlilini o'tkazishi zarur.

Tekshiruv natijalarini guruholashtirish va tizimga solish audit ma'lumotlarini aniq bir ketma-ketlikda va aniq belgilari bo'yicha guruholashni anglatadi. Moliyaviy natijalar hisobi auditining natijalarini baholaganidan so'ng auditor auditorlik hisoboti va xulosasini tuzishga kirishadi. Auditorlik xulosasining shakli, tarkibi, ko'rinishlari va tuzilish tartibi O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik hisobotini tuzish tartibi» milliy auditorlik standartida belgilab berilgan.

Xalqaro amaliyot bo'yicha auditorlik tekshiruvi o'tkazilgach, auditor tekshirilayotgan-mijoz qurilish tashkilotlariga quydagi turdag'i xulosalarni berishi mumkin:



Xalqaro amaliyot bo'yicha auditorlik xulosalarining turlari. Qoniqarli auditor xulosasi bir qancha muammolarni o'z ichiga olishi mumkin. Auditor bunday xulosada moliya hisobotlaridagi axborotlar talabga javob berishi, unda ko'rsatilgan foyda va zararlar, pul mablag'larining harakati amaldagi buxgalteriya hisobi bo'yicha qonun va normativ hujjatlardagi talablarga javob berishi ko'rsatiladi.

Ma'lumki auditorlik standarti va audit xulosa standartlari mayjud:

- Xulosa qurilish tashkilotlarida tugallangan moliya hisobotlari xulosasida buxgalteriya qoidalariга rioya qilingan holda yoritilganmi?
- hisobot davrida oldingi hisobotda ko'rildagi ketma-ketlikka rioya qilinganmi?
- Xulosada moliya hisobotida talab qilinmaydigan fikr va mulohazalar mayjudmi?

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'ssatadiki, xulosalarning 90 foizi tushuntirish yozilmagan auditor xulosalariga to'g'ri keladi. Albatta, bunday xulosalarda quydagi besh qoidaga rioya qilish lozim:

1. Barcha zarur hisobot shakkllari balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni o'z ichiga olishi lozim. Jamg'arishga qo'yilgan foyda va niyoyat, pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobotlar moliyaviy hisobotga kiritilgan bo'lishi shart.
2. Auditor o'z xulosasini yozishda uch asosiy qoida: mutaxassislik, mustaqillik, kasb etikasiga rioya qilishi shchart.
3. Auditor xulosasida ob'ekt haqida uch andoza (rejali bo'lishi, ichki xo'jalik auditi, etarli axborotga egalik) bo'lishi kerak.
4. Moliyaviy hisobot umuman moliyaviy hisobot qoidalariiga mos kelishi lozim;
5. Barcha sharhnomalar tijorat sirini ochib tashlamasligi lozim (tushuntirish xatlari

talab qilinadigan fikrlar ko'zda tutiladi).

Auditorlik xulosasi barcha yuridik va jismoni shaxslar, davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, sud-tergov organlari uchun rasmiy yuridik hujjat hisoblanadi.


Buxgalteriya hisobotining majburiy auditining natijalari bo'yicha berilgan auditorlik hisobotining yakuniy qismi mazkur hisobotning ajralmas qismi bo'lib, yuridik kuchga ega.

Auditorlik xulosasi uch qismdan — kirish, analitik qism va xulosa.

Kirish qismida auditor (auditorlik firmasi) haqida ma'lumotlar beriladi. Kirish qismi auditorlik firmasi uchun alohida yoki auditorning o'ziga alohida tuziladi. Unda auditorning barcha rekvizitlari (nomi yoki familiyasi, litsenziya, uning muddati, kim tomonidan berilgani va boshqalar), oxirida auditorlik hisobotining oluvchilarini ko'rsatiladi.

Analitik qismi auditorning tekshiruvning umumiyl natijalari (ichki nazorat, buxgalteriya hisobi va hisoboti holati, shuningdek, iqtisodiy sub'ektning moliyaviy-xo'jalik muomilalarini amalga oshirishda qonunchilikka rioya qilishi) haqida iqtisodiy sub'ektga hisoboti aks ettiriladi.

Analitik qismda bo'limning nomi va kimga berilayotgani; Iqtisodiy sub'ekt nomi; audit ob'ekti; moliyaviy natijalar, ichki nazorat holati tekshiruvi umumiyl natijalari aks ettiriladi.



#### **Auditorlik xulosasining analitik qismidagi elementlar<sup>1</sup>**

Xulosa qismi o'z ichiga iqtisodiy sub'ektning moliyaviy natijalari to'g'ri shakllantirganligi va sof foyda va soliqqa tortiladigan baza to'g'ri aniqlanganligi va moliyaviy hisobot to'g'ri tuzilganligi haqidagi fikrini oladi.

Auditor xulosasining matnida quyidagilar bo'lishi lozim: hisobotning nomi, adresi-manzilgohi, kirish abzatsi, soha abzatsi (jumlesi), fikr abzatsi, mijoz firmasi, xulosa sanasi.

Moliyaviy natijalar hisobi auditi natijalarini rasmiylashtirishda qabul qilingan milliy auditorlik standartlaridan foydalanish auditor ishi samaradorligini oshiradi va sifatini yaxshilaydi.

<sup>1</sup>Tulaxodjaeva M.M va boshqalar. «Audit» (darslik). Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2008 y.

Respublikamizda bu borada ham bir qadar ijobjiy siljishlarga erishildi. Jumladan «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi qonunning qabul qilinishi ayniqsa muhim o'zgarish bo'ldi. Jumladan, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasiga surishtiruv idoralari, prokratura, tergov, sud idoralari auditorlik firmasiga qurilish tashkilotlarilarni tekshiruvdan o'tkazish bo'yicha topshiriqlar berishi mumkinligi to'g'risida aytildi.

Bu holat auditorlik faoliyatining «Mustaqillik» tamoyiliga to'g'ri kelmaydi. Chunki bu holat auditning asl mazmunini buzadi. Shuningdek, auditorlarning kriminal holatga aralashuvi uning huquqiy majburiyatlariga kirmaydi. Shu sababli, bu bandni umuman qonunchilik belgilovidan chiqarish lozim. Bu jihatdan, tegishli surishtiruv organlari tarkibida moliyaviy nazorat va tergov bo'limlarini ochish lozim.

Moliyaviy natijalar — foyda va zararlar audit va uni takomillashtirish yuzasidan quydagi savollarni aniqlash lozim:

1) audit kimlar tomonidan o'tkazilmoqda.

Ichki auditorlik bo'limi tomonidanmi

2) tashqi auditorlik firmalari tomonidanmi

Har ikkala holatda ham asosiy jihat hisob qatorlarining sifatiga, aniqligi va to'g'rilingiga baho berishga qaratilgan.

Moliyaviy natijalar — foyda va zararlar auditida asosiy jihat moliyaviy natijalar hisobining to'g'ri yuritilishiga, daromad va xarajatlarning yuzaga chiqish vaqtiga o'rni bo'yicha to'g'ri bog'lanishiga, foyda va zararlarning yuzaga chiqish shakli bo'yicha turkum ifodasining to'g'rilingiga, shuningdek, jarayonlarning hisob yozuvlarida aks ettirishi aniqligi, foydalilikni chuqur nazariy tahlil qilish omilli o'rganishi, foyda va zararlarni taqsimi bo'yicha hisob ifodasiga to'g'ri kuchirilishiga, soliqli to'lov larning aniqligiga, ularni hisobga olish raschotlari to'g'rilingini keng qamroqli o'rganishga qaratilgan holda real natijaviylikka baho tasdig'ini berish va uni o'strish yuzasidan, shuningdek, faoliyatda optimallikni ta'minlash yuzasidan amaliy choralarini belgilashni nazarda tutadi.

Yakuniy natija yoki yil bo'yicha foyda va zararlar, ta'sischilar, aktsionerlar, qarshi tomon e'tiboridagi asosiy masalalar sirasiga kiradi. Negaki, uning real shakli, harakat shartini belgilashda o'zaro bog'lanishlar, hamkorlik va uning qurilish tashkilotlari rivojini belgilashda muhim masala hisoblanadi.

Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijaviylik, foyda va zararlarni yuzaga chiqish vaqtiga o'rni bo'yicha hisobga olinishi uning aniqligi va to'g'rilingini o'rganish foyda va zararlar auditida muhim masala sifatida qaraladi. Audit shartida ham tekshiruvning ushbu asosga bog'lanishiga e'tibor beriladi. Bu jihatdan ayniqsa O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunining 13- moddasida belgilangan daromad va xarajatlarning to'plangan vaqtiga puli kelib tushishidan qa'iy nazar qaysi davrga taalluqli bo'lsa, o'sha davr hisob qatoriga kiritilishi shartiga amal etish tekshiriladi.

Foyda va zararlarning aniq ifodasiga chiqish avvalo sotishdan tushumlar va xarajatlarni hisobdan chiqarishning to'g'ri qatorlanishiga bog'liqdir. Shu jihatdan foyda va zararlar audit ko'p jihatdan kompleks o'zgaruvchanlik yuzasidan yondashuvlikni talab etadi. Ya'ni, yakuniy natijaviylikka chiqishda chegiriluvchi qatorlar sifatida qaraluvchi xarajatlarning mahsulotlar tannarxiga to'g'ri olib borilganligi hamda ularning yuzaga chiqish qatori bo'yicha to'g'ri turkumlanmaganligiga muhim e'tibor beriladi. Bu jihatdan aniqlik birinchidan, qurilish tashkilotlarida real natijaviylikni to'g'ri aniqlash, soliqlar to'lovi yuzasidan ham to'g'ri bog'lanishga chiqish imkonini beradi. Bu esa soliq nazoratida kamchilik va ulardan himoyalanish imkonini beradi.

Shuningdek, asosiy faoliyatda natijaviylik foyda va zararlar qatoriga kiruvchi boshqa faoliyatlardan olingen daromad va yo'qotishlarni asosiy vositalar material qiymatliklar va boshqa aktivlarni sotishdan, ijaraga berishdan olingen foyda va zararlarini to'g'ri hisobga olinishini tekshirish ularni hisobot shakllariga to'g'ri ko'chirilishini o'rganishga ham alohida ahamiyat beriladi.

Moliyaviy natijaviylik foyda va zararlar auditida muhim nazorat qatori sifatida muddati o'tgan debtorlik - kreditorlik majburiyatlarining holati o'rganiladi. Agarda muddati o'tib ketgan debtorlik majburiyatlarini qurilish tashkilotlari zarariga olib borilgan va bu tufayli katta yo'qotishlarga sabab bo'lingan bo'lsa uni undirib olish yuzasidan muddati o'tgunga qadar choralar belgilanganligi o'rganiladi.

Muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlar esa to'g'ridan to'g'ri qurilish tashkilotlari foydasiga olib borilgani holda to'liq samaralari hisobga olinmaydi. Ya'ni «foyda va zararlar» schyotiga to'liq summa olib boriladi.

Hozirda ushbu jihat, ya'ni debtorlik, kreditorlik majburiyatlarini nazorat qilish xalq xo'jaligida o'zaro hisob-kitoblar va ularning optimalligini ta'minlash yuzasidan davlat siyosatida e'tiborli qator sifatida nazorat ob'ektiga olingen. Jumladan muddatli oralig'i ikki oydan oshgan debtorlik, kreditorlik majburiyatlariga yo'l qo'ygan tashkilot, qurilish tashkilotlari rahbarlarini javobgarlikka tortish choralarini belgilangan.

Foyda va zararlar auditida asosiy jihat soliq to'lovi yuzasidan soliqqa tortiladigan bazaga to'g'ri chiqishni aniqlashdan iboratdir. Bu jihatdan joriy yilning hisob foydasi va unga qayta qo'shiluvchi xarajat moddalarining to'g'ri hisobga olinishini nazorat qilish muhimdir. Negaki qurilish tashkilotlar ko'p hollarda auditorlik tekshiruvini avvalo ushbu aniqlikka chiqish maqsadida o'tkazadilar. Bunda soliq bazasini aniqlashda qayta qo'shiluvchi xarajatlarning arkibili uslub qatoriga amal qilingan holda, har bir xarajat qatori bo'yicha aniq farqlanishlar berilishi lozim.

Moliyaviy natijalar — foyda va zararlarning taqsimi qatori bo'yicha to'g'ri yuritilishi va hisob qatorlariga to'g'ri ko'chirilishi, qurilish tashkilotlari sof foyda qatorida turli fondlarga ajratmalar, dividendlar summasining taqsimotlar qatoriga to'g'ri chiqilishini o'rganish, qurilish tashkilotlari dividend siyosatining amaly shakliga baho berish va shu kabi jihatlar ham auditorlik kuzatuvidagi muhim birlik hisoblanadi.

Shuningdek auditorlik tekshiruvi va uni takomillashtirish yuzasidan quyidagi jihatlarni qatorlashimiz mumkin:

Moliyaviy natijalar — foyda va zararlar auditii avvalo zaruriyatdan kelib chiqqan holda o'tkazilishi lozimligidan uning qurilish tashkilotlari uchun foydali bo'lgan tizimini shakllantirish lozim. Bizning asosiy etiborimiz ushbu bo'lim ish faoliigini oshirishga qaratilgan.

Uning ish faolligini oshirishning eng muhim sharti esa mutaxassis kadrlarning kasb mahoratini oshirish va ularning ish unumini (oshirishni) ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli xizmat bo'limlariga avvalo kuchli analitiklarni, ekspert, menejerlarni jalg qilish lozim. Negaki qurilish tashkilotlari farliyati natijaviyligi, uning faolligiga ham bog'liqdir.

Qurilish tashkilotlarda ushbu xizmat bo'limining ish faoliyatini imkon qadar ichki auditorlik xizmat darajasiga ko'tarish lozim.

Ayniqsa tarmoq tizimi bo'yicha ushbu xizmat bo'limini, ya'ni ichki auditorlik faoliyatini yo'lga qo'yish lozimdir. Bu jihat davlat tashkilotlarining yoki uning nomidan ish ko'ruvchi tashkilotlarning auditorlik firmalariga ta'sischi sifatida kirish masalalarini ham hal qilgan bo'lar edi.

Auditorlik faoliyatini takomillashtirish yuzasidan quyidagilarga alohida ta'kidlash lozim:

- ❖ Xarajatlarni me'yorlash yuzasidan aniqlikka chiqishda va ularning o'zgarishini hisob qatorlariga ko'chirish yuzasidan asos shartlarini va uning uslubiy jihatlarini belgilash aniqligiga chiqish;
- ❖ Tarmoq tizimi bo'yicha foyda va zararlarni yuzaga chiqish o'rni va shakli bo'yicha hisob qatorlariga chiqish aniqligini taminlash;
- ❖ Xarajat va daromadlarni hisobga olish yuzasidan qurilish tashkilotlari hisob siyosati, divident siyosatining ichki yo'riqlarni belgilash va unga amal etish darajasini o'rganish;
- ❖ Qurilish tashkilotlarda foydani maksimallashtirish yuzasidan imkon qadar taxliliy echimlar shartiga amal etish va uni o'stirish yuzasidan qator taklif qarirlarni berishga etibor qaratish;
- ❖ Qurilish tashkilotlarining yil yakuni bo'yicha oshkora elon qilinadigan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti yuzasidan aniqlik kafolatini tuliq auditorlik firmalari zimmasiga yuklash va h.k.

O'yaymizki, bu jihat o'zgarishlar va belgilashlar tarmoq tizimida buxgalteriya hisobi va nazoratini yo'lga qo'yishda va takomillashtirishda qo'l keladi.

## **7. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.**

Respublikamiz iqtisodiyotining jaxon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida asosiy vositalar hisobi va auditini isloh qilish respublikamizda mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, xalqaro standartlar doirasida tashkil etish va yuritishni talab etadi. Asosiy vositalar hisobini yuritishda, avvalo, hisob yuritish siyosatiga amal qilish lozim.

Hisob yuritish siyosati deganda xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tamoyil va me'yoriy qoidalariga mos ravishda yuritish va tuzish uchun qo'llaniladigan usullar majmui tushuniladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob yuritish siyosati sub'ekt tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzishda qo'llaniladigan o'ziga xos qoidalar va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi.

Buni ta'minlash uchun, avvalo xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosatida, xususan, asosiy vositalar hisobini tashkil etish va yuritish siyosati «Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1- son BXMSga asosan ishlab chiqilishi kerak. Asosiy vositalar hisobini tashkil etish va yuritish hisob siyosati quyidagilarni ta'minlashi lozim:<sup>2</sup>

- asosiy vositalar hisobi foydalanuvchilar extiyoji uchun axamiyatli bo'lishi;
- asosiy vositalar hisobini ishonchli bo'lishi;
- aynan shunday faoliyat yurituvchi boshqa sub'ektlarning asosiy vositalar yuzasidan moliyaviy hisobotlarini taqqoslash imkoniyatini berishi;
- asosiy vositalar hisobi tushunarli va oddiy bo'lishi lozim.

Asosiy vositalar hisobining umumiyl natijalarini o'zida aks ettiruvchi «Asosiy vositalar harakati to'g'risida»gi 3-son shakl hisobot ham mazkur 1-son BXMSga asosan ishlab chiqiladi va kerakli organlarga taqdim etiladi.

Asosiy vositalar hisobini yuritish va hisobotini tuzushni tashkil qilishning aniq yqnalishi bo'yicha sub'ektning hisob siyosati shakkantirilishida O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni va shu mavzuga tegishli qonun xujjatlarini qo'llash zarur.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy vositalar hisobini yuritish siyosatini tanlash

<sup>2</sup> «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-son BHMS. //Soliq to'lovchining jurnali, №11, 1998. 3-band.

va asoslashga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning tashkiliy xuquqiy shakli;
- mulkchilik shakli;
- faoliyat turi va tarmoq bo'ysunuvi;
- ishlab chiqarish ko'lami hamda ishlataladigan vositalar miqdori;
- soliqqa tortish munosabati;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektning harakat qilish erkinligi darajasi;
- moliya xo'jalik faoliyati shuningdek, asosiy vositalar va ularga mablag'larning yqnaltirilishining rivojlanish strategiyasi;
- boshqaruv faoliyatining texnik jihatdan qurollanganligi;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektni asosiy vositalar hisobi ma'lumotlari bilan ta'minlanishini samarali tizimining mavjudligi;
- asosiy vositalar hisobini yurituvchi buxgalter hodimining malakasi, tashabbuskorligi va tadbirdorligi;
- asosiy vositalar samadorligidan moddiy manfaatdorlik va majburiyatlar bo'yicha moddiy javobgarlik tizimi.

Asosiy vositalar hisobini yuritish tashkil etilgan hisob yuritish siyosati asosida tashkil etilib, u kalender yilda o'zgartirilmaydi.

Respublikamizda buxgalteriya hisobining milliy standartlari «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu standartlar buxgalteriya hisobi shakllari va usullarini tanlashda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini kengaytiribgina qolmasdan, hisob axborotining ishonchliligi uchun ularning ma'suliyatini ham talab etadi.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini isloh qilishda xalqaro tamoyillarga asoslangan hisobvaraqlar rejasining qabul qilinishi navbatdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Yangi hisobvaraqlar rejası O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritib kelayotgan korxonalarining tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishishida, jahon iqtisodiy integratsiyasiga qo'shilishida asosiy vosita bo'lib xizmat qildi.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi, O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi, o'z navbatida, mavjud qonunchilik bazasini doimiy ravishda takomillashtirib borishni, uni xalqaro me'yorlar va standartlarga moslashtirib borishni talab etadi.

Xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqqan holda, buxgalteriya hisobi va hisobotini soddallashtirilgan tizimi, xo'jalik yurituvchi sub'ektning olib borayotgan faoliyati va iqtisodiy ahvoli to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantirishda yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, buxgalteriya hujjatlarini barcha foydalanuvchilarga, jumladan, chet el investorlariga qulayligini oshiradi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning samarasini o'laroq, buxgalteriya hisobining milliy standartlari ishlab chiqilmoqda. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini ishlab chiqishda, avvalo, xalqaro standartlarga asoslaniladi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari Xalqaro buxgalteriya standartlari qo'mitasi (XBSQ) tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu qo'mita 1973 yilda to'qqiz mamlakat (Kanada, Avstriya, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Meksika, Niderlandiya, Buyuk Britaniya va AQSh)ning professional buxgalteriya tuzilmalari tomonidan ta'sis etilgan. Ayni vaqtga kelib mazkur tashkilot 30 dan ortiq standartni ishlab chiqdi va e'lon qildi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro talablarga muvofiq o'zgartirish keyingi vaqtarda respublikamizda tobora o'ziga xos masala bo'lib bormoqda. Bunga, birinchidan,

xalqaro bozorlarda ish olib boradigan kompaniyalar o'rtasida munosib muomala tili bo'lishini talab qiluvchi jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, ikkinchidan, xalqaro standartlarni chuqur o'rganish va ularni mamlakatimiz amaliyotida keng qo'llanish zarurligi sabab bo'lmoqda. Shu boisdan ham buxgalteriya hisobining milliy standartlarini ishlab chiqishda bevosita xalqaro standartlarga tayanilmoqda.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonunining ko'rsatmalari va moddalari buxgalteriya hisobining milliy standartlarida (BHMS) o'z rivojini topdi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning ish faoliyati davomiyligini ta'minlashda muhim o'rin tutuvchi asosiy vositalarni yuritish bo'yicha ham standartlar qabul qilingan. Bu «Asosiy vositalar» nomli 5-son BHMS bo'lib, u korxona, tashkilot va muassasalarda asosiy vositalarni hisobga olish tartibini belgilab beradi. Buxgalteriya hisobining milliy standarti O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya xisobi turisida»gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini me'yoriy jihatidan tartibga solish tizimining elementi bo'lib hisoblanadi.

Asosiy vositalarni hisobga olishdagi asosiy qoidalar ularni aktivlar deb e'tirof etish paytini aniqlash, bu aktivlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan ularni balans qiymati va amortizatsiya me'yorini aniqlash, shuningdek, asosiy vositalarning balans qiymatidagi boshqa o'zgarishlarni aniqlash va hisobga olish, amortizatsiya ajratmalarini hisoblab chiqarish va chiqarilgandan keyingi natijalarни hisoblab chiqarishdan iborat bo'ladi.

Mazkur standart asosiy vositalarni, agar ular 1-son BHMS «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» bo'yicha belgilangan ta'riflar va mezonzalarga mos kelsa, aktivlar deb e'tirof etishni talab qiladi.

«Asosiy vositalar» nomli 5-son BHMS xo'jalik sub'ektlari tomonidan barcha asosiy vositalarni, jumladan, muddatli ijrarani xam xisobga olish chog'ida qo'llaniladi, buxgalteriya hisobining boshqa standarti shartlari bo'yicha asosiy vositalar buxgalteriya hisobining boshqa uslubi qo'llanishi talab etilsa, yoki shunga yo'l qo'yish hollari bundan mustasno.

Shuningdek asosiy vositalar hisobini yuritishda «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-son BHMS, «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar» nomli 2-son BHMS, «Lizing hisobi» nomli 6-son BHMS, «Buxgalteriya balansi» nomli 15-son BHMS, «Buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan keyingi kutilmagan hodisa va xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladiqan voqealar» nomli 16-son BHMS, «Kapital qurilish bo'yicha pudrat shartnomalari» nomli 17-son BHMS, «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli 19-son BHMS, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasiga va uni qo'llash bo'yicha yo'rqnoma» nomli 21-son BHMSlaridan keng foydalaniлади. Ushbu standartlar va shu kabi boshqa me'yoriy hujjatlar asosiy vositalar hisobi va ularni auditini tashkil etish hamda yuritish uchun xuquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Asosiy vositalar hisobi mazkur standartlar doirasida tashkil etilganligi va yuritilishini tekshirish va shunga ko'ra baho berish asosiy vositalar yuzasidan o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvining asosiy e'tibor qaratiladigan tomonini tashkil qiladi.

Hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatining moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan natijalarни baholash masalalariga yangicha, zamonaliv yondashuv uslublari juda ham zarur. Bu mavjud nazariy, tashkiliy - huquqiy asoslar va amaliy muammolar bo'yicha auditorlik faoliyatining sifatini oshirish, hamda respublikamizda tashqi va ichki audit tekshiruvlarini zamonaviy darajada tashkil qilish va uni rivojlantirish borasida chuqur tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etmoqda. Bir tomonidan, auditorlik faoliyatining xalqaro tajribalariga tizimli yondashish, ularni chuqur tahlil qilish, boshqa tomonidan bozor iqtisodiyotining jahon hamjamiyatida e'tirof etilgan o'zbek


modelining xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarimizdan yuqori darajada foydalangan holda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanuvchilar uchun nazoratning maxsus tashkiliy shakli - auditni istiqbolli rivojlantirish zarurligi ayon bo‘lmoqda.



#### **Tovar - moddiy zahiralar hisobining vazifalari**

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanishi natijasida turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini samarali tashkil etish va ularga professional

auditorlik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bugungi kunda dolzARB masalalardan biri hisoblanadi. Auditorlik faoliyatini tartibga soladigan huquqiy-me'yoriy tizimni iqtisodiy islohotlar talablariga mos ravishda rivojlantirishga bog'liq. Demak, auditorlik xizmatlarni va auditorlik faoliyatini samarali amalga oshirish ko'p jihatdan me'yoriy-huquqiy asoslarga bog'liq bo'lib hisoblanadi.



#### **Tovar - moddiy zahiralar auditining ma'lumot manbalari**

Tovar - moddiy zahiralarni hisobga olishni tartibga soluvchi, ular bilan bog'liq operatsiyalarni huquqiy jihatdan to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlovchi hamda audit tekshiruvlarini amalga oshirishda qo'llaniladigan bir qancha qonun hujjatlari mavjud, jumladan :

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
- ✓ "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun;
- ✓ "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun;
- ✓ Auditorlik faoliyatining milliy standartlari;
- ✓ 4-son "Tovar - moddiy zahiralar" BHMS;
- ✓ 19-son "Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish" BHMS;
- ✓ "Tovar - moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalar berish va ularni

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxini kamaytirishdek muhim vazifani hal qilishda ishlab chiqarish resurslarini to'g'ri sarflash, belgilangan sarflash normativlariga rioya qilish, iqtisod qilish tartibini amalda keng qo'llash lozim. Shuning uchun, hozirgi sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni to'g'ri tashkil qilishga katta ahamiyat berilmogda.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish vazifalari quyidagilardan iborat:

- Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarni o'z vaqtida, to'liq hisobda aks ettirish;

- Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida moddiy pul va mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish ustidan nazorat olib borishni ta'minlash;

- Hajmi, sifati, assortimenti bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishini nazorat qilish;

- Mahsulot ayrim turlarining haqiqiy tannarxini hisoblash.

- Tannarx bo'yicha reja topshirig'i bajarilishini nazorat qilish;

- Ishlab chiqarishda foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlash, xo'jasizlikka, yaraqsiz mahsulotga, nobudgarchiliklar va boshqa ishlab chiqarishdagagi unumsiz xarajatlarning bo'lishiga qarshi kurash olib borish;

- Ishlab chiqarish – xo'jalik hisobi faoliyati natijalarini aniqlash;

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish orasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagilda ifodalanadi:

- Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish oldiga bir xil vazifa qo'yildi, ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni o'z vaqtida va to'liq hisobda aks ettirish, ishlab chiqarishda material hamda boshqa tovar-moddiy boyliklarining sarflanishi ustidan nazorat olib borish va hokazo.

- Rejallashtirish, xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda kalkulyatsiya moddalarining bir xil guruhanishidan foydalaniladi.

- Xarajatlarni hisobga olish ma'lumotlari asosida kalkulyatsiya tuziladi va tannarx aniqlanadi.

- Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilishda xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya qilishning bir necha xil, ya'ni, oddiy, normativ, buyurtmali, bo'limli va boshqa usullari qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan o'xshashliklar xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni bir-biri bilan o'zaro bog'langan holda yoritishni taqozo etadi. Ishlab chiqarish hisobi va mahsulot tannarxini to'g'ri kalkulyatsiya qilishni tashkil qilmasdan turib sanoat korxonalari ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarib bo'lmaydi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar ishlab chiqarish jarayonidagi roliga ko'ra: asosiy va ustama xarajatlarga bo'linadi. Asosiy xarajatlar bu mahsulot ishlab chiqarishda ustunlik qiluvchi xarajatlardir. Masalan, ish haqi, ozuqa qiymati, asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va boshqalar.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida ustama xarajatlarga esa ishlab chiqarishni tashkil etish va korxonani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardir. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarini mahsulot tannarxiga kiritish jihatidan ular bevosita va bilvosita xarajatlarga bo'linadi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar tarkibiy tuzilishiga qarab oddiy va kompleks xarajatlarga

bo'linadi. Oddiy xarajatlarga mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bir element holida foydalilanidigan hamda mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri qo'shiladigan xarajatlar kiradi.

Kompleks xarajatlarga mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bir qancha oddiy xarajatlarning birgalidagi sarflanib, mahsulot tannarxiga qo'shilishi kiradi. Ishlab chiqarish hajmiga nisbatan xarajatlar shartli o'zgaruvchan va shartli o'zgarmas xarajatlarga bo'linadi. Ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida shunga bog'liq holda boshqa xarajatlarning ham orta borishi – shartli o'zgaruvchan xarajatlar, deb yuritiladi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida agarda ishlab chiqarish hajmi o'zgargan holda xarajatlar hajmi o'zgarmay qolsa – bunday xarajatlar shartli o'zgarmas xarajatlar, deb aytildi. Masalan, ma'muriy boshqaruv xodimlari foydalananidigan binolar eskirishi va boshqalar. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish jarayonida qatnashish muddatiga qarab xarajatlar – joriy va kelgusi yil xarajatlariga bo'linadi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar faqat joriy yil uchun tegishli bo'lsa, bunday xarajatlar joriy yil xarajatlari, deb ataladi. Agarda xarajatni kelgusi yilda sarflash nazarda tutilsa yoki joriy yildan kelgusi yilga o'tib ketsa, bunday xarajatlarga kelgusi yili xarajati deb aytildi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni me'yorda ushlab turish yoki ularni me'yordan ortiqcha sarflanishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash uchun javobgarlik markazlarini aniq belgilash va uning faoliyatini keng yo'lga qo'yish talab etiladi. Javobgarlik markazlari - ma'lum ta'limot hisoblanib, boshqaruv xodimlari xattiharakatini tashkil etishga yo'naltirishning yangi psixologik talqini bo'lib, uning maqsadi nazoratdan ko'ra ko'proq o'z-o'zini boshqarishni tashkil etishda boshqaruv xodimlariga yordam berishdan iboratdir

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasining asosiy javobgarlik markazlari bevosita mahsulot ishlab chiqarish, iste'molchilar uchun ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Ularning xarajatlari bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Asosiy ishlab chiqarish uchastkasi va sexlarni, sotish bo'limini ana shunday markazlarga kiritish mumkin.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasi javobgarlik markazining har biri bir vaqtning o'zida xarajatlar, daromadlar, foya yoki investitsiyalar markazi bo'lishi mumkin. Ular birinchi holda xarajatlar, ikkinchi holda sotishlar (ki-rim) hajmi, uchinchi holda – foya va to'rtinchi holda investitsiyalar hajmi va qoplanish muddatlari bo'yicha tuziladi. Markaz rahbari vazifalarini bajarish uchun qabul qilgan majburiyatlari qatori moliyaviy javobgarlikni ham zimmasiga olishi shart. Bunda har bir markaz xilma-xil funktsiyalarni bajarishi mumkin (ishlab chiqarish, marketing, texnik xizmatlar, hisob, nazorat va h.k.). Chunki muayyan olingan funktsiyalar yoki vositalar emas, balki inson, agent, ma'mur markaz obekti bo'lib hisoblanadi. Korxona javobarlik markazini gorizontal va vertikal kesimlarda ko'rib chiqish markazlashtirilgan rahbariyatni umumiy maqsadga korxona tuzilmaviy bo'linmalari rahbarlarining iloji boricha eng ko'p tashabbusi bilan qo'shib yuborishga imkon beradi.

1-jadval<sup>3</sup>

Asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar

T.r.	h.v. №	hisobvaraq nomi	h.v. turkumi
1	0110	«Er»;	A
2	0111	«Erni obodonlashtirish»;	A

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining 21-sون BHMS

3	0112	«Moliyaviy lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni o'zlashtirish»;	A
4	0120	«Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar»;	A
5	0130	«Mashina va jihozlar»;	A
6	0140	«Mebel va ofis jihozlari»;	A
7	0150	«Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi»;	A
8	0160	«Transport vositalari»;	A
9	0170	«Ish hayvonlari va mahsuldor hayvonlar»;	A
10	0180	«Ko'p yillik ekinlar»;	A
11	0190	«Boshqa asosiy vositalar»;	A
12	0199	«Konservatsiya qilingan asosiy vositalar».	A

O'z navbatida shuni ta'kidlab qtish joizki, buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari asosida va O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq asosiy vositalar va ularni amortizatsiyasi hisobini tashkil etish va yuritish tamoyillari quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- asosiy vositalar hisobini ikki yoqlamali yozuv asosida yuritish;
- asosiy vositalar hisobini uzlucksiz yuritish;
- asosiy vositalarni pulda baholanishi;
- asosiy vositalar hisobi ma'lumotlarini aniqligi;
- asosiy vositalar hisobida hisoblash tamoyili;
- asosiy vositalar hisobini yuritishda oldindan ko'ra bilish;
- asosiy vositalar hisobida mazmunning shakldan ustunligi;
- asosiy vositalar hisobida ko'rsatkichlarning jipslanuvchanligi;
- asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotning betarafligi;
- asosiy vositalardan ko'rilgan daromadlarning hisobda to'g'ri aks ettirilganligi;
- asosiy vositalarga qilingan xarajatlarning hisob ob'ektlarida to'g'ri ifodalanganligi;
- asosiy vositalarning haqiqiy baholanishi.

Ushbu qoidalalar doirasida asosiy vositalar hisobi tashkil etiladi va yuritiladi. Hisob tamoyillari va standartlari asosiy vositalar hisobini yuritishda asos bo'lish bilan birgalikda, respublikada asosiy vositalar hisobining yagonaligini ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Shunday xususiy mulkchilikning miqyosi va ulushi o'sib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikni asosini ta'min etuvchi mulkdorlar sinfiga ularning tasarrufidagi mulklari to'g'risida to'liq, ishonchli va tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish bo'yicha iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish kerakligi talab etiladi. Bu qabul qilinayotgan milliy standartlarimiz, ishlab chiqilayotgan me'yoriy hujjatlarimizda o'z aksini topmoqda.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy vositalar hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarini o'z vaqtida to'liq hamda aniq asosiy vositalar yuzasidan moliyaviy va boshqa buxgalteriya axborotlari bilan ta'minlash hisoblanadi.

Ushbu jumladan kelib chiqqan holda, buxgalteriya hisobining foydalanuvchilar va qiziquvchilarini asosiy vositalar hisobi yuzasidan to'liq va ishonchli ma'lumotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy vositalar hisobi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- mulkchilik usulidan qat'iy nazar asosiy vositalar hisobini O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni, buxgalteriya hisobining milliy standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etish va yuritishi;

- mavjud asosiy vositalarni me'yoriy hujjatlar asosida baholanishini ta'minlanishi;
- asosiy vositalarning harakatini hisobda to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirish;
- boshqa aktivlardan asosiy vositalarni ajratilgan holda guruhlarga turkumlab, ularni hisobini yuritishni tashkil etish;
- asosiy vositalarning holati va saqlanishini hisobga olish, turgan joyi (foydalananish joyi) bo'yicha mavjudligi va saqlanishini, ayrim hollarda ularning saqlanishi uchun ma'sul bo'lgan shaxslar bo'yicha nazorat qilish;
- asosiy vositalarning eskirishini to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqish va uni hisobda to'g'ri aks ettirish;

#### **8.Qurilish tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar va asosiy vositalar auditining umumiyl rejasini va ish dasturini tayyorlash xususiyatlari.**

Asosiy vositalarni audit qilishdan oldin audit dasturi tuziladi. Audit dasturi audit umumiyl rejasini rivojlantirish hisoblanadi va audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalari mazmunining bat afsil ro'yxatini o'z ichiga oladi. Dastur auditor yordamchilari uchun bat afsil yo'rqnoma bo'lib xizmat qiladi va bir vaqting o'zida auditorlik tashkiloti va auditorlik guruhining rahbarlari uchun ish sifatini nazorat qilish vositasi hisoblanadi.

Auditor audit dasturini hujjatli rasmiylashtirishi, har bir bajariladigan auditorlik rusum-qoidasini raqam yoki kod bilan belgilashi kerak, toki auditor ish jarayonida o'zining ish hujjatlarida ularga havola qilish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Mazmuniga ko'ra auditorlik taomillari o'z ichiga buxgalteriya hisobida hisobvaraqlar bo'yicha aylanmalar va qoldiq to'g'ri aks ettirilganligini bat afsil tekshirishni oladi. Auditorlik taomillari dasturi ana shunday aniq bat afsil tekshirishlar uchun auditor harakatlari ro'yxatidan iborat bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra taomillar uchun auditor buxgalteriya hisobining ayni qanday bo'limlarini tekshirishini belgilashi va buxgalteriya hisobining har bir bo'limi bo'yicha audit dasturini tuzishi kerak bo'ladi.

#### **AUDIT DASTURI**

Tekshirilayotgan tashkilot	«TALYANA» XK
Auditni o'tkazish davri	<u>15.03.2017-20.03.2017</u>
Auditorlik guruhi rahbari	Xakimov S.
Auditorlik guruhi tarkibi	Xalilov T., Xakimov S.
Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari	6%
Rejalashtirilayotgan muhimlik darajasi	4%

	Audit bo'limlari bo'yicha auditorlik tadbirlari ro'yxati	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Auditorning ish xujjatlari	Izohlar
1.	Asosiy vositalar hisobini yuritish hisob siyosatida qayd etilganligi	16.03.2017	Xakimov S.	Hisob siyosati	
2.	Asosiy vositalar kirimi va chiqimi qayd etish hujjatlarning mavjudligi	16.03.2017	Xalilov T.	13-jurnal-order	

3.	Asosiy vositalarni inventar hisobi hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish	16.03.2017	Xakimov S.	13-jurnal-order	
4.	Asosiy vositalarga amortizatsiya ajratmalarining xarjatlarga to'g'ri o'tkazilganligini tekshirish	16.03.2017	Xalilov T.	13-jurnal-order, smeta	
5.	«Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarining to'g'ri qayd etilganligini tekshirish	16.03.2017	Xakimov S.	13-jurnal-order, Bosh daftar, balans,	

**Uning nomidan auditorlik xulosalariga imzo chekish huquqiga ega bo'lgan auditorlik tashkiloti rahbari:**  
**Auditorlik guruhi rahbari:**

Qodirov T.

Xakimov S.

Mazmuniga ko'ra auditorlik taomillari o'z ichiga buxgalteriya hisobida hisobvaraqlar bo'yicha aylanmalar va qoldiq to'g'ri aks ettirilganligini batafsil tekshirishni oladi. Auditorlik taomillari dasturi ana shunday aniq batafsil tekshirishlar uchun auditor harakatlari ro'yxatidan iborat bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra taomillar uchun auditor buxgalteriya hisobining ayni qanday bo'limlarini tekshirishini belgilashi va buxgalteriya hisobining har bir bo'limi bo'yicha audit dasturini tuzishi kerak bo'ladi.

Auditni o'tkazish shartlari va auditorlik taomillari natijalarining o'zgarishiga bog'liq holda audit dasturi qayta ko'rib chiqilishi mumkin. O'zgarishlarning sabablari va natijalari hujjatlashtirilishi kerak.

Auditorlik dasturining har bir bo'limi bo'yicha auditorning ish hujjatlarida rasman aks ettirilgan xulosalari auditorlik hisoboti (xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos materiali, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti to'g'risida auditorning xolis fikrini shakllantirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Asosiy vositalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish mijoz-korxona faoliyati umumiy auditining bir qismi hisoblanadi. Uning maqsadi buxgalteriya hisoboti asosiy vositalar bo'limining ishonchliligi to'g'risida fikr shakllantirish va korxonada asosiy vositalar bilan bog'liq muomalalarni hisobga olish hamda soliqqa tortish uslubiyotini tashkil etishning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Asosiy vositalar auditi auditorlik tekshiruvining muhim ob'ektlaridan biri bo'lib, undagi o'r ganiladigan masalalar keng qamrovli va ularning barchasini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- asosiy vositalar mavjudligi va saqlanish holati ustidan nazorat o'rnatishni ta'minlash (ob'ektlarni asosiy vositalar qatoriga kiritishning to'g'rili; asosiy vositalarning to'g'ri turkumlanishi; asosiy vositalar analitik hisobi va asosiy vositalar uchun moddiy javobgarlikni tashkil etish; analitik va sintetik hisob hamda hisobot ma'lumotlarining mosligi);

- asosiy vositalar kirimi va chiqimiga doir muomalalarni dastlabki hujjatlashtirish hamda hisobda aks ettirish; asosiy vositalar kirimi va chiqimiga doir muomalalarni sintetik hisob registrlarida aks ettirish; asosiy vositalar kirimi va chiqimiga doir muomalalarni soliqqa tortish;

- asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash va hisobda aks ettirish (asosiy vositalarning foydali xizmat qilish muddatini aniqlashning to'g'rili); amortizatsiya

hisoblash usullarini qo'llashning qonuniyligi va to'g'riliqi; jadallashtirilgan amortizatsiya usulini qo'llashning qonuniyligi; amortizatsiya ajratmalari hisob-kitoblarining to'g'riliqi; amortizatsiya ajratmalarini hisobda aks ettirishning to'g'riliqi;

- asosiy vositalarni tiklashni - ta'mirlash, zamonaviyash-tirish va qayta jihozlashni hisobda aks ettirish (muomalalarni hujjatlarda rasmiylashtirish; ta'mirlash usullari; ta'mirlash xarajatlarini tannarxga olib borishning to'g'riliqi; asosiy vositalarni qayta jihozlash va zamonaviyash-tirishga doir muomalalarni hisobga olish);

- asosiy vositalar korxona buxgalteriyasidagi sintetik va analitik hisobining holatini baholash; belgilangan qoidalarga muvofiq korxonaning o'ziga qarashli (0110-0199 schyotlar), joriy tartibda ijara olingan (001-schyot) va moliyaviy lizing asosida olingan asosiy vositalarni (0310-schyot) saqlash joylarida moddiy javobgar shaxslar bo'yicha hisobga olishning tashkil etilishini baholash;

- korxonaning o'ziga qarashli va moliyalanadigan lizing aso-sida olingan asosiy vositalar bo'yicha oylik eskirish hisob-lanishining to'g'riliqini tekshirish (0211-0299-schyotlar). Chunki, bu ma'lumotlar realizatsiya qilinadigan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxining (2010, 2310, 2510, 2710 schyotlar debeti) shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, oqibatda korxonaning moliyaviy natijalari (balans foydasi yoki zarari) va byudjetga to'lanadigan foyda (daromad) solig'ining miqdoriga ta'sir etadi;

- asosiy vositalarning sotib olinishi va hisobdan chiqqa-rilishi hamda ularni yuridik va jismoni shaxslardan ijara olish bilan bog'liq muomalalar bo'yicha soliq qonunchiligiga rioya qilinishini tekshirish;

- asosiy vositalarni xo'jalik va pudrat usullarida (kapital yoki joriy) ta'mirlash xarajatlarini hisobga olishning kor-xonada amal qilinayotgan tartibini, korxonada bir yilga qabul qilingan hisob yuritish siyosatidan kelib chiqqan holda baholash va tekshirish (asosiy vositalarni ta'mirlash uchun rezervga mablag' ajratish mexanizmidan foydalanib yoki foydalampusdan);

- agar auditor bilan tuzilgan shartnomada kelishilgan bo'lsa, korxonada asosiy vositalardan foydalanishni vaqt oralig'i va quvvati bo'yicha korxonaning ishlab chiqarish xususiyatlari hisobga olingan holda tahlil qilish;

- asosiy vositalarni baholash va qayta baholash natija-larini tekshirish.

Auditor ushbu asosiy masalalarni o'rganib, ularga auditorlik hisobotining tahliliy qismida baho berishi va yo'l qo'yilgan xatolar hamda hisobning belgilangan qoidalardan chetga chiqish hollarini bartaraf qilish bo'yicha takliflar berishi lozim.

Auditor asosiy vositalar auditini boshlashda xo'jalikka kelishi bilan birinchi navbatda quyidagilarni aniqlashi zarur:

- korxonaning asosiy vositalar hisobini tashkil qilish bo'yicha tekshirilayotgan hisobot davridagi hisob yuritish siyosati, uning o'tgan hisobot davridagiga nisbatan o'zgarishi bilan tanishish;

- asosiy vositalarning so'nggi invetarizatsiya(ashyoviy ro'y-xat)dan o'tkazilishi va uning natijalarini aniqlashi;

- asosiy vositalarni so'nggi qayta baholash materiallari va ularning hisobda aks ettirilishi bilan tanishish. Bunda auditor O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining tegishli me'yoriy hujjatlariga muvofiq korxona balansida turadigan va qayta baholangan asosiy vositalar tik-lanish qiymati bo'yicha aks ettirilishini nazarda tutishi lozim.

- korxonada asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo'yicha doimiy komissiya tashkil etilishi: asosii vositalarni foy-dalanish joylarida saqlash uchun javobgar shaxslar

haqida buyruk (farmoyish) ning mavjudligini tekshirish, shuningdek, ular bilan shaxsan to’la moddiy javobgarlik to’g’risida shartnomalar tuzilganligini aniqlash;

- tadbirkor sifatida ro’yxatga olingan va ro’yxatga olin-magan yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan asosiy vositalar ijarsi bo’yicha tuzilgan shartnomalarni o’rganish:;
- buxgalteriyada asosiy vositalar kartotekasi (AV-6 va AV-8 shaklidagi inventar kartochkalar) va komp’yuterda yoki qo’lda baja-riladigan variantdagi aniq inventar ro’yxati (AV-9 shakl) yuri-tilishiga ishonch hosil qilish lozim;
- ishdan bo’shab ketgan moddiy javobgar shaxslar haqida ma’lumotlar (buyruqlar, xodimlar ro’yxati)ni o’rganish;
- asosiy vositalar hisobini yuritish qoidalari bayon qilin-gan amaldagi me’yoriy hujjatlar va asosiy vositalar hisobiga doir yagona shakldagi (unifikatsiyalangan) idoralararo dastlabki hujjatlarning shakllari bilan korxona buxgalteriyasi qay dara-jada ta’minlanganligini aniqlash.

Shu tarzda olingen ma’lumotlar auditorga mazkur korxonada asosiy vositalar hisobining tashkil etilishi haqida umumiylasavvurga ega bo’lish imkonini va tekshiruvda maxsus e’tibor berish lozim bo’lgan masalalarni aniqlashga yordam beradi.

№4-«Tovar-moddiy zahiralar» nomli BHMS ga muvofiq tugallanmagan ishlab chiqarish, ish va xizmat ko’rinishidagi korxona aktivlari ham tovar- moddiy zahiralar hisoblanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishlarga ishlab chiqarish jarayonining barcha texnologik bosqichlaridan o’tmagan mahsulotlar hamda komplektlanmagan, sinovdan va texnik qabuldan o’tmagan buyumlar kiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashning turli usullari mavjud: haqiqiy o’lchov, donabay o’lchov, hajmini o’lchash, shartli qayta baholash va b. Ommaviy yoki seriyali ishlab chiqarishda hisobot davringa oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishlar qoldiqlari normativ yoki rejadagi ishlab chiqarish tannarxi (to’liq yoki to’liqmas) bo’yicha, bevosita xarajat moddalari bo’yicha hamda xom-ashyo, materiallar va yarim fabrikatlar qiymati bo’yicha baholanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashning ishonchliligi to’g’risida fikr shakllantirish ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxini auditorlik tekshiruvidan o’tkazishning muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni auditorlik tekshiruvidan o’tkazish jarayonida quyidagi masalalarni o’rganish zarur:

- xarajatlar hisobining ahvoli;
- inventarizatsiya o’tkazishning o’z vaqtidaligi va to’g’riligi;
- inventarizatsiya natijalarini aks ettirishning ishonchliligi;
- tugallanmagan ishlab chiqarishning texnologiyasi va belgilangan me’yorlariga (agar ular korxonda tasdiqlangan bo’lsa) rioya qilinishi va uni baholashning to’g’riligi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishlarni inventarizatsiya qilish «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to’g’risidagi Nizom» va u asosida ishlab chiqilgan tarmoq yo’riqnomalarida belgilangan tartibga muvofiq ularning hajmi va haqiqiy tannarxini aniqlash maqsadidan iborat.

Sanoat korxonalar qismida, masalan, quyidagilar zarur:

- mahsulotlar ishlab chiqarishi boshlangan (detallar, qismlar, agregatlar) va ishlab chiqarilishi hamda yig’ilishi tugatilmagan, ishlab chiqarishda bo’lgan haqiqatda borligini aniqlash.

Sanoat korxonalar qismida, masalan, quyidagilar zarur:

- mahsulotlar ishlab chiqarishi boshlangan (detallar, qismlar, agregatlar) va ishlab chiqarilishi va yig'ilishi tugatilmagan, ishlab chiqarishda bo'lgan haqiqatda borligini aniqlash;
- hisobga olinmagan yaroqsizini aniqlash;
- tugatilmagan ishlab chiqarishning haqiqiy jihozlanishi va qismlar bilan yig'ilishini ta'minlanganligini aniqlash;
- tugatilmagan ishlab chiqarish qoldig'ini bekor qilingan buyurtmalar, shuningdek, bajarilishi to'xtatib qo'yilgan buyurtmalar bo'yicha aniqlash;
- ishlab chiqarishda bo'lgan ishlab chiqarish boshlangan (detallar, qismlar, agregatlar) va mahsulotlar ishlab chiqarilishi va yig'ilishi tugatilmaganining haqiqiy qiymatini aniqlash.

Inventarizatsiyani boshlashdan oldin sexlarga kerak bo'lмаган barcha materiallar, sotib olingan detallar va yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek, mazkur bosqichda ishlov berilishi tugatilgan detallar, qismlar va agregatlar omborxonaga topshirilishi kerak.

Sexlardagi boshlab qo'yilgan tugallanmagan ishlab chiqarishlar va yarim tayyor mahsulotlar ularning miqdorini to'g'ri aniqlash va qulay sanalishini ta'minlaydigan tartibga keltirilgan bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarilishi tugallanmagan mahsulotlarning (detallar, qismlar, agregatlar) qoldig'i haqiqatda sanash, tortish, o'lchash yo'li bilan tekshirilib amalga oshiriladi.

Ro'yxatlar har bir sex (uchastka, bo'linma) bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishlar nomi, ularning tayyorlik darajasi, soni yoki hajmi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha ish hajmi ko'rsatilib; tugallanmagan korxonalar, ularning navbatlari, ob'ektlar, ishga tushiriladigan majmualar, qaysiki ular bo'yicha hisob-kitoblar ular to'liq tugatilgandan keyin oraliq to'lovlarsiz amalga oshiriladi; konstruktiv elementlarning tugallanmagan qismlari va ishlarining turlari bo'yicha alohida tuziladi.

Ish joylarida qayta ishlanishi boshlanmagan xom ashyo, materiallar va sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar tugallanmagan ishlab chiqarish ro'yxatiga kiritilmaydi, alohida inventarizatsiya qilinadi va alohida ro'yxatlarda qayd qilinadi. To'liq yaroqsiz deb topilgan detallar ham tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibiga kiritilmaydi.

Bir xil bo'lмаган massa yoki qorishmadan iborat bo'lgan tugallanmagan ishlab chiqarishlar bo'yicha (sanoatning tegishli tarmoqlarida) inventarizatsiya ro'yxatlarida, shuningdek, solishtirish vedomostlarida ikkita miqdoriy ko'rsatkich keltiriladi: ushbu massa yoki qorishma miqdori va uning tarkibiga kiruvchi xom ashyo miqdori yoki materiallar (alohida nomlari bo'yicha). Xom ashyo va materiallarning miqdori tarmoq yo'rqnomalari bilan belgilangan tartibda texnik hisob-kitob bo'yicha aniqlanadi.

Tugallanmagan kapital qurilish soni va hajmi inventarizatsiya paytida uning haq to'langan qismini hamda tekshirish yo'li bilan aniqlanadi. Inventarizatsiya dalolatnomalarida ob'ektning nomi va ushbu ob'ekt bo'yicha bajarilgan ishlarining, konstruktiv elementlarning va jihozlarning har bir alohida turi bo'yicha ko'rsatiladi. Xususan, inventarizatsiya komissiyasi quyidagilarni tekshiradi.

- tugallanmagan kapital qurilish tarkibida montajga berilgan, lekin haqiqatda montaji boshlanmagan uskunani hisobda turganligi yoki yo'qligi;
- qurilishi butkul to'xtatilgan yoki vaqtincha to'xtatilgan qurilish ob'ektlarining ahvoli.

Mazkur ob'ektlar bo'yicha, qisman, ularni butkul to'xtatish sabablari va asoslarini aniqlash kerak.

Haqiqatda foydalanishga to'liq yoki qisman topshirilgan, qabul qilinishi va ishga tushirilishi tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan, qurilishi tugallanganmagan ob'ektlarga alohida dalolatnomalar tuziladi. Alohida dalolatnomalar tugallangan, lekin nima uchundir foydalanishga topshirilmagan ob'ektlarga ham tuziladi. Mazkur dalolatnomalarda ko'rsatilgan ob'ektlar foydalanishga topshirilishini rasmiylashtirishning kechiqtirilganlik sabablari ko'rsatiladi.

Balansdan chiqarilishi kerak bo'lган qurilishi tugatilgan ob'ektlarga, shuningdek, qurilishi amalga oshirilmagan ob'ektlar bo'yicha loyiha-izlanish ishlari bajarilgan ishlar xususiyati va ularning qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar qurilishning to'xtatilishi sabablari ko'rsatilib dalolatnomalar tuziladi.

Buning uchun tegishli texnik hujjatlar, ishlar, bosqichlar topshirilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, qurilish ob'ektlarida bajarilgan ishlarni hisobga olish jurnali va boshqa hujjatlardan foydalanish kerak bo'ladi.

Binolar, inshootlar, mashinalar, uskunalar, energetik jihozlar va boshqa ob'ektlar qonunsiz kapital ta'mirlanganining inventarizatsiyasi bajarilgan ishlarni naturada tekshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tugallanganmagan kapital ta'mirlash bo'yicha ta'mirlanayotgan ob'ektning nomi, bajarilgan ishlarning nomi va bajarilish foizi, bajarilgan ishlarning smeta bo'yicha va haqiqiy qiymati ko'rsatilgan dalolatnoma tuziladi.

Qishloq xo'jaligida tugallanganmagan ishlab chiqarishni tekshirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hollarda qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulotlar tannarxini pasaytirib ko'rsatish maqsadida tugallangan ishlab chiqarishlarga taalluqli xarajatlarning bir qismi tannarxga olib borilmasdan, tugallanganmagan ishlab chiqarish tarkibiga qo'shiladi. Bu birinchidan, mahsulotlar tannarxini sun'iy ravishda pasay-tirilishiga olib kelsa, ikkinchidan, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining buzib ko'rsatilishiga olib keladi. Shuning uchun auditor qishloq xo'jaligida tugallanganmagan ishlab chiqarishni tekshirishda texnologik jarayonlarni, norma va normativlarni hamda haqiqiy xarajatlarni tasdiqlovchi barcha buxgalteriya hujjatlarini sinchiklab tekshirish lozim.

Auditorlik amaliyoti shuni ko'rsatmoqda-ki, tugallanganmagan ishlab chiqarishni inventarizatsiya qilish ko'p hollarda o'lда-jo'lда, sifatsiz va nomuntazam o'tkaziladi hamda uning natijalari buxgalteriya hisobida to'liq, ayrim hollarda esa umuman aks ettirilmaydi.

Bunday holatlar mahsulotlar tannarxining asossiz oshib yoki sun'iy ravishda pasayib, moddiy boyliklar saqlanishi ustidan nazoratning susayib ketishiga olib keladi.

Agar korxonaning xo'jalik faoliyati jarayonida oldin boshlangan buyurtmalarni to'xtatib qo'yish hollari mavjud bo'lsa, auditor qolgan moddiy boyliklarning qanday ishlatilganligi, bekor qilingan buyurtmalarga doir yo'qotishlar qanday aniqlanganligi va buxgalteriya hisobida qanday aks ettirilanligini tekshirishi lozim. Ta'kidlash joizki, bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha xarajatlar realizatsiyadan tashqari sarflar qatoriga qo'shiladi.

Tugallanganmagan ishlab chiqarishni tekshirish yakunida aniqlangan xatokamchiliklarning jiddiyligi (katta-kichikligi) va ularning tegishli hisobot ko'rsatkichlari ishonchililiga ta'siri haqida xulosa qilinadi.

#### **9.Qurilish tashkilotlarida tayyorlov-ombor xarajatlarini hisobga olish va taqsimlash jarayoni auditni**

Ushbu xarajatlar guruhi iqtisodiy mazmuniga ko'ra, mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxining tarkibini tashkil etuvchi quyidagi elementlarga bo'linadi:

**1.** Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqindilar qiymati chegirilib tashlangan holda);

**2.** Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnat haqi xarajatlari;

**3.** Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urta ajratmalari;

**4.** Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi;

**5.** Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Shuning uchun auditor har bir xarajat elementi tarkibining «Nizom»ga muvofiqligiga ishonch hosil qilishi lozim.

«**Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari**» elementi tarkibiga ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etuvchi yoki mahsulotni tayyorlash (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish)da zarur tarkibiy qism hisoblangan, chetdan sotib olingan xom-ashyo va materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar, ish va xizmatlar hamda Nizomda belgilangan boshqa xarajatlar kiradi.

Auditor qaytarib olinadigan chiqindilar qiymati va idish hamda o'rash materiallari qiymati ularni sotish, foydalanish yoki omborga kirim qilish mumkin bo'lgan narxda baholanib, mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan chegirib tashlanganligini aniqlashi zarur, shuningdek, mazkur element bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati ularni sotib olish narxidan, shu jumladan barter kelishuvlarida, qo'shimcha narx(ustama)dan, ta'minlovchi, tashqi iqtisodiy tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalar xizmatlari qiymatidan, shu jumladan brokerlik xizmatlari bilan birga, bojlar va yig'implardan, yuklash-tushirish hamda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanishini ham nazarda tutish zarur(1.1.12-band).

Bulardan tashqari auditor mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxiga olib borilgan moddiy resurslarni baholashning to'g'rilingini ham tekshirishi kerak. №4-«Tovar-moddiy zahiralar»nomli BHMSga muvofiq har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt materiallarni baholash usullaridan (FIFO, AVECO)birini tanlaydi va **hisob yuritish siyosatida** aks ettiradi.

**Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnat haqi xarajatlari.** Bu element bo'yicha xarajatlar ro'yxati «Xarajatlar tarkibi . . . to'g'risidagi Nizom»da batafsil berilgan. (1. 2. 1-1. 2. 3. (1. 2. 3. 1-1. 2. 3. 8)-1. 2. 5. (1. 2. 5. 1-1. 2. 5. 4)-1. 2. 7 bandlar).

Mahsulot(ish, xizmat) lar tannarxining mazkur elementini tekshirishda aniqlanadigan asosiy xato - bu **xarajatlarning ishlab chiqarish yo'naliishi tamoyiliga** rioya qilmaslikdir. Auditor ish haqi hisoblashga doir dastlabki hujjatlar (ish vaqtini hisobga olish tabeli, ishbay ishlar uchun naryadlar, hisoblashuv-to'lov vedomostlari)ni tekshirish chog'ida boshqa faoliyat turlari (qurilish, madaniy-maishiy va sh.o')da band bo'lgan xodimlarning mehnatiga haq to'lash xarajatlarining asosiy faoliyatdagি mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxiga qo'shilish faktlarini aniqlashi kerak. Bunga 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» va 6720-«Deponentlangan mehnat haqi» schyotlarining krediti bo'yicha ma'lumotlarning ishlab chiqarishga olib borilgan qismini, yig'ma mehnat haqi vedomostining uni hisoblash qismi bo'yicha jami ko'rsatkichlari bilan solishtirish orqali erishiladi. Qoidaga ko'ra, yig'ma vedomostning jami ma'lumotlari, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oladigan schyotlarning debeti bo'yicha ma'lumotlarga qaraganda ko'p bo'lishi lozim.

**«Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urta ajratmalar».** Bu elementga byudjetdan tashqari majburiy fondlarga qonunchilik bilan belgilangan me'yorlarga muvofiq ajratiladigan to'lovlar kiradi. Masalan, mehnat haqi fondidan sug'urta fondiga majburiy ajratmalar, nodavlat pensiya jamg'armalariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va sug'urtaning

boshqa turlariga ajratmalar, bandlik xizmatiga ajratmalar shular jumlasidandir. Bunday ajratmalarining mahsulot(ish, xizmat) lar tannarxiga olib borilishini tekshirishda byudjetdan tashqari fondlarga to'lanadigan badallarni hisoblab chiqarish manbalarining mehnat haqi fondining o'zini hisoblab chiqarish manbasiga bevosita bog'liq ekanligiga e'tibor berish zarur. Boshqacha qilib aytganda, to'lov manbasi qanday bo'lsa, badallarni to'lash manbasi ham shunday bo'ladi, bu esa yoxud tannarx, yoxud korxonaning o'z xususiy mablag'lari bo'lishi mumkin. Masalan, tekshiruv jarayonida auditor asosiy ishlab chiqarishda ishlaydigan ishlovchiga bergan 20000 so'mlik moddiy rag'batlantirish summasi hamda shu summaga nisbatan hisoblangan byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlar summalar(ijtimoiy sug'urta fondiga 37, 3%- 7460 so'm, bandlik xizmatiga 1, 5% - 300 so'm) ham mahsulot tannarxiga olib borilgan(Dt 2010 Kt 6710 - 20000 s , Dt 2010 Kt 6510 - 7460 so'm, Dt 2010 Kt 6520 - 300 so'm). Auditor ushbu xo'jalik muomalalari bo'yicha tuzilgan schyotlar korrespondentsiyasini noto'g'ri deb topib, jami 27760 so'mga mahsulot tannarxi asossiz oshirilgan va natijada soliqqa tortiladigan baza shu summaga kamaytirilganligini isbotladi.

Moddiy rag'batlantirish summasi ( 20000 s) va u bo'yicha hisoblangan barcha ajratmalar (7760 s) mahsulot tannarxiga qo'shilmasdan, korxonaning o'z mablag'lari, ya'ni moddiy rag'batlantirish uchun ajratilgan fond hisobidan qoplanishi kerak.

**Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi.** Ushbu element bo'yicha xarajatlar tarkibiga asosiy ishlab chiqarish vositalarining, shu jumladan moliyaviy lizing asosida olinganlarni ham qo'shgan holda dastlabki (tiklash) qiymatiga nisbatan belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlar, jadallashtirilgan amortizatsiyani ham qo'shib, hisoblangan amortizatsiya ajratmalari (hisoblangan eskirish) summalar kiradi.

Ta'kidlash joizki, №5 -«Asosiy vositalar» nomli BHMSga muvofiq asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning quyidagi usullari tavsiya qilinadi:

Bir tyokis (to'g'ri chiziqli) usul;

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib usul(ishlab chiqarish usuli);

Asosiy vositalar foydali xizmat qilish muddati yillar sonining yig'indisi bo'yicha hisobdan o'chirish usuli (kumulyativ usul);

Kamayib boruvchi qoldiq usuli.

Auditor korxonada ushbu usullardan bit tasi tanlab olinib, **hisob yuritish siyosati** to'g'risidagi buyruq bilan rasmiylashtirilganligini aniqlashi lozim., shuningdek, tanlangan usulning hisobot yili davomida o'zgarmaganligiga, agar o'zgargan bo'lsa sababini va bu haqda hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyruqqa o'zgartish kiritilganligiga e'tibor berishi kerak. Asosiy vositalar ob'ektlarining foydali xizmat qilish muddatlari ularni balansga qabul qilish paytida aniqlanadi. Amortizatsiya hisoblash asosiy vositalar ob'ektlarining butun foydali xizmat qilish muddati davomida to'xtatilmaydi. Faqat korxona rahbarining qaroriga muvofiq qayta jihozlash (rekonstruktsiya) va zamonalivylashtirish(modernizatsiya) uchun o'tkazilgan hamda konservatsiyaga qo'yilgan asosiy vositalar bundan mus tasno. Amortizatsiya ajratmalarini hisoblash yillik summasi quyidagicha aniqlanadi:

**bir tyokis(to'g'ri chiziqli) usulda** - muayyan asosiy vosita ob'ektining dastlabki qiymati, amortizatsiya me'yori va foydali xizmat qilish muddatidan kelib chiqib aniqlanadi.

**bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib usul(ishlab chiqarish usuli)** bo'yicha amortizatsiya hisoblash faqat asosiy vositadan foydalanish natijasiga asoslanib, uni hisoblash chog'ida vaqt oralig'i rol o'ynamaydi. Faraz qilaylik, avtomobilning dastlabki qiymati 1000000 so'm, qoldiq qiymati 100000 so'm va foydali xizmat qilish muddati davomida bosib o'tishi lozim bo'lgan masofa esa 90000 km. Bunda 1 km. ga to'g'ri keladigan amortizatsiya xarajatlari quyidagicha aniqlanadi:

### **Dastlabki qiymat - qoldiq qiymat q 1000000 – 100000 q 10 s**

ish birligi hajmi 90000

Har yilgi bosib o'tadigan masofa 10 so'mga ko'paytirilib, bir yillik amortizatsiya summasi aniqplanadi. Masalan, avtomobil bиринчи yili 30000 km yo'l yurishi rejalashtirilgan. Demak, bиринчи yil uchun amortizatsiya summasi:

30000 km x 10 s.q 300000 so'm.

### **10. Materiallarning omborda va buxgalteriyada hisobga olish holatini audit qilish tartibi**

Bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun buyurtmachilar va pudratchilar o'rtasidagi hisob-kitoblar korxonalar, ishga tushiriladigan kompleks va ob'ektlar qurilish uchun shartnomalar bo'yicha qilinadi. Shartnomalar bahosi pudrat tashkiloti pudrat shartnomasiga ko'ra ob'ektida bajaradigan ishlarning qiymatidir. Shartnomalar bahosi butun qurilish davomida o'zgartirilishi mumkin emas.

Shartnomalarini aniqlash va kelishi tartibi tasdiqlangan qurilishda shartnomalarini aniqlash hamda qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalarda belgilab berilgan.

Metodik ko'rsatmalarga ko'ra shartnomalar bahosiga quyidagilar kiritilgan:

- korxona, bino, inshoot, ularning navbatlari, ishga tushiriladigan komplekslar qurish qiymatining yig'ma hisob-kitob sistemalarida aniqlangan qurilish montaj ishlarning smeta qiymati yoki bu ishlarning texnik-iqtisodiy asoslash va texnik iqtisodiy hisob-kitoblar (TIX) tarkibida aniqlangan hisob-kitob qiymati;

- pudratchi faoliyatiga taaluqli boshqa ish va xarajatlarning bir qismi (masalan, smetalarda hisobga olinadigan materiallar qiymatidagi farq uchun to'lash xarajatlari, belgili xizmat muddati yoki bu ishlarning o'taganlik uchun to'lovlar xarajatlari, mehnatga bir yo'l haq to'lash xarajatlari, mehnatni tashkil qilish etishning vaxta metodi xarajatlari (shuningdek yangi o'zlashtirayotgan xududlarda qurilishni tashkil etishga aloqador xarajatlar;

- nazarda tutilgan ish va xizmatchilarining qurilish yig'ma smeta hisob-kitoblariga yoki TIA va TIX larda aniqlanadigan shartnomalarida hisobga olinadigan qurilish-montaj ishlari va boshqa xarajatlar qiymatiga kiritiladigan mablag'lar umumiy rezervining bir qismi, bundan buyurtmachi etkazib beradigan materiallar, buyumlar va konstruktsiyalar qiymatiga o'tadigan summalar istisno qilinadi.

- ish chizmalarini bo'lgan ob'ektlar bo'yicha - shu chizmalar asosida tuzilgan bosh pudratchi bilan kelishilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan ob'ekt smetalari asosida.

Bunda agarda pudrat tashkilotlari bilan loyixa echimlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan bo'lsa shartnomalar bahosi kamaymaydi.

Agarda buyurtmachi belgilangan tartibda loyixa xujjatlariga tuzatishlar kiritsa, buning okibatida qurilish-montaj ishlarning xajmi va tarkibi o'zgaradigan bo'lsa, shartnomalar bahosiga pudratchi bilan kelishib aniqliklar kiritish lozim. Buyurtmachi va bosh pudrat tashkiloti o'rtasidagi kelishmovchilikka oid qarorni vazirlik-buyurtmachi rahbarlari vazirlik - pudratchi rahbarlari bilan kelishib, 20 kunlik muddatda qabul kiladilar. Kelishilmagan bo'yicha pirovard qaror davlat qurilishi, hamdo'stlik respublikalaridagi idoralariga qurilishlari bo'yicha hamdo'stlik respublikalar davlat qurilish komitetlari qabul kiladilar.

Agarda qurilishda ikki yoki undan ortiq bosh pudratchi qatnashsa, shartnomalar bahosi har bir bosh pudratchi uchun belgilanadi.

Buyurtmachi pudratchining korxona quvvatini oshirish taklifini qabul qilsa, qurilishning smeta qiymati va shartnomalar bahosi loyixa bo'yicha mazkur korxona quvvati

birligiga qabul qilingan xarajatlar salmog'i asosida aniqlanadi. Bunda buyurtmachining quvvati oshirishga aloqador qo'shimcha xarajatlari aniqlik kiritilgan smetada nazarda tutilgan mablag'lar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi.

Shartnoma bahosi investitsiya jarayonining barcha qatnashchilari uchun o'zgarmasdir.

Qurilishning to'liq smeta qiymati korxona, bino, inshootlar loyixalarida yoki hisob-kitob qiymati texnik-iqtisodiy asoslash va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarda aniqlanadi, hamda shartnoma bahosi bosh pudrat tashkilotlari bilan kelishilgandan so'ng tasdiqlanadi.

Qurilish qiymatini yig'ma smeta hisob-kitoblarida va texnik iqtisodiy asoslash va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarda bo'yicha shartnoma bahosi keltiriladi, bunda qurilish-montaj ishlarining qiymati ajratib ko'rsatiladi.

Buyurtmachilar pudrat tashkilotlari schyotlariga bajarilgan qurilish-montaj ishlar uchun qurilishda xo'jalik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha hisob-kitoblar va kredit bilan ta'minlash to'g'risidagi asosiy qoidalarilan kelib chiqib quyidagi tartibda haq to'laydi.:

2. Bajarilgan pudrat ishlariga har oyda bajarilgan ishlar xajmi va qiymati hamda texnologik bosqich va ishlar kompleksi bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi buyurtmachi imzolangan ma'lumotnomasi asosida shartnoma baholarida haq to'lanadi.

Bajarilgan ishlar uchun pirovard hisob-kitob buyurtmachi va pudratchi o'rtasidagi ob'ekt qurilishi yakunlanib, uni ishga tushirish haqidagi aktni davlat qabul komissiyasi (ishchi komissiya) tasdiqlangandan so'ng to'lanadi.

Texnologik bosqichlar va ishchilar majmui bo'yicha tegishli ob'ektlarda pudrat shartnomasida nazarda tutilgan chorak rejalar (yil boshidan o'suvchi yakinda hisobga olinadigan) bajarilmagan holda buyurtmachi bajarilgan ishlarga haq to'lamaydi. Bunday holatda banklar pudrat tashkilotlariga tugallanmagan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplashga muvaqqat ehtiyojga kredit berish huquqiga ega.

2. Qurilish butunlay tugallangan va buyurtmachiga taxt qilib topshirilgan ob'ektlarga ularning to'liq smeta qiymati xajmida davlat qabul komissiyasi (ishchi komissiya) tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan aks asosida haq to'lanadi.

Ishlab turgan korxonalarni texnik qayta jixozlash, ta'mirlashda hamda turar-joy hamda ijtimoiy-madaniy va maishiy maqsadlardagi ob'ektlar qurilishida xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, etkazib berilgan materiallar va uskunalar. Shuningdek boshqa xarajatlarga moliya bilan ta'minlab schyotidan haq to'lanadi. Ayrim hollarda bu maqsadda hisob-kitob schyotlari ochilishi mumkin.

Ilgari ishning chorak rejasi bajarilmaganligi uchun hisob-kitoblarni yakunlash maqsadlarida, shuningdek, qurilish tugallangandan keyin ob'ekt bo'yicha umuman yakuniy hisob-kitoblarni ta'minlash maqsadlarida va pudrat tashkilotlariga ssuda berish uchun resurslar yaratish maqsadida buyurtmachilar vaqtincha bushagan kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlashga mo'ljallangan mablag'larni maxsus schyotlarga o'tkazadilar.

Agarda qurilish ishlab chiqarish rivojlantirish va ijtimoiy-madaniy tadbirlar hamda turar-joy qurilishi fondlari hisobiga qilinayotgan bo'lsa, mablag'lar maxsus hisob-kitob hisobot oydan keyingi oyning 5 chislosidan kechiktirmay mablag' bilan ta'minlash schyotlaridan ko'rsatilgan maxsus schyotlarga o'tkazilishini ta'minlaydigan har bir buyurtmachi uchun qilinadi.

Maxsus cheklarga o'tkaziladigan mablag'larning xajmi:

chorak ish rejalar bajarilishida qoloqlik haqiqiy bajarilgan ishlar qiymati va to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) ishlar o'rtasidagi farq sifatida yo'l qo'yilgan hollarda,

ob'ekt bo'yicha qurilish montaj ishlari 95 foiz va undan yuqori bajarilganda - bu ishlar qiymatining 5 foizi (va kamroq) xajmda aniqlanadi.

Buyurtmachilar bron qilingan mablag'lar pudrat tashkilotlarining vaqtincha ehtiyojlari uchun berilgan ssudalar va ob'ekt qurilishi tugallangunga qadar sarflar uchun berilgan kreditni to'lash manbaidir.

Korxonaning asosiy vositalariga va nomoddiy aktivlari investitsiyalar haqida, shuningdek mahsuldor va ish hayvonlarining (qiymatidan qat'iy nazar, korxonaning aylanma mablag'lari kiruvchi parrandalardan, quyonlardan, asalarlardan, yo'l va qo'riqlovchi itlardan, tajriba ostidagi quyonlardan tashqari) asosiy podasini tashkil qilish bo'yicha xarajatlar haqidagi axborotlar quyidagi schyotlarda umumlashtiriladi:

0810 - «Tugallanmagan qurilish»

0820 - «Asosiy vositalarni sotib olish»

0830 - «Nomoddiy aktivlarni sotib olish»

0840 - «Asosiy podani tashkil qilish»

0850 - «Erni obodonlashtirish»

0860 - «Uzoq muddatga olingen asosiy vositalarni obodonlashtirish»

0890 - «Boshqa kapital qo'yilmalar»

0810 - «Tugallanmagan qurilish» schyotida imorat va inshootlarni barpo etish, kapital qurilish smetalarida, smeta loyixa hisoblarida va titul ro'yxatlarida ko'zda tutilgan asbob-uskunalarini, vositalarni, inventarlarni va boshqa jixozlarni xarid qilish bo'yicha sarflangan (qurilish pudrat yoki xo'jalik usulida amalga oshirilishidan qat'iy nazar) xarajatlar hisobga olinadi.

0820 - «Asosiy vositalarni hisobga olish» schyotida asosiy vositalarni xarid qilish yoki korxonaning o'zida asosiy vositalar ob'ektlarni yaratish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olinadi.

0830 - «Nomoddiy aktivlarni sotib olish» schyotida nomoddiy aktivlarni xarid qilish yoki korxonaning o'zida nomoddiy aktivlar ob'ektlarni yaratish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olinadi.

0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotida: asosiy podaga o'tkaziladigan xo'jalikdagi yosh maxsuldor va ish hayvonlarini o'stirish bo'yicha xarajatlar; asosiy poda uchun xarid qilingan katta yoshdagi va ish hayvonlarining qiymati, hayvonlarni etkazib berish bilan bog'lik sarflarni ham qo'shgan holda; boshqa korxonalardan tekinga olingen katta yoshdagi hayvonlarni xo'jalikka olib kelish bilan bog'liq sarflar hisobga olinadi. Asosiy podaga o'tkaziladigan yosh hayvonlar haqiqiy tannarx bo'yicha baholanadi. Asosiy podaga o'tkazilgan yosh maxsuldor va ish hayvonlarining barcha turlarining qiymati yil davomida 1110 - «O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar» schyotidan 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotining debetiga yil boshidagi balans qiymati bo'yicha hisobga olinadigan, yil boshidan to hayvonlarni asosiy podaga o'tkazish paytiga qadar bo'lgan davrda ortgan vazni yoki o'sgan vaznining reja tannarxini qo'shgan holdagi qiymati bo'yicha hisobdan chiqariladi. Bir paytning o'zida, yosh hayvonlarni asosiy podaga o'tkazishda 0170 - «Ish hayvonları» va 0171 - «Mahsuldor hayvonlar» schyotlari debetlanadi va 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyoti kreditlanadi. Yil oxirida hisobot kalkulyatsiya tuzilgandan keyin yil davomida o'tkazilgan yosh hayvonlarning ko'rsatilgan qiymati bilan uning haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq 1110 - «O'stiruvdag'i va boquvdagi hayvonlar» schyotidan 0840 - «Asosiy podani tashkil etish» schyotiga, xayvonning bahosini bir vaqtning o'zida aniqlashda 0170 - «Mahsuldor hayvonlar» schyotiga qo'shimcha yozuv yoki storno qilish yo'li bilan hisobdan chiqariladi.

Chetdan xarid qilingan katta yoshdagи hayvonlarning qiymati 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotining debetiga ularni xarid qilishning haqiqiy tannarx bo'yicha, etkazib berish sarflari qo'shilgan holda kirim qilinadi.

Asosiy podani tashkil qilishning tugallangan muomala bo'yicha xarajatlar 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotida 0170 - «Ishchi - «Maxsuldar hayvonlar» schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

Kapital qo'yilmalarning hisobga oluvchi schyotlarining debeti bo'yicha asosiy vositalar ob'ektlarning dastlabki qiymatiga o'rnatilgan tartibda kiritiladigan, quruvchilarining ushbu ob'ekt uchun haqiqatda sarflangan barcha xarajatlari, shuningdek, korxonaning asosiy vositalarini, nomoddiy aktivlarni xarid qilish, asosiy podani tashkil qilish va boshqa kapital qo'yilmalar bilan bog'lik xarajatlar aks ettiriladi.

Qurilish va asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'lik, lekin o'rnatilgan tartibda asosiy vositalar ob'ektlarning dastlabki qiymatiga kiritilmaydigan xarajatlar kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlardan 9430 - «Boshqa muomalaviy sarflar» yoki 8890 - «Boshqa maqsadli tushumlar» schyotlarining debetiga hisobdan chiqariladi.

Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha saldo (qoldiq) korxonaning tugallanmagan qurilishga, asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni xarid qilishga sarflangan kapital qo'yilmalar miqdorini, shuningdek, asosiy podani tashkil qilish bo'yicha tugallanmagan xarajatlar summasini aks ettiradi. Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha analitik hisob kapital qo'yilmalarning har bir yo'nalishi bo'yicha yuritiladi. Bunda analitik hisobning tashkil etilish quyidagi xarajatlar haqida ma'lumotlar olish imkoniyatini ta'minlashi kerak:

\* qurilish ishlari va rekonstruktsiyaga, burg'ulash ishlari, asbob-uskunalarni yig'ishga, yig'ishni talab qiluvchi asbob-uskunalarni xarid qilishga, yig'ishni talab qilmaydigan asbob-uskunalarni xarid qilishga, shuningdek, kapital qo'yilmalarning smetalarida ko'zda tutilgan asboblar va inventarlarni xarid qilishga, loyixa-qidiruv ishlari, kapital qo'yilmalar bo'yicha boshqa xarajatlar yuzasidan;

\* asosiy vositalarni va nomoddiy aktivlarni xarid qilishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar bo'yicha asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni turlari va nomlari bo'yicha sarflangan xarajatlar yuzasidan;

asosiy podani tashkil qilish bilan bog'lik kapital qo'yilmalar bo'yicha, hayvonlarning turlari bo'yicha (yirik shoxli hayvonlar, cho'chkalar, qo'ylar, otlar va boshqalar) sarflangan xarajatlar yuzasidan to'liq axborotlarni yig'ishi lozim.

Smetada nazarda tutiladigan boshqa kapital ishlari va xarajatlar turlari bo'yicha hisobga olinadi. 0800 - «Kapital qo'yilmalar» schyotiga amalga oshirishga ko'ra (turli, schyotlar kreditlar) yoki chet tashkilotlar schyotlarini bank tomonidan to'lashga qabul qilishi asosida kiritiladi.

Buyurtmachi tomonidan bajarilgan ishlari smeta qiymatiga kirmaydigan boshqa xarajatlarga to'lash pudrat tashkilotlarining schyotlari bo'yicha qilinadi. Ular har oyda haqiqiy xarajatlar to'g'risidagi buxgalteriya ma'lumotlari asosida taqqdim qilinadi. Bu xarajatlarga ishlarning harakatdagi xarakteridaligi ustamalari, uzoq shimolda va unga tenglashtirilgan joylarda ishlash ustamalari mehnatga haq to'lashning ishbay mukofoti usullari qo'llagandagi qo'shimcha to'lovlar kiritiladi.

Foyda va zararlarini hisobga olish. Qurilish montaj ishlarini bajarish usulidan qat'iy nazar quruvchining buxgalteriya hisobida foyda va zararlar schyoti kiritiladi. Foyda va zararlar summasi quruvchi hisobida saldo qilinmaydi. Olingan jarima, penya va neustoykalar, shuningdek chetga realizatsiya qilingan moddiy boylik va xizmatlardan olingan foyda quruvchi hisobida foyda va zararlar schyotiga kiritiladi. Bu schyotda hisobga

olingen foyda summasi yillik hisobot tasdiqlanadigan keyingi yilda kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlashning boshqa manbalari tarkibiga kiritiladi.

Quruvchi zararlar tarkibida kuyidagilarni hisobga oladi:

uskuna moddiy boylik va xizmatlarni chetga realizatsiya qilishdan ko'rilgan zararlar; debitor qarzni hisobdan chiqarish zararlari, bundan aybdor shaxslar zimmasiga yuklangan zararlar mustasno;

moddiy boyliklarning ishdan chiqishi va tabiiy ofat tufayli tugallanmagan qurilish bino va inshootlarning buzilishidan ko'rilgan zararlar, bundan aybdor shaxs va tashkilotlardan undirish uchun taqdim etilgan summalar mustasno;

quruvchi asosiy vositalarning tugatilishidan zararlar, tabiiy ofat tufayli ishdan chiqqan asosiy vositalardan ko'rilgan zararlardan tashqari.

Zararlar summasi ularni boshqa kapital ishlari va xarajatlar tarkibida ob'ektlarning inventar qiymatiga kiritish mumkin bo'lishi uchun yil oxirida 0800 «Kapital qo'yilmalar»ni hisobga olish schyotlariga hisobdan chiqariladi («Obektlarning inventar qiymatiga qo'shiladigan zararlar» bandi).

Zararlar bir necha qurilish ob'ektlariga o'tkaziladigan hollarda ular tugallanmagan qurilishning ham, hisobot yilda ishga tushirilgan ob'ektlarning ham smeta qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Xo'jalik moliyaviy faoliyatidagi hamda buzishlar tufayli nazarda tutilgan holatlarda ishlab turgan korxona va tashkilotlarga foiz, jarima, penya va neustoykalar to'lash bo'yicha xarajatlar asosiy faoliyat natijalariga yangi ko'rيلayotgan korxonalar bo'yicha esa yuqori turgan tashkilot markazlashgan fondlari va rezervlari hisobiga o'tkaziladi.

Kapital qurilish pudrati shartnama majburiyatlarini buzganlik uchun neustoyka (jarima, penya) va buzish natijasida pudratchilar zararining qoplash xarajatlari davlat arbitraji idoralarining qarori bilan undirilgan hollarda ko'rsatilgan summalar hisob-kitob schyotidan yoki vazirlik (idora)ning moliyaviy yordamga mo'ljallangan rezervini hisobga olish schyotidan hisobdan chiqariladi.

Korxona va tashkilotlar uchun to'langan summalarini 9910 - «Foyda va zarar» schyotida (vazirlik yoki idoralarga - moliya yordamga mo'ljallangan rezervni hisobga olish schyotida) aks ettirishlariga pudratchilarning davlat arbitraj organining buyrug'i ilova qilingan inkassa topshiriqlari asos bo'ladi.

Hisob-kitob va kredit operatsiyalariga aloqador qurilish-buyurtmachilarning moliya bilan ta'minlash yoki ssuda schyotlaridan olingen foiz, jarima, penya va neustoykalar summalarini korxona, tashkilot yoki vazirlikning asosiy faoliyatida har oyda hisobot oyidan keyingi 5 sanasidan kechiktirmay tiklanadi. Buyurtmachilar yangi summa to'g'risidagi ma'lumotnomani idoraga taqdim etishlari lozim. Agarda korxona, tashkilot, vazirlik ko'rsatilgan muddatda yuqorida aytilan mablag'larni tiklamasa buyurtmachini mablag' bilan ta'minlovchi bank muassasalarini bu summani chorakda bir marta korxona yoki tashkilotlarning hisob-kitob schyotlariga yoki vazirlik (idora)ning moliyaviy yordamga mo'ljallangan rezervini hisobga olish schyotiga inkassa topshiriqlarini taqdim etib undirib oladi.

Inkassa topshiriqlarini takdim etishga bank muassasalariga chorak buxgalteriya hisobotiga qo'shib topshiriladigan korxona (tashkilot)lar asosiy faoliyati (vazirlik idoralarning rezerv schyotidan yoki ssuda schyotlaridan to'langan foiz, jarima, penya va neustoykalar to'g'risidagi ma'lumotnomasi asos xizmatini o'taydi.

Quruvchi sub'ektlar asosiy vositalarni sotganda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar qilinadi:

9210 - «Asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotish va boshqa hisobdan chiqarishlar»ni hisobga oluvchi schyotlar debeti.

0100 - «Asosiy vositalar» schyotining krediti sotilgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati hisobdan chiqaradi.

Asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar hisobi. Asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar 0810 «Kapital qo'yilmalar» schyotning 0820 schyotida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xujjatlar (bank to'langan yoki to'lashga qabul qilingan) asosida hisobga olinadi. Ularni quyidagicha taqsimlash qabul qilingan:

1. Qurilishning yig'ma smeta hisob-kitoblarida, shuningdek kapital qo'yilmalar rejasida nazarda tutilgan xarajatlar:

oldingi qilinadigan xarajatlar ob'ektlar qurilishiga aloqador geologik kidiruv, tadqiqot ishlari va boshqalar.

Ob'ektlar qurilishiga ulushli qatnashish tartibida beriladigan davlat, kooperativ, jamoa tashkilotlari va jamoa xo'jaliklaridan boshqa kapital ishlari va xarajatlar tarkibida nazarda tutiladigan mablag'lari hisobiga xarid qilingan bino va inshootlar (olangan bino va inshootlar ishlab turgan korxona hamda tashkilotlar hisobotida esa boshqa tushumlar sifatida aks ettiriladi):

import uskuna uchun texnologik xujjatlarni xarid qilishga. Agarda uning qiymati uskunaning shartnomasi qiymatiga aloxida kiritilgan bo'lsa.

Shuni nazarda tutish kerakki, belgilangan tartibda ilgari qurilish loyixa-smeta xujjatini tasdiqlangan organ belgilaydigan qo'shimcha smeta aniqlangan mablag'lar hisobiga qurilishni konservatsiya qilish xarajatlari.

2. Qurilish qiyematining yig'ma smeta hisob-kitoblarida nazarda tutilgan xarajatlar:

xo'jalik usulida olib borilayotgan qurilishlardagi qurilish-montaj tashkiloti fondiga ajratmalar;

qurilishni tugallanmagan va belgilangan tartibda bepul boshqa korxona (tashkilot)larga berilgan ob'ektlar bo'yicha xarajatlar (bu xarajatlarni hisobdan chiqarishda tegishli qabul-tekshiruv aklari, bundan tashqari qabul qilayotgan tomonning bu xarajatlar hisobida aks ettirilganligi haqidagi ma'lumotnomasi asos bo'ladi);

xo'jalik usulida olib borilayotgan qurilishlarni ular uchun belgilangan oborot vositalari normativida, bu pudrat shartnomasida hisoblanadi. Pudrat usuliga o'tkazishga bepul berilgan moddiy boyliklar qiymati, boshqa tashkilotlarga belgilangan tartibda bepul berilgan va kapital qo'yilmalar hisobiga xarid qilingan uskunalar qiymati, qurilish ishchi kadrlarni asosiy faoliyati moliya rejasida nazarda tutilgan rejali jamg'armalar hisobiga tayyorlash xarajatlari (ishni xo'jalik usulida olib borayotgan quruvchilar).

Tabiiy ofat tufayli asosiy vositalar bo'yicha zararlar, ularni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish ruxsat etilgan, qurilish tugallangan va belgilangan tartibda kapital qo'yilmalar hisobiga hisobdan chiqarishga ruxsat etilgan ob'ektlarni buzish, demontaj qilish va ko'riqlash xarajatlari.

Amaldagi qoidalar nazarda tutadigan boshqa xarajatlar.

## **11.Bajarilgan va buyurtmachilarga topshirilgan qurilish-montaj ishlari hisobining audit.**

Auditorlik dalillarining manbalarini ichki (hisob ma'lumotlaridan yoki xo'jalik yurituvchi sub'ekt xodimlaridan og'zaki yoki yozma ravishda olinagan), tashqi (auditorlar talabi bo'yicha uchinchi shaxslardan yozma shaklda olinagan) va aralash manbalarga ajratish mumkin. Moliyaviy hisobot auditni dasto'rini tuzish va uni bajarish davomida tekshiruvchilar

uning to'g'riligi haqida auditorlik dalillarini to'plashi lozim. Auditorlik dalillarining quyidagi sifatlarini ko'rib chiqaylik:

**Ishonchlilik (asoslilik).** Auditorlik dalillari amaldagi qonunlarning hisob va soliq tajribasining shubha qilinmaydigan qoidalariga tayanmog'i kerak. Iqtisodiy sub'ekt ma'muriyati auditorga 50 mln. so'm zarar bilan balansni taqdim etgan bo'lsa, auditor esa barcha hisob ma'lumotlarini tekshirib, amalda foyda olinganligini e'lon qilishini talab qilsa (shu foydaning aniq mikdorini aytса, masalan, 5 mln. so'm desа), u holda 55 mln. so'mlik tegishli ishonchli qo'shimcha varaqalarни hamda noto'g'ri provodkalarni aniq ko'rsatishi, qaysi me'yoriy hujjatlar talabiga rioya qilinmaganini keltirishi zarur.

**Zaruriyat.** Hech narsaga aloqador bo'limgan, qandaycha auditorlik dalillari (ayniqsa, befoyda, quruq gaplar) hech kimga kerak emas. Yuqorida keltirilgan misolda chamasi auditorlik ma'muriyatiga buxgalteriya hisobida yo'l qo'yilgan ba'zi noto'g'ri provodkalar (va shunga o'xhash ishlар) korxonaga katta zarar keltirishi mumkinligini tushuntirishi (ogohlantirishi) lozim, chunki, soliq organlari bu provodkalarда hisobga olingen summani soliq to'lamaslik uchun yashirish deb baholashi, korxonaga jazo belgilashi, penya yozishi, bundan tashqari, buxgalteriya hisobi to'g'ri yo'lga qo'yilmagani uchun korxonadan byudjetga to'loving 10 foizini undirib olish mumkin.

Auditorlik dalillari bu sifatining bir necha jihatlari bor:

a) har bir auditorlik dalili yoki tekshirilayotgan davrga bevosita taalluqli bo'lishi, yo iqtisodiy sub'ektning uning balansi vaqtidan keyingi (lekin auditorlik xulosasi chiqarilgan paytdan oldingi) xo'jalik faoliyatidagi muayyan muhim voqealarga taalluqli bo'lishi lozim;

b) audit natijalari yuzasidan iqtisodiy sub'ekt ma'muriyati moliyaviy hisobotda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning auditorlar tasdiqlagan so'nggi variantini yanada ishonchli qilish uchun yozuvlariga tegishli o'zgartirishlar kiritishi lozim;

v) agar auditorlik xulosasi moliyaviy hisobot topshirilgandan so'ng soliq inspeksiyasiga taqdim etilgan bo'lsa va auditor muhim nuqsonlarni aniqlagan bo'lsa, auditorlik xulosasiga alohida ilova zarur bo'ladi. Ilovada (auditorlik xulosasi matnida ilova borligi ko'rsatilishi shart) joriy davrda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun ularning ro'yxati keltiriladi.

**O'rinnlik.** Auditorlik dalillari tekshirilayottgan xo'jalik operatsiyalarining belgilariga qat'iy bog'liq bo'lishi va ularni tekshirish maqsadlariga mos bo'lishi kerak. Masalan, turli maqsadlar tekshirishning ma'lum bir reja asosida o'tkazilishini taqozo etadi. Boshlang'ich hujjatlardan hisob registrlariga o'tkazishda yuqorida belgilangan mavjudlik yoki vujudga kelishi, hisob registridan bosh daftarga o'tkazishda esa hisobning tugallanganligi tekshiriladi.

**Etarlik.** Auditning standartlarida bunday ko'rsatiladi: auditorlik baholari uchun zarur axborot miqdori qat'iy belgilanmaydi, auditor bu miqdorni o'zi mustaqil hal qilishga majbur. Chunonchi, tanlab tekshirish usulini qo'llar ekan, auditor hisobotdagи muhim noaniqliklarni aniqlab, ularni tugatish uchun barcha zarur choralarни ko'rganiga amin bo'lishi kerak. Dalillar bo'yicha ham, umuman audit bo'yicha ham (2-ilovaga qaralsin) xaratjatlar va natijalar nisbatiga qarab, oqilona etarlik tamoyiliga amal qilinishi zarur.

Auditorlik dalillarining sanab o'tilgan sifatlari juda muhim, ammo turli dalil-isbotlar turlicha ishonchli va hatto huquqiylikka ega bo'lishi mumkin, chunki bu dalillar auditor turli manbalarga murojaat qilgan paytda paydo bo'ladi. Axborot manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatsa bo'ladi:

a) tasdiqlash uchun taqdim etilgan moliyaviy hisobot, balansga ilovalar va tushuntirish xati bilan birga;

b) iqtisodiy sub'ekt hisob tizimining o'zi, jumladan, uning boshlang'ich hujjatlari buxgalteriya hisobi registrlari, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish natijalari;

v) uchinchi shaxslardan olingan boshlang'ich hujjatlarning nusxalari, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi su'bekt xodimlari va mamuriyatining yoki uchinchi shaxslarning ishga daxli og'zaki yoki yozma tushuntirishlari va shu kabilar;

g) moddiy qiymatliklarni inventarizatsiya qilish natijalari va doimiy nazoratga oid boshqa materiallarni, shunga qo'shimcha ravishda saralab tekshirish yoki eng muhim aktivlarni ko'zdan kechirish ma'lumotlari.

Auditor dalolat berish vazifasini bajarar ekan, ma'muriyatdan va uchinchi shaxslardan, yani turli manbalardan olingan og'zaki yoki yozma axborotni bir-biriga qiyoslaydi, solishtiradi. Shu munosabat bilan manbalarning sifatini, jumladan, auditorning bevosita shaxsiy bilimlarini ham farqlaydilar.

Qaramli hujjatli manbalar - bu asosan tekshirilayotgan iqtisodiy sub'ektning o'ziga tegishli doimiy buxgalteriya yozuvlari uchun tuzilgan va foydalanilgan hujjatlardir. Bunday hujjatlar tekshirilayotgan iqtisodiy sub'ektdan tashqariga chiqmagani sababli ular ichki hujjatlar hisoblanadi va shu bois ularda axborotning buzib ko'rsatilish ehtimoli yuqoriq bo'ladi.

Mustaqil hujjatli manbalar – bu asosan ushbu iqtisodiy sub'ektdan tashqarida tuzilgan, lekin keyinchalik bu sub'ektg'a kelib qolgan va uning buxgalteriya hisobida foydalanilgan tashqi hujjatlar. Bu hujjatlarda ishonchli axborot bo'ladi, biroq bunday hujjatlarda soxtalashtirish belgilari bo'lishi ehtimolini to'la istisno qilib bo'lmaydi (ayniqsa intellektual soxtalashtirish bo'lishi mumkin).

Qaramli aniq (faktik)manbalar – tashqi auditorlarni jalb qilmay o'tkazilgan asosiy vosalalarni va boshqa tovar - moddiy boyliklarni yillik inventarizatsiyalash materiallari bunga misol bo'la oladi. Rasmiy mezonlar bo'yicha bunday materiallar benuqson hisoblanadi. Lekin, ko'p miqdordagi boyliklar inventarizatsiya qilingan bo'lsa, bunday "Inventarizatsiya" materiallari ombordagi hisob kartochkalari yoki shunga o'xshash boshqa hujjatlar asosida rasmiylashtirilgan bo'ladi. Agar auditor bunday inventarizatsiya natijalarini shubha ostiga olib, qo'shimcha dalil isbotlarni talab qilsa maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil aniq (faktik) manbalar - nazorat tarzida to'satdan tovarlarni harid qilishga yoki misol uchun olganda, savdodan tushgan pulni nazorat-kassa apparati yordamida kirim qilish faktlarini tekshirishga oid materiallar - agar bu nazorat tadbirlari mustaqil tekshiruvchilar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa (masalan, soliq inspeksiysi vakillari tomonidan).

Auditoring shaxsiy bilimlari. Ular, masalan, auditoring shaxsiy kuzatishlaridan, u amalga oshirgan tahliliy tadbirlardan kelib chiqadi(3.81.). Chunonchi, agar auditor mijoz savdo faoliyatida olgan foya miqdorini rializatsiya qilingan mahsulot tannarxiga taqsimlab natija ilgari 30% ga yaqin bo'lgani holda tekshirilgan hisobot yilida faqat 0.3%ni tashkil etganini aniqlasa, u holda auditorda hisobot yili buxgalteriya hisobotida muayyan o'zgarishlar mavjud, degan xulosaga keladi. Shunday qilib, auditor umumiy xulosa chiqarish va auditorlik xatarini kamaytirish uchun turli manbalardan olingan dalillarni taqqoslashga majburdir.

Turli auditorlik dalillarga ishonchning turli darajalari mavjudligi tabiiydir, chunki ularning ishonchliligi ko'p jihatdan manba o'zining ishonchliligiga bog'liq. Chunonchi, hujjatlashtirilgan dalillar og'zaki dalillardan ishonchliroqdir (haqiqiylik mezoniga ko'ra, hujjatlarning sifatsizligidan tashqari), mustaqil manbadan olingan dalil-isbot esa faqat xo'jalik yurituvchi sub'ektg'a barpo etilgan va foydalanilgan shu xo'jalik tizimi doirasidan chetga chiqmagan ichki axborotga qaraganda ishonchliroqdir.

Biroq bir qancha hollarda auditor tashqi, mustaqil tomonlarga taalluqli dalillar manbaini ham puxta tekshirishi lozim bo'ladi. Gap shundaki, rasman mustaqil tomon amalda manfaatdor tomon bo'lishi mumkin, ya'ni o'z mustaqilligidan mahrum bo'lishi mumkin. Bu borada auditorlar yana bir atama-o'zaro bog'liq tomonlar atamasidan foydalanadilar. Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizdagi aholi pulini jalb etishga ixtisoslashgan ayrim o'zaro bog'liq tomonlar xalqaro tajribada ko'p marta sinovdan o'tgan sxemalardan foydalanadilar. Mana bir misol: Banklar (Aktsiyadorlar) utsav kapitalini oshirishda banklar o'zaro kelishib, aktsiyalarini sotib oladi va shu yo'l bilan ustav kapitalini shakllantiradilar. Natijada hech kim hech kimdan qarzdor bo'lmaydi. Shunday qilib, o'zaro bog'liq tomonlar tashqi tomon bo'lsa ham, axborotning manfaatdor manbaalari bo'lishi mumkin.

Auditor to'plagan dalillar hajmi bilan erishilgan ishonch darajasi o'rtasidagi munosabat juda muhimdir. To'plangan dalillar hajmi saralash miqdoriga bog'liq: u kam, ancha va ko'p bo'lishi mumkin. Erishilgan ishonch darajasi shunga qarab o'zgaradi: to'plangan dalillar hajmi ko'p bo'lsa -ishonch darajasi yuqori bo'ladi yoki aksincha. Auditorlik dalillarni to'plashning bu jihatlari 4-bobda auditdag'i statistik usullardan foydalanib, batafsil tadqiq etiladi. Yuqoridaq ikki bobda audit yordamida axborot xatarini butunlay tugatib bo'lmasligi, bunday maqsad hayoliy ekanligi ta'kidlangan. Unday bo'lsa, audit kerakmi? Tajriba audit juda kerakligini ko'rsatmoqda, chunki buxgalteriya hisoboti to'g'risidagi auditor xulosasi axborot xatarini eng maqbul darajagacha pasaytiradi.

Auditga ehtiyojni ko'rsatish uchun bank boshqaruvchisining korxona (mijoz)ga qarz berish to'g'risidagi qarorini tadqiq etaylik. Dastlabki qaror (umuman qarz berish kerakmi) bir necha omilga (bankning ushbu mijoz bilan oldingi moliyaviy munosabatini, shuningdek, uning hozirgi moliyaviy ahvoliga) asoslanadi. Shundan so'ng, qo'shimcha axborotni (ushbu mijozning moliyaviy ahvoli auditor tomonidan tasdiqlangani to'g'risidagi axborotni) tahlil qilish zarur, shundan so'nggina foiz stavkasi miqdori to'g'risidagi qaror qabul qilinadi. Bank xodimlari foiz stavkasini avvalo uch omilga asosanib belgilashilari mumkin:

1. Xatarsiz foiz stavkasi, ya'ni bu bank O'zbyokiston Respublikasi Markaziy banki qimmatli qog'ozlariiga investitsiya yo'lli bilan pul ishlagan stavkaga yaqin bo'ladi. (Bank o'z zarariga ishlay olmaydi, binobarin, oddiy mijozlar uchun stavka ancha yuqori bo'lishi lozim).

2. Mijozning xo'jalik sohasidagi xatari, ya'ni ushbu mijoz muvaffaqiyati bilan nom chiqqargan bo'lsa ham ma'lum sabablarga ko'ra, (masalan, auditorlar o'z xulosasida ishlab turgan korxonaning kontseptsiyasi xususida shubha bildirishmadni, lekin amalda boshqa sabablar etarliligidan qandaycha bo'lishi mumkin) qarzini to'lay olmaydi.

3. Axborot xatari, ya'ni mijoz buxgalteriya hisoboti buzib ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Masalan, bank qarz bergen kunda xo'jalik xatari to'g'risida qaror qabul qilishiga asos bo'lган axborotning aniq emasligi.

Ko'rinish turibdiki, xatarsiz foiz stavkasini baholash chog'ida bank boshqaruvchisi qabul qilgan qaroriga auditoring mutlaqo ta'siri bo'lмаган, mijoz xo'jalik xatarini ko'rib chiqish chog'ida bu ta'sir arzimas darajada bo'lган, ammo axborot xatari xususidagi xavfsirashni ko'p jihatdan belgilab bergen. Boshqacha aytganda, audit axborot xatariga kuchli ta'sir qilishi mumkin. Uni butunlay tugatib bo'lmaydi. Lekin hozirgi holatda axborot xatari eng kam darajada, uni e'tiborga olmasa ham bo'ladi, ya'ni bank mijoz uchun umumiyoq foiz stavkasini kamaytirishi mumkin. Natijada qarz ikkala tomonga maqbul shartlar bilan beriladi.

Axborot xatari paydo bo'lishining sabablari nimada? Bunday sabablar ko'p, ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

1. Axborot manbaining uzoqda joylashgani. Axborot manbaini, ya'ni mijozning bosh buxgalteriyasini tekshirish murakkab ish, natijalari noaniq. Kapitalning bir tomondan ikkinchi tomonga o'tishi orqali ommaviy investitsiya amalga oshiriladigan fond bozorida oddiy investorda tegishli axborot manbaigina emas, umuman emitent korxona ma'muriyati bilan tanishish imkoniyati yo'q.

2. Tovar etkazib beruvchining g'arazgyligi va niyati. Korxonaning ma'muriyati buxgalteriya hisobotini tuzish chog'ida beg'araz hisoblanmaydi. Uning haqiqiy ahvolini oshirib ko'rsatish niyati ehtimoldan holi emas. Buning sabablari:

a) hisobotdan foydalanuvchilarga ma'lum ta'sir o'tkazish istagi (xususiy sabab);

b) o'ziga qandaycha baho berish va xom rejalar;

v) bozor talablarini yaxshi tushunmaslik;

g) ma'muriyatning o'zi keyinchalik eng yaxshi qaror qabul qilishi mumkinligi va xokazolar.

3. Buxgalteriya hisobi tizimimizdagi kamchiliklar: ma'lum vaziyatlarda buxgalteriya hisobi sohasidagi me'yoriy hujjatlarning ko'rsatmalariga amal qilish oqibatida hisobotni (ayniqsa investor uchun) buzish ehtimoliga yo'l qo'yildi.

4. Axborotni buzishning turli shakllari mumkinligi, mutaxassis bo'limgan odam ularning hammasini ilg'ay olmaydi: balans mutlaqo haqiqatga mos bo'lmasligi mumkin, lekin biroz buzilgan yoki to'la bo'limgan axborot ko'rsatilishi mumkin.

5. Xo'jalik operatsiyalarining murakkablashuvi. Yangi moliyaviy vositalar va xo'jalik operatsiyalar (yoki ularning yangi jihatlari) ayniqsa, qonunlarning, soliq xizmati, bojxona, moliya nazorati organlari va boshqalarning yo'rinnomalarining tez o'zgarishi oqibatida to'g'ri hisobga olish uchun qiyin bo'lishi.

6. Yig'ma buxgalteriya hisoboti, jumladan soliqqa tortish bilan bog'lik holatlar. Turli tarmoqlardagi kichik korxonalarning xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini to'g'ri birlashtirish va ochib ko'rsatish juda murakkab ish bo'lib, bir qancha hollarda mutaxassis bo'limgan xodimlarning tushunib etishlari qiyin. Ayni shunday katta va murakkab xo'jalik tizimlari (masalan, Muborak gazni qayta ishlash zavodi) amalda ko'pincha soliqdan eng ko'p qarzdar bo'lib qolishi tasodif emas.

7. Ma'lumotlar miqdorining ko'pligi. Auditor dalolat berish vazifasini bajarar ekan, iqtisodiy sub'ektning bir yillik ishi yakunlari to'g'riliгини tasdiqlaydi. Agar bu yirik mijoz bo'lsa, hisob registrlaridagi yozuvlar miqdori, ayniqsa ularga asos qilib olingan boshlang'ich hujjatlar miqdori juda ko'p bo'ladi.

8. Kichik xatolarning kumulyativ ta'siri ehtimolligi. Agar ko'p miqdordagi kichkina xatolar aniqlanmagan bo'lsa, ayniqsa ma'lumotlar kompyuterda bir tusda, noto'g'ri ishlab chiqilsa, ularning kumulyativ ta'siri bo'lishi mumkin (yakuniy ta'siri kuchli, juda kuchli bo'lishi mumkin). Shu sabablarga ko'ra, buxgalteriya hisobotini tekshirish uchun turli ixtisosdagi yuqori malakali mutaxassislar zarur bo'ladi.

Umumiylaz nazariga ko'ra, axborot xatarini kamaytirishning to'rtta asosiy usuli mavjud va ulardan har qanday axborot iste'molchisi foydalanishi mumkin.

Axborotdan foydalanuvchi xatarni o'zi mustaqil bartaraf etadi. Masalan, hisobotning ishonchililagini joylarga borib o'zi tekshiradi, ya'ni boshlang'ich hujjatlar va buxgalteriya yozuvlarini o'rganadi. Lekin, bunday tekshirish doimo qimmatga tushadi, shu boisdan maqbul emas va yaxshi samara bermaydi. Ko'p hollarda boshqa bir qancha sabablar borki, ular bu usuldan foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

B. Axborotdan foydalanuvchi joriy xarajatlarini tejash maqsadida xatarning o'ziga ma'lum bo'limgan darajasi bilan o'lchash. Ba'zi foydalanuvchilar xatar darajasidan xabarsiz bo'lish osonroq va arzonga tushadi, degan xulosaga keladilar. Bunday fikrga kelish

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ma'muriyatiga uncha xos emas, ma'muriyat vakillari bunday xarajatlarning muqarrarligini biladilar.

V. Axborotdan foydalanuvchi axborot xatarini shunday axborot beruvchi (xo'jalik yurituvchi sub'ekt ma'muriyati) bilan bo'lismib oladi. Odatda, eski ishonchli mijozlar bilan o'zaro munosabatda axborot xatarining darajasi taqdim etilgan hisobotdagি axborot xatari darajasi uncha yuqori emas, uni e'tiborga olmasa ham bo'ladi, deb hisoblaydilar.

G. Axborotdan foydalanuvchi auditdan o'tgan axborotga ishonadi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida axborot xatari darajasini pasaytirishning keng tarqalgan usulidir – turli axborotning ishonchlilagini, puxtaligini dalolat berish vazifasini bajaruvchi mutaxassislar (notariuslar, moliya, bank, bojxona, soliq inspeksiysi vakillari) tekshiradi va tasdiqlaydi. Buxgalteriya hisobi sohasida bunday vazifani mustaqil auditorlar bajaradi: ularning xizmatiga ketgan xarajatlarni axborot beruvchi to'laydi, bunday xarajat zarurligini jamoat ham, qonun ham tan olgan. Bozorning turli sektorlarida qaror qabul qiluvchi tarqoq shaxslar ko'pincha axborot xatari dalolat berilgandan so'ng ancha (maqbul darajagacha) kamayadi, deb hisoblaydilar.

Auditorlik xulosasining o'zi auditorlar tomonidan tekshirish chog'ida aniqlangan va ularning ish hujjatlarda aks ettirilgan hajmi kichik o'xhash dalillarga asoslanadi.

Mustaqil auditdan foydalanmay, axborot xatarini kamaytirishning boshqa usullari uncha samarali emas va juda qimmatga tushadi. Chunonchi axborot xatarini ma'muriyat bilan bo'lismishning qiyinchiligi shundaki, foydalanuvchilar korxonalarini bankrotlik darajasidan chiqarib olishga qodir bo'lmasliklari mumkin.

Amalda axborot xatarini kamaytirishning har to'rt usulidan foydalaniadi. Lekin audit bu xatarni kamaytirish jarayoni sifatida xalqaro tajribada keng tarqalgan, endi esa O'zbyokistonda ham keng qo'llanilmoqda. Umumiy qoida shundan iboratki, agar aniq turdagи axborot (masalan, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti) dan birdan qanday shaxslar tomonidan qaror qabul qilish uchun foydalanilsa, u holda auditorlik tekshirishi talab qilinadi.

Audit tajribasi hozirgi xalqaro shakllarida ikki asosiy maqsadni ko'zda tutadi:

1) xo'jalik yuritish natijalarini baholash chog'ida axborot xatarini kamaytirish – bu maqsadga erishmasa, buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar nuqtai-nazaridan audit o'tkazilmagan hisoblanadi;

2) bu maqsadga erishmagan audit faqat mijozlar nuqtai nazaridan emas, auditorlik tashkilotining nuqtai-nazaridan (u xonavayron bo'lish xavfi ostida qolishi mumkin) ham o'tkazilmagan hisoblanadi.

Amaliy ish bilan shug'ullanayotgan auditorlarning bir vaqtning o'zida ikkala maqsadga erishishga intilishi tushunarlidir, chunki ular shunday qilibgina o'z vazifalarini bajara oladilar va tadbirdor sifatida harakat qiladilar. Lekin, amalda deyarli hamisha bir maqsadga ikkinchisiga nisbatan ko'proq erishiladi. Bunda, auditorlar va ularning manfaatlarida ma'lum kelishmovchilik xavfi bor. Auditorlar o'z faoliyati standartlariga muvofiq asosiy sa'y-harakatlarini eng muhim jihatlarini aniqlashga qaratadilar.

Auditorlik tekshirishning samaradorligi, ya'mi auditorlik xatarining ehtimol tutilgan bahosi va uni kamaytirishga olib keladigan yo'llar dastlab rejalashtrish bosqichida baholanadi (1.1.8.). Ammo, ichki nazorat tizimi ishonchlilikka mutlaq kafolat bera olmaydi, chunki:

a) ichki nazoratni ishonchga sazovor bo'lgan oddiy xodimlar ham, yuqori malakali kadrlar ham amalga oshirishi lozim bo'sada, tashkilotning o'zida ham, tashqaridan ham ularga tazyiq bo'lishi mumkin;

b) vazifani tushunmaslik yoki e'tiborsizlik natijasida yozuvlarda xatolar, noaniqliklar bo'lishi mumkin;

v) har qanday xodimda, jumladan boshliqlarda ham g'arazli maqsadlar yo'qligiga hech kim kafolat bera olmaydi;

g) yuqori ma'muriyat vakillari o'zлari belgilagan nazorat lahzalarini mensimaydilar;

d) nazoratning turlariga qarab ajratish ham ayniqsa, hokimlik vaqolati bo'lган shaxslarning suiiste'mollari natijasida e'tibordan chetda qolishi mumkin.

Tasodifiy kichkina nuqsonlarni iqtisodiy sub'ekt ma'muriyatining o'zi butun tekshirilayotgan davrda aniqlash va tuzatish kiritishi lozim. Tashqi auditor o'z vazifasini bajarish chog'ida quyidagi hollarda ichki nazorat natijalaridan foydalanadi:

a) auditor uchun axborot manbai bo'lib xizmat qiladigan hisoblar muntazam, to'la yozib berilgan va asoslangan bo'lsa;

b) ichki nazoratning umumiy ahvoli qoniqarli bo'lib, mustaqil tekshirishlar sonini kamaytirish mumkin bo'lsa.

Xalqaro tajribada xatar masalalari har qanday audit strategiyasini ishlab chiqishga kiritiladi. Tayyorgarlik davrida tekshirish chog'ida xato qilish imkoniyati yuqori bo'lган zonalar aniqlanadi. Xatar ehtimolini kamaytiradigan usullardan biri – tajribali mutaxassis boshchiligidagi xodimlar guruhi bilan audit o'tkazishdir.

Tekshirish uchun taqdim etiladigan buxgalteriya hisobotida xato-kamchiliklar bo'lishi mumkin. Auditorlar bu xatolar umuman hisobot ancha buzib ko'rsatilishiga olib kelgan qismimi aniqlashlari zarur (6.39.). 11-ilovada xatolarni aniqlash va bartaraf etish uchun auditorning mas'uliyati nuqtai-nazaridan ularni tasnif qilishga o'rinishimiz natijalari keltirilgan.

Xatoni aniqlash tasnifining – bu bir tomondan ataylab qilinmagan xatolar (oddiy adashishlarga), ikkinchi tomondan ataylab, noto'g'ri ko'rsatishdir (1.1.8). Shu jumladan, suiiste'molliklardir. Suiiste'mollikni me'yordan og'ish ham deb atashadi.

U yoki bu g'araz natijasida buxgalteriya hisoboti buzilishi mumkin, lekin bu ikki xil g'araz: ataylab qilingan g'araz va beixtiyor qilingan g'araz. Huquq nuqtai-nazaridan, ularning o'rtaqidagi asosiy farq niyatning borligi yoki yo'qligidir. Ularning orasida xodimning yoki ma'muriyat ayrim vakillarining g'ayriqonuniyo yo'l bilan boylik orttirish niyati asosidagi suiiste'mol eng og'ir hisoblanadi. Ataylab qilingan ba'zi xatolarni miqdoriy hisoblab chiqarib bo'lmaydi, lekin ularning ehtimol tililgan oqibatlaridan kelib chiqqanda, ahamiyati juda katta. Yaxshi tushunmaslik, e'tiborsizlik oqibatida xatolar bo'ladi, buxgalteriya tizimining, amaldagi qonunlarning, jumladan soliq qonunlarining mukammal emasligidan ham xatolar bo'ladi. Ma'muriyatning qonunlarni va buxgalteriya hisobini yaxshi bilmasligi ularning buzilishiga olib keladi; bu buzilishlarni aniqlash va ma'muriyat uchun ularni bartaraf etish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish auditorlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Co'ngra buxgalteriya hisobini va amaldagi qonunlarni yaxshi bilmaslik oqibatida xatolar va iqtisodiy sub'ektlarning molivaviy ahvolini noto'g'ri aks ettirishga to'xtalamiz. Jiddiy tadqiqotlar mavjudligini (3.3-jadval), ularda taniqli mutaxassislar buxgalteriya hisobining hozirgi tizimi ancha buzilganini dalillar bilan isbotlashganini e'tiborga olaylik. Bundan tashqari, auditorlik faoliyati standartlari tarkibida («Buxgalteriya hisobotida buzilishlar aniqlanganda auditorning harakatlari» 24-soni AFMS 3.2 band) xatolarga olib keluvchi omillar audit standartlarida aks ettirilgan. Bu omillarning orasida quyidagilar bor:

a) aylanma mablag' miqdori xo'jalik yurituvchi sub'ekting savdo (ishlab chiqarish) hajmining tez o'sishiga va foydaning ancha kamayib ketishiga mos kelmasligi;

- b) xo'jalik yurituvchi sub'ektning ma'lum bir davrda bir yoki bir necha buyurtmachiga yoki mahsulot etkazib beruvchiga qaram bo'lib turganligi;
- v) shartnomaga munosabatlari amaliyotidagi yoki hisob siyosatidagi foyda miqdorining ancha o'zgarishiga olib keladigan o'zgarishlar;
- g) xo'jalik yurituvchi sub'ektning ayniqsa yil oxiridagi moliyaviy ko'rsatkichlar miqdoriga jiddiy ta'sir qiladigan odatdagiga o'xshamagan bitimlari;
- d) bajarilgan xizmatga mos kelmaydigan xizmat uchun haq to'langani;
- e) xo'jalik yurituvchi sub'ekt tashkiliy-boshqaruv tiziminining o'ziga xos xususiyatlari, bu tizimda nuqsonlarning mayjudligi;
- j) kapital tarkibidagi va foydani taqsimlashdagi o'ziga xos xususiyatlari;
- z) buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tayyorlashni tashkil etishda belgilangan qoidalardan chetga chiqishga yo'l qo'yilgani.

Agar auditning milliy standartlariga (70-auditorlik faoliyatini miliy standartlari) amal qilinadigan bo'lsa, auditor tekshirish natijalari yuzasidan ijobjiy yoki salbiy xulosa berish huquqiga ega. Yuqorida keltirilgan 3.2-jadvalda ko'rib chiqilgan ikki holat 4-vaziyat ijobjiy xulosa berish uchun belgilangan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy ko'pchilik qismi tekshirish natijalari bo'yicha 3.2-jadvalda 2 va 3-vaziyat deb belgilangan munozarali vaziyatga tushib qoladi. Bunday sharoitda auditor xatarining asosiy zonalari shundan iboratki, u yoki bu mijozda vujudga kelgan vaziyatda auditorlar ijobjiy (yoki salbiy) xulosa shaklidagi tegishli murosa yo'lini topishga majbur bo'ladilar. Xalqaro standartlardan xabardor bo'lgan auditorlar buxgalteriya hisobotiga baho berar ekanlar, xulosada maxsus sharhdan, izohlovchi abzatsdan foydalanishga majbur bo'ladilar. Bunday ob'ektiv vaziyat, shubhasiz, oqibat natijada auditorlik xulosasining hozircha kam foydalaniladigan maxsus shakllari, masalan, mijozning moliyaviy ahvolini soliq organlari nuqtai-nazaridan emas, faqat investorlar nuqtai-nazaridan baholashga olib kelishi mumkin.

Amalda buxgalteriya hisobi va hisobotida tez-tez uchraydigan muhim xatoliklarni ayrim vaziyat misollarida aniq belgilaylik Audit qilinayotgan buxgalteriya hisobotidagi ehtimoli bo'lgan xatolar va suiiste'mollar tahlili ularni muayyan qo'shimcha belgilariiga qarab farqlanmasa, to'la hisoblanmaydi. Masalan, auditorlar hisob va hisobotda xatolarni va me'yordan chekinishlarni (14-ilova), ya'ni g'arazlilikni, jumladan suiiste'mol bilan bog'liq xatoliklarni aniqlashlari mumkin:

- a) xatolar-sabablar va xato-natija;
- b) bir martalik va doimiy;
- v) muhim va rasmiy;
- g) katta va arzimas;

d) haqiqiy hamda loyihalashtirilgan va boshqalar. Xatolar to'g'risidagi auditorlik dalillarini ushbu va boshqa belgilarga qarab ajratish ob'ektdagi auditorlik ishlarining muhim elementlaridir. Busiz tekshirish chog'ida to'plangan axborot (auditorlik dalillari) xususida qaror qabul qilish qiyin. Xatoliklar aniqlangan hollarda auditor uning mohiyatini aniqlaydi, uning ba'zi jihatlari ishlarni keyinchalik davom ettirish chog'ida yangi shart-sharoitni taqozo qilishi mumkin.

a) bir martalik xatolar xarakteri tasdiqlanishi lozim,, ya'ni, tekshirishni davom ettirish chog'ida bu xatolar yana takrorlangani yoki takrorlanmaganiga alohida etibor berish kerak.

b) xatolarning doimiy tusdaligi (ularning aniq bir vaqtda takrorlanishi) auditordan ichki nazorat xatari to'g'risidagi oldingi mulohazasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi;

v) xatolikning doimiy tusdaligi ichki nazoratga ishonish mumkin emasligini bildiradi, bunday vaziyatda mustaqil tekshirishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Bunday sharoitlarda auditorning har bir xatoning qanday tusdaligini va oqibatini, me'yordan chetga chiqishini, ularning xo'jalik yuritish natijalariga ta'sirini professional baholay olish qobiliyati muhimdir. Xo'jalik operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olishda yuz beradigan aniq xatolar va me'yordan chetga chiqishlar hayotda g'oyat xilma-xil turlicha bo'lishi mumkin. Rahbarlar va hisob xodimlari xo'jalik faoliyatining deyarli har bir sohasida yo'l qo'yadigan eng ko'p uchraydigan xatolar mavjud (ular turli mualliflar tomonidan tadqiq etilgan, tizimlashtirilgan va tahlil etilgan). Bunday maqolalarning zarurligiga shubha yo'q, chunki ularda auditorlarga amaliy ishda yordam beradigan ma'lumotlar bo'ladi; lekin, ularda xatolikning umumiy mohiyati, shuningdek, xo'jalik yuritish natijalariga ularning ta'siri ochib berilmaydi.

Ataylab qilingan xatolar (ularning bir qismi ma'muriyat va xodimlarning suiste'molliklari sifatida tasnif qilinishi mumkin), odatda, jinoiy huquq doirasida bo'ladi. Tekshirish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning topshirig'iga muvofiq o'tkazilayotgan bo'lsa (majburiy audit), auditordan bunday suiste'mollarni to'la ochib berishni ta'minlash kutiladi. Shu bilan birga atayin qilingan g'arazlarni aniqlash chog'ida, agar muhim bo'lsa, umuman buxgalteriya hisoboti to'g'rilingiga shubha tug'dirsa, auditordan shunga mos harakatlarni va xulosada tegishlicha tavsifni kutish lozim.

Agar auditorda ayrim xodimlarning standartga ko'ra, axborotni ataylib buzish deb tasnif qilishga haqli bo'lgan suiste'mollar to'g'risida asosli shubha paydo bo'lsa, bu haqda avvalo, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yuqori ma'muriyati vakillarini (agar bu vakillar suiste'molga arashlamagan bo'lsa) xabardor qilishi zarur. Tegishli xo'jalik operatsiyasining mohiyatini tekshirish, aniqlangan suiste'mollarni batafsil to'xtatish, bu suiste'mollarning oqibatlarini aniq miqdoriy baholash, shuningdek, tegishli xulosa chiqarish auditorning vazifasiga kiradi. Bunday hollarda suiste'mollar to'g'risidagi aniqlangan axborotlarni to'la-to'kis hujjatlashtirish zarur. Keyinchalik sudlashish boshlansa, auditorning ish hujjatlari suda isbotlovchi dalillarga aylanishi mumkin.

## Ma'lumotlarning hisob va hisobotda muhim g'arazli aks etishi

### Ataylab qilinmagan xatolar

Arifmetik xatolar - buxgalteriya hisobi qoidalarining fiskal xarakteri moliyaviy ahvolni noto'g'ri baholashga (investorlar uchun) olib keldi. Talqin noto'g'ri: Balans vaqtida ba'zi fakt-lar hisobga olinmagan. Buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi qoidalar noto'g'ri qo'llanilgan: hisobot tuzish chog'ida yillik hisobotni tekshirish chog'ida aniqlangan nuqsonlar hisobga olinmagan.

### Ataylab qilingan nuqsonlar va noaniqliklar (me'yordan og'ish va suiste'mollar)

Buxgalteriya hisobi boshlang'ich hujjatlari va registrlarida muhim axborotning yashirilgani. Buxgalteriya hisobi boshlang'ich hujjatlari va registrlarini soxtalashtirish, jumladan soxta hisob yozuvlari qilish (haqiqat mezoni bo'yicha sifatsiz yozuv). Byudjetga to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni asossiz qo'llanishi va qonunda tan olinadigan xarajatlarni ko'paytirib ko'rsatish. Xo'jalik operatsiyalari va voqealarning natijalarini noto'g'ri baholash. Inventarizatsiyani aniq o'tkazish va uning ishonchli yakunini chiqarish qoidasini ataylab noto'g'ri qo'llanish. Begona shaxslarga tegishli mulkni balansning aktiv qismida to'g'ri aks ettirilmagan. Balans moddalarini yo'l qo'yib bo'lmaydigan xolda aniq belgilamaslik.

Shubhali xo'jalik operatsiyalarini puxta tekshirish aslida yana auditor aniqlangan suiiste'molar auditning boshqa segmentlariga qanday ta'sir qilishini aniqlash uchun, hisob va hisobotga kiritilgan aniqlangan suiiste'mollarning oqibatini bartaraf etadigan tuzatishlarning xarakterini aniqlash uchun talab qilinadi. Agar auditni amalga oshirish davri vaqt jihatidan audit qilinayotgan davrdan keyin bo'lса (masalan, buxgalterya hisoboti soliq inspeksiyasiga topshirilgandan keyin), u holda ish tugagandan keyin taqdim etishi lozim bo'lgan auditorlik xulosasining shaklini ham belgilash zarur. Ravshan bo'lgan, lekin puxta yashirilgan suiiste'molliklarni aniqlash uchun ba'zan tekshiruvchilarning yuksak professional mahoratigina emas, ularning qimmatli ish vaqtini uchun katta xarajatlar ham talab qilinadi. Auditorlarning ma'muriyat suiiste'mollarini aniqlashga nisbatan xodimlarning suiiste'molini aniqlashi ehtimoli ko'proq.

### Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish chog'ida vujudga keladigan asosiy buzilishlar va xatolar

Tipik xatoliklar namunalarini	Buzilishlarning oqibatlari
Dastlabki hisob hujjatlarini qabul qilingan tartibini ayrim buzishlar bilan rasmiylashtirish.	
Hujjatlar blankalarida ko'rsatilgan barcha satrlar va grafalar to'ldirilmagan.	Xo'jalik operatsiyalari haqida to'la axborot yo'q, bu ularni hisobga olishda

	ma'lumotlar buzilishiga olib kelishi mumkin.
Hujjat to'g'rilingini tasdiqlovchi zarur imzo yo'q.	Hujjatlar va ular asosida amalga oshirilgan operatsiyalar haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.
Bo'sh satrlar va grafalar chizib qo'yilmagan.	Hujjatga operatsiya mohiyatini o'zgartiruvchi yozuv kiritilishi mumkin.
Hujjatlar tegishli shtamp bilan tasdiqlanmagan.	Hujjatdan takror foydalanish mumkin, bu hujjatga asosan operatsiyalarini hisoblashda ma'lumotlar buzilishiga olib kelishi mumkin.
Dastlabki hujjatlar amaldagi qonunlar va yo'riqnomalar talablarini buzib rasmiylashtirilgan.	
Ma'lum tusdag'i moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish xuquqiga litsenziya, ruxsatnoma yo'q.	Xo'jalik operatsiyalari noqonuniy deb hisoblanishi mumkin.
Shartnoma tuzilgan, operatsiyalar esa uni rasmiylashtirish va mazmuniga doir boshqa qonun talablariga rioya qilmay amalga oshirilgan.	Shartnoma va operatsiyalar qonunga xilof deb topilishi, unda ishtirot etgan yuridik va jismoniy shaxslar javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shubhali xo'jalik operatsiyalarini puxta tekshirish aslida yana auditor aniqlangan suiiste'molar auditning boshqa segmentlariga qanday ta'sir qilishini aniqlash uchun, hisob va hisobotga kiritilgan aniqlangan suiiste'mollarining oqibatini bartaraf etadigan tuzatishlarning xarakterini aniqlash uchun talab qilinadi. Agar auditni amalga oshirish davri vaqt jihatidan audit qilinayotgan davrdan keyin bo'lsa (masalan, buxgalterya hisoboti soliq inspeksiyasiga topshirilgandan keyin) u holda ish tugagandan keyin taqdim etishi lozim bo'lgan auditorlik xulosasining shaklini ham belgilash zarur, Ravshan bo'lgan, lekin puxta yashirilgan suiiste'mollarni aniqlash uchun ba'zan tekshiruvchilarning yuksak professional mahoratigina emas, ularning qimmatli ish vaqtini uchun katta xarajatlar ham talab qilinadi. Auditorlarning ma'muriyat suiiste'mollarini aniqlashga nisbatan xodimlarning suiiste'molini aniqlashi ehtimoli ko'proq. Audit nazariyasi va amaliyotida tegishli tezis belgilanishi sabablarini topish qiyin emas. Masalan, ma'muriyat vakillari jinoiy til biriktirib, buxgalterya hisobining ma'lum boshlang'ich hujjatlari va registrlarini soxtalashtirishga qasd qildilar, ya'ni soxta hisob yozuvlari (haqiqat me'zoniga to'la yoki qisman mos kelmaydigan sifatsiz hujjatlar va yozuvlar qilishga) bel bog'ladilar. Amaldagi ichki nazoratning tegishli tizimi yollanma xodimlar ommasi tomonidan emas, balki ayni ma'muriyat tomonidan tuzilgani uchun ham ma'muriyat vakillarining shu tizimdagi ma'lum nazorat talablarini buzishlari osonroq.

Buxgalteriya hisoboti oddatdag'i auditdan o'tgandan so'ng ma'muriyatning puxta yashirgan suiiste'mollarining auditorlar tomonidan ochilmasligi ehtimoli qoladi. Agar hisobot davrida auditorlar almashtirilgan bo'lsa, bunday ehtimollik darajasi oshadi.

Tekshirish moliyaviy hisobotning har bir shakli bo'yicha tegishli shakldagi ko'rsatkichlarni asosiy daftar schyotlari bo'yicha qoldiqlar va aylanmalar bilan alohida-alohida tekshiriladi.

Hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlar asosiy daftardagi ma'lumotlar bo'yicha tekshirib bo'lmaydigan hollarda auditorlar tahliliy hisobning tegishli registrlaridan foydalanadilar.

Buxgalteriya balansi va asosiy daftar ko'rsatkichlarning muvofiqligini tekshirish natijalari auditorning ish hujjatida umumlashtiriladi.

Buxgalteriya balansida ko'rsatkichlar «netto» baholangan hollarda (masalan, «Asosiy vositalar moddasi») auditorning ish hujjatida oldindan asosiy daftar ma'lumotlari bo'yicha qiyosiy tarzda hisoblab chiqiladi. Agar buxgalteriya balansida aks ettiriladigan ko'rsatkichlar bir necha o'zaro bog'liq (sintetik) schyotlar (masalan, «Xom ashyo, materiallar va shunday qadriyatlар» moddasi) bo'yicha saldo qiymatidan iborat bo'lsa, yoki kichik schyotlar bo'yicha bo'lsa, tegishli schyotlar (kichik schyotlar) bo'yicha qoldiqlarni jamlashning to'g'riligi auditorning ish hujjatidagi yozuvlar va hisoblar bilan tasdiqlanadi.

*Taklif etilayotgan auditorning ishchi hujjati-IX№1.*

**Buxgalteriya hisobida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar,  
ularni moliyaviy hisobotning haqqoniyligiga ta'siri.**

Nº	Tartibga soluvchi me'yoriy hujjat	Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning tasnifi	Xatolarning moliyaviy hisobot haqqoniyligiga, soliq qonunchiligidagi ta'siri
1	«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizom 1-ilova 1.18-band	Bosh muhandisning xizmat safari bo'yicha avans hisoboti tasdiqlangan va me'yordan oshiqcha 250 ming so'm to'langan	Nizomning 1-ilovasiga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektning daromad(foyda) solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani sun'iy kamaytirgan va foydani asossiz 250 ming so'mga oshishiga olib kelgan
2	«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizom 1-ilova -band	Dastlabki hujjatlarga muvofiq hisoblangan mehnat haqi summasi ishchilarining shaxsiy varaqlari, hisob-to'lov, hisoblashish vedomost-lari, hisob registrlari (jurnal-order, bosh daftari) ma'lumotlariga 6300 ming so'mga to'g'ri kelmaydi	6700-«Mehnat haqi yuzasidan xodimlar bilan hisoblashishlar» schyotining oboroti va qoldig'ini 6300 ming so'mga asossiz oshishiga olib kelgan natijada balansning (1-shakl) passiv qismidagi II bo'lim 720-satr 6300 ming so'mga asossiz oshgan
3	«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizom 1-ilova 1.35-band	Ishlab chiqarish jarayoniga bevosita tegishli bo'lмаган moddiy boyliklarning me'yordan oshiqcha tabiiy kamayishi 2400 ming so'm mahsulot tannarxiga kiritilgan	Mahsulot tannarxini sun'iy ravishda 2400 ming so'mga oshirgan, shuningdek, foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazaga kiritilmagan. Hisobotning (2-shakl) 250-satr foyda solig'i 2400 ming so'mga kamaytirilgan
4	«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizom 1-ilova 2.1.3.1-band	Dam olish kunlarida ishlagan ishchilariga tarif stavkalariga va maoshlariga ustama haqlar hisoblangan 1450 ming so'mga	Soliqqa tortiladigan bazaga kiritilmagan. Natijada hisobotning 2-shakli 250-satr foyda solig'i 1450 ming so'mga kamaygan
5	«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi	Xodimlarga kasalligi tufayli moddiy yordam sifatida berilgan 2940 ming so'm	Mahsulot tannarxiga qo'shilib uni sun'iy ravishda 2940 ming so'mga oshirgan, shuningdek,

	Nizom 1-ilova 1.32-band	mahsulot tannarxiga kiritilgan	foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazaga kiritilmagan. Hisobotning (2-shakl) 250-satr foyda solig'i 2940 ming so'mga kamaygan
6	«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizom 1-ilova 1.33-band	Sog'lomlashtirish lagerlarini saqlash va ishlatalish uchun 11500 ming so'm to'lab berilgan	Soliqqa tortiladigan bazaga kiritilmagan. Natijada hisobotning 2-shakli 250-satr foyda solig'i 11500 ming so'mga kamaygan

Tekshirish jarayonida aniqlangan tafovutlar to'g'risidagi ma'lumotlar auditorning IX-1 «Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlari va asosiy kitob registrlari muvofiqligini tekshirish natijasidan aniqlangan tafovutlar to'g'risidagi ma'lumotlar» shaklidagi hisobot hujjatida umumlashtiriladi va auditorlik tekshirishining tegishli bo'limiga kiritiladi (3.4-jadval).

Auditor moliyaviy hisobot auditini o'tkazishda dastlabki hujjatlardagi ma'lumotlar bo'yicha aniqlangan tafovutlarning tasmifi biz taklif etayotgan auditorning ishchi hujjati-IX №1 shaklida rasmiylashtiriladi. Dastlabki hujjatlar ma'lumotlari hisob registrlaridagi ma'lumotlar bilan taqqoslanib, tafovutlari aniqlanadi. Auditorning ishchi hujjati-IX №1 shaklda keltirilgan tafovutlар summalarini auditorning ishchi hujjati-IX №2 shaklda umumlashtiriladi. Bu shaklga muvofiq yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar summalariga tuzatish provodkalarini tavsiya tarzida beriladi. Taklif qilingan auditorning ishchi hujjatlarini (IX №1 va IX №2) shakllari aniqlangan tafovutlar to'g'risida tezkor, aniq ma'lumotlar olishga imkon beradi, shuningdek, auditorning ish sifatini oshiradi.

Boshqa hisobotlardagi ko'rsatkichlarning (buxgalteriya balansi bundan mus tasno) muvofiqligini tekshirish natijalari auditorning IX-2 shaklidagi ishchi hujjatida umumlashtiriladi.

Tekshirish davomida o'zaro bog'liq schyotlar hamda tahliliy hisob bo'yicha qoldiqlar va oborotlari solishtiriladi. Tekshirish odatda tanlab o'tkaziladi. Tanlov miqdori tekshirish uchun tanlab olinadigan sintetik va tahliliy hisoblash schyotlar miqdori, ularning nomi, tekshirilayotgan davrlari, moddiylik darajasi audit dasto'rini tuzish vaqtida belgilab olinadi.

Tekshirish uchun quydagilardan foydalaniladi:

- a) hisob yuritishning jurnal-order usulida - jurnal-orderlar, o'zaro bog'liq hisoblashga tegishli tahliliy hisoblash vedomostlari (kartochkalari);
- b) hisoblash texnikasidan foydalanganda - sintetik schyotlarning mashinagramma-vedomostlari;
- v) hisob yuritishning soddalashtirilgan shaklida xo'jalik operatsiyalarini hisoblash daftari, tahliliy hisobning kartochkalari (jurnal, daftar).

Tekshirish natijalari auditorning tekshirilgan schyotlarning har biriga IX-2 shaklda alohida tuziladigan ishchi hujjatida umumlashtiriladi. Tekshirish jarayonida aniqlangan tafovutlarga auditor tomonidan moliyaviy hisobotga tuzatish kiritish uchun tavsiyanoma beriladi (IX-2 shakldagi auditorning ishchi hujjatiga muvofiq).

**Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tekshirishning yakuniy natijalari to'g'risidagi hisob-kitoblar**

Ko'rsatkich lar	Hisobot ma'lumotlari bo'yicha			Axborot manbalari (Bosh daftар, hisob registrлari)	Schyotlar bo'yicha summalar		Hisobotdagi farqi		Schyotlar korresponden tsiyasiga tuzatishlar	
	Satr kodi	Ustun raqami	Schyot raqami		Buxgalte riya ma'lumot -lari bo'yicha	Audit ma'lumot -lari bo'yicha	Kam ay gan	Ko'p ay gan	D-t	K-t
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Daromad (foyda) solig'ini to'lagung a qadargi foyda (zarar)	240	5	9910	Bosh daftar, «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot, 2-shakl	9540	9290		250	9910	9430
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz	720	4	6710	Balans, 1-shakl, Bosh daftar	22630	16330		6300	6710	9430
Rezerv kapitali	430	4	8510	Balans, 1-shakl, Bosh daftar	185450	196650	11200		8510	8520
Asosiy vositalar	012	4	0160	Balans, 1-shakl, Bosh daftar	185450	196650	11200		0160	8510
Asosiy vositalar ning eskirishi	011	4	0260	Balans, 1-shakl, Bosh daftar	7330	9780	2450		8510	0260

Yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zararni) ishonchlilagini tekshirish chog'ida auditor Bosh kitob, №12-APK, №15-APK jurnal-orderlari, №70-APK, №71-APK vedomostlari va balansdagi qaydlar bo'lgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarning muvofiqligini aniqlashi lozim.

Tashkilot moliyaviy natijasi (№2-formasida) arifmetik summasini auditning boshlang'ich hujjatidagi ishonchlilagini belgilash uchun nazoratning balans usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir:

$$1. P_{(u)} = A_k - A_n + , - IS +, - IK + IP ,$$

bunda,  $P_{(u)}$  - hisobot davridagi foyda (zarar), so'm;

$A_{(k)}$ ,  $A_n$  - hisobot davri boshi va oxiridagi balans aktivi yaqinlari, so'm;

IS - balans passivining o'z manbalarini namoyon etuvchi moddalar o'zgarishlari summasi (hisobot davri foydasidan foydalanilishini hisobga olmagan holda), so'm;

IK - balans passivining kreditorlik qarzdorligini namoyon etuvchi moddalar o'zgarishlarining summasi, so'm;

IP - moliyaviy natijalar haqida hisobotdagi foydadan foydalanish summasi, so'm.

$$2. P_{(u)} = D_d - D_r - A_{iek},$$

bunda,  $D_d$  - hisobot davridagi kirimlari, so'm;

$D_r$  - pul (sotishdan tashqari) xarajatlari, hisobot davrida sotilgan mahsulot qiymati (barter bitimlarida - berilgan tovarlar tannarxi), so'm;

$A_{iek}$  - hisobot davridagi bo'naklar, zayomlar va kreditlarning olingan summasi, so'm.

Mazkur uslub (2) tekshirilayotgan tashkilotda soliqqa tortish maqsadida mahsulotni sotishdan tushgan tushumni "to'lov" usuli bo'yicha aniqlanganda foydalanish mumkin.

Bu uslub bo'yicha moliyaviy natija hisob-kitobi uchun №1-APK, №2-APK, №3-APK, №4-APK, №6-APK, №10-APK, №11-APK, Bosh kitob, pul mablag'lari harakati haqidagi hisobot (forma 4) ma'lumot manbalari hisoblanadi.

$$3. P_{(u)} = D_d - D_r - A_{iek} + D_z,$$

bunda  $D_z$  - hisobot davrida sotishdan tashqari daromadlar bo'yicha ortilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar), boshqa mulk uchun haridorlar, buyurtmachilar, boshqa debitorlarning debitorlik qarzi.

Mazkur uslubdan tekshirilayotgan tashkilotda soliq solish maqsadida sotishdan tushgan pulni "ortish" usuli bo'yicha aniqlanganda foydalanish mumkin.

Shuni yodda tutish lozimki, yakuniy moliyaviy natijani tekshirish uchun 2 va 3 usullaridan foydalanishda foydaga qo'yilgan soliqdan tashqari (viruchka) va sotishdan tashqari daromadlarga qo'yilgan soliqlarni hisobga olgan holda moslash zarur.

$$4. P_{(u)} = D - Z + A,$$

bunda  $D$  - daromadlar (kredit aylanma), so'm;

$Z$  - chiqimlar (debit aylanma), so'm;

$A$  - aktivlar qoldiqlari o'zgarishi (to'lanmagan ishlab chiqarish zahiralari, asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar).

Ushbu uslubdan (4) oddiy tizim bo'yicha buxgalteriya hisobi olib boradigan tashkilotlarda foydalaniladi ("daromad-buromad" tamoyili bo'yicha).

Auditorlik tekshiruvi shu narsani ishonchli tarzda namoyon etadiki, hisob xodimlarining zaif malakasi tufayli ayrim tashkilotlarda moliyaviy natijalarni asossiz ravishda shaklantiradilar va buxgalteriya hisobidagi foydadan foydalanishni noto'g'ri aks ettiradilar. Shu bois shu narsani bilish lozimki, moliyaviy natijalar mahsulot (ishlar, xizmatlar), asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, turli moddiy boyliklar va boshqa mulknii sotishdan vujudga keladi.

Moliyaviy natija (foyda va zarar) sotishdan tashqari daromadlar deb ataluvchi sotish va boshqa mulk chiqarushi bilan bog'liq bo'lмаган boshqa ishlarda ham aniqlanishi mumkin. Bunga boshqa tashkilotlar faoliyatidagi ulushli ishtirotidan tushgan daromadlar; aktsiyalar bo'yicha dividentlar va obligatsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlardan keladigan daromadlar; mulknii ijaraga berishdan keluvchi daromadlar; qarzdor tomonidan xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganligi uchun to'lanadigan yoki tan olingan jarimalar, penyalar, ustamalar va jazoning boshqa turlari, shuningdek, ko'rilgan zararni undirishdan keladigan daromadlar; hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar foydasi; valyuta schyotlari, shuningdek, chet el valyu tasidagi ishlardan bo'yicha ijobiy kurs farqlari; ishlab chiqarish va

mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotish bilan bevosita bog'liq bo'limgan ishlardan keladigan boshqa daromadalar kiradi.

Balans foydasini kamaytirishga (soliq solish) (99-schyoti debeti) kira digan sotishdan tashqari chiqimlar (zararlar) ga quyidagilar kiritiladi: bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha chiqimlar; konservatsiya qilingan ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa chiqimlar; tashqi sabablar bo'yicha turib qolishdan ko'rilgan, aybdorlardan undirib olinmaydigan zararlar; tara idishlari bo'yicha ko'rilgan zararlar; sud xarajatlari va hakamlik chiqimlar; xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganligi uchun taqaladigan yoki tan olinadigan jarimalar, penyalar yoki jazoning boshqa turlari, shuningdek, etkazilgan zararlarni undirish bo'yicha daromadlar; qonunga muvofiq zahira bo'yicha boshqa tashkilotlar bilan hisob-kitob bo'yicha shubha qilingan qarz summalar; debtorlik qarzlarni hisobdan o'chirishdan ko'rildigani zararlar, ularga binoan da'vo muddati o'tib ketgan bo'ladi; da'vo qilish uchun assosiz deb topilgan boshqa qarzlardan keladigan daromadlar; joriy yilda aniqlangan o'tgan yillardagi ishlar bo'yicha qurilgan zararlar; tabiiy ofatlardan ko'rilgan, undirib bo'lmaydigan zararlar, ular oqibatlari oldini olish va bartaraf etish bilan bog'liq chiqimlar ham shunga kiradi; keskin shartlardan kelib chiquvchi favqulodda holatlar natijasida ko'rilgan, undirib bo'lmaydigan zararlar; aybdorlar aniqlanmagan yoki shaxs aybdorligi sud tomonidan inkor etilgan o'g'irliliklar va mulk kamomadidan ko'rilgan zararlar; valyuta schytotlari, shuningdek, chet el valyu tasi ishlari bo'yicha salbiy kurs farqlari; moliyaviy natijalar hisobiga qonunda belgilangan tartibga muvofiq to'lanadigan alohida soliq va yig'im turlariga haq to'lash bo'yicha ketadigan boshqa xarajatlari va h.k.

Yakuniy natija ko'rsatkichlarining ishonchlilagini belgilash uchun auditor ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar hisobi (muomala chiqimi) va mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini hisobdan chiqarish to'g'riliгини; byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha moliyaviy organlar, debtorlar va kreditorlar bilan naqd va naqdsiz hisob-kitoblar shaklidagi to'lovlar, mehnatga haq to'lash hisob-kitoblarini tekshirishi lozim.

Eslatib o'tamizki, ishlab chiqarishga ketadigan chiqimlar, hisob-kitoblar va h.k. hisoblari bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlar birlamchi hujjatlar bilan tasdiqlanmog'i darkor.

Birlamchi hujjatarning barcha asosiy rekvizitlarini o'rganar ekan, auditor bu hujjatarning ishonchliligi va o'tkazilgan xo'jalik ishlarining qonuniyligiga ishonch hosil qilishi shart. Bu erda auditor hujjatlarni rasmiylashtirish tartibiga qo'yilgan talablarga rioya qilinishini tekshirishi, shuningdek, quyidagi jadvalda keltirilgan qoidabuzarliklar belgilari bo'yicha aniqlash mumkin bo'lgan sifatsiz yoki haqiqiy bo'limgan hujjatlarni aniqlay olmog'i shart.

Bundan keyin auditor quyidagilarni tekshirishi lozim: sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning to'la (tijorat) tannarxi hisobi va shakllanishining to'g'riliги; mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum hisobi va to'la aks ettirilishining to'g'riliги; sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning to'g'ri baholanishi; sotishdan tashqari daromadlarning asosliligi va to'g'riliги; moliyaviy natijalar hisobi ma'lumotlarining №15-APK jurnal-orderi, Bosh kitob va №2 formasi bo'yicha hisobotdag'i hisob ma'lumotlari bilan muvofiqligi.

#### **Hujjatlarni rasmiylashtirish chog'ida qoidabuzarliklar mazmuni va belgilari**

Nº	Qoidabuzarliklar mazmuni	Qoidabuzarliklar belgilari <sup>7</sup>
1	tasdiqlovchi hujjatda ish bajarishga berilgan farmoyish yo'q.	Rahbarlarning imzolari, buyruqlardan, Direktorlar kengashi, ta'sischi (aktsionerlar) qarorlaridan ko'chirmalar yo'q.
2	Boshqaruv hujjatida tasdiqlovchi hujjat yo'q.	Qandaydir sabab bilan ish o'tkazilmagan.

3	Hujjatlar belgilangan shakli buzib tayyorlangan.	Ishonchnomalar, schyotlar, dalolatlar va h.k. o'zbilar-monlik bilan tuzilgan.
4	Bir hujjatning o'zida rekvizitlar mos kelmaydi.	Hujjatlar bir tashkilot nomidan tuzilgan, muhr esa - boshqa tashkilotniki.
5	Hujjatlarda yozma rekvizitlar to'la yoki qisman yo'q.	Kerakli rekvizitlar yo'q, ish mazmuni to'g'ri ifoda etilmagan.
6	Hujjatlarda manbalar mavjud bo'lgan ilovalar yo'q.	Hujjatlarda ilovalar ko'rsatilgan, aslida esa ular yo'q.
7	Hujjatlar imzolashga huquqi bo'lмаган kishilar tomonidan imzolangan.	Pul hujjatlarini cassir imzolagan, yuk xatlarmi esa ombor mudiri imzolagan va h.k.
8	Imzolar qalbaki, o'chirilgan, tuzatilgan, qirilgan joylar bor.	O'chirilgan, qirilgan, to'g'rilaнган joylar bor va h.k.
9	Tegishli hujjatlarda muhr yo'q.	Ishonchnomalar, tovar cheklari, kvitantsiyalar va h.k. muhrsiz.
10	Hujjatlardagi yozma rekvizitlar mazkur tashkilot uchun xos bo'lмаган ishlarni ko'rsatib turibdi.	Hujjatlarda aslida asoslanmagan ishlar mavjud (haqiqiy emas).
11	Birgina bitimning o'zi bo'yicha hisob-kitob va to'lov hujjatlari ma'lumotlarini tadqiq etish ularning muvofiq emasligini ko'rsatib turibdi.	Shu hisoblarga haq to'lash bo'yicha to'lov topshiriq-nomalari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun taqdim etilgan schyot-fakturalar ma'lumotlari mos kelmaydi.
12	Hujjatlar bo'yicha o'tkazilgan ishlar haqiqiy emas.	Tovar moddiy boyliklar xarajati ombordan chiqarish bilan tasdiqlanmagan. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul mablag'larini o'tkazishda schyot-faktura va shartnomalar etilmagan.

Foyda olish - bu ishbilarmonlik faoliyatini asosiy maqsadidir. Biroq muayyan hollarga ko'ra, (soliq qonunchiligini bilmaslik, buxgalteriya hisobidagi pala-partishlik, shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik va h.k.) tashkilot zarar ko'rishi mumkin. Shu bois tashkilot faoliyatining yakuniy natijalari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun 99- "Yakuniy moliyaviy natija" tranzit schyotidan foydalaniлади.

Tajriba shuni ko'rsatadi, soliq qonunchiligini buzganlik uchun jarimalar, zayomlar bo'yicha foizlar, mulkni noto'g'ri havola etishdan ko'rilgan zararlar va h.k. kabi to'lovlarning summalarini 99-schyot debetiga o'tkazish hollari tez-tez uchrab turadi, holbuki bunday chiqimlar tashkilot ixtiyorida qolgan foyda hisobiga kiritilishi lozim.

Yil yakunida taqsimlanmagan foyda summasiga foydani kamaytirish amalga oshiriladi (99-schyot debetida va 87-schyot krediti deb yozib qo'yiladi). (Taqsimlangan foyda summasi va hisobot yili zarari 99 hisobdan 87 "Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" hisobiga ko'chirib o'tkaziladi.)

Moliyaviy natijalarni tekshirish chog'ida foyda solig'i badalini byudjetga o'z vaqtida o'tkazilishi va schyotga yozib qo'yishning to'g'riliгini, (qishloq xo'jaligi tashkilotlarda - boshqa sotuvlardan tushgan foydadan); maxsus fondlar tashkil etishning to'g'riliгini; ta'sischilar o'rtasida foyda (dividentning bir qismi)ni taqsimlashning to'g'riliгini tekshirish zarur.

Hisobga yozib qo'yish to'g'riliqi va foyda solig'i byudjetga badal to'lashning o'z vaqtidaligini tekshirish chog'ida auditor shu narsaga e'tibor qilmog'i lozimki. Davlat soliq qo'mi tasining ko'pgina xodimlari "pasaytirilgan daromad solig'i" degan nom ostida jarima jazolari qo'llash yo'li bilan tashkilotlarga asossiz ravishda jarima soladilar. Bunday holda shuni esda tutish maqsadga muvofiqki, yashirib qolningan daromaddan shu miqdorda 100%li jarima bilan soliq undirib olinadi.

## **12.Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar hisobini tekshirish xususiyatlari.**

Asosiy vositalar mavjudligi va saqlanishini, amortizatsiyani tugri hisoblanganligini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdan maqsad buxgalteriya hisoboti moddalarining haqqoniyligini ta'minlashdan iborat.

Bunda auditor quyidagilarni tekshirishi lozim: korxonada belgilab qo'yilgan chegaradan qiymati past bo'lgan ob'ektlar yoki qiymatidan qat'iy nazar xizmat muddati 12 oydan kam bo'lgan ob'ektlar asosiy vositalar qatoriga o'tib qolmaganligi; korxonada asosiy vositalar joriy aktivlar qatoriga va aksincha o'tkazilmaganligi; bunda shuni nazarda tutish zarurki, ob'ekt qiymatining chegarasi ob'ektni sotib olish (foydalanishga topshirish) sanasiga aniqlanadi. Asosiy vositalarni joriy aktivlar qatoriga asossiz o'tkazish auditorlik tekshiruvi chog'ida aniqlanadigan xatolardan biridir. Ko'p hollarda bunday o'tkazishning sababi korxonaning qo'shimcha amortizatsiya hisoblash hisobiga o'z chiqimlarini ko'paytirishga intilishi hisoblanadi.

Auditorlik tekshiruvi chog'ida korxonaning asosiy vositalar ob'ektlariga mulkiy huquqining talab darajasida rasmiylashtirilganligini isbotlash zarur.

Auditorga asosiy vositalar ob'ektlarini yaratish, sotib olish, amortizatsiyani to'g'ri hisoblanganligini nazorat qilish, berish shartnomalari, zarur hollarda esa - qonunchilikka muvofiq oldi-sottini ro'yxatga olish guvohnomasi taqdim qilinadi.

Asosiy vositalar amortizatsiyasining to'g'ri hisoblanganligi asosiy vositalar to'g'ri baholanganligini aniqlash asosiy vositalar mavjudligi va harakatini tekshirish chog'idagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki mulk solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblar, shuningdek korxona faoliyatining moliyaviy natijalarini aks ettirish va hisobot tuzish shunga bog'liq.

Auditor tekshiruv o'tkazishda asosiy vositalarni hisobga qabul qilish uchun asos bo'lgan dastlabki hujjatlarni (AV-1,AV-6 va boshqa shakllar) jalb qiladi.

Asosiy vositalarni baholashning to'g'riliqini tekshirish yoppasiga (ob'ektlar soni unchalik katta bo'lmaganda) yoki tanlab o'tkaziladi.

Asosiy vositalarni baholash va dastlabki qiymatini aniqlash amaldagi qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi hamda asosiy vositalar ob'ektlarini sotib olish usuliga bog'liq.

Auditor O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq asosiy vositalar oldi-sotdi shartnomalarining mavjudligi va rasmiylashtirilishini, ayrim xarajatlarni asosiy vositalar qiymatiga qo'shishning qonuniyligini; tugallangan qurilish ob'ektlari inventar qiymatining to'g'ri aniqlanganligi; qo'shimcha qurilganidan va qo'shimcha jihozlanganidan, qayta jihozlanganidan, zamonaviylashtirilganidan yoki qisman tugatilganidan so'ng ob'ekt qiymati to'g'ri aniqlanganligini tekshiradi.

Bunda auditor №21 BHMS ga muvofiq kiritilgan o'zgartishlarga alohida e'tibor qaratishi zarur. Xususan, asosiy vositalarni sotib olish va qurish bilan bog'liq, ammo belgilangan tartibga ko'ra asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga qo'shilmaydigan xarajatlar 01.01.2002 dan ob'ektlarning dastlabki qiymatiga qo'shilmaysdan, 9430 schyot debetiga olib borilganligiga e'tibor berishi kerak.

Auditor baholarni kelishish bayonnomasi va ta'sis hujjatlarida asosiy vositalar baholanishining aks ettirilishi; boshqa xarajatlarni asosiy vositalar dastlabki qiymatiga qo'shishning qonuniyligi; bozor baholarini qo'llashning ishonchliligini tekshiradi.

Asosiy vositalar bozor bahosini aniqlash uchun aynan shularga o'xshash mahsulotlar baholari to'g'risida tayyorlovchi - tashkilotlarning yozma ravishda bergan ma'lumotlaridan; ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda e'lon qilingan baholar to'g'risidagi ma'lumotlardan; ayrim asosiy vositalar ob'ektlarining qiymati to'g'risida ekspert xulosalaridan foydalanish mumkin. Bunday asosiy vositalarni tashib keltirish bo'yicha korxona tomonidan qilingan xarajatlar ham ob'ekt qiymatiga qo'shiladi.

Chet el valyutalari hisobiga sotib olingen asosiy vositalarni baholash chet el valyutasini o'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan, asosiy vositalar ob'ektini sotib olish sanasiga amal qilayotgan valyuta kursi bo'yicha so'mga hisoblab o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Auditor kontrakt shartlariga muvofiq mulkka egalik huquqining o'tish vaqtini to'g'ri aniqlanganligi; asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'liq bojxona to'lovlari va boshqa chiqimlarning sotib olingen asosiy vositalar qiymatiga qo'shilganligini tekshirishi lozim.

Auditor asosiy vositalarni baholashning to'g'riliгини tekshirish chog'ida asosiy vositalar dastlabki qiymatining o'zgarish hollari bo'lganligiga, qanday sabablar (qo'shimcha qurish, qo'shimcha jihozlash, qayta jihozlash, qisman tugatish) o'zgarishga olib kelganligiga, kapital qo'yilmalarga doir xarajatlar 0810,0820,0840 va 0890 schyotlarda aks ettirilganligiga e'tibor qaratishi lozim.

So'ngi yillarda asosiy vositalarni qayta baholashni tekshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. 21-BHMSga muvofiq korxonalarda asosiy vositalar ob'ektlarini qayta baholash summalarini 8510 – «Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyotida aks ettiriladi. Bunday tekshiruv qayta baholash natijalarini rasmiylashtirilgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Bunda auditor quydagilarni tekshirishi lozim: barcha asosiy vositalar to'ligiga yoki ularning bir qismi qayta baholanganligi; asosiy vositalar tarkibida hisobda to'rgan er uchastkalari va tabiiy foydalanish ob'ektlari qayta baholanganligi; qayta baholash qanday usullar yordamida o'tkazilganligi (indeksatsiya qilish yoki hujjat bilan tasdiqlangan bozor baholari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri hisoblab o'tkazilishi va h.k.); bozor baholarini tasdiqlaydigan hujjatlarning mavjudligi; hisob-kitoblar to'g'riliгini tanlab tekshirish; qayta baholashdan so'ng eskirganlik darajasi o'zgarganligi, qayta baholash natijalarining inventar kartochkalarida aks ettirilganligi, qayta baholash natijalarining buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligi, qayta baholash natijalarining hisobot tuzishda hisobga olinganligi va shunga o'xshashlar.

Asosiy vositalar mavjudligini tekshirish va amortizatsiya hisobi uchun analitik hisobni tashkil etish o'rganiladi. (bu haqda keyingi mavzuda batafsil ma'lumot beriladi). Shuningdek, auditor asosiy vositalar qanday saqlanayotganligini va ularni inventarizatsiya qilish natijalarini ham tekshirishi lozim.

Asosiy vositalarni inventarizatsiya qilishni tekshirishda auditor dastlabki hujjatlar - inventarizatsiya ro'yxatlari (inv-1, inv-10, inv-18 shakllar), inventarizatsiya komissiyasi majlis bayonnomalarini, inventarizatsiya natijalarini bo'yicha korxona rahbariyatining qarorini o'rganadi.

Inventarizatsiya materiallarni tekshirish auditorga auditorlik xatarlari va auditorlik amallarini tuzatish uchun, ichki nazorat natijalariga qanchalik tayanish mumkinligiga ishonch hosil qilishi uchun zarur.

Bunda u inventarizatsiya o'tkazishda №19 – «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli BHMS umumiyl qoidalariga, xususan 24-29 bandlariga rioya qilinganligini aniqlaydi. Shu bilan birga auditor inventarizatsiya natijasida oshiqcha va kam chiqqan asosiy vositalarni buxgalteriya hisobi schetlarida aks ettirilishi va soliqqa tortilishining to'grilagini ham tekshiradi. Bunda auditor O'zbekiston Respublika Adliya Vazirligi tomonidan 23 iyun 2001 yilda 1054-raqam bilan ro'yxatga olingen «Inventarizatsiyada aniqlangan mulklar kamomadi va oshiqcha chiqishini buxgalteriya hisobida aks ettirish va soliqqa tortish to'g'risidagi qaror» ga rioya qilingani tekshiradi.

Hisobga olimmay qolgan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ular asosiy vositalar tarkibiga qo'shilgan paytdan boshlab umumiy belgilangan tartibda hisoblanadi.

Ko'zatib chiqish amallari yordamida asosiy vositalar va ularning amortizatsiyasiga doir quyidagi ma'lumot manbalarining o'zaro mosligini tekshirish amalgalashiriladi:

\* moliyaviy hisobot shakllarining asosiy vositalar amortizatsiyasiga doir ko'rsatkichlari;

\* moliyaviy hisobot shakllari va bosh daftar ko'rsatkichlari;

\* Bosh daftar, sintetik va analitik hisob registrlari ko'rsatkichlari.

Dastavval, auditor moddiy javobgar shaxslarni va ular bilan tuzilgan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar mavjudligini aniqlashi zarur. Agar shartnomalar bo'lmasa, u holda auditorlik tekshiruvni dalolatnomasida ularni tuzishni tavsija qilishi lozim.

Amaldagi tartibga ko'ra asosiy vositalar amortizatsiyasining analitik hisobi ularning tasnifiy guruhlari va inventar ob'ektlari bo'yicha, shuningdek ob'ektlarning moddiy javobgar shaxslarda turish joyi (bo'linmalar, brigadalar, sexlar, uchastkalar va boshqalar) bo'yicha yuritiladi.

Korxonaga kelib tushgan asosiy vositalar amortizatsiyasini tekshirishda har bir ob'ekt bo'yicha alohida tuzilgan qabul qilish - topshirish dalolatnomasi (naqladnoyi) (AV-1 shakl) ning rasmiylashtirilishiga e'tibor qaratish zarur. Bunda dalolatnomadagi ob'ektning tavsifi, to'rgan joyi, sotib olingen manbai, chiqarilgan yoki qurilgan yili, ishga tushirilgan vaqt, ob'ektning sinov natijalari, uning texnik talablarga muvofiqligi va boshqa ma'lumotlar tekshiriladi.

Ayrim hollarda bir turdag'i va narxi bir xil xo'jalik inventarlari, asboblar, stanoklar olinganda «Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish umumiy dalolatnomasi» tuzilishi mumkin.

Auditor asosiy vositalarga eskirish hisoblashning to'g'riliqini tekshirishda o'rnatilgan har oylik eskirish hisoblash qoidalariga buxgalteriya tomonidan rioya qilinayotganligini aniqlashi lozim. Bunda tekshirish uchun asosiy vositalarga eskirish hisoblashda to'ldiriladigan 6-shakldagi hisob-kitob jadvali asos bo'lib xizmat qiladi. Auditorga xizmat qilish muddati o'tib, amortizatsiya hisoblash to'xtatilgan asosiy vositalar ob'ektlarning ro'yxati taqdim etilishi lozim. Agar korxonada tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash mexanizmi qo'llanilsa, ushbu holat uning hisob yuritish siyosatida ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Auditning ushbu blokida quyidagi ishlar amalgalashiriladi:

\* korxona hisob siyosatida ko'rsatilgan - asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash qoidalariga rioya qilinishini tekshirish;

\* amortizatsiya ajratmalarini asosiy vositalarning u yoki bu guruhiga olib borishning to'g'riliqini tekshirish;

\* har oylik amortizatsiya ajratmalari summalari bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish;

\* amortizatsiya ajratmalarining hisobda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirilishini tekshirish.

Amortizatsiya ajratmalarini hisoblash va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirishning to'g'riliqini aniqlash № 5 BHMS, 21-BHMS va mijoz-korxona hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'ining tegishli qismiga muvofiq amalga oshiriladi. Buning uchun korxona hisob siyosati bo'yicha buyrug'ining qoidalari; asosiy vositalar amortizatsiya hisob-kitobi bo'yicha ishlanma jadvallar ko'rsatkichlaridan foydalilanadi.

Auditor amortizatsiya hisoblashning maxsus shartlari qo'llaniladigan asosiy vositalar ob'ektlarining ro'yxatini olishi zarur. Bularga xususan quyidagilar kiradi:

- \* xizmat qilish muddati o'tib ketgan asosiy vositalar;
- \* amortizatsiya hisoblanmaydigan asosiy vositalar;
- \* konservatsiyadagi asosiy vositalar;
- \* amortizatsiya hisoblash to'xtatilgan asosiy vositalar;
- \* jadallashtirilgan amortizatsiya usuli qo'llanilayotgan asosiy vositalar;
- \* noishlab chiqarishdagi asosiy vositalar;
- \* moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingen asosiy vositalar.

Amortizatsiya ajratmalarining hisoblanishini tekshirish chog'ida auditor amortizatsiya hisoblash usullari (chiziqli usul, kamayib boruvchi qoldiq usuli, foydali ishlatish muddati davomidagi yillari yigindisi bo'yicha qiymatini hisobdan o'chirish usuli, qiymatni mahsulot (ish) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan o'chirish usuli)ga e'tibor berishi zarur.

Asosiy vositalar ob'ektlarining bir xil guruhlari bo'yicha amortizatsiya hisoblashning tanlangan u yoki bu usulini qo'llash butun foydali xizmat qilish muddati davomida boshqasiga o'zgartirilmasdan amalga oshirilishi lozim. Ammo, soliqqa tortish maqsadida amortizatsiya ajratmalar hisoblash O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 144-moddasiga muvofiq asosiy vositalar ob'ektlarining dastlabki qiymatiga nisbatan amalga oshirilishi ham mumkin.

Auditor tanlab tekshirish usuli bilan asosiy vositalarning foydali xizmat qilish muddati to'g'ri belgilanganligini aniqlaydi. Chunki, hisobot davridagi amortizatsiya ajratmalar summasi va amortizatsiya ajratmalar normalarini belgilash shunga bog'liq. Amortizatsiya ajratmalar normalari noto'g'ri belgilangan holatlar aniqlanganida, auditor buning oqibatida mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxi qanchalik oshgan(pasaygan) ligini aniqlaydi.

Shuningdek, amortizatsiya hisoblash muddatlarining boshlanish va to'xtatilish muddatlari, amortizatsiya hisoblashning muntazamligi, amortizatsiya hisoblashda pasaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llashning to'g'riliqini tekshirish zarur.

Amortizatsiya ajratmalar hisob-kitoblarining to'g'riliqi tanlab tekshiriladi.

Amortizatsiya ajratmalarini mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga olib borishning to'g'riliqini tekshirish amortizatsiya ajratmalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Auditor amortizatsiya hisoblanadigan ob'ektlar asosiy vositalarning qaysi guruhi (ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish) tegishlilagini, asosiy vositalar mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) da ishlatilayotganligi yoki operativ (qisqa muddati) lizing shartnomasi asosida berilganligini aniqlashi lozim. Noishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya ajratmalar o'z mablag'lari manbalari hisobiga, operativ lizing asosida topshirilganlari bo'yicha esa foya va zararlar schyotiga olib boriladi.

Asosiy vositalarga eskirish hisoblashni hisobga olishda eng ko'p uchraydigan qoida buzilish hollari: ayrim korxonalarda asosiy vositalarga eskirish hisoblash har choraklikda amalga oshiriladi; soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish maqsadida ataylab xizmat qilish

muddati o'tib ketgan asosiy vositalarga ham eskirish hisoblash davom ettiriladi; asosiy vositalarga asossiz tarzda tezlashtirilgan eskirish hisoblanadi va h. k.

**Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda ko'p uchraydigan xato-kamchiliklar<sup>4</sup>**

Amortizatsiya ajratmalari bo'yicha aniqlangan xatolar	Qaysi hujjat qoidasi buzilgan	Xatoning oqibati
Asosiy vositalar dastlabki (inventar) qiymatining noto'g'ri aniqlanishi (oshirilishi yoki pasaytirilishi)	?	Amortizatsiya ajratmalari summalar oshib (kamayib), soliqqa tortiladigan foydaning buzib ko'rsatilishiga olib keladi.
Korxona zarar ko'rib ishlaganida amortizatsiya hisoblanmaslik	?	Xo'jalik faoliyati moliyaviy natijasining buzilishi va amortizatsiya hisoblanadigan ob'ekt foidali xizmat muddatining cho'zilishi
Amortizatsiya ajratmalarini har chorakda bir marta (choraklik hisobot tuzish paytida) hisoblash.	?	Xo'jalik faoliyati faktlarining vaqtinchalik aniqlik tamoyilining buzilishi. Alovida davrlar bo'yicha moliyaviy natijalar buzib ko'rsatilishi
To'liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblashning davom ettirilishi	?	Buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlarining buzilishi. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxining sun'iy ravishda oshib ketishi, soliqqa tortiladigan bazaning, hamda yuridik shaxslarga mulk solig'ini hisoblashda mulklar qiymatining kamaytirilishi
Amortizatsiya ajratmalari hisoblashning boshlanish va to'xatilish muddatlarini aniqlashdagi xatolar	?	Amortizatsiya hisoblashni vaqtidan oldin boshlash soliqqa tortiladigan foydaning kamaytirilishiga, shuningdek, amortizatsiya hisoblashning vaqtidan oldin tugashini bildiradi
Ijaraga olingan asosiy vositalarga qilingan kapital xarajatlar bo'yicha amortizatsiya hisoblanishi	?	Ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxining pasayishi. Buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlarining buzib ko'rsatilishi

Amortizatsiya ajratmalarini tekshirish chog'ida quyidagi tahliliy amallar qo'llanilishi mumkin:

\* asosiy vositalarni hisobga oladigan schyotlar (0110-0199) bo'yicha qoldiqlarni va joriy yilda hisoblangan amortizatsiyani oldingi davrlardagi ma'lumotlar bilan taqqoslash va ularning o'zgarishini baholash;

\* joriy yilda jamg'arilgan amortizatsiya qoldig'ini oldingi davrlardagi qoldiqlar bilan taqqoslash.

<sup>4</sup> Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

Asosiy vositalarga eskirish hisoblashning to'g'rilingini tekshirishda auditor korxonada o'rnatilgan amortizatsiya normalarining mavjudligiga ishonch hosil qilishi lozim. Ularning yo'qligi yo'l qo'yilgan xatolarga sabab bo'lishi mumkin.

### **13.Xo'jalik usulidagi kapital qo'yilmalar audit.**

Kapital qo'yilmalarni maksadga kura xisobga olishda ishlab chikarish maksadlaridan ob'ektlar kurilshiga (kurilish tugallangandan sung moddiy ishlab chikarish soxasi: sanoat ,kishlok xujaligi, transport, aloka va shu kabilarda ishlaydigan ob'ektlar) va noishlab chikarish maksadlarida ( turar joy va kommunal xujalik, soglikni saklash muassasalari, ijtimoiy ta'minot, xalk ta'limi va boshka ) ob'ektlarga ajratiladi.

Iktisodiyot tarmoklari buyicha kapital qo'yilmalar sanoat, kishlok xujaligi, kurilish, transport, soglikni saklash, xalk ta'limi va boshka tarmoklardagi kapital qo'yilmalarga ajratiladi.

Qurilish – montaj ishlarini bajarish usuliga ko'ra kapital qo'yilmalar pudrat va xujalik usulida bajariladigan kapital qo'yilmalarga ajratiladi.

Pudrat usulini kurilish-montaj ishlariga ixtisoslashgan pudrat kurilish-montaj tashkilotlari olib boradi, bunda ikki tomon bosh puratchi va buyurtmachi alokaga kirishib ularning uzaro munosabatlari pudrat shartnomasi bilan belgilanadi. Pudrat shartnomasi ikki tomon uchun ob'ekt kurilishi uchun asosiy xujjat bulib xizmat kiladi, shuning uchun auditor pudrat shartnomasini tugri tuzilganligini, Fukarolik Kodeksiga va boshka me'yoriy xujjatlarga mos kelishini tekshirishi lozim. Tasdiklangan kapital kurilishning pudrat shartnomasi tugrisidagi koidalarga kura pudrat shartnomasi – bu buyurtmachi va pudratchilarning uzaro munosabatlarini tartibga soluvchi xamda ular tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarmagan xollarda iktisodiy javobgarliklarni belgilovchi asosiy xujjatdir. Pudrat shartnomasi buyurtmachi bilan kurilish tashkiloti urtasida korxona, bino, inshootlarni kurish, ta'mirlash, kengaytirish va texnik kayta uskunalashning butun davriga va ularning, kapital kurilish rejalariga kiritilgan xamda ular uchun belgilangan tartibda tasdiklangan titul ruyxatlari mavjud bulgandan sung tuziladi. Auditor ushu xujjatni tugri tuzilganligini tekshirishi lozim .

Bosh pudratchi umumkurilish va ixtisoslashgan tashkilotlar bilan ishlarini ayrim xamda kompleks turlanishini bajarish uchun subpudrat shartnomasini tuzish va bajarishda tomonlar yuqidagi koidalarga, bosh pudratchining subpudrat tashkilotlari bilan uzaro munosabatlari tugrisidagi nizomlarga amal kiladilar . Buyurtmachining tuzilgan subpudrat shartnomasidagi ishlarga alokador majburiyatlari esa subpudratchi zimmasiga yuklatiladi. Koidalarga kura buyurtmachi: bosh pudratchiga korxona, bino, inshootni kurish uchun muayyan maydonni , belgilangan tartibda tasdiklangan loyixani-smeta xujjatlariniberishi kurilishning uz vaktida ochilishini xamda uni uzluksiz mablag bilan ta'minlanishini, shuningdek kurilish - montaj ishlariga tulanishini ta'minlanishi, bosh pudratchiga etkazib berish buyurtmachi zimmasiga yuklangan material va uskunalarni belgilangan jadvalga kura kurilish - montaj ishlarini bajarish xamda kuvvat va ob'ektlarni ishga tushirish muddatlarini bilan kat'iy belgilangan muddatda kompleks etkazib berilishimi ta'minlanishi lozim. Buyurtmachi bajarilgan ishlar xajmi va kiymatini loyixa – smeta, kurilish me'yor va boshka koidalarga, material, buyum va konstruktsiyalarni davlat standarti va shartlariga muvofikligini pudratchining operativ – xujalik faoliyatiga aralashmay tekshiradi.

Tasdiqlangan loyiha-smeta xujjatlari, ish xujjatlari, shuningdek kurilish me'yor va koidalalaridan chetga chikishlar aniklangan xollarda aniklangan nuksonlarni pudratchidan bartaraf etishni , ayrim xollarda ishni tuxtatishni talab kiladi va nuksonlar bartaraf etilmaguncha bu ishlarga xak tulanmaydi.

Auditorning vazifasi kurilish tashkilotlarida moliyaviy xisobotlarning tigriligi va xakkoniyligini tekshirishdan iboratdir.

Qurilish tashkilotlari auditining asosiy vazifalari kuyidagilardan iborat;

- Sodir bulayotgan operatsiyalarning konuniyligini tekshirish;

- Tuzilgan shartnomalarning konuniyligini tekshirish;

- Loyiha-smeta xujjalarni tugri tuldirliganligini tekshirish;

- Qurilish tashkilotining aktivlarining tigrilagini tekshirish;

- Buyurtmachilar bilan uzaro xisob-kitoblar tigrilagini tekshirish;

- Kurilish tashkiloti daromadining shakllanishi, kurilish montaj ishlarinig tannarxi

va yakuniy moliyaviy natijalarni tekshirish.

Bosh pudratchi reja va titul ruxyatida nazarda tutilgan ob'ektlarni belgilangan tartibda tasdiklangan loyixa-smeta xujjalari muvofik kurib berish; kurilish-montaj ishlarini kurilish me'yor koidalariga muvofik bajarilishini ta'minlash; uzaro montaj kilingan uskunalarini uzi sinovdan utkazishi; uskunalarini kompleks sinovidan utkazishda katnashishi; ishni kabul kiluvchi komissiyaga kurilishi tugallangan, maxsulot ishlab chikarish yoki xizmat kursatishga tayyor ob'ektlarni topshirishi xamda buyurtmachi va subpdurat tashkilotlari bilan birgalikda ularni belgilangan muddatda ishga tushirilishini ta'minlashi kerak. Buyurtmachi shartnomasi loyixasini bosh pudratchidan olgan kunidan boshlab 10 kun muddatda kurib chikib imzolanishi va bosh pudratchilarga kaytarish lozim. Pudrat shartnomasiga tomonlarning kurilish-montaj va ishga tushirish sozlash ishlarini bajarish xamda uskuna, material va buyumlarni etkazib berish buyicha majburiyatlarni aniklashtiruvchi jadvallar ilova kilinadi. Auditor ushbu jadvallarni sinchkovlik bilin tekshirishi lozim

#### **Mavzu bo'yica nazorat uchun savollar**

1. Kapital qo'yilmalarni auditining uziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Kurilish – montaj ishlarini bajarishiga kura kapital qo'yilmalar necha turga bulinadi?
3. Kurilish tashkilotlarida asosiy vositalarning auditi kanday amalga oshiriladi?
4. Pudratchilar bilan xisob – kitoblarni audit kilishda kanday xujjalarga asosiy e'tibor karatiladi?
5. Tugallanmagan kapital qo'yilmalarni auditi kanday amalga oshiriladi?
6. Qurilish tashkilotlarida audit manbalari bo'lib qaysi hujjatlar hisoblanadi?
7. Qurilish tashkilotlarida hisob siyosatini tekshirish tartibi
8. Qurilish tashkilotlarida inventarizatsiya o'tkazish tartibi qanday?
9. Qurilish tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralar qoldig'ining me'ori qanday aniqlanadi?
10. Qurilish tashkilotlarida yalpi tushumni qanday aniqlanadi?
11. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni tekshirish manbai bo'lib qaysi hujjatlar hisoblanadi?
12. Qurilish tashkilotlarida omborlarda va buxgalteriyada hisob yuritish tartibi qanday tashkil etiladi?
13. Moddiy javobgar shaxs hisobotining to'g'ri yuritilishiga kim mas'ul hisoblanadi?

### **3-MAVZU. QURILISH TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITINING XUSUSIYATLARI**

#### **REJA:**

- 1.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.**
- 2.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining umumiyligi rejasiga ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**
- 3.Tugallangan qurilish-montaj ishlarini tannarxini aniqlashni audit qilish xususiyatlari.**
- 4.Tugallananmagan qurilishni baholash va hisobga olish audit.**
- 5.Xo'jalik sub'ektlarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.**
- 6.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayoni auditining xususiyatlari.**

**Mavzu bo'yich tayanch-so'z va iboralar:** Bankdagi hisob-kitob schyoti, buxgalteriya, buxgalter, bosh buxgalter, bo'nak jurnal-order, joriy hisob, joriy hisobot, inventarizatsiya, inventarizatsiya qaydnomasi, iste'molchi, kassa, kassa muomalasi, kassir hisoboti, kassa daftari, kassa cheki, kassa kirim orderi, kassa chiqim orderi, limit, limit-zabor karta, muomala xarajatlari, moliya-xo'jalik faoliyat, moddiy javobgar shaxs, moddiy javobgar shaxs hisoboti.

#### **1.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.**

Bozor iqtisodiyotida barcha harakat, faoliyatning natijasi foyda va zarardir. Lekin qurilish tashkilotlari va tashkilotlar uchun foyda olish afzalidir. Foyda olishni ko'paytirish jamiyat manfatiga ham mos keladi Chunki iqtisodiy faoliyatning yuqori foydaliligi individual foydaning ko'payishi bilan umummamlakat milliy daromadining ortishiga olib keladi. Aytish mumkinki, foyda miqdori va uning darajasi bozor ishtirokchilarining, ayniqsa tadbirkorlarni harakatga keltiruvchi kuchdir.

**Moliyaviy natijalar** – bu qurilish tashkilotlarining ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir. Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mulkehilik tuzilmasi o'zgaradi va endi davlat qurilish tashkilotlari faoliyatidan manfaatdor bo'lgan foydalanuvchilar va mulk egalaridan biriga aylanadi, zero bu foydalanuvchi va mulkdor qurilish tashkilotlariga o'z mablag'ini qo'yan. Qurilish tashkilotlari ham o'zini raqobatbardosh qurilish tashkilotlariga aylanishida yordam beradigan va zarur moliyaviy natijalarga erishishida qo'l keladigan boshqaruv qarorlarini izlash va qabul qilishga majbur bo'ladi. Shu maqsadda qurilish tashkilotlari bozor kon'yunkturasini o'rganadi, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va boshqalar.

Buxgalteriya hisobida moliyaviy natijalarni hisobga olish borasida respublikamizda bir qancha me'yoriy hujjatlar amal qilmoqda. Avvalambor, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи tomonidan 2016 yil 13 aprelda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishini eslab o'tish lozim.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun buxgalteriya hisobini yuritish andozalariga nisbatan yangi, bozor munosabatlariga to'g'ri keladigan talablarni qaror toptirishni ta'minlaydi hamda O'zbekiston Respublikasidagi buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etishda zamin bo'ladijan asosiy tamoyillarni ko'zda tutadi.

Buxgalteriya hisobining milliy andozalarini amalga kiritish zarurati asosan buxgalteriya hisobining bazaviy qoidalari va tamoyillarini tushuntirish va umumlashtirish, asosiy tushunchalarini bayon qilish, u yoki bu buxgalteriya usullarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasida hisobning o'ziga xos xususiyatlarini qo'llashdan iboratdir. Moliyaviy natijalar hisobini yuritishda quyidagi jadvalda ko'rsatilgan me'yoriy xujjatlardan foydalanib ish yuritamiz:

Xo'jalik yuritishning hozirgi tizimi sharoitida foya ko'rsatkichi qurilish tashkilotlarining asosiy va oborot mablag'laridan samarali foydalanishni talab hamda ehtiyoja qarab ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish, ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulot iste'molchi talabiga javob bera olmaydigan bo'lishi, ishlab chiqarish xaridor uchun xizmat qilishi lozim.


Qurilish tashkilotlari kurilish ishlarini tugatib ob'ektlarni sotishdan olgan mablag'dan o'zining hamma xarajatlarini qoplaydi va undan tashqari foya ham oladi. Foydaning bir qismi byudjetga soliqlar hamda boshqa to'lovlarni to'lash uchun sarflanadi, qolgani esa qurilish tashkilotlari ixtiyororda qoladi va faoliyatni ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.

#### **Moliyaviy natijalar hisobini yuritishda foydalaniladigan me'yoriy xujjatlar**

	<i>Me'yoriy xujjatlar</i>
	"Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonun.
	«Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-son BHMS
	«Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar» nomli 2-son BHMS
	«Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettrish tartibi to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 1 iyunda 1961-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 2009 yil 11 maydagi 54-sonli buyrug'i bilantasdiqlangan.
	«Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» nomli 3-son BHMS,
	«Tovar-moddiy zahiralar» nomli 4-son BHMS
	«Kapital qurilish bo'yicha pudrat shartnomalari» nomli 17-son BHMS,
	«Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli 19-son BHMS,
	«Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'rqnoma» nomli 21-son BHMS
0	"Auditorlik faoliyati to'grisida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1995-2009)
1	“O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan, Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan AFMS “lar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 15 fevraldagagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq qurilish tashkilotlari faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tasniflanadi.

«Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga binoan foydaning turlari quyidagicha aniqlanadi:



### **Foydaning turkumlanishi**

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tavofut sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST \cdot IT$$

bunda,

YaF – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tavofut va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF \cdot DX + BD \cdot BZ,$$

bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;  
BD – asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar;  
BZ – asosiy faoliyatdan ko’rilgan boshqa zararlar;  
xo’jalik faoliyatidan olingen foyda (yoki zararlar), bu asosiy faoliyatdan olingen foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko’rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF = AFF + MD - MX,$$

bunda,

UF – umumxo’jalik faoliyatidan olingen foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliq to’lagungacha olingen foyda, u umumxo’jalik faoliyatidan olingen foyda plus favqulodda (ko’zda tutilmagan) vaziyatlarda ko’rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FP - FZ,$$

bunda,

STF – soliq to’lagungacha olingen foyda;

FP – favqulodda vaziyatlardan olingen foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan ko’rilgan zarar;

- yilning soy foydasi, u soliq to’langandan keyin qurilish tashkilotlari ixtiyorida qoladi, o’zida daromad (foyda)dan, to’lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to’lovlarini chiqarib tashlagan holda soliqlar to’langunga qadar olingen foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS,$$

bunda,

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda)dan to’lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to’lovlar.<sup>5</sup>

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya natijalarini hisobga olish qurilish tashkilotlari faoliyatida markaziy o’rinni egallaydi va uni hisobga olishning asosiy vazifalari bo’lib quyidagilar hisoblanadi:

- olingen foyda miqdorini har oyda hamda yil boshidan o’z vao’tida to’g’ri hisob-kitob qilish;
- moliya natijalari bilan bog’liq operatsiyalarni va ularning taqsimlanishini buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida hamda tegishli registrlarda to’g’ri aks ettirish.

Moliyaviy natijalarning miqdoriga juda ko’p omillar ta’sir qiladi. Masalan, inflyatsiya, valyutaning o’zgarib turishi, kredit siyosati va boshqalar. Ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi yuqorida sanab o’tilgan omillar ta’siri hisobga olingen holda moliyaviy natijalarini aniqlash lozim. Aniqlangan moliya natijasi haqio’atni to’g’ri va aniq aks ettirishi lozim. Shuning uchun ham qurilish tashkilotlarda buxgalteriya hisobini to’g’ri yuritish va olingen foyda miqdorini to’g’ri aniqlash zarur. Foyda miqdorining kamayishi davlat byudjetiga to’lanishi lozim bo’lgan mablag’ miqdorining kamayishiga va bu, o’z navbatida, byudjet hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar miqdorining kamayishiga olib keladi. Zararga ishlaydigan qurilish tashkilotlari esa oxir-oo’ibatda «sinadi», ya’ni ino’irozga uchraydi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida amaldagi qonunlarga ko’ra yaxshi

<sup>5</sup> O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagisi «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to’g’risida Nizom» nomli 54-sonli Qurori. O’zbekiston Respublikasi Moliyaviy Qonunlari, 1999. №3.

ishlaydigan qurilish tashkilotlar foydasini qayta tao'simlash ko'zda tutilmagan. Shuning uchun ham zararga ishlaydigan qurilish tashkilotlar o'z xarajatlarini o'zlar qoplashlari, buning uchun qoplash yo'llarini ishlab chio'ishlari kerak.

O'zbekiston iqtisodiyotida qurilish sanoati asosiy urinni egallaydi. Kapital qurilishning ustidan nazorat qilish uchun qurilish tashkilotlarda kapital qurilish bo'yicha nazorat bo'lmlari tashkil etiladi.

Qurilish tashkilotlari auditining asosiy maqsadi ularning moliyaviy hisobotlarining to'g'riliqi va xaqqoniyligini, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunchilikka mos kelishligini tekshirishdan iboratdir.

- kapital qo'yilmalar hajmiga;

- qurilish tashkilotlarini qurish va ishga tushirish (ishga tushirish – sozlash xarajatlari)ning asosiy sarflari;

- ishlab turgan muassasalar ( maktab, kasalxona, bolalar bogchalari va shu kabilar) ni byudjet klassifikatsiyasining 12-moddasi bo'yicha asosiy vositalar harid qilish xarajatlari;

- ilmiy tadqiqot ishlari qurilmalarining tarkibiy namunalari, shchuningdek, sanoat sinovlari uchun o'rnataladigan mashina va uskunalarining tajribalarini tayyorlash va qabul qilingan ixtirolarni sinash xarajatlari;

Sub'ektlar faoliyatida shunday xarajatlar ham mavjud bo'ladiki, ular belgilangan tartibga ko'ra, kapital qo'yilmalar hajmiga kiritilmaydi;

- bino, inshoot, asbob - uskunalar va boshqa asosiy vositalarni kapital remonti (ta'mirlash) xarajatlari ;

- er va o'rmon qurilish ishlari, shuningdek, erni yaxshilash xarajatlari;

- ishga tushirish sozlash ishlari vaqtida uskunalarini demontaj va montaj qilish bo'yicha xarajatlari;

- komplektlash, yig'ish bo'yicha nuqsonlarni tuzatish va bunga aloqador mashina, uskuna va qurilmalarini sinash xarajatlari;

- qurilish – montaj ishlaringin qiymatiga kiritilgan qurilishning ayrim mashina va uskunalarini montaj va demontaj qilish ishlari qiymati;

- asosiy vositalarni tugatish xarajatlari;

- qismlarga ajratib buzish, uskunalarini demontaj qilish va shu kabilar qiymati (joyni yangi qurilishga tayyorlash yoki ishlab turgan qurilish tashkilotlarni ta'mirlash va kengaytirishga aloqador qurilish sme tasida nazarda tutilgan ishlar bundan mustasno);

- qurilish vaqtida qurilish tashkilotlarining ustama xarajatlari hisobiga amalga oshiriladigan vaqtinchalik (titul ro'yxatiga kirmagan) bino, inshoot va qurilmalar (idora hamda prorab ustalar, omborxonalari, dushxona, isimish, qorovulkxona, ob'ektdagi ombor va shiyponlar) qiymati,

- maxsus omborlar va moslamalar qiymati (ayrim buyumlarni seriyali yoki ommaviy ishlab chiqarishda yoki ma'lum buyurtmalarni bajarishda foydalilanidigan);

- keltirilgan yoki qurilish maydonida tayyorlab quylgan, ammo ishga jalb qilmagan detal, blok, konstruktsiya va boshqa qurilish materiallarning qiymati;

- ulgurji baholarda hisobga olingan uskunalar, ehtiyoj qismlarning qiymati ;

- quruvchi shartnomasi asosida boshqa qurilish tashkilotlari va tashkilotlar uchun bajariladigan ishlar qiymati.

Auditor asosiy vositalar to'g'ri kirim qilinganligini, ehtiyoj qismlarning qiymati to'g'ri aks ettirilganligini, xarajatlар to'g'ri hisobga olinganligini diqqat bilan tekshirishi lozim.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazishning asosiy manbaalari quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi» Qonuni, 1996 yil 30-avgust.

2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risidagi» Qonuni, yangi tahriri 2000 yil 26-may.

3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 1996 yil 29-may.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xaratjatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM» 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qaroriga ilova.

5. 1-Sonli «Hisob siyosati va Moliyaviy hisobotlar» BHMS, 1998-yil 26-iyul, 14-avgustda Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tgan.

6. 17-Sonli «Kapital qurilishga oid pudrat shartnomalari» BHMS.

7. 19-Sonli «Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish» BHMS 1999 yil 2- noyabrda 833-son bilan Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan.

Yangi qurilishlarda kapital qo'yilmalarni hisobga olish va qurilishning borishi ustidan nazoratni, qurilayotgan qurilish tashkilotlari direktsiyasi, ishlab turgan qurilish tashkilotlarda esa bevosita shu qurilish tashkilotlari raxbariga bo'ysunuvchi kapital qurilish bo'limi amalga oshiradi.

Qurilayotgan qurilish qurilish tashkilotlari direktsiyasi smetalarida nazarda tutilgan mablag'lar hisobiga, ishlab turgan qurilish tashkilotlarda esa kapital qurilish bo'lmini saqlash xaratjatlari, ya'ni davr xaratjatlari smetasida nazarda tutilgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi. Qurilayotgan qurilish tashkilotlar direktsiyalari, shuningdek, quruvchi bo'lgan ishlab turgan qurilish tashkilotlari va tashkilotlar kapital qo'yilmalar buxgalteriya hisobini ham olib boradilar. Auditor Ushbu kapital qurilishda buxgalteriya hisobi to'g'ri yuritilganligini va qurilish-montaj ishlari to'g'ri olib borilganligini tekshirishi lozim.

Qurilish tashkilotlarida auditor tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlarni to'g'riliqini nazorat qilib boradi:

1) hisobotlarni aniqligini ta'kidlash yoki ularni noaniqligi to'g'risida ko'rsatmalar berish;

2) buxgalteriya hisobida qarzlar, daromadlar va qurilish tashkilotlari faoliyati moliyaviy natijalarini tekshirayotgan davrda to'liq, aniq va haqiqiy ko'rsatilganligini tekshirish;

3) buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzishni tartibga soluvchi qoidalarga, normativ hujjatlarga hamda qonunchilikka amal qilinganligini, shuningdek, aktivlar, majburiyatlar va o'z kapitalini baholash metodologiyasiga rioya etilganligini nazorat qilish;

4) o'z asosiy va aylanma mablag'larini, moliyaviy rezervlardan hamda kredit manbalaridan yaxshiroq foydalanish rezervlarini aniqlash.

Auditning vazifalari - balansni, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni to'g'ri tuzilganligi hamda tushuntirish xatlarida ma'lumotlar aniqligini auditorlik tekshirushi orqali aniqlashdan iborat.

Bunda quyidagilarga e'tibor karatilishi lozim:

a) hisobotda hamma aktivlar va passivlar ko'rsatilganmi;

b) hisobotda barcha hujjatlardan foydalananilganmi;

v) haqiqatdagagi mulkni baholash metodikasi qurilish tashkilotlari buxgalteriya hisobi siyosatida belgilangan metodikadan qanchalik farq qiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni auditor balans va soliqqa tortilgan foyda to'g'ri hisoblanganligini aniqlash uchun tekshiriladi.

Auditor asosiy maqsadga erishish va xulosa berish uchun quyidagi savollar bo'yicha o'z fikrni shakllantirish kerak:

1) hisobotning umumiylmos kelishi, ya'ni, hisobot umuman uning oldiga quyilgan talablarga javob beradi hamda bir-biriga to'g'ri kelmaydigan axborotdan holis ekanligi;

2) asoslanganlik, ya'ni, ko'rsatilgan summalarini hisobotga kiritish uchun aosisy borligi;

3) yakunlanganlik, ya'ni, hisobotga hamma summalar kiritilganligi, shuningdek, barcha aktivlar va passivlar bankka tegishlimi. Bu moddiy zapaslar bank mulkidir.

4) baholash, ya'ni, barcha mablag'lar to'g'ri baholangan va xatosiz hisoblanganligini o'rghanish;

5) turkumlash, ya'ni, summani shu schyotda ko'rsatish uchun asos bormi;

6) ajratish, ya'ni, operatsiyalar amalga oshirilgan davrda ko'rsatilganmi (sotilgan va sotib olinigan tovar moddiy zaxiralalar summasi 2 davr orasida ajratilganmi);

7) sarajomlik, ya'ni, analitik hisob-kitoblarida va jurnallarida keltirilgan ma'lumotlari aniqmi, ular to'g'ri qo'shilganmi va bosh kitobdag'i ma'lumotlarga mos keladi;

8) ochish, ya'ni, moliyaviy hisobotga hamma kategoriylar kiritilgan hamda ular hisobotda to'g'ri ko'rsatilgan.

Tekshirilayotgan qurilish tashkilotlarida audit o'tkazishni rejalashtirishni dastlabki qismi bu - moliyaviy hisobotni taxlil qilish, amalga oshiriladigan nazoratning mashtabni baholashni qo'llanilayotgan ichki nazorat asosida olib borish kerak. Shuni yodda tutish kerakki, tekshirishda boshqa mutaxassislar ishidan foydalanish auditordan auditorlik xulosasi uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## **2.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining umumiylrejasi va ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida audit sohasida qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlarga, auditning milliy standartlari va auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan auditorlik firmalarini tashkiliy ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash va auditorlarning malaka sertifikatlarini berish tartibini takomillashtirish zarurdir. Auditorlik faoliyatida tekshiruvlarni amalga oshirishda auditorlik andozalarining o'rni katta. Ular auditorlik tekshiruvlarining aniq tartib asosida, bekamu-ko'st va sifatli amalga oshirilishinig o'ziga xos kafolatidir.

Umumiylstandartlar bo'yicha auditorlik tekshiruvi quyidagi uch bosqichga bo'linadi va bu bosqichlarda tegishli ishlar amalga oshiriladi:

Umumiylkvalifikatsiya.

Etarli tayyorgarlik va tajriba

Holislik

Zaruriy kasbiy sinchkovlik

Audit o'tkazish.

To'g'ri rejalashtirish va nazorat

Ichki nazorat tizimini kerakli darajada bilish

Etarli darajada isbotlar va ma'lumotlar yig'imi

Natijalarini ma'lum qilish.

Hisobotlarning buxgalteriya standartlariga mosligi

Standart va qoidalarning buzilish holatlari va sabablari

Ma'lumotlarning to'la ochilishi

Mamlakatimizda qabul qilingan auditning milliy standartlarini amalga tatbiq qilishda xorij mamlakatlari tajribasidan kengroq foydalanish lozim. Buning uchun auditning xalqaro

standartlarini milliy standartlar bilan taqqoslash lozim. Quyidagi jadvalda milliy va xalqaro auditorlik standartlarini taqqoslash tartibi berilgan.

Audit standartlarini o'zaro taqqoslash.


Standart	Asosiy talablar	Namunaviy muolaja
1	2	3
Mustaqillik	Auditda qatnashayotgan har bir xodim kasbiy etika kodeksida keltirilgan mustaqillik talablariga rioya qilish kerak	Har bir auditorlik firmasi ishga olinayotgan audit xodimi har yili mustaqillik anketasining savollariga javob berishi kerak
Xodimlarni muayyan ishga belgilash	Auditda ishtirok etayotgan har bir xodim etarli texnik tayyorgarlik va tajribaga ega bo'lishi kerak	Har bir xodim bosh auditor tomonidan belgilanadi va bu ish 2 oy oldin amalga oshiriladi
Maslahat berish	Bosh auditor va auditta o'atnashayotgan xodimlar	Auditorlik firmasining direktori bilan maslahat

Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini audit qilish quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- ◆ moliyaviy natijalar shakllantirilishining maqsadga muvofiq ekanligini tekshirish
- ◆ mahsulot sotishdan olingan yalpi moliyaviy natijaning to'g'ri shakllantirilganligini tekshirish;
- ◆ davr xarajatlarining moliyaviy natijalar tarkibida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish;
- ◆ moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarning to'g'ri shakllantirilganligini tekshirish;
- ◆ favqulorra foyda va zararlarning mavjud bo'lganligi va bo'limgaganligini aniqlash;
- ◆ yakuniy moliyaviy natijaning to'g'ri aniqlanganligini tekshirish.

Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalarining shakllanishi va foydaning ishlatalishi bo'yicha muomilalarni tekshirish uchun ma'lumotlar manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Ta'sis hujjatlari, ta'sischilarning majlislari qaydnomalari, buyruqlar, qarorlar, kassir hisobotlari ilova qilingan birlamchi hujjatlari bilan (kirim va chiqim kassa orderlari, to'lov qaydnomalari, kvitantsiya va boshqalar), so'mlik va valyuta hisobvaraqlari bo'yicha bank ko'chirmalari ilova qilingan birlamchi hujjatlari bilan (hisob varaqalari, to'lov topshiriqnomalari, avizo va boshqalar), 9000-9900 va boshqa hisobvaraqlar bo'yicha hisob registrlari (vedomostlar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar), Bosh kitob, «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl), alohida soliqlar bo'yicha hisob-kitob hujjatlari va boshqalar.



**Qurilish tashkilotlarining moliyaviy natijalar hisobi auditini o'tkazishda  
qo'llaniladaigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar.**

Sotishdan olingan foydaning aniqlanishini to'g'rilib tekshirish natijalari sezilarli darajada qurilish tashkilotlarida o'tkazilgan auditning oldingi bosqichlari nazorat jarayonlari sifatiga bog'liq, jumladan, tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayoni, asosiy vositalar va boshqa mulkning chiqib ketishini tekshirish, hisob-kitob muomilalari auditi nazoratlari bosqichlarida. Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum va uning tannarxini, boshqa mulkni sotishdan yuzaga kelgan tushum va xarajatlarni to'g'ri aniqlash, shu muomilalar bo'yicha taxminiy moliyaviy nitijani aniq va ob'ektiv hisoblashga yordam beradi. Auditorga faqatgina 9000-«Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar», 9100-«Sotilgan mahsulotlarning tannarxi», 9200-«Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi», 9300-«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» hisobvaraqlari bo'yicha ochilgan hisob registrlari bo'yicha aks ettililgan summalarini 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'i bo'yicha ochilgan hisob registrlardagi analog summalar bilan mosligini solishtirib chiqishgina qoladi.

Tekshiruvning ushbu bosqichida auditor asosiy diqqatni asosiy faoliyatga tegishli bo'limgan muomalalardan vujudga kelgan daromad va xarajatlar tahliliga asosiy diqqatni qaratishi lozim (3 va 4 – jadvallarga qarang).

Qurilish tashkilotlari faoliyati yakuniy moliyaviy natijasining to'g'ri aniqlanganligini tekshirishda auditor ishga yuzaki qaramasligi lozim. Moliyaviy natijalar shakllanishi hisobi auditi auditning o'ta muhim va mas'uliyatlari bosqichi hisoblanadi. Bu auditordan dio'o'atni va chuqur malakani talab qiladi. Moliyaviy natijalar hisobi auditida etishmovchiliklar, kamchiliklar, ayniqsa xatolar muhim ahamiyat kasb etadi. Auditor bu kamchilik va xatolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llari imkoniyatlarini izlab topishi va baholashi lozim, chunki qonunchilikka binoan tashkilot va qurilish tashkilotlar tomonidan auditor tavsiyasi bilan ushbu xatolarni tuzatishga — qurilish tashkilotlari ushbu xatolarni mustaqil tuzatdi degan nuqtai nazardan qaraladi. Quyidagi jadvalda asosiy faoliyatga tegishli bo'limgan daromadlar tarkibi keltirilgan:

**Asosiy faoliyatga tegishli bo'limgan daromadlar tarkibi  
va ularni qurilish tashkilotlari soliqqa tortiladigan bazasiga kiritish tartibi**

Asosiy faoliyatga tegishli bo'limgan daromadlar nomlari	Soliqqa tortish uchun hisobga olinadigan summalar
1. Boshqa qurilish tashkilotlar faoliyatida ulushli ishtirokidan daromadlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan olingan dividend va foizlar	Hisoblangan
2. Mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar	Hisoblangan
3. Jarima, penya va boshqa xo'jalik shartnomalarini bajarmaganlik uchun boshqa sanktsiyalar	Hisoblangan(tan olingan yoki sud qarori asosida)
4. Keltirilgan zararni qoplash bo'yicha daromadlar	Sud qarori asosida hisoblangan
5. Hisobot yilda aniqlangan o'tgan yillar foydasi	Hisobot yilda hisoblangan
6. Ijobiy kurs farqlari	Hisoblangan
7. Berilgan qarzlar bo'yicha foizlar	O'tkazilgan
8. Oldin shubhali deb tan olingan debitorlik qarzining qoplanishi hisobiga olingan summalar	O'tkazilgan; kirim qilingan
9. Boshqa yuridik shaxslardan tekinga olingan pul mablag'lari va boshqa mulk	

Auditor asosiy faoliyatga tegishli bo'limgan daromadlar va xarajatlarning hisobda aks ettirilishining asoslanganligini aniqlashi lozim. Buning uchun bunday daromad va xarajatlar vujudga kelishi va hajmini tasdiqlovchi turli hujjatlarni o'rGANIB chiqish zarur. Quyidagi jadvalda asosiy faoliyatga tegishli bo'limgan daromadlar tarkibi keltirilgan:

**Asosiy faoliyatga tegishli bo'limgan daromadlar tarkibi  
va ularni qurilish tashkilotlari soliqqa tortiladigan bazasiga kiritish tartibi**

Asosiy faoliyatga tegishli bo'limgan xarajatlar nomlari	Soliqqa tortish uchun hisobga olinadigan summalar
1. Bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari va mahsulot bermagan ishlab chiqarishga xarajatlar	Haqiqatda amalga oshirilgan
2. Konservatsiyadagi ishlab chiqarish quvvatlarni saqlash	Haqiqatda amalga

xarajatlari.	oshirilgan
3. Jarima, penya va boshqa xo'jalik shartnomalarini bajarmaganlik uchun boshqa sanktsiyalar	Hisoblangan (tan olingan yoki sud qarori asosida)
4. Keltirilgan zararni qoplash bo'yicha xarajatlar	Sud qarori asosida hisoblangan
5. Muddati o'tgan va hisobdan chiqarilgan debitorlik qarzları summasi.	To'langan summalar
6. O'tgan yillar muomilalari bo'yicha zararlar	Hisobot yilida haqiqatda hisoblangan va aniqlangan
7. Salbiy kurs farqlari	Hisoblangan

**«Ta'mirqurilish» ko'p tarmoqli xususiy firmasidagi ko'zsatkichlar**

№	Ko'rsatkichlar	Moliyaviy hisobot №1			Moliyaviy hisobot №2			Ikki hisobot ma'lumotlarining mosligi(+), mos emasligi(-)
		shakl soni	satr ustun	summa	shakl soni	Satr ustun	summa	
A	B	1	2	3	4	5	6	7
1	Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	1			3			
	Yil boshiga		010/3	59485		170/4	59485	+
	Yil oxiriga		010/4	124411		170/6	124411	+
2	Asosiy vositalarning eskirish qiymati	1			3			
	Yil boshiga		011/3	11118		170/7	11118	+
	Yil oxiriga		011/4	42788		170/10	42788	+
3	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	1			3			
	Yil boshiga		012/3	48367		170/11	48367	+
	Yil oxiriga		012/4	81623		170/12	81623	+
4	Mahsulot sotishdan olingan sof tushum	2	010/5	2176916	4	010/3	2180072	-
5	Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi	2	020/6	1907099	4	020/4	2045476	-
6	Olingan dividendlar	2	120/5	932	4	120/3	932	+
7	Daromad (foydadan) soliq	2	250/6	90600	2.2 il.	190/4	90600	+

8	Debitor qarzlar	1	210/4	4766	2a	1/3	4766	+
9	Kreditor qarzlar	1	600/4	34668	2a	4/3	34668	+
1 0	Ustav kapitali	1			5			
	Yil boshiga		410/3	89220		010-3	89220	+
	Yil oxiriga		410/4	89220		110-3	89220	+

Audit jarayonida «Moliyaviy natijalar to'g'risida» gi hisobot (2-shakl) ma'lumotlarining buxgalteriyadagi Bosh kitob, jurnal-orderlar (hisobning jurnal-order siyosati yuritiladigan qurilish tashkilotlarda), boshqa hisob registrlari, hisob (raschyot) lar va birlamchi hujjatlar ma'lumotlari bilan solishtirilib, ma'lumotlarning to'g'ri va mosligi tekshiriladi. Auditning bu qismi ishlab chiqarish xarajatlari va tayyor mahsulot tannarxining hisoblanishini, tovarlarga qilingan xarajatlar, naqd pulli va naqd pulsiz hisob kitoblar shakllaridagi to'lovlar, mehnatga haq to'lalash va ijtimoiy sug'urta, moliyaviy organlar va byudjetdan tashqari fondlar hamda debitorlar va kreditorlar bilan hisoblashishlar hisobvaraqlari nazoratlari natijalarini umumlashtiradi.

Auditor qurilish tashkilotlarining moliyaviy hisobotini tekshirayotganda birinchi navbatda hisobot tarkibidagi shakllardagi o'zaro bog'liq summalarining mos kelishini tekshiradilar. Auditorlar yalpi tarzda xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom qoidalari va talablariga rioya qilinayotganligini, moliyaviy natijalar shakllanishini tekshirishlari va xarajatlarining tannarxga o'tkazilishini, shuningdek, ularning balans foydasi va qurilish tashkilotlarining ixtiyorida qoladigan foydadan o'chirilishining asosliligidagi baholashlari lozim. Auditni o'tkazish jarayonida auditorlar yakuniy moliyaviy natijalarining barcha tashkil etuvchi qismalarini nazorat qiladilar.

Yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zararni) ishonchliligin tekshirish chog'ida auditor Bosh kitob, №12-APK, №15-APK jurnal-orderlari, №70-APK, №71-APK vedomostlari va balansdagi qayd etilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni muvofiqligii aniqlashi lozim.

Auditorlik tekshirushi shu narsani ishonchli tarzda namoyon etadiki, hisob xodimlarining zaif malakasi tufayli ayrim tashkilotlarda moliyaviy natijani asossiz tarzda shakllantiradilar va buxgalteriya hisobidagi foydadan foydalishni noto'g'ri aks ettiradilar. Shu bois shu narsani bilish lozimki, moliyaviy natijalar mahsulot (ishlar, xizmatlar), asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, turli moddiy boyliklar va boshqa mulkni sotishdan vujudga keladi.

### **3.Tugallangan qurilish-montaj ishlarini tannarxini aniqlashni audit qilish xususiyatlari.**

Ishlab turgan korxonani texnik kayta jixozlash yagona texnik iktisodiy asoslash zaminida xamda odatda ishlab chikarish maydonlarini kengaytirmay amalga oshiradigan tarmokning texnik iktisodiy darajasini oshirish rejasiga muvofik ishlab chikarilgan ayrim ish xajmi va turlari loyixa smetlari buyicha amalga oshiriladi. Ishlab turgan korxonani texnik kayta kurishning maksadi ishlab chikarishni jadallashtirish, ishlab chikarish kuvvatlarini, maxsulotni chikarishni oshirish xamda mexnat unumdarligini oshirish va ish joylari sonini kiskartirish bilan birga maxsulot sifatini yaxshilash, material sarfi va maxsulot tannarxini kamaytirish, material va yokilgi energetika resurslarini tejash 4 shuningdek korxona ishining boshka texnik-iktisodiy kursatkichlarini yaxshilashdir. Auditor maxsulotlar (ish va xizmatlarning)ning tannarxi

tugri xisoblanganligani tekshirishi lozim. Ishlab turgan korxonani kayta jixozlashda mavjud ishlab chikarish maydonlariga yangi uskuna va mashinalar urnatilishi, boshkarish va nazorat kilishning avtomatlashtirilgan sistemalarini joriy kilish, ishlab chikarishni boshkarishni radio, televideenie va boshka zamonaviy vositalarni urnatish, tabiatni muxofaza kilish ob'ektlari, isitish va ventilyatsiya sistemalarni zamonaviylashtirish xamda texnik kayta kurish, korxona, sex va kurilmalarni markazlashtirilgan issiklik va energiya manbalariga ulash kabilar kiradi.

Yangisini kurish yoki ishlab turgan korxonani kengaytirish davrida pirovard maxsulotini ishlab chikaruvchi kuvvatlar ishga tushirilishidan oldin loyixada belgilangan tartibda kayta kurib chikilsa, kurilishni uzgartirilgan loyixa buyicha davom ettirish dastlab tasdiklangan loyixaga kura kapital qo'yilmalarning tegishli guruxiga kiritiladi.

Ishlab turgan korxona kuvvatini saklash va uni ishga tushirish, ishlab chikarish faolichti jarayonida ishdan chikaruvchi asosiy fondlarni doimo yangilab turish, texnika va razrezzlardagi uchastkalarda yangi bandliklarni tayyorlash, bunda ishlab turgan bandliklarda korxonaning loyixa kuvvati oshirilmaydi. Ishlab turgan korxonalarda kengaytirish, ta'mirlash tutilgan loyixa – smeta xujjatlarda nazarda tutilmagan xamda sanoatning kazib oluvchi tarmoklaridagi ishlab turgan korxonalarini texnik kayta kurollashtirish yoki mavjud kuvvatlarni saklash ishlariga boglik bulmagan ayrim ob'ektlarning kurilish tarkibiga kirmaydigan ishlab turgan korxonalarda ayrim ob'ektlar kurilishi tarzida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Auditor loyixa-smeta xujjatlari tugri tuldirilganligi va kerakli xujjatlar bilan ta'minlanganligini sinchkovlik tekshirishi lozim.

Korxonaning asosiy vositalariga va nomoddiy aktivlariga invistitsiyalar xakidagi va boshka axborotlar kuyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

- 0810 – «Tugallanmagan kurilish»
- 0820 – «Asosiy vositalarni sotib olish»
- 0830 – «Nomoddiy aktivlarni sotib olish»
- 0840 – «Asosiy podani tashkil kilish»
- 0850 – «Erni obodonlashtirish»
- 0860 – «Uzok muddatga olingen asosiy vositalarni obodonlashtirish»
- 0890 – «Boshka kapital qo'yilmalar»

Kapital qo'yilmalarni xisobga oluvchi schyotlar buyicha saldo korxonaning tugallanmagan kurilishga, asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni xarid kilishga sarflangan kapital qo'yilmalar mikdori, shuningdek, asosiy podani atshkil kilish buyicha tugallanmagan xarajatlar summasini aks ettiradi. Kapital qo'yilmalarni xisobga oluvchi schyotlar buyicha analitik xisob kapital qo'yilmalarning xar bir yunalishi buyicha yuritiladi. Auditor ushbu schyotlar to'g'ri aks ettirilganligi va to'g'ri korrespondentsiyalanganligani tekshirishi lozim.

#### **4.Tugallanmagan qurilishni baholash va hisobga olish audit.**

Qurilish tashkilotlarida kapital qo'yilmalarning audit kilinayotganda xarajat turlari kuyidagilar buyicha guruxlanadi;

- metall konstruktsiyalar montaji;
- uskunalarini montaji;
- montaj talab kilmaydigan uskunalarini xarid kilish, asbob va inventar, montaj talab kiladigan ammo doimiy zaxiraga muljallangan uskunalar;

- boshka kapital ish va xarajatlar asosiy vositalar kiymatini oshirmaydigan xarajatlar.

Qurilish-montaj ishlari pudrat usulida bajarilganida, pudrat tashkilotlari kurilish – montaj ishlarini shartnoma baxosi buyicha yoki kurilish kiymatini aniklash asos buladigan baxoda bajarilganda kuruvchi xisobida bank tulashga kabul kilgan pudrat tashkilotlari schyotiga 0800 - «Kapital kuyimalar» schyotida kuyidagi tartibda aks ettiriladi: xar oyda buyurtmachi va pudratchi imzolagan bajarilgan ishlari kiymati va texnologik boskich va ishlari majmui buyicha xarajatlar tugrisidagi ma'lumotnomaga asosida (3-shakl), 3-shakl ma'lumotlari belgilangan tartibda rasmiylashtirilish lozim, ya'ni mansabdar shaxslar buyurtmachi va bosh pudratchi vakillari tomonidan imzolangan tashkilot muxri bilan tasdkilanishi lozim.

Auditorlik tashkiloti yoki auditor ushbu xarajatlar tugri xisoblanganligin bank xujjatlari tugri yuritilganligini va (3 shakl) «Asosiy vositalarning xarakati tugrisidagi xisobot» tugri tuxilganligani tekshirishi kerak.

Asosan fondlarni ishga tushirish rejasini bajarilishi va kapital qo'yilmalar limitlaridan foydalanish tugrisidagi xisobotda xisobot yilida pudrat tashkilotlari bajargan kurilish – montaj ishlarining kuruvchi tulik xajmda aks ettiradi. Demak, uskunalar montaji buyicha bajarilgan ishlarning smeta kiymati ma'lumotnomaga (3 shakl) montaji tulik tugallangan ishlari tulik xajmda bajarilgan uskuna yoki uning kismlari buyicha kiritiladi. Ma'lumotnomada bu tartibda uskuna yoki uning kismining xar bir turi buyicha ma'lumotlar kiritiladi. Pudrat tashkilotlari bank tomonidan tulashga kabul kilingan yoki tulangan schyotlari buyicha kurilish montaj ishlari kiymatining oshirilganligi ayniksa buyurtmachi kilingan kapital qo'yilmalarni oshirilgan summaga kamaytiradi va shunga kura foydalanilgan mablag bilan ta'minlash yoki pudrat tashkilotining bajarilgan ishlari schyoti buyicha karzi kamaytiriladi.

Xujalik usulida bajarilgan kurilish montaj ishlari buyicha xarajatlar xam 0800 «Kapital qo'yilmalar» ni xisobga oluvchi schyotlarida kurilish – montaj ishlari tannarxni rejalashtirish va xisobga olish buyicha asosiy koidalarda belgilangan tartibda xisobga olinadi. Bunda 0800 «Kapital qo'yilmalar» ni xisobga oluvchi schyotlarida kuruvchi tomonidan klinadigan xakikiy xarajatlar kass ettiriladi. Auditor mazkur xarajatlar tugri xisobga olinganligini va 0800 schyotlari va boshka schyotlar tugri korrespondentsiyalanganligini va 11 va 16 jurnal orderlari xamda 18- vedomost ma'lumotlari tugri aks ettirilgan ligini tekshirishi kerak. Sanoat korxonalarida 18- vedomost ma'lumotlari asosida ishlab chikarish xarajatlari va xisob – kitoblarni (2310, 2920, 6500, 6700 va 8910 schyotlari) ni xisobga olish schyotlari krediti buyicha oborotlar yakuni 9400 va 0800 schyotlar debeti bilan korrespondentsiyada, shuningdek 18- vedomostga varaka – rasshifrovkalarga kura yozilgan summalar 10-1 jurnal orderga utkaziladi.

Montaj talab kiladigan va urnitishga muljallangan mamlakatda xamda xorijda ishlab chikarilgan texnologik, energetik va ishlab chikarish uskunaları montajga topshirilishiga 0710 - «Urnataladigan asbob – uskunalar» schyotida xisobga olinadi. Ularni kelib tushishi va ularni kirish klinishi xamda maxsulot etkazib beruvchilar schyotlariga tulanishi ustidan nazorat kelib tushgan yuklarni xisobga olish jurnalida (M – 1 shakl) yuritiladi. Buyurtmachi montaj talab kiladigan uskunani komiisiya kabul kiladi. Bunda uskunalarini kabul kilish tugrisidagi M – 24 shakl tuziladi, uskuna buxgalteriya xisobida kirish kilish uchun boshlangich xujjat klinadi. Agar oldindan utkazilgan taftishda, montaj kilish yoki sinashda uskunaning komplekt emasligi,

zavoda yul kuyilgan brak yoki boshka nuksonlar tugrisida auditor tomonidan aloxida akt tuziladi.

### **5.Xo'jalik sub'ektlarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.**

Bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun buyurtmachilar va pudratchilar o'rtasidagi hisob-kitoblar korxonalar, ishga tushiriladigan kompleks va ob'ektlar qurilish uchun shartnama baholari bo'yicha qilinadi. Shartnama bahosi pudrat tashkiloti pudrat shartnomasiga ko'ra ob'ektda bajaradigan ishlarning qiymatidir. Shartnama bahosi butun qurilish davomida o'zgartirilishi mumkin emas.

Shartnama baholarini aniqlash va kelishi tartibi tasdiqlangan qurilishda shartnama baholarini aniqlash hamda qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalarda belgilab berilgan.

Metodik ko'rsatmalarga ko'ra shartnama bahosiga quyidagilar kiritilgan:

- korxona, bino, inshoot, ularning navbatlari, ishga tushiriladigan komplekslar qurish qiymatining yig'ma hisob-kitob sistemalarida aniqlangan qurilish montaj ishlarning smeta qiymati yoki bu ishlarning texnik-iqtisodiy asoslash va texnik iqtisodiy hisob-kitoblar (TIX) tarkibida aniqlangan hisob-kitob qiymati;

- pudratchi faoliyatiga taaluqli boshqa ish va xarajatlarning bir qismi (masalan, smetalarda hisobga olinadigan materiallar qiymatidagi farq uchun tovon to'lash xarajatlari, belgili xizmat muddati yoki bu ishlarning o'taganlik uchun to'lovlar xarajatlari, mehnatga bir yo'la haq to'lash xarajatlari, mehnatni tashkil qilish etishning vaxta metodi xarajatlari (shuningdek yangi o'zlashtirilayotgan xududlarda qurilishni tashkil etishga aloqador xarajatlar;

- nazarda tutilgan ish va xizmatchilarining qurilish yig'ma smeta hisob-kitoblariga yoki TIA va TIX larda aniqlanadigan shartnama baholarida hisobga olinadigan qurilish-montaj ishlari va boshqa xarajatlar qiymatiga kiritiladigan mablag'lar umumiy rezervining bir qismi, bundan buyurtmachi etkazib beradigan materiallar, buyumlar va konstruktsiyalar qiymatiga o'tadigan summalar istisno qilinadi.

- ish chizmalar bo'lган ob'ektlar bo'yicha - shu chizmalar asosida tuzilgan bosh pudratchi bilan kelishilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan ob'ekt smetalari asosida.

Bunda agarda pudrat tashkilotlari bilan loyixa echimlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan bo'lsa shartnama bahosi kamaymaydi.

Agarda buyurtmachi belgilangan tartibda loyixa xujjatlariga tuzatishlar kirtsса, buning okibatida qurilish-montaj ishlarning xajmi va tarkibi o'zgaradigan bo'lsa, shartnama bahosiga pudratchi bilan kelishib aniqliklar kiritish lozim. Buyurtmachi va bosh pudrat tashkiloti o'rtasidagi kelishmovchilikka oid qarorni vazirlik-buyurtmachi rahbarlari vazirlik - pudratchi rahbarlari bilan kelishib, 20 kunlik muddatda qabul kiladilar. Kelishilmagan bo'yicha pirovard qaror davlat qurilishi, hamdo'stlik respublikalari idoralariga qurilishlari bo'yicha hamdo'stlik respublikalar davlat qurilish komitetlari qabul kiladilar.

Agarda qurilishda ikki yoki undan ortiq bosh pudratchi qatnashsa, shartnama bahosi har bir bosh pudratchi uchun belgilanadi.

Buyurtmachi pudratchining korxona quvvatini oshirish taklifini qabul qilsa, qurilishning smeta qiymati va shartnama bahosi loyixa bo'yicha mazkur korxona quvvati birligiga qabul qilingan xarajatlar salmog'i asosida aniqlanadi. Bunda buyurtmachining quvvati oshirishga aloqador qo'shimcha xarajatlari aniqlik kiritilgan smetada nazarda tutilgan mablag'lar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi.

Shartnama bahosi investitsiya jarayonining barcha qatnashchilari uchun o'zgarmasdir.

Qurilishning to'liq smeta qiymati korxona, bino, inshootlar loyixalarida yoki hisob-kitob qiymati texnik-iqtisodiy asoslash va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarda aniqlanadi, hamda shartnoma bahosi bosh pudrat tashkilotlari bilan kelishilgandan so'ng tasdiqlanadi.

Qurilish qiymatini yig'ma smeta hisob-kitoblarida va texnik iqtisodiy asoslash va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarda bo'yicha shartnoma bahosi keltiriladi, bunda qurilish-montaj ishlarining qiymati ajratib ko'rsatiladi.

Buyurtmachilar pudrat tashkilotlari schyotlariga bajarilgan qurilish-montaj ishlar uchun qurilishda xo'jalik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha hisob-kitoblar va kredit bilan ta'minlash to'g'risidagi asosiy qoidalarilan kelib chiqib quyidagi tartibda haq to'laydi.:

3. Bajarilgan pudrat ishlariga har oyda bajarilgan ishlar xajmi va qiymati hamda texnologik bosqich va ishlar kompleksi bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi buyurtmachi imzolangan ma'lumotnoma asosida shartnoma baholarida haq to'lanadi.

Bajarilgan ishlar uchun pirovad hisob-kitob buyurtmachi va pudratchi o'rtaSIDAGI ob'ekt qurilishi yakunlanib, uni ishga tushirish haqidagi aktni davlat qabul komissiyasi (ishchi komissiya) tasdiqlangandan so'ng to'lanadi.

Texnologik bosqichlar va ishchilar majmui bo'yicha tegishli ob'ektlarda pudrat shartnomasida nazarda tutilgan chorak rejalar (yil boshidan o'suvchi yakinda hisobga olinadigan) bajarilmagan holda buyurtmachi bajarilgan ishlarga haq to'lamaydi. Bunday holatda banklar pudrat tashkilotlariga tugallanmagan qurilish-montaj ishlarini amalgalashirish xarajatlarini qoplashga muvaqqat ehtiyoja kredit berish huquqiga ega.

2. Qurilish butunlay tugallangan va buyurtmachiga taxt qilib topshirilgan ob'ektlarga ularning to'liq smeta qiymati xajmida davlat qabul komissiyasi (ishchi komissiya) tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangandan aks asosida haq to'lanadi.

Ishlab turgan korxonalarini texnik qayta jixozlash, ta'mirlashda hamda turar-joy hamda ijtimoiy-madaniy va maishiy maqsadlardagi ob'ektlar qurilishida xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, etkazib berilgan materiallar va uskunalar. Shuningdek boshqa xarajatlarga moliya bilan ta'minlab schyotidan haq to'lanadi. Ayrim hollarda bu maqsadda hisob-kitob schyotlari ochilishi mumkin.

Ilgari ishning chorak rejasi bajarilmaganligi uchun hisob-kitoblarini yakunlash maqsadlarida, shuningdek, qurilish tugallangandan keyin ob'ekt bo'yicha umuman yakuniy hisob-kitoblarini ta'minlash maqsadlarida va pudrat tashkilotlariga ssuda berish uchun resurslar yaratish maqsadida buyurtmachilar vaqtincha bushagan kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlashga mo'ljallangan mablag'larni maxsus schyotlarga o'tkazadilar.

Agarda qurilish ishlab chiqarish rivojlantirish va ijtimoiy-madaniy tadbirlar hamda turar-joy qurilishi fondlari hisobiga qilinayotgan bo'lsa, mablag'lar maxsus hisob-kitob hisobot oydan keyingi oyning 5 chislosidan kechiktirmay mablag' bilan ta'minlash schyotlaridan ko'rsatilgan maxsus schyotlarga o'tkazilishini ta'minlaydigan har bir buyurtmachi uchun qilinadi.

Maxsus cheklarga o'tkaziladigan mablag'larning xajmi:

chorak ish rejalar bajarilishida qolqolik haqiqiy bajarilgan ishlar qiymati va to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) ishlar o'rtaSIDAGI farq sifatida yo'l qo'yilgan hollarda, ob'ekt bo'yicha qurilish montaj ishlari 95 foiz va undan yuqori bajarilganda - bu ishlar qiymatining 5 foizi (va kamroq) xajmda aniqlanadi.

Buyurtmachilar bron qilingan mablag'lar pudrat tashkilotlarining vaqtincha ehtiyojlar uchun berilgan ssudalar va ob'ekt qurilishi tugallangunga qadar sarflar uchun berilgan kreditni to'lash manbайдир.

Korxonaning asosiy vositalariga va nomoddiy aktivlariga investitsiyalar haqida, shuningdek mahsuldor va ish hayvonlarining (qiymatidan qat'iy nazar, korxonaning

aylanma mablag'lariga kiruvchi parrandalardan, quyonlardan, asalarilardan, yo'l va qo'riqlovchi itlardan, tajriba ostidagi quyonlardan tashqari) asosiy podasini tashkil qilish bo'yicha xarajatlar haqidagi axborotlar quyidagi schyotlarda umumlashtiriladi:

- 0810 - «Tugallanmagan qurilish»
- 0820 - «Asosiy vositalarni sotib olish»
- 0830 - «Nomoddiy aktivlarni sotib olish»
- 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish»
- 0850 - «Erni obodonlashtirish»
- 0860 - «Uzoq muddatga olingen asosiy vositalarni obodonlashtirish»
- 0890 - «Boshqa kapital qo'yilmalar»

0810 - «Tugallanmagan qurilish» schyotida imorat va inshootlarni barpo etish, kapital qurilish smetalarida, smeta loyixa hisoblarida va titul ro'yxatlarida ko'zda tutilgan asbob-uskunalarini, vositalarni, inventarlarni va boshqa jixozlarni xarid qilish bo'yicha sarflangan (qurilish pudrat yoki xo'jalik usulida amalga oshirilishidan qat'iy nazar) xarajatlar hisobga olinadi.

0820 - «Asosiy vositalarni hisobga olish» schyotida asosiy vositalarni xarid qilish yoki korxonaning o'zida asosiy vositalar ob'ektlarni yaratish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olinadi.

0830 - «Nomoddiy aktivlarni sotib olish» schyotida nomoddiy aktivlarni xarid qilish yoki korxonaning o'zida nomoddiy aktivlar ob'ektlarni yaratish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olinadi.

0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotida: asosiy podaga o'tkaziladigan xo'jalikdagi yosh maxsuldor va ish hayvonlarini o'stirish bo'yicha xarajatlar; asosiy poda uchun xarid qilingan katta yoshdagi va ish hayvonlarining qiymati, hayvonlarni etkazib berish bilan bog'lik sarflarni ham qo'shgan holda; boshqa korxonalardan tekinga olingen katta yoshdagi hayvonlarni xo'jalikka olib kelish bilan bog'liq sarflar hisobga olinadi. Asosiy podaga o'tkazilgan yosh hayvonlar haqiqiy tannarx bo'yicha baholanadi. Asosiy podaga o'tkazilgan yosh maxsuldor va ish hayvonlarining barcha turlarining qiymati yil davomida 1110 - «O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar» schyotidan 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotining debetiga yil boshidagi balans qiymati bo'yicha hisobga olinadigan, yil boshidan to hayvonlarni asosiy podaga o'tkazish paytiga qadar bo'lgan davrda ortgan vazni yoki o'sgan vazning reja tannarxini qo'shgan holdagi qiymati bo'yicha hisobdan chiqariladi. Bir paytning o'zida, yosh hayvonlarni asosiy podaga o'tkazishda 0170 - «Ish hayvonlari» va 0171 - «Mahsuldor hayvonlar» schyotlari debetlanadi va 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyoti kreditlanadi. Yil oxirida hisobot kalkulyatsiya tuzilgandan keyin yil davomida o'tkazilgan yosh hayvonlarning ko'rsatilgan qiymati bilan uning haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq 1110 - «O'stiruvdag'i va boquvdagi hayvonlar» schyotidan 0840 - «Asosiy podani tashkil etish» schyotiga, xayvonning bahosini bir vaqtning o'zida aniqlashda 0170 - «Mahsuldor hayvonlar» schyotiga qo'shimcha yozuv yoki storno qilish yo'li bilan hisobdan chiqariladi.

Chetdan xarid qilingan katta yoshdagi hayvonlarning qiymati 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotining debetiga ularni xarid qilishning haqiqiy tannarx bo'yicha, etkazib berish sarflari qo'shilgan holda kirim qilinadi.

Asosiy podani tashkil qilishning tugallangan muomala bo'yicha xarajatlar 0840 - «Asosiy podani tashkil qilish» schyotida 0170 - «Ishchi - «Mahsuldor hayvonlar» schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

Kapital qo'yilmalarning hisobga oluvchi schyotlarining debeti bo'yicha asosiy vositalar ob'ektlarning dastlabki qiymatiga o'natilgan tartibda kiritiladigan, quruvchilarning ushbu

ob'ekt uchun haqiqatda sarflangan barcha xarajatlari, shuningdek, korxonaning asosiy vositalarini, nomoddiy aktivlarni xarid qilish, asosiy podani tashkil qilish va boshqa kapital qo'yilmalar bilan bog'lik xarajatlar aks ettiriladi.

Qurilish va asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'lik, lekin o'rnatilgan tartibda asosiy vositalar ob'ektlarining dastlabki qiymatiga kiritilmaydigan xarajatlar kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlardan 9430 - «Boshqa muomalaviy sarflar» yoki 8890 - «Boshqa maqsadli tushumlar» schyotlarining debetiga hisobdan chiqariladi.

Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha saldo (qoldiq) korxonaning tugallanmagan qurilishga, asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni xarid qilishga sarflangan kapital qo'yilmalar miqdorini, shuningdek, asosiy podani tashkil qilish bo'yicha tugallanmagan xarajatlar summasini aks ettiradi. Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha analitik hisob kapital qo'yilmalarning har bir yo'naliishi bo'yicha yuritiladi. Bunda analitik hisobning tashkil etilish quyidagi xarajatlar haqida ma'lumotlar olish imkoniyatini ta'minlashi kerak:

\* qurilish ishlari va rekonstruktsiyaga, burg'ulash ishlariga, asbob-uskunalarini yig'ishga, yig'ishni talab qiluvchi asbob-uskunalarini xarid qilishga, yig'ishni talab qilmaydigan asbob-uskunalarini xarid qilishga, shuningdek, kapital qo'yilmalarning smetalardida ko'zda tutilgan asboblar va inventarlarni xarid qilishga, loyixa-qidiruv ishlariga oid, kapital qo'yilmalar bo'yicha boshqa xarajatlar yuzasidan;

\* asosiy vositalarni va nomoddiy aktivlarni xarid qilishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar bo'yicha asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni turlari va nomlari bo'yicha sarflangan xarajatlar yuzasidan;

asosiy podani tashkil qilish bilan bog'lik kapital qo'yilmalar bo'yicha, hayvonlarning turlari bo'yicha (yirik shoxli hayvonlar, cho'chkalar, qo'ylar, otlar va boshqalar) sarflangan xarajatlar yuzasidan to'liq axborotlarni yig'ishi lozim.

Smetada nazarda tutiladigan boshqa kapital ishlar va xarajatlar turlari bo'yicha hisobga olinadi. 0800 - «Kapital qo'yilmalar» schyotiga amalga oshirishga ko'ra (turli, schyotlar kreditlar) yoki chet tashkilotlar schyotlarini bank tomonidan to'lashga qabul qilishi asosida kiritiladi.

Buyurtmachi tomonidan bajarilgan ishlar smeta qiymatiga kirmaydigan boshqa xarajatlarga to'lash pudrat tashkilotlarining schyotlari bo'yicha qilinadi. Ular har oyda haqiqiy xarajatlar to'g'risidagi buxgalteriya ma'lumotlari asosida taqdim qilinadi. Bu xarajatlarga ishlarning harakatdagi xarakteridaligi ustamalari, uzoq shimolda va unga tenglashtirilgan joylarda ishslash ustamalari mehnatga haq to'lashning ishbay mukofoti usullari qo'llagandagi qo'shimcha to'lovlar kiritiladi.

Foyda va zararlarni hisobga olish. Qurilish montaj ishlarini bajarish usulidan qat'iy nazar quruvchining buxgalteriya hisobida foyda va zararlar schyoti kiritiladi. Foyda va zararlar summasi quruvchi hisobida saldo qilinmaydi. Olingan jarima, penya va neustoykalar, shuningdek chetga realizatsiya qilingan moddiy boylik va xizmatlardan olingan foyda quruvchi hisobida foyda va zararlar schyotiga kiritiladi. Bu schyotda hisobga olingan foyda summasi yillik hisobot tasdiqlanadigan keyingi yilda kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlashning boshqa manbalari tarkibiga kiritiladi.

Quruvchi zararlar tarkibida kuyidagilarni hisobga oladi:

- uskuna moddiy boylik va xizmatlarni chetga realizatsiya qilishdan ko'rilgan zararlar;
- debitor qarzni hisobdan chiqarish zararları, bundan aybdor shaxslar zimmasiga yuklangan zararlar mustasno;

- moddiy boyliklarning ishdan chiqishi va tabiiy ofat tufayli tugallanmagan qurilish bino va inshootlarning buzilishidan ko'rيلган zararlar, bundan aybdor shaxs va tashkilotlardan undirish uchun taqdim etilgan summalar mustasno;
- quruvchi asosiy vositalarning tugatilishidan zararlar, tabiiy ofat tufayli ishdan chiqqan asosiy vositalardan ko'rيلган zararlardan tashqari.

Zararlar summasi ularni boshqa kapital ishlar va xarajatlar tarkibida ob'ektlarning inventar qiymatiga kiritish mumkin bo'lishi uchun yil oxirida 0800 «Kapital qo'yilmalar»ni hisobga olish schyotlariga hisobdan chiqariladi («Obektlarning inventar qiymatiga qo'shiladigan zararlar» bandi).

Zararlar bir necha qurilish ob'ektlariga o'tkaziladigan hollarda ular tugallanmagan qurilishning ham, hisobot yilda ishga tushirilgan ob'ektlarning ham smeta qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Xo'jalik moliyaviy faoliyatidagi hamda buzishlar tufayli nazarda tutilgan holatlarda ishlab turgan korxona va tashkilotlarga foiz, jarima, penya va neustoykalar to'lash bo'yicha xarajatlar asosiy faoliyat natijalariga yangi ko'riliyotgan korxonalar bo'yicha esa yuqori turgan tashkilot markazlashgan fondlari va rezervlari hisobiga o'tkaziladi.

Kapital qurilish pudrati shartnoma majburiyatlarni buzganlik uchun neustoyka (jarima, penya) va buzish natijasida pudratchilar zararining qoplash xarajatlari davlat arbitraji idoralarining qarori bilan undirilgan hollarda ko'rsatilgan summalar hisob-kitob schyotidan yoki vazirlik (idora)ning moliyaviy yordamga mo'ljallangan rezervini hisobga olish schyotidan hisobdan chiqariladi.

Korxona va tashkilotlar uchun to'langan summalarini 9910 - «Foya va zarar» schyotida (vazirlik yoki idoralarga - moliya yordamga mo'ljallangan rezervni hisobga olish schyotida) aks ettirishlariga pudratchilarning davlat arbitraj organining buyrug'i ilova qilingan inkassa topshiriqlari asos bo'ladi.

Hisob-kitob va kredit operatsiyalariga aloqador qurilish-buyurtmachilarning moliya bilan ta'minlash yoki ssuda schyotlardan olingan foiz, jarima, penya va neustoykalar summalari korxona, tashkilot yoki vazirlikning asosiy faoliyatida har oyda hisobot oyidan keyingi 5 sanasidan kechiktirmay tiklanadi. Buyurtmachilar yangi summa to'g'risidagi ma'lumotnomani idoraga taqdim etishlari lozim. Agarda korxona, tashkilot, vazirlik ko'rsatilgan muddatda yuqorida aytilgan mablag'larni tiklamasa buyurtmachini mablag' bilan ta'minlovchi bank muassasalari bu summani chorakda bir marta korxona yoki tashkilotlarning hisob-kitob schyotlariga yoki vazirlik (idora)ning moliyaviy yordamga mo'ljallangan rezervini hisobga olish schyotiga inkassa topshiriqlarini taqdim etib undirib oladi.

Inkassa topshiriqlarini takdim etishga bank muassasalariga chorak buxgalteriya hisobotiga qo'shib topshiriladigan korxona (tashkilot)lar asosiy faoliyati (vazirlik idoralarning rezerv schyotidan yoki ssuda schyotlardan to'langan foiz, jarima, penya va neustoykalar to'g'risidagi ma'lumotnomasi asos xizmatini o'taydi.

Quruvchi sub'ektlar asosiy vositalarni sotganda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar qilinadi:

9210 - «Asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotish va boshqa hisobdan chiqarishlar»ni hisobga oluvchi schyotlar debeti.

0100 - «Asosiy vositalar» schyotining krediti sotilgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati hisobdan chiqaradi.

Asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar hisobi. Asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar 0810 «Kapital qo'yilmalar» schyotning 0820 schyotida

belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xujjatlar (bank to'langan yoki to'lashga qabul qilingan) asosida hisobga olinadi. Ularni quyidagicha taqsimlash qabul qilingan:

1. Qurilishning yig'ma smeta hisob-kitoblarida, shuningdek kapital qo'yilmalar rejasida nazarda tutilgan xarajatlar:

oldingi qilinadigan xarajatlar ob'ektlar qurilishiga aloqador geologik kidirov, tadqiqot ishlari va boshqalar.

Ob'ektlar qurilishiga ulushli qatnashish tartibida beriladigan davlat, kooperativ, jamoa tashkilotlari va jamoa xo'jaliklaridan boshqa kapital ishlari va xarajatlar tarkibida nazarda tutiladigan mablag'lar hisobiga xarid qilingan bino va inshootlar (olingen bino va inshootlar ishlab turgan korxona hamda tashkilotlar hisobotida esa boshqa tushumlar sifatida aks ettiriladi):

import uskuna uchun texnologik xujjatlarni xarid qilishga. Agarda uning qiymati uskunaning shartnomaga qiyomatiga aloxida kiritilgan bo'lsa.

Shuni nazarda tutish kerakki, belgilangan tartibda ilgari qurilish loyixa-smeta xujjatini tasdiqlangan organ belgilaydigan qo'shimcha smeta aniqlangan mablag'lar hisobiga qurilishni konservatsiya qilish xarajatlari.

2. Qurilish qiymatining yig'ma smeta hisob-kitoblarida nazarda tutilgan xarajatlar:

xo'jalik usulida olib borilayotgan qurilishlardagi qurilish-montaj tashkiloti fondiga ajratmalar;

qurilishni tugallanmagan va belgilangan tartibda bepul boshqa korxona (tashkilot)larga berilgan ob'ektlar bo'yicha xarajatlar (bu xarajatlarni hisobdan chiqarishda tegishli qabul-tekshiruv aklari, bundan tashqari qabul qilayotgan tomonning bu xarajatlar hisobida aks ettirilganligi haqidagi ma'lumotnomasi asos bo'ladi);

xo'jalik usulida olib borilayotgan qurilishlarni ular uchun belgilangan oborot vositalari normativida, bu pudrat shartnomasida hisoblanadi. Pudrat usuliga o'tkazishga bepul berilgan moddiy boyliklar qiymati, boshqa tashkilotlarga belgilangan tartibda bepul berilgan va kapital qo'yilmalar hisobiga xarid qilingan uskunalar qiymati, qurilish ishchi kadrlarni asosiy faoliyatni moliya rejasida nazarda tutilgan rejali jamg'armalar hisobiga tayyorlash xarajatlari (ishni xo'jalik usulida olib borayotgan quruvchilar).

Tabiiy ofat tufayli asosiy vositalar bo'yicha zararlar, ularni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish ruxsat etilgan, qurilish tugallangan va belgilangan tartibda kapital qo'yilmalar hisobiga hisobdan chiqarishga ruxsat etilgan ob'ektlarni buzish, demontaj qilish va ko'riqlash xarajatlari.

Amaldagi qoidalar nazarda tutadigan boshqa xarajatlar.

## **6.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayoni auditining xususiyatlari.**

Auditorlik tekshiruvini, jumladan, moliyaviy natijalar hisobini audit qilishdan oldin audit dasturi tuziladi. Audit dasturi audit umumiyy rejasini rivojlantirish hisoblanadi va audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalari mazmunining bat afsil ro'yxatini o'z ichiga oladi. Dastur auditor assistentlari uchun bat afsil yo'riq nomasini bo'lib xizmat qiladi va bir vao'tning o'zida auditorlik tashkiloti va auditorlik guruhining rahbarlari uchun ish sifatini nazorat qilish vositasi hisoblanadi.

Auditor audit dasturini hujjatlari rasmiylashtirishi, har bir bajariladigan auditorlik rusum-qoidasini raqam yoki kod bilan belgilashi kerak, toki auditor ish jarayonida o'zining ish hujjatlarida ularga havola qilish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Mohiyatiga ko'ra auditorlik rusum-qoidalari o'z ichiga buxgalteriya hisobida hisobvaraqlar bo'yicha oborotlar va qoldiq to'g'ri aks ettirilganligini bat afsil tekshirishni

oladi. Auditorlik rusum-qoidalari dasturi ana shunday aniq bat afsil tekshirishlar uchun auditor harakatlari ro'yxatidan iborat bo'ladi. Rusum-qoidalalar uchun auditor tomonidan moliyaviy natijalarning to'g'ri shakllantirilganligi va hisobga olinganligini tekshirishni belgilashi va u bo'yicha audit dasturini tuzishi kerak bo'ladi.

bir bo'limi bo'yicha auditorning ish hujjalarda rasman aks ettirilgan xulosalari, auditorlik hisoboti (qurilish tashkilotlari rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasimi tuzish uchun fakt materiali, shuningdek, qurilish tashkilotlarining moliyaviy hisoboti to'g'risida auditorning holis fikrini shakllantirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar hisobi auditini amalga oshirishda ular moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Accounting Standards), auditning xalqaro standartlari (International Auditing Standards), O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari va auditning milliy standartlari asosida amalga oshiriladi. Auditor tomonidan xarajatlar tekshirilayotganda ma'lum soha, ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chio'qan holda auditorlik tekshiruvi amalga oshiriladi. Masalan, auditor xarajatlarni hisobga olinishini tekshirishni boshlashdan oldin ichki nazoratning usulini test bilan aniqlashi lozim. Bizning fikrimizcha, bu nafaqat ichki nazorat tizimining ishonchlilikini baholash, balki auditorlik tekshiruvi o'tkazish dasturiga tuzatish kiritishga ham imkon yaratadi.

Auditorlik tekshiruvining yakunlari ma'lumki, auditor tekshiruvi yakuni bo'yicha tuzilgan hisobot bilan tamomlanadi. Auditor xulosasi audit tekshiruv o'tkazilayotgan qurilish tashkilotlari moliya hisobotining ob'ektivligi va ishonchlilikidan guvohlik beruvchi hujjatdir.

Tekshiruvning barcha zaruriy jarayonlari o'tkazilganidan so'ng auditor moliyaviy natijalar hisobi auditining rejasi va dasturining barcha bo'lim va moddalari to'liq va sifatli bajarilganligi, shuningdek, rejaning barcha xato va qonunbuzarliklarni aniqlash vositasi sifatidagi o'rnni baholashi lozim. Bundan tashqari auditor moliyaviy natijalar hisobi auditni natijalarini guruhlashtirishi, tizimga solishi va analitik tahsilini o'tkazishi zarur.

Tekshiruv natijalarini guruhlashtirish va tizimga solish audit ma'lumotlarini aniq bir ketma-ketlikda va aniq belgilari bo'yicha guruhlashni anglatadi. Moliyaviy natijalar hisobi auditining natijalarini baholaganidan so'ng auditor auditorlik hisoboti va xulosasini tuzishga kirishadi. Auditorlik xulosasining shakli, tarkibi, ko'rinishlari va tuzilish tartibi O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik hisobotini tuzish tartibi» milliy auditorlik standartida belgilab berilgan.

Xalqaro amaliyot bo'yicha auditorlik tekshiruvi o'tkazilgach, auditor tekshirilayotgan-mijoz qurilish tashkilotlariga quydagi turdag'i xulosalarni berishi mumkin:

Qohiqarli auditor xulosasi bir qancha muammolarni o'z ichiga olishi mumkin. Auditor bunday xulosada moliya hisobotlari uchun axborotlar talabga javob berishi, unda ko'rsatilgan foya va zararlar, pul mablag'larining harakati amalidagi buxgalteriya hisobi bo'yicha qonun va normativ hujjatlardagi talablarga javob berishi ko'rsatiladi.

Ma'lumki auditorlik standarti va audit xulosa standartlari mavjud:

- Xulosa qurilish tashkilotlarida tugallangan moliya hisobotlari xulosasida buxgalteriya qoidalariга rioya qilingan holda yoritilganmi?

- hisobot davrida oldindi hisobotda ko'rligandagi ketma-ketlikka rioya qilinganmi?
- Xulosada moliya hisobotida talab qilinmaydigan fikr va mulohazalar mavjudmi?

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xulosalarining 90 foizi tushuntirish yozilmagan auditor xulosalariga to'g'ri keladi. Albatta, bunday xulosalarda quyidagi besh qoidaga rioya qilish lozim:

6. Barcha zarur hisobot shakllari balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni o'z ichiga olishi lozim. Jamg'arishga qo'yilgan foya va niroyat, pul mablag'larining

harakati to'g'risidagi hisobotlar moliyaviy hisobotga kiritilgan bo'lishi shart.

7. Auditor o'z xulosasini yozishda uch asosiy qoida: mutaxassislik, mustaqillik, kasb etikasiga rioya qilishi shchart.

8. Auditor xulosasida ob'ekt haqida uch andoza (rejali bo'lishi, ichki xo'jalik audit, etarli axborotga egalik) bo'lishi kerak.

9. Moliyaviy hisobot umuman moliyaviy hisobot qoidalariga mos kelishi lozim;

10. Barcha shartnomalar tijorat sirimi ochib tashlamasligi lozim (tushuntirish xatlari talab qilinadigan fikrlar ko'zda tutiladi).

Auditorlik xulosasi barcha yuridik va jismoni shaxslar, davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, sud-tergov organlari uchun rasmiy yuridik hujjat hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobotining majburiy auditining natijalari bo'yicha berilgan auditorlik hisobotining yakuniy qismi mazkur hisobotning ajralmas qismi bo'lib, yuridik kuchga ega.

Auditorlik xulosasi uch qismdan — kirish, analitik qism va xulosa.

Kirish qismida auditor (auditorlik firmasi) haqida ma'lumotlar beriladi. Kirish qismi auditorlik firmasi uchun alohida yoki auditorning o'ziga alohida tuziladi. Unda auditorning barcha rekvizitlari (nomi yoki familiyasi, litsenziya, uning muddati, kim tomonidan berilgani va boshqalar), oxirida auditorlik hisobotining oluvchilar ko'rsatiladi.

Analitik qismi auditorning tekshiruvning umumiyligi natijalari (ichki nazorat, buxgalteriya hisobi va hisoboti holati, shuningdek, iqtisodiy sub'ektning moliyaviy-xo'jalik muomilalarini amalga oshirishda qonunchilikka rioya qilishi) haqida iqtisodiy sub'ektga hisoboti aks ettiriladi.

Analitik qismda bo'limning nomi va kimga berilayotgani; Iqtisodiy sub'ekt nomi; audit ob'ekti; moliyaviy natijalar, ichki nazorat holati tekshiruvi umumiyligi natijalari aks ettiriladi. (7-chizma)

Xulosa qismi o'z ichiga iqtisodiy sub'ektning moliyaviy natijalari to'g'ri shakllantirganligi va sof foyda va soliqqa tortiladigan baza to'g'ri aniqlanganligi va moliyaviy hisobot to'g'ri tuzilganligi haqidagi fikrini oladi.

Auditor xulosasining matnida quyidagilar bo'lishi lozim: hisobotning nomi, adresi manzilgohi, kirish abzatsi, soha abzatsi (jumlesi), fikr abzatsi, mijoz firmasi, xulosa sanasi.

Moliyaviy natijalar hisobi audit natijalarini rasmiylashtirishda qabul qilingan milliy auditorlik standartlaridan foydalanish auditor ishi samaradorligini oshiradi va sifatini yaxshilaydi.

Respublikamizda bu borada ham bir qadar ijobjiy siljishlarga erishildi. Jumladan «Auditorlik faoliyat to'g'risida» gi qonunning qabul qilinishi ayniqsa muhim o'zgarish bo'ldi. Jumladan, «Auditorlik faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasiga surishtiruv idoralari, prokratura, tergov, sud idoralari auditorlik firmasiga qurilish tashkilotlarilarni tekshiruvdan o'tkazish bo'yicha topshiriqlar berishi mumkinligi to'g'risida aytildi.

Bu holat auditorlik faoliyatining «Mustaqillik» tamoyiliga to'g'ri kelmaydi. Chunki bu holat auditning asl mazmunini buzadi. Shuningdek, auditorlarning kriminal holatga aralashuvi uning huquqiy majburiyatlariga kirmaydi. Shu sababli, bu bandni umuman qonunchilik belgilovidan chiqarish lozim. Bu jihatdan, tegishli surishtiruv organlari tarkibida moliyaviy nazorat va tergov bo'limlarini ochish lozim.

Moliyaviy natijalar — foyda va zararlar audit va uni takomillashtirish yuzasidan quydagisi savollarni aniqlash lozim:

1) audit kimlar tomonidan o'tkazilmoqda.

Ichki auditorlik bo'limi tomonidanmi

## 2) tashqi auditorlik firmalari tomonidanmi

Har ikkala holatda ham asosiy jihat hisob qatorlarining sifatiga, aniqligi va to'g'rilingiga baho berishga qaratilgan.

Moliyaviy natijalar — foyda va zararlar auditida asosiy jihat moliyaviy natijalar hisobining to'g'ri yuritishiga, daromad va xarajatlarning yuzaga chiqish vaqtiga va o'rni bo'yicha to'g'ri bog'lanishiga, foyda va zararlarning yuzaga chiqish shakli bo'yicha turkum ifodasining to'g'rilingiga, shuningdek, jarayonlarning hisob yozuvlarida aks ettirishi aniqligi, foydalilikni chuqur nazariy tahlil qilish omilli o'rganishi, foyda va zararlarni taqsimi bo'yicha hisob ifodasiga to'g'ri kuchirishiga, soliqli to'lovlarning aniqligiga, ularni hisobga olish raschytotlari to'g'rilingini keng qamrovli o'rganishga qaratilgan holda real natijaviylikka baho tasdig'ini berish va uni o'strish yuzasidan, shuningdek, faoliyatda optimallikni ta'minlash yuzasidan amaliy choralarini belgilashni nazarda tutadi.

Yakuniy natija yoki yil bo'yicha foyda va zararlar, ta'sischilar, aktsionerlar, qarshi tomon e'tiboridagi asosiy masalalar sirasiga kiradi. Negaki, uning real shakli, harakat shartini belgilashda o'zaro bog'lanishlar, hamkorlik va uning qurilish tashkilotlari rivojini belgilashda muhim masala hisoblanadi.

Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijaviylik, foyda va zararlarni yuzaga chiqish vaqtiga va o'rni bo'yicha hisobga olinishi uning aniqligi va to'g'rilingini o'rganish foyda va zararlar auditida muhim masala sifatida qaraladi. Audit shartida ham tekshiruvning ushbu asosga bog'lanishiga e'tibor beriladi. Bu jihatdan ayniqsa O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunining 13- moddasida belgilangan daromad va xarajatlarning to'plangan vaqtiga va puli kelib tushishidan qa'iy nazar qaysi davrga taalluqli bo'lsa, o'sha davr hisob qatoriga kiritilishi shartiga amal etish tekshiriladi.

Foyda va zararlarning aniq ifodasiga chiqish avvalo sotishdan tushumlar va xarajatlarni hisobdan chiqarishning to'g'ri qatorlanishiga bog'liqdir. Shu jihatdan foyda va zararlar auditi ko'p jihatdan kompleks o'zgaruvchanlik yuzasidan yondashuvlikni talab etadi. Ya'ni, yakuniy natijaviylikka chiqishda chegiriluvchi qatorlar sifatida qaraluvchi xarajatlarning mahsulotlar tannarxiga to'g'ri olib borilganligi hamda ularning yuzaga chiqish qatori bo'yicha to'g'ri turkumlanmaganligiga muhim e'tibor beriladi. Bu jihatdan aniqlik birinchidan, qurilish tashkilotlarida real natijaviylikni to'g'ri aniqlash, soliqlar to'lovi yuzasidan ham to'g'ri bog'lanishga chiqish imkonini beradi. Bu esa soliq nazoratida kamchilik va ulardan himoyalanish imkonini beradi.

Shuningdek, asosiy faoliyatda natijaviylik foyda va zararlar qatoriga kiruvchi boshqa faoliyatlardan olingen daromad va yo'qotishlarni asosiy vositalar material qiymatliklar va boshqa aktivlarni sotishdan, ijara berishdan olingen foyda va zararlarini to'g'ri hisobga olinishini tekshirish ularni hisobot shakllariga to'g'ri ko'chirilishini o'rganishga ham alohida ahamiyat beriladi.

Moliyaviy natijaviylik foyda va zararlar auditida muhim nazorat qatori sifatida muddati o'tgan debitorlik - kreditorlik majburiyatlarining holati o'rganiladi. Agarda muddati o'tib ketgan debitorlik majburiyatlarini qurilish tashkilotlari zarariga olib borilgan va bu tufayli katta yo'qotishlarga sabab bo'lingan bo'lsa uni undirib olish yuzasidan muddati o'tgunga qadar choralar belgilanganligi o'rganiladi.

Muddati o'tgan kreditorlik majburiyatları esa to'g'ridan to'g'ri qurilish tashkilotları foydasiga olib borilgani holda to'liq samaralari hisobga olinmaydi. Ya'ni «foyda va zararlar» schyotiga to'liq summa olib boriladi.

Hozirda ushbu jihat, ya'ni debitorlik, kreditorlik majburiyatlarini nazorat qilish xalq xo'jaligida o'zaro hisob-kitoblar va ularning optimalligini ta'minlash yuzasidan davlat

siyosatida e'tiborli qator sifatida nazorat ob'ektiga olingen. Jumladan muddatli oralig'i ikki oydan oshgan debitorlik, kreditorlik majburiyatlarga yo'l qo'ygan tashkilot, qurilish tashkilotlari rahbarlarini javobgarlikka tortish choralarini belgilangan.

Foyda va zararlar auditida asosiy jihat soliq to'lovi yuzasidan soliqqa tortiladigan bazaga to'g'ri chiqishni aniqlashdan iboratdir. Bu jihatdan joriy yilning hisob foydasi va unga qayta qo'shiluvchi xarajat moddalarining to'g'ri hisobga olinishini nazorat qilish muhimdir. Negaki qurilish tashkilotlar ko'p hollarda auditorlik tekshiruvini avvalo ushbu aniqlikka chiqish maqsadida o'tkazadilar. Bunda soliq bazasini aniqlashda qayta qo'shiluvchi xarajatlarning arkibili uslub qatoriga amal qilingan holda, har bir xarajat qatori bo'yicha aniq farqlanishlar berilishi lozim.

Moliyaviy natijalar — foyda va zararlarning taqsimiy qatori bo'yicha to'g'ri yuritilishi va hisob qatorlariga to'g'ri ko'chirilishi, qurilish tashkilotlari sof foyda qatorida turli fondlarga ajratmalar, dividendlar summasining taqsimotlar qatoriga to'g'ri chiqilishini o'rGANISH, qurilish tashkilotlari dividend siyosatining amaliy shakliga baho berish va shu kabi jihatlar ham auditorlik kuzatuvidagi muhim birlik hisoblanadi.

Shuningdek auditorlik tekshiruvi va uni takomillashtirish yuzasidan quyidagi jihatlarni qatorlashimiz mumkin:

Moliyaviy natijalar — foyda va zararlar auditni avvalo zaruriyatdan kelib chiqqan holda o'tkazilishi lozimligidan uning qurilish tashkilotlari uchun foydali bo'lган tizimini shakllantirish lozim. Bizning asosiy etiborimiz ushbu bo'lim ish faoliigini oshirishga qaratilgan.

Uning ish faolligini oshirishning eng muhim sharti esa mutaxassis kadrlarning kasb mahoratini oshirish va ularning ish unumini (oshirishni) ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli xizmat bo'limlariga avvalo kuchli analitiklarni, ekspert, menejerlarni jaib qilish lozim. Negaki qurilish tashkilotlari farliyati natijaviyligi, uning faolligiga ham bog'liqidir.

Qurilish tashkilotlarda ushbu xizmat bo'limining ish faoliyatini imkon qadar ichki auditorlik xizmat darajasiga ko'tarish lozim.

Ayniqsa tarmoq tizimi bo'yicha ushbu xizmat bo'limini, ya'ni ichki auditorlik faoliyatini yo'lga qo'yish lozimdir. Bu jihat davlat tashkilotlarning yoki uning nomidan ish ko'rvuchi tashkilotlarning auditorlik firmalariga ta'sischi sifatida kirish masalalarini ham hal qilgan bo'lar edi.

Auditorlik faoliyatini takomillashtirish yuzasidan quyidagilarga alohida ta'kidlash lozim:

◆ Xarajatlarni me'yorlash yuzasidan aniqlikka chiqishda va ularning o'zgarishini hisob qatorlariga ko'chirish yuzasidan asos shartlarini va uning uslubiy jihatlarini belgilash aniqligiga chiqish;

◆ Tarmoq tizimi bo'yicha foyda va zararlarni yuzaga chiqish o'rni va shakli bo'yicha hisob qatorlariga chiqish aniqligini taminlash;

◆ Xarajat va daromadlarni hisobga olish yuzasidan qurilish tashkilotlari hisob siyosati, divident siyosatining ichki yo'riqlarni belgilash va unga amal etish darajasini o'rGANISH;

◆ Qurilish tashkilotlarda foydani maksimallashtirish yuzasidan imkon qadar taxliliy echimlar shartiga amal etish va uni o'stirish yuzasidan qator taklif qarorlarni berishga etibor qaratish;

◆ Qurilish tashkilotlarning yil yakuni bo'yicha oshkora elon qilinadigan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti yuzasidan aniqlik kafolatini tuliq auditorlik firmalari zimmasiga yuklash va h.k.

O'ylaymizki, bu jihat o'zgarishlar va belgilashlar tarmoq tizimida buxgalteriya hisobi va nazoratini yo'lga qo'yishda va takomillashtirishda qo'l keladi.

#### **Mavzu bo'yica nazorat uchun savollar**

1.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari nimalardan iborat.

2.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining umumiyligi rejasiga ishchi dasturini tayyorlash tartibi.

3.Tugallangan qurilish-montaj ishlarini tannarxini aniqlashni audit qilish tartibi.

4.Tugallanmagan qurilishni baholash va hisobga olish audit.

5.Xo'jalik sub'ektlarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan qanday audit amallari mavjud.

6.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayoni auditining tartibi.

1.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.

## **4-MAVZU: “QISHLOQ XO’JALIGI KORXONALARI ASOSIY FAOLIYAT AUDITNING XUSUSIYATLARI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **REJA:**

- 1.Qishloq xo’jaligi korxonalarida audit o’tkazishning maqsadi, vazifalari va ma’lumot manbalari.**
- 2.Qishloq xo’jaligi korxonalarida audit o’tkazishning umumiyligi rejasi va ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**
- 3.Qishloq xo’jaligi korxonalarida audit o’tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.**
- 4.Qishloq xo’jaligi korxonalarida asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar auditining xususiyatlari.**
- 5.Qishloq xo’jaligi korxonalarida majburiyatlar auditni.**
- 6.Qishloq xo’jaligi korxonalarida kelgusi davr xarajatlari va to’lovlar rezervidan foydalanishni tekshirish.**

**Mavzu bo’yich tayanch-so’z va iboralar:** Audit, auditorlik tekshiruvi, auditor, asosiy ishlab chiqarish, asosiy mahsulot, yondosh maxsulot, bog’dorchilik, dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, ipakchilik, poliz ekinlari, sabzovot ekinlari, tayyorlov tashkilotlari, mashina-traktor parki, jamoa xo’jaligi, fermer xo’jaligi, urug’, ozuqa, o’g’it, ishchi xayvonlar, maxsuldar xayvonlar, boquvdagi xayvonlar.

### **1. Qishloq xo’jaligi korxonalarida audit o’tkazishning maqsadi, vazifalari va ma’lumot manbalari**

Bozor munosabatlari sharoitida xalq xo’jaligi boshqaruv organlarining turlariga, funktsional vazifalariga qarab nazoratlar: davlat organlari va mulkdorlik jihatlaridan nodavlat xo’jalik sub’ektlari nazoratiga bo’linadi. Bunday nazorat turlarining kelib chiqishiga sabab, birinchidan, turlicha mulk shakllarining vujudga kelishi bo’lsa, ikkinchidan, Respublikamizning chet el kompaniyalari, investorlar bilan iqtisodiy aloqalarda bo’lishidir. Tabiiyki, bular esa o’z navbatida bugungi kun talabiga javob beradigan auditorlik nazorati faoliyatini uyuştirishni taqozo qilmokda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy tarmog’i bu – qishloq xo’jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, tayyorlov va bozor infratuzilmasi sohalarida turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo’jalik yurituvchi sub’ektlar o’rtasida barqaror iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biridir.

Respublikamiz iqtisodiy - ijtimoiy hayotidan kelib aytishimiz mumkinki, qishloq xo’jalik korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini o’tkazish tarmoqlar auditining muhim bo’g’inlaridan biridir.

Qishloq xo’jalik korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini o’tkazishdan maqsad, qishloq xo’jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, o’zi ishlab chiqargan qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotishni, shu jumladan o’z savdo shaxobchalari orqali sotishni amalga oshiruvchi korxonalar faoliyatini tegishli qonunchilikka muvofiq tashkil etganligi, o’z xo’jalik faoliyatlarining ehtiyojlardan kelib chiqqan holda hisob siyosatini mustaqil ravishda shakllantirganliklari va amalga oshirilgan xarajatlar xususan kishi-soatlar, ekilgan urug’lik va ko’chatlar, solingen o’g’itlar va boshqalarni hisobga olishning to’g’riligi, mahsulatlar tannarxini aniqlash bilan bog’liq amallarning joriy

qonunchilikka mosligini hamda tuziladigan moliyaviy hisobotlarning to'g'rilingini nazorat qilib borishdan iboratdir.

Qishloq xo'jalik korxonalarida audit o'tkazishning vazifalari qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin:

1) qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan tuzilgan hisobotlarni aniqligini ta'kidlash yoki ularni noaniqligi to'g'risida ko'rsatmalar berish;

2) buxgalteriya hisobida qarzlar, daromadlar va qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyati moliyaviy natijalarini tekshirilayotgan davrda to'liq, aniq va haqiqiy ko'rsatilganligini tekshirish;

3) buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzishni tartibga soluvchi qoidalarga, normativ hujjatlarga hamda qonunchilikka amal kilinganligini, shuningdek aktivlar, majburiyatlar va o'z kapitalini baholash metodologiyasiga rioya etilganligini nazorat qilish;

4) o'z asosiy va aylanma mablag'larini, moliyaviy rezervlardan hamda kredit manbalaridan yaxshiroq foydalanish rezervlarini aniqlash.

Shuningdek, auditning vazifalari - balansni, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni to'g'ri tuzilganligi hamda tushuntirish xatlarida ma'lumotlar aniqligini auditorlik tekshirushi orqali aniqlashdan iborat.

Bunda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

a) Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklining qay biridan foydalanimishi (buxgalteriya hisobining oddiy shakli yoki buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli);

b) tanlangan buxgalteriya hisobining shaklidan qat'iy nazar hisobot davrining xo'jalik operatsiyalarini xronologik tartibda Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish Jurnalida qayd etib borilganni;

v) har bir oyning (chorakning) oxirida xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish Kitobida yakun chiqarilib, unga asosan fermer xo'jaligi faoliyatining natijasi aniqlanganmi;

g) xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish Kitobida yuritilan aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlarning qoldiqlari 1-sonli shakl — buxgalteriya balansiga to'g'ri o'tkazilganmi;

d) xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish Kitobida yuritilan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning hisobot davridagi aylanmasi 2-sonli shakl — moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga to'g'ri o'tkazilganmi va h.k.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni auditor balans va soliqqa tortilgan foya to'g'ri hisoblanganligini aniqlash uchun tekshiradi.

Auditor asosiy maqsadga erishish va xulosa berish uchun quyidagi savollar bo'yicha o'z fikrini shakllantirishi kerak:

- hisobotning umumiyligi mos kelishi ya'ni, hisobot umuman uning oldiga qo'yilgan talablarga javob beradi, hamda bir-biriga to'g'ri kelmaydigan axborotdan xolis ekanligi;

- asoslanganlik ya'ni, ko'rsatilgan summalarini hisobotga kiritish uchun asos borligi;

- yakunlanganlik ya'ni, hisobotga hamma summalar kiritilganligi, shuningdek barcha aktivlar va passivlar bankka tegishlimi. Bu moddiy zapaslar bank mulkidir.

- baholash ya'ni, barcha mablag'lar to'g'ri baholangan va xatosiz hisoblanganligini o'rGANISH;

- turkumlash ya'ni, summani shu schetda ko'rsatish uchun asos bormi;

- ajratish ya'ni, operatsiyalar amalga oshirilgan davrda ko'rsatilganmi (sotilgan va sotib olingan tovar moddiy zapaslar summasi 2 davr orasida ajratilganmi);

- sarajomlik ya'ni, analitik hisob-kitoblarida va jurnallarda keltirilgan ma'lumotlari aniqli, ular to'g'ri qo'shilganmi va bosh kitobdag'i ma'lumotlarga mos keladi;

- ochish ya'ni, moliyaviy hisobotga hamma kategoriyalar kiritilgan hamda ular hisobotda to'g'ri ko'rsatilgan.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda auditor quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga tayanib ish yuritadi:

- O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonun (26.05.2000);

- «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonun (30.08.1996);

- «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonun (30.04.1998);

- «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonun (26.08.2004);

- «Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida»gi Nizom (21.01.2008);

- «Ekinbop urug'liklar etishtirish maqsadida ekilgan navli qishloq xo'jalik ekinlarini aprobatsiya qilish tartibi to'g'risida»gi Nizom (12.06.2014);

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 11 martdag'i «Qishloq xo'jaligida hisob-kitoblar tizimini takomillashtirishga oid tub chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni;

- Fuqarolik kodeksi (01.03.1997);

- Soliq kodeksi (24.04.1997);

- Er kodeksi (01.07.1998);

- Buxgalteriya hisobining milliy standartlari,(BHMS);

- «Mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom (05.02.1999) hamda boshqa talab qilingan hujjatlar.

Qishloq xo'jalik korxonalarida auditorlik tekshiruvining ma'lumot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

• Ta'sis hujjatlari, ustav kapitalini shakllantirishga doir dastlabki hujjatlar. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunning 18 moddasiga binoan Fermer xo'jaligining ustav fondi fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan belgilanadi;

• Fermer xo'jaliklarining o'z faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan Hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyruq;

• Xo'jalik tomonidan tuzilgan moliyaviy, stasistik va boshqa tegishli hisobot shakllari;

• Boshlang'ich buxgalteriya hujjatlar, xamda ular asosidagi analitik va sintetik hisob registrlari;

• Bankdagi hisob kitob, valyuta va boshqa maxsus schetlar va hk.

Qishloq xo'jalik korxonalarida audit o'tkazishni rejalashtirishning dastlabki qismi bu - moliyaviy hisobotni, ta'kidlab o'tish lozimki, «Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomga binoan tahlil qilish, amalga oshiriladigan nazoratning masshtabni baholashni qo'llanilayotgan ichki nazorat asosida olib borish kerak. Fermer xo'jaliklari 1-sonli shakl — buxgalteriya balansi va 2-sonli shakl — moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlardan iborat bo'lgan, faqat yillik moliyaviy hisobotni hisobot yildan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmasdan taqdim qiladi. Tekshiruv jarayonida qo'llaniladigan amallarni aniqlash zarur, ya'ni tekshiruvga boshqa auditorlar, ekspertlarni va qo'shimcha xodimlar jalb etishni hamda mijozni bank roziliginini olib, ular faoliyatini rejalashtirish kerak. Shuni yodda tutish kerakki, tekshirishda boshqa mutaxassislar ishidan foydalanish auditordan auditorlik xulosasi uchun javobgarlikdan ozod kilmaydi.

## **2.Qishloq xo'jaligi korxonalarida audit o'tkazishning umumiyligi rejasiga va ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**

Qishloq xo'jaligi korxonalarida auditorlik tekshiruvlari jarayonida auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan audit amallari 13 sonli "Tahliliy tadbirlar" nomli AMSga muvofiq xo'jalik faoliyat turini inobatga oлgan holda bajariladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tahliliy tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy hisobotlari ko'rsatkichlarini uning rejadagi ko'rsatkichlari bilan solishtirish;
- Korxona hisobotlarining amaldagi ko'rsatkichlarini auditorlik tashkiloti tomonidan belgilangan prognoz ko'rsatkichlari bilan solishtirish;
- Qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan tuzilgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar yoki xo'jalikning o'zi tomonidan belgilanadigan me'yoriy hujjatlar bilan solishtirish;
- Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobot tarkibiga kirmaydigan ko'rsatkichlar bilan solishtirish;
- Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini qishloq xo'jaligidagi o'ttacha ma'lumotlar bilan solishtirish;
- Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining vaqt o'tishi davomida o'zgarishlari va ular bilan bog'liq bo'lgan nisbiy koeffitsientlar tahlili.

Tahliliy tadbirlarning turi ularni o'tkazish maqsadi, ularni o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborotga erishish imkoniyati va unga moslikka, xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyat turiga bogliq bo'ladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda avvalo korxonaning ichki nazorat tizimiga va tashkil etilgan buxgalteriya hisobi tizimiga baho berish auditor ishining asosiy bosqichlaridan biridir. Ichki nazorat tizimini baholash "Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash" nomli 12-sonli auditorlik faoliyatining milliy standartiga asosan amalga oshiriladi. Ushbu AMSga asosan ichki nazorat tizimi - xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va samarali yuritish, aktivlar va hisob hujjatlarining saqlanishini ta'minlash, xato va fribgarlik holatlarini oldini olish va aniqlash, buxgalteriya yozuvlarining aniq va to'liqligi va o'z vaqtida ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan tashkiliy tadbirlar, usullar va amallar (ichki nazorat vositalari) yig'indisidir deb ta'rif berilgan. Auditor qishloq xo'jaligi korxonalarida INT va BHTni baholashda anketa savolnomasi tuzish orqali amalga oshiradi.

### **Buxgalteriya hisobi tizimini baholash bo'yicha savolnomasi**

Nº	Yo'nalishlar bo'yicha nazorat savollari	Javob	Izoh
<b>Mavjudligi va saqlanishi bo'yicha</b>			
	-Bosh buxgalter rahbarligidagi buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etilganmi yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalterning xizmatidan foydalilanildimi?		
	-Buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi tanlanganmi?		

	-Xo'jalikda buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklining qaysi turi yuritiladi: a) buxgalteriya hisobining oddiy shakli; b) buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli.		
	-Xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar Rejasini tuzilganmi?		
	-Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Kapital qo'yilmalarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Boquvdagi va o'stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladi?		
	-Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Ombor binolariga begona shaxslarning kirishi ta'qilanganmi? -yong'inga qarshi moslamalar bilan jihozlanganmi? -moddiy zaxiralarning kirimi va chiqimi nazorat qilinadimi?		
	-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi o'tkaziladi? (rejali, tasodifiy).		
	-Inventarizatsiya natijalari hujjatlashtiriladimi?		
	-Inventarizatsiya natijasi bo'yicha moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobot tuziladimi?		
	-Doimiy faoliyat yurituvchi inventarizatsiya komissiyasi mavjudmi?		
	-O'g'irliklar, talon-tarojlik sodir etgan shaxslar va moddiy javobgar shaxslar javobgarlikka tortiladimi?		
	-Omborda tovarlarning miqdori va navi bo'yicha analistik hisob yuritiladimi?		
	-Hujjatlar operatsiya sodir bo'lган vaqtida tuziladimi?		
	-To'ldirilgan hujjatlar, moddiy javobgar shaxslar imzolarining namunalari mavjudmi?		

	-Birlamchi hujjatlar numeratsiyasi amalga oshiriladimi?		
	-Registratsiya jurnallarida hujjatlar(schet-faktura, ishonchnoma) aks ettiriladimi?		
	-Kirim qilingan tovarlarning to'liqligi tekshiriladimi?		
	-Qaydnomalardagi, Jurnal-orderlardagi, Bosh-kitobdagi ma'ulmatlar doimiy taqqoslanadimi?		

Shuni ta'kidlash joizki, qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish yuzasidan javobgarlik fermer xo'jaligining boshlig'i zimmasida bo'lib bunda u quyidagi huquqlarga ega:

- a) bosh buxgalter rahbarligidagi buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish yoki shartnoma asosida jalg qilingan buxgalterning xizmatlaridan foydalanish;
- b) buxgalteriya hisobini yuritishni shartnoma asosida ixtisoslashgan buxgalterlik firmasiga yuklash;
- v) buxgalteriya hisobini mustaqil yuritish.

Auditorlik tekshiruv davomida auditor o'z ishini shunday rejalashtirishi lozimki, moliyaviy hisobotlarni, moliya xo'jalik muomalalarining ishonchliligini va qonuniyligini, hamda ular buxgalteriya hisobi schetlarida aks ettirilishining to'g'riligini o'z vaqtida va sifatli auditorlik tekshiruvidan o'tkazishni ta'minlasin. Tekshiruvni rejalashtirish "Auditni rejalashtirish" nomli 3 sonli AMSga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **AUDITNING UMUMIY REJASI**

Tekshirilayotgan tashkilot	«Kelajak-baraka» fermer xo'jaligi
Audit davri	10.03.17 - 25.03.17
Kishi-soatlari soni	749
Auditorlik guruhi rahbari	Akbarov S.I.
Auditorlik guruhi tarkibi	Pulatov G.R., Mavlonov V.T., Vasikov P.N.
Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari	0.166
Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi	26.800 so'm

Rejalashtirilayotgan ish turlari	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Izohla r
Qishloq xo'jalik korxonasining ta'sis hujjatlarini tekshirish.	10.03.17	Vasikov P.N.	
Hisob siyosatini mavjudligi, to'g'riligini tekshirish	11.03.17	Vasikov P.N.	
Asosiy vositalarning mavjudligi, saqlanishini va hisobga olish qaydnomasi tekshirish	12.03.17	Vasikov P.N.	
Ombordagi moddiy-zaxiralalar hisobini to'g'riligini tekshirish	13.03.17	Pulatov G.R.	
Boquvdagi va o'stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasini nazorat qilish	13.03.17	Vasikov P.N.	
Hisoblashishlar va kredit operatsiyalarini tekshirish	14.03.17	Pulatov G.R.	
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olishni tekshirish	15.03.17	Pulatov G.R.	
Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish	16.03.17	Mavlonov V.T	

xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish auditni			
Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olinishini tekshirish	17.03.17	Akbarov S.I.	
Qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish tartibi tekshirish	18.03.17	Akbarov S.I.	
Foydani shakllantirilishi va ishlatalishini tekshirish	10.03.17	Vasikov P.N.	

Auditorlik tashkilotining rahbari  
Auditorlik guruhining rahbari

Sadriev I.  
Akbarov S.I.

Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy hisoboti fakt ko'rsatkichlarini u tomonidan belgilangan reja bilan solishtirishda auditorlik tashkiloti korxona tomonidan qo'llaniladigan rejalashtirish uslubiyatini baholashi va reja ko'rsatkichlariga binoan hisobot davri moliyaviy ko'rsatkichlari mijoz tomonidan o'zgartirilmaganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Moliyaviy hisobotning fakt ko'rsatkichlarini mustaqil belgilangan prognoz ko'rsatkichlar bilan solishtirishda auditorlik tashkiloti o'z taxminlarini shakllangan tamoyillar asosida belgilaydi. Hisobot va me'yoriy ko'rsatkichlar negizida har xil turdag'i koeffitsientlar va foizli nisbatlar hisob-kitobi samarali hisoblanadi. Koeffitsientlarni tanlash, ularning hisob-kitoblari usullarini va hisob-kitob vaqtin davrlarini tanlash me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Ehtimoliy tavakkalchiliklar sohalarini aniqlash usullari sifatida joriy davr nisbiy ko'rsatkichlarining tahlili, turli davrlarda xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun hisoblab qo'yilgan nisbiy ko'rsatkichlar o'zgarishining tahlili va nisbiy ko'rsatkichlar bir necha turining o'zgarishlarini solishtirish.

Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy hisoboti fakt ko'rsatkichlarini tarmoqning o'rtacha ko'rsatkichlari bilan solishtirganda, auditor shu korxona faoliyatini tahlil qiladi. Bunda auditor shularni hisobga olishi kerakki, tarmoq ko'rsatkichlari mazkur xo'jalik yurituvchi sub'ekt ko'rsatkichlari bilan mutanosib bo'lmasligi mumkin, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar turli hisob siyosatidan foydalanishi ham mumkin.

Dehqonchilikda mahsulotning daladan kelib tushishi va berilishini aks ettiradigan turli birlamchi hujjatlar mavjud. Hujjatarning shakli mahsulotlar xarakterining va ish turiga daladan keltirilayotgan mahsulotning hujjati rasmiylashtirilishiga va uning kirim qilinishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, donni kombaynlarda xirmonga tashish, mahsulotni daladan olib chiqish yo'llanma bilan rasmiylashtiriladi. Oldindan nomerlangan yo'llanma kombayn haydovchilariga berib qo'yiladi. Bu yo'llanmani avval kombaynchi, so'ngra shofyor va xirmon mudiri imzolaydi.

Audit jarayonida yo'llanmalar o'rniда daladan don va boshqa mahsulotlarni jo'natish reestrlaridan foydalanilganligiga ham e'tiborni qaratish lozim. Ular yo'llanmalar singari rasmiylashtiriladi, ammo kun davomida yig'ma hujjat sifatida yuritiladi. Bu dastlabki hujjatlar sonini qisqartirish imkonini beradi. Bundan tashqari, auditor don mahsuloti bevosita xirmonda "Don va boshqa mahsulotlarni qabul qilish" reestrlarida kirim qilinganligini tekshirishi lozim, bu hujjat ham ish kuni davomida yuritiladi. Xirmon mudiri ushbu kirim hamda chiqim hujjatlari asosida har kuni don va boshqa mahsulotlar harakati vedomostini tuzadi va uni dastlabki hujjatlar bilan birga buxgalteriyaga topshiradi.

Donni xirmonda tozalash, quritish va saralash dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilib, unda donning ishlov berishdan oldingi va keyingi og'irligi turlar bo'yicha chiqit miqdori ko'rsatiladi.

Paxtaning kelib tushishi paxtaning kundalik terilishi haqidagi ma'lumotlarni qamrab oluvchi hujjatlar, savzavot, kartoshka, poliz va bog'dorchilik mahsulotlari qishloq xo'jalik mahsulotining kelib tushish kundaliklari orqali rasmiylashtiriladi.

G'allani qabul qilish punktlariga jo'natilayotganda tovar transport nakladnoylari ilova qilinadi.

Chiqim hujjatlari omborchi yoki xirmon mudiri tomonidan mahsulotning chiqib ketishi haqidagi hujjatlar reestrida qayd etiladi. Ishlatilgan ozuqa yig'ma hujjat ozuqa sarfi vedomosti bilan rasmiylashtiriladi.

Chorvachilikda ham xilma-xil hujjatlardan foydalilanadi. Ularning shakli va mazmuni mahsulot xarakteri, chorva va ish turiga bog'liq bo'ladi. Auditor ushbu hujjatlarni turini va ish bajarish xarakterini bilishi zarur.

Dehqonchilik qishloq xo'jaligining asosiy sohalaridan biri. Bu sohada qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot shu jumladan chorva uchun ozuqa etishtiriladi. Bu tarmoqda dala ishlari, polizchilik, bog'dorchilik, em-xashak etishtirish va shu kabilar tarkib topadi.

Dehqonchilikdagi hisobga olish ob'ekti – ekinlarning alohida turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari va ayrim ishlardir. Masalan, kuzgi boshqoqli ekinlar guruhi, bahorgi bug'doy va boshqa bahorgi ekinlar guruhi, tekin ekinlar, kartoshka, sabzavot, poliz, ozuqa ekinlarining bog'dorchilik va uzumchilik xarajatlari hisobga olishning mustaqil ob'ektlari hisoblanadi.

Kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlар hisoblash tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olishning alohida ob'ektiga ajratiladi. Bu xarajatlari alohida ekinlar bo'yicha bajariladigan ish turlari yuzasidan hisobga olinadi. Keyingi, boshlangan hisobot yilda aytib o'tilgan xarajatlari alohida ekin turlari tannarxiga taqsimlash yo'li bilan o'tkaziladi.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotning chiqishi bo'linma, brigada va shu kabilar bo'yicha hisobga olinishi kerak bundan tashqari auditor ekin turlari bo'yicha xarajatlari quyidagi kalkulyatsiya moddalari bo'yicha to'g'ri hisobga olinaganligini tekshiradi:

- Ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birgalikda mehnatga haq to'lash xarajatlari.
- Urug'lik va ekish materiallari.
- O'g'itlar.
- O'simliklarni himoya qilish vositalari.
- Ish xizmatlari.
- Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari
- Ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari.
- Sug'urta to'lovlari va boshqa xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga oid buxgalteriya yozuvi to'g'ri va tegishli tartibda rasmiylashtirilgan boshlang'ich hujjatlar-mixanizatsiyalashtirilgan, ot va qo'l mehnatlarini hisobga olish varaqalari, o'g'it sarfi aktlari, mahsulot jo'natilganligi haqidagi nakladnoylar registrlar, mahsulotni daladan olib chiqish yo'llanmalari, ozuqa qabul qilish dalolatnomalarini va shu kabilar asosida amalga oshiriladi. Brigada va bo'limlar bo'yicha guruuhlangan boshlang'ich hujjatlar ma'lumotlari asosida ish va xarajatlarni hisobga olish jurnali yuritiladi, so'ngra har oyda dehqonchilik bo'yicha ishlab chiqarish hisobotlari tuziladi. (18-shakl) Hisobot ikki bo'limdan iborat bo'ladi. Uning birinchi bo'limida xarajatlari moddalari, rejadagi ekin tur (guruh) lari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari

bo'yicha xarajatlar, ikkinchisida dehqonchilik mahsulotining chiqishi aks ettiriladi. Ishlab chiqarish hisobotlari tugallangan oydag'i ma'lumotlarni ko'rsatib, yil boshidan o'suvchi yakunida yuritiladi. Hisobotlar asosida analistik hisob yuritiladigan mahsulotning chiqishi hisobi daftariга, qayd qilinadi. So'ngra 10 jurnal-orderga o'tkaziladi. Hisobga olishning mashinaga mo'ljallangan turlarida xarajatlar va mahsulotning chiqishini hisobga olishning vedomost-mashinagrammalari ishlab chiqiladi.

Auditorlik tekshiruvi mobaynida auditor, qishloq xo'jalik korxonalarida dehqonchilikdagi xarajatlar va mahsulotning chiqishini hisobga olishda 2010 - "Asosiy ishlab chiqarish" schyotidan foydalilanayotganligini ham aniqlab olishi kerak. U, ishlab chikarilayotgan mahsulot tannarxni hisoblashga ham mo'ljallangan. Schyotning debetida yil davomida bevosita, yil oxirida esa yukorida keltirilgan sarf moddalar bo'yicha bilvosita xarajatlar, kreditida esa yil dovomida mahsulotning chiqishi rejadagi tannarxda aks ettiriladi. Yil yakunida esa rejadagi tannarx aniqlangan xaqiqiy tannarxga etkazib to'g'rilanadi. Yil boshida ushbu schyotning debet saldosi o'tgan yil xarajatlari bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni, yil oxirida esa kelgusi yil hosili uchun harajatlar bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni anglatadi. 2010 - "Asosiy ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha analistik hisobi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish ob'ektlari bo'yicha ekin turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, ish turlari va xarajatlar moddasi bo'yicha yuritiladi.

Bundan tashqari auditor, xarajatlarni alohida moddalar bo'yicha hisobga olish tartibini ham bilishi shart. "Ijtimoiy sug'urta ajratmalari va mehnatiga haq to'lash xarajatlari" moddasida bevosita ekin o'stirish bilan band bo'lgan ishchilar mehnatiga haq to'lash, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillarga haq to'lash hamda bu summalarga nisbatdan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang'ich hujjatlar asosida bevosita tegishli ekinlar va ish turlariga o'tkaziladi. Qo'shimcha mehnat xaqi summalar to'g'ri ish xaqiga munosib taqsimlanadi. Bunda umumlashgan ma'lumotlar bo'yicha 2010 - "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining debetiga hamda 6710 - "Mehnatga xaq to'lash bo'yicha hisoblashishlar" va "Ijtimoiy sug'urta bo'yicha hisoblashishlar" schyotlarining kreditiga qayd qilinadi.

Tahliliy tadbirlarni qo'llash tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar o'tasidagi sabab-oqibat aloqasining mavjudligiga asoslanadi.

Tahliliy tadbirlarning maqsadlari xo'jalik faoliyatining ehtimolli tavakkalchiliklar sohasini belgilovchi g'ayriiddiy yoki noto'g'ri aks ettirilgan faktlari va natijalarining mavjudligi yoki mayjud emasligini aniqlash, xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini o'rganish, moliyaviy hisobot buzilishi faktlarini aniqlash, mufassal auditorlik tadbirlari sonini qisqartirish, yuzaga kelgan savollarga javob olish maqsadida testdan o'tkazishni ta'minlashdan iboratdir.

Tahliliy tadbirlarni qo'llash auditorga auditni rejalashtirishda mijozni yaxshiroq tushunish va buxgalteriya balanslarini tekshirish orqali auditdagi tavakkalchilik darajasini belgilash imkoniyatini berish bilan birga, boshqa auditorlik tadbirlari soni va hajmini qisqartirishga imkon beradi. Tahliliy tadbirlar auditning butun jarayoni davomida bajariladi.

### **3. Qishloq xo'jaligi korxonalarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.**

Qishloq xo'jaligi korxonalarida auditorlik tekshiruvlari jarayonida auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan audit amallari 13 sonli "Tahliliy tadbirlar" nomli AMSga muvofiq xo'jalik faoliyat turini inobatga olgan holda bajariladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tahliliy tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy hisobotlari ko'rsatkichlarini uning rejadagi ko'rsatkichlari bilan solishtirish;

- Korxona hisobotlarining amaldagi ko'rsatkichlarini auditorlik tashkiloti tomonidan belgilangan prognoz ko'rsatkichlari bilan solishtirish;

- Qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan tuzilgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar yoki xo'jalikning o'zi tomonidan belgilanadigan me'yoriy hujjatlar bilan solishtirish;

- Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobot tarkibiga kirmaydigan ko'rsatkichlar bilan solishtirish;

- Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini qishloq xo'jaligidagi o'rtacha ma'lumotlar bilan solishtirish;

- Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining vaqt o'tishi davomida o'zgarishlari va ular bilan bog'liq bo'lgan nisbiy koeffitsientlar tahlili.

Tahliliy tadbirlarning turi ularni o'tkazish maqsadi, ularni o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborotga erishish imkoniyati va unga moslikka, xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyat turiga bogliq bo'ladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda avvalo korxonaning ichki nazorat tizimiga va tashkil etilgan buxgalteriya hisobi tizimiga baho berish auditor ishining asosiy bosqichlaridan birdir. Ichki nazorat tizimini baholash "Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash" nomli 12-sonli auditorlik faoliyatining milliy standartiga asosan amalgalashdi. Ushbu AMSga asosan ichki nazorat tizimi - xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va samarali yuritish, aktivlar va hisob hujjatlarining saqlanishini ta'minlash, xato va firibgarlik holatlarni oldini olish va aniqlash, buxgalteriya yozuvlarining aniq va to'liqligi va o'z vaqtida ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan tashkiliy tadbirlar, usullar va amallar (ichki nazorat vositalari) yig'indisidir deb ta'rif berilgan. Auditor qishloq xo'jaligi korxonalarida INT va BHTni baholashda anketa savolnomasi tuzish orqali amalgalashdi.

#### Buxgalteriya hisobi tizimini baholash bo'yicha savolnoma

N	Yo'nalishlar bo'yicha nazorat savollari	Javob	Izoh
Mavjudligi va saqlanishi bo'yicha			
	-Bosh buxgalter rahbarligidagi buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etilganmi yoki shartnomaga asosida jalb qilingan buxgalterning xizmatidan foydalaniладими?		
	-Buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi tanlanganmi?		
	-Xo'jalikda buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklining qaysi turi yuritiladi: a) buxgalteriya hisobining oddiy shakli; b) buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli.		
	-Xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar Rejasini tuzilganmi?		
	-Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnomasidan foydalaniладими?		

	-Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Kapital qo'yilmalarни hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Boquvdagi va o'stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladi?		
	-Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Omchor binolariga begona shaxslarning kirishi ta'qilanganmi? -yong'inga qarshi moslamalar bilan jihozlanganmi? -moddiy zaxiralarning kirimi va chiqimi nazorat qilinadimi?		
	-moddiy zaxiralalar inventarizatsiyasi o'tkaziladi? (rejali, tasodifiy).		
	-Inventarizatsiya natijalari hujjatlashtiriladimi?		
	-Inventarizatsiya natijasi bo'yicha moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobot tuziladimi?		
	-Doimiy faoliyat yurituvchi inventarizatsiya komissiyasi mavjudmi?		
	-O'g'irliliklar, talon-tarojlik sodir etgan shaxslar va moddiy javobgar shaxslar javobgarlikka tortiladimi?		
	-Omborda tovarlarning miqdori va navi bo'yicha analistik hisob yuriteladimi?		
	-Hujjatlar operatsiya sodir bo'lgan vaqtida tuziladimi?		
	-To'ldirilgan hujjatlar, moddiy javobgar shaxslar imzolarining namunalarini mavjudmi?		
	-Birlamchi hujjatlar numeratsiyasi amalga oshiriladimi?		
	-Registratsiya jurnallarida hujjatlar(schet-faktura, ishonchnoma) aks ettiriladimi?		
	-Kirim qilingan tovarlarning to'liqligi tekshiriladimi?		
	-Qaydnomalardagi, Jurnal-orderlardagi, Bosh-kitobdagi ma'ulmatlar doimiy taqqoslanadimi?		

Shuni ta'kidlash joizki, qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish yuzasidan javobgarlik fermer xo'jaligining boshlig'i zimmasida bo'lib bunda u quyidagi huquqlarga ega:

- a) bosh buxgalter rahbarligidagi buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalterning xizmatlaridan foydalanish;
- b) buxgalteriya hisobini yuritishni shartnoma asosida ixtisoslashgan buxgalterlik firmasiga yuklash;
- v) buxgalteriya hisobini mustaqil yuritish.

Auditorlik tekshiruvi davomida auditor o'z ishini shunday rejalashtirishi lozimki, moliyaviy hisobotlarni, moliya xo'jalik muomalalarining ishonchliligin va qonuniyligini, hamda ular buxgalteriya hisobi schetlarida aks ettirilishining to'g'riligini o'z vaqtida va sifatli auditorlik tekshiruvidan o'tkazishni ta'minlasin. Tekshiruvni rejalashtirish "Auditni rejalashtirish" nomli 3 sonli AMSga muvofiq amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy hisoboti fakt ko'rsatkichlarini u tomonidan belgilangan reja bilan solishtirishda auditorlik tashkiloti korxona tomonidan qo'llaniladigan rejalashtirish uslubiyatini baholashi va reja ko'rsatkichlariga binoan hisobot davri moliyaviy ko'rsatkichlari mijoz tomonidan o'zgartirilmaganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Moliyaviy hisobotning fakt ko'rsatkichlarini mustaqil belgilangan prognoz ko'rsatkichlar bilan solishtirishda auditorlik tashkiloti o'z taxminlarini shakllangan tamoyillar asosida belgilaydi. Hisobot va me'yoriy ko'rsatkichlar negizida har xil turdag'i koeffitsientlar va foizli nisbatlar hisob-kitobi samarali hisoblanadi. Koeffitsientlarni tanlash, ularning hisob-kitoblari usullarini va hisob-kitob vaqtli davrlarini tanlash me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Ehtimoliy tavakkalchiliklar sohalarini aniqlash usullari sifatida joriy davr nisbiy ko'rsatkichlarining tahlili, turli davrlarda xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun hisoblab qo'yilgan nisbiy ko'rsatkichlar o'zgarishining tahlili va nisbiy ko'rsatkichlar bir necha turining o'zgarishlarini solishtirish.

Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy hisoboti fakt ko'rsatkichlarini tarmoqning o'rtacha ko'rsatkichlari bilan solishtirganda, auditor shu korxona faoliyatini tahlil qiladi. Bunda auditor shularni hisobga olishi kerakki, tarmoq ko'rsatkichlari mazkur xo'jalik yurituvchi sub'ekt ko'rsatkichlari bilan mutanosib bo'lmasligi mumkin, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar turli hisob siyosatidan foydalanishi ham mumkin.

Dehqonchilikda mahsulotning daladan kelib tushishi va berilishini aks ettiradigan turli birlamchi hujjatlar mayjud. Hujjatlarning shakli mahsulotlar xarakterining va ish turiga daladan keltirilayotgan mahsulotning hujjati rasmiylashtirilishiga va uning kirim qilinishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, donni kombaynlarda xirmonga tashish, mahsulotni daladan olib chiqish yo'llanma bilan rasmiylashtiriladi. Oldindan nomerlangan yo'llanma kombayn haydovchilariga berib qo'yiladi. Bu yo'llanmani avval kombaynchi, so'ngra shofyor va xirmon mudiri imzolaydi.

Audit jarayonida yo'llannalar o'rniда daladan don va boshqa mahsulotlarni jo'natish reestrlaridan foydalanilganligiga ham e'tiborni qaratish lozim. Ular yo'llanmalar singari rasmiylashtiriladi, ammo kun davomida yig'ma hujjat sifatida yuritiladi. Bu dastlabki hujjatlar sonini qisqartirish imkonini beradi. Bundan tashqari, auditor don mahsuloti bevosita xirmonda "Don va boshqa mahsulotlarni qabul qilish" reestrlarida kirim qilinganligini tekshirishi lozim, bu hujjat ham ish kuni davomida yuritiladi. Xirmon mudiri ushbu kirim hamda chiqim hujjatlari asosida har kuni don va boshqa mahsulotlar harakati vedomostini tuzadi va uni dastlabki hujjatlar bilan birga buxgalteriyaga topshiradi.

Donni xirmonda tozalash, quritish va saralash dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilib, unda donning ishlov berishdan oldingi va keyingi og'irligi turlar bo'yicha chiqit miqdori ko'rsatiladi.

Paxtaning kelib tushishi paxtaning kundalik terilishi haqidagi ma'lumotlarni qamrab oluvchi hujjatlar, savzavot, kartoshka, poliz va bog'dorchilik mahsulotlari qishloq xo'jalik mahsulotining kelib tushish kundaliklari orqali rasmiylashtiriladi.

G'allani qabul qilish punktlariga jo'natilayotganda tovar transport nakladnoylari ilova qilinadi.

Chiqim hujjatlari omborchi yoki xirmon mudiri tomonidan mahsulotning chiqib ketishi haqidagi hujjatlar reestrida qayd etiladi. Ishlatilgan ozuqa yig'ma hujjat ozuqa sarfi vedomosti bilan rasmiylashtiriladi.

Chorvachilikda ham xilma-xil hujjatlardan foydalilanadi. Ularning shakli va mazmuni mahsulot xarakteri, chorva va ish turiga bog'liq bo'ladi. Auditor ushbu hujjatlarni turini va ish bajarish xarakterini bilishi zarur.

Dehqonchilik qishloq xo'jaligining asosiy sohalaridan biri. Bu sohada qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot shu jumladan chorva uchun ozuqa etishtiriladi. Bu tarmoqda dala ishlari, polizchilik, bog'dorchilik, em-xashak etishtirish va shu kabilar tarkib topadi.

Dehqonchilikdagi hisobga olish ob'ekti – ekinlarning alohida turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari va ayrim ishlardir. Masalan, kuzgi boshqoli ekinlar guruhi, bahorgi bug'doy va boshqa bahorgi ekinlar guruhi, tekin ekinlar, kartoshka, sabzavot, poliz, ozuqa ekinlarining bog'dorchilik va uzumchilik xarajatlari hisobga olishning mustaqil ob'ektlari hisoblanadi.

Kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlар hisoblash tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olishning alohida ob'ektiga ajratiladi. Bu xarajatlari alohida ekinlar bo'yicha bajariladigan ish turlari yuzasidan hisobga olinadi. Keyingi, boshlangan hisobot yilda aytib o'tilgan xarajatlari alohida ekin turlari tannarxiga taqsimlash yo'li bilan o'tkaziladi.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotning chiqishi bo'linma, brigada va shu kabilar bo'yicha hisobga olinishi kerak bundan tashqari auditor ekin turlari bo'yicha xarajatlari quyidagi kalkulyatsiya moddalari bo'yicha to'g'ri hisobga olinaganligini tekshiradi:

- Ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birgalikda mehnatga haq to'lash xarajatlari.
- Urug'lik va ekish materiallari.
- O'g'itlar.
- O'simliklarni himoya qilish vositalari.
- Ish xizmatlari.
- Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari
- Ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari.
- Sug'urta to'lovlari va boshqa xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga oid buxgalteriya yozuvi to'g'ri va tegishli tartibda rasmiylashtirilgan boshlang'ich hujjatlar-mixanizatsiyalashtirilgan, ot va qo'l mehnatlarini hisobga olish varaqalari, o'g'it sarfi aktlari, mahsulot jo'natilganligi haqidagi nakladnoylar registrlar, mahsulotni daladan olib chiqish yo'llanmalari, ozuqa qabul qilish dalolatnomalarini va shu kabilar asosida amalga oshiriladi. Brigada va bo'limlar bo'yicha guruuhlangan boshlang'ich hujjatlar ma'lumotlari asosida ish va xarajatlarni hisobga olish jurnali yuritiladi, so'ngra har oyda dehqonchilik bo'yicha ishlab chiqarish hisobotlari tuziladi. (18-shakl) Hisobot ikki bo'limdan iborat bo'ladi. Uning birinchi bo'limida xarajatlari moddalari, rejadagi ekin tur (guruhi) lari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari

bo'yicha xarajatlar, ikkinchisida dehqonchilik mahsulotining chiqishi aks ettiriladi. Ishlab chiqarish hisobotlari tugallangan oydag'i ma'lumotlarni ko'rsatib, yil boshidan o'suvchi yakunida yuritiladi. Hisobotlar asosida analistik hisob yuritiladigan mahsulotning chiqishi hisobi daftariга, qayd qilinadi. So'ngra 10 jurnal-orderga o'tkaziladi. Hisobga olishning mashinaga mo'ljallangan turlarida xarajatlar va mahsulotning chiqishini hisobga olishning vedomost-mashinagrammalari ishlab chiqiladi.

Auditorlik tekshiruvi mobaynida auditor, qishloq xo'jalik korxonalarida dehqonchilikdagi xarajatlar va mahsulotning chiqishini hisobga olishda 2010 - "Asosiy ishlab chiqarish" schyotidan foydalilanayotganligini ham aniqlab olishi kerak. U, ishlab chikarilayotgan mahsulot tannarxni hisoblashga ham mo'ljallangan. Schyotning debetida yil davomida bevosita, yil oxirida esa yukorida keltirilgan sarf moddalar bo'yicha bilvosita xarajatlar, kreditida esa yil dovomida mahsulotning chiqishi rejadagi tannarxda aks ettiriladi. Yil yakunida esa rejadagi tannarx aniqlangan xaqiqiy tannarxga etkazib to'g'rilanadi. Yil boshida ushbu schyotning debet saldosi o'tgan yil xarajatlari bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni, yil oxirida esa kelgusi yil hosili uchun harajatlar bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni anglatadi. 2010 - "Asosiy ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha analistik hisobi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish ob'ektlari bo'yicha ekin turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, ish turlari va xarajatlar moddasi bo'yicha yuritiladi.

Bundan tashqari auditor, xarajatlarni alohida moddalar bo'yicha hisobga olish tartibini ham bilishi shart. "Ijtimoiy sug'urta ajratmalari va mehnatiga haq to'lash xarajatlari" moddasida bevosita ekin o'stirish bilan band bo'lgan ishchilar mehnatiga haq to'lash, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillarga haq to'lash hamda bu summalarga nisbatdan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang'ich hujjatlar asosida bevosita tegishli ekinlar va ish turlariga o'tkaziladi. Qo'shimcha mehnat xaqi summalari to'g'ri ish xaqiga munosib taqsimlanadi. Bunda umumlashgan ma'lumotlar bo'yicha 2010 - "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining debetiga hamda 6710 - "Mehnatga xaq to'lash bo'yicha hisoblashishlar" va "Ijtimoiy sug'urta bo'yicha hisoblashishlar" schyotlarining kreditiga qayd qilinadi.

Tahliliy tadbirdarni qo'llash tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar o'tasidagi sabab-oqibat aloqasining mavjudligiga asoslanadi.

Tahliliy tadbirdarning maqsadlari xo'jalik faoliyatining ehtimolli tavakkalchiliklar sohasini belgilovchi g'ayriiddiy yoki noto'g'ri aks ettirilgan faktlari va natijalarining mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash, xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini o'rganish, moliyaviy hisobot buzilishi faktlarini aniqlash, mufassal auditorlik tadbirdari sonini qisqartirish, yuzaga kelgan savollarga javob olish maqsadida testdan o'tkazishni ta'minlashdan iboratdir.

Tahliliy tadbirdarni qo'llash auditorga auditni rejalashtirishda mijozni yaxshiroq tushunish va buxgalteriya balanslarini tekshirish orqali auditdagi tavakkalchilik darajasini belgilash imkoniyatini berish bilan birga, boshqa auditorlik tadbirdari soni va hajmini qisqartirishga imkon beradi. Tahliliy tadbirdar auditning butun jarayoni davomida bajariladi.

#### **4.Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar auditining xususiyatlari.**

Tovar-moddiy zaxiralar mehnat vositalari va ishchi kuchi bilan birgalikda qishloq xo'jalik korxonasing ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydi. Tovar-moddiy zaxiralar joriy aktivlarning tarkibida katta ulushni egallab, ularga ishlab chiqarish jarayonida foydalilanadigan xom ashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, tovarlar, o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari kiradi. So'ngi yillarda

mamlakatimiz qishloq xo'jalik korxonalarining aylanma aktivlari tarkibida tovar-moddiy zaxiralar ulushi kamayib, debitor qarzlar ulushi esa oshib borishi kuzatilmoqda (1, 2 - ilovalar).

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonini amalgga oshirish uchun korxona urug'lik, ozuqa, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar va boshqalarning zarur miqdordagi zaxiralariiga ega bo'lishi kerak. Ular ishlab chiqarishga sarflanganda xarajatlар o'sib boradi. Ishlab chiqarish jarayoni natijasidan esa tayyor mahsulotlar olinadi. Shu tarzda aylanma mablag'lar ishlab chiqarish xarajatlari shaklidan tayyor mahsulotlar shakliga o'tadi.

Shunday qilib, aylanuvda bo'lган mablag'lar doiraviy aylanishning ikki bosqichida material shaklini oлади: birinchi bosqichda (P-T), ya'ni ta'minot jarayonida ishlab chiqarish uchun zarur bo'lган mehnat predmetlari (xom-ashyo va materiallar, yoqilg'ilar, ehtiyyot qismlari va boshqalar) sotib olinadi; mehnat predmetlarining bir qismi bevosita avvalgi bosqichda yaratilgan o'z mahsuloti hisobiga to'ldiriladi (urug'lik, ozuqa va boshqalar); doiraviy aylanishning ikkinchi bosqichida ( $M \dots T'$ ) ishlab chiqarish jarayoni natijasida tayyor mahsulotlar yaratiladi.

Agar birinchi holatda aylanma mablag'lar mehnat predmetlari sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi holatda ular mehnat mahsuli hisoblanadi. Biroq, har ikkala holatda ham ularda aylanish tavsisi bir xildir: ular aylanma mablag'larning bir shaklidan boshqa shakliga o'tib, bir bosqich davomida to'la aylanishni amalgga oshiradilar.


Qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy aylanma mablag'lar ikki guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish zaxiralar (mehnat predmetlari) va tayyor qishloq xo'jalik mahsulotlari (mehnat mahsulotlari). Bu guruhlar o'rtasida keskin farq yo'q. Agar doiraviy aylanishning ikkinchi bosqichida ( $M \dots T'$ ) olingen barcha mahsulot mehnat mahsuli bo'lsa, doiraviy aylanishning navbatdagi bosqichi uchun uning anchagina qismi (urug'lik, ozuqaga ajratilgan qismi) mehnat mahsuli hisoblanadi va ishlab chiqarish zaxiralar guruhiiga o'tadi. Xuddi shu sababdan zaxiralarning bu ikki guruhi moddiy ishlab chiqarish zaxiralarining yagona guruhini tashkil etadi.

Tovar-moddiy zaxiralar iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy-uslubiy va me'yoriy manbalarda turlicha ta'riflangan. Jumladan, 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMSga muvofiq: «tovar-moddiy zaxiralar – keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lган, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalgga oshirish uchun foydalilaniladigan moddiy aktivlar»<sup>6</sup>.


Tovar-moddiy zaxiralarni turkumlashga Respublikamiz olimlari Sh.Xaydarov, X.Tuxsanovlar tomonidan quyidagicha yondashilgan:

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarning uch turi mavjud.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobining Milliy Standartlari O'zbAMA nashriyot-axborot Markazi, - Toshkent, 2007. -198 b.




Tovar-moddiy zaxiralar o'z maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi.




#### **Maqsadiga qarab tovar-moddiy zaxiralarining toifalari**

Tashkilotga egalik huquqi va boshqa shunga o'xshash huquq bo'yicha tegishli bo'limgan, biroq shartnoma shartlari bo'yicha uning ixtiyoridagi tovar-moddiy boyliklar kiritilib, ular alohida turlari bo'yicha balansdan tashqari schyotda hisobga olinadi.



**Egalik qilish xususiyati bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarni tasniflash**




#### **Tovar-moddiy zaxiralarni ishlatilish tartibiga qarab tasniflash**

Biz yuqorida keltirgan ta'rif va tavsiflarni o'rganish natijasida tovar-moddiy zaxiralarning qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatiga mos quyidagi ta'rifni taklif etamiz.

Tovar-moddiy zaxiralar – bu kapital doiraviy aylanishining birinchi bosqichidagi moddiy aktivlar, ya'ni hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o'zlarining natural-moddiy shaklini to'liq

saqlab turgan ishlab chiqarish zaxiralar; asosiy podaga o'tkazish yoki sotish maqsadida o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari; ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlar; sotish uchun mo'ljallangan tovarlar; tugallanganmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar hamda ishlab chiqarishdagi brakdan iborat.

Ushbu ta'rif asosida tovar-moddiy zaxiralarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra quyidagicha turkumlash maqsadga muvofiq.



### **Tovar-moddiy zaxiralarni turkumlanishi**

Bizning fikrimizcha, ushbu ta’rif va turkumlash qishloq xo’jalik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish, ularni baholash, joriy hisobni yuritish va hisobotda aks ettirish, ichki nazoratni va tahlil tizimini tashkil etish, umuman tovar-moddiy zaxiralarни boshqarish talablariga javob beradi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar hisobining asosiy tamoyillariga ham mos keladi.

Iqtisodchi – amaliyotchi mutaxassis I.A.Zavalishina yozishicha tovar-moddiy zaxiralar hisobining asosiy tamoyillari quyidagicha:

- moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini buxgalteriya hisobiga o’zining haqiqatdagi tannarxi bo'yicha qabul qilinadi;
- tovar-moddiy zaxiralarining tannarxi xarid qilish va tovar-moddiy zaxiralarini ularning saqlanadigan joyiga etkazib berish va tegishli holatga keltirish bilan bog’liq barcha xarajatlar va transport-tayyorlov xarajatlarini o’z ichiga oladi;
- qiymati xarid qilish chog’ida chet el valyutasida belgilangan tovar-moddiy zaxiralarini baholash zaxiralarini buxgalteriya hisobiga qabul qilish (bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish – import chog’ida) sanasiga bo’lgan O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankingin kursi bo'yicha so’mlarda amalga oshiriladi;
- tovar-moddiy qiymatliklarni ishlab chiqarishga berish chog’ida (tovarlarning realizatsiya qilinishi chog’ida) ularning baholanishi, zaxiralarini baholashning ikkita usulidan bittasi bo'yicha amalga oshiriladi:
  - o’rtacha tannarxi bo'yicha (AVECO);
  - xarid qilishlar vaqtি bo'yicha birinchi xaridlar tannarxida (FIFO).
  - hisobot davrining oxiriga borib tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya balansida foydalanilayotgan zaxiralarini baholash usullaridan kelib chiqqan holda belgilanadigan

qiymat bo'yicha aks ettiriladi. Ya'ni, balansdagi TMZlarning qiymati ularni baholashning korxona hisob siyosati tomonidan tanlangan usuliga bevosita bog'liq;

– tovar-moddiy qiymatliklar TMZlarni hisobga olish schyotlarida ikkita baholashdan eng pasti – haqiqatdagi tannarxi (xarid qilish bahosi yoki ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha yoki bozor bahosi sof sotish qiymati) bo'yicha hisobga olinadi;

– yil davomida narxi tushirilgan, ma'naviy eskirgan yoki o'zining boshlang'ich sifatini qisman yo'qtgan qiymatliklar buxgalteriya balansida hisobot yilining oxirida sotilishi mumkin bo'lgan baho bo'yicha, agar u tayyorlashning (xarid qilishning) boshlang'ich qiymatidan past bo'lса, narxlardagi farqni tashkilotning moliyaviy natijalariga kiritish bilan aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish zaxiralari – bu hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o'zlarining natural-moddiy shaklini to'la saqlab turgan mehnat predmetlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliya-xo'jalik faoliyatida foydalanish va sotish uchun mo'ljallangan materiallar, tayyor mahsulotlar hamda tovarlardir.

Moddiy aylanma ishlab chiqarish zaxiralari guruhi turli ko'rinishdagi tovar-moddiy qiymatliklarning anchagina katta miqdorini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jalik korxonalarida unga tayyor mahsulotlar va ishlab chiqarish zaxiralaring quyidagi turlari kiradi:

– o'simlikchilik, chovchilik, sanoat va yordamchi ishlab chiqarishning tayyor mahsulotlari;

– urug' va ko'chat, em-xashak va to'shamma; sanoat korxonalari uchun noqishloq xo'jalik xom-ashyosi;

– mineral o'g'itlar, qattiq yoqilg'i, biopreparatlar, dori-darmonlar va ximikatlar;

– idish va idishlik materiallar; boshqa materiallar; neft mahsulotlari; qurilish materiallari;

– inventar va jihozlar; ehtiyyot qismlari va h.k.

Tovar-moddiy zaxiralar xo'jalikka olinish manbalariga ko'ra xarid qilingan va o'zida ishlab chiqarilgan turlariga bo'linadi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– moddiy boyliklarning harakatini o'z vaqtida va to'g'ri hujjatlashtirish;

– moddiy boyliklar saqlanishini, ularning saqlanish joylari va moddiy javobgar shaxslar bo'yicha hisobga olishni mutazam nazorat qilish;

– mablag'lardan qat'iy maqsadga ko'ra va belgilangan me'yorlarga muvofiq foydalanishni doimiy nazorat qilish;

– tasdiqlangan normativlarga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarining mavjudligini nazorat qilish;

– tugallanmagan ishlab chiqarish, ish va xizmatlar uchun sarflarni joriy hisobda to'g'ri hisobga olishni hamda hisobot (balans)da holisona aks ettirishni ta'minlash;

– buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini va zaxiralarining saqlanish joylaridagi haqiqiy qoldiqlarini inventarizatsiya qilish orqali vaqt-vaqt bilan taqqoslab turish.

2-soni «Zaxiralar» nomli moliyaviy hisobot xalqaro standarti (2-IAS)ga muvofiq tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga ularning xarid qiymati, mahsulotlarni qayta ishslash bilan bog'liq xarajatlar, hamda tovar-moddiy zaxiralar tashib keltirish va tegishli holatga keltirish xarajatlari kiritilishi lozim. Shunday qilib, tannarx uchta elementdan tashkil topadi. Ularni bat afsil ko'rib chiqamiz.

**1.** Xarid qilish xarajatlariga: xarid bahosi, olib kirish uchun boj to'lovlar; soliqlar (soliq organlari tomonidan korxonaga qaytariladigan soliq summalaridan tashqari); tayyor mahsulotlar, materiallar va xizmatlarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq transport-

tayyorlov va boshqa xarajatlar (savdo chegirmalari, oshiqcha to'lovlarning qaytarilishi va boshqalar xarid xarajatlarini aniqlashda chegirib tashlanadi). Devalvatsiya kuchaygan sharoitida 21-sonli «Valyuta kurs farqlari o'zgarishining ta'siri» nomli MHXSga muvofiq xarid xarajatlariga chet el valyutasi bo'yicha kurs farqlari ham kiritilishi mumkin.

**2.** Qayta ishlash xarajatlariga: ishlab chiqarish birliklari bilan bevosita bog'liq xarajatlar; materiallarni tayyor mahsulotlarga qayta ishlash chog'ida qilimib, taqsimlangan doimiy va o'zgaruvchan bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari kiradi.

Bilvosita doimiy xarajatlarni taqsimlash ishlab chiqarish qurilishlarining normativ quvvatiga asosan amalga oshiriladi (qurilmalarning normativ quvvati deganda ishlab chiqarish darajasi tushuniladi. U normal sharoitda texnik ishlarda rejalashtirilgan yo'qotishlarni hisobga oлган holda o'rtacha bir necha davrlarda erishiladi).

Taqsimlangan bilvosita xarajatlar, ular qilingan davrdagi xarajatlar deb qaraladi, ya'ni bunday xarajatlar zaxiralar tannarxini ko'paytirmaydi. Boshqa tomonidan, ishlab chiqarish hajmlari oshirilganda doimiy xarajatlarning har bir ishlab chiqarish birligiga to'g'ri kelishi kamayadi va mos ravishda tovar-moddiy zaxiralarning baholanishi pasayadi.

Bilvosita o'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish asosida har bir ishlab chiqarish birligiga taqsimlanadi. Yondosh va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilganda asoslangan taqsimlash bazasiga muvofiq, masalan, har bir mahsulotning sotish bahosi, uning miqdoriga mutanosib taqsimlanadi. Qo'shimcha mahsulotlar sotish mumkin bo'lган bahoda baholanadi va ularning qiymati asosiy mahsulot tannarxidan chegirib tashlanadi.

2-sonli MHXSga muvofiq quyidagi xarajatlar tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga qo'shilmaydi:

- normativdan oshiqcha yo'qotishlar (materiallarning oshiqcha sarflanishi, rejalashtirilmagan ishlab chiqarish xarajatlari);
- saqlash xarajatlari, agar ular ishlab chiqarish jarayonida zarur hisoblansa;
- ma'muriy ustama xarajatlar;
- realizatsiya xarajatlari.

**3.** Boshqa xarajatlar: noishlab chiqarish yoki buyurtma bo'yicha tovarni qadoqlash xarajatlari kiritiladi.

Bunday qoidalar 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» BHMSda ham o'z aksini topgan.

Zaxiralarni baholash ularni joriy hisob va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. 2-sonli MHXSga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarni baholashning asosiy tamoyili ularni ikkita miqdor – tannarx va sof sotish qiymatidan pastroq baholash hisoblanadi. Ushbu tamoyil asosan ehtiyyotkorlik tamoyilidan kelib chiqadi va moliyaviy hisobotning asosiy vazifasi – korxonaning haqiqiy moliyaviy holati va uning kelgusidagi imkoniyatlarni aks ettirish kontseptsiyasidan kelib chiqadi. Moliyaviy axborotlardan foydalanuvchilarining har xil guruhlari, birinchi navbatda, investorlar va kreditorlar korxona aktivlarini baholash haqqoniy bo'lishi va eng muhimi oshirib ko'rsatilmasligidan manfaatdordirlar. Zaxiralarni baholashga qo'yiladigan ushbu talablar aktivlarni boshlang'ich (tarixiy) qiymati bo'yicha aks ettirish zarurati tamoyilidan ustunlik qiladi. Ishlab chiqarish va savdo tashkilotlari odatda normal faoliyat jarayonida katta miqdordagi zaxiralarga ega bo'lsa, zaxiralar aktivlarning eng katta ulushini tashkil etishi mumkin. Shu munosabat bilan tovar-moddiy zaxiralarni haqqoniy baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun korxonalar real bozor baholarini oshib ketishiga yo'l qo'ymaydigan baholash usullarini tanlash va qo'llash o'ta dolzarb hisoblanadi. Ushbu mezon zaxiralarni ishlab chiqarish va xarid qilish bo'yicha korxonaning o'z xarajatlarini pasaytirishga intilishga majbur qiladi. Ya'ni zaxiralarning haqiqiy tannarxi sof sotish

qiymatidan oshib ketmasligi lozim. Chunki baholashlar o'rtasidagi farqlar (haqiqiy tannarx sof sotish qiymatidan oshgan hollarda) zararga olib boriladi va mos ravishda foydani kamaytiradi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zaxiralar bilan bog'liq xarajatlarni nazorat qilishga katta e'tibor qaratishga majbur. Bu maqbul mol etkazib beruvchilarini izlash, ishlab chiqarishning tejamli va samarali usullarini qo'llash orqali erishiladi.

4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMSga zaxiralarni haqiqiy tannarxidan va sotish mumkin bo'lган bahodan kelib chiqqan holda eng past bahoda baholash tamoyili kiritilgan bo'lib, xalqaro standartlarga izchil o'tishni ta'minlamoqda. Lekin 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMSda sotish mumkin bo'lган baho tushunchasi aniq ta'riflanmagan. 2-sonli «Zaxiralar» nomli MHXSga muvofiq sof sotish qiymati deganda zaxiralarni sotishga tayyorlash va uni tashkil etish bilan bog'liq bo'lган, korxonaning asosiy faoliyatida taxmin qilingan xarajatlar summasiga kamaytirilgan qiymat tushuniladi. 4-sonli BHMSdan hamda 2-sonli MHXSdan kelib chiqib, zaxiralarini qayta baholash zaruratining quyidagi zarur hollarini alohida ko'rsatilgan:

Shuningdek, 2-sonli «Zaxiralar» nomli MHXSda agar sotishning o'zi bilan bog'liq taxmin qilinayotgan xarajatlar oshib borayotgan bo'lsa, zaxiralarini tannarx bo'yicha baholanmasligi ta'kidlangan.

2-sonli «Zaxiralar» nomli MHXS zaxiralarni hamma vaqt ham tannarxidan past qiymatda, xatto sotishning sof qiymati kichik miqdorda bo'lsa ham, hisobdan chiqarmaslikni belgilaydi. Bunday vaziyat, sof sotish bahosining materiallar tannarxiga nisbatan pasayishiga qaramasdan, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan materiallar tannarxidan yuqori bahoda sotiladi. Ushbu holat ham o'ta muhim va bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarga haqiqiy holatni baholash imkonini beradi. 2-sonli «Zaxiralar» nomli MHXS oldingi hisobot davrida qilingan zaxiralarning tannarxi va sof sotish qiymati o'rtasidagi farq keyingi hisobot davrida sof sotish qiymatining oshirilishi belgilangan. Bu vaqtida oldin hisobdan o'chirilgan summa qoplanishi lozim va zaxiralar balansda yana tannarx bo'yicha aks ettiriladi. Agar keyingi hisobot davrida qandaydir boshqa zaxiralarini hisobdan chiqarish talab qilinsa, qoplash summasi ushbu muomaladan ko'rilgan zararni tegishli miqdorda kamaytiradi.

Korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar doimo harakatda bo'lishi (oldin xarid qilinganlari sarflanishi, yangilari sotib olinishi, ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlar sotilishi va yangidan ishlab chiqarilganlari omborga kirim qilinishi) va shu bilan bir xildagi materiallar, tovarlar va hokazolarni haqiqiy tannarxi surunkali o'zgarib turadi. Bunda tovar-moddiy zaxiralar birligi tannarxini qanday baholash masalasi vujudga keladi. Vaqtinchalik davrlar davomida bir xildagi zaxiralar haqiqiy tannarxning o'zgarishi ular baholash usulini tanlash muammosini yanada kuchaytiradi. Baholash usulini tanlash korxona aktivlari miqdori va olingen foya (zarar) summasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

2-sonli MHXS donabay o'lchanadigan, bir-birining o'rnini bosmaydigan tovar-moddiy zaxiralar, hamda tovarlar va maxsus loyihibar bo'yicha bajarilgan xizmatlar uchun har bir konkret buyumning tannarxini alohida aniqlashni belgilaydi.

Boshqa tovar-moddiy zaxiralar uchun 2-sonli MHXS FIFO usuli va o'rtacha tannarx (AVEKO) bo'yicha baholash usullarini tavsija qiladi. Bunda o'rtacha tannarx usuli uchun davriy asosda ishlab chiqarilgani kabi, zaxiralarning keyingi partiyalari olinishi me'yori bo'yicha ham hisoblab chiqarilgan, o'rtacha o'lchanagan usul qo'llanilishi mumkin.

2-sonli MHXS faqat muqobil usul sifatida LIFO usulidan foydalanishga ruxsat beradi. Xalqaro amaliyotda bunday yondashuv, eng avvalo korxona aktivlarini haqiqiy baholash talablaridan kelib chiqadi. LIFO metodi qo'llanilganda korxonada qoladigan zaxiralar

moliyaviy hisobotda, qoidaga ko'ra, bozor baholaridan farq qiladigan bahoda aks ettirilib, sotilgan zaxiralar tannarxi oshadi, foyda esa mos ravishda 2-sonli MHXSdan farqli o'laroq, 4-sonli BHMSda LIFO usulini qo'llash tavsiya etilmagan. Rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida aynan LIFO usuli qulay ekanligini ta'kidlash mumkin. Chunki bu ehtiyyotkorlik tamoyilining hal qiluvchi ahamiyati bilan bog'liq. Daromadlar hisoblash tamoyiliga asosan aniqlangani bois, o'rtacha tannarx usuli yoki FIFO usulini qo'llash axborotdan foydalanuvchilarda tannarxni pasaytiruvchi, natijada foydani oshirib ko'rsatilgan tasavvurga olib kelishi mumkin. Bu hol haqiqiy foydalilikni chalkashtirib, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ma'lum xavf xatar vujudga keltiradi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida 2-sonli «Zaxiralar» MHXS va 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» BHMS asosiy qoidalarining qiyosiy tahlilini 1.1-jadvalda umumlashtiramiz.

Shunday qilib, tovar – moddiy zaxiralar iqtisodiy tushunchasining xalqaro standartlarda belgilangan asosiy qoidalarini, mazmunini, turkumlanishi va uslubiyatini hamda xorij tajribalarini o'rganish va mulohaza qilish tovar-moddiy zaxiralarini xalqaro standartlar qoidalaridan kelib chiqqan holda, ularni ta'minot, ishlab chiqarish va moliyaviy tsikliga muvofiq mustaqil iqtisodiy kategoriya deb hisoblash zarur.

Tovar-moddiy zaxiralarining roli mahsulotlar (xom-ashyo, materiallar) joriy mahsulotlar (tugallanmagan ishlab chiqarish), yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulot, turli xo'jalik jarayonlari: ta'minot, ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlari o'rtaсидаги uzilishlar bilan bog'liq.

**2-sonli MHXS «Zaxiralar» va 4-sonli BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar» asosiy qoidalarining qiyosiy tahlili**

<b>Asosiy qoidalari</b>	<b>2-SONLI MHXS “ZAXIRALAR”</b>	<b>4-SONLI BHMS “TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR”</b>
Zaxiralar tushunchasi	Zaxiralar mohiyatan ularni ishlatalishdan iqtisodiy naf kutiladigan aktivlar. Zaxiralar aktivlarning alohida toifasi hisoblanadi. Chunki ularga mehnat kreditlari yoki sotish uchun mo'ljallangan tovarlar kiradi. Ular qisqa muddatda foydalanilishi, natijada amartizatsiya hisoblanmasligi bilan boshqa aktivlardan farq qiladi.	Tovar-moddiy zaxiralar – keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalilanidigan moddiy aktivlar.
Hisobga olishning asosiy qoidalari	Zaxiralar dastlabki qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Zaxiralarni hisobga olishning asosiy masalasi aktiv sifatida tan olinadigan va kelgusi davrlarda mahsulotlarni sotishga va tegishli tushumni tan olishga taalluqli xarajatlarni miqdori	Tovar-moddiy zaxiralarini hisobga olishning asosiy qoidalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: tan olish paytini belgilash, tasniflash, balans, qiymatini baholash; tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, xarajatni, jumladan xarajat sifatida tovar-moddiy zaxiralar qiymatini keyinchalik tan olish; tovar-moddiy zaxiralar qiymatini sotish (baholash)ning sof qiymatiga qadar kamaytirish; ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni, shuningdek ular bo'yicha axborotni moliyaviy hisobotda yoritish tartibini aniqlash.
Tovar-moddiy zaxiralarini tan olish.	Sotish mumkin bo'lgan sof qiymat – bu normal sharoitda kutilayotgan sotish bahosi (sotiladigan holatga keltirish va sotish xarajatlari chegirib tashlangan holda).	Tovar-moddiy zaxiralar aktiv sifatida tan olinadi, agar: a) tashkilotga kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga ishonch bo'lsa; b) aktiv qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lsa; v) ularga bo'lgan mulk huquqi o'tsa.
Zaxiralar tannarxi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- sotib olish xarajatlari (devalvatsiya kuchli bo'lganda kurs tafovutlarini qo'shib, kredit uchun foizlarni qo'shmasdan);</li> <li>- qayta ishlash xarajatlari (tannarxga qo'shilmaydigan xarajatlar ko'rsatilgan holda);</li> <li>- boshqa xarajatlar.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tovar-moddiy zaxiralar tashkilotning buxgalteriya balansida tannarxi bo'yicha kritiladi, u xarid qiymati (etkazib beruvchiga to'lanadigan summalar) va ularni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi;</li> <li>- tovar-moddiy zaxiralarining ishlab chiqarish tannarxiga ularni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar;</li> <li>- tovar-moddiy zaxiralar (mahsulot(ishlar, xizmatlar)) tannarxini aniqlash usullari ularning turi, mahsulot ishlab chiqarish xili, uning murakkabligi,</li> </ul>

		tugallanmagan ishlab chiqarish mavjudligi, ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi, tovar-moddiy zaxiralalar nomenklaturasiga bog'liqdir. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashning asosiy usullari bo'lib: oddiy, me'yoriy, buyurtma, bosqichli usullari hisoblanadi, savdo tashkilotlarida esa xarajatlarni inventar baholash usuli ham qo'llaniladi.
--	--	--

1.1-jadvalning davomi

Balansda yil oxiriga zaxiralarni baholash	Baholash usullari: Individual xarajatlarni identifikatsiyalash, o'rtacha tannarx, FIFO, muqqobil usul - LIFO	
Axborotlarni ochib berish	Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun etarli darajada batafsil ochib beriladi.	Moliyaviy hisobotda quyidagilar ochib berilishi lozim: a) tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlanishi chog'ida qabul qilingan hisob siyosati, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini baholashning qo'llanadigan usullari; b) tovar-moddiy zaxiralarning yakuniy balans summasi va balans summasi tashkilotga muvofiq keladigan tasnifda; v) sabablarini bayon etgan holda, tovar-moddiy zaxiralarни sotishning sof qiymatiga qadar jiddiy hisobdan chiqarish; g) har qanday qisman hisobdan chiqarilgan summani oshirish summasi; d) xo'jalik faoliyatining hisobdan chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralarini tiklashga olib kelgan holatlari yoki voqealari; e) majburiyatlar uchun kafolat sifatida garovga qo'yigan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati; j) hisobot davrida chiqib ketadigan tovar-moddiy zaxiralar tannarxi.
Sotishning sof qiymati	Sotish mumkin bo'lgan sof qiymat – bu normal sharoitda kutilayotgan sotish bahosi (sotiladigan holatga keltirish va sotish xarajatlari chegirib tashlangan hloda).	Tovar-moddiy zaxiralar, agar sotishning sof qiymati ularning tannarxidan past bo'lsa, sotishning sof qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Sotishning sof qiymati tovar-moddiy zaxiralarning har bir birligi (turi) bo'yicha belgilanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar tashqi mol etkazib beruvchilar va ishlab chiqarish iste'molchilari o'rtasidagi bog'lovchi xalqa bo'lganligi sababli zaxira darajasi: ishlab chiqarishning tavsifi va hajmi, ishlab chiqariladigan mahsulot turlari (xususiyatlari), barqaror ta'minlash va kelgusidagi realizatsiya imkoniyatlari, sotib olish xarajatlari bilan belgilanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish hamda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (2-IAS) va №4-«Tovar-moddiy zaxiralar» nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti (№4- BHMS) tamoyillarini qiyosiy tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Xalqaro standartlarning asosiy qoidalari №4-«Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMSda o'z aksini topgan va tovar-moddiy qiymatliklar kirimi va chiqimi (ishlatishini)ni baholashda o'xshashligidan dalolat beradi. Bu esa hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiq tuzish uchun muhim ahamiyatga ega.

Lekin umumiy qoidalarni tamoyillarning o'xshashligi bilan bir qatorda ushbu hujjatlar mazmunida farqlar yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish qoidalari va amallarining konservativligi saqlanib qolmoqda.

Tovar-moddiy zaxiralar yangi qiymat yaratish jarayonida ishtirok etadigan mablag'lar doiraviy aylanishining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Shu munosabat bilan tovar-moddiy zaxiralarning barcha turlari, tugallanmagan ishlab chiqarishni qo'shgan holda, harakatlanishi, o'zgarishi va qoidalarini hisobga olgan holda sotish hajmi, sotilgan mahsulotlarning tannarxi va yalpi foyda bilan taqqoslanishi lozim.

Materiallar har qanday xo'jalik jarayonini amalga oshirishning sharti bo'lsa-da, ular hisobini tartibga soluvchi hujjatlarda, xususan №4-BXMSda materiallarga iqtisodiy kategoriya sifatida ta'rif berilmagan. Muammoni chuqur o'rganish asosida tovar-moddiy zaxiralarning mazkur tarkibiy qismini, uning iqtisodiy mohiyatini aks ettiradigan quyidagi ta'rifini taklif qilamiz.

Materiallar - tovar-moddiy zaxiralarining bir qismi bo'lib, quyidagilar uchun mo'ljallangan: keyinchalik sotilishi mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarish, tayyorlash uchun ishlash; sotish uchun mo'ljallangan ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish; boshqaruv ehtiyojlari uchun korxonaning ichida ishlatalishi; korxonaning oddiy tijorat faoliyatida sotish kabilari.

Shunday qilib, o'tkazilgan tahlil natijalari №4-«Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMSda aks ettirilgan, tovar-moddiy zaxiralar to'g'risidagi hisob axborotlarini shakllantirish uslubiyati bozor sharoitiga, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va jahon amaliyotiga ko'p jihatdan faqat shaklangina mos keladi deb ta'kidlashga to'liq asos beradi. Amaliyotda esa tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning tamoyillari, qoidalari va amallari avvalgidek qolmoqda, ya'ni davlat nazorat, xususan soliq organlarining talablarini qondirishga qaratilgan, qat'iy o'rnatilgan tartib saqlanib qolmoqda. Bu vaziyat esa qishloq xo'jalik korxonalarida investitsion muhit va butun agrar sektorda bozor infratuzilmalari elementlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

##### **5.Qishloq xo'jaligi korxonalarida majburiyatlar auditı.**

Auditni tayinlanishiga ko'ra turlari ichida majburiy to'lovlar auditı alohida ahamiyatga ega. Korhonalarda majburiy to'lovlar auditini o'tkazilishini byudjet bilan bo'ladiqan hisoblashishlarni qanchalik qonunchiligiga mos olib borilganligiga ob'ektiv baho berish bilan birga soliqlar hisobini to'g'ri va o'z vaqtida yuritilishi hamda to'lanishiga amaliy yordam berishdan iborat. Majburiy to'lovlar auditı asosida byudjetga to'lov to'lovchilar tomonidan

qasdan yashirmasdan o'z vaqtida to'lanishi bo'yicha auditorlik tekshiruvi o'tkaziladi. Majburiy to'lovlari auditini o'tkazishdan asosiy maqsad, byudjet bilan bo'ladiqan hisob ishlarini to'g'ri tashkil qilish, majburiy to'lovlarni byudjetga o'z vaqtida tushishini ta'minlashdan iborat.


Yuqoridagilaldan kelib chiqib majburiy to'lovlari auditining asosiy vazifalariga quydagilar kiradi:

- \* byudjetga to'lanadigan majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash;
- \* majburiy to'lovlari hisobini va hisobotlarini to'g'ri yuritish;
- \* majburiy to'lovlari hisobini qonuniy xujjalarga mos xolda yuritilganligini tekshirish va shu kabilar.

Majburiy to'lovlari auditni tekshiruvini o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyati milliy standart (AFMS) lari asosida olib boriladi.

*Majburiy to'lovlari auditini o'tkazish auditorlik rejalshtirishidan boshlanadi. Majburiy to'lovlari auditini rejalshtirish audit o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanib, audit o'tkazishning kutilayotgan hajmi, jadvallari va muddatlarini ko'rsatgan holda auditorlik tashkiloti tomonidan auditning umumiyo' rejasini ishlab chiqiladi.*

Fikrimizcha, majburiy to'lovlari auditini rejalshtirish auditni o'tkazishning quyidagi umumiyo' qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.




#### **Majburiy to'lovlari auditini rejalshtirish tamoyillari.**

Majburiy to'lovlari auditini rejalshtirishning kompleksliligi qoidasi birlamchi rejalshtirishdan boshlab auditning umumiyo' rejasini va dasturini tuzishga qadar rejalshtirishning barcha bosqichlarini o'zarbo'lgiligidan ta'milanishini taqozo etadi.

Majburiy to'lovlari auditni uzoq muddatga rejalshtirilganda ya'ni korxonaning auditorlik tekshiruvi bir yil davomida amalga oshirilsa, auditorlik tashkiloti korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarini va oraliq auditorlik tekshiruvlari natijalarini hisobga olgan holda auditni o'tkazish reja va dasturlariga o'z vaqtida tuzatishlar kiritishi kerak bo'ladi.

Majburiy to'lovlari auditini rejalshtirishning maqbulligi qoidasi shundan iboratki, rejalshtirish jarayonida auditorlik tashkiloti o'zi belgilagan mezonlar asosida audit umumiyo' rejasini va dasturining maqbul variantini tanlash imkoniyatini ta'minlashi kerak.



### **Majburiy to'lovlar auditini rejalashtirish bosqichlari.**

Majburiy to'lovlar auditini rejalashtirish paytida auditorlik tashkiloti quyidagi asosiy bosqichlarni ajratishi kerak (3-chizma).

Majburiy to'lovlar auditini samarali rejalashtirish uchun auditorlik tashkiloti korxona rahbariyati bilan auditni o'tkazishga oid asosiy tashkiliy masalalarни kelishib olishi kerak.

Dastlabki rejalashtirish bosqichida auditor korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati bilan tanishishi va quyidagilar to'g'risida axborotga ega bo'lishi shart:

- korxonaning xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy vaziyat va uning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan tashqi omillar;
- korxonaning xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan, uning alohida xususiyatlari bilan bog'liq ichki omillar.

Auditor quyidagilar bilan ham tanishishi kerak:

- a) korxonaning tashkiliy-boshqaruvi tuzilishi;
- v) kapital tarkibi va aktsiyalar kursi (korxona aktsiyalari kotirovkalanishi kerak bo'lgan holda);
- d) rentabellik darajasi;
- e) korxonaning asosiy xaridorlari va ta'minotchilari;
- j) korxona tasarrufida qoladigan foydani taqsimlash tartibi;
- z) sho''ba va tobe korxonalarning mavjudligi;
- i) korxona tomonidan tashkil etilgan ichki nazorat tizimi.

*Majburiy to'lovlar auditini dastlabki rejalashtirish bosqichida auditorlik tashkiloti auditni o'tkazish imkoniyatini baholaydi. Agar auditorlik tashkiloti auditni o'tkazishni mumkin deb hisoblasa, u auditorlik tekshiruvini olib borish uchun shtatni shakllantirishga o'tadi.*

Auditorlar guruhiga kiradigan mutaxassislar tarkibini rejalashtirish paytida auditorlik tashkiloti quyidagilarni hisobga olishi shart:

- auditning har bir bosqichi: tayyorlarlik, asosiy va yakunlash bosqichi, ish vaqt byudjeti;
- guruh ishining taxmin qilinayotgan muddatlari;
- guruhnинг miqdoriy tarkibi;
- guruh a'zolarining mansab darajasi;
- guruh xodimlarining vorisligi;
- guruh a'zolarining malaka darajasi.

Majburiy to'lovlar auditni rejasi va dasturini tayyorlash jarayonida auditorlik tashkiloti korxonada amal qilayotgan ichki nazorat tizimining samaradorligini baholaydi va ichki nazorat tizimi xatarini (nazorat xatarini) baholashni amalga oshiradi. Agar ichki nazorat

tizimi korxona rahbarini noto'g'ri axborotlar mavjudligi to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirsa, shuningdek, noto'g'ri axborotni aniqlasa, uni samarador deb hisoblash mumkin.

### **AUDIT DASTURI**

Tekshirilayotgan tashkilot Toshkentdonmahsulotlari  
 Auditni o'tkazish davri 15.03.17-20.03.17  
 Auditorlik guruhi rahbari Xakimov S.  
 Auditorlik guruhi tarkibi Xalilov T., Xakimov S.  
 Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari 6%  
 Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi 4%

	Audit bo'limlari bo'yicha auditorlik tadbirlari ro'yxati	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Auditorning ish xujjatlari	Izohlar
1.	Majburiy to'lovlarning dastlabki hisobini tekshirish	15.03.2017	Xakimov S.	8-jurnal-order, hisobvaraq-fakturalar	
2.	Majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishini tekshirish	15.03.2017	Xalilov T.	8-jurnal-order	
3.	Majburiy to'lovlarning bo'yicha imtiyozlarning to'g'ri qo'llanilishini tekshirish	16.03.2017	Xakimov S.	8-jurnal-order	
4.	Majburiy to'lovlarning o'z vaqtida byudjetga to'lanishini tekshirish	16.03.2017	Xalilov T.	8-jurnal-order, Byudjetga to'lovlar to'g'risida ma'lumotnoma	
5.	Majburiy to'lovlarning moliyaviy hisobot shakllarida to'g'ri aksettirilishini tekshirish	16.03.2017	Xakimov S.	8-jurnal-order, Bosh daftar, balans, Byudjetga to'lovlar to'g'risida ma'lumotnoma	

Uning nomidan auditorlik xulosalariga imzo chekish huquqiga ega bo'lgan auditorlik tashkiloti rahbari:  
 Komilov S.

*Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholarkan, auditorlik tashkiloti auditorlik isbot-dalillarini etarli miqdorini to'plashi shart. Agar auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotning ishonchligi to'g'risida etarli darajada ishonch hosil qilish uchun ichki nazorat tizimiga va buxgalteriya hisobi tizimiga asoslanishga qaror qilsa, u kelgusi audit hajmini tegishli tarzda tuzatishi kerak bo'ladi.*

Majburiy to'lovlar auditni rejasini va dasturini tayyorlash paytida auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotni ishonchli deb hisoblash imkonini beradigan jiddiylik va auditorlik xatarini maqbul darajasini belgilashi kerak.

Majburiy to'lovlar auditni xatarini rejalashtirishda auditorlik tashkiloti, korxona auditidan qat'i-nazar, bu hisobotga xos bo'lgan moliyaviy hisobotning ajralmas xatari va nazorat xatarini belgilaydi. Belgilangan xatarlar va jiddiylik darajasi yordamida auditorlik tashkiloti audit uchun ahamiyatli sohalarni aniqlaydi va zarur auditorlik rusum-qoidalarini rejalashtiradi.

Majburiy to'lovlar auditini rejalashtirish paytida belgilangan auditorlik xatari va jiddiylik darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Majburiy to'lovlar auditni rejasini va dasturini tuzishda auditorlik tashkiloti hisob axborotiga ishlov berish darajasini inobatga olishi kerak, bu ham auditorlik tashkilotiga auditorlik rusum-qoidalarining hajmi va tusini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Auditorlik tashkiloti bajarayotgan rusum-qoidalarning natijalarini audit umumiylar reja va dasturini tayyorlash paytida batafsil hujjatlashtirish kerak, chunki mazkur natijalar soliqlar auditini rejalashtirish uchun asos hisoblanadi va butun audit jarayoni davomida ishlatalishi mumkin.

Majburiy to'lovlar auditni jarayonida auditorlik tashkilotida umumiylar rejaning ayrim qoidalari qayta ko'rish uchun asoslar paydo bo'lishi mumkin. Rejaga kiritilayotgan o'zgartirishlarni, shuningdek, o'zgartirish sabablarini auditor batafsil hujjatlashtirishi lozim.

Majburiy to'lovlar auditni rejasida auditorlik tashkiloti auditni o'tkazish muddatlarini, auditorlik xulosasini tuzish tartibini nazarda tutishi shart. Fikrimizcha, vaqt sarfini rejalashtirish jarayonida auditor quyidagilarni hisobga olishi kerak:

1. Haqiqiy xarajatlar;
2. Bundan oldingi davrda (takroriy audit o'tkazilgan taqdirda) vaqt sarfi va uning joriy hisob-kitob bilan aloqasi;
3. Jiddiylik darajasi;
4. Auditorlik xatarlarining amalga oshirilgan baholari.

Umumiylar rejadagi auditorlik tashkiloti dastlabki tahlil natijalarini asosida majburiy to'lovlar auditini o'tkazish usulini belgilaydi, ichki nazorat tizimining ishonchliligini, audit xatarlarini baholaydi. Tanlab audit o'tkazishga qaror qilingan taqdirda auditor auditorlik tanlamasini "Auditorlik tanlash" audit standartiga muvofiq shakllantiradi.

Majburiy to'lovlar auditni sifatini nazorat qilishni rejalashtirishga doir qoidalari umumiylar rejaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Majburiy to'lovlar auditni rejasida quyidagilar nazarda utilishi tavsiya qilinadi:

1. Auditni o'tkazishga jalb etiladigan auditorlar soni va malakaviy darajasini belgilash;
2. Auditorlarni kasbiy xislatlari va mansab darajalariga muvofiq aniq audit ob'ektlari bo'yicha taqsimlash;
3. Tashkilotning barcha a'zolariga ularning vazifalari xususida yo'l-yo'riqlar berish, ularni korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati, shuningdek, soliqlar auditining umumiylar rejasini qoidalari bilan tanishtirish;
4. Rahbarning reja bajarilishi va auditor assistentlari ishining sifati, ular tomonidan ish hujjatlari yuritilishi va audit natijalarini tartib bo'yicha rasmiylashtirilishini nazorat qilishi;
5. Auditorlik guruhi rahbarining auditorlik rusum-qoidalarni amalga oshirish bilan bog'liq uslubiy masalalarini tushuntirishi;
6. Muayyan dalillarni baholashda auditorlik guruhi rahbari bilan uning a'zolari o'rtasida kamchiliklar paydo bo'lganda auditorlik guruhi a'zosini fikrini hujjatli rasmiylashtirish.

Audit dasturi majburiy to'lovlar auditining rejasini rivojlantirishga imkoniyat beradi va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalari mazmunining batafsil ro'yxatini o'z ichiga oladi. Dastur auditor assistentlari uchun muhim yo'rqnoma bo'lib xizmat qiladi va bir vaqtning o'zida auditorlik guruhining rahbari uchun ish sifatini nazorat qilish vositasi hisoblanadi.

Auditor majburiy to'lovlar auditni hujjatli rasmiylashtirishi, har bir bajariladigan auditorlik rusum-qoidasini raqam yoki kod bilan belgilashi lozim.

Auditorlik dasturini nazorat vositalari test ko'rinishida va mohiyatiga ko'ra auditorlik rusum-qoidalari dasturi ko'rinishida bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy sug'upta va ta'minot fondlariga to'lovlar hisoblanishi hamda to'lanishini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda quyidagilar bajariladi:

- har bir fond turi bo'yicha va cug'ypta turi bo'yicha to'lov (badal) hisoblash uchun qabul qilingan bazaning ishonchligini aniqlash;

- tegishli fondlar bo'yicha sug'urta badallari stavkalarini qo'llashning to'g'rilingini tekshirish;

- hisob-kitoblarni tekshirish;

- cug'upta badallarini hisoblash manbalarini tekshirish.

Moliyalashtirish manbaidan qat'iy nazar barcha asoslar bo'yicha xodimlar foydasiga hisoblangan, pul va (yoki) natura shakldagi to'lovlarning barcha turlari ushbu fondlarga sug'urta badallarini hisoblash uchun ob'ekt bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta badallarini hisoblash uchun qo'llaniladigan bazaning ishonchlilikini tekshirishda quyidagilarni bajarish zarur:

hisobot davrida hisoblangan va to'langan mehnat haqi hamda boshqa to'lovlar turlarini aniqlash;

haqiqatda cug'urta badallari hisoblangan to'lovlar turlarini, tegishli ijtimoiy cug'ypta fondiga sug'ypta badallari hisoblanmaydigan to'lovlar ro'yxatiga muvofiq ular hisoblanishi yoki hisoblanmasligi lozim bo'lgan to'lov turlari bilan taqqoslash;

tegishli fondlar bo'yicha sug'urta badallarining to'liq to'lanmagan (yoki oshiqcha to'langan) miqdorini aniqlash.

Oldin hisoblanmasdan, korxona kassasidan berilgan har xil to'lovlarni (moddiy yordam, mukofot) maxsus e'tibor bilan tekshirish kerak.

So'ngra hisoblangan va to'langan cug'ypta badallarining hisobda to'g'ri aks ettirilishini aniqlash zarur. Bunda xodimlarga to'langan to'lovlarning cug'ypta badallarini hisoblash moliyalashtirish manbasi hisobidan aks ettirilayotganligiga e'tibor qaratiladi. Tekshiruv natijalari ishchi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Tekshiruv yakunida auditor aniqlangan tafovutlarning hisobot ko'rsatkichlariga (tannarx va moliyaviy natijaga, ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzlar miqdoriga), jiddiylik darajasini hisobga olgan holda, qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi.

Auditor korxona mulki va xodimlarini sug'urta qilish, davlat ijtimoiy sug'urtasi, korxona xodimlarining nafaqa ta'minati va tibbiy sug'urtasi, maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar, shuningdek, uchinchi shaxslar mulkiy manfaatlariga keltirilgan zararlar uchun fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha qarzlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirishga mo'ljallangan quyidagi schyotlarni tekshirib chiqadi:

6510 "Sug'urta bo'yicha to'lovlar";

6520 "Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar".

6510 "Sug'urta bo'yicha to'lovlar" schyoti korxonaning mulki va xodimini sug'ortalash bo'yicha qarzları to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan.

6520 “Davlatning maqsadli jamg’armalariga to’lovlar” schyoti maqsadli davlat jamg’armalari oldidagi ajratmalar bo’yicha qarzlar to’g’risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun mo’ljallangan.

Sug’urta to’lovleri va davlatning maqsadli jamg’armalariga ajratmalar bo’yicha qarz summalarini sug’urta va davlatning maqsadli jamg’armalarini bo’yicha qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar (6500)ning kredit tomonida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog’langan holda aks ettiriladi. Sug’urta to’lovleri va davlatning maqsadli jamg’armalariga ajratmalar bo’yicha qarz summalarining to’lanishi sug’urta va davlatning maqsadli jamg’armalarini bo’yicha qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar (6500)ning debet tomonida pul mablag’larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog’langan holda aks ettiriladi.

Sug’urta va davlatning maqsadli jamg’armalarini bo’yicha qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar (6500) bo’yicha analitik hisob sug’urtachilar va alohida sug’urta shartnomalari, shuningdek korxona to’lovchi deb hisoblangan har bir davlatning maqsadli jamg’armalarini bo’yicha alohida yuritiladi.

Sug’urta va davlatning maqsadli jamg’armalarini bo’yicha qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog’liq xo’jalik muomalalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishiga doir schyotlar korrespondentsiyasi auditor tomonidan sinchiklab tekshirib chiqiladi:

#### **Majburiy to’lovlarni hisobga oluvchi schetlar korrespondentsiyalari**

T.r.	Xo’jalik muomalalarining mazmuni	Korrespondentsiyalanuvchi schyotlar	
		Debet	Kredit
1.	Korxona xodimi hisobidan davlatning maqsadli jamg’armalariga ajratmalar qilindi	6710	6520
2.	Korxona xodimi hisobidan davlatning maqsadli jamg’armalariga ajratmalar qilindi	Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar	6520
3.	Davlatning maqsadli jamg’armalariga ilgari hisoblangan summalar o’tkazib berildi	6520	5110-5530

Auditor davlatning maqsadli jamg’armalarini va sug’urta va ta’midotga doir hisob-kitoblarni tekshirish jarayonida me’yoriy huquqiy hujjatlar, ularga xo’jalik yurituvchi sub’ekt buxgalteriyasida qanday amal qilinayotganligini tekshirib chiqadi, xususan yagona ijtimoiy to’lovni hamda davlat ijtimoiy sug’urtasiga majburiy badallar va ajratmalarini hisoblash, to’lash va taqsimlash to’g’risida nizom bo’yicha hisob-kitoblar amalga oshirilayotganligiga alohida e’tibor beradi.

#### **6.Qishloq xo’jaligi korxonalarida kelgusi davr xarajatlari va to’lovleri rezervidan foydalanishni tekshirish.**

Kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlar hisoblash tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olishning alohida obektiga ajratiladi. Bu xarajatlar alohida ekinlar bo’yicha bajariladigan ish turlari yuzasidan hisobga olinadi. Keyingi, boshlangan hisobot yilda aytib o’tilgan xarajatlar alohida ekin turlari tannarxiga taqsimlash yo’li bilan o’tkaziladi.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotning chiqishi bo’linma, bиргада va shu kabilar bo’yicha hisobga olinishi kerak bundan tashqari auditor ekin turlari bo’yicha

xarajatlar quyidagi kalkulyatsiya moddalari bo'yicha to'g'ri hisobga olinaganligini tekshiradi:

1. Ijtimoiy sug'urta ajratmalar bilan birgalikda mehnatga xaq to'lash xarajatlari.
2. urug'lik va ekish materiallari.
3. o'g'itlar.
4. o'simliklarni himoya qilish vositalari.
5. ish xizmatlari.
6. asosiy vositalarni saqlash xarajatlari
7. ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari.
8. sug'urta to'lovlari.
9. Boshqa xarajatlar

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga oid buxgalteriya yozuvi to'g'ri va tegishli tartibda rasmiylashtirilgan boshlang'ich hujjatlar-mixanizatsiyalashtirilgan, ot va qul mehnatlarini hisobga olish varaqalari, o'g'it sarfi aklari, mahsulot jo'natilganligi haqidagi nakladnoylar registrlar,mahsulotni daladan olib chiqish yo'llanmalari, oziqa qabul qilish dalolatnomalari vash u kabilar asosida amalga oshiriladi. Brigada va bo'limlar bo'yicha guruxlangan boshlang'ich hujjatlar ma'lumotlari asosida ish va xarajatlarni hisobga olish jurnali yuritiladi, so'ngra har oyda dehqonchilik bo'yicha ishlab chiqarish hisobotlari tuziladi. (18-shakl) Hisobot ikki bo'limdan iborat bo'ladi. Uning bиринчи bo'limida xarajatlar moddalari, rejadagi ekin tur (guruhi) lari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari bo'yicha xarajatlar, ikkinchisida dehqonchilik mahsulotining chiqishi aks ettiriladi. Ishlab chiqarish hisobotlari tugallangan oydag'i ma'lumotlarni ko'rsatib, yil boshidan o'suvchi yakunida yuritiladi. Hisobotlar asosida analitik hisob yuritiladigan mahsulotning chiqishi hisobi daftariga,qayd qilinadi. Sungra 10 jurnal-orderga o'tkaziladi. Hisobga olishning mashinaga mo'ljallangan turlarida xarajatlar va maxsulotning chiqishini hisobga olishning vedomost- mashinagrammallari ishlab chiqiladi.

Auditorlik tekshiruvi mobaynida auditor, qishloq xo'jalik korxonalarida dehqonchilikdagi xarajatlar va mahsulotning chiqishini xisobga olishda "Asosiy ishlab chiqarish" schyotidan foydalanilayotganligini ham aniqlab olishi kerak. U, ishlab chikarilayotgan mahsulot tannarxini hisoblashga ham mo'ljallangan. Schyotning debitida yil davomida bevosita, yil oxirida esa yukorida keltirilgan sarf moddalari bo'yicha bilvosita xarajatlar, kriditda esa yil dovomida maxsulotning chiqishi rejadagi tannarxda aks etiriladi. Yil yakunida esa rejadagi tannarx aniqlangan xaqiqiy tannarxga etkazib to'g'rilanadi. Yil boshida Ushbu schyotning debet savdosi o'tgan yil xarajatlari bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni, yil oxirida esa kelgusi yil xosili uchun harajatlar bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni anglatadi. "Dehqonchilik" schyoti bo'yicha analitik hisobi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish ob'ektlari bo'yicha ekin turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, ish turlari va xarajatlar moddasi bo'yicha yuritiladi.

Bundan tashqari auditor, xarajatlarni alohida moddalar bo'yicha hisobga olish tartibini ham bilishi shart. "Ijtimoiy sug'urta ajratmalar va mehnatga haq to'lash xarajatlari" moddasida bevosita ekin o'stirish bilan band bo'lgan ishchilar mehnatiga haq to'lash, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillarga haq to'lash hamda bu summalariga nisbatdan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalar hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang'ich hujjatlar asosida bevosita tegishli ekinlar va ish turlariga o'tkaziladi. Qo'shimcha mehnat xaqi summalarini to'g'ri ish xaqiga munosib taqsimlanadi. Bunda umumlashgan ma'lumotlar bo'yicha "Dehqonchilik" schyotining debetiga hamda "Mehnatga xaq to'lash bo'yicha hisoblashishlar" va "Ijtimoiy sug'urta bo'yicha hisoblashishlar" schyotlarining kriditiga qayd qilinadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari materiallar, yoqilg'ilar va boshqa ishlab chiqarish zaxiralari bilan neft ta'minoti, agrokimyota'minot tashkilotlari va boshqa mol etkazib beruvchilar orqali ta'minlanadi.

Yuklarni olish va joylarga tashib keltirishni ekspeditor isbotlovchi kirim va chiqim hujjatlarini ilova qilib, hisobot bilan rasmiylashtiradi. Yukni mol etkazib beruvchining o'zi bevosita qishloq xo'jalik korxonasi omboriga etkazib bergenida ekspeditor funktsiyasini ombor mudiri bajaradi.

Moddiy boyliklar tegishli dastlabki o'lchov birliklarida (massasi, hajmi, schyoti va boshqalar bo'yicha) qabul qilinadi. Agar moddiy boyliklar bir o'lchov birligida (og'irlik bo'yicha) qabul qilinib, boshqasi bo'yicha (schyot, hajm bo'yicha) sarflansa, ularning kirimi, saqlanishi va sarflanishi dastlabki hujjatlar va analistik hisob registrlarida bir vaqtning o'zida ikki xil o'lchov birligida aks ettiriladi (agar shunga maxsus ko'rsatma bo'lmasa).

Mol etkazib beruvchilardan sotib olingan moddiy boyliklar, qoidaga ko'ra haqiqatda qabul qilingan miqdori bo'yicha yuk xatlar (ichki xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan) bilan rasmiylashtiriladi. Moddiy boyliklar avtotsportda tashib keltirilganida yuk jo'natuvchining tovar-transport yuk xatiga muvofiq qabul qilinadi.

Moddiy boyliklarning haqiqatda qabul qilingan miqdori bilan mol etkazib beruvchining hujjatida ko'rsatilgan miqdori o'rtasida tafovut bo'limganda, ombor mudiri ularni qabul qilish uchun rekvizitlari yuk xatidagi rekvizitlar bilan bir xil bo'lgan to'rtburchak muhr bosadi yoki imzosi bilan tasdiqlaydi.

Agar xo'jalikka olib kelgingan moddiy boyliklarni qabul qilishda, ularni xilma-xilligi, sifati va miqdori mol etkazib beruvchi hujjatiga to'g'ri kelmasa yoki hujjatsiz olingan bo'lса, materiallarni qabul qilish dalolatnomasi (7-M namunaviy idoralararo shakl) tuziladi<sup>7</sup>.

Mineral o'g'itlar «O'zqishloqxo'jalikkimyo» korxonasi bilan buyurtma shartnomasi tuzilgandan so'ng, tasdiqlangan grafik bo'yicha xo'jalikning markaziy omboriga yoki oila pudratlarga etkazib beriladi. Olib kelgingan mineral o'g'itlarni qabul qilishda, markaziy ombor mudiri yoki omborchini har bir mashinani o'lchaydi va tovar-transport yuk xatlariga maxsus to'rtburchak muhr bosib, mineral o'g'itlarni olganligi to'g'risida imzo qo'yadi. Agar o'g'itlarni o'lchash imkonli bo'lmasa, ularning og'irligi qoplar soni bo'yicha tekshiriladi. Idishsiz o'g'itlar olinganda ularning og'irligini tekshirish uchun tegishli bildirish xati olingandan so'ng xo'jalik o'z vakilini tuman «O'zqishloqxo'jalikkimyo» korxonasi bazasiga jo'natadi.

«O'z neftmahsulot» kompaniyasi korxonalaridan xo'jalikning neft omborlariga avtotsisternalarda va bochkalarda olingan neft mahsulotlari neft ombori mudiri tomonidan tovar-transport yuk xati va neft mahsulotlariga mos keladigan, ularning sifati, zichligi, markasi va Davlat standarti (GOST) ko'rsatilgan neft mahsulotlarining sifat pasporti asosida qabul qilinadi. Temir yo'l tsisternalarida olib kelinadigan neft mahsulotlarini komissiya ilova tovar-transport hujjatlari (yuk xatlar, pasportlar) asosida qabul qiladi.

#### **Mavzu bo'yica nazorat uchun savollar**

1. Qishloq xo'jaligida audit manbayi sifatida qanday xujjatlardan foydalanish mumkin?
2. Qishloq xo'jaligida audit xususiyatlarini aytib bering?
3. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish xarajatlari auditini qanday tashkil qilish mumkin?
4. Dexqonchilikda xarajatlarni qanday guruxlanadi?

<sup>7</sup> Rizaqulov A. Narziev A. Audit. -T.: «Qatortol-kamolot», 1999. -142 b.

## **5-MAVZU: “QISHLOQ XO’JALIK KORXONALARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **REJA:**

- 1.Ishlab chiqarish xarajatlari auditining vazifalari.**
- 2.O’simlikchilik ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblashning auditni.**
- 3.Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblash auditini o’tkazish tartibi.**
- 4.Qishloq xo’jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qabul qilish, saralash, sotishga tayyorlash va sotish jarayonlari auditining xususiyatlari.**
- 5.Qishloq xo’jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar hisobining auditni.**

**Mavzu bo’yich tayanch-so’z va iboralar:** Qishloq xo’jaligida ishlab chiqarish xarajatlari, bog’dorchilik, dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, ipakchilik, poliz ekinlari, sabzovot ekinlari, tayyorlov tashkilotlari, mashina-traktor parki, jamoa xo’jaligi, fermer xo’jaligi, urug’, ozuqa, o’g’it, ishchi xayvonlar, maxsuldar xayvonlar, boquvdagi xayvonlar, asosiy podani tashkil qilish.

### **1.Ishlab chiqarish xarajatlari auditining vazifalari.**

Dehqonchilikda mahsulotining daladan kelib tushishi va berilishini aks ettiradigan turli birlamchi xujjatlar mavjud. Xujjatlarning shakli maxsulotlar xarakterining va ish turiga daladan keltirilayotgan maxsulotning xujjati rasmiylashtirilishiga va uning kirim qilinishiga bog’liq bo’ladi. Masalan, donni kombaynlarda xirmonga tashish, maxsulotni daladan olib chiqish yo’llanma bilan rasmiylashtiriladi. Oldindan nomerlangan yo’llanma kombayn haydovchilariga berib qo’yiladi. Bu yo’llanmani avval kombaynchi, so’ngra shofyor va xirmon mudiri imzolaydi.

Audit jarayonida yo’llanmalar o’rnida daladan don va boshqa maxsulotlarni jo’natish reestirlaridan foydalilanligiga ham e’tiborni qaratish lozim. Ular yo’llanmalar singari rasmiylashtiriladi, ammo kun davomida yig’ma xujjat sifatida yuritiladi. Bu dastlabki xujjatlar sonini qisqartirish imkonini beradi. Bundan tashqari, auditor don maxsuloti bevosita xirmonda “Don va boshqa maxsulotlarni qabul qilish” reestrlarida kirim qilinganligini tekshirishlozim, bu xujjat ham ish kuni davomida yuritiladi. Xirmon mudiri ushbu kirim hamda chiqim xujjatlari asosida har kuni don va boshqa maxsulotlar harakati vedomostini tuzadi va uni dastlabki xujjatlar bilan birga buxgalteriyaga topshiradi.

Donni xirmonda tozalash, quritish va saralash dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilib, unda donning ishlov berishdan oldingi va keyingi og’irligi turlar bo’yicha chiqit miqdori ko’rsatiladi.

Paxtaning kelib tushishi paxtaning kundalik terilishi haqidagi ma’lumotlarni qamrab oluvchi xujjatlar, savzavot, kartoshka, poliz va bog’dorchilik maxsulotlari qishloq xo’jalik maxsulotining kelib tushish kundaliklari orqali rasmiylashtiriladi.

G’allani qabul qilish punktlariga jo’natilayotganda tovar transport nakladnoylari ilova qilinadi.

Chiqim xujjatlari omborchi yoki xirmon mudiri tomonidan maxsulotning chiqib ketishi haqidagi xujjatlar reestrida qayd etiladi. Ishlatilgan ozuqa yig’ma xujjat ozuqa sarfi vedomosti bilan rasmiylashtiriladi.

Chorvachilikda ham xilma-xil xujjatlardan foydalaniadi. Ularning shakli va mazmuni maxsulot xarakteri, chorva va ish turiga bog'liq bo'ladi. Auditor ushbu xujjatlarni turini va ish bajarish xarakterini bilishi zarur.

Dehqonchilik qishloq xo'jaligining asosiy sohalaridan biri. Bu sohada qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti shu jumladan chorva uchun oziqa etishtiriladi. Bu tarmoqda dala ishlari, polizchilik, bog'dorchilik, em-xashak etishtirish va shu kabilar tarkib topadi.

Dehqonchilikdagi hisobga olish ob'ekti – ekinlarning alohida turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari va ayrim ishlardir. Masalan, kuzgi boshqoli ekinlar guruhi, bahorgi bug'doy va boshqa bahorgi ekinlar guruhi, tekin ekinlar, kartoshka, sabzavot, poliz, oziqa ekinlarining bog'dorchilik va uzumchilik xarajatlari hisobga olishning mustaqil ob'ektlari hisoblanadi.

## **2.O'simlikchilik ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblashning auditni.**

Dehqon xo'jaligini xarakterlaydigan asosiy kursatkichlar sistemasida uning faoliyati natijalarini kursatkichlariga aloxida urin ajaratiladi. Bunday kursatkichlarga kishlok xujaligi ishlab chikarishi uchun xarajatlar, yalpi ishlab chikarilgan maxsulot, foya, shaxsiy iste'mol uchun xarajatlar kiradi. Bu kursatkichlar buxgalteriya xisobini yuritish sistemasida shakllanadi. Dexkon xujaligi faoliyatini natijalarini anik va tugri aks ettirish uchun xarajatlarni shakllanishi, ishlab chikarish natijalari va uni taksimlash uslubini ishlab chikish lozim. Bunday kishlok xujaligi ishlab chikarishi bilan boglik uslubini ishlab chikish xarajatlar tarkibi, ishlab chikarishga kilingan xarajatlarni aniklash shaxsiy iste'mol uchun xarajatlar va ularni koplash manbalari, dexkon xujaligi faoliyati natijalarini shakllantirish imkonini beradi.

Dexkon xujaligidagi xarajat va foydani taksimlanishini shakllantirish bilan boglik ma'lumotlar auditorlik nazoratidan utkazilganda, asosiy e'tiborni xakikiy xisob ma'lumotlariga karatish lozim.

Ushbu uslubni ishlab chikishda auditor dexkon xujaligi fakat kishlok xujalik faoliyatini yuritadi deb xisoblab va uning kishlok xujaligi faoliyatiga tugri boglik bulmagan xolda olgan boshka daromadlari va xarajatlari borligini xam xisobga olishi kerak. Kishlok xujaligi faoliyatini asosiy kismi bulib azaldan dexkonchilik va chorvachilikda etishtirilgan maxsulotni birlamchi kayta ishslash kuriladi. Oilaviy dexkon fermer xujaligi uziga xos bulgan korxonadir. Bu uziga xoslik xujalik faoliyati davomida ishlab chikarishda vositalarni aylanishi, kayta ishslash, saklash, tashish, xamda iste'mol kilishda kurinadi. Ba'zi bir xujaliklarda uzlari olgan kimmattliklar shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi, ba'zi xujaliklarda esa bu kimmattliklar xosilni yigish kurinishida bulib fakat shaxsiy ie'solni kondirish uchun emas, balki sotish uchun xam etishtiriladi. Lekin bu xujalikni va undagi kimmattliklarni aylanishi xarakteri mazmunini xech kanday uzgartirmaydi. Maxsulotni sotish xam asosan iest'mol maksadida amalga oshirilib ishlab chikarilgan maxsulotni ortigini uz xujaligi uchun zarur bulgan boshka kimmattliklarga almashtirish uchun amalga oshiriladi. Ushbuni xisobga olib biz dexkon faoliyatini yakuniy natijasi sof foya (Sf) deb xisoblaymiz va u dexkon daromali (D) va xarajati (X) aymosi sifatida aniklanadi:  $Sf=D-X$ . Sof foya oxir okibatda dexkonning faoliyat protsessi davomida tuplangan xujalik jamgarmasi eki kapital sifatida maydonga chikadi. Bu foydaning pul vositalari fermer faoliyatini turli yunalishlarni moliyalashtirish manbayi buladi. Xujalik daromadi kishlok xujaligi maxsulotini reslizatsiya kilishdan olingan tushum xisobiga shakllanadi. Xarajatlar esa shaxsiy iste'molga kilingan xarajatlar, ya'ni uy xujaligi yuritish uchun kishlok xujaligi xarajatlaridagi sarflardan iborat buladi. Dexkon va uning oilasini extiejini kondirish pul daromadi va dexkon xujaligi

zaxiralari xisobiga buladi va ular kishlok xujaligi faoliyatidan olinadi. Shundan kelib chikib, sof foyda summasi va uy xujaligi uchun kilingan sarflar kushilgan xolda kishlok xujaligi faoliyatidan olingen foydani ktrsatadi. Kishlok xujaligi faoliyati kursatish davomida fermer zarar kurishi xam mumukin, bunda kurilgan zararlar summasi uy xujaligi uchun kilingan sarflar xisobiga ortadi. Fermer uz faoliyatini amalga oshirar ekan, uz ishidagi manfiy natijalar bulishidan manfaatdor bulmaydilar. Oxir okibat bunday axvol bankrotlikka olib boradi. Shuning uchun biz xujalikni zarar keltirib ishlish xolatini xisobdan chikarmagan xolda asosiy dikkatni foyda kursatkichlarini tekshirishga karatish kerak.

Yaqin yillar ichida davlat va jamoa xujaliklarining barcha ishlab chiqarish bo'linmalarini mexnatini tashkil etishning pudrat usuliga, shu jumladan oila va yakka tartibdag'i pudrat usuliga o'tkazilganligini unutmaslik kerak bu usulda ishlab chiqarishda qatnashuvchilarining barchasi, shu jumladan raxbarlar va mutaxasislarning ham mexnatiga haq to'lash yalpi daromadga bevosita bog'liq qilib qo'yildi, qishloq xo'jalik xodimlari mehnatiga natural xaq to'lashning salmog'i ortadi, uni to'lash hajmi pirovard natijalarga qatiyi bog'liq qilib qo'yildi. Bunda xo'jalik ichidagi o'rtasida o'zaro hisoblashishning chek shakli joriy etilib, bo'linmalar rahbarlar mahsulot uchun ham, xizmatlar uchun ham chek Bilan hisoblashishni amalga oshiradilar.

Auditorlik tekshiruvida auditor quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim: jamoa xo'jaligi mehnatkashlari ijtimoiy ta'minot markaziy fondiga ajratmalar ijtimoiy sug'urta ajratmalar singari aks ettiriladi, ammo yozuvlar chorakda bir marta «Dehqonchilik» schyotining debeti va "Sug'urta bo'yicha hisoblashish" schyotining kreditida aks ettiriladi. Qishloq xo'jalik tarmoqlarida moddiy resurslarni hisobga olish singari tashkil etiladi.

Urug' va ekin materiallari bevosita belgisiga ko'ra "Dehqonchilik" schyotiga haqiqiy tannarxda "Urug'lar va oziqa" schyotining kreditidan o'tkaziladi. Urug'larni ekishga tayyorlash, ularni ekish joyiga tashib keltirish xarajatlari urug'lar qiyatiga kiritilmaydi, balki ekinlarga tegishli xarajatlardan moddalari bo'yicha o'tkaziladi.

"O'g'it" moddasasi qishloq xo'jalik ekinlari uchun tuproqqa solinadigan o'g'itlar, shu jumladan sanoatda ishlab chiqiladigan mineral, bakterial va boshqa o'g'itlar hamda organik o'g'itlar xarajatlari hisobga olinadi. Xarajatlardan analistik hisobga olishda mineral va organik o'g'itlar bo'yicha alohida aks ettiriladi. O'g'itlarni tayyorlash va erga solish xarajatlardan bevosita muayyan qishloq xo'jalik ekiniga tegishli xarajatlardan moddalari bo'yicha o'tkazilib, bu moddaga kiritilmaydi. O'g'itlar xarajatlari "Materiallar" schyoti yoki "Chorvachilik" schyotining kreditidan o'tkaziladi.

"O'simliklarni himoya qilish vositalari" moddasida begona o'tlar, qishloq xo'jalik ekinlari zararkunda va kasalliklarga qarshi kurashda ishlataladigan pestitsid, kimyoviy dorilar, gerbitsid va boshqa kimyoviy, shuningdek biologik vositalarni xarid qilish va saqlash xarajatlari kiritiladi. Xo'jalikning o'zi bu vositalar Bilan ko'chatlar, ekinlarga ishlov bergandagi xarajatlardan moddalari bo'yicha ekinning tannarxiga o'tkaziladi.

"Ish va xizmatlar" moddasi o'z korxonasining ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiruvchi yordamchi ishlab chiqarishlarning xizmatlari hamda shu korxonaga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xarakteridagi xizmatlarga xaq to'lash xarajatlari aks ettiriladi. Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga olish va ularni xarajatlarni mahsulot tannarxiga qo'shish tartibi mazkur bobning alohida moddasida yoritilgan.

"Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari" moddasida bevosita ishlab chiqarishda foydalilanadigan asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalananish Bilan bog'liq xarajatlardan kiritiladi. Ularga bu asosiy vositalarga xizmat ko'rsatish va ulardan foydalananish xarajatlari, amortizatsiyasi ajratmalarini va tuzatish xarajatlari kiritiladi.

Dehqonchilikda aytib o'tilgan asosiy vositalarga shu tarmoqda bevosita mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan traktorlar, qishloq xo'jalik mashina va uskunalari, issiqlik, turli omborlar va ishlab chiqarish binolari, asosiy melioratsiya vositalari, ko'p yillik ekinlar, ishlab chiqarish inventari va boshqalar kiritiladi.

Asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlariga asosiy vositalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat haqlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari Bilan, yonilg'i va moylash materiallari, yordamchi ishlab chiqarish, shuningdek chet tashkilotlar xizmatlari va boshqa xarajatlari kiritiladi. Tuzatish xarajatlariga eng avvalo o'zining ta'mirlash ustaxonalarining xarajatlari kiritiladi.

Auditor amortizatsiya xarajatlarini yuqorida aytib o'tilgan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari tashkil qilaishini xam bilishi kerak. Amortizatsiya xarajatlari har oyda alohida "Dehqonchilikda ishlatiladigan asosiy vositalar bo'yicha taqsimlangan amortizatsiya" analitik schyotida qayd etib boriladi. Bunda "Dehqonchilik" schyoti debet va "Asosiy vositalarning eskirishi" schyoti kiritiladi. Yil oxirida asosiy vositalarning eskirish summasi ekin va ish turlari bo'yicha taqsimlanadi va bu maxsus vedomost orqali rasmiylashtiriladi. Oldin "Yordamchi ishlab chiqarishlar" schyotida hisobga olingan joriy tuzatish xarajatlari amortizatsiya summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

"Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari" moddasida umumishlab chiqarish xarajatlari aks ettiriladi.

"Sug'urta to'lovlari" moddasida qishloq xo'jalik ekinlarining hosili va ko'p yillik ekinlar, qishloq xo'jalik hayvonlari, quyon, asalari oilalari vash u kabilar bo'yicha davlat majburiy suhurta to'lovlariiga oid xarajatlar hisobga olinadi. Bu to'lovlari tegishli ekinlarning tannarxiga bevosita olib boriladi.

Bu moddada mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita foydalaniladigan bino, inshooat, mashina, uskuna, inventar va boshqa asosiy vositalarning sug'urta to'lovlari ham hisobga olib boriladi. Sug'urta to'lovlari maxsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarga mutanosib ravishda ekin va maxsulot turlari bo'yicha taqsimlanadi.

Sug'urta to'lovlari buxgalteriyada "Dexqonchilik" schyotining debetida, "Sug'urta bo'yicha hisoblashishlar" schyotining kreditida aks etiriladi. "Boshqa xarajatlar" moddasida maxsulotni ishlab chiqarishga bevosita daxldor, ammo yuqorida ko'rib chiqilgan moddalardan birortasi ham

kiritilmaydigan xarajatlar aks etiriladi.

O'tgan yilning kuzida qilingan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobot yili xarajatlariga qo'shiladi. Ular ekin turlari bo'yicha ekin maydoniga mutanosib taqsimlanadi. Aniqlangan summaga analitik schyotlar bo'yicha « Dexqonchilik » schyotining debet va kreditida yozuvlar qilinadi.

"Dexqonchilik" schyotining debetida aytib o'tilgan yozuvlar qilingach, analitik schyotlar bo'yicha alohida ekin turlariga yil davomida sarflangan barcha ishlab chiqarish xarajatlari aniqlanadi. Bu schyotning kreditida yil davomida sarflangan barcha ishlab chiqarish xarajatlari aniqlanadi. Bu schyotning kreditida yil dovomida mahsulotning chiqarilishi rejali tannarxda aks etiriladi va quyidagi yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi:

Debet: 2800-«Tayyor mahsulot» schyoti.

Kredit: 2000-«Asosiy ishlab chiqarish "schyoti

Yil oxirida haqiqiy tannarx aniqlangandan so'ng yozuv haqiqiy va rejadagi tannarx o'rtaida farqqa to'g'irlanadi (korrektirovka qilinadi).

Auditor dehqonchilik mahsuloti birligining tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibini ham bilishi shart. "Dehqonchilik" schyotining analitik schyotlari ekin turlari bo'yicha aks etirilgan xarajat ma'lumotlariga asoslanuvchi haqiqiy tannarxning hisobot kalkulatsiyalari

yil oxirida asosiy qishloq xo'jalik ishlarining doirasi tugab , joriy yil hosili yig'ib olingandan keyin tuziladi.

Bunda asosiy, yondosh va yordamchi maxsulot tushunchalari farqlanadi, ya'ni asosiy mahsulot mazkur ishlab chiqarish shu mahsulotni olish maqsadlarida tashkil etilgan. Yondosh mahsulot-asosiy ekinlardan maxsulotlar bilan bir vaqtida olinadi va istimol xususiyatlariga ko'ra asosiy maxsulotga o'xshash. Yordamchi maxsulot- bu ham asosiy mahsulot bilan bir vaqtida olinadi, ammo xususiyatiga ko'ra ikkinchi darajali maxsulot xisoblanadi.

Dexqonchilikda har bir aloxida qishloq xo'jalik ekinidan olinadigan maxsulot turi kalkulatsiya ob'ekti hisoblanadi.Bir ekindan Ayni bir vaqtida har xil xususiyatdagi mahsulot olish tufayli dexqonchilik mahsuloti tannarxini kalkulatsiya qilishda turli usuldan foydalilaniladi. Masalan, xarajatlarni bevosita o'tkazish metodidan bir ekindan faqat bitta maxsulot turi olinadigan xollarda foydalilanadi. Bu eng oddisi: mazkur ekinga sarflangan xarajatlar summasiga olingen maxsulot miqdori bo'lindi. Ayrim qishloq ekinlari o'rtasida olinayotgan mahsulot turlari uchun umumiy bo'lgan belgilardan birining miqdoriy qiymatiga mutanosib taqsimlash metodi ham qo'llaniladi.

Auditorlik teshiruvi mobaynida auditor, dexqonchilik mahsulotining tannarxini xisoblashda qishloq xujalik ekiniga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlaridan noqulay ob - havo sharoitlari tufayli olingen mahsulotga taalluqli bo'lgan va belgilangan tartibda zararga o'tkaziladigan sug'urta tovonlari summasi istisno (faqat hisobga olishda ) qilinganmi, yo'qmi shuni ham tekshirishi lozim.

Qishloq xo'jalik ekinlari( ekin turlari) bo'yicha dehqonchilik mahsulotining tannarxi:

- A) don, paxta, kungaboqar urug'i-franko-dala (xirmon yoki dastlabki ishlov biriladigan joy),
- B) somon, xashak-franko-saqlash joyi,
- V) qand lavlagi, kartoshka, poliz ekinlari, sabzavot, qand lavlagi tugunchalari, ildizmevalar- franko – dala(saqlash joyi)

G) mevalar, rezavor, uzum, tamaki, maxorka va choy bargi dorivor efirmoy ekinlari va gulchilik mahsulotlari, himoya qilingan er sabzavotlari-franko-qabul (saqlash) joylari.

D) zig'ir-poxol, ivitilgan zig'ir poya-franko-saqlash qayta ishslash (xo'jalikda) joyi.

E) o't, zig'ir, sabzavot va boshqa ekin urug'lari-franko-saqlash joyi.

J) ozuqa uchun ko'k massa – franko-iste'mol joyi.

Z) silos, o't uni senach, granula uchun ko'k massa, franko – silos bosish, senach qilish (minora, zovur, o'ra) joyi, o't uni, granula tayyorlash joyi va x.k.

Joriy yildagi dehqonchilik mahsulotining tannarxiga yig'ilgan, ammo yanchilmagan yoki yig'ilmagan ekinlar bo'yicha xarajatlar kiritilmaydi. Agarda yil oxirida dehqonchilikda yanchilmagan ekinlar bo'lsa, haqiqiy xarajatlar quyidagicha taqsimlanadi.

Yig'ishtirib yanchilgan va yig'ilgan, ammo yanchilmagan ekin bo'yicha sarflangan haqiqiy xarajatlarning umumiy summasidan mahsulotni yanchish va daladan olib kelish xarajatlari chegiriladi. Ana shundan keyin qolgan xarajatlar summasi yig'ishtirib yanchilgan ekin o'rjasida gektarlar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Yig'ishtirib yanchilgan ekinlar mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash maqsadlarida yig'ishtirilgan ekinlarga sarflangan xarajatlar summasiga ularni yanchish, tashish bo'yicha xarajatlar qo'shiladi. Kelgusi yilda tannarxni hisoblashda yanchilmagan ekinlar va yig'ishtirish bo'yicha xarajatlar mahsulotni yanchish, tozalash va tashish xarajatlariga qo'shiladi.

Somon (chori), jo'xoripoya bargi va g'o'zapoya kungaboqar to'pguli, karam bargi, shox-shabba (tut va shu kabilarning tannarxi ushbu mahsulotni yig'ishtirish, presslash,

tashish, g'aramlash va tayyorlashga oid boshqa ishlar xarajatlari asosida belgilangan me'yorlar bo'yicha ularga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Don ekinlarini ekish va yig'ishtirish xarajatlari (donni xirmonda tozalash va quritish xarajatlari qo'shilib0 don, don chiqitlari va somonning tannarxini tashkil qiladi.

Don va don chiqitlarining tannarxini aniqlash uchun, avvalo unga tegishli jami xarajatlarda somonning belgilangan qiymati chegirib tashlanadi. Qolgan xarajatlar don va don chiqitlarining tannarxini tashkil etadi. Donning tannarxini aniqlash uchun don chiqitlari sof denga aylantiriladi, so'ngra ularga tegishli jami xarajatlar shartli don miqdoriga bo'linib 1ts donning tannarxi aniqlanadi.

Masalan, kuzgi bug'doy hosili yig'ishtirib va tozalab olingandan keyin 5000 ts don, 3000ts chiqiti va 40000 ts somon olinadi. Ushbu hosilni etishtirish va xirmonda tozalash uchun 2550000 so'm sarflangan. Somonning me'yoriy xarajatlar qiymati 50000 so'mni tashkil etadi. 1ts somonning tannarxi esa – (50000/40000) 1.25 so'mni tashkil etdi. U holda don va don chiqitiga tegishli xarajatlar (255000-50000) 250000 so'mga teng.

Don chiqiti (chori) ning tarkibidan 50 foizdan bo'lganligi uni denga aylantirilganda (3000\*50/100) 1500 ts jami shartli don miqdori esa 51500 ts

ga teng.

1ts donning tannarxi 40 so'm 54 tiyinni, 1ts chorining tannarxi esa 20 so'm 27 tiyinni tashkil etdi.

Auditor urug'chilik ekinlari bo'yicha umumiy xarajatlar tegishli reproduktsiyadagi urug'lik donni olishga aloqador qo'shimcha xarajatlarni ham qo'shib, urug'lar tannarxiga yuqoridagi tartibda o'tkazilganligiga e'tibor berishi kerak. 1ts urug'ning tannarxi tegishli urug'ga o'tkazilgan xarajatlarning umumiy summasi tozalangan va quritilgan urug' massasiga realizatsiya bahosiga mutanosib taqsimlanadi.

1ts makkajo'xori donning tannarxini hisoblashga don qabul qilish punktlarida sutkalik o'rtacha namunalarni sutkadagi donning bazis namligini hisobga olib yanchish natijasida aniqlangan so'talardan quruq denga o'tkazish xo'jalikning mijozga sotgan makkajo'xori so'talaridan bazis namlikdagi don chiqishining o'rtacha foizidan aniqlanadi.

1ts moyli o'simliklar urug'inining tannarxi donli ekinlar uchun belgilangan tartibda aniqlanadi.

1ts paxtaning tannarxi uni etishtirish va yig'ishtirish xarajatlari summasini uning hisobga olingen miqdoriga taqsimlab aniqlanadi. Paxtning tannarxi alohida navlar bo'yicha aniqlanganda xarajatlarning umumiy summasi uning xarid narxlarining qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Tola beruvchi zig'ir mahsulotining tannarxini hisoblashda o'stirish va yig'ishtirishga oid ishlab chiqarish xarajatlari urug' va tola miqdoriga ularning xarid baholaridagi qiymatiga mutanosib o'tkaziladi.

Ivigan zig'ir poyasining tannarxi poxol qiymati va yoyish, ag'darish va ivigvn poyani ko'tarib olish xarajatlarini qamrab oladi.

Boshqa yigiriladigan ekinlar tannarxi tola beruvchi zig'ir mahsuloti singari hisoblanadi.

1ts lavlagi ildiz mevasining ishlab chiqarish tannarxi ularni qand lavlagining fizik massasiga bo'lib aniqlanadi.

Auditorlik jarayonida auditor, tamaki va moxorka xom ashyosining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi va xom ashyoning hisobga olingen massasidan kelib chiqib, xarajatlarni mahsulotlarning alohida turlariga ularning xarid baholaridagi qiymatiga mutanosib taqsimlab aniqlaganligini ham tekshirib chiqishi kerak. Urug'chilikda 1ts tamaki, moxorka xom ashyosi, urug'ning tannarxi muayyan mahsulotni

ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli summasi va xom ashyo, urug'ning hisobga olingan massasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Bulardan tashqari, dalada o'stiriladigan dorivor o'simliklar ayrim turlari mahsuloti 1ts ning tannarxi mazkur mahsulot turiga o'tkazilgan umumiy xarajatlar summasini uning umumiy massasiga realizatsiya bahosi bo'yicha qiymatiga mutanosib aniqlanganligini ham tekshirib chiqish auditorlik xulosasini ishonchligini ta'minlaydi.

O'tsimon bir yillik va ikki yillik hamda efir moyli ekinlar mahsulotining tannarxi barcha xarajatlarni ularning realizatsiya bahosidagi qiymatiga mutanosib taqsimlab aniqlanadi. Bunda to'liq pishguncha o'stirish va yig'ishtirish xarajatlari urug'lar tannarxiga kiritiladi. Arpabodiyon va oq ztradan dumbillik vaqtida foydalanganilda barcha xarajatlar efir-moy xom ashysosi tannarxiga o'tkaziladi.

O'tsimon ko'p yillik efir-moy bo'yicha ekish xarajatlari har yili olinadigan mahsulot miqdoriga mutanosib taqsimlanadi.

Its kartoshkaning tannarxi kartoshkani etishtirishga taalluqli barcha xarajatlarni palak qiymatini chegirib, kartoshka hosiliga taqsimlab aniqlanadi.

Ayrim sabzavot ekinlari 1ts hosilning tannarxi ochiq sabzavotchilik va himoya qilingan erdag'i sabzavotchilik bo'yicha alohida tarzda xarajatlar summasini palak xarajatlarni qo'shib mahsulot massasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanganligini xam tekshirib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1ts shaminonlar tannarxini hisoblashda barcha xarajatlar ishlatalgan substrat qiymatini chegirib mahsulot massasiga o'tkaziladi.

Oziq-ovqat ekimi sifatida poliz ekinlari ayrim turlari 1ts hosilning tannarxini o'stirish va hosilni yig'ishtirishga taalluqli barcha xarajatlarni mahsulot massasiga taqsimlab aniqlanadi. Bunda xarajatlar ayrim ekinlarga mahsulot realizatsiyasidan tushgan daromadga mutanosib taqsimlanadi.

Sabzavot va poliz ekinlari 1 ts urug'ning tannarxi o'stirish, yig'ishtirish, quritish va navlarga ajratish sarflarini taqsimlab, bunda qo'shimcha mahsulot massasiga o'tkazilgan xarajatlari istisno qilib aniqlanadi.

Ozuqa ildiz mevalar va poliz ekinlari hayvonlarga oziqa sifatida berilgan qand lavlagi, ularning tugunaklari tannarxi yuqorida sabzavot ekinlari, qand lavlagi va poliz ekinlari tannarxini hisoblashda bayon etilgan tartibda aniqlanadi.

Ozuqa ekinlarini o'stirish va yig'ishtirish xarajatlari ular mahsulotining tannarxini tashkil qiladi.

Butun turdag'i mahsulotni olishda foydalaniladigan sepilgan o't, yaxshilangan va tabiiy pichanzor hamda madaniy o'tloqlar xarajatlari to'liq tarzda mahsulot tannarxiga kiritiladi. Sepilgan o'tlar, yaxshilangan pichanzorlar, yaxshilangan va madaniy o'tloqlar hamda boshqa tabiiy er-suvaridan bir necha mahsulot turini olishda foydalanilganda ekinni etishtirishga qilingan xarajatlar ekinlarga 1 ga erdan oziqa birligiga ko'ra hisoblanadigan mahsulot hosiliga mutanosib taqsimlanadigan xarajatlar yig'indisidan tarkib topadi.

Ko'p yillik o'tlarni sepiш xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarishga tegishli almashib ekishda ekinlardan foydalanish yillari miqdoriga mutanosib tarzda yillar bo'yicha taqsimlanadi va ularni o'stirish xarajatlari tegishli xarajat moddalarini bo'yicha kiritiladi.

Ko'p yillik o't boshqa ekin orasiga ekilganda va ekilgan yili o't hosili olinganida tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha umumxarajatlar har ikala ekin o'tasida 1 ga erdan olingan hosilga mutanosib taqsimlanadi. Agarda ekilgan yil hosil ikkinchi ekindan olinmasa, aytib o'tilgan barcha xarajatlar qoplovchi ekinga o'tkaziladi.

1 ts tayyor silos, senaj tannarxi ko'k massani etishtirish, uni franko-xandaqqa tashib kelish sarflari va silos bostirish, senaj tayyorlash, xandaqlarni tozalash. Silos va senaj

massasini joylash hamda shabbalash, somonni yuklash va tashish, xandaqlarni plyonka va somon bilan yopish xarajatlari yig'indisidan aniqlanadi. Silos bostirishda ishlatiladigan boshqa komponentarlar silos, senaj ishlab chiqarishning umumiy sarflariga belgilangan tartibda hisoblanadigan qiymati bo'yicha kiritiladi.

Ko'p yillik o'simliklar va gulchilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash. Meva beradigan yoshdagi ko'p yillik o'simliklar tannarxini hisoblashda joriy yildagi umumiy xarajatdan qalamcha, gajak, palgari, bachki, novda qiymati realizatsiyasi bahosida chegiriladi.

1 ts meva rezavor, uzum tannarxi xarajatlarining umumiy summasini mahsulot massasiga taqsimlab aniqlanadi.

O'stirilayotgan ekish materiallarining alohida ekin guruhlari bo'yicha tannarxini aniqlashda xarajatlarning har bir uchastka bo'yicha umumiy summasi realizatsiya uchun kovlab olingan va o'stirish uchun erda qoldirilgan ko'chatlar soniga mutanosib taqsimlanadi. Kovlangan. Shu jumladan "kovlashda" bo'lganlarni ham qo'shib mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar summasidan 1000 dona ko'chatning tannarxi aniqlanadi. Erda o'stirishga qoldirilgan ko'kartirilgan ko'chat, bir yillik, ikki yillik ko'chatlar keyingi yilga tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tarzida o'tkaziladi.

### **3.Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblash auditini o'tkazish tartibi.**

Chorvachilik dehqonchilik bilan bir qatorda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U ixtisoslashuvidan qat'iy nazar, odatda har bir xo'jalikda bo'ladi. Bu tarmoqqa qoramol, cho'chqachilik, qo'ychilik, parrandachilik, baliqchilik va shu kabilar taalluqlidir.

Chorvachilikda ham xarajatlarni audit qilish ob'ekti bo'lib buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va xujjatlari, chorvaning alohida turlari va guruhalridir. Masalan, sutchilik yo'nalishdagi chorvachilikda xarajat ob'ektlari – asosiy poda, yosh qoramol, bo'rdoqiga boqilayotgan katta yoshli mol, go'sht yo'nalishida-asosiy poda, yosh qoramol, sakkiz oylikdan katta yosh qoramol va bo'rdoqiga boqilayotgan katta mol. Cho'chqachilikda-asosiy, 2 oylikdan 4 oylikkacha bo'lgan cho'chqa bolalari, 4 oylikdan katta cho'chqa bolalari va bo'rdoqiga boqilayotgan cho'chqalar hisobga olish ob'ekti hisoblanadi.

Chorvachilikda ishlab chiqarish harajalari va mahsulotning chiqishini hisobga olish bo'linmalari, fermalar, birkadirlar va shu kabilar bo'yicha amalga oshirilishi kerak. Chorvaning turi va guruhlari bo'yicha xarajatlar quyidagi kalkulyatsiya moddalari bo'yicha aks ettiriladi:

I. Ijtimoiy sug'urta ajratmalari va mehnatga haq to'lash xarajatlari.

II. Hayvonlarni himoya qilish vositalari.

III. Ozuqa.

IV. Ish va xizmatlar.

V. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari.

VI. Ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari.

VII. Sug'urta to'lovlar.

VIII. Chorvaning nobud bo'lishidan yo'qotishlar.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga oid buxgalteriya yozuvlari ozuqani taqsimlash yuzasidan boshlang'ich hujjalalar – vedomostlar, tabellar, tug'ilgan naslni kirim qilish dalolatnomalari, hayvonlarni tortib ko'rish vedomostlari va shu kabilar asosida amalga oshiriladi.

Chorvachilikdagi xarajatlar va mahsulotning chiqishi haqidagi ma'lumotlar keyin chorvachilik bo'yicha ishlab chiqarish hisobotida hamda chorvachilik mahsulotining chiqish xarajatlarini hisobga olish daftarida ko'rsatiladi. Ularning yakuniy ma'lumotlari 10-jurnal orderga ko'chiriladi, hisobga olish avtomatlashtirilgan sharoitda tegishli mashinogrammalar tuziladi. Bu registrlarning hammasi o'tgan oydag'i xarajatlarni yil boshidan o'suvchi yakunida qayt etadi.

Biz yuqorida nomini tilga olgan "Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida"gi Nizomga muvofiq chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish qaydnomasining mavjudligi va to'ldirilishini tekshirish maqsadga muvofiq.

**Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini  
hisobga olish qaydnomasi**  
**20\_\_ yil \_\_\_\_\_ uchun**

T/r	Xarajat moddalarli	Analitik hisob ob'ektlari					
		asosiy poda		yosh hayvonlar			
		yil boshidan	oy uchun	jami	yil boshidan	oy uchun	Jami
1	2	3	4	5	6	7	8

**I. Chorvachilik xarajatlari**

Mehnat haqi						
Yagona ijtimoiy to'lov						
Em-xashak						
Asosiy vositalar eskirishi						
Asosiy vositalarni ta'mirlash						
Avtotransport						
Boshqa xarajatlar						
<b>Jami</b>						

**II. Chorvalik mahsulotlari chiqishi**

Sut, ts						
Qiymati, so'm						
Go'sht, ts						
Qiymati, so'm						
Buzoq, bosh						
Qiymati, so'm						
Ortgan vazni, ts						
Qiymati, so'm						
Go'ng, so'm						
<b>Jami mahsulot chiqishi, so'm</b>						

**Fermer**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

(imzo)

(F.I.Sh.)

**Buxgalter**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

(imzo)

(F.I.Sh.)

Chorvachilikda xarajatlarni va mahsulotning chiqishini hisobga olishda “Asosiy ishlab chiqirish” schyotidan foydalaniadi. U shuningdek, olinayotgan mahsulotning tannarxini hisoblashga ham xizmat qiladi. Schyot debetida yil davomida bevosita (to’g’ri), yil oxirida esa yuqorida qayd etilgan xarajat moddalari bo’yicha bilvosita (egri) xarajatlar kreditida mahsulotning yil davomida rejadagi tannarxda chiqishi qayd etiladi. Yil oxirida, dehqonchilikda bo’lganidayoq, rejadagi tannarx haqiqiy tannarxga etkaziladi. Debetidagi saldo esa tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini anglatadi.

2010 - “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti bo’yicha hisob yuritishda xarajatlarni hisobga olish tartibini ko’rib chiqamiz. “Sug’urta ajratmalari va mehnatga haq to’lash xarajatlar” moddasida yil davomida chorvaga bevosita xizmat ko’rsatishga band bo’lgan ishchilar: ya’ni operatorlar, sut sog’uvchilar, buzoq boqarlar, ot boqarlar, cho’ponlar va shu kabilarning mehnati hamda navbatdagi mehnat ta’tillariga xaq to’lash aks ettiriladi. Bu bevosita modda summasiga 2010 - “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti debet, “xodimlar bilan mehnatga haqi bo’yicha hisoblashlar” va “ijtimoiy sug’urta bo’yicha hisoblashishlar” va boshqa schyotlar kreditlanadi.

“Hayvonlarni himoya qilish vositalari” moddasini tekshirayotganda auditor, korxona mablag’lariga olingan biopreparatlar, dori-darmonlar, dizenfektsiya qilish vositalari va shu kabilarni xarid qilish va saqlash sarflari, shuningdek, ulardan chorvachilikda foydalinishga aloqador xarajatlar aks ettirilganligiga e’tibor qaratishi lozim. Bu moddaga yuqoridagi vositalarni anna shu maqsadlarda byudjet mablag’lari hisobiga hal etilgan qiymat kiritilmaydi.

“Ozuqa” moddasidan sarflangan ozuqaning qiymati chorva turi va guruhlari bo’yicha ozuqani taqsimlash vedomostlari asosida keltiriladi. Bu vedomostlarda har yili chorva soni, ozuqa nomi va miqdori qayd etiladi. Oy yakunida anna shu vedomostlarda hayvonlar ozuqakunlari soni va naturada hamda ozuqa birligiga aylantirilgan sarflangan ozuqa miqdori, shuningdek ozuqa qiymati aniqlanadi. Bu ma’lumotlar keyinchalik ozuqalar sarfini hisobga olish jurnalida yil boshidan o’suvchi yakunida hisobga olinadi.

Ozuqa sexlari va ozuqani oldindan tayyorlash bo’yicha xarajatlar avvalo 2010 - “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining alohida analitik schyotida aks ettiriladi, so’ngra har oyda sarflangan ozuqalar miqdoriga mutanosib taqsimlanadi. Bunday hollarda ozuqalarga oid xarajatlar summasiga 2010 - “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti debet “Urug’lar va ozuqa” schyoti kredit qilinadi.

“Ish va xizmatlar” moddasida o’z yordamchi ishlab chiqarishlari tomonidan chorvachilikka ko’rsatiladigan ish va xizmatlar xarajatlari hamda chet korxona va tashkilotlar ko’rsatadigan ana shunday xizmatlar uchun to’lov xarajatlarini aks ettiriladi.

“Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari” moddasini tekshirish bevosita ishlab chiqarishda foydalilanadigan asosiy vositalarni saqlashga aloqador xarajatlar kiritilganligini aniqlash imkonini beradi. Bu xarajatlarning tarkibi va hisobga olishni dehqonchilikdagi anna shunday xarajatlarning tarkibi va hisobga olinishi dehqonchilikdagi anna shunday xarajatlarning tarkibi va hisobga olinishi bilan bir xildir.

Hayvonlar podasining o’ziga kelsak, amortizatsiya ajratmalari faqat ish hayvonlari bo’yichagina hisoblanadi. Maxsulor hayvonlar ishlab chiqarilganda ularning qiymati realizatsiyadan tushgan puldan qoplanadi. Chorvachilikda amartizatsiya va asosiy vositalarni tuzatish xarajatlari hisobga olish dehqonchilikdagi kabi yuritiladi, farqi faqat 2010 - “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining debet qilinishidadir.

Chorvachilikda ishlatiladigan asosiy vositalarni saqlash xarajatlari odatda to’g’ridan-to’g’ri tegishli chorva turi, guruhiga o’tkazildi. Chorvachilik binolarida hayvonlarning bir

necha guruhi saqlanganda bu xarajatlar ular o'rtasida band qilingan bino maydoniga mutanosib taqsimlanadi.

“Sug'urta to'lovlari” moddasi bo'yicha hisobga olish tartibi dehqonchilikdagi kabitidir, ammo bu erda qishloq xo'jalik hayvonlari uy parrandalari, quyonlar, mo'ynali hayvonlar, asalari oilalari, shuningdek, tegishli binolar, uskunalar, mashinalar va inventarlar sug'urta qilinadi.

Boshqa xarajatlar moddasidan fermalar atrofini to'sish, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazishga daxldor bo'lgan dizenzektsiya to'siqlari, sanitariya ko'riganidan o'tkazish joylari va shu kabi ob'ektlarni tushama qiymati, sut sog'uvchi, cho'chqaboqar, chorva va parrandalarga qarovchi boshqa xodimlarga beriluvchi jomakorning eskirishi, hayvonlar uchun yozgi molxonalar, shu kabilar xarajatlari qayd etiladi. Bu xarajatlar bevosita hayvonlarning tegishli turlariga o'tkazildi.

“Chorva mollarining nobud bo'lishidan ko'rildigan zararlar” moddasidan yosh va bo'rdoqiga boqilayotgan katta yoshdagi mol, parranda, yovvoyi hayvon, quyon shuningdek, asalari oilalarining nobud bo'lshi natijasidan ko'rildigan zararlar aks ettiriladi. Aybdor shaxslardan undirilib olinadigan qismi bu moddaga kiritilmaydi. Tabiiy ofatdan ko'rildigan zararlar bevosita “Yakuniy moliyaviy natija” schyotining debetiga o'tkazildi.

2010 - “Asosiy ishlab chiqarish” schyotida aks ettirilgan buxgarteriya yozuvlaridan so'ng analistik schyotlar bo'yicha ayrim chorva turi va guruhlari bo'yicha yil davomida ularga tegishli schyotning kreditida esa yil davomida o'suvchi yakunida etishtirilgan va olingan chorva maxsulotining rejadagi tannarxi aks ettiriladi va quyidagi schyotlar bilan korespondintsiyalanadi: “Tayyor maxsulot” schyotining debeti – chorvachilik maxsuloti qiymatiga, “O'stirishda va bo'rdaqiga boqilayotgan hayvonlar” schyotining debeti yosh mol va bo'rdoqiga boqilayotgan hayvon, shuningdek tug'ilgan hayvonlar bolasining qiymatiga, “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining debeti - dalaga tashib chiqilgan go'ng qiymatiga.

Yil oxirida mahsulotning haqiqiy tannarxi aniqlandi va haqiqiy hamda rejadagi tannarxi o'rtasidagi aniqlangan farq qo'shimcha buxgalteriya yozuvi orqali to'g'irlanadi, agarda haqiqiy tannarx rejadagi tannarxdan past bo'lsa, teskari yozuv yoki rejadagi tannarxi haqiqiy tannarxdan past bo'lsa oddiy qo'shimcha yozuv qilindi.

Chorvachilik mahsulot birligi tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibi. Bu sohada ham asosiy, yondosh va yordamchi mahsulot farqlanadi. Chorvachilikda kalkulyatsiya ob'ektlari alohida mahsulot turlari, chorva bolasi, tirik vaznining ortgan og'irligi hisoblanadi.

Chorvalikda xarajatlarining analistik hisobi mahsulot turlari bo'yicha emas, balki chorva turi va guruhlari bo'yicha yuritiladi. Chorvaning bir turi yoki guruhidan ikki va undan ko'proq mahsulot turi olinganda ularning tannarxi belgilangan tartibda aniqlanadi.

Chorva parrandalarni boqish uchun yil davomida sarf qilingan xarajatlarni tekshirganda auditor, yil boshidagi ularga tegishli tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qo'shib, yil oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarishni chegirib chorva mahsulotlarining tannarxi aniqlanganligiga e'tibor berishi lozim. Tirik vaznining tannarxi-hisobot yili boshidagi boquvda va o'stirishdagi hayvonlar va parrandalar qiymatiga yil davomidagi ularni boqish va o'stirish xarajatlari, chetdan asosiy podadan boquvga o'tkazilgan hamda hisobot yilida tug'ilgan hayvon bolalari qiymatlarini qo'shib, ularning tirik vazniga bo'lshi asosida aniqlanadi. Unda nobud bo'lgan chorva va parrandalarning qo'shilgan vazni hamda boquvga qo'yilmasdan so'yilgan yoki sotilgan katta yoshli hayvonlar vazni hisobga olinmaydi. Go'ng xarajatlari muayyan sharoitlarda me'yoriy xarajatlardan molxonalarini go'ngdan tozalash va uni yig'ishtirish xarajatlari go'ngxonadan go'ngni olishda ishlatalidigan mashinalarning amortizatsiya ajratmalari. Go'ngni chiqarish va saqlash sarflari va tushama qiymatiga ko'ra aniqlanadi.

Tannarxni hisoblashda har bir turdag'i yosh va katta yoshdag'i hayvonlar guruhlari bo'yicha chorva parrandalar tirik vaznining yil davomida ortishi, yil oxiriga qoldirilayotgan chorvani u yoki bu turining tegishli guruhi sonining tirik vaznni qo'shib, hosil bo'lgan miqdoridan yil davomida bu guruhdan boqishga o'tkazilganlarning tirik vazni, shuning shu guruhda yil boshida bor bo'lgan chorva sonining tirik vaznni chegirib aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida auditorlik tekshiruvlari natijasida aniqlanadigan odatda uchraydigan xatoliklar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Ustav kapitalini qonunchilikda belgilangan muddatlarda qo'shmaslik;
  - Qabul qilingan Hisob yuritish siyosatining talabga javob bermasligi yoki umuman mavjud emasligi;
    - Hisobotda barcha aktivlar va passivlarning aks etmasligi;
    - Schetlar turkumlanishidagi xatoliklar;
    - Analitik hisob-kitoblarda va jurnallarda keltirilgan ma'lumotlarda saranjomlik yo'qligi;
    - Analitik hisobdagi ma'lumotlarning Bosh kitobdagi ma'lumotlarga mos kelmasligi va h.k.
  -
- 4.Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qabul qilish, saralash, sotishga tayyorlash va sotish jarayonlari auditining xususiyatlari.**

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida audit va nazorat ishlarini bajarish butun iqtisodiyotimizni boshqarishni takomillashtirish, xo'jalik mexanizmini savdo tashkilotlari faoliyatiga joriy qilish, buxgalteriya hisobi va auditga yangicha yondashishni taqozo qiladi. Buning uchun iqtisodchilar, shu jumladan, auditorlarni tayyorlashga yanada ko'proq ahamiyat berilishi kerak. Auditni tashkil qilish va rejalshtirish hozirgi xo'jalikni boshqarish usuli takomillashtib borayotgan bir vaqtida tashkilot xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga, boshqarish samaradorligini oshirishga, tashkilot extiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Korxona tovarlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi-ularning saqlanishi, tejamli va oqilona ishlatilishi, hisobga olishning to'g'ri tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, hisobot da me'yoriy hujjatlarga muofiqligini aniqlashi lozim. Ushbu maqsadga muomalalar mohiyatini, hamda nazorat tuzilmasi va buxgalteriya hisobi tizimi tekshiruvdan o'tkazish va risklarni bahg'olash orqali erishiladi. Tovarlarni tekshirish, ular hajmi katta bo'lgan korxonalarda auditning asosiy qismi deb qaraladi.

Audit ishlarida amalda ishlatilayotgan, ishlatilishi to'xtatilgan hukumat qarorlari belgilangan me'yor hamda hujjatlarni to'g'ri tahlil qilish, ularni auditorlik tekshiruvida joriy qilish auditordan yuqori malakaga ega bo'lishni talab qiladi.

Tovarlarni savdo-sotig'ini amalga oshirish va unda qo'llaniladigan hisob-kitob shakliga ko'ra savdo ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo turlariga bo'linadi.

Tovarlarni iste'molchilarga etkazishda savdo korxonalar muhim o'r'in tutadi. Ishlab chiqarish sohasida yaratilgan nozu-ne'matlarni aynan savdo korxonalar orqali oxirgi iste'molchiga etib boradi. Aynan savdoning ushbu bug'indida tovarlar umumiylar ekvivalenti o'rnini o'ynovchi pulga aylanadi. Tovarlarning naqd pulga aylangan qismi ushbu savdo korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichi bo'lib "chakana tovar aylanmasi"ning mazmun va mohiyatini ifodalaydi.

Har bir savdo korxonasida belgilangan topshiriqlarni bajarish uchun tegishli asosiy va muomala mablag'laridan to'g'ri foydalishni va ularning to'liq saqlanishini nazorat qilishda hujjatli tekshirish o'tkazish alohida ahamiyatga egadir.

Hujjatli tekshirish deb, korxona faoliyatini ma'lum bir davr ichidagi holatini hisob va hisobot ko'rsatkichlariga asoslanib har tomonlama chuqur tekshirishga aytildi.

Audit yordamida tashkilot va korxonalarda hukumat qarorlarining bajarilishi, xo'jalikda moliyaviy ishlarning to'g'ri tashkil qilinganligi, uning qonuniyligi, rahbar xodimlarning xizmat vazifalari to'g'ri olib borilishi tekshiriladi. Audit tekshiruvlarida nazorat o'tkazishning hamma turlari birlashib, audit natijalarining to'g'riliгини ta'minlaydi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulkining to'liq saqlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Audit ishlarini to'g'ri tashkil qilish faqat mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlabgina qolmay, balki moddiy javobgar shaxslar zimmasidagi tovarlarning to'g'ri saqlanishini nazorat qilish imkonini ham beradi. Auditorlik tekshiruvini to'g'ri rejalashtirish auditorlarning ish vaqtidan samarali foydalanishlari, ishni korxona faoliyati xususiyatini hisobga olib tashkil qilishlari aloxida ahamiyatga ega. Bu esa auditorlarning tekshirish natijalarini sifatlari bo'lishini, belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlaydi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi ishlab, chiqarilayotgan mahsuloti bozorda raqobatdoshligidan, uning ichki va tashqi bozorda talabidan, realizatsiya hajmiga bog'liqdir.

Tovarlarni sotish aholini ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan har bir korxona ishlab chiqarish faoliyatining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Mahsulotni rejadagi hajmi bo'yicha sotish tashkilotga ishlab chiqarish xarajatlarini, qoplash, davlat byudjeti, kredit bo'yicha banklar va boshqa ho'jalik sub'ektlar oldidagi majburiyatlarni bajarish imkoniyatini yaratadi, hamda ishlab chiqarishni takomillashtirish va kelajakda rivojlanish uchun muhim bo'lgan foyda olishga yordam qiladi.

Auditning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tovar-mahsulotni ishlab chiqarilishi, jo'natilishi va sotilishini hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirishni tekshirish;
- tovarlarni omborda saqlanishini ta'minlovchi sharoitlarni aniqlash;
- tovari haqqiy tannarxini aniqligini tekshirish;
- tovari sotilishini to'g'ri hisoblashni tekshirish;
- sotilgan tovarlardan olingan moliyaviy natijalarni to'g'ri hisoblash va buxgalteriya hisobida aks ettirish.

Savdo korxonalari audit manbalari:

- Tovar- mahsulotni ishlab chiqarish va sotilishini hisobga olishga doir qonunchilik;
- tovarlarni rejalashtirish va taylorlash bo'yicha korxonadagi hujjatlar;
- mahsulotni jo'natish va sotilishiga doir dastlabki hujjatlar va shartnomalar;
- 4010, 2810, 9010, 9110 schyotlar va boshqa schyotlardagi ma'lumotlar;
- 10,11 - sonli jurnal - order, 16 - sonli qaydnoma ma'lumotlari;
- 2-sonli "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"dagi ma'lumotlar.

Sotuv hajmi va uning tarkibiy qismlarining auditi - ko'p jihatdan butun tekshiruvning sifatini belgilovchi muhim masalalardan biridir.

Tovarlarni ishlab chiqarish va uni sotish auditining maqsadi tayyor mahsulot to'liq kirim qilinganligini, sotishdan olingan tushum va sotilgan mahsulotning tannarxi to'g'ri hisoblanganligini aniqlashdan iborat.

Tekshiruv jarayonida auditor quyidagi masalalarni hal etadi:

1. tovarni baholash bo'yicha usul asosli tanlab olinganligi va to'g'ri qo'llanilayotganini tasdiqlash;
2. tovarlarni to'liq kirim qilinayotganligini aniqlash;
3. jo'natilgan va sotilgan tovarlar hajmlarini tasdiqlash;
4. jo'natilgan va sotilgan tovarlar tannarxini tasdiqlash.

Savdo korxonalarida tovar mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha hisob yuritilishi holatini tekshirish bo'yicha ma'lumot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: tayyor mahsulotni omborda hisobga olish bo'yicha varaqalar, preyskuratorlar, mahsulotni etkazib berish to'g'risida shartnomalar, schet-fakturalar, sotish bo'yicha daftarlari, tayyor mahsulotni berish to'g'risida yuk xatlari, xaridorlardan olingan ishonchnomalar, tushum kelib tushganligi to'g'risida dastlabki bank va kassa hujjatlari (to'lov-talabnomalar, talabnama-topshirinqomalar kassa kirim orderlari va boshqalar), 2010 "Asosiy ishlab chiqarish"; 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar"; 2910 "Ombordagi tovarlar"; 9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar"; 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi"; 5010 "Milliy valyutadagi pul mablag'lari"; 5110 "Hisob-kitob schyoti"; 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"; 6310 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar" boshqa schetlar bo'yicha hisob registrlari (ro'yxatnomalar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar), Bosh kitob, "Moliyaviy nitijalar to'g'risida hisobot" (2-sonli shakl) va boshqalar.

Savdo korxonalarida auditning o'ziga xos predmeti va ob'ektlari mavjud. Korxonalarda audit ma'lum maqsadga qaratilgan va bir qancha vazifalarni bajaradi. Auditning perdmeli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ularning faoliyatlarini hisoblanadi. Ma'lumki korxonalar o'z ustavlariga asosan faoliyat yuritadilar. Ushbu faoliyat jarayonida moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalaniлади. Korxonalarining aktivlari doimiy ravishda daromad, foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Lekin, ushbu natijalarga faqat qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilgan holda erishish mumkin. Korxonalar o'z faoliyatlarida me'yoriy hujjatlarga, qabul qilingan qoidalarga rioya qilishlari shart. Har bir korxona o'zining hisob siyosatini belgilaydi va unga asosan hisob-kitoblarni yuritadi. Audit paytida korxona faoliyatining qabul qilingan qonunlarga monandligi, hisob ma'lumotlarining korxona moliyaviy-xo'jalik ko'rsatkichlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Auditning predmeti taftishdan farqli o'laroq korxonaning faqat bir faoliyat turi yoki birligina ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Misol uchun, savdo faoliyati, ishlab chiqarish faoliyati yoki bo'lmasa pul mablag'lari, tovarlar, qimmatli qog'ozlar, valyuta operatsiyalari va boshqalar. Auditning predmetiga korxona moliyaviy hisobotning to'g'rilligi, hisob siyosatiga, soliq siyosatiga to'liq amal qilinishlikni tekshirish ham kiradi. Auditning aniq predmeti yoki ob'ekti mijoz bilan tuzilgan shartnomaga bevosita bog'liq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida chakana savdo korxonalarining faoliyati kengayib har tomonlama rivojlanmoqda. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida auditning asosiy ob'ektlari tovarlari xilma-xilligii kerak deb hisoblaymiz: Savdo turini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar savdo korxonalarini deb ataladi.

Savdoning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar kiradi;

- tovarlarni savdo shoxobchalarida savdo ustamalar bilan birga hisobga olinishi;
- tovarlarni naqd pulga sotilishi;
- har bir tovarning sotilishini hujjatlari rasmiylashtirilmasisligi, biroq, kassa apparati pattasi va plastik kartochka bilan sotilgan tovari cheki summasini qayd etilishi;

• tovarlarni naqdsiz ulgurji sotishning chegaralanganligi:

Savdoga auditning predmeti va ob'ektlari quyidagi tartibda guruhashimiz mumkin:

- sotish faoliyati;
- sotish faoliyatining aktivlari va majburiyatlar;
- korxona faoliyatining alohida jarayonlari (sotish, tashviqot, qayta baholash).

Savdo ob'ektlariga qo'yidagilar kiradi:

- Bozor.
- Gipermarket.

- Supermarket.
- Savdo markazi .
- savdo majmuasi.
- univesam .
- univermag.
- Minimarket.
- oziq – ovqat do’koni.
- ixtisoslashtirilgan do’konlar.
- Avtodo’konlar.
- kioskalar va boshqalar:

Savdo korxonalarining faoliyatlari o’z navbatida quyidagi jarayonlarni o’z ichiga oladi:

- ta’minot jarayoni;
- ishlab chiqarish jarayoni;
- realizatsiya jarayoni.

Jarayonlar savdo operatsiyalari orqali sodir bo’ladi.

Savdo jarayonlarning auditni ma’lum ko’rsatkichlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu ko’rsatkichlarning ikkiga bo’lish mumkin:

- miqdor ko’rsatkichlari;
- sifat ko’rsatkichlari.

Miqdor ko’rsatkichlar - ishlab chiqarilan mahsulotlar, sotilgan tovarlar, bajarilgan xizmatlar hajmidan iborat.

Sifat ko’rsatkichlar - faoliyat yuritish bilan bog’liq bo’lgan xarajatlar, foyda, mehnat unumdarligini ifodalaydi.

Korxonalarning alohida jarayonlari va ko’rsatkichlari auditning ob’ektlari hisoblanadi.

Auditning predmetiga xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga dolzarb masalalarda konsalting xizmatlarini ko’rsatish ham kiradi. Auditorlar va auditorlik tashkilotlari korxonalarga o’zaro tuzilgan shartnomalarga asosan «Biznes reja» tuzish, hisob siyosatini belgilash, soliqlarni to’g’ri hisoblash, mahsulot tannarxini aniqlash, moliyaviy hisobot tuzish kabi masalalarda yaqindan yordam beradilar.

Savdo korxonasida auditorlik tekshiruvini o’tkazish to’g’risidagi shartnoma "mijoz-auditor" o’zaro munosabatlarini chegaralab beruvchi rasmiy hujjat hisoblanadi va umumiyligi jihatlari bilan tadbirkorlik faoliyatida qo’llaniladigan shartnomalardan farq qilmaydi. Bu hujjat, boshqa shartnomalar kabi, tomonlarning, ya’ni shartnoma ishtirokchilarining, bu erda buyurtmachi-mijoz va ijrochi-auditor, o’zaro kelishilgan manfaatlarini huquqiy tomondan tartibga soladi.

Shuning bilan bir qatorda, auditorlik tekshiruvini o’tkazish to’g’risidagi shartnoma tadbirkorlikda qo’llaniladigan boshqa shartnomalardan muhim farqlari ham mavjud - bu, birinchi navbatda, shartnoma tuzish vaqtida oshkorasiz holda uchinchi tomon (moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan foydalanuvchilar) manfaatlarini hisobga olishdir. Zero, amalda, agar tekshiruv sifatsiz o’tkazilganligi natijasida zarar etkazilsa, auditor nafaqat mijoz oldida, balki ushbu foydalanuvchilar oldida ham mas’uldir. Shartnoma imzolanishidan oldin, auditor o’zi uchun nafaqat imkoniyati boricha mijoz istaklarini aniqroq bilib olishi, balki unga o’z buyurtmasini to’g’ri shakllantirishda yordam berishi lozim. O’tkaziladigan auditorlik tekshiruvni sifati hamda auditor va mijoz o’rtasidagi o’zaro munosabatlar ko’p jihatdan auditorlik tekshiruvini o’tkazish to’g’risidagi shartnoma aniq tuzilganligiga bog’liqdir.

Ko'pchilik auditorlik tashkilotlari savdo korxonasi bilan shartnoma tuzishning namunaviy shakllaridan foydalanadilar, lekin, chakana savdo korxonasi shartnomasida aniq bir tovarlarni turlari bo'yicha audit qilish xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir, zero mijozlar, ko'p hollarda, uning ma'nosni va mohiyatini etarli darajada tushunmasliklari mumkin.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada auditor tomonidan auditorlik xulosasini taqdim etishdan voz kechish imkoniyatini aks etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tekshiruv o'tkazish uchun kerakli bo'lgan hujjatlarni mijoz tomonidan taqdim etish muddatlarini belgilash lozim, chunki ko'p holatlarda, buxgalteriya hisoboti hali tayyor bo'lmasdan turib mijozlar auditorni taklif qiladilar, bu, o'z navbatida, ishni juda ham murakkablashtiradi.

Shartnomada tekshiruv jarayonida mijoz tomonidan auditorga yordam ko'rsatishi lozimligi to'g'risida majbur ekanligini ko'zda tutilishi maqsadga muvofiqdir (inventarizatsiya o'tkazishda yordam berish uchun o'z xodimlarini jalb qilish, xizmat safariga chiqish zaruriyati bo'lganda auditorii transport vositasi bilan ta'minlash va boshqalar).

Auditor va mijoz shartnoma shartlari bo'yicha kelishib olishlari lozim. Kelishilgan shartlar audit bo'yicha xat-kelishuv yoki har qanday boshqa tegishli shaklda rasmiylashtirilishi lozim.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomani tuzishda auditorlik xizmatlarining qiymatini baholash muhim o'rinn tutadi. Xizmatlar qiymatini pasaytmaslikka ham va ko'tarmaslikka ham intilish lozim, zero umisi ham bunisi ham, ko'pchilik holatlarda, ayniqsa ushbu auditorlik firmasiga birinchi bor murojaat qilgan taqdirda mijozni cho'chitib yuboradi.

O'zbekistonda auditorlik xizmatlari bozori tobora shakllanib borishi natijasida auditorlik xizmatlariga oid narx-navolar tartibga solinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda savdo korxonalarida auditorlik xizmatlari qiymatini baholash mavjud bo'lgan turlarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Korxona sotuvchilarga haq to'lash ishning butun hajmi uchun ish haqi miqdorini belgilaydi vaakkord topshiriqlarining qisqa muddatda bajarilganligi uchun mukofotlashni o'z ichiga oladi. Ishlarning umumiyligi qiymati bunda vaqt (bajarilgan ish) va narxlari me'yori asosida aniqlanadi. Brigadaga asosiy va yordamchi ishlarning barchasini nazarda tutuvchi akkord topshirig'i beriladi.

To'lovda auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada to'lov summasi tekshiruv boshlanmasdan oldin belgilanadi va qayd etiladi. Ayrim auditorlik tashkilotlar ushbu summani mijozning moliyaviy imkoniyatlari yoki boshqa bir qancha mezonlardan kelib chiqib erkin belgilaydilar. Lekin, ko'pchilik auditorlik tashkilotlari shartnoma tuzishdan oldin korxona faoliyatini xususiyatlari bilan tanishish, taxminiy auditorlik tavakkalchilagini baholash va bajariladigan ishlarga sarflanadigan mehnat hajmini aniqlash maqsadida, auditorga muayyan haq to'lab, uni korxona bilan tanishib chiqish uchun yuboradilar. Shundan keyin, auditorlik tashkiloti bajariladigan ishlarning umumiyligi qiymatini belgilaydi va mijoz-korxona bilan shartnoma tuzadi.

Vaqtbay ish haqi odatda, xodim mehnatini me'yorga solib bo'lmaydigan yoki bajarilayotgan ishlarni hisobga olib bo'lmagan hollarda qo'llanadi. Mehnatga vaqtbay haq to'lashda ishchi yoki xizmatchining ish haqi uning malakasi va ishlagan ish vaqtiga qarab belgilanadi.

Vaqtbay to'lovi - barcha davlatlarda auditorlik xizmatlari bozorida eng ko'p tarqalgan to'lov turidir. Agar ko'zda tutilmagan vaziyatlar natijasida mehnat sarfi hajmi ko'paysa, ishlar qiymati ham mutanosib ravishda oshib boradi. Chakana savdo korxonalarida kup xollarda ushbu tulov tizimi bilan xak olinadi. Vaqtbay to'lovi auditorning bir soat (kun) ish vaqtini baholashga asoslanadi va uning malakasiga ham bog'liqidir.

Ishbay to'lovi - odatda buxgalteriya hisobini tiklashda qo'llaniladi. Hisob-kitob hisobdag'i har bir operatsiya, har bir ko'rsatkich qiymatini aniqlashdan kelib chiqadi. «Mehnatga ishbay haq to'lashda vaqt birligi uchun amaldagi baholar asosida haqiqatda bajarilgan ish (tayyorlangan mahsulot) uchun haq to'lanadi» Ayrim korxonalar, jumladan auditorlik tashkilotlari darajasida ishga haq to'lash va ish beruvchi bilan xodim o'tasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish unda qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar-mehnat shartnomalari asosida amalga oshiriladi, ular korxona rahbariyati tomonidan mehnat jamoasi vakillari ishtirokida ishlab chiqiladi.

Auditor va mijoz kelishuv shartlari bo'yicha kelishib olishlari lozim. Kelishilgan shartlar audit bo'yicha xat-kelishuv yoki har qanday boshqa tegishli shaklda rasmiylashtirilishi lozim.

Audit bo'yicha dastlabki kelishuvlarda auditor quyidagilar yuzasidan etarli bo'lgan tegishli auditorlik dalillarni olishi lozim:

- boshlang'ich qoldiqlarda joriy davrning moliyaviy hisobotiga muhim ta'sir ko'rsatdigan noto'g'riliklar mavjud emas;
- oldingi davrning yakuniy qoldiqlari joriy davrga to'g'ri o'tkazilgan yoki lozim bo'lganda tuzatilgan;
- tegishli hisob siyosati izchillik bilan qo'llaniladi yoki hisob siyosatidagi o'zgarishlar tegishli ravishda hisobga olingan va mos yoritilgan.

“Boshlang'ich qoldiqlar” - bu davr boshiga mavjud bo'lgan schetlar bo'yicha qoldiqlar. Boshlang'ich qoldiqlar oldingi davrning yakuniy qoldiqlariga asoslanadi va quyidagilar ta'sirini aks etadi:

- oldingi davr operatsiyalari;
- oldingi davrda qo'llanilgan hisob siyosati.

Audit bo'yicha dastlabki kelishuvda auditor bunday boshlang'ich qoldiqlarni tasdiqlovchi avval olingan auditorlik dalillarga ega bo'lmaydi.

Boshlang'ich qoldiq yuzasidan auditor olishi lozim bo'lgan auditorlik dalillarning etarliligi va tegishliligi quyidagilarga bog'liq:

- sub'ekt rioya qilayotgan hisob siyosatiga;
- oldingi davrda moliyaviy hisobot yuzasidan audit o'tkazilganligiga;
- joriy davrning schetlar tavsifi va moliyaviy hisobot noto'g'ri aks etilishining tavakkalchiligidagi;
- joriy davr moliyaviy hisoboti bo'yicha boshlang'ich qoldiqlarning muhimligiga.

Auditor boshlang'ich qoldiqlar hisob siyosati qo'llanishini aks etishligi va ushbu siyosat joriy yilning moliyaviy hisobotiga nisbatan to'g'ri qo'llanishini ko'rib chiqishi lozim. Hisob siyosatida va uni qo'llashda qandaydir o'zgarishlar sodir etilgan taqdirda, auditor ular tegishli ravishda va lozim bo'lganda hisobga olinganligi va mos yoritilganligini ko'rib chiqishi lozim.

Oldingi davrning moliyaviy hisoboti boshqa auditor tomonidan o'tkazilgan taqdirda, amalda harakat qilayotgan auditor oldingi auditorning ishchi hujjatlarini sharplash yo'li bilan schetlarning boshlang'ich qoldig'i yuzasidan etarli bo'lgan tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday vaziyatlarda amalda harakatda bo'lgan auditor, shuningdek, oldingi auditorning kasbiy xabardorligi va mustaqilligini ko'rib

chiqishi lozim. Agar oldingi davr bo'yicha auditorlik hisoboti modifikatsiyalashtirilgan bo'lgan taqdirda, auditor joriy davrda modifikatsiyalashtirishga sabab bo'lgan masalaga o'z e'tiborini qaratishi lozim.

#### **5.Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar hisobining auditı.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad va xarajatlar tarkibani va mazmunan jihatdan ham o'zgardi. Chunki, daromadlarning yangi turlari, xarajatlarning mohiyatan yangi bo'lgan sarflari paydo bo'lди. Shu sababli, daromad va xarajatlar tarkibini aniqlashdan oldin, ushu terminlarning mohiyatini tushunib olish lozim. Ushbu masalada turli iqtisodchi-olimlar fikr bildirganlar va shuni ta'kidlash lozimki, korxona daromadi va xarajati iqtisodiy nazariyachilar va buxgalterlar tushunchasida farq qildi. Masalan, ushu masalada chet ellik iqtisodchilar Robert Pindayk va Daniel Rubinfeld shunday fikr yuritadilar:

«Iqtisodchilar ishlab chiqarish xarajatlariga firmaning moliyaviy balansiga qiziqadigan buxgalterga (hisobchi) o'xshab qaramaydi. Buxgalterlar firma moliyasini retrospektiv tushunishga moyil bo'ladilar, chunki, ular aktiv (kirim) bilan passiv (chiqimni) nazorat qilishlari va o'tmishdagi firma faoliyatini samaradorligini baholashlariga to'g'ri keladi.

Haqiqiy xarajatlarga amaldagi sarflar va kapital asbob-uskunalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari kiradi, ularning miqdori amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq aniqlanadi.

Biron-bir tovari ishlab chiqarish uchun ketgan jami xarajatlar ikki komponentdan tashkil topadi: doimiy, ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish hajmidan qat'iy nazar, firma qilgan xarajatlar va o'zgaruvchan, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgaradigan xarajatlar»<sup>8</sup>.

Ushbu ta'rifga ko'ra, xarajatlar ikki komponentdan tashkil topib, asosan xarajatlarni bunday guruhanishi boshqaruvin hisobining xarajatlarni hisobga olish tartibiga mos keladi. Lekin buxgalteriya hisobida xarajatlar yuritilishida soliqqa tortiladigan xarajatlar bilan haqiqiy xarajatlar farqlanadi. O'zbekistonda ushu masala professor M.Umarova tomonidan talqin etilgan bo'lib, unda quyidagicha ta'rif berilgan.

«Korxona xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari, olingen foyda summasi va rentabellik darajasi bilan ifodalanadi. Shuning uchun, moliyaviy natijalarning buxgalteriya hisobi va tahlili usullari ko'p jihatdan foyda (zarar) va rentabellikka hamda ularni aniqlashning amaldagi qonun-qoidalariga bog'liq»<sup>9</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, korxonada qilingan xarajatlar ko'proq schyotlar rejasiga va tannarx aniqlash uslubiyoti asosida aniqlanib, moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir etish doirasini hisoblash zarurligi asoslandi. Chunki, olingen daromaddan korxona xarajatlari ta'siri hisoblanib, ayirib tashlansa, sof daromadining o'zgarishi kelib chiqadi. Natijada, xo'jalik sub'ekti xarajatlari foydalilik darajasining o'zgarishiga ta'sir qildi. Bundan tashqari, xarajatlar buxgalteriya hisobida ayrim faoliyat turlari bo'yicha hisoblanadi.

Bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish jarayonida moliyaviy natijalarning roli va ahamiyati ortib boradi. Moliyaviy natijalarning o'mnini to'g'ri belgilash muhim va dolzorb masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan xo'jalik sub'ektlari moliyaviy natijalariga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagicha guruhlash lozim deb o'yaymiz:

Ushbu jarayonlarda xo'jalik sub'ektlari ishlab chiqarish faoliyatini natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish zaruriyati vujudga keladi. Bozor sharoitida korxonalar faoliyatining bosh ko'rsatkichi foyda va daromadlilik ko'rsatkichi hisoblanib, bunday

<sup>8</sup> Robert Pindayk, Daniels Rubinfeld. Mikroiktisod. T.: SHark. 2002., 168 b.

<sup>9</sup> M. Umarova va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. T.: Mehnat, 1999., 190 b.

holatda daromadlilik ko'rsatkichlari mezonlarini ishlab chiqish lozim;

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish va boshqa moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha xarajatlarini optimal darajada belgilash hamda amalga oshirish;

Bozor sharoitida korxonalarни davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini qisqarishi kuzatiladi. Bu esa, tabiiy ravishda korxonalar moliyaviy holatining ahamiyatini ortib borishiga olib keladi. Natijada moliyaviy natijalarini audit qilishni uslubiyotini ishlab chiqish va uni amalga oshirish zaruriyati kelib chiqadi;

Bozor munosabatlari sharoitida korxona va tashkilotlar iste'moli asosan kredit mablag'lari bilan ta'minlanishi mumkin. Kreditni olish, uni uzish (to'lash) kafolati, o'z vaqtida uni qaytarish, foydalanganlik uchun foizlarni to'lash bilan bog'liq. Ko'rinish turibdiki, korxonalarning moliyaviy holatining ijobiy bo'lishi ularni kredit olish imkoniyatini beradi. Bu esa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy natijalarini to'g'ri aniqlashning o'rni oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Moliyaviy natijalar bo'yicha audit tekshiruvlari olib borilganda yoki adabiyotlarda yoritilganda ko'proq moliyaviy hisobotning 2-shakliga e'tibor berilib, bunda moliyaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bosh kitob, balans ma'lumotlari bilan solishtirish, ularni o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishini aniqlash, ularni hisobini olib borish, buxgalteriya provodkalarini to'g'ri berilganligini aniqlash yoki ba'zan ularni moliyaviy tahlil qilish bilangina cheklanilib qolinadi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy natijalar audit moliyaviy hisobot auditida muhim o'rinni egallaydi. Chunki, moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi korxona faoliyati va uning moliyaviy natijalari to'g'risida haqqoniy ma'lumot taqdim etish hisoblanadi. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, moliyaviy natijalar shakllanishida uning tarkibiy qismlari bo'lgan daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai-nazaridan chuqur tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Shu sababli moliyaviy natijalar audit jarayonlarida xo'jalik faoliyatining daromadlari va xarajatlari bo'yicha alohida audit muoljalari olib borilib, quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi.

Moliyaviy natijalarini auditini amalga oshirishda auditorlik tekshiruvi bo'yicha ishchi standartlarni 3 guruhga bo'lish mumkin.

### *1. Umumiyl ishchi standartlar:*

- korxona faoliyati foydasini moliyaviy tahlili, uning o'zgarishiga ta'sir etgan omillarni tahlili, daromadlarning va xarajatlarning ijobi (foydaning oshishi) yoki salbiy (foydaning kamayishi) o'zgarishi tahlili;
- ma'lum bir faoliyatning zarar bilan yakunlangan holatlarida buning sabablarini chuqur tahlil qilish;
- korxona boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorlarning, tuzilgan bitimlarning qaydarajada korxona manfaatlariga mos kelishi;
- hisobot davrida daromad turlariga mos holda xarajatlarning turlari bo'yicha miqdoriy va nisbiy o'zgarishi.

### *2. Korxona daromadlari bo'yicha olib boriladigan ishchi standartlar:*

- mazkur tushumlarning haqqoniyligi, hisobotlarda to'liq aks ettirilganligi, ularni bosh kitob va jurnal orderlardagi ma'lumotlarga mosligi;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda korxona tomonidan qo'llanilgan me'yoriy foya ustamalarining asosli qo'llanishi, baho mehanizmini bozor munosabatlariiga asoslangan holda tartibga solish, ularni respublikamizda amalda bo'lgan qonunchilikga mosligi;
- barcha muolajalar bo'yicha tegishli buxgalteriya provodkalarini to'g'ri berilishi;
- asosiy faoliyatiga bog'liq bo'limgan va ko'zda tutilmagan daromadlarning

qonuniyligi, ya'ni, bu kabi daromadlar olinishi natijasida korxonaga, aktsiyadorlarga, ta'sischilarga, davlat manfaatlariga, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar manfaatlariga zarar etkazilmaganligi;

- daromadlar tarkibi o'zgarishi, korxona tarkibiy tuzilmalari bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, mahsulot (ish, xizmat) sotish hajmining o'zgarishi tahlili, daromadlar o'zgarishiga ta'sir qilgan omillarni chuqur tahlil qilish;

*3. Korxona xarajatlari bo'yicha olib boriladigan ishchi standartlar:*

- xo'jalik sub'ekti moliyaviy xo'jalik faoliyatida xarajatlarning haqqoniyligi, hisobotlarda to'liq aks ettirilganligi, ularni bosh kitob va jurnal orderlari, hisob registrlari, birlamchi hujjatlardagi ma'lumotlarga mosligi;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda korxona tomonidan tannarxga olib borilgan xarajatlarning asosliligi, shu bilan birga boshqa davr xarajatlarining maqsadga muvofiqligi, ularni respublikamizda amalda bo'lgan qonunchilikga mosligi;

- barcha xarajatlar bo'yicha tegishli buxgalteriya provodkalarini to'g'ri berilishi;

- asosiy faoliyatiga bog'liq bo'lмаган va ko'zda tutilmagan zararlarning asosliligi, ya'ni, bu kabi zararlarning yuz berish sabablari, bunga yo'l qo'yib bergen ma'sul xodimlarning ishtirok etish darajasi (masalan, moliya, soliq va monopoliya qonunchiligi tekshiruvlari natijasida korxonaga qo'llanilgan moliyaviy jarimalar, turli muddati o'tgan debitorlik qarzlarini korxona zarariga olib borilib hisobdan chiqarilishi, manfaatsiz bitimlar tuzilishi natijasida korxona zarar etkazilganligi, ya'ni, korxona aktivlarini va moddiy boyliklarini, qimmatli qog'ozlarini bozor baholariga e'tibor qilmagan holda balans bahosidan arzon baholarga sotilishi, korxona ehtiyojlari uchun moddiy qimmatliklarni mavjud baholaridan ancha qimmat baholarda sotib olinishi va hakozo);

- xarajatlar tarkibi o'zgarishi, korxona tarkibiy tuzilmalari bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmiga mos holda xarajatlar (tannarx, davr xarajatlari-sotish xarajatlari, boshqa xarajatlar)niшиб o'zgarishi tahlili, xarajatlar o'zgarishiga ta'sir qilgan omillarni chuqur tahlil qilish.

Xo'jalik sub'ektlarida moliyaviy natijalarning shakllanishi O'zbekiston Respublikasida «Mahsulot (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi



#### **Moliyaviy natijalarining shakllanishi**

Moliyaviy natijalar auditi - bu moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy natijalarining, ya'ni, korxona foydasining haqqoniyligiga xulosa berish, korxona daromadlari va xarajatlarining to'g'riligin tasdiqlash bo'yicha tekshiruv operatsiyalarini olib borishdan iboratdir.

#### **Mavzu bo'yich nazorat savollari**

1. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish xarajatlari auditini qanday tashkil qilish mumkin?
2. Dehqonchilikda xarajatlarning to'g'ri guruhlanishini tekshirish tartibini tushintiring.
3. Chorvachilikda xarajatlarning to'g'ri guruhlanishini tekshirish tartibini tushintiring.
4. Qishloq xo'jaligida soliqlar va majburiy to'lovlar auditini o'tkazish tartibi qanday?
5. Qishloq xo'jaligida daromadlar, ularning mohiyati va to'g'ri turkumlanganligini tekshirish tartibi qanday?
6. Qishloq xo'jaligida mehnatga haq to'lashning vaqtbay va ishbay shaklidan foydalanishni tekshirish tartibini tushuntiring.
7. Asosiy podani shakllantirish tartibi qanday aniqlanadi?
8. Qishloq xo'jaligida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni to'g'riligini tekshirish usullarini aniqlang.

**6-MAVZU: “SAVDO-TIJORAT KORXONALARIDA ASOSIY FAOLIYAT  
AUDITINING XUSUSIYATLARI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA  
MATERIALLARI**

**REJA:**

- 1. Savdo-tijorat korxonalarida audit o’tkazishning maqsadi, vazifalari va ma’lumot manbalari.**
- 2. Savdo-tijorat korxonalarida audit o’tkazishning umumiyligi rejasi va ishchi dasturini tuzish xususiyatlari.**
- 3. Savdo-tijorat tarmog’i faoliyati auditining o’ziga xos xususiyatlari.**
- 4. Savdo-tijorat korxonalarida audit o’tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.**
- 5. Savdo korxonalarida tovar moddiy zaxiralar auditini xususiyatlari.**
- 6. Omborlarda, bazalar va buxgalteriyada tovarlarni hisobga olishning auditini.**
- 7. Chakana savdo korxonalarida kassa muomalalarini tekshirish xususiyatlari.**
- 8. Savdo-tijorat korxonalarida ijara munosabatlari va soliq hamda boshqa to’lovlar auditining xususiyatlari.**

**Mavzu bo’yich tayanch-so’z va iboralar:** Ulgurji savdo, chakana savdo bo’sh idishlar inventarizatsiyasi, do’kon, jurnal-order, joriy hisob, joriy hisobot, inventarizatsiya, inventarizatsiya qaydnomasi, iste’molchi, iste’mol tovarlari, moddiy javobgar shaxs, moddiy javobgar shaxs hisoboti, nazorat-kassa mashinasi, omborxonasi, ombor hisobi, ombor varaqalari, ombordagi tovar qoldig’i, ombor mudiri, pul, pul muomalasi, registrlar, reja, rekvizitlar, savdo, savdo tushumi, savdo aylanmasi, savdo shahobchasi, savdo tashkiloti, tovar-moddiy boyliklari, tovar-moddiy zaxirasi, tovar aylanmasi, tovarlar qoldig’ining me’yori, tranzit.

**1. Savdo-tijorat korxonalarida audit o’tkazishning maqsadi, vazifalari va ma’lumot manbalari.**

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha xo’jalik yurituvchi sub’ektlar erkin faoliyat ko’rsatishlari uchun keng sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berildi. Mulkchilikning turli shakllarini yuzaga kelishi va xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan sharoit natijasida savdo korxonalarida buxgalteri hisobini to’g’ri yo’lga qo’yish, tahlil ishlarini amalga oshirish va auditorlik tekshiruvini tashkil etish davr talabi bo’lib bormoqda.

Savdo korxonalari Respublikamiz iqtisodiyotida muhim o’rin tutadi. Savdo korxonalari yuridik shaxs hisoblanib, o’zining mustaqil balansiga, tijorat banklarida hisobraqamiga egadir. Bugungi kunga kelib savdo korxonalari ham boshqa korxona va tashkilotlar singari o’z logatiplari hamda internetda veb-saytiga ega bo’lmoqdalar.

Foyda olish maqsadida savdo korxonalari bozordagi talabni to’liq o’rganib ishlab chiqaruvchi korxonalardan tovarlarni sotib oladilar va iste’molchilarga sotadilar. Savdo korxonalari bunday faoliyatni amalga oshirish jarayonida, ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan iste’molchilar o’rtasida vositachilik vazifasini bajaradilar.

Savdo korxonalari o’z faoliyatini amalga oshirish maqsadida ishlab chiqaruvchi korxonalarning bir ma’romda faoliyat olib borishi va ularning zahirasida yig’ilayotgan mahsulotlarni o’z vaqtida sotilishi uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari bozordagi iste’molchilarning talablarini o’z vaqtida qonidirilishiga imkon beradi.

Savdo-tijorat korxonalarida audit o'tkazishning maqsadi – maxsus malakaga ega bo'lgan mutaxassislar, ya'ni auditorlar tomonidan xo'jalik faoliyatini hamada moliyaviy hisobot shakllarini o'rganib, tahlil qilib, ularni O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonun va me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi xaqida holisona yondashgan xolda baho berishdir.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan xolda savdo-tijorat korxonalarida auditning vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxona moliyaviy axvolini tekshirish, ishlab chiqarish faoliyatini taxlil qilish, mablag'lardan to'g'ri foydalanishni tekshirish va amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini aniqlash;

- oldindan maqsad qilingan ko'rsatkichlarning to'g'ri bajarilishini, mexnat unumdoorligini va pul mablag'larining to'g'ri sarf qilinishini xujjatlar bilan rasmiylashtirishni tekshirish;

- korxona mulkining to'liqligini ta'minlashda korxona raxbarlari tomonidan chora va tadbirlarning bajarilishini tekshirish;

- hisob ishlarini to'g'ri tashkil qilish, hisob registridagi yozuvlarning to'g'riliqini va uning xujjatlar bilan rasmiylashtirilganligining to'g'riliqini tekshirish va x.k.

Savdo-tijorat korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini sifatl o'tkazish va uning ob'ektiv bo'lishini ta'minlashda auditorga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- o audit o'tkazilayotgan sub'ektda xo'jalik faoliyati yuzasidan yuqori tashkilot tomonidan chiqarilgan buyruq va qarorlarni o'zlashtirib olishi, amalda qo'llaniladigan audit ishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan Qonunlar; Nizomlar va qarorlarni yaxshi bilishi va ularning bajarilishini nazorat qilish;

- o korxona mulkini to'liq saqlashni ta'minlashda moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyatini tekshirish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish buyicha tegishli choralarini ishlab chikish;

- o ish yuzasidan tegishli jamoat tashkilotlari bilan aloqada bo'lish, audit tekshiruviga taallukli bo'lgan shaxslarni qabul qilish va ular bilan suhbatlashish;

- o audit o'tkazilayotgan korxonaning hamma hujjatlari va boshqa materiallarini to'liq tekshirib, natijalarining aniq va xaqiqiy holatini hisobotda aks ettirish;

- o audit o'tkazishda qonunga xilof ishlar aniqlansa, audit qilinayotgan korxonaning bosh buxgalteri va raxbariga xabar berish va ulardan yozma ravishda tushuntirish xati olish;

- o audit o'tkazishda davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan qonun hujjatlari va barcha me'yoriy xujjatlarga amal qilish;

- o audit ishlarini to'g'ri olib borish, tekshirish natijalarini aniq ko'rsatishda auditor zz xuquqidan to'g'ri foydalana bilishi zarur.

Auditor har qanday sub'ektda auditorlik tekshiruvida dalillar to'plar ekan, ushbu dalillar qaysi manba hisobiga shakllanishini oldindan bilishi zarur. Savdo-tijorat korxonalarida auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditor quyidagilardan ma'lumot manba sifatida foydalaniши mumkin:

- korxonaning ustavi, ta'sis shartnomalari;
- xisob siyosati;
- to'liq moddiy javobgarlik mexnat shartnomalari;
- moliyaviy hisobot shakllari;
- tovar etkazib berish yoki sotib olish bo'yicha tuzilgan shartnomalar;
- schet-fakturalar;
- tovar-transport yuk xatlari;
- sifat guvohnomalari;

- moddiy-javobgar shaxslar hisobotlari;
- moddiy-javobgar shaxslarning joriy xisob qaydnoomalar(kitob va kartochkalari)
- tegishli sintetik va analitik xisob qaydnomalari va x.k.

Savdo korxonalarining ta'sis hujjatlari ya'mi ustavi va ta'sis shartnomasi bilan tanishish auditorga bo'lg'usi mijozining yuridik maqomi, faoliyat turi, predmeti va ta'sischilari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Bunda auditor korxonaning asosiy ustav faoliyati, ustavning qachon va qaysi davlat organida ro'yxatga olinganligi hamda notarial idora tomonidan tasdiqlanganligiga e'tibor berishi kerak. Shuningdek, ta'sis shartnomasiga muvofiq ta'sischilari kimlar, ularning yuridik maqomi, ustav kapitalidagi ishtiroki (ulushi), moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha huquq va majburiyatlari bilan tanishadi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot hujjatlari bilan tanishish auditor uchun korxonada buxgalteriya hisobining qaysi shakli (memorial-order, jurnal-order, jadval-avtomatlashtirilgan va boshqalar) qo'llanilishi, buxgalteriya apparatining hajmi va tuzilishi, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishning qay darajada me'yoriy ta'minlanganligi, umumiy moliyaviy ahvol va boshqalar to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

## **2. Savdo-tijorat korxonalarida audit o'tkazishning umumiyligi rejasi va ishchi dasturini tuzish xususiyatlari.**

Auditor o'z ish faoliyatini boshlar ekan birinchi navbatda savdo-tijorat korxonalarini faoliyatini, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi mavjud qonunlar, nizomlar, yo'riqnomalari va boshqa me'yoriy hujjatlar to'plami bilan tanishib borishi lozim. Chunki mamlakatimiz rivojalanayotgan davlatlardan biri bo'lganligi sababli, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi natijasidi qonunchiligidan sezilarli ijobjiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Xususan, respublikamizda savdo korxonalarining faoliyati va undagi buxgalteriya hisobi quyidagi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda:

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (25.05.2000);
2. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni - Toshkent 1996 y. 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4725-son farmoni (25.05.2015);
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirdorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4455-son farmoni (18.07.2012);
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-son farmoni (24.08.2011);
6. "Iste'mol tovarlari ulgurji savdosi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 52-son qarori (27.03.2006);
7. "Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasining 242-son qarori (5.11.2005);
8. "Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'limgan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish

tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasining 413-sun qarori (2.09.2004);

9. "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 75-sun qarori (13.02.2003).

10. "Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 407-sun qarori (26.11.2002);

11. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» 1998-2015 yillar

Yuqorida sanab o'tilgan me'yoriy hujjatlar asosida bir qator nizom va qoidalar xususan, "Ulgurji savdo korxonalarini tomonidan yagona soliq to'lovini bo'nak to'lovlarini hisobga olgan holda to'lash tartibi to'g'risida"gi, "Ulgurji savdo korxonalarini uyushmasiga kiruvchi hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalarni ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ular tomonidan ulgurji savdoni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi, "Ulgurji va chakana savdo faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi, "Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi, "Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lмаган yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomlar, "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo", "O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish" qoidalari ishlab chiqilgan.

Auditor savdo korxonalarini tekshirishni boshlashdan oldin ularning o'ziga xos xususiyatlar xaqida bilimga ega bo'lishi shart. Savdo korxonalarining faoliyati iste'molchilarga tovarlarni sotish hajmiga qarab ulgurji savdo faoliyatini yoki chakana savdo faoliyatini amalga oshiradilar.

Ulgurji savdo — tijorat maqsadlarida yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanish uchun hisob-kitoblarning naqdsiz shaklida xarid qilinadigan tovarlarni sotishdir.

Chakana savdo — savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lмаган miqdordorda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirishdir.

Chakana savdoning savdo ob'ektlariga quyidagilar tegishlidir: bozor, gipermarket, supermarket, savdo markazi, savdo kompleksi, universam, univermag, minimarket, oziq-ovqatlar do'konni, ixtisoslashtirilgan do'konlar, palatkalar, lotoklar, avtodo'konlar, pavilonlar, kioskalar, laryoklar.

Savdo ob'ektlari turg'un va ko'chma ob'ektlarga bo'linadi:

- turg'un savdo shoxobchalari — davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan belgilangan joylarda doimiy asosda joylashgan savdo ob'ektlari (do'konlar, kioskalar, laryoklar, pavilonlar, dorixonalar, optika, avtomobil yonilg'isi quyish shoxobchalari);
- ko'chma savdo ob'ektlari — vaqtincha joylashgan va mavsumiy yoki maqsadli xususiyatga ega bo'lган, shuningdek ish kuni tamom bo'lgandan keyin yig'ishtirib olishni va ob'ekt ko'chirilishini talab etish asosida joylashtirilgan savdo ob'ektlari (lotoklar, peshtaxtalar, palatkalar, avtodo'konlar va hokazolar);
- savdo zali — tovarlarning ommaviy ofertasiga va/yoki tovarlarning chakana oldi-sotdi shartnomalarini amalga oshirishga mo'ljallangan savdo ob'ekti maydoni;
- sotuvchi — savdo faoliyatini amalga oshiruvchi va oldi-sotdi shartnomasining bir tomoni sifatida ish ko'ruchchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor (jismoniy shaxs);

- sotuvchi-xodim — sotuvchi nomidan ish ko'ruchchi va tovanni bevosita sotuvchi yoki iste'molchilarga xizmat ko'rsatuvchi shaxs;
- tarmoqli marketing — tarmoqli korxona tomonidan tovarlarni mustaqil tarqatadigan sotuvchi agentlar tashkil etilishiga asoslangan tovarlarni chakana sotish turi;
- tarmoqli tashkilot — O'zbekiston Respublikasi hududida mustaqil ravishda yoxud tarmoqli marketing yo'li bilan sotuvchi agentlar orqali savdoni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi;
- sotuvchi agent — turg'un savdo shoxobchalar orqali tovarlarni bevosita sotuvchi, shuningdek uya buyurtma olish vositasida, muassasalar, tashkilotlar, korxonalarda, transport yoki ko'chada potentsial xaridorlar bilan ishlaydigan, daromadi faqat sotuv hajmiga bog'liq bo'lgan jismoniy shaxs — yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkor.

Ulgurji savdo bilan yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, faqat ular tegishli litsenziya olgan taqdirda, shug'ullanishlari mumkin. Quyidagilar ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirishning litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirishni tartibga soluvchi qonun hujjatlariga rioya qilish;
- eng kam oylik ish haqining kamida 3500 baravari miqdorida, ulardan eng kam oylik ish haqining kamida 1200 baravari miqdorida pul mablag'lari bilan shakllantirilgan ustav fondining mavjud bo'lishi;
- majburiy tartibda sertifikatlanishi kerak bo'lgan tovarlar sotilgan taqdirda muvofiqlik sertifikatlari yoki mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda sertifikatlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar yoxud ularning nusxalari mavjud bo'lishi.

Savdo korxonalari o'z faoliyati davomida ishlab chiqaruvchi korxonalardan sotib olgan tovarlar qiymatining ustiga savdo ustamasini qo'shib yoki tovarlarni sotib olgan qiymatda iste'molchilarga sotadilar. Savdo korxonalari tovarlarni har ikkala qiymatda sotish natijasida ham foyda ko'radir. Savdo korxonalari sotib olingan qiymatda sotilgan tovarlarning qiymati tarkibidagi savdo chegirmasi mavjud bo'lib, savda korxonalari savdo chegirmasi yoki savdo ustamasi hisobiga yalpi foyda oladilar.

Savdo ustamasi – bu savdo korxonalarida ishlab chiqaruvchi korxonalardan sotib olgan tovarlar qiymatiga, hisob siyosatida belgilangan foizda ustama sifatida qo'yilishi lozim bo'lgan qiymatdir. Savdo korxonalari ishlab chiqaruvchi korxonalardan sotib olgan tovarlarning qiymatiga savdo ustamasini qo'shgan holda iste'molchilarga sotadilar va tovarlar sotilganda qo'yilgan savdo ustamasi miqdorida yalpi foyda oladilar.

Savdo chegirmasi – bu savdo korxonalarida ishlab chiqaruvchi korxonalardan sotib olgan tovarlar qiymatidan ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan belgilangan foizdagi chegirma qiymatidir. Savdo korxonalarida tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalaridan sotib olingan qiymati bo'yicha iste'molchilarga sotadilar va ishlab chiqaruvchi korxonalar sotib olingan tovarlar uchun savdo chegirmasini chegirib qolib to'lovni amalga oshiradilar. Chegirib qolning savdo chegirmasi ham savdo korxonasining yalpi foydasi bo'lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kabi savdo korxonalarining ham maqsadi foyda olish bo'lib hisoblanadi. Savdo korxonalarida asosiy iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib tovar aylanishi hisoblanadi. Savdo korxonalarida tovarlar aylanishi qanchalik ko'p bo'lsa, savdo korxonasi shunchalik ko'p daromad oladi va foyda ko'radi.

Savdo korxonalari o'z faoliyati davaomida olgan foydasi hisobidan soliqlar va boshqa to'lovlarni amalga oshirib qilingan xarajatlarni qoplaydilar. Savdo korxonalari savdo

madaniyatini oshirish, kelgusida o'z faoliyatini kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun sof foydani taqsimlaydilar.

Auditor savdo korxonalar faoliyatini o'rganar ekan, birinchi navbatda korxonanining ichki nazorat tizimiga baho beradi. Ichki nazorat tizimini baholash "Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash" nomli 12-sonli auditorlik faoliyatining milliy standartiga asosan amalga oshiriladi. Ushbu AFMSga asosan ichki nazorat tizimi - xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va samarali yuritish, aktivlar va hisob hujjatlarining saqlanishini ta'minlash, xato va firibgarlik holatlarini oldini olish va aniqlash, buxgalteriya yozuvlarining aniq va to'liqligi va o'z vaqtida ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan tashkiliy tadbirlar, usullar va amallar (ichki nazorat vositalari) yig'indisidir deb ta'rif berilgan. Auditor savdo korxonalarida ichki nazoratni baholashda anketa savolnomasi tuzish orqali amalga oshiradi. Ushbu savolnomaga tovarlar hisobini yuritish uchun mas'ul qilingan moddiy javobgar shaxslarga taqdim qilinadi.

#### **Ichki nazorat tizimini baholash bo'yicha savolnoma**

Nº	Yo'nalishlar bo'yicha nazorat savollari	Javob	Izoh
<b>Mavjudligi va saqlanishi bo'yicha</b>			
1.	-Ombor binolariga begona shaxslarning kirishi ta'qilanganmi? -qo'riqchi mavjudmi? -yong'inga qarish moslamalar bilan jihozlanganmi? -Tovarlarning kirimi va chiqimi nazorat qilinadimi?		
2.	Tovarlar inventarizatsiyasi o'tkaziladi? (rejali, tasodifiy).		
3.	Inventarizatsiya natijalari hujjatlashtiriladimi?		
4.	Inventarizatsiya natijasi bo'yicha moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobot tuziladimi?		
5.	Doimiy faoliyat yurituvchi inventarizatsiya komissiyasi mavjudmi?		
6.	O'g'irliliklar, talon-tarojlik sodir etgan shaxslar va moddiy javobgar shaxslar javobgarlikka tortiladimi?		
7.	Omborda tovarlarning miqdori va navi bo'yicha analistik hisob yuritiladimi?		
8.	Omchor mudiri va omchorchilar bilan moddiy javobgarlik tusidagi shartnomalar tuziladimi?		
9.	Tovarlarni saqlash, kirimi va chiqimiga javobgar shaxslarni xuquq, majburiyatlarini chegaralovchi lavozim yo'rqnomalari ishlab chiqilganmi?		
<b>Tovarlar xarakati, birlamchi hisob</b>			
1.	Xar bir operatsiyaga kirim va chiqim hujjatlari tuziladimi?		
2.	Hujjatlardagi barcha rekvizitlar to'liq to'ldiriladimi?		
3.	Hujjatlar operatsiya sodir bo'lgan vaqtida tuziladimi?		
4.	To'ldirilgan hujjatlar, moddiy javobgar shaxslar imzolarining namunalari mavjudmi?		
5.	Birlamchi hujjatlar tartib raqamlari amalga oshiriladimi?		
6.	Registratsiya jurnallarida hujjatlar(schet-faktura, ishonchnoma) aks ettiriladimi?		

7.	Kirim qilingan tovarlarning to'liqligi tekshiriladimi?		
Birlamchi hisob ma'lumotlarini umumlashtirish			
1.	Birlamchi hujjatlar moddiy javobgar shaxsning hisobotiga ilova qilinadimi?		
2.	Hisobot ma'lumotlari birlmchi hujjat ma'lumotlari bilan taqqoslanadimi?		
3.	Hisobotdagi arifmetik hisob-kitoblar to'g'riliqi tekshiriladimi?		
4.	Tovarlar hisobi avtomatlashtirilganmi?		
5.	Hisob siyosatida tovarlarni hisobga olishning usullari keltirilganmi?		
6.	Qaydnomalardagi, Jurnal-orderlardagi, Bosh-kitobdagi ma'ulmatlar doimiy taqqoslanadimi?		

Savdo-tijorat korxonalarida ichki nazort tizimini samarali tashkil etilishini afzalligi shundan iborat:

Birinchidan, korxona xodimlarining o'zaro aloqasini baholashga imkon yaratadi;

Ikkinchidan, mavjud qonun xujjalatlarga, ichki hujjatlarga amal qilish samarasini aniqlash;

Uchinchidan, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish tartibi va takomillashtirish masalalarini aniqlash;

To'rtinchidan, har yili majburiy o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvi harajatlarini kamaytirishga imkon yaratadi.

Auditor o'z ishini shunday rejalshtirishi lozimki, moliyaviy hisobotlarni, moliya xo'jalik muomalalarining ishonchlilagini va qonuniyligini, hamda ular buxgalteriya hisobi schetlarida aks ettirilishining to'g'riliqini o'z vaqtida va sifatli auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

#### **AUDITNING UMUMIY REJASI**

**Tekshirilayotgan tashkilot**

**«DUNYO» MCHJ**

**Audit davri**

**10.03.17 - 25.03.17**

**Kishi-soatlar soni**

**749**

**Auditorlik guruhi rahbari**

**Akbarov S.I.**

**Auditorlik guruhi tarkibi**

**Pulatov G.R., Mavlonov V.T., Salimov D.G.**

**Rejalshtirilayotgan auditorlik xatari**

**0.0166**

**Rejalshtirilayotgan jiddiylik darajasi**

**21.800 so'm**

	Rejalshtirilayotgan ish turlari	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Izoxlар
1.	Savdo korxonasini ta'sis hujjatlarini tekshirish.	10.03.17	Vasikov P.N.	
2.	Hisob siyosatini mavjudligi, to'g'riliqini tekshirish	11.03.17	Vasikov P.N.	
3.	Asosiy vositalarning mavjudligi va saqlanishini tekshirish	12.03.17	Vasikov P.N.	
4.	Ombordagi tovarlar hisobini to'g'riliqini tekshirish	13.03.17	Pulatov G.R.	
5.	Savdo korxonalarida boshqa aktivlari auditি	13.03.17	Vasikov P.N.	

6.	Hisoblashishlar va kredit operatsiyalarini tekshirish	14.03.17	Pulatov G.R.	
7.	Ulgurji savdo faoliyatini hamada tovar muomalalari xarajatlarini to'g'rilingini tekshirish	15.03.17	Pulatov G.R.	
8.	Chakakna savdo faoliyatini hamada tovar muomalalari xarajatlarini to'g'rilingini tekshirish	16.03.17	Mavlonov V.T	
9.	Davr xarajatlari auditi	17.03.17	Akbarov S.I.	
11	Savdo korxonalarini soliqqa tortish tartibi tekshirish	18.03.17	Akbarov S.I.	
12	Foydani shakllantirilishi va ishlatalishini tekshirish	19.03.17	Pulatov G.R.	
13	Auditning yakuniy muolajalarini bajarish	20.03.2017- 23.03.17	Pulatov G.R.	
14	Auditor hisoboti va auditlik xulosa	24.03.17	Akbarov S.I.	
15	Auditning sifatning ichki nazorati	24.03.17	Akbarov S.I.	
16	Byurtmachi bilan audit natijalarini xaqida muloqat	25.03.17	Akbarov S.I.	

Auditorlik tashkilotining rahbari  
Auditorlik guruhining rahbari

Sadriev I.  
Akbarov S.I.

### **3. Savdo-tijorat tarmog'i faoliyati auditining o'ziga xos xususiyatlari.**

Savdo-tijorot korxonalarida tovarlarni omborda va buxgalteriyada hisobga olishni tekshirish auditorlik tekshiruvining muhim bosqichlaridan biridir.

Buxgalteriya hisobining ma'lumotlari asosida ombordagi tovarlar xaqida to'liq ma'lumotni shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun auditor tovarlar saqlanayotgan – omborlar, sexlar va boshqa tovarlar saqlanishi mumkin bo'lgan joylarni kompleks o'rGANISHI lozim.

Auditor omborni ko'zdan kechirish orqali tovarlarni saqlanishining tashkil etilishini (sanitariya normalari, saqlash xonalaridagi xavoning namlik darajasi, texnika xavfsizligi qoidalari va boshqa talablarga muvofiqligi); yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalari rioya etilayotganligini holati (javobgar shaxslarning belgilanganligi, kerali inventarlar bilan jihozlanganligi), omborlarni kerakli texnik jihozlar bilan ta'minlanganligi va ulardan to'g'ri foydalanilayotganligini aniqlaydi.

Tovarlarni iste'molchilarga o'z vaqtida sifatli etkazib berishda navlarning to'liqligini ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Savdo korxonalaridagi mayjud tovar-moddiy boyliklar ma'lum moddiy javobgar shaxslar zimmasida bo'lib, bu boyliklarning son va sifat jihatidan to'liq bo'lishida javobgar hisoblanadilar. Moddiy javobgarlikning asosiy ikki usuli, ya'ni yakka va brigada usulidagi turlari mayjud.

Ulgurji savdo korxonalarida moddiy javobgarlikning brigada usulidan foydalaniladi. Bu tovarlarni saqlanishi va ular bilan bog'liq operatsiyalarda savdo korxonasining bir qancha xodimlari, ya'ni omborda tovarlarni saqlashda, yuklash va tushirishda, sralashda, qadoqlashda ishtirok etadi.

Auditor moddiy javobgar shaxslarning material hisobotini buxglateriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslab ombor hisobi to'g'ri tashkil etilganligiga e'tibor qaratadi. Bu holatda auditor korxona hisob siyosatida hisobot shakllari va ularni taqdim etish muddatlariga muvofiq ekanligini o'rganadi.

Moddiy javobgarlikning har ikkala turida ham tovarlar to'liqligini ta'minlashda xodimlarni to'g'ri tanlash, ularning malakasiga, ish stajiga e'tibor berish alohida ahamiyatga ega.

Tovar-moddiy qiymatliklarni hamda pul mablag'larining to'liqligini ta'minlash uchun belgilangan chora-tadbirlarni audit qilish savdo korxonalarida asosan quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi. Auditor savdo xodimlarining moddiy javobgarlik ishlariga o'tkazilish tartibini, moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyati ustidan yuqori tashkilot rahbarlarining nazorat qilib borishini joylardagi vakillarning savdo korxonalari ish faoliyatini yaxshilashga ko'rsatayotgan ta'sirini aniqlaydi.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida moddiy javobgar shaxslarning ishga qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar va ularning to'liqligi, sotuvchilarining ishga qabul qilinganligini ko'rsatuvchi shaxsiy hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi va moddiy javobgar shaxslar bilan tuzilgan moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar, hisob ro'yxatlaridagi yozuvlar, inventarizatsiya natijalari, tekshirish dalolatnomalari asosiy manba hisoblanadi.

Korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va hisoboti holati audit qilinganda hisob ishlarining to'g'ri tashkil qilinishi, xo'jalik ichidagi nazorat ishlarining qanday yo'lga qo'yilganligi, hisob sohasida ishlovchi xodimlarning malakasi, xo'jalik mablag'lari harakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni to'g'ri hujjatlashtirish va hujjat muomalasi, hisobtarning belgilangan muddatlarda to'g'ri tuzilishi tekshiriladi.

Sintetik va analitik schyotlardagi yozuvlar, oylik, uch oylik, yillik hisobotlar, oldingi o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi materiallari tekshirish manbalari hisoblanadi.

Savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklar to'liqligini ta'minlash savdoda xodimlarni to'g'ri tanlash va ularni o'z joylariga to'g'ri ishga qo'yishga bog'liq. Savdo korxonalarida moddiy javobgarlik lavozimiga savdo mutaxassisligi bo'yicha tegishli ma'lumotga ega bo'lgan, sudlanmagan xodimlar qabul qilinadi.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida savdo korxonaida ishlab turgan xodimlarning tegishli mutaxassislik bilimiga ega ekanligi alohida tekshirilib, auditorlik hisobotida xodimlarning soni va ma'lumoti alohida ko'rsatiladi.

Agar tekshirish natijasida audit o'tkazilayotgan korxonada moddiy javobgarlik ishlariga ilgari sudlangan shaxslar qabul qilinganligi aniqlansa, bunday shaxslarni ishga olishga ruxsat bergen rahbarlar aniqlanadi va bu nuqsonlar auditorlik hisobotida ko'rsatiladi. Auditor bunday hollarda asosan xodimlarni hisobga olish to'g'risidagi varaqalarini, mehnat daftarchalarini va ishga qabul qilish to'g'risida korxona xodimlar bo'limining xulosalarini tekshiradi.

Agar tekshirish natijasida moddiy javobgarlik ishlariga qabul qilingan xodimlar hujjatlarining to'g'riliqi haqida auditorda shubha tug'ilsa, shu xodimlarning oldingi ishlagan joylaridan tegishli ma'lumotlar olinishi kerak.

Auditor avval o'tkazilgan inventarizatsiya natijalari, taklif va shikoyatlar daftari, korxona rahbarlarining xulosalarini bilan tanishib chiqishi auditorlik tekshiruvining sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Audit o'tkazishda korxonada qo'llanilayotgan moddiy javobgarlik tartibi va ularning to'g'ri rasmiylashtirilganligi aniqlanadi.

Audit o'tkazishda brigada a'zolari bilan tuzilgan moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalarning qonuniga va brigada a'zolari tomonidan imzolanganligi, ularning me'yori ishlashi uchun yaratilgan sharoitlar tekshiriladi. Savdo korxonalarida tovar-moddiy qiymatliklarni hamda pul mablag'larining to'liqligini ta'minlashda tashkilotda mafkura va tarbiya ishlarining yaxshi yo'lga qo'yilishi tashkilot rahbarlaridan talab qilinadi.

Umuman, hozirgi vaqtida moddiy javobgarlikning uch turi qo'llanilmoqda: a) chegaralangan; b) to'liq; v) yuqori.

Bu turlardan asosan savdo korxonalarida to'liq moddiy javobgarlik qo'llaniladi. Biz yuqorida tashkilot bilan xodimlar o'rtasida moddiy javobgarlik shartlari tuzilgan shartnomalarning qonuniylashtirilishini ko'rib chiqdik, lekin ayrim savdo xodimlari bilan moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalarning tuzilmasligi hech qanday moddiy javobgarlikka tortish mumkin emas ekan-da, degan gap emas, albatta. Ular ham quyidagi hollarda moddiy javobgarlikka tortiladilar:

- tovar va pul muomalalarini amalga oshirish uchun berilgan farmoyishlarni qonunsiz va xato deb aniqlanganda;

- tovar-moddiy qiymatliklarni o'z vaqtida qabul qilib olish, saqlash va tashib kelishni ta'minlamaganda, o'z vaqtida kerakli chora va tadbirlarni amalga oshirmaganda;

- moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyati ustidan nazorat ishlarini olib bormaganda.

Bunday paytlarda keltirilgan kamomad va xiyonatlar yuzasidan tashkilot rahbarlaridan tushuntirish xatlari yozdirib olinadi, hamda kamomad va xiyonat summasi joyiga to'liq qaytarib qo'yilishi talab qilinadi.

Auditor audit o'tkazilayotgan tashkilotda hisobning jurnal-order shaklidan to'g'ri foydalanilayotganiga, shuningdek avtomatlashtirish jarayonining qanday ahvolda ekanligiga ahamiyat berishi shart. Kerak bo'lsa, tashkilot buxgalteriya xodimlariga hisobning ilg'or usullarini joriy qilish va ularning afzalliklari haqida hisob xodimlariga kerakli amaliy yordam berishi lozim.

Auditor tashkilot bosh buxgalteriga yuklatilgan vazifalarning qanday bajarilishi hamda uning huquq va vazifalari to'g'risida chiqarilgan Nizomga qanday amal qilayotganligini aniqlaydi. Bu Nizomda bosh buxgalterning vazifalari quyidagicha bayon qilingan: hisob ishlarini to'g'ri tashkil qilish, hisobning ilg'or usullarini joriy qilish, avtomatlashtirish, hisoblash mashinalaridan oqilona foydalanish, mablag'lar harakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni to'g'ri hujjatlashtirish va hisob yozuvlarida ko'rsatish, xarajatlarni to'g'ri hisob qilish, moliyaviy natijalarni aniqlash va h.k.

Moddiy javobgar shaxslar tomonidan buxgalteriyaga topshirilayotgan tovar va pul hisobotlarining belgilangan muddatda to'g'ri tekshirilishi audit qilinadi. Ayrim hollarda hisobotlarni o'z vaqtida topshirmslik tovar va pul mablag'laridan noqonuniy foydalanishni keltirib chiqaradi.

Tekshirishda tashkilotning jami savdo shoxobchalari va to'liq xo'jalik hisobidagi savdo tarmoqlarining tovar muomalalari, ichki imkoniyatlardan foydalanish tartibi, xo'jalik hisobining ayrim bo'laklari bo'yicha joriy qilish, hisob ishlarining holati tahlil qilinadi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida hisobotlarni o'z vaqtida, belgilangan shakllarda tuzish va topshirish tashkilotga taalluqli bo'lgan asosiy va muomala mablag'larining harakatini to'g'ri hisoblab chiqilishida, qo'shimcha mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qondirishda alohida ahamiyatga ega. Korxona va tashkilotlar uch oylik va yillik hisobotlarini tuzadilar. Hisobotni tuzish tegishli tayyorgarlikni talab qiladi va shu tayyorgarlik davomida hisobot uchun belgilangan shakllarni to'ldirish uchun asos yaratiladi.

Hisobotlar hajmiga ko'ra kunlik, 3 kunlik, bir xtaftalik, 15 kunlik va oylik bo'ladi. Kunlik hisobotlarda xo'jalik faoliyatining hisobot tuzilgan kundagi holati ko'rsatiladi. Kunlik hisobotga moddiy javobgar shaxslar tomonidan tuziladigan tovarlarning kirim va chiqim hisobotini misol keltirish mumkin. Bu hisobotda tovarlarning harakati tegishli manbalar bo'yicha ko'rsatiladi va hisobotning to'g'riliги tekshirib chiqilgandan keyin tegishli jurnal-orderlarda aks ettirish uchun sharoit yaratiladi, lekin shu bilan hisobot ishlari to'liq bajarildi degan xulosa kelib chiqmaydi.

Tashkilot ixtiyorida bo'lgan mablag'larning harakati buxgalteriya hisobi schyotlarida o'z ifodasini topadi. Har oyda schyotlarning muomalalari hisoblanib, oyning oxiriga bo'lgan qoldiqi chiqariladi. Mablag'lar harakatining to'g'rilagini tasdiqlash maqsadida sintetik schyotlarning muomalalari analitik schyotlardagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Har bir schyotning qoldiqlari tekshirib chiqilgandan keyin bu ma'lumotlar bosh daftarchaga ko'chiriladi va oy davomida amalga oshirilgan operatsiyalarning schyotlari bo'yicha muomala va qoldig'i hisoblanib, jami muomala va qoldiqlarning tengligi ta'minlangandan keyin hisobot tuzish uchun tegishli ma'lumotlar yig'iladi.

Hisobot xo'jalik faoliyatining o'tgan davridagi holatini bir-biri bilan bog'langan holda umumlashtirib, reja ko'rsatkichlarining bajarilishini nazorat qiladi va tegishli ichki imkoniyatlarni aniqlashda tashkilot rahbarlariga yaqindan yordam beradi.

#### **4.Savdo-tijorat korxonalarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.**

Ulgurji savdo korxonalari uyushmasiga kiruvchi hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalarni ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi 357-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Korxona va tashkilotlar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishi, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni iste'molchilarga etkazib berishda bir-birlari bilan o'zaro aloqalar olib boradilar. Xalq iste'mol tovarlarini xaridorlarga o'z vaqtida sifatli va belgilangan navlarda etkazib berishni ta'minlashda, sanoat korxonalari bilan savdo korxonalari o'tasidagi aloqani mustahkamlashda ulgurji savdo korxonalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ulgurji savdo korxonalari belgilangan chakana tovar muomalasi rejasini bajarishda, xalq iste'mol tovarlariga bo'lgan talabni qondirishda chakana savdo tarmoqlariga bevosita ta'sir qildi.

Ulgurji savdo korxonalari tovar muomalalarining boshlanish holati bo'lib o'z ish faoliyatini asosan sanoat korxonalaridan chakana savdo korxonalariga tovarlarni etkazib beruvchi sifatida olib boradi va xalq iste'mol tovarlariga bo'lgan talablarning bajarilishida chakana savdo tarmoqlariga yordam beradi. Sanoat korxonalarida tovarlar navini kengaytirishga, chakana savdoni to'g'ri tashkil qilishga faol ta'sir qildi.

Ulgurji savdoning yana bir afzalligi shundaki, tovar zaxiralarni aniqlash va ularni savdoga jalb qilish, mahalliy sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'molga chiqarish, shu bilan birga mavsumiy va ma'lum maqsadlar uchun belgilangan tovar zaxiralarning to'liqligini ta'minlaydi.

Savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini audit qilishda tovarlarning tuzilgan shartnomalarga asosan mol etkazib beruvchilardan kelishi, ularning omborlarga qabul qilinishi tartibi – saqlash, sotuvga tayyorlash, mavjud tovar zaxiralarning tashkilot uchun belgilangan me'yorga teng kelishi tekshiriladi.

Ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini audit qilishning asosiy vazifalaridan biri belgilangan tovar-ayylanma rejasining bajarilishini aniqlash, ularni tasdiqlovchi hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishini nazorat qilishdir. Ulgurji va chakana savdo korxonalaridagi mavjud tovarlar tegishli moddiy javobgar shaxslarning zimmasiga yuklangan.

Auditor ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonlarda soliq bilan bog'liq munosabatlar ham o'rganishi lozim. Ulgurji savdo korxonalarida soliq munosabatlari "Ulgurji savdo korxonalarini tomonidan yagona soliq to'lovini bo'nak to'lovlari hisobga olgan holda to'lash tartibi to'g'risida"gi, "Yagona soliq to'loving eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari Soliq kodeksining 374- muddasida keltirilgan bo'lib, unga asosan auditor savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritilishini tekshirishi shart. Shu bilan bir qatorda auditor daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlar sifatida quydigilarni o'rganadi:

- chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

- Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlar yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlar oxirgi yozuv kiritilgan paydan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Tovar operatsiyalarini audit qilish ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirilib, tashkilotning tuzilishiga, hisob ishlarining tashkil qilinishiga, auditorga berilgan topshiriqlarga bog'liq. Tovar operatsiyalarini audit qilishda omborlardagi iste'molga yaroqsiz bo'lgan tovarlarni aniqlash tartibi va ularning qaysi manbalardan qoplanganligi, ularni boshqa yillar bilan taqqoslangandagi holati auditor tomonidan hisoblab chiqiladi.

Savdo korxonalarida amalga oshirilgan operatsiyalarining asosiy qismini tovarlarning harakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar tashkil qiladi. Shuning uchun auditorlik tekshiruvlari ayrim operatsiyalarining to'g'rilingini tekshirish tanlab olingan holda o'tkaziladi. Tanlab olingan holda tekshirish o'tkazilayotganda (operatsiyalarni) oy davomida yoki o'n kunlik ichidagi bajarilgan operatsiyalarini audit qilish maqsadga muvofiq.

Savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini audit qilish natijasida ularning to'liqligi, sifat jihatidan iste'molga yaroqliligi, tegishli hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi to'g'risida etarli ma'lumot olinadi. Savdo korxonalaridagi tovar-moddiy qiymatliklarning to'liqligini saqlashda inventarizatsiya muhim o'r'in egallaydi. Inventarizatsiya yordamida tovarlar miqdori va sifatining moddiy javobgar shaxslar tomonidan to'g'ri saqlanishi hisobkitob qilinadi. Inventarizatsiya nazorat usullari ichida asosiy o'r'in tutadi.

Tashkilot xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar, ya'ni moliya rejasining bajarilishi, iqtisodiy tejamkorlik, xo'jalik hisobi, xo'jalik operatsiyalarini to'g'ri bajarish, hisob ishlarining holati audit qilinayotganda har bir ko'rsatkich alohida-alohida tekshiriladi. Bunday tekshirish olib borishda shunday usullarni qo'llash talab qilinadiki, ular orqali audit natijalarining aniqligi ta'minlanishi kerak.

Inventarizatsiya natijasida kamomad va xiyonatlar aniqlanibgina qolmasdan, ularning kelib chiqish sabablari ham aniqlanadi. Savdoni tashkil qilishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi. Shuning uchun inventarizatsiyaning o'z vaqtida va sifatlari o'tkazilishi buxgalteriya hisobidagi yozuvlarning to'g'riliqini, mablag'larning saqlanishi ustidan nazorat qilishni ta'minlaydi.

Inventarizatsiya moddiy javobgar shaxslarning ishi ustidan kuzatuv olib borishga yordam beradi, ularning zimmasidagi tovarlar, xomashyo va materiallarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirishdagi javobgarligini ta'minlaydi. Shu bilan birga tovar-moddiy boyliklar saqlanayotgan omborlarning holatini yaxshilash (o'lchov asbollarining holatini tekshirish) imkoniyatini beradi.

Savdo korxonalaridagi tovarlar inventarizatsiya qilinganda, ularning holati qanday tartibda rastalarda ko'rsatilgan bo'lsa, shu tartibda inventarizatsiya o'tkazishda son jihatdan sanalib, o'lchanib chiqiladi va inventarizatsiya ro'yxatlarida ko'rsatiladi.

Inventarizatsiya ro'yxatining har bir varag'ida ko'rsatilgan tovarlarning tartib rahami, umumiyligi miqdori, summasi ro'yxatning oxirida so'z bilan yozib boriladi. Inventarizatsiya to'liq tugallangandan keyin hamma ro'yxatlardagi summalar jamlanib, inventarizatsiya natijalarini aniqlash uchun hujjalarni tayyorlanadi. Ayrim hollarda o'tkazilgan inventarizatsiya natijalarining to'g'riliqini aniqroq bilish uchun tanlab olingan holda qayta nazorat inventarizatsiyasi o'tkaziladi.

Inventarizatsiya ro'yxatlarining to'g'riliqi tekshirilgandan keyin bir nusxasi tashkilot buxgalteriyasiga beriladi, ikkinchi nusxasi auditorda qoladi. Moddiy javobgar shaxslar tomonidan ro'yxatlarda yo'l qo'yilgan arifmetik xatolar inventarizatsiya yakunlari aniqlangandan keyin topilsa, bu to'g'rida inventarizatsiya o'tkazish komissiyasiga yoki tashkilot rahbariga xabar qilinishi kerak. Aniqlangan xatolikning to'g'riliqi hisob-kitob qilinib, qo'shimcha yozuvlar kiritiladi. Agar auditor qayta nazorat inventarizatsiyasi o'tkazishda aniqlangan farqlarga shubha bilan qarasa, qaytadan to'liq inventarizatsiya o'tkazish uchun yangi komissiya tuzishi mumkin.

Ulgurji savdo korxonalar o'z ish faoliyatlarini sanoat korxonalaridan tovarlarini iste'molchilarga etkazib berishda asosiy vositachi sifatida olib boradilar va chakana tovar muomalasi rejasining bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Shuning uchun ulgurji savdo korxonalarida tovar va material qiymatliklarning to'liqligini ta'minlash tovar operatsiyalarini audit qilishda alohida ahamiyatga ega.

Audit o'tkazishda tovarlarning omborlarda to'g'ri saqlanishi, uning sifati, savdo korxonalarining moddiy-texnika bazasi kerakli inventarlar bilan to'liq ta'minlanganligi nazorat qilib boriladi.

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlar asosan mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan keltiriladi va moddiy javobgar shaxslar tomonidan tegishli omborlarga qabul qilinadi. Auditor shartnoma shartlarining bajarilishini va ularning qanday tartibda ro'yxatga olinishini, mol etkazib beruvchilarga qilingan da'vo summalarining to'g'riliqi va sababini aniqlab chiqishi kerak.

Ulgurji savdo korxonalarining tovar muomalasi rejasini bajarishi, tovarlar harakatining bir me'yorda olib borilishi, tovar zaxilarining belgilangan me'yorda bo'lishini ta'minlashda mol etkazib beruvchilar bilan ulgurji savdo korxonalar o'rtasida tuzilgan shartnomalarning qonuniyligi o'z vaqtida bajarilishi va ko'rsatilgan shartlarga har ikkala tomonlarning rioya qilishi alohida o'rinni egallaydi. Chunki shartnoma shartlariga rioya qilmaslik mol etkazib beruvchilar va savdo korxonalarining xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun audit o'tkazilayotganda mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarning to'g'ri tuzilganligi, hamma rekвизитлари bo'yicha aniq

rasmiylashtirilganligi, ularning belgilangan muddatlarda bajarilishi auditor tomonidan aniqlanadi.

Auditor mol etkazib beruvchilardan kelgan tovarlarni omborlarga qabul qilish tartibi bilan bevosita tanishib va qabul qilingan tovarlar bo'yicha hisob-kitob ishlarining qanday tashkil qilinganligini tekshirib chiqadi. Bunday tekshirish o'tkazilayotganda mol etkazib beruvchilardan kelgan tovarlarning o'z vaqtida qabul qilinishiga, belgilangan tovarlarni qabul qilish tartibiga rioya qilinishiga alohida ahamiyat beradi.

Agar tekshirish natijalariga ko'ra tovarlarni qabul qilish o'z vaqtida bajarilmagan bo'lsa, u holda uning sababi aniqlanadi.

Tovarlarni qabul qilish bilan bog'liq operatsiyalar audit qilinayotganda «Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar» schyotining yozuvlari, analistik schyotlarning ko'rsatkichlaridagi yozuvlar moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari bilan solishtirilgan holda tekshiriladi. Agar tekshirish davomida tovar hisobotlaridagi, tovarlarning harakatini hisobga oluvchi jurnal-orderdagи yozuvlar o'chirilgan bo'lib, boshqa yozuvlar ko'rsatilgan bo'lsa, bu haqda tegishli javobgar shaxslardan bu to'g'rida tushuntirish xatlari talab qilinadi. Tovarlarning to'g'ri hisob qilinishi tekshirilayotganda «Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar» schyotining yozuvlari ham auditor tomonidan aniqlanadi. Bunday tekshiruv natijasida «Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar» schyotida da'vo summalarining yo'qligi, ko'rsatilgan summalarining tegishli hujjatlarga asosan yozilganligi aniqlanadi.

Agar audit o'tkazilayotganda tovar-moddiy qiymatliklarning buzilishi to'g'risida dalolatnomalar borligi aniqlansa, ularning to'g'riliqi, tovarlar kamayishining to'g'ri hisoblanganligi me'yordan yuqori bo'lsa, aybdor shaxslar bo'yicha to'g'ri ko'rsatilganligi aniqlanadi. Tovarlarni qabul qilish tartibi va hisob yozuvlarida ko'rsatilishi tekshirilayotganda «Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar» schyoti bo'yicha yuritiladigan jurnal-orderlardagi yozuvlarning to'g'riliqi ham tekshiriladi.

Ulgurji savdo korxonalarining chakana savdo korxonalariga tovarlarni o'z vaqtida etkazib berishi, tovar muomalasi rejasining bajarilishini ta'minlaydi.

Ulgurji savdo korxonalaridan tovarlar chakana savdo korxonalariga tuzilgan shartnomalarga asosan etkazib beriladi. Shuning uchun tovarlar sotilishi tekshirilayotganda shartnomalarning mavjudligi, tovarlarni sotishga tayyorlash tartibi, tovarlarni iste'molchilarga jo'natishni hujjatlashtirish, ularni belgilangan navlarda bo'lishini ta'minlash kabi ishlar auditor tomonidan tekshiriladi. Auditor tovar oluvchilarga junatilgan tovarlarni to'g'ri hujjatlashtirishga, hujjatlar aylanmasiga alohida ahamiyat berishi kerak. Buning uchun u chakana savdo korxonalariga jo'natish uchun tayyorlangan tovarlarni tasdiqlovchi hujjatlar bilan solishtirilib, tekshirish o'tkazishi lozim.

Ulgurji savdo korxonasidan tovarlar ikki xil tartibda sotiladi:

- tovarlarni tranzit usulda sotish;
- tovarlarni ombor orqali sotish.

Tovarlarni tranzit usulda sotish xo'jalik faoliyatining sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki bu usulda xarajatlarni kamaytirish, tovarni iste'molchilarga sifatli va tez etkazib berish uchun sharoit yaratiladi.

Tovarlar qaysi tartibda sotilishidan qat'iy nazar, auditor tovarlarni jo'natish, sotish sharoitlarining bajarilishini, shuningdek tashkilotlararo tovarlarni jo'natish va sotishda ularning to'liqligini, belgilangan navlarda junatilishini tekshirib chiqadi. Tekshirish natijasida tashkilotlararo va tashkilot doirasida tovarlarni jo'natish va sotish shartlariga rioya qilinmagan bo'lsa, u holda auditor ularning sabablarini aniqlab chiqib, maxsus dalolatnomalarda ko'rsatadi. Tovar oluvchi tashkilot, mol etkazib beruvchi tashkilotlar bilan

tovarlar uchun tegishli hisob-kitob ishlarini olib boradilar. Hisob-kitob ishlarining o'z vaqtida belgilangan muddatlarda bajarilishi pul mablag'laridan to'g'ri foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun to'lov hujjatlarining o'z vaqtida bajarilishini tekshirish kerak. Ayrim hollarda hisob-kitob ishlarini o'z vaqtida bajarmaslik tegishli jarima summalarining kelib chiqish manbai bo'lib qoladi, bunday holda auditor tegishli jarima summalarining kelib chiqish sabablari va tegishli aybdor shaxslarni aniqlab chiqadi.

Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalari audit qilinayotganda omborlardagi mavjud tovar-moddiy qiymatliklarning moddiy javobgar shaxslar tomonidan to'g'ri saqlanishi aniqlanadi. Buning uchun auditor omborlardagi tovarlarning turlari, assortimenti, navi va partiyalari bo'yicha saqlanishini bevosita ombor mudiri, bosh buxgalter ishtirokida ombordagi haqiqiy saqlanayotgan tovarlarni tasdiqllovchi maxsus hisob kartochkasidagi ma'lumotlar bilan solishtirib, haqiqiy holati tekshiriladi.

Ulgurji savdo korxonalarida tovar muomalasi rejasining bajarilishi 4-SB shakl «Ulgurji tovar muomalasi va tovarlar qoldig'i to'g'risida hisobot» shaklida olib boriladi. Bu shaklning o'ziga xos xususiyati shundaki, reja ko'rsatkichlarining bajarilishi uch oylik bo'yicha alohida-alohida ko'rsatiladi. Audit o'tkazilayotganda tovar muomalasi rejasining bajarilishi shu shakldagi yozuvlarning 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar» schyotidagi yozuvlar bilan mos kelishi tekshiriladi.

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarni sotish rejasining bajarilishi, birinchidan, tovarlarni o'z vaqtida tovar oluvchilarga etkazib berish rejasining bajarilishiga, ikkinchidan, tovar oluvchi tashkilotlar tomonidan to'lov hujjatlarining o'z vaqtida to'lanishiga bog'liq. Shuning uchun auditorlik tekshiruvini o'tkazishda tovarlarni omborlardan jo'natish rejasining bajarilishi tekshiriladi.

##### **5.Savdo korxonalarida tovar moddiy zaxiralar audit xususiyatlari.**

Savdo korxonalarida xarajatlarni kamaytirishning asosiy maqsadlaridan biri savdo qilishning ilg'or usullarini keng joriy qilish va mehnat unumtdorligini oshirishdir. Muomala xarajatlari va moliyaviy natijalarni audit qilish barcha ko'rsatkichlarning bajarilishini tekshirish bilan birga olib boriladi.

Audit o'tkazishda quyidagi manbalardan foydalaniladi: audit o'tkazilayotgan tashkilot muomala xarajatlarining smetasi; kutilayotgan moliyaviy natijalar; foya va zararlar to'g'risidagi hisobotlar va tegishli hisob ro'yxatlari.

Muomala xarajatlari audit qilinayotganda xarajatlar smetasi va ularning moddalari bo'yicha to'g'ri ishlab chiqilganligi ham tekshiriladi. Xarajatlarning smetada ko'rsatilgan umumiy summasi tovar aylanmasiga nisbatan foiz hisobida ko'rsatiladi.

Savdo korxonalarining yangicha xo'jalik yuritishga o'tishi munosabati bilan xarajatlar smetasi bevosita tashkilotning o'zida tegishli moddalar asosida ishlab chiqiladi. Savdo korxonalarida muomala xarajatlari va moliyaviy natijalarni audit qilish quyidagi vazifalarni bajaradi:

- xarajatlardan to'g'ri foydalanishni aniqlash va ularni kamaytirish yo'llarini belgilash;
- pul mablag'lari va moddiy boyliklardan muomala xarajatlarini qoplash uchun ishlatalgan qismining to'g'riliqini tekshirish;
- xarajatlarning belgilangan hisob ko'rsatkichlarida to'g'ri aks ettirilishi va ularning moddalari bo'yicha analistik hisobning to'g'ri yuritilishini aniqlash;
- xarajatlar moddalari bo'yicha hisobotlarda to'g'ri ko'rsatilganligini tekshirish;
- moliyaviy natijalarning to'g'ri aniqlanishi va hisobotlarda ko'rsatilishining to'g'riliqini tekshirish;

- tashkilot rahbarlari tomonidan xarajatlarni kamaytirish va tashkilot daromadlilagini oshirish uchun olib borgan ishlarining to'g'riliгини tekshirish.

Muomala xarajatlari va xo'jalik faoliyatini hujjatli audit qilish tashkilotning o'z oldiga qo'yan reja ko'rsatkichlarining bajarilishini tekshirish bilan birga olib boriladi, chunki muomala xarajatlari va moliyaviy natijalarning miqdoriga reja ko'rsatkichlarining o'zgarishi ta'sir qiladi. Muomala xarajatlari audit qilinayotganda, xarajatlar bo'yicha tuzilgan hisobotlar, ularni tasdiqlovchi hujjatlar, sintetik va analitik hisobdagi yozuvlarning to'g'riliги tekshiriladi.

Muomala xarajatlarining sotilgan tovarlarga taalluqli bo'lgan qismini to'g'ri hisob-kitob qilinganligi va ularni hisobot davrlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanganligi tekshiriladi va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari belgilanadi.

Muomala xarajatlari savdo korxonalarining turli xildagi xarajatlar yig'indisini o'z ichiga oladi. Shuning uchun audit ishlarida har bir qilingan xarajatning maqsadga muvofiq qilinganligi, belgilangan smetaga to'g'ri kelishini aniqlash uchun ularni moddalari bo'yicha audit qilish talab qilinadi. Xarajatlarni moddalari bo'yicha audit qilishda asosiy maqsad ularni xo'jalik uchun maqsadga muvofiq ekanligi, hujjatlar bilan to'g'ri rasmiylashtirilganligi, xarajatlarni kamaytirish va ichki imkoniyatlarni ishga solish kabi choralarini aniqlashdir.

Xarajatlar har bir savdo korxonaining tuzilishi, tovar aylanmasi tuzilmasi, tovarlar assortimentini hisobga olgan holda har bir modda bo'yicha alohida-alohida rejallashtiriladi.

Savdo korxonalarida muomala xarajatlari audit qilinayotganda ularni smetada ko'rsatilgan summalar bilan taqqoslanib, farq summalarini aniqlab chiqiladi. Xarajatlarning smetaga ko'ra bajarilishi tekshirilayotganda ularning har bir moddasi hujjat xarajati summalar bilan solishtirilib, qilingan xarajatlarni hujjatlar bilan taqqoslab to'g'riliги tekshiriladi. Amalda muomala xarajatlari audit qilinayotganda asosan qaysi moddalar bo'yicha smeta ko'rsatkichlaridan yuqori xarajatlar qilingan bo'lsa, shu moddalar tekshiriladi.

Tovarlarni saqlash, qadoqlash, navlarga ajratish, o'rash va sovutish tizimlarini ishlatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tekshirilayotganda har bir xarajat turiga alohida ahamiyat berish kerak, chunki xarajatlarning bu moddasi ko'p xarajatlarni o'zida aks ettiradi va har biri aholiga sifatli savdo xizmatini ko'rsatish bilan bog'liq. Tovarlarni saqlash, qadoqlash, o'rash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar audit qilinayotganda ularni belgilangan me'yorga teng kelishi tekshiriladi. Ayniqsa, navlarga ajratish natijalarini aks ettiruvchi dalolatnomalarning to'g'ri tuzilganligini, ko'rsatilgan summalar aniq hisob-kitob qilinganligini aniqlash zarur.

Muomala xarajatlarining «Har xil xarajatlar» moddasi audit qilinayotganda, har bir xarajatning iqtisodiy mazmuni va tashkilot xo'jalik faoliyati bilan bog'liqligi tekshiriladi. Birinchi navbatda xarajatlarning turlari bo'yicha teng kelishi aniqlanadi. Shu bilan birga muomala xarajatlarining boshqa moddalariga taalluqli bo'lgan xarajatlarning bu moddada ko'rsatilganligi tekshiriladi.

Nº	Odatda uchraydigan xato va kamchiliklar	Aniqlash metodlari
1.	Ta'sis hujjatlarining noto'g'ri rasmiylashtirilishi	Tahlil
2.	Tovalarni kirim qilishda hisob qoidalarini buzilishi	Tahlil, arifmetik hisob-kitoblar.
3.	Alovida faoliyat bilan shug'ullanish uchun litsenziyalarning mavjud emasligi	Faktik tekshiruv
4.	Xo'jalik operatsiyalarini o'z vaqtida hisobda aks	Tahlil

	ettirilmasligi	
5.	Kassa operatsiyalarini yuritish qoidalarini buzilishi	Tahlil

#### **6.Omborlarda, bazalar va buxgalteriyada tovarlarni hisobga olishning auditi.**

Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda, Respublikamiz savdo korxonalarida kompleks auditni tashkil etish tartibini belgilash, uning tarkibini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Savdo korxonalarida muomala harajatlari hamda tovar-moddiy boyliklarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdan maqsad-ularning saqlanishi, hisobga olishning to'g'ri tashkil etilishi shu bilan birga sotish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni aniqlashdan iborat. Shuningdek hisobot ko'rsatkichlarining ishonchligini va tovar-moddiy boyliklar bilan bog'liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga muomalalar mohiyatini, hamda nazorat to'zilmasi va buxgalteriya hisobi tizimini tekshiruvdan o'tkazish va tavakkalchilik (risk)larni baholash orqali erishiladi. Tovar-moddiy boyliklarni tekshirish, ular hajmi katta bo'lgan sub'ektlarda auditning asosiy qismi deb qaraladi.

**Tovar-moddiy boyliklari audit ob'ektlari<sup>10</sup>**

Ko'rsatkichlar nomi	Moliyaviy hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlar		
	1-shakl	4-shakl	
	Satr raqami	Satr raqami	
1	2	3	
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180		
Material, ish, xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'lanadigan pul mablag'lari		020	

Tovar-moddiy boyliklar bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarining haqqoniyligini tekshirishda boshqa audit ob'ektlaridagi kabi, dastavval, balansning «Tovarlar» (180-satr) moddalarini, Bosh daftari, jurnal-orderlar va boshqa hisob registrlari orasidagi tenglikni aniqlash zarur.

Shu bilan birga, sintetik va analitik hisob ma'lumotlarining muvofiqligiga ishonch hosil qilish muhimdir. Savdo korxonalarida auditorlik tekshiruvi ichki va tashqi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin.

Ichki audit korxona rahbariyatiga bo'yusunuvchi va xodimlar shtatida hisobga olinadigan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi savdo korxonasida aktivlarning but saqlanishini, xodimlarning o'z vazifalarini to'g'ri bajarishini tekshirish, hisob siyosatiga rioya etilishini ta'minlaydigan usul va chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

<sup>10</sup> Ibragimov A., Ochilov I., Qo'ziev I. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya. 2008 y. 440 b.

Tashqi audit esa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, mahsus litsenziyaga ega bo'lgan mustaqil auditorlik korxona tomonidan o'tkaziladi.

Shuningdek, savdo korxonalarida tashqi audit xizmatini to'g'ri tashkil etish va samaradorligini oshirish uning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bevosita bog'liq. Mazkur korxonalarda auditorlik tekshiruvini o'tkazishning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi me'yoriy hujjatlar quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- auditni tashkil qilish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish;
- audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;
- auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

Mamlakatimizda auditorlik faoliyatining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi tahrirdagi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunlar, “Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizom (2003 yil 25 dekabrdagi 567-soni qarori asosidagi o'zgartirishlar bilan) va boshqa me'yoriy hujjatlar tashkil qildi. Bu me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish mamlakatimizda auditorlik firmalarining mavqeini oshirish va audit xizmatlari bozorini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni auditorlik firmasining huquq va majburiyatlarini, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish tartibini ifodalaydi. Jumladan, bu qonunning 9-moddasiga ko'ra, «auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning to'g'riliqi va qonun hujjatlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlik korxonalarini tomonidan tekshirishdir»<sup>11</sup>.


Shu bilan birga, auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan savdo korxonasi auditorlik firmasi bilan to'zilgan shartnomaga binoan auditorlarni tegishli axborotlar bilan to'liq ta'minlashi zarur. Savdo korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun mijoz-savdo korxonasi auditor talab qilgan barcha hujjatlarni to'liq hajmda taqdim etishi, mol-mulklar mavjudligi va majburiyatlar holatini tekshirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim.

Amaliyotda ba'zi hollarda auditor tekshiruv o'tkazilayotgan savdo korxonasi moliyaviy hisobotining to'g'riliqiga o'rta darajada ishonch hosil qilishi mumkin. Bunda savdo korxonasida hisob yuritish tizimi samarali tashkil etilgan, malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilayotgan, avtomatlashtirilgan yoki korxonada ichki nazorat tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'ladi. Ushbu holatda, auditor tekshiruvlar jarayonida auditorlik tanlash usullarini qo'llaydi. Auditor savdo muomalalarini tanlab tekshirishda ehtimoldan xoli bo'Imagan xatolarni aniqlashi, to'plash talab qilinadigan dalil-isbotlarni baholashi va shunga asoslanib zarur ma'lumotlar to'plamini shakllantirishi zarur.

Bozor munosabatlari sharoitida savdo korxonalarida tashqi auditorlik tekshiruvini tashkil etishning asosiy maqsadi amalga oshirilgan savdo muomalalarini mavjud me'yoriy hujjatlarga mosligini va ularda moliyaviy hisobotning tuzilish tartibini to'g'riliqini aniqlashdan iborat.

<sup>11</sup> «Аудиторлик фаолиуати тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Конуни, 9-модда.

Moliyaviy hisobotni tashqi auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda quyidagi kontseptsiyaga tayanish maqsadga muvofiqdir.



#### Auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning umumiyl kontseptsiyasi

Bu chizmadan ko'rinish turibdiki, unda moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning umumiyl kontseptsiyasi audit o'tkazish kontseptsiyasi, auditorlik qoidalari (postulatlar) va auditorlik faoliyati standartlari kabilarga ajratib ko'rsatilgan.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda savdo korxonalarida tashqi auditorlik tekshiruvining asosiy vazifasini quyidagi tartibda belgilash mumkin:

- savdo korxonasida amaldagi qonunchilik hujjalariiga rioya qilinishini tekshirish;
- savdo muomalalarini buxgalteriya hisobi schetlarida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish;
- savdo korxonasida amalga oshirilgan hisob-kitoblarning aniqligini tahlil qilish;
- moddiy, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanimishini tekshiruvdan o'tkazish;
- ulgurji va chakana savdo muomalalarini moliyaviy hisobot shakllarida aks ettirilganligini tekshirish va h.k.

Savdo korxonalarida tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditorlik standartlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo korxonalarida auditorlik tekshiruvining uslubiy asoslari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

–ulgurji va chakana savdo korxonalarida audit xizmatini rejalashtirish hamda ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan audit dasturini to'zish;

–savdo korxonalarida auditorlik tekshiruvi usullaridan samarali foydalanish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

–auditorlik tekshiruvini kompyuterlashtirish yo'nalishlarini belgilash;

–auditorlik amallari va auditorlik dalillarini to'plashning umumiy tartibini belgilash;

–tekshiruv natijalari bo'yicha auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlash;

–audit natijalariga asoslangan holda savdo korxonasini istiqbolli rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ta'kidlaganimizdek, bozor munosabatlari sharoitida savdo korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish ularda audit o'tkazish usullarini to'g'ri tanlashga bevosita bog'liq.

Savdo korxonasing moliyaviy-xo'jalik faoliyatini to'liq tekshirish ko'p vaqti va mehnat talab qildi. Ammo, auditorlik tartib-qoidalariga ko'ra, auditor mijoz korxona moliyaviy hisobotining ishonchligiga to'liq ishonch hosil qilishi lozim.

Savdo korxonalarida tanlab tekshirish O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining 14-sonli «Auditorlikda ma'lumotlarni tanlash» nomli va boshqa tegishli milliy standartlari talablariga muvofiq o'tkaziladi.

Tanlab tekshirishning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

– muvofiq kelishni tanlab tekshirish;

– mohiyatan tanlab tekshirish<sup>12</sup>.

Savdo korxonalarida muvofiqliknin tanlab tekshirishning vazifasi hisobot davrida korxonada ichki tartib-qoidalarni bo'zilishini aniqlash hisoblanadi. Ushbu holatda chetdan sotib olingan tovarlar va boshqa korxonalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun taqdim etilgan schet-fakturalarni to'lashga ruxsat berish, sotib olingan tovarlarning nomi, miqdori tegishli hujjatlar ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Savdo korxonalarida mohiyatan tanlab tekshirishning mazmuni korxonada ichki-tartib qoidalarni bo'zilishi natijalarini qiymat ko'rinishida baholashdan iborat. Bunda 2900-«Tovarlar hisobi schetlari», 6010-«Mol etkazib beruvchi va pudratchilariga to'lanadigan schetlar», 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schetlar», 4700-«Xodimlarning boshqa muomalalar bo'yicha qarzlari hisobi» kabi savdo jarayoniga doir schetlarning qoldiqlarini tekshirish, dastlabki hujjatlardagi yozuvlarni tasdiqlash, savdo korxonasi moliyaviy ko'rsatkichlarini tahsil qilish amalga oshiriladi.

Savdo korxonalarida audit uslubini tashkil etuvchi asosiy tartib-qoidalardan biri tayyorgarlik tartib-qoidalari bo'lib, ular auditorlik tekshiruvi boshlanishidan oldin o'tkazilishi zarur. Tayyorgarlik tartib-qoidalari auditni rejalashtirish, auditni o'tkazishga rejalashtirilgan va haqiqatdagisi vaqtini hisobga olish, dastlabki audit hujjatlarini shakllantirish, rahbariyat uchun taqdim etiladigan ma'lumotnomalar shaklini, auditorlik xulosasi loyihasini ishlab chiqish va boshqalardan iborat bo'ladi.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida auditorlik firmasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan ham keng foydalaniladi. Ularda auditorlik firmasining ichki tartib-qoidalari belgilab qo'yiladi.

<sup>12</sup> 14-son AFMS 2-bandи

Shunday qilib, auditorlik xizmatining huquqiy asoslarini takomillashtirish korxonalarda auditni uslubiy jihatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mayda ulgurji savdo – savdo sohasida tovarlarni kichik turkumlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz va naqd pul shakllari bo'yicha sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalgga oshirish. Mayda ulgurji savdo faqat ichki savdo faoliyati hisoblanadi. Ushbu savdo faoliyati chakana savdo korxonalari, ulgurji savdo korxonalari va yuridik shaxs bo'limgan yakka tartibdagi tadbirdorlar tomonidan turg'un savdo shahobchalari hamda iste'mol buyum bozorlarida ajratilgan joylar orqali amalgga oshiriladi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri bo'lib tovar-moddiy boyliklarning holati va harakati bo'yicha sintetik va analitik hisobni yuritish hisoblanadi. 21-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'rinqoma» ga muvofiq tovarlarning sintetik hisobini barcha savdo korxonalarida quyidagi schyotlarda olib borish nazarda tutilgan.

2910 «Ombordagi tovarlar». 2920 «Chakana savdodagi tovarlar».

2920 «Ko'rgazmadagi tovarlar».

2940 «Vaqtincha foydalanishga (prokatga)berilgan tovarlar».

2950 «Tovar ostidagi va qaytariladigan idishlar».

2960 «Komissiya (vositachilik) orqali sotishga berilgan tovarlar».

2970 «Yo'ljadi tovarlar».

2980 «Savdo ustamasi».

2990 «Boshqa tovarlar».

Yuqoridagi schyotlarda aks ettirilmayin qolning tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

Auditor savdo muomalalarni tanlab tekshirishda ehtimoldan xoli bo'limgan xatolarni aniqlashi, toplash talab qilinadigan dalil-isbotlarni baholashi va shunga asoslanib zarur ma'lumotlar to'plamini shakllantirishi zarur.

## **7.Chakana savdo korxonalarida kassa muomalalarini tekshirish xususiyatlari.**

Kassa muomalalari odattda, kassir, bosh buxgalter yoki unga vakolatlari shaxs ishtirokida kassadagi pul mablag'larini inventarizatsiya qilishdan boshlanadi. Korxonada bir nechta kassa mayjud bo'lgan hollarda pul qoldig'inинг kamomadi bo'lgan taqdirda, uni boshqa kassa hisobidan qoplanishi, kassa daftaridagi qoldiqni o'zgartirish mumkinligini oldini olish maqsadida auditor boshqa kassa eshiklarini muhrlab qo'yadi.

Auditor kassidan inventarizatsiya o'tkazish vaqtigacha bo'lgan kassa muomalalari bo'yicha kassa hisobotini talab qiladi. Shuningdek, barcha kirim va chiqim hujjatlari uning tomonidan hisobotga kiritilganligi va inventarizatsiya vaqtiga kelib kassaga kirim qilinmagan va hisobdan chiqarilmagan pul mablag'lari yo'qligi to'g'risida tilxat berishi lozim.

Shundan keyin kassir, pul kupyurlarini guruhlashtirishni boshlaydi hamda auditor va bosh buxgalter ishtirokida ularni to'la hisob-kitobini o'tkazadi, bank muassasasidan olingan muhrlangan pul mablag'lari ham sanoqdan o'tkazilishi kerak.

Auditor shunga ahamiyat berishi kerakki, kassa chiqim orderida yoki uning o'rnini bosadigan boshqa hujjatda pul oluvchining tilxati bilan tasdiqlanmagan kassa pullarini berish, kassadagi naqd pul qoldig'inini qoplashga qabul qilinmaydi. Kassa kirim orderlari bilan tasdiqlanmagan naqd pullar ortiqcha pul sifatida kirim qilinadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari va bosh buxgalteri imzosi bilan tasdiqlanmagan kassa chiqim hujjatlari,

kassadan vaqtinchalik pul olinganligini bildiruvchi tilxat va shunga o'xshash boshqa hujjatlar inobatga olinmaydi va kamomad deb hisoblanadi.

Auditor to'g'ri rasmiylashtirilgan kassa hujjatlarini kassirga hisobot tuzish va unda tekshiruv paytida bo'lган qoldiqni ko'rsatish uchun beradi. Tekshiruv paytida kassada ish haqi to'liq tarqatilib ulgurmagan qaydnomalar bor bo'lsa, auditor bosh buxgalter va kassirga qaydnomalarni belgilangan tartibda hisobotga qo'shishni taklif etadi. Agarda kassani tekshirish, ish haqi tarqatish davriga to'g'ri kelib, ko'p xodimlarga ish haqi tarqatilmagan qaydnomalar bo'lsa, bunday qaydnomalar kassir hisobotiga qo'shilmasdan, dalolatnomada kassa hisobotiga kiritilmagan, qisman to'langan chiqim hujjatlari (to'lov qaydnomalari) sifatida yozib qo'yilishi mumkin. Bu holda har bir to'lov qaydnomaida qaysi tartib raqami bo'yicha ish haqi berilganligi va uning jami summasi ko'rsatiladi. Ushbu yozuv kassir, bosh buxgalter va auditor imzolari bilan tasdiqlanadi.

Shuningdek, kassani tekshirishda kassada saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar, obligatsiyalar, sertifikatlar va boshqalar), qatiy hisobot blankalari, sanatoriya va dam olish uylari yo'llanmalari, aviachiptalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ham tekshirilib, ularning mavjudligi dalolatnomada ko'rsatiladi.

Auditor kassadagi pul mablag'larini tekshirish bilan birga ayni paytda seyflar (yonmaydigan shkaflar), kassaning jihozlanishi, ish kunining oxirida kassa eshiklari va seyflar (shkaflar) muxrlanishi, signalizatsiya o'rnatilganligi va uning ishlashi, kassani qo'riqlishning tashkil etilishi, kassir «olindi», «to'landi» degan shtamplar bilan ta'minlanganligi ham tekshiriladi.

Auditor bankdagi hisob-kitob schyotidan olingen pullarni to'liq va o'z vaqtida kirim qilinganligini tekshirishda muomalalarni o'zaro taqqoslash usulini qo'llaydi. Bunda, I-sonli jurnal orderingin qaydnomasi tomonida 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'ları» schyotining debeti bo'yicha aks ettirilgan summalarini 2-sonli jurnal-orderda aks ettirilgan 5110 «Hisob-kitob schyoti» ning kredit oborotlari bilan solishtiriladi ular bir-biriga to'g'ri kelishi shart. To'g'ri kelmaslik hollari uchraganda summalar kassa kirim orderlari, bank ko'chirmalari, kassir hisobotlari, cheklar koreshoklari bilan solishtiriladi, zarur xollarda esa bevosita bank muassasasida tekshiriladi.

Agar bank ko'chirmalarida chiqarilgan, to'g'rangan, shuningdek qoldiqlar to'g'ri kelmasa, bankdagi hisob-kitob schyotidan ishonchli ko'chirmani olish zarur.

Kassa muomalalarini tekshirishda kassa hisobotiga ilova qilingan hujjatlarning quyidagi shakllaridan foydalilanadi: KO-3 yoki KO-3a shakl. «Kirim va chiqim kassa hujjatlarini ro'yxatga olish jurnali», ordersiz rasmiylashtiriladigan pul kirimi hujjatlari, KO-4 shakl «Kassa daftari», KO-5 shakl «Kassir tomonidan qabul qilingan va berilgan pullarni hisobga olish daftari», 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'ları», 5020-«Xorijiy valyutadagi pul mablag'ları», 5520-«Chek daftarchalari», 5610-«Pul ekvivalentlari», 5710-«Yo'lredi pul mablag'ları» va 5810-«Qimmatli qog'ozlar» schyotlari yuritiladigan hisob registrlari (Jurnal-orderlar, qaydnomalar, daftarlar, Bosh daftar, tegishli sanaga tuzilgan balanslar va boshqalar).

Bunda kassa hujjatlarini rasmiylashtirishga ham e'tibor berish zarur, xususan har bir hujjatda oluvchilar imzosi borligi; kirim hujjatlariga «olindi» degan, chiqim hujjatlariga esa «to'landi» degan shtamplar bosilganligi hamda ularning sanasi ko'rsatilganligi, shuningdek ularda chiqarilgan va tuzatilgan izlar yo'qligi aniqlanishi lozim.

«Kassa operatsiyalarini tekshirayotganda auditor kassa operatsiyalari tartibiga qanday rioya qilinayotganini, kassa intizomini, naqd pul bilan amalga oshirilgan operatsiyalar qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlashi lozim.

Naqd pullarni olish va berishda amalga oshirilgan operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan

hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish, barcha kirim va chiqim kassa orderlari, to'lov qaydnomalari va boshqa hujjatlar aniq, o'chirilmasdan va to'g'rilanmasdan to'ldirilganligi, barcha orderlar va ularning ilovalari operatsiya sodir etilgan sana va kassirning imzosi qayd etilgan holda, «olangan» yoki «to'langan» degan shtampalar bilan tasdiqlanganligiga ishonch hosil qilish lozim. Chiqim orderlarida (qaydnomalarida) «to'langan» degan shtapm bosilmaganligi ayrim holatlarda ulardan qayta foydalanishga olib keladi»<sup>13</sup>.

Amaliyotda kassa muomalalariga doir suiiste'mol qilishlar asosan ish xaqi va hisobdar summalar bo'yicha ko'p uchraydi. Bunda qaydnomalarga «o'lik jonlar» ni kiritish, berilishi lozim bo'lgan jami summani oshirib ko'rsatish, kassa hisobotiga qayta qo'shish maqsadida chiqim hujjatlarini oldingi kassa hisobotlaridan chiqarib olib, sanasini o'zgartirish va tuzilayotgan kassa hisobotiga kiritib, undagi summani ikkinchi marta hisobdan chiqarish hollari ham uchraydi.

Auditor bulardan tashqari kassa muomalalarini tekshirish jarayonida quyidagilarga ham alohida e'tibor berishi lozim:

- I. kassani har oyda to'satdan tekshirilishi;
- II. kassirning kassa hisobotlarini o'z vaqtida buxgalteriyaga topshirishi;
- III. kassa hisobotlarida va kassa daftarida hisobotlarni hamda unga ilova qilingan hujjatlarini tekshirishga qabul qilinganligi to'g'risida bosh buxgalter yoki bosh buxgalter o'rnbosarining imzosi borligi;
- IV. mehnatga haq to'lash, xizmat safari, xo'jalik sarflari va boshqa maqsadlar uchun bankdan olingan naqd pullarning maqsadga muvofiq ishlatalishi;
- V. kassadagi naqd pul qoldiqlarining korxona uchun bank tomonidan belgilangan limitga to'g'ri kelishi;
- VI. deponent qilingan mehnat xaqi summalari va realizatsiyadan tushgan naqd pul mablag'larining bankka o'z vaqtida topshirilishi;
- VII. kassadan naqd pullarni begona shaxslarga berish hollari va shunga o'xshashlar;
- VIII. naqd pul olish uchun to'ldirilmagan cheklarga rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzo qo'yilishi va cheklarni kassirga bankdan pul olish mobaynida mustaqil to'ldirish uchun berish hollari;
- IX. naqd pul olish uchun chek daftarchasi bosh buxgalter seyfida saqlanishi holati;
- X. korxonada «Kassa kirim va chiqim hujjatlarini qayd qilish daftari» (KO-Z shakl) va «Kassa daftari» (KO-4 shakl) ning mavjudligi, daftarlarning barcha varaqlari raqamlanib, oxirgi betida vapaqlap soni ko'rsatilganligi, ip o'tkazib bog'langanligi hamda rahbar va bosh buxgalter imzosi bilan tasdiqlanib, muhrlanganligi;
- XI. kassa chiqim orderlari, to'lov qaydnomalari va boshqa chiqim pul hujjatlarida tegishli mansabdar shaxslar va pul oluvchilar imzolarining mavjudligi va ularning xaqiqiyligi;
- XII. kassa hujjatlariga maxsus «so'ndirilgan» (pogasheno) shtamp bosilishi;
- XIII. pul mablag'lari, xarajatlar va boshqa balans schyotlariga olib borilib hisobot takdim etilmaydigan muomalalarning qonuniyigli;
- XIV. kassa muomalalariga oid schyotlar bog'lanishlari (korrespondentsiyalari) ning to'g'rili;
- XV. to'lanmagan summalarining o'z vaqtida deponentga o'tkazilishi va h.k.

Auditor yuqorida faktlarga rioya qilinmaganligi to'g'risida buzilish hollari mavjud bo'lganda bu muomalalarning sababini, ular kimnning farmoyishi bilan amalga

<sup>13</sup> Audit. O'quv qo'llanma. M.M. Tulaxodjaeva va F.G. Gulomovalarning umumiy tahriri ostida. T.: O'zbAMA. 2004 y., 53-bet.

oshirilganligi va buning orqasida suiiste'mollik, tovlamachilik holatlari berkitilmaganligini ham aniqlashi lozim.

Auditorlik tekshiruvi amaliyotida shunaqangi suiiste'molliklar bo'ladiki, bular asosan moddiy javobgar shaxslarning hisob-kitoblari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ko'pincha bankdan ortiqcha pul olish maqsadida korxonalarda ikkilamchi to'lov qaydnomalari tuziladi, qaydnomalarga «o'lik jonlar» kiritiladi yoki o'tgan yillardagi qaydnomalar asos qilib olinadi. Shuning uchun auditorlar to'lov qaydnomalari, chiqim kassa orderlaridagi sanalarga, ushbu hujjatlarda rahbar, bosh buxgalter va kadrlar bo'yicha xodimning imzolari borligi va xaqiqiyligiga katta e'tibor berishlari lozim.

#### **8.Savdo-tijorat korxonalarida ijara munosabatlari va soliq hamda boshqa to'lovlar auditining xususiyatlari.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning asosiy vazifasi ichki va tashqi foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlashdir. Uzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilanganidek, soliqlar muayyan miqdordorda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz hususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlaridir. Soliq Kodeksida soliq to'lovchilar zimmasiga soliqqa oid bir qator majburiyatlar yuklatilgan. Ushbu majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik soliq to'lovchiga nisbatan moliyaviy va ma'muriy yoki jinoiy jazo choralarini qo'llashga sabab bo'ladi.

Soliq majburiyati - ma'muriy huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan soliq to'lovchi soliq qonun hujjatlarda belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlarida hisobda turish, soliq va majburiy to'lovlarni belgilangan tartibda hisoblash, byudjetga to'lash, buxgalteriya hamda soliq hisob-kitoblarni yuritish va vakolatli organlarga topshirishdir.

Soliq majburiyatlar:

- qonun hujjatlarga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

- soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdon shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdon shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi;

- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtida davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlarni hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

- soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

- soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingga hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq to'lovchidan soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi uchun quyidagi vazifalarni bajarishni talab etadi.

- davlat soliq xizmati organlarida hisobda turish;

- yuridik manzili o'zgargan taqdirda, davlat soliq xizmati organlariga xabar berish;

- hisoblangan soliq va majburiy to'lovlarni o'z muddatida to'lash.

Xo'jalik jarayonlarini o'z vaqtida, to'g'ri va aniq hujjatlashtirish nafaqat buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etishga balki, soliq ob'ektlari hamda u bilan bog'liq ob'ektlar hisobini tashkil etish va soliq bazasini to'g'ri aniqlashga xizmat qiladi.

Uzbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va buxgalteriya hisobining milliy standartlarida buxgalteriya hisobi sintetik va analitik schyotlari hamda hisob registrlari shakllari tasdiqlangan. Soliq to'lovchilar qog'oz yoki elektron shaklda sintetik va analitik schyotlarni hamda hisob registrlарini yuritishi shart. Sintetik va analitik schyotlar ma'lumotlari asosida belgilangan shakllarda moliyaviy hisobot hamda uning shakllari tuziladi.

Moliyaviy hisob ma'lumotlari soliq hisobotlarini tuzish uchun etarli bo'lmaydi. Shuning uchun moliyaviy hisob ma'lumotlari asosida korxona buxgalteriya xizmati tomonidan soliq hisobotlarini tuzish uchun zarur qo'shimcha soliq hisobi registrlari, ma'lumotnomalar tuzilishi kerak.

Soliq maslahatchisi o'z xizmat vazifasini yuqori darajada bajarishi uchun buxgalteriya hisobi, audit va moliyaviy tahlil metodologiyasini chuqr bilishi zarur. Bu sohalar bo'yicha bilimga ega bo'lgan soliq maslahatchisi mijozga soliq xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha to'g'ri maslahatlar bera oladi.

Soliq maslahatchilari tashkilotlari:

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, tiklash va yuritish;
- moliyaviy hisobot tuzish;
- buxgalteriya hisobi, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha konsalting xizmatlarini ham ko'rsatishi mumkin. Respublikamizda soliq siyosati yildan yilga takomillashib bormoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksini ishlab chiqish zaruriyat:

- soliq tizimining murakkablashuvi;
- soliq qonunchiligining bir hil talqin qilinmasligi;
- to'g'ridan - to'g'ri amal qiluvchi hujjat bo'limganligi;
- soddalashtirilgan soliq solish tartibi va ayrim soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni soliq kodeksi bilan emas, balki me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda soliq tizimining shakllanishi, soliq siyosatining takomillashishi buxgalteriya hisobini rivojlanishi va uning uslubiyotini takomillashuviga olib keldi. Respublikamizda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunni qabul qilinishi, buxgalteriya hisobi milliy standartlarining (BHMS) ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiq qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarorini qabul qilinishi (keyingi o'zgarishlari bilan) soliq siyosatining yanada takomillashuviga asos bo'ldi. Yuqoridaqlardan kelib chiqib, Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga mos bo'lgan buxgalteriya hisobining huquqiy-me'yoriy asosi yaratildi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlar juda ko'p bo'lib, ulardan to'g'ri va samarali foydalanish uchun tartibga solish talab qilinadi. Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimini uch pog'onaga(3-jadval) bo'lish maqsadga muvofiq.

Soliqlar va majburiy to'lovlar hisobining zamoni deganda ma'lum kun va davrlar tushuniladi. Zamon mezoni soliqlar hisobida ularning hisoblanishi, hisobotlarni topshirilishi, soliqlarni to'lanishi, undirib olinishiga asos bo'ladi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar hisobining makoni bo'lib bir butun yaxlit mamlakat, uning hududiy bo'linmalari, ya'ni viloyat, shahar, tuman, qishloqlar hisoblanadi. Ushbu makonlarda soliqlar hisobi i/kki mustaqil shaxs tomonidan yuritiladi.

#### **O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi**

Pog'ona	Xujjatlar	Hujjatlarni kabul qiluvchi <small>organlar</small>
<b>I pog'ona</b> Qonunlar	Krnunlar. kodekslar Prezident Farmonlari va qarorlari. Vazirlar Mahkamasi qarorlari	Olpy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi. Prezident. Vazirlar Maxkamasi
<b>II pog'ona</b> Me'yoriy hujjatlar va uslubiy ko'rsatmalar	Buxgalteriya xisobinnng millinp standartlarn Nizomlar. no'riknomalar. uslubiy ko'rsatmalar	Moliya, Adliya vazirliklari. Markaziy bank. Davlat soliq qo'mintasi. Davlat bojxona qo'mintasi
<b>III pog'ona</b> Xo'jalik yurituvchn sub'ektlarning hisob siyosati	Tashkiliy taqsimlovchi xujjatlar (buyruqlar, ko'rsatmalar)	Korxonalar. konsal'ting firmalar

Bu jadvalda aks ettirilgan buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi hujjatlar tizimi bevosita soliq siyosatini takomillashtirishda alohida o'ringa egadir.

Korxonalarda byudjet bilan bog'liq munosabatlarda soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar sifatida makon va zamonda hisobga olinishi lozim. Bular, bir tomonidan, soliq to'lovchi shaxs, ikkinchi tomonidan, soliqni davlat foydasiga undirib oluvchi shaxs, ya'ni soliq idoralari. Birinchi shaxs soliqlarni to'lovchi sifatida hisob yuritsa, ikkinchi shaxs esa ularni undirib oluvchi shaxs sifatida hisob yuritadi.

Soliqlar va majburiy to'lovlar hisobining ushbu ikki turi bir -biridan maqsadi, vazifalari, yuritish tartibi, uslubi va usullari, texnikasi, hujjatli rasmiylashtirilishi hamda boshqa jihatlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish, ushbu sharoitda mamlakatimiz uchun butkul yangi soliq qonunchiligi hujjatlarini yaratilishi hamda hayotga joriy etilishi umuman buxgalteriya hisobining, shu jumladan soliqlar hisobining yangi munosabatlarga, yangicha xo'jalik yuritish talablariga mos bo'lgan kontseptual asoslarini yaratish masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Mustaqillikka erishilgan keyingi qisqa davr ichida bu borada respublikamizda katta ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, korxonalarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni yuritishning kontseptual asoslarini ifodalovchi hamda tartibga soluvchi qonunlar, milliy standartlar, nizom, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlar tizimi qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Respublikamizga xalqaro hisob tajribasida keng qo'llanilayotgan nazariy tushunchalar, amaliy ko'nikmalar tez kirib keldi. Jumladan, birinchi marta sobiq sovet tuzumida yaxlit bo'lgan buxgalteriya hisobini moliyaviy, boshqaruv, soliqlar hisobi kabi tarkibiy qismrlarga ajratish keng tus oldi. Bu olimlar oldiga buxgalteriya hisobining ushbu tarkibiy qismalarining nazariy va metodologik asoslarini yorituvchi yangi darsliklar, o'quv va amaliy qo'llanmalarni yaratishdek muhim vazifani qo'ydi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va huquqiy fuqarolik davlati qurish amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy strategik vazifadir. Lekin o'tish davrida barcha mamlakatlarga xos bo'lgan yashirin ishlab chiqarish bilan shug'ullanish, nazorat qilinmaydigan daromad olish maqsadida, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bir qismini hisobga qo'ymaslik, ruxsatsiz tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish va soliq ob'ekti bazasini yashirish kabi yo'llar bilan noqonuniy daromad olish mamlakatimizda ham mavjud. Ushbu huquqbazarlar ma'lum vaqt davomida olingan noqonuniy daromadlar evaziga boyib boradi. Noqonuniy nazoratsiz daromadlar olayotgan soliq to'lovchilar hattiharakatlari jamiyatda qonunlarga rioya etib faoliyat ko'rsatayotgan va qonuniy daromad olib, belgilangan soliqlarni to'lab borayotgan soliq to'lovchilarda yashirin iqtisodiy sektorga o'tish manfaatli degan tushunchaga olib kelishga sabab bo'ladi.

Bunday turdag'i qonunbuzarliklar bosh omili hisob-kitob ishlarini to'g'ri yuritmaslik hisoblanadi. Shu tufayli soliq to'lovchilarda buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritilishini nazorat qilish muhim iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy ahamiyatga masalalardan biridir.

Mamlakatimizda soliqlar va majburiy to'lovlar buxgalteriyada hisobga olish "Buxgalteriya hisobining milliy andozalarida" belgilangan tamoyillar asosida har bir soliq turi bo'yicha alohida olib boriladi. Soliqlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish, avvalo soliq to'lovchining hisob siyosatida o'z aksini topmog'i lozim.

Amaldagi qonunlarda soliq to'lovchi yuridik shaxs mansabdon shaxslari daromadini yoki soliq solishning boshqa ob'ektlari hisobining yo'qligi, bu hisobni belgilangan qonunchilikni buzgan holda yuritilganligi, shuningdek soliq organlariga soliqlarni hisoblash va to'lash uchun zarur bo'lgan hisobotlar, hisob-kitoblar hamda boshqa hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etmaganligi, foydani yoki boshqa soliq solish ob'ektini yashirganligi (kamaytirib ko'rsatganligi) uchun jazoga tortilishi belgilab qo'yilgan.

Lekin qonunchilik soliq to'lovchilarni soliq hamda boshqa majburiy to'lovlar summalarini to'lanmagan yoxud butunlay to'lanmaganlikka olib kelgan xatolarini soliq organizining tekshiruvidan oldin aniqlagan, buxgalteriya hisobida hamda soliqlar va to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarga tuzatishlar kiritgan taqdirda, ularni jazodan ozod etishni ham nazarda tutadi.

Demak, yuridik shaxslar tomonidan hisoblangan soliqlar va ularni byudjetga o'tkazish, amalga oshirilgan xaratjatlar, soliqlar va buxgalteriya hisobini aniq va to'g'ri tashkil etish, soliq to'lovchilar majburiyati bo'lib qolmasdan, balki bundan ularni manfaatdorligini ham keltirib chiqaradi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlat o'rtaсидagi munosabatlar tahlil qilib borilib, islohotlarni amalga oshirish istiqbollarini ham belgilab boriladi.

Shu sababli soliqlar hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish korxonani katta miqdorda jarimalar to'lashni oldini olishga, davlatga esa belgilangan tushumlarni o'z vaqtida byudjetga tushishini ta'minlaydi. Bayon etilganlardan ko'rinadiki, hisob tizimida amalga oshirilgan islohotlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda sodir etilgan jarayonlar hamda ular harakatini xalqaro andozalar asosida to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirib borish imkoniyatini bermoqda.

Hozirda buxgalteriya hisobi tarkibiy qismlari "Moliyaviy hisob" va "Boshqaruv hisobi" ning o'rni va ahamiyati keng ochib berildi. Lekin bu hisob va audit tizimida olib borilayotgan islohotlar tugadi deyish uchun asos bo'la olmaydi. Chunki amaldagi "Moliyaviy hisob" va "Boshqaruv hisobi" tizimida soliqlar hisobiga etarli e'tibor berilmagan.

Yuqorida ta'kidlanganidek olimlar tomonidan "Soliqlar hisobi" qanday bo'lishi va u qaysi tarkibda bo'lishi to'g'risida aniq to'xtamga kelinmagan. Holbuki, soliqlar hisobi bozor

munosabatlari sharoitida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Chunki soliqlarni to'g'ri hisoblash va byudjetga belgilangan muddatlarda to'lash tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy holatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va yig'imlarni o'z vaqtida to'g'ri hisob-kitob qilish va to'lab borish natijasida korxona iqtisodiy zarar ko'rmaydi. Aksincha esa korxona iqtisodiy zarar ko'radi.

Fikrimizcha soliqlar va majburiy to'lovlar hisobining tamoyillari, uni registrlari va yuritish uslubiyotini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu hisob tizimi orqali tadbirkorlik sub'ektlari ma'lum davrda amalga oshirilgan moliyaviy-xo'jalik jarayonlarini soliqlar hisobi registrlarda aks ettirib, byudjetga hisoblanadigan va to'lanadigan soliqlar hamda yig'imlar miqdori to'g'risidagi, daromad va xarajatlari haqidagi ma'lumotlarni soliqlar hisobi registrlarda jamlab boradi hamda ularni to'g'ri hisoblanishi, byudjetga o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan tezkor nazorat olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa xo'jalik sub'ektlarini soliqlar va yig'imlarni noto'g'ri hisob-kitob qilish natijasida iqtisodiy zarar ko'rishdan asraydi, ikkinchidan davlat byudjetiga soliqlarni o'z vaqtida to'liq tushumini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek soliqlar davlat va soliq to'lovchilar o'tasidagi moliyaviy munosabatlar sifatida makon va zamonda hisobga olinishi lozim. Mamlakatimiz olimlari tomonidan soliqlar va majburiy to'lovlar buxgalteriya hisobiga oid chop etilgan adabiyotlarning o'rganish natijasida soliqlar hisobining makon va zamondagi maqomi, uning hisob tizimidagi o'rni masalasi bo'yicha mualliflar qarashlari ikkita guruhga ajratish mumkin ekanligini ko'rsatdi.

**1-guruh** - bu soliqlar va majburiy to'lovlar hisobini korxonalar ichki hisob tizimining bir turi sifatida e'tirof etish.

**2-guruhg'a** soliqlar va majburiy to'lovlar hisobini buxgalteriya hisobining bir turi deb hisoblaydigan olimlarni kiritish mumkin.

Xorijiy mamlakat olimlarining aksariyati soliqlar hisobini buxgalteriya hisobining quyi tizimi, deb e'tirof etadilar. Soliqlar va majburiy to'lovlar hisobi mazmun va mohiyatiga, tashkiliy va boshqa jihatlariga ko'ra korxonalar buxgalteriyasiga yuklatilgan funksional majburiyatlardan bir hisoblanadi. Soliqlar hisobining to'g'ri va o'z vaqtida yuritishiga respublikamiz qonunlariga muvofiq korxona rahbari va bosh hisobchi moliyaviy va ma'muriy jihatdan javobgardir.

Korxonada o'rnatilgan hisob siyosatiga ko'ra soliqlar hisobi bosh hisobchining o'zi yoki alohida bo'lim, mas'ul shaxs (shaxslar) tomonidan bosh hisobchi javobgarligida olib boriladi. Bularidan xulosa qiladigan bo'lsak, soliqlar hisobini korxonalar tomonidan yuritiladigan buxgalteriya hisobidan ajratib bo'lmaydi. Demak, soliqlar hisobi umuman olganda so'zsiz buxgalteriya hisobiga tegishlidir.

**Soliqlar hisobining predmeti** bo'lib soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliq to'lovleri hisoblanadi.

**Soliqlar hisobining ob'ekti** har bir soliq turi, ular bo'yicha soliqqa tortiladigan baza, soliq imtiyozlari, soliqqa doir joriy va kechiktirilgan xarajatlar, joriy va uzoq muddatlari majburiyatlar, soliqlar bo'yicha moliyaviy, ma'muriy jarimalar, ularni undirilishi va hisobdan chiqarilishi hamda boshqalar hisoblanadi. Har bir soliq turi bo'yicha hisobning ushbu ob'ektlari o'zining mazmun va mohiyatiga, xususiyatlariga egadir. Ushbu xususiyatlar davlatimizning soliq qonunchilik hujjatlarida to'liq o'z aksini topgan, ular to'g'risida ishimizning keyingi bo'limlari yana alohida to'xtalamiz.

**Soliqlar hisobining sub'ektlari** bo'lib, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, turli mulkchilik shaklidagi va tashkiliy-huquqiy maqomdagi korxonalar hisoblanadi. Hisob

birligi sifatida ushbu korxonalar turli soliq rejimlarida faoliyat ko'rsatuvchilar bo'lib hisoblanadi.

Soliq to'lovlarini hisobga olishda buxgalteriya hisobining metodini tashkil qiluvchi usullarning barchasidan foydalaniadi. Lekin, shuning bilan birga ushbu usullarni soliq hisobida qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Misol uchun, baholash usuli negizida yotuvchi qiymat tushunchasi turli maqsadlarda turlicha mazmun kasb etadi. Chunonchi, QQSni hisob-kitob qilishda bojxona qiymati, sotish qiymati, sof sotish qiymati, haqiqiy tannarxdagi qiymati, o'rtacha qiymat, qoldiq qiymat va shu kabi qiymatning boshqa turlari qo'llaniladi. Boshqacha aytganda solqlarni hisob-kitob qilishda soliq solish ob'ektini topish uchun yaxlit shakl va mazmundagi qiymatdan foydalanimi bo'lmaydi.

### **Mavzu bo'yich nazorat savollari**

1. Savdo tashkilotlarida audit manbalari bo'lib qanday xujjatlar xisoblanadi?
2. Savdo tashkilotlarida hisob siyosatini tekshirish qanday bajariladi?
3. Savdo aylanmasini tekshirish usullarini aniqlang?
4. Chakana savdoda inventarizatsiya o'tkazish tartibi qanday?
5. Ulgurji savdoda inventarizatsiya o'tkazish tartibi qanday?
6. Tovarlar qoldig'ini me'yori qanday aniqlanadi?
7. Yalpi tushumni qanday aniqlanadi? Yalpi daromadnichi.
8. Savdo tashkilotlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni tekshirish manbasi qaysi xujjatlar hisoblanadi?
9. Savdo tashkilotlarida omborlarda va buxgalteriyada hisob yuritish tartibi qanday tashkil etiladi?
10. Moddiy javobgar shaxsni hisobotining to'g'ri yuritilishiga kim mas'ul hisoblanadi?

## **7-MAVZU: “SAVDO-TIJORAT KORXONALARIDA MUOMALA XARAJATLARI VA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **REJA:**

- 1.Savdo-tijorat korxonalarida muomala xarajatlari va moliyaviy natijalar auditini o’tkazishning maqsadi, vazifalari va ma’lumot manbalari.**
- 2.Savdo-tijorat korxonalarida muomala xarajatlari va moliyaviy natijalar auditining umumiyoq rejasiga va ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**
- 3.Savdo-tijorat korxonalarida muomala xarajatlarini sotilgan va omborda qolgan tovarlarning qiymatiga qo’shish tartibining auditi.**
- 4.Tovarlarni iste’molchilarga va vositachilarga sotish muomalalari auditi.**
- 5.Savdo ustamasi va savdo qo’shimchasini hisobga olish jarayonini audit qilish.**
- 6.Chakana savdoda sotish muomalalari auditining xususiyatlari.**
- 7.Savdo tashkilotlarining byudjet tashkilotlari bilan hisoblashishlarini audit qilishning o’ziga xos xususiyatlari.**
- 8. Savdo-tijorat korxonalarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayonini audit qilish xususiyatlari.**

**Mavzu bo’yich tayanch-so’z va iboralar:** Savdo-tijorat korxonalarida muomala xarajatlari, audit, auditor, auditorlik tekshiruvi, auditorlik tashkiloti, aylanma mablag’, kassa, kassa muomalasi, kassir hisoboti, kassa daftari, kassa cheki, kassa kirim orderi, kassa chiqim orderi, limit, limit-zabor karta, muomala xarajatlari, moliya-xo’jalik faoliyati, moddiy javobgar shaxs, moddiy javobgar shaxs hisoboti, nazorat-kassa mashinasi, omborxonasi, ombor hisobi, ombor varaqalari, ombordagi tovar qoldig’i, ombor mudiri, pul, pul muomalasi, registrlar, reja, rekvizitlar, savdo, savdo tushumi, savdo aylanmasi, savdo shahobchasi, savdo tashkiloti, tovar-moddiy boyliklari, tovar-moddiy zaxirasi, tovar aylanmasi, tovarlar qoldig’ining me’yori, tranzit, ulgurji savdo, chakana savdo.

### **1.Savdo-tijorat korxonalarida muomala xarajatlari va moliyaviy natijalar auditini o’tkazishning maqsadi, vazifalari va ma’lumot manbalari.**

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mexnatni okilona tashkil etish va rag’batlantirish xo’jalik yuritishning iqtisodiy metodlarini ishlab chiqarish va ularning ilmiy-teknika taraqqiyotini ta’minlanishini talab etadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini, birlashma, tashkilot va korxonalar xo’jalik mustaqilligini, ularning eng kam sarflar qilib, eng yuqori pirovard natijalarga erishish ma’suliyatlarini oshirish, to’la xo’jalik hisoboti, uzini-uzi mablag’ bilan ta’minlash va xarajatlarini uzi qoplashga o’tkazish, olinadigan daromadlar darajasini ular ishining samaradorligi darajasiga bevosita bog’liq bo’lishi buxgalteriya hisobi va auditni boshqaruvning faol vazifasiga aylantiradi.

Savdo tashkilotlari uchun belgilangan me’yordagi asosiy va muomala mablag’laridan samarali foydalanish audit va nazorat ishlarini to’g’ri tashkil qilishga, ularni to’g’ri rejalashtirishga bevosita bog’liq.

Audit ishlarini to’g’ri tashkil qilish faqat mablag’lardan samarali foydalanishni ta’minlabgina qolmay, balki moddiy javobgar shaxslar zimmasidagi tovar-moddiy qiymatliklarning to’g’ri saqlanishini nazorat qilish imkonini ham beradi. Auditorlik tekshiruvini to’g’ri rejalashtirish auditorlarning ish vaqtidan samarali foydalanishlari, ishni korxona faoliyatini xususiyatini hisobga olib tashkil qilishlari alovida ahamiyatga ega. Bu esa

auditorlarning tekshirish natijalarini sifatli bo'lishini, belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlaydi.

Audit ishlaringning sifatli bo'lishi birinchidan, ularni to'g'ri rejalashtirishga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, tegishli savdo tashkilotida ichki nazorat tizimi xodimlarining ish rejasiga ham bevosita bog'liq buladi. Auditorning ish rejasida audit kunlarida qanday ishlarning bajarilishi, xo'jalik faoliyatidagi paydo bo'lgan muammolarning xajmiga qarab, shu muammolarning tashkilot xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liqligi va to'g'rilingini tekshirib chiqishga ajratilgan muddatlar ko'rsatiladi.

Auditni tashkil qilish va rejalashtirish xozirgi xo'jalikni boshqarish usuli takomillashib borayotgan bir vaqtda tashkilot xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga, boshqarish samaradorligini oshirishga, tashkilot extiyolarini qondirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Audit ishlarida amalda ishlatilayotgan, ishlatilishi tuxtatilgan xukumat karorlari belgilangan me'yor hamda xujjatlarni to'g'ri taxlil qilish, ularni auditorlik tekshiruvida joriy qilish auditordan yuqori malakaga ega bo'lishni talab qiladi.

Savdo tashkilotlari uz xo'jalik faoliyatida belgilangan ko'rsatkichlarni bajarish, mexnat unumdarligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, foydalilik darajasini oshirishga ta'sir kiluvchi ichki imkoniyatlarni ishga solib, xaridorlarga savdo madaniyatini yaxshilash uchun ko'rash olib boradilar.

Xar bir savdo tashkilotida belgilangan topshiriqlarni bajarish uchun tegishli asosiy va muomala mablag'lardan to'g'ri foydalanishni va ularning to'liq saqlanishini nazorat qilishda xujjatlari tekshirish o'tkazish aloxida ahamiyatga egadir.

Xujjatlari tekshirish deb, tashkilot xo'jalik faoliyatini ma'lum bir davr ichidagi xolatini hisob va hisobot ko'rsatkichlariga asoslanib xar tomonlama chukur tekshirishga aytildi.

Audit yordamida tashkilot va korxonalarda xukumat karorlarining bajarilishi, xo'jalikda moliyaviy ishlarning to'g'ri tashkil qilinganligi, uning qonuniyligi, raxbar xodimlarning xizmat vazifalari to'g'ri olib borilishi tekshiriladi. Audit tekshiruvlarida nazorat o'tkazishning hamma turlari birlashib, audit natijalarining to'g'rilingini ta'minlaydi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulkining to'liq saqlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Audit xar bir tarmoq ichida moliyaviy ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yilganligini ta'minlabgina kolmay, ish faoliyatini yaxshilashga, ishda yul qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishda, xo'jalik hisobini joriy qilishda, bank kreditlaridan okilona foydalanishda yakindan yordam beradi. Audit natijalarining mazmunli va to'g'ri bo'lishi uning oldiga qo'yilgan vazifalarining bajarilishiga bog'liq. Bu vazifalar asosan quyidagilardan iborat:

**1.** Tashkilot moliyaviy axvolini tekshirish, ishlab chiqarish faoliyatini taxlil qilish, mablag'lardan to'g'ri foydalanishni tekshirish va amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini aniqlash;

**2.** Oldindan maksad qilingan ko'rsatkichlarning to'g'ri bajarilishini, mexnat unumdarligini va pul mablag'larining to'g'ri sarf qilinishini xujjatlar bilan rasmiylashtirishni tekshirish;

**3.** Tashkilot mulkining to'liqligini ta'minlashda tashkilot raxbarlari tomonidan chora va tadbirlarning bajarilishini tekshirish;

**4.** Mexnatga xaq to'lash fondidan okilona foydalanishni va tashkilotda shtat birligiga rioya qilishni tekshirish;

**5.** Hisob ishlarini to'g'ri tashkil qilish, hisob registridagi yozuvlarning to'g'rilingini va uning xujjatlar bilan rasmiylashtirilganligining to'g'rilingini tekshirish va x.k.

Audit tashkilotda aniqlangan kamchiliklarni fosh etibgina qolmay, tejamkorlik qonun-qoidalarining qanday yulga qo'yilganligini aniqlaydi, xo'jalik hisobini mustaxkamlashga, muomala xarajatlarini kamaytirishga va tashkilotning foydalilik darajasini yuksaltirishga yordam beradi.

Savdo tashkilotlarida ruy berayotgan kamomad va xiyonatlarning asosiy sababi ishga sovukkonlik bilan qarash, raxbar xodimlarning egallab turgan mansab mavkelarini suiste'mol qilishidir. Ikkinchi sababi moddiy javobgar shaxslarning etaricha bilimga ega bulmaganligi, tovarlarning qabul qilish tartibiga rioya kilmaslik, belgilangan baholarning buzilishidir. Savdo tashkilotlaridagi kamomad va xiyonatlarning boshqa bir sababi nazorat ishlarini uz vaqtida o'tkazmasligi, moddiy javobgarlik to'g'risidagi tashkilot bilan moddiy javobgar shaxslar o'rtasidagi shartnomalarning to'g'ri tuzilmasligidir.

Ma'lumki, korxona va tashkilotlarda audit o'tkazish asosan xujjatlar va ulardag'i yozuvlarning, hisoblarning to'g'riliгини tekshirishdan boshlanadi. Audit tekshiruvi mobaynida buxgalteriya xujjatlari shu muddatlar asosida tuzilgan hisobotlar, analitik va sintetik schetlardagi yozuvlar bilan taqqoslanadi.

Hisob ishlarining to'g'ri yulga qo'yilishi, ulardag'i yozuvlarning aniqligi auditorlik tekshiruvlarining sifatini yaxshilabgina kolmay, uning natijalari yuzasidan kuriishi kerak bo'lgan choralarining mukammal bo'lishini ta'minlaydi, savdo tashkilotlarida tovar-moddiy qiymatliklar hamda pul mablag'larining to'g'ri saqlanishini ta'minlaydi.

Xo'jalik operatsiyalarini uz vaqtida xujjatlashtirmaslik okibatida savdo tashkilotlaridagi moddiy boyliklari talon-tarojga uchraydi. Xujjatlari tekshirish o'tkazishda buxgalteriya hisobi tekshirish manbai bo'libgina kolmay bir vaqtning uzida uning asosiy kismidir. Tekshiruv davomida auditor hisob ishlarining xodimlar tomonidan qanday bajarilishini ham tekshirib ko'rishi shart. Auditorlik tekshiruvi davomidagi tekshirishda auditor hisob ishlarini yaxshi yulga kuyish uchun, uning nazorat vazifasini oshirish uchun kerakli maslaxatlar berishi mumkin. Omborlarda tovarlarni to'g'ri hisobga olishni ta'minlash savdo tashkilotlarida kamomad va xiyonatlarning oldini olishda muxim ahamiyatga ega.

Auditorlik tekshiruvi davrida auditor omborlarda tovarlar hisobi qanday tashkil qilinishi, tovarlarni saqlash va sotilish tartibiga rioya qilinishini tekshiradi. Shuningdek, kelgan tovarlarni qabul qilish tartibi bilan moddiy javobgar shaxslar tomonidan yul qo'yilgan kamchiliklarni aniqlaydi. Tekshiruv davomida qabul qilingan va chiqarilgan tovarlar to'g'risidagi xujjatlar, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari tekshiriladi. Omborlarda tovarlar hisobini to'g'ri yulga qo'yilishi me'yordan yuqori tovar zaxiralari paydo bo'lishining oldini oladi.

Auditorlik tekshiruvi tekshiruvning xajmiga qarab to'liq yoki qisman tanlab olingan xolda o'tkazilishi mumkin.

To'liq audit o'tkazishda, ba'zi bir moliya-xo'jalik muomalalarining barcha bo'g'lnlari qamrab olinadi. Masalan, korxonada pul bilan bog'liq muomalalar, ya'ni kassa hisobotlari, bank bilan bog'liq xujjatlar, inventarizatsiya natijalari va x.k. Tanlab olingan xolda o'tkaziladigan audit tekshiruvida ma'lum bir hisobotlar, bir xildagi xo'jalik operatsiyalarining to'g'riliги tekshiriladi.

Auditorlik tekshiruvi qanday tadbirda o'tkazilmasin, ularning mazmuniga qarab xujjatlar tuliq tekshiriladi va uning natijalari aniqlanadi. Mayjud tovar-moddiy boyliklarning to'liqligini tekshirishda tematik audit o'tkaziladi. Bundan asosiy maksad tashkilot xo'jalik faoliyatining ayrim bulaklaridagi xolatni yanada aniqroq bilishdir.

Tematik audit tashkilotda ish xaki fondidan foydalanishni tekshirishda, moddiy ragbatlantirish fondlaridan foydalanishning to'g'riliгини aniqlashda kup qo'llaniladi.

Savdo tashkilotlarida tematik audit tashkilot xo'jalik faoliyatining ayrim tomonlarini tekshiribgina kolmay, savdoni tashkil qilishda ilgor tajribalarni keng joriy qilishda yakindan yordam beradi.

Savdo tashkilotlari faoliyatining asosiy sifat ko'rsatkichi tovar muomalasi va foyda rejasining bajarilishi hisoblanadi. Bu ikki ko'rsatkich chakana savdo korxonalari uchun yuqori tashkilot tomonidan belgilanadi. Kolgan ko'rsatkichlar esa bevosita tashkilotning uzida belgilanadi. Tovar muomalasi va foyda rejasining bajarilishi iste'molchilarga sifatlari, ularning talabiga javob beradigan xalq iste'mol tovarlarini sotish va chakana tovar muomalasi rejasining bajarilishi bilan bog'liq.

Savdo tashkilotlari bir necha chakana savdo shaxobchalarini uziga birlashtiradi, ularning xar birida kuplab tovar zaxiralari mavjud. Shu bilan birga bu savdo tashkilotlari tovar muomalasi xajmiga, tuzilishiga qarab to'liq xo'jalik hisobida buladi. Xar bir savdo tashkilotlaridagi tovarlarning to'liqligini ta'minlash uchun ularning xar birini uz vaqtida audit qilishni oldindan rejalashtirish talab qilinadi.

Yuqori tashkilot tuzilgan audit rejasining to'g'ri tuzilganligini tekshirib, rejada hamma savdo shoxobchalarining ko'rsatilganligini aniqlab chikadi va qayta audit o'tkazish kuzda tutilganligi va kaysi mavzuda o'tkazilishini ta'minlaydi. Audit o'tkazish rejalarida qayta audit o'tkazishning ko'rsatilishi savdo tashkilotlarining ish faoliyatini chukur taxlil qilish imkoniyatini beradi va ish tartibining yaxshi yulga qo'yilishini ta'minlaydi.

Yillik audit o'tkazish rejasida birinchi navbatda belgilangan muddatlarda audit o'tkazilmagan ob'ektlar ko'rsatiladi. Mavsumiy xarakterga ega bo'lgan savdo tashkilotlarida audit o'tkazishni ish faoliyatining boshlanishigacha o'tkazish rejalashtiriladi.

Qaytadan o'tkaziladigan audit, asosan, o'tkazilgan audit ishlariiga shubxa tugilganda, auditor tomonidan yozilgan auditorlik hisoboti va xulosasi xakikiy ko'rsatkichlar bilan qarama-karshi bo'lgan paytlarda boshqa auditor tomonidan o'tkaziladi.

Audit ishlaringin yaxshilanishida auditorlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasining etarli darajada bo'lishi korxonalar xo'jalik faoliyatining moliyaviy nazoratini mustaxkamlashga qaratilgan chorallardan biridir.

Auditorlik tekshiruvlarini sifatli o'tkazish va uning ob'ektiv bo'lismi ta'minlashda auditorga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- audit o'tkazilayotgan tashkilotni xo'jalik faoliyati yuzasidan yuqori tashkilot tomonidan chiqarilgan buyruk va karorlarni uzlashtirib olishi, amalda qo'llaniladigan audit ishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan qonunlar; Nizomlar va qarorlarni yaxshi bilishi va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- tashkilot mulkini to'liq saqlashni ta'minlashda moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyatini tekshirish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish buyicha tegishli chorallarni ishlab chikish;
- ish yuzasidan tegishli jamoat tashkilotlari bilan alokada bo'lism, audit tekshiruviga taallukli bo'lgan shaxslarni qabul qilish va ular bilan suxbatlashish;
- audit o'tkazilayotgan tashkilotning hamma xujjatlari va boshqa materiallarini to'liq tekshirib, natijalarining aniq va xakikiy xolatini yozish;
- audit o'tkazishda qonunga xilof ishlar aniqlansa, audit qilinayotgan tashkilotning bosh buxgalteri va raxbariga xabar berish va ulardan yozma ravishda tushuntirish xati olish;
- audit o'tkazishda davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan qonun xujjatlari va barcha me'yoriy xujjatlarga amal qilish;
- audit ishlarini to'g'ri olib borish, tekshirish natijalarini aniq ko'rsatishda auditor uz xuquqidan to'g'ri foydalana bilishi zarur.

Auditorlik tekshiruvi boshlangandan to oxirigacha tashkilot ish faoliyatiga, xo'jalikni boshqarishga salbiy ta'sir qilmasligi kerak.

Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda barcha tomonlarning bir-biriga bog'liqligi tobora usib bormokda, bu esa istikbolni kuzlab o'zaro alokalar tizimini to'g'ri yulga qo'yilishini talab qiladi.

Audit natijalarining to'g'ri bo'lishi va uning sifatli o'tkazilishi, audit o'tkazish uchun yaratilgan sharoitga bog'liq.

Audit o'tkazish uchun etarli sharoit yaratilgandan keyin, auditor tashkilot xo'jalik faoliyatidagi tovar-moddiy qiymatliklarni son va sifat jixatidan buxgalteriya ro'yxatlardagi va hisobot ko'rsatkichlaridagi yozuvlar bilan taqqoslab tekshiradi. Bu auditorga tashkilot xo'jalik faoliyati to'g'risida ma'lumot beradi va tashkilotda amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini, ularning maksadga muvofiqligini, iqtisodiy jixatdan zarurligini va tejamkorlik qonun-koidalariqa qanday rioya qilinishini, hisob va hisobot xujjatlarining to'g'riliгини aniqlash imkoniyatini beradi.

Auditor tashkilot xo'jalik faoliyatini audit qilishda, albatta, uning boshqa soxalari bilan bo'lgan va buladigan alokadorligini aniqlab turish usul va qo'llanmalaridan to'g'ri foydalanib, xo'jalikdagi sodir bo'lgan operatsiyalarini bir-biridan ajralmagan xolda nazorat qiladi.

Audit o'tkazilayotgan tashkilotda xo'jalik faoliyatining xolatini aniqlab olish, auditorga shu tashkilot to'g'risida dastlabki umumiylar ma'lumotlarni beradi. Audit qilish jarayonida iqtisodiy taxlildan kengrok foydalanish, auditor uchun zarur bo'lgan savdo tashkilotida moliyaviy-xo'jalik axvol kay xolatda ekanligidan xabardor bo'lish va tashkilot ish faoliyatida kuchsiz tomonlarni bilib olish imkoniyatini beradi.

Audit o'tkazishda hisob ko'rsatkichlari iqtisodiy taxlil, hisob ro'yxatlari, hisobotlarni tekshirish bilan birga shunday usullar qo'llaniladiki, ular amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining to'g'riliгини tekshirishda, xujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirishda audit ishlariga yakindan yordam beradi va natijalarini aniqlashda ularga qonuniytus beradi. Shunday usullardan biri savdo tashkilotlarida inventarizatsiya o'tkazishdir.

Savdo tashkilotlarida inventarizatsiya o'tkazish deb, moddiy javobgar shaxslar zimmasidagi tovar-moddiy qiymatliklarning, pul mablag'larining natura, ya'ni son ko'rsatkichida tekshirilib, pulda ifodalanishiga aytildi.

Inventarizatsiya o'tkazishda tashkilotning tovar-moddiy qiymatliklari inventarizatsiya varaqalarida ko'rsatilib, buxgalteriya hisobining ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi.

Bunday solishtirish natijasida inventarizatsiya varaqalaridagi ko'rsatkich bilan hisob ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq aniqlanadi, aniqlangan farq inventarizatsiya natijasini (ortik yoki kamligini) ko'rsatadi. Aniqlangan natijalar buxgalteriya hisobida tegishli yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi. Bundan tashkari inventarizatsiya o'tkazishning yana bir afzalligi, talab va taklifdan chetda kolgan, iste'mol qilishga yaroksiz hamda uz to'liqligini, xususiyatini yo'qotgan tovarlarni aniqlashda yordam beradi. Bu esa tashkilotda me'yordan yuqori bo'lgan tovar zaxiralari kamaytirish va tovar yo'qolishining oldini olish, tovarlar aylanishini tezlashtirish uchun tegishli chora va tadbirlar ko'rishini ta'minlaydi.

Savdo korxonalarida audit manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- tovar etkazib berish yoki sotib olish bo'yicha tuzilgan shartnomalar;
- schet-fakturalar;
- tovar-transport yuk xatlari;
- sifat guvohnomalari;
- moddiy-javobgar shaxslar hisobotlari;
- tegishli jurnal-order qaydnomalari va x.k.

## **2.Savdo-tijorat korxonalarida muomala xarajatlari va moliyaviy natijalar auditining umumiyligi va ishechi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**

O'zbekiston Respublikasida «Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizomning kuchga kirishi moliyaviy holatni to'g'ri aniqlashga, xarajatlarni tartibga solish uchun qaratilgan chora va tadbirdan biri bo'ldi. Nizom xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yuridik va jismoniy shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasida mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni aniqlash bir xilda bo'lismeni ta'minlash maqsadida, shu bilan birga hisob va hisobot haqidagi qonunlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevral va 2003 yil 15 oktyabrdagi 444-sonli qarori bilan qabul qilingan "Mahsulot (ishlar, xizmat) tannarxiga kiritiladigan mahsulot (ishlar, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarni tarkibi hamda moliyaviy natijalarни shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomi korxona va tashkilotlarda moliyaviy natijalarni aniqlashda bir qator o'zgarishlarga olib keldi, Nizomda keltirilgan xarajatlarning turlanishi, eng avvalo, xarajatlarning to'g'ri va to'la aks ettirish, moliyaviy hisobotni tuzishda foyda va zararlarni aniqlashga qaratilgan.

Savdoda moliyaviy natijalar holatini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, asosan moliyaviy natijani shakllantiruvchi bu tovarning shartnoma, ya'ni sotib olish bahosiga qo'shiladigan savdo ustamasiidir. Savdo ustamasini tovarning sotib olish bahosiga qo'shilishi tufayli tovari sotish bahosi tashkil topadi. Savdo ustamasi tovarlarni iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni to'liq qoplaydi va (yalpi) daromadni shakllantiradi. Shuning uchun har oyda sotilgan tovarlarga taalluqli savdo ustamasining o'ttacha foizi aniqlanadi.

Savdoda sotilgan tovarlarga taalluqli bo'lgan savdo ustamasi tashkilotni sifat ko'rsatkichi deb hisoblanadi, bu summa "Savdo ustamasi" schyotining kredit tomonida ko'rsatiladi. Xarajatlар esa "Davr xarajatlari" schyotining "Sotish xarajatlari" (savdo tashkilotlari uchun muomala xarajatlari) schyotida yig'ilib boriladi.

Demak, moliyaviy natijalarini holati bevosita "Savdo ustamasi" schyotining kredit tomonidagi qoldiqqa va muomala xarajatlari holatiga nisbatan aniqlanadi. Moliyaviy natijani aniqlashda 9020 - "Tovarlarni sotishdan olingen daromadlar" schyotida jami sotilgan tovarlar summasi ko'rsatiladi. Bu schyotdagи ma'lumot moliyaviy natijani shakllantiruvchi ko'rsatkich hisoblanib, alohida ahamiyatlidir. Bu schyotda sotilgan tovarlar summasi ikkita moddiy javobgar shaxs, ya'ni kassir va moddiy javobgar shaxslarning hisobotida ko'rsatiladi, har ikkala hisobotda ham tovarlar sotish bahosida olib boriladi.

Savdo tashkilotlarining xo'jalik faoliyatida ko'zda tutilmagan foyda va zararlar shakllanishi ham mumkin. Bundan favquloddagi foyda va zararlarga shartnoma shartlarini bajarmaslik okibatida mol etkazib beruvchilardan olingen yoki ularga to'langan jarimalar kiradi. Bunday jarimalar 9710 – «Favquloddagi foyda» va 9720 - «Favquloddagi zararlar» schyotida ko'rsatiladi.

Favqulodda daromadlar ham, zararlar kabi, uchta mezonga muvofiq bo'lishi kerak:

- juda kam uchraydigan (biroq jiddiy ahamiyatga molik) hodisa bo'lishi;
- korxonaning odatdagи faoliyati bilan hech qanday aloqaga ega bo'lmasligi;
- korxona rahbariyati qarorlariga bog'liq bo'lmasligi lozim.

Ushbu asosiy mezonlarni e'tiborga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, ular juda ko'p hollarda qanday daromadlar (zararlar) favqulodda (g'ayrioddiy) deb tan olinishi mumkin degan savolga batafsil javob bermaydi. Na soliqqa oid va na buxgalteriya qonun hujjatlari ushbu masalani hal qilmaydi, holbuki buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarida u etarlicha

aniq oydinlashtirilgan. Masalan, favqulodda moddalarga quyidagilar kiradi: mol-mulkning majburiy tarzda olib qo'yilishi natijalar, yirik baxtsiz hodisalarning oqibatlari, joriy etilgan qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga muvofiq taqiqlashlar natijasida yuzaga kelgan zararlar va boshqalar.

Favqulodda daromadlar va xarajatlar hisobvaraqlaridan foydalanishga oid misollar:

- tabiiy ofatlardan keyin inventarizatsiya qilish chog'ida aniqlangan materiallar kamomadlari aks ettirilgan:

D-t 9720 «Favqulodda zararlar»

K-t 1010 «Xom ashyo va materiallar».

Moliyaviy natijalarni aniqlash maqsadlarida 9900 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotidan foydalanimadi.

9910-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'i hisobot yilda korxona faoliyatini yakuniy moliyaviy natijasini shakkantirish to'g'risidagi axborotni umumlashtirish uchun mo'ljallangan. Yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) ana shu faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar summasiga kamaytirilgan, asosiy faoliyatdan olingan daromadlar, moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va favqulodda daromadlar moliyaviy natijasining qo'shilishidir. 9910-hisobvaraqaq debeti bo'yicha korxonaning zararlari (xarajatlari), krediti bo'yicha esa— foydasi (daromadlari) aks ettiriladi. Hisobot davri uchun debet va kredit aylanmalarining taqqoslanishi hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijasini ko'rsatadi.

Har bir hisobot davrining oxirida 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ining debet va kredit tomonlarining ko'rsatkichlari jamlanadi va hisobot davri uchun umumiyl balans foydasi (yoki zarari)ni tavsiflovchi mazkur hisobvaraqaqda oid umumiyl saldo hisob-kitob qilinadi.

Hisobot yili nihoyasiga etishi bilan yillik buxgalteriya hisobotini tuzish chog'ida 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'i yopiladi. Hisobot yili sof foydasi (zarari) 9910-hisobvaraqaqdan 8710-«Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)» hisobvarag'ining debeti (zarar) yoki kreditga (sof foyda) o'tkaziladi.

Foyda ko'rilgan hollarda:

D-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 8710 «Hisobot yilidagi taqsimlanmagan foyda».

Zarar ko'rilgan hollarida:

D-t 8710 «Hisobot yilidagi taqsimlanmagan zarar»

K-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija».

Hisobot davri uchun korxona barcha daromadlari va xarajatlarining taqqoslanishi va faoliyatga oid yakuniy moliyaviy natija aniqlanishi “Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot”<sup>14</sup>da (buxgalteriya hisobotini 2-son shakli) aks ettiriladi.

Tovarlar, mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning sotilishidan olingan daromadlar korxonaning ko'proq yoki kamroq doimiy tusga ega bo'lgan, daromadlar olish bo'yicha asosiy faoliyati bilan bog'liqdir. Aynan mana shunday daromadlarni kelib tushishi (sotishdan olinadigan tushum) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot 010-satrda aks ettiriladi.

Boshqa har qanday daromadlar (tushum) boshqa faoliyatning paydo bo'lishini anglatmaydi, bu asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lмаган boshqa daromadlardir.

Boshqa operatsion daromadlar guruhi mavjud — bu asosan, mol-mulkning sotilishi, undirilgan penya, jarima, ustamalar, hisobdan chiqarilgan kreditorlik va deponentlik qarzlari singari bir martalik operatsiyalar korxonaning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lмаган

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140-sonli buyrig'iga 1-sonli ilova, O'zR AV tomonidan 2003 y. 24 yanvarda ro'yxatga olingan №1209

ko'pgina bir marotabalik boshqa daromaddir. Qolaversa, asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotilishi chog'ida yalpi daromadga jami olingan tushum emas, balki faqat sotish bahosi bilan haqiqatdagi tannarx (qoldiq qiymat — asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar uchun) o'rtasidagi farq kiritiladi. Bunday daromadlar 2-son shaklning 090-satri bo'yicha aks ettiriladi.

Shuningdek asosiy faoliyatga tegishli bo'lмаган молијавија фолијатдан олинадиган даромадлар ҳам мавjud, — булар royalti, foizlar, dividend, kurs farqlari va boshqa ko'rinishdagi daromadlardir, — булар asosan, doim faol tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lмаган «passiv» даромадлардир. Молијавија фолијатдан олинган даромадлар 110-160-satrlar bo'yicha aks ettiriladi. Agar shu kabi даромадлар maqsadga yo'naltirilgan doimiy faol faoliyat bilan — масалан, молијавија lizingdan олинган даромад каби, — bog'liq bo'lsa — unda bu narsa korxonaning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi va bunday даромадлар Молијавија natijalar to'g'risidagi hisobotning 010-satri bo'yicha aks ettirilishi kerak. Quyida «SEVINCh-A»MChJ korxonasining 2017 yil 1-yanvar holatiga молијавија natijalari to'g'risida ma'lumotlari keltirilgan.

Ushbu ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak «SEVINCh-A» MChJ korxonasining 2017 yil 1-yanvar sof foydasi 51688,9 ming so'mni tashkil etgan. Bunda davr xarajatlari 61192,9 ming so'mni tashkil etgan. Bundan tashqari korxonaning boshqa даромадлари ham мавjud, bu esa 2016 yil 1-yanvar holatiga 24329,9 ming so'mni tashkil etadi.

“Mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum” (010-satr muddasida xaridorlar va buyurtmachilardan олинган(olinishi lozim bo'lgan), soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i) va qaytarib berilgan tovarlar va tayyor mahsulotlarning qimati, shuningdek xaridorga sotish narixlari yuzasidan berilgan chegirmalar chiqarib tashlangan holda maxsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatarning realizatsiya qilinishidan tushum ko'rsatiladi.

010-satr asosiy faoliyatdan олинган даромадларни hisobga oluvchi hisobvaraqlar (9000-hisobvaraq) ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

Asosiy faoliyat turi mol-mulkni ijara (lizingga) berish bo'lib hisoblanadigan korxonalar 010-satrda hisoblab yozilgan ijara to'lovi summasini (lizingga oid to'lovini) aks ettiradilar.

Vositachi korxonalar 010-satrda komission taqdirlashlar summasini aks ettiradilar.

“Sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi” muddasi bo'yicha (020-satr) sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning tannarxi summalarini ko'rsatiladi.

Savdo korxonalari mazkur satrda sotilgan tovarlarning xarid bahosini aks ettiradi. Tovar aylanmasida (tovarlarning qabul qilinishi va sotilishida) ishtirok etmay, xizmatlar uchun to'lov ko'rinishida даромад oluvchi vositachi tashkilotlar mazkur satrni to'ldirmaydi.

Ushbu satr 9100-hisobvaraqlar ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

“Mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning sotilishidan олинган yalpi foya (zarar)” (030-satr) mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning sotilishidan олинган sof tushum bilan sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning tannarx o'rtasida farq sifatida (010-020-satrlar) aniqlanadi.

“Davr xarajatlari, jami” muddasi bo'yicha (040-satr) 050, 060, 070, 080-satrlar bo'yicha yakuniy summa aks ettiriladi. «Sotish bo'yicha xarajatlari» muddasi bo'yicha (050-satr) mahsulotlarning sotilishiga oid xarajatlari, ya'ni, mahsulotlarning iste'molchiga etkazib berilishi, transport vositalariga yuklanishi bilan bog'liq xarajatlari, marketing bilan band bo'lgan bo'limlar va xodimlarning xarajatlari va boshqalar-9410-hisobvaraq ma'lumotlari aks ettiriladi. «Ma'muriy xarajatlari»muddasi bo'yicha (060-satr) korxonani boshqarishga oid xarajatlari, boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha

xarajatlar, umum-ma'muriy maqsadlar uchun mo'ljallangan asosiy vositalarning doir xarajatlar, umumxo'jalik maqsadlaridagi xonalarning ijara to'lovlari va boshqa ma'muriy xarajatlar - 9420-hisobvaraq ma'lumotlari ko'rsatiladi.

«Boshqa operatsion xarajatlar» muddasi bo'yicha (070-satr) xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga oid xarajatlar, axboriy, auditorlik va maslahat xizmatlari haqini to'lashga oid xarajatlar, kompensatsiyalash va rag'batlantirish tusiga ega to'lovlari, ish haqini hisoblab yozish chog'ida hisobga olinmaydigan to'lovlari va xarajatlar, bank va depozitariy xizmatlari haqining to'lanishi, ishlab chiqish jarayoni, moliyaviy faoliyat bilan bog'liq bo'limgan va favqulodda xarajatlar moddalari sifatlariga ega bo'limgan operatsion faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi zararlar, jarimalar, penyalar va boshqa xarajatlar - 9430-hisobvaraq ma'lumotlari aks ettiriladi.

«Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot xarajatlari» muddasi bo'yicha (080-satr) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevralda 54-son bilan tasdiqlangan Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakillantirish tartibi to'g'risida nizomning 2,4-bo'limida keltirilgan, kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadigan hisobot davri xarajatlari - 9440-hisobvaraq ma'lumotlari aks etiriladi.

«Asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar» muddasi bo'yicha (090-satr) asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib kelishidan olingen foyda, undirilgan jarimalar, penyalar va ustamalar, o'tgan yillar foydasi, qisqa muddatli ijaradan olingen daromadlar, kreditorlik va deponentlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingen daromadlar, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning daromadlari, tekin moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar - 9300-hisobvaraq ma'lumotlari ko'rsatiladi.

«Asosiy faoliyatdan olingen foyda (zarar)» muddasi bo'yicha (100-satr) korxona asosiy faoliyatining moliyaviy natijalari ko'rsatiladi, ular mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning sotilishidan olingen yalpi foyda (zarar)dan (030-satr) davr xarajatlari summalarini chegirib tashlash (040-satr) va asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar summalarini qo'shish (090-satr) yo'li bilan aniqlanadi. «Moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlar, «jami» muddasi bo'yicha (120-satr) O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida boshqa korxonalar faoliyatida ulushli ishtirokdan olingen daromadlar, korxonaga tegishli aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha, dividendlar - 9520-hisobvaraq ma'lumotlari aks ettiriladi.

«Foizlar ko'rinishidagi daromadlar» muddasi bo'yicha (130-satr) uzoq muddatli va joriy investitsiyalarga oid foizlar ko'rinishidagi daromadlar - 9530-hisobvaraq ma'lumotlari ko'rsatiladi.

«Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing)dan olingen daromadlar» muddasi bo'yicha (140-satr) mol-mulklarni yuridik va shaxslarga uzoq muddatli ijaraga berishdan olingen daromadlar-9550-hisobvaraq ma'lumotlari aks ettiriladi.

«Valyuta kursidagi farqlardan olingen daromadlar» muddasi bo'yicha (150-satr) valyuta operatsialari bo'yicha musbat kurs farqlaridan, shu jumladan, balans tuzish sanasida balans valyuta moddalarining qayta baholanishidan olingen daromadlar - 9540-hisobvaraq ma'lumotlari ettiriladi.

«Moliyaviy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar» muddasi bo'yicha (160-satr) qimmatli qog'ozlarning qayta baholanishidan olingen daromadlar, royatli ko'rinishidagi va moliyaviy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar -9510, 9560, 9590-hisobvaraqlarning ma'lumotlari ko'rsatiladi.

«Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, jami» muddasi bo'yicha (170-satr) 180, 190, 200, 210-satrlarga oid jami summa aks ettiriladi.

«Foizlar bo'yicha ko'rinishdagi xarajatlar» moddasi bo'yicha (180-satr) banklarning kreditlari va qarzlar bo'yicha foizlar to'lanishiga oid xarajatlar - 9610-hisobvaraq ma'lumotlari ko'rsatiladi.

«Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar» moddasi bo'yicha (190-satr) uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar to'lanishiga oid xarajatlar aks ettiriladi.

«Valyuta kursidagi farqlardan ko'rilgan zararlar» moddasi bo'yicha (200-satr) valyuta operatsiyalari bo'yicha va balans tuzish sanasida balans valyuta moddalarining qayta baholashidan manfiy kurs farqlari-9620-hisobvaraq ma'lumotlari aks ettiriladi.

«Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar» moddasi bo'yicha (210-satr) qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi va tarqatilishi bilan bog'liq xarajatlar va moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar - 9630, 9690-hisobvaraqlar ma'lumotlari aks ettiriladi.

«Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar)» moddasi bo'yicha (220-satr) asosiy korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalar ko'rsatiladi, ular asosiy faoliyatidan olingan foyda (zarar) summasiga (100-satr) moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar (110-satr) summasini qo'shish va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar summasini (170-satr) chegirish yo'li bilan aniqlanadi.

«Favqulodda foyda va zararlar» moddasi bo'yicha (230-satr) favqulodda voqealar natijalari - 9710, 9720-hisobvaraqlar ma'lumotlari ko'rsatiladi.

«Daromadlar (foyda) solig'i to'lanishiga qadar foyda (zarar)» moddasi bo'yicha (240-satr) - belgisini hisobga olgan holda 220 va 230-satirlarni qo'shish natijasi daromad (foyda) solig'ining hisob-kitobi chog'ida asosiy natija bo'lib hisoblanadi.

Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektning soliq solinadigan bazasi quyidagi tarzda hisob-kitob qilinadi: daromad solig'i to'languniga qadar bo'lgan **foyda** (zarar) **qo'shuv** buxgalteriya foydasi bilan 1-son ilovada keltirilgan soliq solish uchun foyda o'rtaсидиgi doimiy farqlar; **qo'shuv yoki ayruv** 2-son ilovada keltirilgan, soliq solinadigan bazadan amalga oshirilgan xarajatlarning chegirib tashlanishi vaqtidagi tafovutlar;

**ayruv** qonun xujjalariга muvofiq soliqlarga oid imtiyozlar; **barobar** daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza.

«Daromad (foyda) solig'i» bo'yicha (250-satr) hisobot davrining boshidan hisoblab yozilgan, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan daromadlar (foyda) solig'i summalar - 9810-hisobvaraq ma'lumotlari ko'rsatiladi.

«Foydadan olingan boshqa soliqlar va yg'imlar» moddasi bo'yicha (260-satr) korxona tomonidan foyda hisobidan to'lanadigan, yil boshidan boshlab hisoblab yozilgan soliqlar va yg'imlarning summasi (masalan, infratuzilmani rivojlantirish solig'i) - 9820-hisobvaraq ma'lumotlari aks ettiriladi. Amaldagi qonun xujjalariга muvofiq soliq solishning alohida tartibi nazarda utilgan korxonalar 260-satrda hisoblab yozilgan yagona soliq, yalpi tushumdan soliq, hisoblangan daromaddan yagona soliq, yagona er solig'i summasida aks ettiradi.

«Hisobot davrining sof foydasi (zarari)» moddasi bo'yicha (270-satr) 240-250-260-satrlar farqi sifatida aniqlangan hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijasi ko'rsatiladi; u 9910-hisobvaraq bo'yicha sal'doga muvofiq bo'lishi lozim.

### **3.Savdo-tijorat korxonalarida muomala xarajatlarini sotilgan va omborda qolgan tovarlarning qiymatiga qo'shish tartibining audit.**

Korxona va tashkilotlar uz oldilariga qo'ygan maksadlariga erishishi, maxsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni iste'molchilarga etkazib berishda bir-birlari bilan o'zaro

alokalar olib boradilar. Xalq iste'mol tovarlarini xaridorlarga uz vaqtida sifatli va belgilangan navlarda etkazib berishni ta'minlashda, sanoat korxonalari bilan savdo tashkilotlari o'rtasidagi aloqani mustaxkamlashda ulgurji savdo tashkilotlari aloxida ahamiyat kasb etadi.

Ulgurji savdo tashkilotlari belgilangan chakana tovar muomalasi rejasini bajarishda, xalq iste'mol tovarlariga bo'lgan talabni kondirishda chakana savdo tarmoqlariga bevosita ta'sir qiladi.

Ulgurji savdo tashkilotlari tovar muomalalarining boshlanish xolati bo'lib, uz ish faoliyatini asosan sanoat korxonalaridan chakana savdo tashkilotlari tovarlarni etkazib beruvchi sifatida olib boradi va xalq iste'mol tovarlariga bo'lgan talablarning bajarilishida chakana savdo tarmoqlariga yordam beradi. Sanoat korxonalarida tovarlar navini kengaytirishga, chakana savdoni to'g'ri tashkil qilishga faol ta'sir qiladi.

Ulgurji savdoning yana bir afzalligi shundaki, tovar zaxiralarini aniqlash va ularni savdoga jalb qilish, maxalliy sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'molga chiqarish, shu bilan birga mavsumiy va ma'lum maksadlar uchun belgilangan tovar zaxiralarining to'liqligini ta'minlaydi.

Savdo tashkilotlarda tovar operatsiyalarini audit qilishda tovarlarning mol etkazib beruvchilardan tuzilgan shartnomalarga asosan kelishi, ularning omborlarga qabul qilinishi tartibi – saqlash, sotuvga tayyorlash, mayjud tovar zaxiralarining tashkilot uchun belgilangan me'yorga teng kelishi tekshiriladi.

Ulgurji va chakana savdo tashkilotlarda tovar operatsiyalarini audit qilishning asosiy vazifalaridan biri belgilangan tovar-oborot rejasining bajarilishini aniqlash, ularni tasdiqlovchi xujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishini nazorat qilishdir. Ulgurji va chakana savdo tashkilotlaridagi mayjud tovarlar tegishli moddiy javobgar shaxslarning zimmasiga yuklangan.

Tovar operatsiyalarini audit qilish ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirilib, tashkilotning tuzilishiga, hisob ishlarining tashkil qilinishiga, auditorga berilgan topshirilgarga bog'liq. Tovar operatsiyalarini audit qilishda omborlardagi iste'molga yaroksiz bo'lgan tovarlarni aniqlash tartibi va ularning kaysi manbalardan koplanganligi, ularni boshqa yillar bilan taqqoslangandagi xolati auditor tomonidan hisoblab chiqiladi.

Savdo tashkilotlarda amalga oshirilgan operatsiyalarning asosiy kismini tovarlarning xarakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar tashkil qiladi. Shuning uchun auditorlik tekshiruvlari ayrim operatsiyalarning to'g'rilingini tekshirish tanlab olingan xolda o'tkaziladi. Tanlab olingan xolda tekshirish o'tkazilayotganda (operatsiyalarni) oy davomida yoki un kunlik ichidagi bajarilgan operatsiyalarini audit qilish maksadga muvofiq.

Savdo tashkilotlarda tovar operatsiyalarini audit qilish natijasida ularning to'liqligi, sifat jixatidan iste'molga yaroqliligi, tegishli xujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi to'g'risida etarli ma'lumot olinadi.

Savdo tashkilotlaridagi tovar - moddiy qiymatliklarning to'liqligini saqlashda inventarizatsiya muxim urin egallaydi. Inventarizatsiya yordamida tovarlar mikdori va sifatining moddiy javobgar shaxslar tomonidan to'g'ri saqlanishi hisob-kitob qilinadi.

Inventarizatsiya nazorat usullari ichida asosiy urin tutadi.

Tashkilot xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar, ya'ni moliya rejasining bajarilishi, iqtisodiy tejamkorlik, xo'jalik hisobi, xo'jalik operatsiyalarini to'g'ri bajarish, hisob ishlarining xolati audit qilayotganda xar bir ko'rsatkich aloxida-aloxida tekshiriladi. Bunday tekshirish olib borishda shunday usullarni qo'llash talab qilinadi, ular orqali audit natijalarining aniqligi ta'minlanishi kerak. Ana shunday usullardan biri tovarlarni inventarizatsiya qilishdir.

Korxonalar mulkining to'liqligini ta'minlashda inventarizatsiya o'tkazish muxim ahamiyatga ega. Inventarizatsiya natijasida kamomad va xiyonatlar aniqlanibgina qolmasdan, ularning kelib chiqish sabablari ham aniqlanadi. Savdoni tashkil qilishda yul qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi. Shuning uchun inventarizatsiyaning uz vaqtida va sifatlari o'tkazilishi buxgalteriya hisobidagi yozuvlarning to'g'riligini, mablag'larning saqlanishi ustidan nazorat qilishi ta'minlaydi.

Inventarizatsiyalar moddiy javobgar shaxslarning ishi ustidan kuzatuv olib borishga yordam beradi, ularning zimmasidagi tovarlar, xom ashyo va materiallarni uz vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirishdagi javobgarligini ta'minlaydi. Shu bilan birga tovar-moddiy boyliklar saqlanayotgan omborlarning xolatini yaxshilash (ulchov asbollarining xolatini tekshirish) imkoniyatini beradi. Inventarizatsiya deb, mavjud tovar - moddiy boyliklarni natura xolida sanab, o'lchab, tortib, ularni pul ifodasida hisob-kitob qilib, buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlariga taqqoslab natijalarini aniqlashga aytildi.

Savdo korxonasidagi tovarlar inventarizatsiya qilinganda, ularning xolati qanday tartibda vitrinalarda ko'rsatilgan bo'lsa, shu tartibda inventarizatsiya o'tkazishda son jixatdan sanalib, ulchanib chiqiladi va inventarizatsiya ro'yxatlarda ko'rsatiladi.

Inventarizatsiya ro'yxatining xar bir varagida ko'rsatilgan tovarlarning tartib raqami, umumiy mikdori, summasi ro'yxatning oxirida suz bilan yozib boriladi.

Inventarizatsiya to'liq tugallangandan keyin hamma ro'yxatlardagi summalar jamlanib, inventarizatsiya natijalarini aniqlash uchun xujjatlar tayyorlanadi. Ayrim xollarda o'tkazilgan inventarizatsiya natijalarining to'g'riligini aniqrok bilish uchun tanlab olingan xolda qayta nazorat inventarizatsiyasi o'tkaziladi.

### **NAZORAT O'TKAZISH DALOLATNOMASI**

Ro'yxat buyicha	Tovarning nomi, sorti, artikuli	Pres-traqami	Ulchov birligi	Bahosi	Ro'yxatda ko'rsatilgan		xakikiy aniqlandi		Farqi			
					soni	summasi	soni	summasi	ko'p	oz		
12	Atlas-12	0411	M	500	21	105000	20	10000	1	500	-	-
16	Bo'z	2	M	0	150	75000	156	0	0	6	300	-
20	Satin-16	1401	M	500	40	64	50	78000	10	16	0	-
		1309		16				80				

Qayta tanlab olingan xolda o'tkazilgan inventarizatsiya natijalariga asosan ro'yxatda ko'rsatilgan summalarga nisbatan 5000 so'm kup, 3000 so'm kam yozilganligi aniqlandi va x.k.

**Auditor \_\_\_\_\_ imzo**

Inventarizatsiya komissiyasi a'zolari:

Moddiy javobgar shaxs.

Inventarizatsiya ro'yxatlarining to'g'riliqi tekshirilgandan keyin bir nusxasi tashkilot buxgalteriyasiga beriladi, ikkinchi nusxasi auditorda koladi. Moddiy javobgar shaxslar tomonidan ro'yxatlarda yul qo'yilgan arifmetik xatolar inventarizatsiya yakunlari aniqlangandan keyin topilsa, bu to'g'rida inventarizatsiya o'tkazish komissiyasiga yoki tashkilot raxbariga xabar qilinishi kerak. Aniqlangan xatolikning to'g'riliqini hisob-kitob qilinib, qo'shimcha yozuvlar kiritiladi. Agar auditor qayta nazorat inventarizatsiyasi o'tkazishda aniqlangan farqlarga shubxa bilan qarasa, qaytadan to'liq inventarizatsiya o'tkazish uchun yangi komissiya tuzishi mumkin.

#### **4.Tovarlarni iste'molchilarga va vositachilarga sotish muomalalari audit.**

Ulgurji savdo korxonalari uyushmasiga kiruvchi hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalarni ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi 357-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Korxona va tashkilotlar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishi, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni iste'molchilarga etkazib berishda bir-birlari bilan o'zaro aloqalar olib boradilar. Xalq iste'mol tovarlarini xaridorlarga o'z vaqtida sifatli va belgilangan navlarda etkazib berishni ta'minlashda, sanoat korxonalari bilan savdo korxonalari o'rtasidagi aloqani mustahkamlashda ulgurji savdo korxonalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ulgurji savdo korxonalari belgilangan chakana tovar muomalasi rejasini bajarishda, xalq iste'mol tovarlariga bo'lgan talabni qondirishda chakana savdo tarmoqlariga bevosita ta'sir qildi.

Ulgurji savdo korxonalari tovar muomalalarining boshlanish holati bo'lib o'z ish faoliyatini asosan sanoat korxonalaridan chakana savdo korxonalariga tovarlarni etkazib beruvchi sifatida olib boradi va xalq iste'mol tovarlariga bo'lgan talablarning bajarilishida chakana savdo tarmoqlariga yordam beradi. Sanoat korxonalarida tovarlar navini kengaytirishga, chakana savdoni to'g'ri tashkil qilishga faol ta'sir qiladi.

Ulgurji savdoning yana bir afzalligi shundaki, tovar zaxiralarini aniqlash va ularni savdoga jalb qilish, mahalliy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'molga chiqarish, shu bilan birga mavsumiy va ma'lum maqsadlar uchun belgilangan tovar zaxiralarining to'liqligini ta'minlaydi.

Savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini audit qilishda tovarlarning tuzilgan shartnomalarga asosan mol etkazib beruvchilardan kelishi, ularning omborlarga qabul qilinishi tartibi – saqlash, sotuvga tayyorlash, mavjud tovar zaxiralarining tashkilot uchun belgilangan me'yorga teng kelishi tekshiriladi.

Ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini audit qilishning asosiy vazifalaridan biri belgilangan tovar-aylanma rejasining bajarilishini aniqlash, ularni tasdiqlovchi hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishini nazorat qilishdir. Ulgurji va chakana savdo korxonalaridagi mavjud tovarlar tegishli moddiy javobgar shaxslarning zimmasiga yuklangan.

Auditor ulgurji savdo faoliyati bilan shug'llanuvchi korxonlarda soliq bilan bog'liq munosabatlar ham o'rganishi lozim. Ulgurji savdo korxonalarida soliq munosabatlari "Ulgurji savdo korxonalari tomonidan yagona soliq to'lovini bo'nak to'lovlarini hisobga olgan holda to'lash tartibi to'g'risida"gi, "Yagona soliq to'loving eng kam miqdori

kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari Soliq kodeksining 374- moddasida keltirilgan bo'lib, unga asosan auditor savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritilishini tekshirishi shart. Shu bilan bir qatorda auditor daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari sifatida quyidagilarni o'rganadi:

- chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

- Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlарining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Tovar operatsiyalarini audit qilish ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirilib, tashkilotning tuzilishiga, hisob ishlarining tashkil qilinishiga, auditorga berilgan topshiriqlarga bog'liq. Tovar operatsiyalarini audit qilishda omborlardagi iste'molga yaroqsiz bo'lgan tovarlarni aniqlash tartibi va ularning qaysi manbalardan qoplanganligi, ularni boshqa yillar bilan taqqoslangandagi holati auditor tomonidan hisoblab chiqiladi.

Savdo korxonalarida amalga oshirilgan operatsiyalarning asosiy qismini tovarlarning harakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar tashkil qiladi. Shuning uchun auditorlik tekshiruvlari ayrim operatsiyalarning to'g'rilingini tekshirish tanlab olingan holda o'tkaziladi. Tanlab olingan holda tekshirish o'tkazilayotganda (operatsiyalarni) oy davomida yoki o'n kunlik ichidagi bajarilgan operatsiyalarni audit qilish maqsadga muvofiq.

Savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini audit qilish natijasida ularning to'liqligi, sifat jihatidan iste'molga yaroqliligi, tegishli hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi to'g'risida etarli ma'lumot olinadi. Savdo korxonalaridagi tovar-moddiy qiymatliklarning to'liqligini saqlashda inventarizatsiya muhim o'r'in egallaydi. Inventarizatsiya yordamida tovarlar miqdori va sifatining moddiy javobgar shaxslar tomonidan to'g'ri saqlanishi hisobkitob qilinadi. Inventarizatsiya nazorat usullari ichida asosiy o'r'in tutadi.

Tashkilot xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar, ya'ni moliya rejasining bajarilishi, iqtisodiy tejamkorlik, xo'jalik hisobi, xo'jalik operatsiyalarini to'g'ri bajarish, hisob ishlarining holati audit qilinayotganda har bir ko'rsatkich alohida-alohida tekshiriladi. Bunday tekshirish olib borishda shunday usullarni qo'llash talab qilinadi, ular orqali audit natijalarining aniqligi ta'minlanishi kerak.

Inventarizatsiya natijasida kamomad va xiyonatlar aniqlanibgina qolmasdan, ularning kelib chiqish sabablari ham aniqlanadi. Savdoni tashkil qilishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi. Shuning uchun inventarizatsiyaning o'z vaqtida va sifatlari o'tkazilishi buxgalteriya hisobidagi yozuvlarning to'g'riligini, mablag'larning saqlanishi ustidan nazorat qilishni ta'minlaydi.

Inventarizatsiya moddiy javobgar shaxslarning ishi ustidan kuzatuv olib borishga yordam beradi, ularning zimmasidagi tovarlar, xomashyo va materiallarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirishdagi javobgarligini ta'minlaydi. Shu bilan birga tovar-moddiy boyliklar saqlanayotgan omborlarning holatini yaxshilash (o'lchov asboblarining holatini tekshirish) imkoniyatini beradi.

Savdo korxonasidagi tovarlar inventarizatsiya qilinganda, ularning holati qanday tartibda rastalarda ko'rsatilgan bo'lsa, shu tartibda inventarizatsiya o'tkazishda son jihatdan sanalib, o'lchanib chiqiladi va inventarizatsiya ro'yxatlarda ko'rsatiladi.

Inventarizatsiya ro'yxatining har bir varag'ida ko'rsatilgan tovarlarning tartib rahami, umumiyligini miqdori, summasi ro'yxatning oxirida so'z bilan yozib boriladi. Inventarizatsiya to'liq tugallangandan keyin hamma ro'yxatlardagi summalar jamlanib, inventarizatsiya natijalarini aniqlash uchun hujjatlar tayyorlanadi. Ayrim hollarda o'tkazilgan inventarizatsiya natijalarining to'g'riliqini aniqroq bilish uchun tanlab olingan holda qayta nazorat inventarizatsiyasi o'tkaziladi.

Inventarizatsiya ro'yxatlarining to'g'riliqi tekshirilgandan keyin bir nusxasi tashkilot buxgalteriyasiga beriladi, ikkinchi nusxasi auditorda qoladi. Moddiy javobgar shaxslar tomonidan ro'yxatlarda yo'l qo'yilgan arifmetik xatolar inventarizatsiya yakunlari aniqlangandan keyin topilsa, bu to'g'rida inventarizatsiya o'tkazish komissiyasiga yoki tashkilot rahbariga xabar qilinishi kerak. Aniqlangan xatolikning to'g'riliqi hisob-kitob qilinib, qo'shimcha yozuvlar kiritiladi. Agar auditor qayta nazorat inventarizatsiyasi o'tkazishda aniqlangan farqlarga shubha bilan qarasa, qaytadan to'liq inventarizatsiya o'tkazish uchun yangi komissiya tuzishi mumkin.

Ulgurji savdo korxonalar o'z ish faoliyatlarini sanoat korxonalaridan tovarlarini iste'molchilarga etkazib berishda asosiy vositachi sifatida olib boradilar va chakana tovar muomalasi rejasining bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Shuning uchun ulgurji savdo korxonalarida tovar va material qiymatliklarning to'liqligini ta'minlash tovar operatsiyalarini audit qilishda alohida ahamiyatga ega.

Audit o'tkazishda tovarlarning omborlarda to'g'ri saqlanishi, uning sifati, savdo korxonalarining moddiy-texnika bazasi kerakli inventarlar bilan to'liq ta'minlanganligi nazorat qilib boriladi.

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlar asosan mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan keltiriladi va moddiy javobgar shaxslar tomonidan tegishli omborlarga qabul qilinadi. Auditor shartnoma shartlarining bajarilishini va ularning qanday tartibda ro'yxatga olinishini, mol etkazib beruvchilarga qilingan da'vo summalarining to'g'riliqi va sababini aniqlab chiqishi kerak.

Ulgurji savdo korxonalarining tovar muomalasi rejasini bajarishi, tovarlar harakatining bir me'yorda olib borilishi, tovar zaxiralarning belgilangan me'yorda bo'lishini ta'minlashda mol etkazib beruvchilar bilan ulgurji savdo korxonalar o'rtasida tuzilgan shartnomalarning qonuniyligi o'z vaqtida bajarilishi va ko'rsatilgan shartlarga har ikkala tomonlarning rioya qilishi alohida o'rinni egallaydi. Chunki shartnoma shartlariga rioya qilmaslik mol etkazib beruvchilar va savdo korxonalarining xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun audit o'tkazilayotganda mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarning to'g'ri tuzilganligi, hamma rekvizitlari bo'yicha aniq rasmiylashtirilganligi, ularning belgilangan muddatlarda bajarilishi auditor tomonidan aniqlanadi.

Auditor mol etkazib beruvchilardan kelgan tovarlarni omborlarga qabul qilish tartibi bilan bevosita tanishib va qabul qilingan tovarlar bo'yicha hisob-kitob ishlarining qanday tashkil qilinganligini tekshirib chiqadi. Bunday tekshirish o'tkazilayotganda mol etkazib

beruvchilardan kelgan tovarlarning o'z vaqtida qabul qilinishiga, belgilangan tovarlarni qabul qilish tartibiga rioya qilinishiga alohida ahamiyat beradi.

Agar tekshirish natijalariga ko'ra tovarlarni qabul qilish o'z vaqtida bajarilmagan bo'lsa, u holda uning sababi aniqlanadi.

Tovarlarni qabul qilish bilan bog'liq operatsiyalar audit qilinayotganda «Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar» schyotining yozuvlari, analitik schyotlarning ko'rsatkichlaridagi yozuvlar moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari bilan solishtirilgan holda tekshiriladi. Agar tekshirish davomida tovar hisobotlaridagi, tovarlarning harakatini hisobga oluvchi jurnal-orderdagи yozuvlar o'chirilgan bo'lib, boshqa yozuvlar ko'rsatilgan bo'lsa, bu haqda tegishli javobgar shaxslardan bu to'g'rida tushuntirish xatlari talab qilinadi. Tovarlarning to'g'ri hisob qilinishi tekshirilayotganda «Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar» schyotining yozuvlari ham auditor tomonidan aniqlanadi. Bunday tekshiruv natijasida «Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar» schyotida da'vo summalarining yo'qligi, ko'rsatilgan summalarining tegishli hujjatlarga asosan yozilganligi aniqlanadi.

Agar audit o'tkazilayotganda tovar-moddiy qiymatliklarning buzilishi to'g'risida dalolatnomalar borligi aniqlansa, ularning to'g'riliqi, tovarlar kamayishining to'g'ri hisoblanganligi me'yordan yuqori bo'lsa, aybdor shaxslar bo'yicha to'g'ri ko'rsatilganligi aniqlanadi. Tovarlarni qabul qilish tartibi va hisob yozuvlarida ko'rsatilishi tekshirilayotganda «Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar» schyoti bo'yicha yuritiladigan jurnal-orderlardagi yozuvlarning to'g'riliqi ham tekshiriladi.

Ulgurji savdo korxonalarining chakana savdo korxonalariga tovarlarni o'z vaqtida etkazib berishi, tovar muomalasi rejasining bajarilishini ta'minlaydi.

Ulgurji savdo korxonalaridan tovarlar chakana savdo korxonalariga tuzilgan shartnomalarga asosan etkazib beriladi. Shuning uchun tovarlar sotilishi tekshirilayotganda shartnomalarning mavjudligi, tovarlarni sotishga tayyorlash tartibi, tovarlarni iste'molchilarga jo'natishni hujjatlashtirish, ularni belgilangan navlarda bo'lishini ta'minlash kabi ishlar auditor tomonidan tekshiriladi. Auditor tovar oluvchilarga junatilgan tovarlarni to'g'ri hujjatlashtirishga, hujjatlar aylanmasiga alohida ahamiyat berishi kerak. Buning uchun u chakana savdo korxonalariga jo'natish uchun tayyorlangan tovarlarni tasdiqlovchi hujjatlar bilan solishtirilib, tekshirish o'tkazishi lozim.

Ulgurji savdo korxonasidan tovarlar ikki xil tartibda sotiladi:

- tovarlarni tranzit usulda sotish;
- tovarlarni ombor orqali sotish.

Tovarlarni tranzit usulda sotish xo'jalik faoliyatining sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki bu usulda xarajatlarni kamaytirish, tovari iste'molchilarga sifatlari va tez etkazib berish uchun sharoit yaratiladi.

Tovarlar qaysi tartibda sotilishidan qat'iy nazar, auditor tovarlarni jo'natish, sotish sharoitlarining bajarilishini, shuningdek tashkilotlararo tovarlarni jo'natish va sotishda ularning to'liqligini, belgilangan navlarda junatilishini tekshirib chiqadi. Tekshirish natijasida tashkilotlararo va tashkilot doirasida tovarlarni jo'natish va sotish shartlariga rioya qilinmagan bo'lsa, u holda auditor ularning sabablarini aniqlab chiqib, maxsus dalolatnomalarda ko'rsatadi. Tovar oluvchi tashkilot, mol etkazib beruvchi tashkilotlar bilan tovarlar uchun tegishli hisob-kitob ishlarini olib boradilar. Hisob-kitob ishlarining o'z vaqtida belgilangan muddatlarda bajarilishi pul mablag'laridan to'g'ri foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun to'lov hujjatlarining o'z vaqtida bajarilishini tekshirish kerak. Ayrim hollarda hisob-kitob ishlarini o'z vaqtida bajarmaslik tegishli jarima summalarining kelib

chiqish manbai bo'lib qoladi, bunday holda auditor tegishli jarima summalarining kelib chiqish sabablari va tegishli aybdor shaxslarni aniqlab chiqadi.

Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalari audit qilinayotganda omborlardagi mavjud tovar-moddiy qiymatliklarning moddiy javobgar shaxslar tomonidan to'g'ri saqlanishi aniqlanadi. Buning uchun auditor omborlardagi tovarlarning turlari, assortimenti, navi va partiyalari bo'yicha saqlanishini bevosita ombor mudiri, bosh buxgalter ishtirokida ombordagi haqiqiy saqlanayotgan tovarlarni tasdiqlovchi maxsus hisob kartochkasidagi ma'lumotlar bilan solishtirib, haqiqiy holati tekshiriladi.

Ulgurji savdo korxonalarida tovar muomalasi rejasining bajarilishi 4-SB shakl «Ulgurji tovar muomalasi va tovarlar qoldig'i to'g'risida hisobot» shaklida olib boriladi. Bu shaklning o'ziga xos xususiyati shundaki, reja ko'rsatkichlarining bajarilishi uch oylik bo'yicha alohida-alohida ko'rsatiladi. Audit o'tkazilayotganda tovar muomalasi rejasining bajarilishi shu shakldagi yozuvlarning 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar» schyotidagi yozuvlar bilan mos kelishi tekshiriladi.

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarni sotish rejasining bajarilishi, birinchidan, tovarlarni o'z vaqtida tovar oluvchilarga etkazib berish rejasining bajarilishiga, ikkinchidan, tovar oluvchi tashkilotlar tomonidan to'lov hujjatlarining o'z vaqtida to'lanishiga bog'liq. Shuning uchun auditorlik tekshiruvini o'tkazishda tovarlarni omborlardan jo'natish rejasining bajarilishi tekshiriladi.

##### **5.Savdo ustamasi va savdo qo'shimchasini hisobga olish jarayonini audit qilish.**

Savdo tashkilotlari xalq iste'mol tovarlarini iste'molchilarga etkazib beradi va ularning iste'mol tovarlariga bo'lgan talablarini to'la qondirishda bevosita ishtirok etadi.

Savdo do'kon va boshqa savdo shoxobchalaridagi mavjud tovarlar albatta belgilangan navlarga, sifat buyicha talabga javob berishi kerak.

Savdo tashkilotlaridagi tovarlarni sifat, son jixatdan to'liqligini ta'minlashda, xar bir do'kon uchun belgilangan tovar zaxiralarning me'yordagi xolatini va tovarlarning xarakati bilan bog'liq bo'lgan muomalalarning uz vaqtida to'g'ri rasmiylashtirilganligini aniqlashda audit o'tkazish tartibi, qo'llaniladigan usullar, audit manbalari buyicha savdo tashkilotlarida audit o'tkazish ulgurji savdo tashkilotlarda audit o'tkazishga yakindir, lekin uzining ayrim xususiyatlari bilan ular bir-biridan farq qiladi. Savdo tashkilotlaridan tovarlar bevosita xaridorlarga etkazilib berilishi tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni va savdo pulini to'g'ri hisob-kitob qilish, ularni moddiy javobgar shaxslar zimmasidan kamaytirishni to'g'ri tashkil qilish bilan bog'liq. Audit ishlari tovar muomalasi rejalarining bajarilishini aniqlash bilan boshlanadi. Chunki chakana savdo tashkilotlarida tovar muomalasi rejasining bajarilishi asosiy ko'rsatkich bo'lib, bu ko'rsatkich tashkilotning boshqa sifat ko'rsatkichlariga ham ta'sir qiladi.

Tovar muomalasi rejasining bajarilishi tekshirilmaganda «Tovarlarning sotilishi» schyotining debet va kredit tomonining muomalalari «Kassa», «Tovarlar» schyotining muomalalari va shu bilan birga «Tovar muomalasi buyicha maxsus ssuda» schyotidagi yozuvlar solishtirib tekshiriladi.

Buxgalteriya hisobotlarda tovar muomalasi summasi 4 – hisobotning chakana tovar muomalasi bo'limida ko'rsatilgan bo'lib, audit jarayonida hisobotda ko'rsatilgan tovar muomalasi summasini tegishli hisob yozuvlardagi summalar bilan tengligi tekshiriladi.

Agar audit o'tkazilayotgan tashkilotda tovar muomalasi rejasining bajarilmayotgani aniqlansa, uning sabablari, tovarlarining holati taxlil qilinadi. Ayrim xollarda tashkilot rahbarlari tomonidan tovar muomalasi rejasining bajarilishi to'g'risida qalbaki ma'lumotlar berilishi mumkin, bunday xollar aniqlansa, auditorlik tekshiruvi tugallanmasdan turib

auditor bu xakda yuqori tashkilot raxbarlariga yozma ravishda ma'lumot berishi va hisob ko'rsatkichlarini, hisobotlarni audit davri buyicha boshidan oxirigacha ko'rib chikishi kerak.

Auditor tashkilotda tovar muomalalarini tekshirishni asosan tanlab olingan xolda olib boradi. Tanlab olingan xolda audit o'tkazilayotganda xatoliklar aniqlansa, tashkilot va uning do'konlaridagi mavjud tovarlar to'liq inventarizatsiya qilinadi va audit muddatini ma'lum vaqtga uzaytirilishini yuqori tashkilot raxbarlaridan talab qiladi.

Savdo tashkilotlarida tovar muomalalari audit qilinayotganda mol etkazib beruvchi yoki ulgurji savdo tashkilotining baza va omborlardan kelgan tovarlarni moddiy javobgar shaxslar tomonidan qabul qilish tartibi, tegishli tulov xujjatlarining rasmiylashtirilishi, tovar hisobotlarni uz vaqtida buxgalteriyaga topshirilishi va tegishli jurnal-orderlarda to'g'ri ko'rsatilishi tekshiriladi.

Buxgalteriyada «Tovarlar» schyotining «Savdo tashkilotlaridagi» ilova schyotidagi yozuvlar bilan «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisoblashishlar» schyotidagi yozuvlar bir-birlarini solishtirish yuli bilan tekshiriladi.

Savdo tashkilotlarida tovar muomalalarini audit qilish va tovarlar to'liqligini ta'minlashda, ayniksa, «Tovarlar» schyotining «Savdo tashkilotlaridagi» ilova schyoti bilan moddiy javobgar shaxslarning hisoblaridagi qoldiq summalarining bir-biriga tengligini aniqlash yaxshi natijalar beradi. Shu bilan birga analitik schyotlardagi yozuvlarning to'g'riliq ham bir vaqtning uzida nazorat qilinadi.

Audit o'tkazilayotgan tashkilotda tovar muomalalarining to'g'riliqi, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari o'z muddatida to'g'ri tuzilishi va buxgalteriyaga topshirilishi auditor tomonidan tekshirib chiqilishi kerak. Bunday tekshirishda tovar hisobotida ko'rsatilgan kirim va chiqim xujjatlari, kassa hisobotlaridagi yozuvlar bir vaqtning uzida tekshirib boriladi. Agar tekshirish davomida do'konlararo tovar muomalalari amalgamoshirilgan bo'lsa, uning sababi, muomala mazmuni, hisobotlarning to'g'riliqi aniqlanadi.

Tekshirish natijalari ko'p hollarda sotilgan tovarlarga taalluqli bo'lgan tabiiy kamayish me'yorlarini to'g'ri aniqlashga bog'liq. Bunday summalarining to'g'ri hisoblanmaganligini bilish uchun auditor tuzilgan hisob-kitoblarni tekshirib ko'rishi, tegishli buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilganligini aniqlab chikishi kerak.

Audit jarayonida singan, iste'molga yaroqsiz tovarlar uchun tuzilgan dalolatnomalarning borligi aniqlansa, ularning to'g'ri tuzilganligi, komissiya a'zolari tomonidan imzolanganligi, aybdor shaxslarning bor yoki yo'qligi aniqlanadi.

Keyingi yillarda savdo madaniyatini yaxshilash, uning ilgor usullarini keng joriy qilish maksadida uz-uziga xizmat kiluvchi do'konlarda sotilgan tovarlarga qo'shimcha tabiiy kamayish me'yorlari belgilangan. Bunday me'yorlarni sotilgan tovarlar summasiga nisbatan to'g'ri hisob-kitob qilinganligi ham tekshiriladi. Buning uchun auditor uz-uziga xizmat kiluvchi do'konlarning tovar aylanmasini hisoblab chikishi zarur.

Savdoda tovarlarning bir tashkilot ichidagi xarakatini nazorat qilish uchun moddiy javobgar shaxslarning tovar hisoboti asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun auditor tuzilgan hisobotlarni uz vaqtida sifatli tuzilganligini bilish uchun ayrimlarini tanlab olgan xolda tekshirib chikadi. Agar tekshirish natijasida tovarlarni bir do'kondan ikkinchi do'konga o'tkazish yullari aniqlansa, u xolda buning sababini, bu to'g'rida tashkilot raxbarining farmoyishi borligini tasdiqlovchi xujjatlarining to'liqligini aniqlab, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlaridagi yozuvlarni bir-biriga solishtirish yo'li bilan tekshiradi. Agar tovarlar mol etkazib beruvchilarga qaytarilgan bo'lsa, u xolda qaytarilgan tovarlar uchun kelgan summalarini bankning ko'chirmalariga asosan aniqlaydi.

Savdo korxonalarida auditorlik dalillarning miqdor va sifat ko'rsatkichlariga, shuningdek ularni olish maqsadida bajariladigan amallarga nisbatan qo'yildigan talablar №

50 – «Auditorlik dalillari» nomli auditorlik faoliyatini milliy standartida belgilangan. Ushbu standart talablarini barcha auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish chog'ida qo'llashi majburiydir.

Savdo korxonani hisobotlarning haqqoniyligini asoslashi uchun quyiladigan amallarni bajarish natijasida etarli auditorlik dalillarini to'plashi lozim:

-schyotlar bo'yicha oborotlar va qoldiqlarning hisobotda to'g'ri aks ettirilishini batafsil tekshirish;

-tahliliy amallar qo'lash tovarlar bo'yicha tekshirish tartibini ishlab chiqish;

-ichki nazorat vositalarini tekshirish;

Auditor tovarlarni turlari bo'yicha dalillarni to'plash uchun zarur bo'lgan auditorlik amallari va ularning hajmi audit dasturida ko'rsatiladi.

Auditorlik dalillar – bu auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvlar vaqtida to'plangan va auditorlik xulosasini asoslovchi axborotdir manbai bo'lib xisoblanadi.

Demak, auditorlik dalillar auditorlik tekshirushi jarayonida tekshirilayotgan savdo korxona va uchinchi shaxslardan olingan axborotlar hamda ularni tahlil qilish natijalari bo'lib, moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida auditorlik xulosasi tuzish imkonini beradi.

Dalil -deyilganda boshqa faktning mavjudligini tasdiqlaydigan yoki inkor qiladigan fakt, yoki mazkur fakt haqida u yoki bu darajadagi ishonchlilik bilan fikr shakllantirishga imkon beradigan, ma'lum fakt to'g'risida ma'lumotlar olish jarayoni tushuniladi.<sup>15</sup>

Auditorlik tekshiruvlarining asosiy maqsadi savdo korxonani buxgalteriya hisobotlarining ishonchliligi to'g'risida auditorning mustaqil bildirilgan fikridan iborat. Buning uchun auditor hisobotning ishonchliligi yoki uning ishonchliliginu rad etish to'g'risidagi asosli fikr bildirishga imkon beradigan dalillarni to'plashi zarur.

Savdoni ma'lumotlaridan foydalanish uchun ulardan boshqa foydalanuvchilarga faoliyatning natijalari to'g'risida to'g'ri xulosalar qilishga va ushbu xulosalarga asoslangan qarorlar qabul qilishga imkon beradigan darajasini aniqlash lozim. Boshqacha qilib aytganda, bu auditorlik dalillar qanchalik ishonchga sazovar va haqiqatga yaqin ekanligini tavsiflaydi. Audit jarayonida olingan dalillarning ishonchliligi mustaqillik va manba kompetentligi, ichki nazorat tizimining samaradorligi kabi omillarga bog'liq. Auditorning o'zi mustaqil manbalardan olgan dalillarning ishonchlilik korxonadanandan olingan dalillarga qaraganda yuqoriq turishi lozim. Barcha dalillar yig'indisini faqat so'ngilari etarli bo'lganidagina ishonchli deb hisoblash mumkin.

Dalillarning etarliligi ularning miqdori va sifati bilan belgilanadi. U tanlash ko'lami va to'plamdagи muayyan elementlarning tavsifi bilan bog'liq. Axborotlarning samaradorligi esa tanlash elementlarining reprezentativligi (bosh to'plamming o'rganilayotgan belgilar bo'yicha xususiyatlari tanlama to'plamda namoyon bo'lishi)ga bog'liq, ya'ni reprezentativlik qancha yuqori bo'lsa, auditorlik riski shuncha past bo'ladi. Auditorlik risklarini pasaytiruvchi dalillarning etarliligi to'g'risida auditor tovarlarni sotilishi, kirimi va chiqimi, ichki nazorat tizimini baholash va auditorlik riskining hajmiga asoslanib xulosa qilishi mumkin. Ichki nazorat tizimi qanchalik ishonchli va auditorlik riski qanchalik past bo'lsa, auditordan shunchalik kam dalil-isbotlar to'plash talab etiladi.

Dalillarning etarliligini aniqlashda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

mustaqil manbalar (uchinchi shaxslar)dan olingan dalillarning savdo korxona xodimlaridan olingan dalillarga nisbatan ishonchliroq ekanligi;

auditorlik tashkilotining mustaqil tekshirushi yoki tahlili natijasida olingan

<sup>15</sup> №50-«Auditorlik dalillari» nomli AFMS. №500 “Auditorlik dalillar”(500-599) nomli AFXS

ma'lumotlarning uchinchi shaxslardan olingen ma'lumotlarga qaraganda ishonchliroq ekanligi;

hujjatlar va yozma ko'rsatmalar shaklidagi auditorlik dalillarining og'zaki ko'rsatmalarga qaraganda ishonchliroq ekanligini:

turli manbalardan olingen dalillardan foydalanish natijasida qilingan xulosalarni taqqoslash imkoniyatlarni hisobga olish kerak.

Amaldagi standartlarga muvofiq auditorlik baholash uchun zarur ma'lumotlar miqdori qat'iy chegaralab qo'yilmagan. Shu boisdan auditor o'zining professional fikriga tayangan holda savdo korxonani hisobotini ishonchliligi to'g'risida xulosa tuzish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarning miqdori haqida mustaqil qaror qabul qilishi lozim. Auditorlik dalillarining o'z vaqtida to'planishiga alohida e'tibor berish zarur. Aks holda ular oshiqcha va keraksiz bo'lib qoladi. O'z vaqtida har bir auditorlik dalilining tekshirilayotgan davrga bevosita taalluqliligi, yoki savdo korxona faoliyatining hisobot tuzilganidan so'ng, ammo auditorlik xulosasi tuzilishidan oldin sodir bo'lgan ma'lum bir jiddiy hodisalariga taalluqli ekanligidan ham iboratdir. To'plangan dalillar tekshirilayotgan hisobot tuzilgan sanaga qanchalik yaqin bo'lsa, ular shunchalik ishonarli bo'ladi.

Auditorlik tekshiruvlarining asosi auditorlik dalillarini topishdan iborat. U ma'lumotlarni to'plash, hisobotning ishonchliligi (yoki ishonchsizligi)ni, moliya-xo'jalik muomalalarining buxgalteriya hisobini yuritishga oid belgilangan qoidalar va nizomlarga muvofiqligini va shu bilan birga auditorlik xulosasi tuzish uchun auditorning shaxsiy fikrini shakllantirish maqsadida ularni umumlashtirish va baholashni nazarda tutadi.

Auditorlik tekshiruvlar jarayonida to'planadigan dalillar turli-tuman bo'lib, ular turi, manbasi va olinish usullariga ko'ra turkumlanadi.

Auditorlik dalillar turlariga

Yozma ravishda olingen dalillar (hujjatlar va yozma tushuntirishlar) og'zaki shakldagi dalillarga qaraganda ishonchliroq bo'lishi mumkin. Ammo ayrim hollarda og'zaki dalillar ancha muhim va foydali bo'lishi mumkin.

Savdo korxonasida auditorlik dalillar olinish manbasiga ko'ra ichki, tashqi va aralash dalillarga bo'linishi mumkin. Ichki auditorlik dalillar savdo korxonasida ishlayotgan xodimlardan olingen yozma yoki og'zaki ko'rinishda olingen ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Tashqi auditorlik dalillar uchinchi tomonlardan yozma ko'rinishda (odatda auditorlik tashkilotining yozma so'rovi bo'yicha) olingen ma'lumotlardan tavorlarni olgan ulgurji savdo korxonasi hujjatlaridan iborat.

Aralash auditorlik dalillar xo'jalik yurituvchi subektdan yozma yoki og'zaki ko'rinishda olingen va uchinchi tomon yozma ravishda tasdiqlagan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Auditorlik dallillar olinish usuliga ko'ra quyidagicha turkumlanadi:

- a) faktlarni tasdiqlash yo'li bilan olingen dalillar;
- b) hujjatlashtirilgan faktlarni aniqlash yo'li bilan olingen dalillar;
- v) maxsus o'tkazilgan tahlil natijasida aniqlangan dalillar.

Maxsus o'tkazilgan tahlil natijasida faktlarni aniqlash hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlarni mantiqiy joylashtirish va matematik hisob-kitob qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday argumentlash ratsional deb nomlanadi va u audit jarayonida salmoqli o'rinn tutadi.

Masalan: 1) 2910-«Omoborlardagi tovarlar» schetida korxona mulki hisoblangan tovarlar hisobga olinishi lozim;

2) auditor ushbu tovarlar uchun korxonaning mulkiy huquqi mavjudligini aniqlashi

zarur;

3) taqdim etilgan hujjatlar (shartnomalar, tovarlar hisoboti, bank ko'chirmalari) va mulkiy huquqning korxonaga o'tgan paytini aniqlash asosida auditor tovarlarning egasi haqida xulosa qiladi.

Auditor fikriga birinchi argument ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Haqiqatda 2910-«Omborlardagi tovarlar» schetida qoldiq sifatida ko'rsatilgan tovarlar yo'q bo'lsa, hech qanday fikr-mulohazaga o'rinn qolmaydi. So'ngra uchinchi va to'rtinchi argumentlarni ahamiyatliligi bo'yicha ko'rsatish mumkin.

Auditorlik dalillar bevosita olinadigan manbalarga quyidagilar kiradi:

- savdo korxona va uchinchi shaxslarning dastlabki hujjatlari;
- savdo korxona buxgalteriya hisobi registrlari va uning moliya xo'jalik faoliyatining tahlil natijalari;
- savdo korxona xodimlari va uchinchi shaxslarning og'zaki bildirishlari;
- savdo korxonaning bir hujjatlarini boshqalari bilan solishtirish, hamda uning hujjatlarini uchinchi shaxslarning hujjatlari bilan taqqoslash;
- savdo korxona aktivlari va passivlarini inventarizatsiya qilish natijalari hamda uning moliyaviy hisobotlari.

Olingan dalillarning sifati ularning manbalariga bog'liq. Shuningdek, mustaqil manbalardan olingan, hujjatlarga asoslangan ma'lumotlar ham ishonchli hisoblanadi. Savdo korxonaning axborotlarga ishlov berish tizimidan to'planganiga qaramasdan, to'plangan ma'lumotlarga asosan auditor tomonidan olingan va ishlov berilgan ma'lumotlarning dalil kuchi kamroq hisoblanadi. Mijoz korxonaning axborot tizimida tuzilgan, ishlov berilgan va saqlanayotgan hujjatlardagi axborotlarning dalil kuchi past hisoblanadi. Bunda ichki nazorat tizimining baholanishini inobatga olish zarur. Agar ushbu tizim samarali bo'lsa, undan olingan axborotdan dalil sifatida foydalanish mumkin.

Har xil manbalardan olingan va turli shakldagi auditorlik dalillar auditorlik riskini pasaytiradi.

Agar chakana savdo korxonasi auditorga to'laqonli tekshiruv uchun zarur hajmdagi hujjatlarni takdim qilmasa yoki agar auditor zarur auditorlik dalillarini to'plash imkoniga ega bo'lmasa, uning oldida katta muammolar vujudga kelishi mumkin. №50 «Auditorlik dalillar» nomli auditorlik faoliyati milliy standartda ta'kidlanishicha: «Agar auditorlik tashkilotiga xo'jalik yurituvchi subekt tomonidan mavjud hujjatlar to'la hajmda taqdim etilmasa va u qaysidir tovar xili yoki turi muomala bo'yicha etarli auditorlik dalillarini to'plash imkoniga ega bo'lmasa, auditorlik tashkiloti bu vaziyatni o'zining hisobotida aks ettirishi lozim va salbiy auditorlik xulosasi tuzish to'g'risidagi masalani o'rtaqa qo'yishi mumkin yoki auditorlik xulosasini yozishdan bosh tortishi ham mumkin. Demak, etishmayotgan auditorlik dalillari jiddiy hisoblangan buxgalteriya hisoboti moddalariga taalluqli bo'lsa, auditor auditorlik xulosasi tuzishdan rasmiy ravishda bosh tortishi va bu holni tegishli tarzda rasmiylashtirishi lozim.

Savdo korxonasida auditorlar auditorlik amallarini bajarish chog'ida dalillovchi ma'lumotlarni to'playdilar. Auditorlik amali bu muayyan audit uchastkasida dalillarni olish uchun auditor tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning ma'lum tartibi va ketma-ketligini. Dalillarni to'plash uchun qanday auditorlik amallari zarurligi va ularni qachon bajarishni auditor auditorlik tekshirishlar dasturini tuzish chog'ida mustaqil hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati milliy standartlariga muvofiq auditor quyidagilarga asosan etarli dalillarni to'plashi lozim:

- tovarlarni xilma-xilligini tekshirish;
- ichki nazorat vositalarini tekshirish;

- naqd pul bo'yicha qoldiqlar va oborotlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning to'g'riliгини текширish;

- тahliliy amallar.

Naqd pul bo'yicha qoldiqlar va oborotlarning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini batafsil tekshirish muayyan muomalalarning mazmunini va xatolarini aniqlash uchun o'rganishni nazarda tutadi. Batafsil tekshirish odatda auditor tomonidan tekshiruv maqsadini, tanlashning rejalashtirilgan ko'lamini va uning ob'ektlarini saralab olishni hisobga olgan holda tanlov to'plamini shakllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tahliliy amallar mijoz korxonaning muhim moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini, kutilmagan va buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks ettirilgan xo'jalik muomalalarini aniqlash, shuningdek bunday xatolar va chalkashliklarning sabablarini aniqlashni ko'zda tutadi.

Savdo korxonasida auditorlar auditorlik dalillarini to'plash ketma-ketligini quyidagicha belgilaydi:

1. Auditorlik dalillarini to'plashning maqsadini shakllantirish shartnomaning umumiy audit rejasi va auditorlik tekshiruvlar dasturiga taalluqli maqsadiga bog'liq. Shartnomadan kelib chiqqan holda boshqa maqsadlar ham, jumladan hisobni tashkil etishning samaradorligini baholash, to'lov layoqatini, rentabellikni va boshqalarni bashoratlash ham aniqlanishi mumkin.

2. Tanlangan auditorlik amallari №3-«Auditni rejalashtirish» nomli auditorlik faoliyatini milliy standariga muvofiq auditor tomonidan auditorlik tekshiruvi dasturida ko'rsatilishi lozim. Bunda auditorlik amallaridan qaysilarini va qaysi uchastkalarda qo'llash maqsadga muvofiqligini aniqlash zarur.

Etarli darajadagi va ishonarli dalillarga ega bo'lish uchun mohiyatan o'tkaziladigan auditorlik amallari va analitik amallardan foydalaniladi. Auditor hisob va hisobotning ma'lum bo'limlarini tekshirishda qo'llaniladigan auditorlik amallarini batafsil bayonini dasturda aks ettirishi zarur. Bunda ayrim muomalalarini tekshirishda qo'llaniladigan amallar mazmuni aks ettirilgan, oldindan ishlab chiqilgan taxminiy ro'yxatlardan foydalanish mumkin.

3. Auditorlik dalillarini olish usullari;

qayta hisoblash, inventarizatsiya, tovar muomalalarini hisobga olish qoidalariga rioya qilinishi, tasdiqlash, og'zaki so'rov, hujjatlarni tekshirish, kuzatib chiqish, analitik amallar standartlarda mos ravishda keltirish.

Auditor quyidagilarni aniqlaydi: muayyan vaziyatda qanday usullarni qo'llashi; u yoki bu usulni qaysi bir tovarlarga nisbatan qo'llash zarurligi auditorlik amallarini qanday ketma-ketlikda bajarishni aniqlashi talab etiladi.

Auditor tomonidan olingan dalillarning etarligi va ishonarliligi turli amallar, usullar va zarur dalillarni olish manbalarini muvofiqlashtirish natijasida ta'minlanadi.

4. Auditorlik tekshiruvlari uchun axborotlarni to'plash. Buning uchun audit dasturidagi har bir tovar bo'yicha normativ-savolnoma va hisob-kitob ma'lumotlarining zarur ro'yxati tuziladi. Normativ-savolnoma ma'lumotlar ro'yxati asos sifatida shakllantiriladi. Auditor bu ro'yxatni tekshiruv ob'ektiga nisbatan aniqlashtiradi. Tekshiruvda ishtirot etadigan xodimlar ushbu ro'yxatdagi tovar hujjatlarining mazmuni bilan tanishtirilgan bo'lishlari lozim. Tekshiruvni boshlashdan oldin hisob-kitob ma'lumotlari chkana savdo korxonadan talab qilib olinadigan hujjatlar va registrarning ro'yxatini ham tuzish zarur.

5. Auditorlik amallarni bajarish va audit jarayonida aniqlangan dalillarni bayon qilish. Bu bosqichda auditor auditni rejalashtirish chog'ida belgilangan tanlov hajmidan kelib chiqadi. Aniqlangan tafovutlar ularni aniqlash amallari yoki kodlari va audit jarayonida

aniqlangan dalillarning bat afsil bayoni ko'rsatilgan holda ishchi hujjatlarda ro'yxatga olinadi. Bayon qilish vaziyatdan kelib chiqqan holda, ixtiyoriy holda bo'lisi mumkin yoki maxsus ishlab chiqilgan ishchi hujjatlar shakllarini to'ldirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

6. To'plangan dalillarni baholash deganda ularning audit maqsadiga erishish va ishonchlilagini aniqlashdagi rolini belgilash tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, auditor tovarlarni xisobga oluvchi daftaring u yoki bu tovar turi bo'yicha jiddiy xatolar yo'qligi haqida ishonch hosil qilishi lozim.

Auditor korxonaning arifmetik hisob-kitoblarini tekshirish (qayta hisoblash) uning mazmuni hujjatlar va buxgalteriya yozuvlarining arifmetik aniqligini tekshirish hamda mustaqil hisob-kitoblarni bajarishdan iborat.

Hujjatni rasmiylashtirishdan hisobot tuzilgunga qadar ma'lumotlarni shakllantirish ustidan o'rnatilgan samarali ichki nazorat tizimi (moddiy javobgar shaxslarni o'zar qarama-qarshi tekshirish, rahbariyat va sotuvchilar tomonidan nazorat) sodir bo'lisi mumkin bo'lgan arifmetik xatolarni, natijada auditorlik riskni pasaytiradi.

Qo'lda to'lg'azilgan hujjatlar va hisob registrlari (ma'lumotnomalar va hisob-kitoblar, kassa hisobotlari, bo'nak hisobotlari, hisoblashuv-to'lov vedomostlari va boshqalar) qayta hisoblashdan o'tkaziladi.

Hujjatlarni tekshirish chog'ida ularning o'z vaqtida va aniq rasmiylashtirilganligi, majburiy rekvizitlarning mavjudligi va to'g'rilingini aniqlash ham zarur. Auditorlar hujjatlarni tekshiruvdan o'tkazishda ularning buxgalteriya hisobi registrlariga o'z vaqtida, aniq va to'liq aks ettirilishiga ham e'tibor berishlari kerak.

Hujjatlarni tekshirish chog'ida ularning o'z vaqtida va aniq rasmiylashtirilganligi, majburiy rekvizitlarning mavjudligi va to'g'rilingini aniqlash ham zarur. Auditorlar hujjatlarni tekshiruvdan o'tkazishda ularning buxgalteriya hisobi registrlariga o'z vaqtida, aniq va to'liq aks ettirilishiga ham e'tibor berishlari kerak.

Hujjat bilan ishslashda uning kim tomonidan tuzilganligi muhim ahamiyatga ega.

#### **6.Chakana savdoda sotish muomalalari auditining xususiyatlari.**

Chakana savdo tashkilotlari xalq iste'mol tovarlarini iste'molchilarga etkazib beradi va ularning iste'mol tovarlariga bo'lgan talablarini tula kondirishda bevosita ishtirok etadi.

Savdo do'kon va boshqa savdo shoxobchalaridagi mavjud tovarlar albatta belgilangan navlarga, sifat buyicha talabga javob berishi kerak.

Chakana savdo tashkilotlaridagi tovarlarni sifat, son jixatdan to'liqligini ta'minlashda, xar bir do'kon uchun belgilangan tovar zaxiralarning me'yordagi xolatini va tovarlarning xarakati bilan bog'liq bo'lgan muomalalarning uz vaqtida to'g'ri rasmiylashtirilganligini aniqlashda audit o'tkazish tartibi, qo'llaniladigan usullar, audit manbalari buyicha chakana savdo tashkilotlarida audit o'tkazish ulgurji savdo tashkilotlarida audit o'tkazishga yakindir, lekin uzining ayrim xususiyatlari bilan ular bir-biridan farq qiladi. Chakana savdo tashkilotlaridan tovarlar bevosita xaridorlarga etkazilib berilishi tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni va savdo pulini to'g'ri hisob-kitob qilish, ularni moddiy javobgar shaxslar zimmasidan kamaytirishni to'g'ri tashkil qilish bilan bog'liq. Audit ishlari tovar muomalasi rejalarining bajarilishini aniqlash bilan boshlanadi. Chunki chakana savdo tashkilotlarida tovar muomalasi rejasingning bajarilishi asosiy ko'rsatkich bo'lib, bu ko'rsatkich tashkilotning boshqa sifat ko'rsatkichlariga ham ta'sir qiladi.

Tovar muomalasi rejasingning bajarilishi tekshirilmaganda «Tovarlarning sotilishi» schetining debet va kredit tomonining muomalalari «Kassa», «Tovarlar» schetining

muomalalari va shu bilan birga «Tovar muomalasi buyicha maxsus ssuda» schetidagi yozuvlar solishtirib tekshiriladi.

Buxgalteriya hisobotlarida tovar muomalasi summasi 4 – hisobotning chakana tovar muomalasi bo’limida ko’rsatilgan bo’lib, audit jarayonida hisobotda ko’rsatilgan tovar muomalasi summasini tegishli hisob yozuvlardagi summalar bilan tengligi tekshiriladi.

Agar audit o’tkazilayotgan tashkilotda tovar muomalasi rejasining bajarilmayotgani aniqlansa, uning sabablari, tovar zaxiralarining xolati taxlil qilinadi. Ayrim xollarda tashkilot raxbarlari tomonidan tovar muomalasi rejasining bajarilishi to’g’risida kalbaki ma’lumotlar berilishi mumkin, bunday xollar aniqlansa, auditorlik tekshiruvi tugallanmasdan turib auditor bu xakda yuqori tashkilot raxbarlariga yozma ravishda ma’lumot berishi va hisob ko’rsatkichlarini, hisobotlarni audit davri buyicha boshidan oxirigacha ko’rib chikishi kerak.

Auditor tashkilotda tovar muomalalarini tekshirishni asosan tanlab olingan xolda olib boradi. Tanlab olingan xolda audit o’tkazilayotganda xatoliklar aniqlansa, tashkilot va uning do’konlaridagi mavjud tovarlar to’liq inventarizatsiya qilinadi va audit muddatini ma’lum vaqtga uzaytirilishini yuqori tashkilot raxbarlaridan talab qiladi.

Chakana savdo tashkilotlarida tovar muomalalari audit qilinayotganda mol etkazib beruvchi yoki ulgurji savdo tashkilotining baza va omborlaridan kelgan tovarlarni moddiy javobgar shaxslar tomonidan qabul qilish tartibi, tegishli tulov xujjatlarining rasmiylashtirilishi, tovar hisobotlarini uz vaqtida buxgalteriyaga topshirilishi va tegishli jurnal-orderlarda to’g’ri ko’rsatilishi tekshiriladi.

Buxgalteriyada «Tovarlar» schetining «Chakana savdo tashkilotlaridagi» ilova schetidagi yozuvlar bilan «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisoblashishlar» schetidagi yozuvlar bir-birlarini solishtirish yuli bilan tekshiriladi.

Chakana savdo tashkilotlarida tovar muomalalarini audit qilish va tovarlar to’liqligini ta’minlashda, ayniksa, «Tovarlar» schetining «Chakana savdo tashkilotlaridagi» ilova scheti bilan moddiy javobgar shaxslarning hisoblaridagi qoldiq summalarining bir-biriga tengligini aniqlash yaxshi natijalar beradi. Shu bilan birga analitik schetlardagi yozuvlarning to’g’riliqi ham bir vaqtning uzida nazorat qilinadi.

Audit o’tkazilayotgan tashkilotda tovar muomalalarining to’g’riliqi, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari uz muddatida to’g’ri tuzilishi va buxgalteriyaga topshirilishi auditor tomonidan tekshirib chiqilishi kerak. Bunday tekshirishda tovar hisobotida ko’rsatilgan kirim va chiqim xujjatlari, kassa hisobotlaridagi yozuvlar bir vaqtning uzida tekshirib boriladi. Agar tekshirish davomida do’konlararo tovar muomalalari amalga oshirilgan bo’lsa, uning sababi, muomala mazmuni, hisobotlarning to’g’riliqi aniqlanadi.

Tekshirish natijalari kup xollarda sotilgan tovarlarga taallukli bo’lgan tabiiy kamayish me’yorlarini to’g’ri aniqlashga bog’liq. Bunday summalarining to’g’ri hisoblanmaganligini bilish uchun auditor tuzilgan hisob-kitoblarni tekshirib ko’rishi, tegishli buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilganligini aniqlab chikishi kerak.

Audit jarayonida singan, iste’molga yaroqsiz tovarlar uchun tuzilgan dalolatnomalarining borligi aniqlansa, ularning to’g’ri tuzilganligi, komissiya a’zolari tomonidan imzolanganligi, aybdor shaxslarning bor yoki yo’qligi aniqlanadi.

Keyingi yillarda savdo madaniyatini yaxshilash, uning ilgor usullarini keng joriy qilish maksadida uz-uziga xizmat kiluvchi do’konlarda sotilgan tovarlarga qo’shimcha tabiiy kamayish me’yorlari belgilangan. Bunday me’yorlarni sotilgan tovarlar summasiga nisbatan to’g’ri hisob-kitob qilinganligi ham tekshiriladi. Buning uchun auditor uz-uziga xizmat kiluvchi do’konlarning tovar aylanmasini hisoblab chikishi zarur.

Savdoda tovarlarning bir tashkilot ichidagi xarakatini nazorat qilish uchun moddiy javobgar shaxslarning tovar hisoboti asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun auditor tuzilgan hisobotlarni uz vaqtida sifatli tuzilganligini bilish uchun ayrimlarini tanlab olgan xolda tekshirib chikadi. Agar tekshirish natijasida tovarlarni bir do'kondan ikkinchi do'konga o'tkazish yullari aniqlansa, u xolda buning sababini, bu to'g'rida tashkilot raxbarining farmoyishi borligini tasdiqlovchi xujjatlarning to'liqligini aniqlab, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlaridagi yozuvlarni bir-biriga solishtirish yuli bilan tekshiradi. Agar tovarlar mol etkazib beruvchilarga qaytarilgan bo'lsa, u xolda qaytarilgan tovarlar uchun kelgan summalarini bankning kuchirmalariga asosan aniqlaydi.

#### **7.Savdo tashkilotlarining byudjet tashkilotlari bilan hisoblashishlarini audit qilishning o'ziga xos xususiyatlari.**

Byudjetga yuridik shaxslardan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, QQS, suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, boshqa soliqlar o'tkaziladi.

Davlat byudjetiga o'tkaziladigan soliqlar tarkibida muhim o'rinni qo'shilgan qiymat solig'i egallaydi. Soliqqa tortiladigan qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar evaziga olingen tushum miqdoridan mahsulotlarni (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishga ketgan moddiy sarflarni chegirib tashlash asosida aniqlanadi. Mulk solig'i va uning o'zgarish omillarining tahlili uchun ma'lumot manbai bo'lib rejaviy hisoblashlar xizmat qiladi, 1 -shakl «Korxona balansi», 2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot», 3-shakl «Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot», 0100 «Asosiy vositalar», 0200 schet «Asosiy vositalarning eskirishi» schetlari bo'yicha 10,13-jurnal-orderlar bo'yicha buxgalteriya hisobga olish ma'lumotlari va manbalar.

Soliqqa tortiladigan aylanmaga shuningdek, sotishdan tashqari olingen daromadlarning sotishdan tashqari xarajatlardan oshishining umumiy yig'indisi ham kiritiladi. Agar sotishdan tashqari operatsiyalar bo'yicha xarajatlar, ular bo'yicha olingen daromadlardan oshib ketsa, bunda soliq solinadigan baza shu oshish miqdoriga kamayadi.

Sotishdan tashqari operatsiyalardan olinadigan daromadlarga, moliyaviy yordam va maxsus tayinlangan fondlarni to'ldirilib turilishi ko'rinishidagi korxonalar olayotgan pul mablag'larini yig'indilari va boshqa aktivlar kiradilar; to'langanlardan tashqari olingen jarimalar, penyalar yig'indilari ham kiradi.

Soliqqa tortiladigan aylanma, tushumdan to'lanadigan soliqlar va soliqlardan tashqari to'lovlar miqdoriga kamayadi (uy-joy fondini saqlab turish uchun ajratmalar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash fondiga ajratmalar). Shuni e'tirof etish kerakki, jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni, shu jumladan soliqlar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni o'rganadigan juda ko'p iqtisodiy fanlar mavjud. Lekin ularning orasida tahlil fani xo'jalik faoliyatining natijasiga, xususan soliqlarning holatiga odilona baho bera oladi. Undagi ijobjiy va salbiy o'zgarishlariga omillar ta'sirini aniqlaydi. Shularga asosan xo'jalik faoliyatini yaxshilash, soliqlarning korxona faoliyatiga salbiy ta'sir qilmagan holda, ularning byudjetga tushadigan miqdorini ko'paytirish yo'llarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Bu xususiyatlар faqat tahlilga xos bo'lganligi uchun ham soliqlar tahlilining predmetida natijaga to'g'ri baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish lozimligi o'z ifodasini topgan. Ushbu nazariy talqinlardan ham ko'rinish turibdiki, soliqlar tahlili iqtisodiy tahlil fani tarkibida mustaqil bo'lim bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga, o'zining xususiy predmetiga ega. Soliqlarning tahlilda o'rganiladigan jihatlari aynan shu tarzda boshqa soliqqa oid fanlarda o'rganilmaydi va takrorlanmaydi.

Soliq ob'ektiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy asosi, ya'ni mulk shakli bo'yicha qaraladigan bo'lsa ular davlat, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko'rsatadigan ob'ektlarga bo'linadi. Chunki amaldagi qonunlarga binoan mamlakatimizda barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, mulk shaklidan qat'iy nazar, soliq to'lovchilardir. Shunday qilib, soliqlar va majburiy to'lovlar tahlili ob'ektiga quyidagicha ta'rif berishni tavsiya qilamiz. Soliqlar tahlilining ob'ekti deganda davlat, xususiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ularning davlat bilan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlari majmuasi tushuniladi.

Bozor munosabatlari sharoitida soliqlarni tahlil qilishning ahamiyati nechog'liq oshganligi xususida munozara qilishga hojat yo'q, deb o'ylaymiz. Bu esa uni tahlil qilishda muhim vazifalarni bajarishni taqozo qiladi.

Korxonalarning davlat byudjeti bilan soliq yuzasidan aloqasini tahlil qilishning asosiy vazifalari yildan-yilga kuchaymoqda. Soliqlar va majburiy to'lovlar tahlilining bozor munosabatlari sharoitidagi asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- soliq ob'ektini aniqlash, korxonalarda soliq to'lanishi umumiy hajmining bajarilishini ularning soliq ob'ekti bajarilishi bilan solishtirgan holda o'rganish;
  - soliq ob'ektida soliq bazasining miqdorini va soliqlarning har bir turi bo'yicha to'lanishining bajarilishini aniqlash va hisobot davrida soliqlardagi tarkibiy o'zgarishlarni o'rganish;
  - soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar tarkibini va soliqlarning turlari bo'yicha summasining to'g'ri hisoblanganligi va byudjetga to'liq o'tganligini aniqlash;
  - soliqlar va majburiy to'lovlar dinamikasini soliq to'lanadigan ob'ektlar bilan solishtirgan holda aniqlash va ular o'ttasidagi o'zgarish tendentsiyasiga baho berish;
  - soliqlar va majburiy to'lovlarini hisoblash va byudjetga o'tkazishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash;
  - soliq yukining darajasi, uni ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
  - davlat va mahalliy byudjetlarga soliqlar va majburiy to'lovlar tushumini kamaytirmagan holda soliq yukini engillashtirish bo'yicha tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish;
  - soliqlar va majburiy to'lovlar summasi o'zgarishi sabablari va unga ta'sir etuvchi omillarni va har bir omillarning soliq summasi o'zgarishlarga ta'sirini aniqlash;
  - soliqlar va majburiy to'lovlarini o'z vaqtida to'lashga erishish bo'yicha tegishli chora-tabirlarni ishlab chiqish va bu bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli axborotlar bazasini yaratish.
- Agar soliqlar tahlili ushbu vazifani bajarsa, soliq to'lovchilar bilan davlat o'ttasidagi soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarda quyidagilarga erishiladi:
- soliqlarning belgilangan miqdorda, belgilangan vaqtda, belgilangan joyga to'lanishi ta'minlanadi;
  - soliqlar va majburiy to'lovlarini soliq to'lovchilarning xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir qilmaydigan darajada ko'paytirish bo'yicha ichki imkoniyatlar axtarib topiladi;
  - soliqlar va majburiy to'lovlarini ilmiy asoslangan rejalarining shakllanishi uchun imkoniyat yaratiladi;
  - xo'jalik faoliyatini yaxshilash, ish hajmini ko'paytirish evaziga soliqlar yukini engillashtirishga erishiladi.

Shunday qilib, soliqlar va majburiy to'lovlarini tahlili bozor munosabatlari sharoitida ob'ektiv zaruriyat bo'lib, soliqlarni rejalashtirish va boshqarishda muhim dastak sifatida namoyon bo'ladi. Biroq shuni ta'kidlash joizki, tahlil faqat tahlil uchun emas, balki u

ma'lum maqsadni amalga oshirish uchun qilinishi lozimligi bugungi kunda barchamizga ma'lum.

Korxonada soliqlar va majburiy to'lovlар bo'yicha byudjet bilan hisoblashishlar jarayonini huquqiy amalda belgilangan hisobi va tahlilini yuritish, korxonalar faoliyatiga ijobjiy ta'sir qilishi bilan birga, davlat va jamiyat manfaatlariga ham ijobjiy ta'sir etadi deb o'ylaymiz.

Buning uchun korxonalarda nafaqat byudjet bilan hisoblashishlar balki barcha yo'naliшlardagi faoliyatini to'g'ri, huquqiy belgilangan tartibda olib borish, korxonalarni yangi texnologiyalar bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni kengaytirish, xizmat sifatini yaxshilash, qo'shimcha ishchi o'rinalarini yaratish kabi maqsadlarga erishish mumkin. Yuqorida maqsadlarga erishish uchun esa ularning faoliyatini tashxisiy tahlil qilish orqali erishish mumkin.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadi, YaIMga nisbatan soliqlarni byudjetga jalb etishning aniq me'yoriy chegaralari shakllantirilgan. Bu chegara o'ttacha 20-22% ni tashkil etadi. Bizning respublikamizda ham ushbu me'yoriy chegara darajasiga erishish va barqaror holatda saqlab turish lozim. Buning uchun byudjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha chuqur tarkibiy o'zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish zarur. Xususan, byudjet daromadlарini shakllantirish jarayonini takomillashtirish maqsadida:

- soliq qonunchiligini takomillashtirish, soddalashtirish, ularga qonuniy aniqlik kiritish, soliq stavkalarini pasaytirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish;
- soliq imtiyozlarini real tarzda qayta ko'rib chiqish, samarasiz imtiyozlardan voz kechish;

- soliqqa oid jinoyatchilikka harshi kurashda keskin choralar qo'llash va boshqalar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning va soliq-byudjet siyosatining asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda ishlab chiqaruvchilar o'tasida erkin raqobatni yuzaga keltirish orqali ichki bozorni to'yintirish hisoblandi. Ammo bizning fikrimizcha soliq siyosatining imtiyozli yo'naliшlari bu maqsadni ba'zan inkor etishini ko'zatamiz, ya'ni bir tarmoqdagi ikki xo'jalik yurituvchi sub'ektning biriga imtiyoz berish orqali, ikkinchisining imkoniyatlarini kamaytirib qo'yish mumkin. Shuning uchun imtiyozlarni belgilashda asosiy omil qilib tarmoq xususiyatini olish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bu esa bir tarmoq ichida erkin raqobatni va narxlar tengligini ta'minlaydi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning uzoq va o'rta muddatga mo'ljallangan strategik vazifalarini belgilashda kelgusida davlat byudjetiga soliq tushumlarini prognozlash va tushumlarda bevosita va bilvosita soliqlar nisbatini optimallashtirish eng muhim vazifadir.

Rivojlangan davlatlar soliq tizimidagi islohatlardagi ilg'or tajribalarini O'zbekiston Respublikasida qo'llashda davlatimizning iqtisodiy va soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi lozim. Bu albatta o'tkazilayotgan soliq siyosati islohatlarining ijobjiy istiqbolini ta'minlaydi.

## **8. Savdo-tijorat korxonalarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayonini audit qilish xususiyatlari.**

Savdo korxonasing foydasi (daromadi)ni va moliyaviy holatini tekshirishda quyidagilarni puxta o'rganishi lozim: tovar mahsulotlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan olingan foydalar yoki ko'rilgan zararlar; davr sarflari, ularning asoslanganligi, tasdiqlangan smetaga muvofiqligi va moliyaviy natijaga ta'siri.

Bunda, jumladan, quyidagilarni tahlil qilish zarur: asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi (bino va inshootlarni buzish va bo'laklash, qurilmalarni demontaj qilish va

shunga o'xhashlar), asosiy vositalarni boshqa tashkilotlar va korxonalarga sotish yoki berishda paydo bo'lgan zararlar; nomoddiy aktivlarni boshqa korxona va tashkilotlarga sotish yoki berishda paydo bo'lgan zararlar; aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliliklardan ko'rilgan zararlar; jarimalar, penyalar va neustoykalar to'lash bilan bog'liq zararlar; asosiy faoliyatdan olinadigan foyda, boshqa daromadlar va boshqa tushumlar hisobidan zaxira qilinib, boshqa korxonalar va tashkilotlar (chet elliklarni ham qo'shib), shuningdek ayrim shaxslar bilan hisob-kitoblarga doir shubhali qarzlar summalar; «Boshqa daromadlar va tushumlar» ga quyidagilar kiradi: korxonaning asosiy fondlari va boshqa mulklarini sotishdan olingan daromadlar; da'vo muddati o'tib ketgan, kreditor va deponentga o'tkazilgan qarzlarni hisobdan o'chirishdan olingan daromadlar; undirilgan jarimalar, penyalar, neustoykalar va xo'jalik shartnomasining boshqa shartlarini buzganligi uchun undiriladigan boshqa turdag'i sanktsiyalar; korxona ichidagi oshxonalar, yordamchi xo'jaliklar va boshqalardan olinadigan daromadlar va tushumlar; moliyaviy faoliyatga doir daromadlar va sarflar. Bunda moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga oladigan schyolar (9500) guruxi bo'yicha 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560 va 9590 schyotlar ochilib, daromadlar tegishli tarzda hisobga olib borilganligi tekshiriladi. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zararlarni tekshirishda auditor moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oladigan 9610, 9620, 9630 va 9690 schyotlarning ma'lumotlarini ham tekshiradi.

Shuningdek, favqulodda olingan foydalar va ko'rilgan zararlar ham tekshirilishi lozim. Bunda auditor 9710«Favqulodda olingan foyda» va 9720«Favqulodda ko'rilgan zarar» schyotlarining analitik hisobi va dastlabki xujjatlarni ma'lumotlarini tekshirishi zarur. «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladigan, mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ning sharxlariда ko'rsatilishicha, xorijiy davlatlar amaliyotida favqulodda zararlarga quyidagilar kiradi: tabiiy ofatdan ko'rilgan katta yo'qotishlar; urush va boshqa siyosiy notinchliklar natijasida ko'rilgan yo'qotishlar; mamlakatda qonunchiligining o'zgarishi natijasida ko'rilgan yo'qotishlar, masalan, xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish (natsionalizatsiya) haqida qaror qabul qilish, ayrim faoliyat turlarini ta'qilash va boshqalar. Bunda auditor quyidagilarni tekshirishi lozim: favqulodda yo'qotishlar meteorologik, seysmik va boshqa tegishli xizmatlarning sodir bo'lgan tabiiy ofatlar to'g'risidagi ma'lumotlari bilan tasdiqlanishi; korxona mulklari favqulodda xodisalardan sug'urta qilinganligi va boshqalar.

Auditor moliyaviy natijalarni tekshirishda quyidagilarni ham aniqlashi lozim: byudjetga soliqlarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishi; shubhali qarzlar bo'yicha zaxiralar yaratilishining to'g'riliqi; foydaning korxona ishtirokchilari o'rtasida o'z vaqtida va to'g'ri taqsimlanishi; aktsiyadorlarga dividendlar to'lashning to'g'riliqi.

Yaratilayotgan zaxiralar summasi 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti(joriy yilning yakuniy hisob-kitobi bo'yicha) yoki 8710-«Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi» schyoti (oldingi yildagi foyda hisobidan) debeti va 4910 «Shubhali qarzlar bo'yicha zaxiralar» schyoti kreditida aks ettiriladi.

Ushbu masalani ko'rib chiqishda auditor quyidagilarni tekshirishi lozim: shubhali qarzlar bo'yicha zaxira yaratish uchun zarur xujjatlarning mavjudligi (korxona debitor qarzlarining inventarizatsiya ro'yxati, solishtirish dalolatnomalari, to'lovga layoqatsizlik haqida ma'lumotnomasi va b); shubhali deb tan olingan qarzlarni hisobdan o'chirishning to'g'riliqi; ishlatalmagan shubhali qarzlar bo'yicha zaxira summalarining tegishli yil foydasiga qo'shilishi.

Ayrim tarmoqlarning korxonalari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ruxsati bilan ta'mirlash ishlari o'tkazish uchun mablag'lar zaxirasi yaratadilar. Agar ta'mirlanadigan asosiy vositalar ishlab chiqarish uchun tayinlangan va shu jarayonda ishlataladigan bo'lsa, bu zaxiraga qilinadigan ajratmalar mahsulot ishlab chikarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) xarajatlari tarkibiga «boshqa xarajatlar» elementi bo'yicha qo'shiladi. Zaxira hajmi ta'mirlash ishlari uchun kutilayotgan xarajatlar qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Auditor ta'mirlash ishlari uchun zaxiralarning to'g'ri tashkil etilishi va ishlatalishini tekshirishi zarur. Bunda quyidagilar tekshiriladi: Zaxira yaratish uchun Moliya Vazirligining ruxsati borligi; ta'mirlash o'tkazish uchun smeta va titul ro'yxati; zaxiralardan foydalanishni hisobda aks ettirishning to'g'riliqi; to'laligi va o'z vaqtidaligi; foydalanilmagan zaxira qoldig'i qolganda «storno» qilish yo'li bilan zaxiralarni yopish; debet 2010, 2310, 2510 kredit 8910«Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar zaxirasi» («Asosiy vositalarni ta'mirlashga doir kelgusidagi xarajatlar zaxirasi» analitik schyoti).

Davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar tarkibi «Mahsulotlar (ish, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladigan, mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq aniqlanadi.

Auditor davr sarflarini hisobga olishni va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning to'g'riliqigni nazorat qilish maqsadida quyidagilarni tekshirishi lozim: davr sarflarini hisobga oladigan: 9410-«Sotish xarajatlari», 9420 - «Ma'muriy xarajatlari», 9430-«Boshqa operatsion xarajatlari», 9440-«Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari» bo'yicha o'z vaqtida, ishonarli va to'liq aks ettirilishining ta'minlanishi; ma'muriy-boshqaruv xodimlari mexnatiga haq to'lash va mukofotlash haqidagi Nizom, lavozim maoshlarining belgilangan xarajatlar smetasiga rioya qilinishi ustidan nazoratning ta'minlanishi.

Quyidagi xarajatlarni davr sarflariga kiritishning asoslanganligi va o'z vaqtidaligi: reklama xarajatlari (nashriyotda e'lon qilish, radiodan eshitirish va televideenie orqali ko'rsatish, reklama mahsulotlarini ishlab chiqish va chop etish, stendlar va shitlar tayyorlash, video va diafilmlar namoyish etish va boshqalar); korxonaning O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijdagi yarmarkalar va ko'rgazmalarda ishtirok etishiga doir xarajatlar (eksponatlarni tayyorlash va etkazib berish, modellar va maketlar tayyorlash, adabiyotlar va texnik xujjatlarni nashr qilish); mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni eksport qilish bilan bog'liq sarflar; bojxona tadbirlari uchun to'lovlar; import muomalalarini amalga oshirishda vositachilik qiladigan tashkilotlarga to'lanadigan komission to'lovlar summalarini; bojxona to'lovleri, shuningdek, tovarlar va boshqa mulklarni import qilish bilan bog'liq bo'lgan bojxonada amalga oshiriladigan rasmiylashtirish o'tkazish uchun to'lovlar; material qiymatliklarni sotib olish va tashib keltirish xarajatlari; belgilangan me'yorlar va boshqaruv tomonidan tasdiqlangan smetalar doirasidagi korxona faoliyati bilan bog'liq vakillik xarajatları (shtatda turmaydigan tarjimonlar xizmatiga haq to'lash, ishchi muzokaralar vaqtida chet ellik vakillarning rasmiy qabulini o'tkazishga doir xarajatlar).

Bunda qilingan xarajatlarning asoslanganligi va tasdiqlovchi xujjatlari (schyotlar, do'konlar va restoranlarning cheklari va boshqalar)ning mavjudligiga alovida e'tibor berish zarur.

Auditor ushbu xarajatlarni tekshirishda 9610, 9620, 9630 va 9690-schyotlar bo'yicha hisob yozuvlarini tekshiruvdan o'tkazib, ularning «Nizom»ga muvofiqligi va schyotlarda to'g'ri aks ettirilganligiga ishonch xosil qilishi lozim.

Moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlarni tekshirish uchun auditor 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560 va 9590-schyotlarning ma'lumotlarini o'rganib, ularning qonuniyligini va schyotlarda to'g'ri aks ettirilganligini aniqlaydi.

Favqulodda zararlar – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi xodisalar yoki muomalalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlardir. Bunga favqulodda va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr xarajatlari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda zararlar qatoriga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo'lsa, u holda iklim sharoitlariga bog'liq holdagi ishlamay turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda «bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak» mezoniga javob bermaydi.

Favqulodda foyda moddalari – bu ko'zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo'lgan xodisa yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatdagi faoliyat doirasidan chetga chiqadigan tusdag'i muomalalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan, o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Favqulodda olingen foyda (ko'rilgan) zararlar to'g'risidagi axborotlarning to'g'ri shakllanganligiga ishonch hosil qilish uchun auditor tomonidan 9710 –«Favqulodda olingen foyda» va 9720 –«Favqulodda ko'rilgan zarar» schyotlar ma'lumotlari o'rganiladi.

Shuningdek, auditor «Nizom»ning 1-ilovasiga muvofiq soliqqa tortiladigan bazaga qo'shilishi lozim bo'lgan, moliyaviy faoliyatga doir sarflarni ham tekshirishi zarur

Auditor moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar va daromadlar hamda favqulodda olingen foyda (ko'rilgan zarar)larni tekshirishning barcha jixatlarini o'zining ishchi xujatlarida qayd qilib boradi.

Auditorlik tekshiruvi shu narsani ishonchli tarzda namoyon etadiki, hisob xodimlarining zaif malakasi tufayli ayrim tashkilotlarda moliyaviy natijalarni asossiz ravishda shakllantiradilar va buxgalteriya hisobidagi foydadan foydalanishni notug'ri aks ettiradilar. Shu bois, shu narsani bilish lozimki, moliyaviy natijalar mahsulot(ish, xizmat)lar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, turli moddiy boyliklar va boshqa mulknii sotishdan vujudga keladi.

Moliyaviy natija sotishdan tashqari daromadlar deb ataluvchi sotish va boshqa mulk chikaruvi bilan bog'liq bo'lмаган boshqa ishlarda ham aniqlanishi mumkin. Bunga boshqa tashkilotlar ulushli ishtirokidan tushgan daromadlar; aktsiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlardan keladigan daromadlar; mulknii ijara berishdan keladigan daromadlar; qarzdor tomonidan xo'jalik shartomalari shartlarini buzganligi uchun to'lanadigan yoki tan olingen jarimlar, penyalar, ustamalar va jazoning boshqa turlari, shuningdek, ko'rilgan zararni undirishdan keladigan daromadlar; hisobot yilda aniqlangan o'tgan yillar foydasi; valyuta schyotlari, shuningdek, chet el valyutasidagi ishlar bo'yicha ijobji kurs farqlari; ishlab chiqarish va mahsulot(ish, xizmat)lar sotish bilan bevosita bog'liq bo'lмаган ishlardan keladigan boshqa daromadlar kiradi.

Balans foydasini kamaytirishga (soliq solish) (9910-schyoti debeti) kiradigan sotishdan tashqari chiqimlar (zarar)ga quyidagilar kiritiladi: bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha chiqimlar; tashqi sabablar bo'yicha turib qolishdan ko'rilgan, aybdorlardan undirib olinmaydigan zararlar; sud xarajatlari; shartnoma shartlarini buzganligi uchun olinadigan jarimalar, penyalar yoki jazoning boshqa turlari, shuningdek, etkazilgan zararlarni undirish bo'yicha daromadlar; shubhali qarzlar; debtorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, ularga binoan da'vo muddati o'tib ketgan bo'ladi; joriy yillarda aniqlangan o'tgan yillardagi ishlar bo'yicha ko'rilgan zararlar; aybdorlar aniqlanmagan yoki shaxs aybdorligi sud tomonidan inkor etilgan o'g'irliliklar va mulk kamomadidan ko'rilgan zararlar; chet el valyutasidagi salbiy kurs farqlari; moliyaviy natijalar hisobiga qonunda belgilangan tartibga muvofiq to'lanadigan alohida soliq va yig'im turlariga haq to'lash bo'yicha ketadigan boshqa xarajatlar va hokazo.

Yakuniy moliyaviy natija ko'rsatkichlarining ishonchlilagini belgilash uchun auditor ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar hisobi va mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxini hisobdan chiqarish tug'riligini; byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha moliyaviy organlar, debtorlar va kreditorlar bilan naqd va naqdsiz hisob-kitoblar shaklidagi to'lovlar, mexnatga haq to'lash hisob-kitoblarini tekshirishi lozim.

Yil yakunida taqsimlanmagan foyda summasiga foydani kamaytirish amalga oshiriladi(9910 – schyot debetida va 8710 – schyot krediti deb yozib qo'yiladi). (Taqsimlanmagan foyda summasi va hisobot yili zarari 9910 – schyot hisobdan 8710 – "Taqsimlanmagan foyda(qoplanmagan zarar)" hisobiga ko'chirib yoziladi.)

Moliyaviy natijalarni tekshirish chog'ida auditor foyda solig'i badalimi byudjetga o'z vaqtida o'tkazilishi va schyotga yozib qo'yishning to'g'rilingini;

– maxsus fondlar tashkil etishning to'g'rilingini;

– ta'sischilar o'tasida foyda(dividendning bir qismi)ni taqsimlashning to'g'rilingini tekshirish zarur.

"Moliyaviy natijalar to'g'risida" gi hisobot auditining maqsadi moliyaviy hisobot ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchlilagini, ular amaldagi qonunchilikka muvofiqligini tekshirishdan iborat.

Hisobot davrida audit o'tkazish uchun ma'lumot materiallari korxonaning hisob registrlari – Bosh kitob, jurnal-orderlar yoki memorial orderlar, sintetik va tahliliy hisobning aylanma qaydnomalari, hisob-kitob-to'lov qaydnomalari, shaxsiy hisobvaraqlar, tahliliy hisobvaraqlari va boshqalardan olinadi.

Yoppasiga yoki tanlab olib tekshiruv o'tqazilganda auditor hisob registrlarida buxgalteriya schyotlari, qayd etilgan registrlarda xo'jalik operatsiyalari iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib, to'g'ri korrespondentlanganini baholashi va kelajakda to'g'rinish maqsadida, tasodifan sodir etilgan xatolarni va tasodifiy notug'ri buxgalteriya yozuvlarini (o'tkazmalarini) aniqlashi lozim. Shuning bilan bir qatorda, hisobot ma'lumotlari, ayniqsa, korxona moliyaviy faoliyati natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni, uning asosiy aylanma aktivlar miqdorini, o'zining moliyaviy va mulkiy holatini yaxshi tomondan ko'rsatish uchun boshqa korxonalar va banklarga bo'lgan qarzlarni yashirib ko'rsatish maqsadida ataylab sodir etilgan xatolar aniqlanadi va bular haqida korxona raxbaryatiga ma'lumot taqdim etadilar.

Buxgalteriya hisobi schyotlaridagi yozuvlar asosli ravishda amalga oshirilganligining tekshiruvidan keyin, Bosh kitobdagisi yozuvlar jurnal-order yoki memorial-order kabi hisob registrlaridagi yozuvlariga muvofiqliliga ishonch hosil qilish uchun, hisob registrlari to'g'ri tuzilganligining tekshirish imkoniy yaratiladi. O'z navbatida, jurnal-orderlar to'g'ri to'ldirilganligi amalda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari xaqiqiyligini ta'minlaydi.

Korxonada hisob registrlarining tarkibi va mazmuni qo'llaniladigan buxgalteriya shakli bilan belgilanadi. Hisob to'liq kompyuterlashgan sharoitlarida ham hisob ma'lumotlarini nashrga chiqarish yo'li bilan kerakli bo'lган hisob registrlari yig'indisi tayyorlanadi.

Hisob registrlarining tekshiruvda quyidagi savollar o'rganilishi lozim:

- hisob registrlarining to'plami korxona xo'jalik operatsiyalarini to'liq aks etishligi;
- ushbu registrlar foydalanish uchun qulayligi va ular etarli darajada yaqqol va ravshanligi, katta xajmdagi ma'lumot manbalariga egaligi, kerakli bo'lган hisobot tayyorlash va iqtisodiy tahlilda ishlatish uchun yaroqliligi;
- ular hisob yozuvlari to'liq va to'g'riliqi nazoratini ta'minlagan holda bir biriga va Bosh kitobga muvofiqligi.

Auditor turli korxonalarda, turli hil hisob registrlari qo'llanishiga, bu hisob jarayonini to'liq ta'minlasa va korxona uchun qulay bo'lsa, agar ma'lum bir korxonada bir vaqt ni o'zida jurnal-order shakliga mansub bo'lган jurnal-orderlar va hisob yuritishning memorial-order shaklida qo'llaniladigan hisobning buxgalteriya hisobi bo'yicha aylanma qaydnomalar(aylanma balanslar) qo'llanilishiga tayyor bo'lishi va inkor etmasligi lozim.

#### **Mavzu bo'yich nazorat savollari**

1. Savdo-tijorat korxonalarida audit manbalari bo'lib qaysi hujjatlar hisoblanadi?
2. Savdo-tijorat aylanmasini tekshirish usullarini aniqlang.
3. Chakana savdoda inventarizatsiya o'tkazish tartibi qanday?
4. Ulgurji savdoda inventarizatsiya o'tkazish tartibi qanday?
5. Tovarlar qoldig'ining me'yori qanday aniqlanadi?
6. Ulgurji savdoda Yalpi tushumni qanday aniqlanadi? Yalpi daromadinichi?
7. Savdo korxonalarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni tekshirish manbai bo'lib qaysi hujjatlar hisoblanadi?
8. Savdo korxonalarida omborlarda va buxgalteriyada hisob yuritish tartibi qanday tashkil etiladi?

**8-MAVZU: “TRANSPORT TASHKILOTLARIDA ASOSIY FAOLIYAT  
AUDITINING XUSUSIYATLARI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA  
MATERIALLARI**

**REJA:**

- 1.Avtotransport korxonalarida auditning maqsadi va vazifalari**
- 2.Avtotransport korxonalarida auditorlik tekshiruvini rejalahshtirish va tashkil etish hamda ichki nazoratni baholash**
- 3.Avtotransport korxonalarida asosiy vositalarning mavjudligi va saqlash holatining auditi**
- 4.Avtotransport vositalari holati va harakati muomalalari auditi**
- 5.Transport korxonalari auditi jarayonida odatda aniqlanadigan xatolar**

**Mavzu bo'yich tayanch-so'z va iboralar:** Audit, auditor, auditorlik tekshiruvi, auditorlik tashkiloti, aylanma mablag', transport sohasi, yuk tashish xarajatlari, transport tashkilotlaridagi asosiy vositalar tarkibi, ekspeditsiya xizmatlari, ortish ishlari, inventarlash.

**1. Avtotransport korxonalarida auditning maqsadi va vazifalari**

Transport korxonalarida boshqa korxonalar singari auditning ob'ektlari bo'lib asosiy va asosiy bo'lмаган faoliyat turlari, ularni tashkil qiluvchi jarayon va operatsiyalar, faoliyat turlarining olib borilishini ta'minlovchi aktivlar, aktivlarni tashkil topish manbalari, shuningdek erishilgan moliyaviy natijalar hisoblanadi. auditning ushbu ob'ektlari transport korxonalarida, bir tomonidan, o'ziga xos xususiyatlarga, ikkinchi tomondan esa, barcha korxonalaridagi kabi umumiy jihatlarga ega.

*Avtotransport korxonalarini auditining asosiy maqsadi* – mamlakatimizda transport vositalari bilan bog'liqligi xo'jalik operatsiyalari hisobda to'g'ri aks ettirilganligini va transport vositalarning mavjud holati va harakati, ular yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar, olingan daromad va qilingan xarajatlari, transport xizmatidan erishilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni auditorlik tekshiruvidan o'tqazishdan iborat. Bundan tashqari hisob xodimlari transport vositalari ish faoliyatini soniy va sifat jihatdan ifodalovchi ko'rsatkichlarni doimiy nazorat va tahlil qilish, nazorat va tahlil natijalarini tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida rahbariyatga hamda boshqa foydalanuvchilarga o'z vaqtida etkazib berish kabi vazifalarni ham bajarishlari lozim.

Transport tomonidan bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar naqd hamda naqdsiz pulga amalga oshiriladi. Transport korxonalarini tomonidan naqd pulga ko'rsatilgan xizmatlar aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlarning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu pullik xizmatlarning hajmi transport korxonalarining kassasiga topshirilgan pul miqdori bilan, shuningdek sotilgan yo'l chiptalari, talonlar hamda haydovchilar tomonidan yo'lida yoqilg'i sotib olish uchun sarflangan yo'l puli miqdoridan iborat bo'ladi. Naqdsiz pulga transport xizmatlari tuzilgan shartnomalar asosida ko'rsatiladi. Ushbu xizmatlar hajmi buyurtmachilarga taqdim etilgan va ular tomonidan to'lov uchun qabul qilingan schyot-faktularlar asosida aniqlanadi. Ushbu xususiyatlardan avtoxojaliklarda bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmini hisob-kitob va to'lov turlari bo'yicha alohida-alohida hisobga olish zarurati borligidan darak beradi.

Transport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larni qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ga tortishda ham o'ziga xos xususiyatlardan mavjud Chunonchi, bиргина transport yordamida yo'lovchi tashishda shaharichi marshrutlaridan tushgan tushumlar.

Transport korxonalari faoliyatida transport vositalarining muhim ahamiyatga molikligi haydovchilar hamda boshqa texnik xodimlar mehnati va ular mehnatiga haq to'lashni tashkil qilishda o'ziga xos yondashishni talab qiladi. Chunonchi, transport vositalarini ekspluatatsiya qilish hamda ular butligini va ishga loyiqligini ta'minlash zarurati, transportning turlari, markalari, ularning yuk tashish imkoniyatlari, boshqarish darajasining murakkabligi, maxsus razryadlarni talab qilishligi yoki qilmasligi, ishslash rejimlari va shu kabi boshqa omillar avtoxo'jaliklarda mehnatni tashkil qilishning, mos ravishda moddiy javobgarlikning yakka hamda brigada shakllaridan keng foydalanishni, shuningdek mehnatga haq to'lashning ishbay va vaqtbay turlarini keng qo'llashni taqozo etadi. Ushbu xususiyatlар avtoxo'jaliklarda mehnat va mehnatga haq to'lash auditini tashkil qilishda maxsus yondashishni zarurat qilib qo'yadi.

Transport vositalarining ish faoliyati ularni harakatga keltiruvchi yog'ilg'i, yog'lash materiallari, ehtiyoj qismlar va shu kabi boshqa moddiy boyliklarning tegishli miqdorda mavjudligiga, ularning butligi, sifati va boshqa jihatlariga bog'liq. Shu bois ham ushbu aktivlar auditini to'g'ri tashkil qilish ishlab avtoxo'jaliklar faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim o'r'in tutadi.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda *avtotransport korxonalarida audit oldida turgan asosiy vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin:*

- transport vositalari holati hamda harakatini tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish, ular asosida transport vositalarining analitik va sintetik auditini yuritish;
  - transport vositalarining ish faoliyatini, bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni hisobot davrlari bo'yicha hisobga olish, ularni tasdiqlovchi hujjatlarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish;
  - transport vositalarini ekspluatatsiya qilishga doir xarajatlarning tizimli auditini yuritish, hisob ma'lumotlari asosida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarximi aniqlash;
  - transport vositalari faoliyatini uzliksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish zahiralari (yoqilg'i, yog'lash materiallari, ehtiyoj qismlar va boshqalar) holati hamda harakatiga doir boshlang'ich hujjatlar, moddiy hisobotlar, shuningdek hisob registrlarini o'z vaqtida va to'g'ri tuzilishini ta'minlash;
  - transport yordamida naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar bo'yicha hisob-kitoblarni barcha buyurtmachilar bo'yicha o'z vaqtida va to'g'ri olib borish;
  - ko'rsatilgan transport xizmatlaridan olingan naqd pul tushumlarini korxona kassasiga kirish qilinishini, naqd pul auditidan haydovchilar tomonidan avtomobil yog'ilg'ilarining xarid qilinishini, pul mablag'larning bank muassassiga topshirishini to'g'ri va o'z vaqtida hujjatlashtirish;
  - transport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan erishilgan moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini to'g'ri shakllantirish, ularni buxgalteriya schyotlari va hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirish;
- mehnat haqi, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni to'g'ri hamda o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash.

## **2. Avtotransport korxonalarida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va tashkil etish hamda ichki nazoratni baholash**

Auditolrik tekshiruvini muvafaqqiyatli o'tkazish uchun nazorat usuli va ulubiyotini to'g'ri qo'llash, ilg'or tajribalardan foydalanish zarur. Chunki har bir auditorlik tekshiruvining vaqtি chegarlangan, auditor uchun uning maqsadini to'g'ri belgilash, tekshirladigan (tadqiq qilinadigan) obe'ktini xatosiz o'rganish, o'z harakatlarini oqilona

rejelashtirish, samarali auditorlik amallarini qo'llash va xolisona auditorlik xulosalarini rasmiyashtirish uchun zarur dalillarni yig'ish kerak bo'ladi. Aniq auditorlik tekshiruvlari maqsadlarini muvofaqqiyatli realizatsiya qilish uchun audit o'tkazishning asosiy bosqichlarini izchillik bilan bajarish lozim.

Auditorlik tekshiruviga tayyorgarlik amaldagi qonunchilikga asosan mijozlar bilan shartnoma shartlarini o'rghanish va uni rejelashtirish amalga oshiriladi.

Tekshiruvni belgilangan muddatlarda sifatli bajarish uchun auditor oldida turgan ishlarning kelishilgan aniq rjasimi tuzishi zarur, ya'ni:

- tekshiriladigan axborotlar hajmini belgilash, tekshiruv vaqtini, shuningdek tekshiruv uchun jalb qilingan auditorlar ishchi guruhi tarkibini aniqlash;

- auditorlik amlallari ruyxati va ularni qo'llash uslubiyotini belgilash;

- mijoz nazorati uchun tanlab olingan usullarni qo'llash imkoniyatini aniqlash uchun taqdim etilgan axborotlar tarkibini aniqlash;

"Auditni rejelashtirish" nomli №3-AFMSga asosan auditor avtotransport korxonasi (mijoz) bilan kelishuv xati yozgunga qadar va audit o'tkazish shartnomasi tuzguncha audit tekshiruvi bilan bog'liq asosiy tashkiliy maslalar haqida kelishib olishlari kerak. Shu bois, oldidan rejelashtirish audit hajmini aniqlash bosqichidayoq, ya'ni auditor mijozning moliyaviy xo'jalik faoliyati bilan tanishuv hamda ularga ichki va tashqi omillar ta'sirini baholaguncha amalga oshiriladi.

Auditor korxona rahbari va mutaxassislari bilan shaxsan suhbatlashishi asosida avtoturargoh, yoqilg'i quyish shaxobchalar va moddiy qiymatiklarni saqlash joylari haqida ma'lumot, shuningdek ichki ma'lumotlar va soliq organlariga taqdim etilgan hisobotlar, ichki nazorat tizimni o'rghanish asosida zarur hujjatlarni va ma'lumotlarni olish lozim.

Auditning umumiyligi rejasini qo'yidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga auditning maqsadi, bajariladigan ish hajmi isjni bajarish grafigi va muddati, tekshiruv usullari, vositalari, auditorlik guruhining tarkibi kabilalar oladi.

Auditning ishonchhligliji va haqiqiyligini oshirish uchun auditor o'z rejasini mijoz bilan kelishishi lozim. Auditning rejasini alohida hujjat sifatida rasmiyashtiriladi va tekshiruvni o'tkazish vaqtida qayta ko'rib chiqish mumkin.

## AUDITNING UMUMIY REJASI

**Tekshiriladigan tashkilot** *Avtotransport korxonasi*

**Audit davri** \_\_\_\_\_

**Kishi - soat soni** \_\_\_\_\_

**Auditorlik ishchi guruh rahbari** \_\_\_\_\_

**Auditorlik ishchi guruh tarkibi** \_\_\_\_\_

**Rejelashtirilgan auditorlik tavakkalchilik** \_\_\_\_\_

**Rejelashtirilgan muhimlilik darajasi** \_\_\_\_\_

	<b>Rejelashtirilgan ish turlari</b>	<b>O'tkazish davri</b>	<b>Bajaruv chi shaxs</b>	<b>Eslatma</b>
1.	Avtotransport tashkiloti muassislari bilan hisoblashishlar va ta'sis hujjatlarini tekshirish			
2.	Avtotransport korxonalari hisob siyosati va biznes rejasini to'g'ri ishlab chiqilganligi o'rghanish			

3.	Pul mablag'lari auditi			
4.	Yoqilg'i, yoqilg'i – moylash mahsulotlari va boshqa tovar moddiy zahiralari auditi			
5.	Harakatdagi transport tarkibining butligi va undan foydalanish auditorlik tekshirish			
6.	Asosiy vositalarning mavjudligi, saqlanishi va undan foaydalanish auditi			
7.	Avtotransport korxonasida mavjud bo'lgan boshqa aktivlarni tekshirish			
8.	Hisob kitob va kredit muomalarini auditi			
9.	Ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar)ni tashish xarajatlar va tashish tannarxi kalkulyatsiyasini auditi			
10	Davr xaradatlari auditi			
11	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va daromadlarning auditorlik teshiruvi			
12.	Aks ettrilgan daromadlarning ishonchlilagini tekshirish			
13.	Avtotransport korxonalarini soliqqa tortilishni auditi			
14.	Foydaning shakllanishi va undan to'ri foydalanganlikning auditi.			
15	Moliyaviy hisobotlar ochiqligini tekshirish va tekshirish natijalari bo'yicha yakuniy hujjatlar tayyorlash			

**Auditorlik tashkiloti rahbari** \_\_\_\_\_  
**Auditorlik guruhi rahbari** \_\_\_\_\_

Ish rejasiga asosan tekshiruvi boshlangunga qadar auditorlik guruhi rahbari tomonidan audit dasturi tuziladi, va unda quydagilar ko'rsatiladi:

- mijoz korxonaning asosiy ish bo'limlari va tekshirishga tegishli bo'lgan hisob bo'limlari;

- har bir bo'lim bo'yicha tekshiruv tavsifi (umumiy tanlab olinadi);
- har bir bo'lim bo'yicha tekshirish usullari;
- tekshiruvchi auditorga majburiyatlarining biriktirilishi;
- ishlarni bajarish muddatlari;
- ishchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi kabilar ko'rsatiladi.

Umuman olganda, auditning dasturli audit rejasining tavfsilotlariga ko'ra rivojlanadi hisoblanadi, chunki unda korxona faoliyatining tekshiriladigan uchastkalari ruyxati(hisob bo'limlari), ularning har birining tekshirish tartiblari aniqlashtiriladi, Har bir uchastka bo'yicha mas'ul(javobgar) ijrochi va ishning boshlanishi va tugallash muddatlari aniqlanadi. Hujjatlashtirilishb rasmiylashtirilgan dastur bir vaqtning o'zida guruhi tarkibidagi a'lovida auditorning topshiriqlarini bajaradigan nazorat vositasi bo'lib xizmat qiladi.

“Auditni hujjatlashtirish” nomli 6-AFMSga muvofiq, har bir auditorlik tekshiruvi davomida olingan axborot mos keluvchi me'yoriy hujjatlarda aks etishi zarur. Auditolik xulosasining dalillashtirilganligi uchun shuningdek, 6-AFMS “Auditni hujjatlashtirish”ga rioya qilish uchun tekshiruv jarayonida buxgalteriya hisobining biror-bir bo'limini

tekshirish metodikasi mos ravishda ishlab chiqilgan testlardan foydalanib, protseduralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Avtotransport korxonalarida auditni tashkil etish va rejalashtirishda quyidagi testlardan foydalanishi mumkin.

**Avtotransport korxonalarida auditni tashkil qilish va rejalashtirish bo'yicha testlar**

T.t./r	Tekshirish uchun testlar	Tekshirish uchun hujjatlar	Javob mazmuni		Izoh
			Ha	Yo'q	
1	Avtotransport korxonasingning ta'sis hujjatlari belgilangan tartibda ruyxatdan o'tganmi?	Ustav nizomi, ta'sis shartnomasi, ro'yxatdan o'tkazganlik haqida hujjatlar			
2	Korxonaning tashkiliy tuzilmasi: -AJ; - MChJ; - X/K va boshqalar	Ustav Nizomi			
3.	Ustav fondida davlatga tegishli ulush bormi?	AJ bo'sla, emissiya prospekti			
4	Sho'ba va filial tashkilotlar bormi? - Shuba; - Filiallar;	Ustav, uning tashkiliy struktrini tasdiqlovchi hujjat			
5	Avtotransport korxonasi (mijoz)ni tekshirish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladimi?				
6	Shtatdagi ishchilar soni, jami: shu jumladan -boshqaruv; - ishlab chiqarish xodimlari;	Shtat jadvali			
7	Korxona o'zining xo'jalik yuritish dasturini va ustav nizomdagи faoliyatini bajaryaptimi	Kuzatuv kengashi, yig'ilishlari aktsiyadorlar yig'ilishmajlilari			
8	Aktivlarning butligi ta'minlanganligi (harakatdagi tarkib ehtiyyot qismlar, v.b.aktivlar),				

Avtotransport tashkilotlarining auditni davrida avtomobilarni to'liq inventarlash kerak, agar u korxona o'rtacha yoki kichikroq bo'lsa, bazi tashkilotlarda saralab o'tkazilishi kerak bo'ladi. Inventarlash natijalari, ya'ni aniq ma'lumotlar xisobchilik xisobi ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Agar noto'g'ri ketgan ma'lumot bo'lsa, dastlabki xujjalardagi ma'lumotlardan foydalanib, ortiq yoki etishmayotgan avtomobillar, muddatdan oldin ro'yxatdan o'chirish hamda ularni qismlarga bo'lib tashlash ta'minlovi amalga

oshirilmaganligi natijasida va yaroqli qismlar, detallarni o'zlashtirib olish, hamda temirtersak omborxonalariga yaroqsiz extiyot qismlarni topshirish natijasida paydo bo'ladi. Barcha avtomobillar qaerda bo'lmasin, ularni texnik xolati qay darajada bo'lmasin, ularni inventarlash zarurdir.

## **2. Avtotransport korxonalarida asosiy vositalarning mavjudligi va saqlash holatining auditini**

Har qanday korxona faoliyati samaradorligini oshirishning muhim sharti asosiy vositalarning butligini va undan oqilona foydalanishni ta'minlash hisoblanadi. Shuning uchun auditorlik tekshiruv dasturlari asosiy vositalar bilan operatsiyalar nazorati bo'yicha bimr qancha topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

AV bilan operatsiyalar auditni dasturida quyidagi masalalar shakllantirilgan bo'lishi lozim:

- Asosiy vositalarni saqlash va ekspluatatsiya qilish shartnomalarini, ularning tarkibi va tuzilmalarini o'rGANISH;
- AV bilan operatsiyalar hisobining rasmiylashtirilishi va aks ettirilishi to'g'riligini tasdiqlash;
- AVlar bo'yicha hisoblangan amartizatsiyalar miqdori tasdiqlanganligi va ularning hisobda aks ettirilishi ishonchliligi;
- AVlar bo'yicha bajarilgan ta'mirlash ishlari g'ajmini va ularni o'tkazish bo'yicha xarajatlar tanlangan metodga bog'liqholda to'g'ri aks ettirilganligini aniqlash;
- Hisobot yilda o'tkazilgan AVlarni qayta hisoblash bo'yicha yakun (jami)larni tasdiqlash;
- Yillik hisobot tuzilishi oldidan o'tkazilgan AVlar inventarizatsiyasi sifatining bahosi (baholash).

AVlar bilan o'tkazilgan operatsiyalarni tekshirish uchun axborotlar manbalari quyidagilar hisoblanadi: AVlarni oldi-sotli shartnomalari, AVlarni qabul qilish – topshirish aktlari (nakloadnoylar) (AV-1-shakl), ta'mirlangan, rekonstruktsiya qilingan va modernizatsiyalangan ob'ektlarning qabul qilish – topshirish aktlari (AV-3-shakl), ekspluatatsiyaga kiritish aktlari, nakladnoy (yuk xati)lar, schet fakturalar, AVlar hisobi inventar kartochkalari hisobi (AV-7-shakl), inventar kitobi, AVning inventar ro'yxati (AV-9-shakl), AVlar harakatini hisobga olish kartochkasi (AV-8-shakl), AVlarni hisobdan chiqarishga aktlar (AV-4-shakl), ishlab chiqish jadvallari (amortizatsiya ajratmalari summalari hisob-kitoblari 6- shakl), defektlari (nuqsonli) vedemostlar, AV larni ta'mirlashga naryad buyurtmalar, AV ob'ektlarini ijara berish (olish)ga shartnomalar, hisobraqamlar bo'yichahisob registrlari (vedemostlar, mashinogrammalar v.b.)

0100, 0200, 0300, 0820, 2000, 2300, 9210, 8300 hisobraqamlar bo'yicha v.b., Bosh kitob v.b.

Ko'pchilik korxonalarda asosiy vositalar bilan operatsiyalarni mahsulot realizatsiya qilish, pul mablag'lari bilan v.b. operatsiyalarga nisbatan o'ta kam o'tkaziladigan operatsiyalar qatoriga kiritiladi. Biroq, yuqorida aytib o'tilganidek buxgalteriya hisobining bu uchastkasini tekshirish o'ta muhim va avtotransport korxonalarida asosiy vositalar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar miqdoridan mustaqil (bog'liq bo'lman) holda ularning hisobi va nazorati tizimini o'rGANISHGA yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu tuzilmalarning holati haqida axborotlar olish uchun testlashtirishdan foydalanish mumkin.

**Avtotransport korxonalarida asosiy vositalar hisobini tekshirish bo'yicha testlar**

№	Tekshirish uchun testlar	Tekshirish uchun xujjatlar	Javobning mazmuni		Izoh
			ha	yo'q	
1	Avtotransport korxonasida quyidagi asosiy vositlar bormi? a) xususiy ijaraga olingen;  b) ishlab chiqarishga; noishlab chiqarishga oid; v) harakatdagi harakatsiz	Buxgalteriya balansi (1-shakl)  Titul ro'yxati inventar kartochkalar (AV-6-shakl) Inventar kartochkalar yozuvi (AV-7-shakl)			
2	Korxonada mavjud AVlar: a) ekspluatatsiyada; b) rekonstruktsiyada; v) rezervda	Titul ro'yxati loyixa-smeta hujjatlari; Inventar kartochkalar (AV-6-shakl) 01, 08-schetlar ma'lumotlari			
3	Avtotranspot korxonasi asosiy vositalarning qanday qismini harakatlanuvchi tarkib tashkil etadi?	Titul ro'yxati Inventar kartochkalar (AV-6-shakl) Inventar kartochkalar ro'yxati (yozuvi) (AV-7-shakl)			
4	AVlar butligini ta'minlovchi moddiy javobgar shaxslar doirasi belgilanganmi?	Buyruq; Moddiy javobgarlik xaqida shartnomasi.			
5	AVlar butligini ta'minlovchi sharoitlar yaratilganmi?				
6	AVlar ob'ektlari inventarizatsiyasi o'tkaziladimi?	Buyruq; Inventarizatsiya akti.			
7	Inventarizatsiya to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazilganmi?	Buyruq; Inventarizatsiya akti; Inventarizatsiya va qo'shma (taqqoslama) vedemostlar; Inventarizatsion komissiyalar yig'ilishlari bayonnomalari.			
8	Buxgalteriya hisobida inventarizatsiya natijalari to'g'ri aks ettirilganmi?	Taqqoslama vedemost; Tushintirsh xatlari va moddiy javobgar shaxslar majburiyatları; Birlamchi xujjatlar va			

		hisob registlari.		
9	Asosiy vositalarning kelib tushishi va buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishimi tekshirish: a) kapital qo'yilmalari; - kapital qurilishlari; - to'lov bilan boshqalardan sotib olish; b) tekinga olish; v) muassasalar tomonidan ustav kapitali hisobraqamiga omonatlar kiritilishi; g) moliyalashtirilayotgan lizing shartnomasi bo'yicha olish.	Oldi sotdi shartnomalari; Kapital qurilish uchun loyiha-smeta xujjatlari; Muassislik shartnomasi; Xatlar, bayonnomalar; Lizing shartnomalari v.b.		
10	AVlardan faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha foydalanishlar tekshiriladimi?			
11	AVlarga shikast etkazishdan aybdor shaxs aniqlanadimi?	Tushuntirish xatlari; Birlamchi hujjatlар		
12	AVlar ta'mirlari hajmi va sifatini tekshirish	Pudrat ishlariga shartnomalar; Loyixa smeta hujjatlari; Nuqsonlar defekti; Naryad-buyurtmalar		
13	AVlarning mos keluvchi guruxlarga tasgniflanishi o'tkazilganmi?	Titul ro'yxati Inventar kartochkalari		
14	Asosiy vositalar turlari bo'yicha eskirish stavkalari to'g'ri qo'llanilganmi?	Soliq kodeksi Inventar kartochkalari; AVlar eskirish hisob-kitoblari		
15	Eskirishni hisoblashda qshllaniladigan usullar; a) to'g'ri chiziqli; b) ishlab chiqarishga oid; v) kamayuvchi qoldiq g) kumulyativ;	Korxonaning hisob siyosati		
16	Inventar kartochkalarida eskirishni yozishning tugash muddati sanasi aks etganmi?	Inventar kartochkalari		
17	Eskirishni yozish o'z vaqtida tugatiladimi?	Inventar kartochkalari; AV eskirish hisob siyosati		
18	Ijaraga olingan AVlar hisobi to'g'ri yuritiladimi?	Ijara shartnomasi; Hisob registrlari		
19	Buxgalteriya hisobida chiqib	Bayonnomalar, xatlar,		

	ketgan AVlar to'g'ri aks ettirilganmi ?: a) likvidatsiya (yo'q qilish); b) realizatsiya; v) ustav kapitalga qo'yilma; g) moliyaviy lizing shartnomasi bo'yicha berish; d) tezkor lizing shartnomasi bo'yicha	buyruqlar; Avni likvidatsiya qilish haqida akt (AV-3,AV-4 shakllar) Oldi-sotdi shartnomasi; Muassislik shartnomasi; Ijara shartnomasi			
20	Korxonada lizinga berilgan AVlar mavjudmi?: a) tezkor; b) moliyaviy	Lizing haqida shartnoma			
21	Lizing shartnomasi bo'yicha berilgan AVlar hisobi to'g'ri yuritiladimi? a) tezkor; b) moliyaviy	Lizing haqida shartnoma Hisob registrlari			
22	Quyidagi holatlar bo'yicha korxonada asosiy vositalarni qayta baholash o'tkazilganmi? a) 01.04.1992 b) 01.04. 1993 v) 01.01.1995	O'z.R. hukumati qarori; Qayta baholash hisob-kitoblari			
23	Avlarning samarali analitik hisobi tashkil etilganmi, AVlar hisobi inventar kartochkasi yuritiladimi?	Inventar kartochkalari			
24	AVlar harakatlari bo'yicha hujjatlar aylanishi grafigiga amal qilinadimi?				
25	Balans ma'lumotlarining analitik hisob ma'lumotlariga mosligi	Inventar kartochkalari; Moddiy javobgar shaxslar bo'yicha korxona bo'yicha yaxlit holdagi inventar ro'yhatlari bilan inventar yozuv (ro'yxat)lari; Bosh kitob bo'yicha 01 va 03 schetlar saldosining korxona bo'yicha inventar ro'yxati; Bosh kitobda balans bilan 01 va 03 schetlar saldosi (1-shakl)			

26	Korxonada asosiy vositalar sotib olish bo'yicha to'lanmagan majburiyatlar bormi?	Hisob registrlari Balans (1-shakl)			
27	Asosiy vositalarning dastlabki qiymati mulkka soliq hisobiga o'z vaqtida va to'liq kiritilganmi?	Buxgalteriya balansi (1-shakl) Mulkka soliq hisobi			
28	Eskirish koeffitsienti asosiy fondlar eskirishi summasi asosiy fondlarning mos keluvchi sanaga dastlabki qiymati	Buxgalteriya balansi (1-shakl)			
29	Yaroqlilik koeffitsientining asosiy fondlarning qiymat qoldig'i asosiy fondlarining dastlabki qiymati	Buxgalteriya balansi (1-shakl)			
30	Asosiy vositalr rentabelligining foydalar Asosiy vositalarning o'rtacha yilli qiymati	Buxgalteriya balansi (1-shakl); Moliyaviy natijalar haqida hisobot (2-shakl); Asosiy vositalar harakatlari haqida hisobot.			

Avtotransport korxonalarida avtomobillar asosiy vositalar hisoblanadi va ekspluatatsiya jarayonida o'z xo'jalik yuritish faoliyatini, tashish bo'yicha biznes-rejalarining bajarilishini ta'minlaydi. Ularning butligi va texnik holatiga ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishi bog'liq bo'ladi va oxir-oqibatda bu avtotransport korxonasi faoliyatining moliyaviy natijalariga ham ta'sir etadi. Shu bois, avtotransport korxonalarini auditorlik tekshiruvi dasturiga asosiy vositalar bilan operatsiyalar nazorati bo'yicha topshiriqlarni ham kiritish va harakatlanuvchi tarkibning mavjudligiga, hisobi va texnik holatini tekshirishga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Avtotransport korxonalarini auditida, agar bu o'rtacha va uncha katta bo'lмаган korxonalar bo'lsa, avtomobillar to'liq, ushbu korxona yirik bo'lsa, alohida kolonalarda avtomobilarni tanlab inventarizatsiya zarus. Inventarizatsiya natijalari, ya'ni haqiqiy ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Tafovutlar aniqlanganda, dastlabki xujjatlar ma'lumotlaridan foydalananib, etishmayotgan yoki ortiqcha avtomobillar sabablarini aniqlash zarur. Ortiqcha avtomobillar muddatidan oldin hisobdan chiqarish va ularni kesmlarga ajratish, yaroqli joy uzellarga va detallarini kirim qilinishi hamda yaroqsiz ehtiyoj qismlari, uzellari va agregatlarini metallash omboriga topshirishni ta'minlanmaslik natijasida paydo bo'ladi.

Ma'lumki, tuzatilmagan va plombalanmagan spidometrli avtomobilarni ekspluatatsiya qilish ayrim nohalol haydovchilarga tashilmagan yuklar hajmini oshirish, tashishlar masofasini orttirib ko'rsatish, shuningdek, yoqilg'ini ortiqcha ko'rsatib, hisobdan chiqarish kabi salbiy holatlarga imkon beradi. Shuning uchun inventarizatsiya davrida har bir avtomobil bo'yicha spidometr holatini aniqlash, yo'l varaqalarini va yoqilg'ini hisobdan

chiqarishni rasmiylashtirish to'g'rilingini tekshirish uchun foydalanishda ularning ko'rsatkichlarini yozib olish muhim.

Avtomobilarni hisobdan chiqarish uningekspluatatsiyaga yaroqliligi, avriyalar, realizatsiya qilish, boshqa korxona va tashkilotga tekinga (qaytarilmaslik sharti bilan) berish, boshqa korxonalar ustav kapitaliga qo'yish, uzoq muddatli ijara ga berish kabi sabablarga ko'ra o'tkaziladi. Avtomobilning chiqib ketishi holatlarda u sinchiklab tekshirishlishi surur bo'ladi.

Hamma turdag'i avtomobillar va printsep (tirkama)larning yaroqsizligi va kelgusida korxonasiда undan foydalanish imkon yo'qligi, aniqlash uchun ularni tiklash uchun ta'mirlash foydasizligi, shuningdek, harakatdagi tarkibni hisobdan chiqarish uchun mos keluvchi hujjatlarni rasmiylashtirish uchun avtotransport korxonasiда rahbarning buyrug'i bilan bosh buxgalter va boshqa mutaxassislardan iborat komissiya tuziladi. Komissiya brakka chiqarilayotgan har bir avtomobil va pritsep (tirkama)ni ochib ko'rish, zarurat tug'ilganda esa alovida agregatlarni bo'laklarga ajratib, har tomonloma texnik ko'rikdan o'tkazishi; avtomobil va pritsepnинг hisobdan chiqarilishi sababini aniqlashi; ayrim uzellar, agregatlar va ustamalardan foydalansa, bo'lishi imkonini va ularning yaroqlilik foizini aniqlash, ushbu avtomobil, pritsepda mayjud bo'lishi zarur bo'lgan agregatlar, asboblar, zarur predietlar o'z joyidaligini ularni tayyorlagan zavodning maxsus ro'yhatibilan taqqoslanib, aniqlashi va agregat va detallar etishmasligi yuzaga kelganda, bu haqda akt tuzishi zarur. Brak qilinishi mo'lljallangan har bir avtomobil, printsep texnik ko'rikdan o'tkazilgandan keyin komissiya o'rnatilgan shaklda akt tuzadi. Ushbu akt asosida korxonalar avtomobillar va printseplarni hisobdan chiqarish haqida buyruq chiqaradi va (davlat tomonidan berilgan) raqam belgisi va texnik pasportlarni Davlat avtomobil nazorati xizmatiga topshiradi, hamda ular mahalliy DAN inspeksiysi organlaridan hisobdan chiqariladi.

Auditor harakatdagi tarkib bo'yicha amartizatsiya to'g'ri hisoblanishiga alovida e'tibor qaratishi zarur. Birinchi navbatda korxonada qo'llaniladigan amartizatsiya hisoblash (ajratish) usuli bilan tanishish, ular hisob siyosatida aks etganni, qo'llaniladimi va hisob-kitoblar ushbu usullar bilan mos holda, to'g'ri qilinadimi – bilishi zarur. Avtotransport korxonalar uchun eskirish hisoblashning yurgan masofasiga mos holdagi ishlab chiqarishi usulini qo'llash tavsiya etiladi. Shuningdek, amartizatsiya ajratmalari (hisoblash) bo'yicha schetlar korrespondentsiyalari to'g'rilingini ham nazorat qilish zarur.

#### **4. Avtotransport vositalari holati va harakati muomalalari auditи**

Transport korxonalarida ATVs holati va harakatining sintetik auditи bosh kitobda ochiladigan 0160 «Transport vositalari» schyotida yuritiladi. ATVs holati va harakatining analitik auditи ularning har biriga ochilgan hisob kartochkalarida yoki «Asosiy vositalar auditи kitobi»da olib boriladi. Hisob kartochkalari transport korxonasiда har bir ATVga davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng ochiladi. Ushbu kartochkada ATVning barcha texnik ma'lumotlari, uning sotib olinishi (bepul olinishi)ni tasdiqlovchi hujjatning tartib raqami, sanasi, shuningdek boshlang'ich qiymati, tiklangan qiymati, jamlanib boruvchi eskirish summasi, qoldiq qiymati hisobot davrlari bo'yicha aks ettiriladi. Hisob kartochkasi ATVning korxonada foydali xizmat muddatida to'liq saqlanadi. Korxona balansidan chiqarilgan sanaga ATVga ochilgan hisob kartochkasi yopiladi.

Transport korxonalarida ATVs asosan sotib olish, bepul olish, ta'sischiilar badali sifatida kiritish evaziga ko'payadi.

ATVs larni sotib olinishi AUDITda tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlar asosida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi.

### ATVlarning sotib olinishini schyotlarda aks ettirilishi auditi

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schet</b>	<b>Kredit schet</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1	ATV ning sotib olish bahosidagi qiymatiga (QQS bilan birga)	15000000	0820	6010	Schyt-faktura, invoys, bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD)
2	ATV bo'yicha bojxona to'lovlari summasiga	9000000	0820	6990	BYuD
3	Sotib olishdagi vositachilik haqi summasiga	150000	0820	6990	Schyt-faktura
4	Sotib olish bo'yicha safar xarajatlari summasiga	750000	0820	6970	Bo'nak hisoboti
5	Transport xarajatlari summasiga	200000	0820	6990	Schyt - faktura
6	Davlat avtonazoratiga to'lovlari summasiga	15525	0820	6990	Schyt-faktura
7	Yo'l fondiga sotib olish qiymatidan 6 foizlik to'lov summasiga	900000	0820	6520	Schyt, to'lov topshiriq-nomasi
8	ATVni boshlang'ich qiymati bo'yicha kirimiga	28015525	0160	0820	Hisob-kitob

ATVlarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan bepul olinishi tuzilgan shartnoma shartlariga ko'ra va schyt-fakturalar asosida transport korxonasi balansiga kirim qilinadi. AUDITda ushbu operatsiyaga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 0160 «Transport vositalari»

Kredit 8530 «Bepul olingan mulk»

Transport korxonalarida, chunonchi, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda, xususiy korxonalarda ATVlar ta'sischilar tomonidan ularning badallari evazi auditidan ham shakllantirilishi mumkin. Ta'sischilar tomonidan korxona balansiga kiritilgan ATV qiymatiga ta'sis shartnomasi, baholar kelishuvi bayonnomasi, schyt-fakturalar asosida quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 0160 «Transport vositalari»

Kredit 4610 «Ta'sischilarning ustav kapitaliga badallari bo'yicha qarzi».

ATVlarning boshlang'ich qiymati, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ular qiymatini qayta baholash, shuningdek avtomobilarni modernizatsiya qilish evaziga ko'payishi mumkin. Transport korxonalari boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar singari har yilning 1 yanvar holatiga o'zlarining barcha asosiy vositalari, shu jumladan ATVLarni qayta baholashlari lozim. Qayta baholash belgilangan tartibga muvofiq indeks yoki to'g'ridan-

to'g'ri baholash usullaridan biri bo'yicha amalga oshiriladi. Qayta baholash korxona rahbari tomonidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan yoki shartnomma asosida mulkni baholash huquqi bo'lgan maxsus korxona tomonidan amalga oshiriladi. Qayta baholash natijalari «Qayta baholash dalolatnomasi» bilan rasmiyashtiriladi. Ushbu dalolatnomaga asosan ATVlar boshlang'ich qiymatini oshirilishiga quyidagi yozuv beriladi:

Debet 0160 «Transport vositalari»

Kredit 8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar».

Bir vaqtning o'zida ATVlar bo'yicha ularning jamlangan eskirishi summasini oshirilishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar».

Kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi».

8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyotining krediti va debetida aks ettirilgan summalarining ijobiy farqi ATVlarni qayta baholash evaziga vujudga kelgan rezerv kapitalini bildiradi. Qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali transport korxonasi balansida xususiy kapital elementi sifatida aks ettiriladi.

ATVlar boshlang'ich qiymatini modernizatsiya qilish evaziga ko'payishi maxsus «Modernizatsiya qilish dalolatnomasi» asosida hisobga olinadi. Ushbu dalolatnomma maxsus komissiya tomonidan tuziladi va rahbar tomonidan tasdiqlanadi. ATVlar modernizatsiyasiga ketgan barcha sarf-xarajatlar dastlab 0890 «Boshqa kapital quyilmalar» schyotining debetida to'planadi. Dalolatnomma asosida modernizatsiya xarajatlari summasini ATVLarning boshlang'ich qiymatiga kiritilishiga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 0160 «Transport vositalari»

Kredit 0890 «Boshqa kapital quyilmalar».

Transport korxonalari ATVLarni shartnomalar asosida joriy va uzoq muddatli ijara olishlari ham mumkin.

Joriy ijara (1 yilgacha muddatgacha) olingen ATVLar transport korxonalari balansiga kirish qilinmaydi. Bunday ATVLar balansdan tashqari 001 «Joriy muddatli ijara bo'yicha olingen asosiy vositalar» schyotining debetida hisobga olinadi. Joriy ijara muddati tugagach, ATVLar ijara beruvchiga qaytariladi. Bunda ochilgan 001 «Joriy muddatli ijara bo'yicha olingen asosiy vositalar» schyoti kreditlanadi va shu yo'1 bilan ushbu schyot yopiladi.

Uzoq muddatli ijara (1 yildan ko'p muddatga) olingen ATVLar transport korxonalarining balansiga kirish qilinadi va mos ravishda 0310 «Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingen asosiy vositalar» schyotida hisobga olinadi. ATVLarni uzoq muddatli ijara olish operatsiyalari auditda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

• *ATVning kelishuv qiymatiga*

Debet 0310 «Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingen asosiy vositalar»

Kredit 7910 «To'lanadigan uzoq muddatli ijara bo'yicha qarz».

• *Uzoq muddatli ijara bo'yicha qarzning joriy qismiga*

Debet 7910 «To'lanadigan uzoq muddatli ijara bo'yicha qarz»

Kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi».

• *Uzoq muddatli ijara majburiyatining joriy qismiga doir to'lovni amalga oshirilishiga*

Debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi»

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti».

• *Uzoq muddatli ijara olingen ATVi asosiy vositalar tarkibiga olinishiga ular bo'yicha (ijara muddati tugab, majburiyatlar to'liq to'langandan so'ng)*

Debet 0160 «Transport vositalari»

## Kredit 0310 «Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar»

Transport korxonalari ixtiyoridagi ATVlar turli sabablarga ko'ra, jumladan tugatish, sotish, bepul berish, ta'sis badali sifatida kiritish hollarida hisobdan chiqariladi. Shuningdek, ATVLarning boshlang'ich qiymati ularni qayta baholash evaziga ham kamaytirilishi mumkin.

ATVLar foydali xizmat muddatini o'taganda, yaroqsiz holga kelganda tugatiladi. Tugatish ishlari maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Uning natijalari komissiya tomonidan «Tugatish dalolatnomasi»da aks ettiriladi. Ushbu dalolatnomma rahbar tomonidan tasdiqlangach, u tugatish natijalarini hisobda aks ettirishga asos bo'ladi.

ATVLarni tugatish natijalari auditda quyidagicha yozuvlar bilan aks ettiriladi.

### ATVLarning tugatilishini schyotlarda aks ettirilishi auditni

Nº	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schet	Kredit schet	Asos bo'lувчи hujjat
1	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000	9210	0160	Tugatish dalolatnomasi
2	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	5000000	0260	9210	Tugatish dalolatnomasi
3	Tugatishdan olingan ehtiyoj qismlar va metallolomning baholangan qiymatiga	100000	1040, 1090	9210	Tugatish dalolatnomasi
4	Tugatish xarajatlariga	25000	9210	6710, 6520, 6990	Tugatish dalolatnomasi
5	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirishiga	500000	8510	9210	Tugatish dalolatnomasi
6	Tugatishdan olingan moliyaviy natijaga: -olingu foyda summasiga -ko'rilgan zarar summasiga	575000	9210 - 9430	9310 9210	Tugatish dalolatnomasi

ATVLarning sotilishi turli sabablarga ko'ra yuz beradi, masalan transport korxonasi bankrotga uchraganda, eski avtomobilarga zarurat bo'limganda, yangi avtomobilarning sotib olinishini mablag' bilan ta'minlash maqsadida va boshqa hollarda. Transport korxonalari tomonidan ATVLarni sotish shartnomalar asosida amalga oshiriladi va schyotfakturalar bilan rasmiylashtiriladi.

Transport korxonalari ATVLarni qoldiq qiymatdan yuqori narxlarda, qoldiq qiymatida va undan past bo'lgan qiymatlarda sotishlari mumkin. ATVLarni sotish va undan olingan natijalar AUDITda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi.

**ATVlarning sotilishini schyotlarda aks ettirilishi auditি**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schet</b>	<b>Kredit schet</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000	9210	0160	Schyot-faktura, ma'lumotnoma
2	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	4000000	0260	9210	Schyot-faktura, ma'lumotnoma
3	ATVning sotish qiymatiga	3000000	4010	9210	Schyot-faktura,
4	QQS summasiga (agar korxona ushbu soliqni to'lovchisi bo'lsa, sotish qiymati va qoldiq qiymat o'tasidagi farq summasidan) (3000000-1000000)*20%/120%)	333333	9210	6410	Schyot-faktura , hisob-kitob
5	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Buxgalteriya ma'lumot-nomasi
6	Sotishdan olingan moliyaviy natijaga: - foyda summasiga - zarar summasiga	2166667	9210 9430	9310 9210	Hisob-kitob

Respublikamizning Soliq qonunchiligi hujjalariга muvofiq umumsoliqlarni to'lovchi transport korxonalarini ATVlarni qoldiq qiymati va qoldiq qiymatidan past narxlarda sotganlarida QQS to'lovchi hisoblanmaydilar. Shuningdek, yagona soliq to'lovini to'lovchi transport korxonalarini ATVlarni sotganda QQS to'lamaydi.

ATVlarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga bepul berilishi faqat tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi hamda qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va schyot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi.

ATVlarni bepul berilishi va uning natijalarini schyotlarda aks ettirish ATVlarni sotish bo'yicha yuqorida keltirilgan tartibga to'liq o'xshaydi. Faqat, bepul berishdan ko'rilgan zarar summasini hisobdan chiqarish ATVlarni bepul berishda kelishilgan narxga, transport korxonasingning QQS to'lovchi yoki to'lovchi emasligiga, shuningdek qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalining summasiga bevosita bog'liq. Ushbu xususiyatni quyidagi misol asosida ko'rib chiqamiz.

Misol. *Aytaylik, transport korxonasi boshlang'ich qiymati 5000000 so'm, jamlangan eskirishi 4000000 so'm bo'lgan avtomobilni 2000000 so'm miqdorida hadya shartnomosi asosida nogironlar uyiga berdi. Avtomobilni qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali 500000 so'm. Avtoxo'jalik QQS to'lovchi hisoblanadi.*

Avtomobilni bepul berish va undan ko'rilgan zarar yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra hisobda quyidagicha aks ettirilishi lozim.

**ATVlarning bepul berilishini schyotlarda aks ettirilishi auditি**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schet</b>	<b>Kredit schet</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000	9210	0160	Schyot-faktura, ma'lumotnoma
2	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	4000000	0260	9210	Schyot-faktura, ma'lumotnoma
3	ATVni bepul berishdagi shartnoma qiymatiga	2000000	4010	9210	Schyot-faktura,
4	QQS summasiga (agar korxona ushbu soliqni to'lovchisi bo'lsa, sotish qiymati va qoldiq qiymat o'rta sidagi farq summasidan) (2000000-1000000)*20%/120%)	166667	9210	6410	Schyot-faktura Hisob-kitob
5	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Buxgalteriya ma'lumot-nomasi
6	Bepul berilgan ATV bo'yicha 9210 schyotning yopilishiga (2000000-1000000Q 500000-166667)	1333333	9210	4010	Hisob-kitob
7	Bepul berishdan ko'rilgan zarar summasiga (2000000-1333333)	666667	9430	4010	Hisob-kitob

Agar, transport korxonasi yuqoridagi misolda keltirilgan avtomobilni qoldiq qiymati bo'yicha hadya qilganda edi, u holda ushbu operatsiya bo'yicha QQS to'lanmaydi. Korxonaning bepul berishdan ko'rilgan zarari qayta baholash summasiga kamaytirilgandan so'ng 500000 so'mni (1000000- 500000) tashkil etadi.

Respublikamizning Soliq qonunchiligi hujjalari ko'ra yagona soliq to'lovchi transport korxonalarining ATVlari qoldiq qiymati bo'yicha bepul berilganda ularga soliq yuki faqatgina qayta baholash summasining qoldiq qiymatdan ortiq bo'lgan qismigagina tushadi. Masalan, qoldiq qiymati 1000000 so'm bo'lgan ATV shu qiymatda bepul berilgan holda, uning qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali 1500000 so'mni tashkil etgan bo'lsa, u holda o'rta dagi 500000 so'mlik farq summasi transport korxonasida yagona soliq to'lovi bazasiga kiritiladi.

Transport korxonalari o'z ATVlarini boshqa yuridik shaxslarga ta'sis badali sifatida ham kiritishlari mumkin. Bunday operatsiyalarni amalga oshirishga tuzilgan shartnomalar asos bo'ladi. ATVlarni ta'sis badali sifatida berilishi qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, schyot-fakturalar hamda buxgalterianing tegishli ma'lumotnomalari asosida hisobga olinadi. Ushbu mazmundagi operatsiyalarni hisobga olishda respublikamizda belgilangan quyidagi tartiblarga amal qilinishi lozim:

birinchidan, ta'sis badali sifatida berilgan ATVlar ularning boshlang'ich qiymatida, shuningdek ular bo'yicha jamlangan eskirish summasi korxonaning balansidan yuqorida keltirilgan yozuvlar asosida chiqariladi.

ikkinchidan, ta'sis badali sifatida kiritilgan ATVs transport korxonalarida moliyaviy investitsiyalar sifatida tan olinadi va mos ravishda 0600 «Uzoq muddatli investitsiyalar» schyotida aks ettiriladi.

uchinchidan, ATVs ularni ta'sis badali sifatida kiritish, ularning kelishuv qiymatidan qat'iy nazar, QQSga tortilmaydi.

to'rtinchidan, ATVs ularni ta'sis badali sifatida kiritishdan olingan foyda yoki ko'rilgan zarar mos ravishda 9310 «Asosiy vositalar chiqimidan foyda» va 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida aks ettiriladi.

Transport korxonalari ATVs joriy va uzoq muddatli ijaraga berishlari ham mumkin. Ushbu operatsiyalar audit respublikamizning 6-son BHMS «Ijara auditiga»ga muvofiq olib borilishi lozim. Chunonchi, ATVs joriy (1 yil muddatgacha) ijaraga berishda ular transport korxonalarining balansidan chiqarilmaydi. Transport korxonasining hisob siyosatiga ko'ra bunday ATVs auditu ishchi schyotlar rejasida nazarda tutilgan alohida schyotda, masalan 0161 «Joriy ijaraga berilgan transport vositalari» schyotida hisobga olinishi mumkin. Bu holda ATVs joriy ijaraga berilishi ushbu schyotning debetida, ularning qaytarilishi esa uning kreditida aks ettiriladi.

ATVs uzoq muddatli (1 yildan ko'p muddatga) ijaraga berish AUDITda quyidagicha aks ettiriladi.

#### **ATVsning uzoq muddatli ijaraga berilishini schyotlarda aks ettirilishi audit**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schet</b>	<b>Kredit schet</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1	ATVsning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	15000000	9210	0160	Ijara shartnomasi, schyot-faktura, buxgalteriya ma'lumot-nomasi
2	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	14000000	0260	9210	Ijara shartnomasi, schyot-faktura, buxgalteriya ma'lumot-nomasi
3	ATVs uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha shartnoma qiymatiga	3000000	0920	9210	Ijara shartnomasi, schyot-faktura,
4	ATVs uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha shartnoma qiymatining joriy qismiga (misol uchun ijara 5 yilga	600000	4810	0920	Ijara shartnomasi, schyot-faktura ,

	berilgan bo'lsa, joriy yilga doir ijara haqi 600000 so'mni tashkil etadi – 3000000/5)				hisob-kitob
5	Uzoq muddatli ijara to'lovi summasining kelib tushushiga	600000	5110	4810	Bank ko'chirmasi
6	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Buxgalteriya ma'lumot- nomasi
7	Uzoq muddatli ijaradan olingan daromadni kechiktirilgan summasiga	2500000	9210	7230	Hisob-kitob
8	Kechiktirilgan daromadning joriy qismiga (2500000/5)	500000	7230	6230	Hisob-kitob
9	Uzoq muddatli ijaradan olingan daromadni hisobot davr daromadiga qo'shilishiga	500000	6230	9390	Hisob-kitob

Transport korxonalarida ATVLar boshqa asosiy vositalar singari ikki yilda kamida bir marotaba inventarizatsiya qilinishi lozim. ATVLar inventarizatsiyasi, uning natijalarini hujjalri rasmiylashtirish hamda hisobga olish respublikamizning 19-son BHMS «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Hisobdan chiqarilgan, biroq inventarizatsiya paytida ekspluatatsiya qilinayotganligi aniqlangan ATVLar transport korxonasi balansiga qayta kirim qilinadi va unga buxgalteriyada quyidagicha yozuv beriladi:

Debet 0160 «Transport vositalari»

Kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar»

ATVLar inventarizatsiyasida kamomadlar aniqlanganda, dastlab, ularning boshlang'ich qiymati va jamlangan eskirishi, shuningdek ular bo'yicha oldingi davrlarda qayta baholash evaziga shakllangan rezerv kapitali hisobdan chiqariladi. Ushbu operatsiyalar AUDITda yuqorida keltirilgan yozuvlarga o'xshash tarzda aks ettiriladi. Shundan so'ng, mavjud bo'limgan ATVning qoldiq qiymati aybdor shaxslar aniqlangunga qadar kamomad sifatida tan olinadi va unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 5910 «Kamomadlar va boyliklar buzilishidan yo'qotishlar»

Kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqimi».

ATVLarning kam chiqishi aybdor shaxs bo'yniga transport korxonasi rabbariyati tomonidan belgilangan miqdorda qo'yiladi. Ushbu miqdor kamomad sifatida tan olingan ATVning qoldiq qiymatiga, qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali summasi chegirilib topilgan qoldiq qiymatda, qoldiq qiymatdan past hamda undan yuqori qiymatlarda belgilanishi mumkin. Misol uchun, aytaylik kamomad chiqqan ATVning qoldiq qiymati 500 ming so'm, qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitali summasi 300 ming so'mni tashkil etadi. Korxona rabbariyati, kamomadni 1-holatda 200 ming so'm, 2-holatda 500 ming so'm, 3-holatda 100 ming so'm miqdorida undirib olishga qaror qilgan bo'lsa, mos ravishda, bu holatlar bo'yicha buxgalteriyada quyidagi yozuvlar berilishi lozim.

1-holatda (*ATV bo'yicha kamomad summasini 200 ming so'm miqdorida undirishga qaror qilinganda*):

Debet 4730 «Xodimlarning moddiy zarar bo'yicha qarzları»

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklar buzilishidan yo'qotishlar».

*2-holatda (ATV bo'yicha kamomad summasini 500 ming so'm miqdorida undirishga qaror qilinganda):*

Debet 4730 «Xodimlarning moddiy zarar bo'yicha qarzlar» - 500000 so'm

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklar buzilishidan yo'qotishlar» -200000 so'm;

Kredit 9310 «Asosiy vositalar chiqimidan foyda» - 300000 so'm.

*3-holatda (ATV bo'yicha kamomad summasini 100 ming so'm miqdorida undirishga qaror qilinganda):*

Debet 4730 «Xodimlarning moddiy zarar bo'yicha qarzlar» - 100000 so'm

Debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» - 100000 so'm

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklar buzilishidan yo'qotishlar» -200000 so'm.

## **5. Transport korxonalari auditi jarayonida odatda aniqlanadigan xatolar**

Transport korxonalarida har bir ATV ish faoliyati alohida yuritiladi. Buning uchun ATVLarning har biriga maxsus «Transport ish faoliyati auditni kartochkasi» ochiladi. Bu kartochkalarda ATVLar ish faoliyatini ifodalovchi soniy va sifat ko'rsatkichlar davrlar bo'yicha aks ettililadi hamda jamlab boriladi.

ATVLar ish faoliyati hajmini ifodalovchi soniy ko'rsatkichlar bo'lib tashilgan yuk hajmi va yuk aylanmasi (yuk oboroti) hisoblanadi. Chunonchi, tashilgan yuk hajmi tonnada, yuk aylanmasi (yuk oboroti) tonna-kilometrda, yo'lovchi tashish hajmi esa kishi sonida, yo'lovchi aylanmasi (yo'lovchi oboroti) kishi-kilometrda hisobga olinadi.

Tonna-kilometr (t/km) – bu transport tomonidan 1 tonna yukni 1 km masofaga tashish bo'yicha bajarilgan ishni hisobga olish uchun qabul qilingan shartli birlik. Transport tomonidan bajarilgan jami ishning tonna-kilometr (t/km)dagi hajmi tashilgan yuk miqdorini (tonna) jami yuk bilan bosib o'tilgan masofa (km)ga ko'paytirish orqali topiladi.

Kishi-kilometr (k/km) – bu transport tomonidan 1 kishini 1 km masofaga tashish bo'yicha bajarilgan ishni hisobga olish uchun qabul qilingan shartli birlik. Transport tomonidan bajarilgan jami ishning kishi-kilometr (k/km)dagi hajmi tashilgan yo'lovchilar sonini (kishi) jami yo'lovchilar bilan bosib o'tilgan masofa (km)ga ko'paytirish orqali topiladi.

ATVLar ish faoliyati turli sifat ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Ularning asosiyлари bo'lib, chunonchi, quyidagilar hisoblanadi:

- 1 tonna-kilometr (t/km) yuk aylanmasining tannarxi. Bu ko'rsatkich yuk tashish avtomobil transportini ekspluatatsiyasi uchun sarflangan jami xarajatlarni jami bajarilgan ish hajmi, ya'ni yuk aylanmasi (t/km) miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

- 1 kishi-kilometr (k/km) yo'lovchi aylanmasining tannarxi. Bu ko'rsatkich yo'lovchi tashuvchi avtomobil transportini ekspluatatsiyasi uchun sarflangan jami xarajatlarni jami bajarilgan ish hajmiga, ya'ni yo'lovchi aylanmasi (k/km) miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

- avtomobilarning texnik tayyoragarlik koeffitsienti. Bu ko'rsatkich ma'lum davrda jami texnik soz hamda yuk tashish (yo'lovchi tashish) uchun yaroqli bo'lgan avtomobillar sonini ularning shu davrda jami ro'yxatdagi soniga bo'lish orqali topiladi.

- avtomobilarning texnik tayyoragarlik koeffitsienti. Bu ko'rsatkich ma'lum davrda jami ishga chiqqan avtomobillar sonini shu davrda xo'jalikda mayjud bo'lgan jami avtomobillar soniga bo'lish orqali topiladi.

- ishdagi avtomobil-kunlar soni. Bu ko'rsatkich ma'lum davrdagi jami avtomobil-kunlar sonini shu davrdagi avtomobilarni ishga chiqish koeffitsientiga ko'paytirish orqali topiladi.

• ishda bo'Imagan avtomobil-kunlar soni. Bu ko'rsatkich ma'lum davrda xo'jalikdag'i jami avtomobil-kunlar sonidan jami ishdagi avtomobil-kunlar sonini ayirish orqali topiladi. Avtoxo'jaliklarda ishda bo'Imagan avtomobil-kunlar soni ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra yuz beradi. Chunonchi, dam olish hamda bayram kunlariga, shuningdek rejadagi texnik ko'rik va ta'mirlash ishlariga to'g'ri keladigan avtomobil-kunlari soni ob'ektiv sabablar hisoblanadi. Yo'lga chiqib, turli tasoddify holatlarga ko'ra ish vaqtini to'liq o'tamasdan xo'jalikka qaytgan, shuningdek haydovchining berilgan topshiriqni bajarmaganligi va shu kabi boshqa holatlarga ko'ra ishda bo'Imagan avtomobil larga to'g'ri keluvchi avtomobil-kunlari soni sub'ektiv sabablar hisoblanadi. Bundayin sabablarga ko'ra vujudga kelgan avtomobil-kunlar soni tuzilgan maxsus dalolatnomalar asosida hisobga olinadi.

• naryaddagi avtomobil-soatlar soni. Bu ko'rsatkich ma'lum davrda xo'jalikdag'i jami avtomobil-kunlar sonini avtomobil larning naryadda bo'lgan o'rtacha sutkalik soatlari soniga ko'paytirish orqali topiladi.

• Avtomobillar ish vaqtidan foydalanish koeffitsienti. Bu ko'rsatkich avtomobil larning harakatdag'i vaqtini naryadda bo'lgan vaqtiga bo'lish orqali topiladi.

• bosib o'tilgan masofaning foydalilik koeffitsienti. Bu ko'rsatkich avtomobil larning ma'lum davrda yuk bilan bosib o'tgan masofasini jami yuk bilan va yuksiz bosib o'tgan masofasiga bo'lish orqali topiladi.

• yuk ko'tarish imkoniyatidan foydalanish koeffitsienti. Bu ko'rsatkich avtomobil larning tomonidan ma'lum davrda haqiqatda tashilgan yuk hajmini ularning shu davrga to'g'ri keladigan jami yuk tashish imkoniyatiga bo'lish orqali topiladi.

ATVlar ish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar auditini yuritishga asos bo'luvchi boshlang'ich hujjatlardan biri bo'lib yo'l varaqalari hisoblanadi. Ushbu hujjatning turlari, shakllari, ularni tayyorlash, hisobga olish, to'lg'azish va ishlovdan o'tkazish tartiblari O'zbekiston Respublikasi avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'ining 2004 yil 3 iyundagi 83-buyrug'i bilan tasdiqlangan «Tashuvchilarning yuk avtomobil lari uchun yo'l varaqalari, tovar-transport naklodnoylarini tayyorlash, hisobga olish, to'lg'azish va ishlovdan o'tkazish bo'yicha yo'rqnoma» bilan belgilangan.

Yo'l varaqasi ATV ish faoliyatini aniqlash va hisobga olish uchun mo'ljallangan belgilangan namunadagi huquqiy hujjatdir. Yo'rqnoma tarli maqsadlar va yo'nalishlar uchun yo'l varaqalarining quyidagi namunaviy shakllari tasdiqlangan:

№ 4-s (ishbay) shakl - ATVLarda yuk tashishda ular haydovchilariga mehnat haqi ishbay shaklda shartnoma asosida belgilangan tariflarda hisob-kitob qilinganda qo'llaniladi.

№ 4-p (vaqtbay) shakl - ATVLarda yuk tashishda ular haydovchilariga mehnat haqi vaqtbay shaklda shartnoma asosida belgilangan tariflarda hisob-kitob qilinganda qo'llaniladi.

№ 4-m (shaharlарaro) shakl - ATVLarda yuk tashish shaharlарaro yo'nalishda amalga oshirilganda qo'llaniladi. Ushbu shaklning yuza qismida bosmaxona usulida qizil rangli katakcha ichida «Shaharlарaro tashish» yozuvi bo'ladi.

№ 1 (xalqaro) shakl - ATVLarda yuk tashish xalqaro yo'nalishlarda amalga oshirilganda qo'llaniladi.

Yo'l varaqalari ATV haydovchilariga transport korxonasing maxsus bo'limi (dispatcherlik bo'limi) yoki ushbu funktsiya yuklatilgan xodim tomonidan har bir ish kuniga (smenaga) beriladi. Shaharlарaro va xalqaro yo'nalishlarda yuk tashish uchun yo'l varaqalari bir ish kunidan ortiq muddatga berilishi mumkin. Haydovchilar keyingi ish kuni (smena)ga yo'l varaqalarini olishlari uchun oldingi ish kuni (smena)ga berilgan yo'l varaqalarini topshirishlari shart. Ular yo'l varaqalarini olganliklari to'g'risida dispatcherlik

bo'limida yuritiladigan «Berilgan yo'l varaqalarini qayd etish kitobi»ga imzo chekadilar. Berilgan yo'l varaqalari transport korxonasining burchak shtampi va muhriga ega bo'lishi lozim.

Transport korxonalariga, ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, yo'lovchi va yuk tashish avtomobillarini belgilangan shaldagi yo'l varaqalarisiz yo'lga chiqarish qat'iyan man etiladi.

Yo'l varaqalarining tasdiqlangan har bir shaklini to'lg'azish tartibi yo'riqnomada keltirilgan.

4-s (ishbay) shakldagi yo'l varaqalari yuza va orqa qismlardan, ushbu qismlar esa alohida bo'limlardan iborat bo'lib, ularda ATV ish faoliyatiga doir ma'lumotlar ko'rsatiladi. Chunonchi, yo'l varaqasining yuza qismida uning tartib raqami, berilgan sanasi, ish rejimi, haydovchi familiyasi, ismi-sharifi, toifasi, ATVning markasi, davlat belgisi raqami, tipi, tirkama yoki yarim tirkamaning markasi, davlat belgisi raqami, haydovchi bilan yo'lga chiqayotgan shaxslar (ekspeditor, yuk tashuvchi va tushiruvchi, stajer)ning familiyasi, ismi-sharifi alohida belgilangan qatorlarda ko'rsatiladi.

Yo'l varaqasining «Haydovchi va avtomobilning ishi» bo'limida (2-va 3-ustunlar) avtomobilning naryadga chiqish va undan qaytib kelish sanasi (kun, oy, yil) hamda vaqt (soat, daqiqa) aks ettiriladi.

Yo'l varaqasining «Haydovchiga berilgan topshiriq» bo'limida (15-22-ustunlar) buyurtmachi tashkilotning nomi, unga etib borish vaqt, yuk olish va yukni etkazib berish joylari, tashiladigan yukning nomi, yuk bilan borib kelish qatnovlar soni, bosib o'tiladigan masofa, tashiladigan yuk miqdori (tonnada) ko'rsatiladi.

Yo'l varaqasining maxsus «Yoqilg'i berilsin» bo'limida dispatcher mashina bakida mavjud bo'lgan yog'ilg'ini hisobga olgan holda berilishi lozim bo'lgan yoqilg'i miqdorini so'z bilan ko'rsatadi.

Avtomobil naryadga chiqqanicha yo'l varaqasining boshqa qismlari ham to'ldiriladi. Chunonchi, yoqilg'i quyish shahobchasi mudiri atomobilga quyilgan yoqilg'inинг turi, miqdorini ko'rsatib, uni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. Haydovchining yo'lga chiqishdan oldin tibbiy ko'rnikdan o'tganligi va uni ish qobiliyatiga egaligi transport korxonasi vrachining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Avtomobilning naryadga chiqishi navbatchi mexanikning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Buning uchun navbatchi mexanik yo'l varaqasining maxsus bo'limida avtomobilning naryadga chiqishdan oldin spidometr ko'rsatkichini, uni nazorat punktidan haqiqatda chiqib ketayotgan vaqtini, bakda mavjud bo'lgan yog'ilg'i miqdorini, avtomobilning texnik sozligini o'z imzosi va shtampi bilan tasdiqlaydi. Yo'l varaqasining «Haydovchi imzosi» qatoriga haydovchi avtomobilni navbatchi mexanikdan texnik soz holatda qabul qilib olganligi to'g'risida imzo chekadi. Haydovchining imzosi berilgan topshiriqni bajarishga kirishganligini ham tasdiqlaydi.

Yo'l varaqasining maxsus bo'limi haydovchi tomonidan ATV yordamida naryadda bo'lgan vaqtda haqiqatda bajarilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni aks ettirishga mo'ljallangan. Bunday ma'lumotlar yo'l varaqasida buyurtmachi tashkilotning mas'ul xodimi tomonidan yoziladi, shuningdek imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi. Chunonchi, yo'l varaqasining 23-ustunida qatnovlarning tartib raqamlari, 24-ustunda TTNlarning tartib raqamlari, 25-ustunda har bir qatnovda bo'lgan vaqt (soat, daqiqa) ko'rsatiladi, 26-ustunda yuk jo'natuvchining imzosi va muhri qo'yiladi.

Yo'l varaqasining maxsus bo'limida (27-29-ustunlar) avtomobilning buyurtmachi ixtiyoriga jo'natilgan kunida bo'sh turgan vaqtлari va sabablari ko'rsatiladi. 30-ustunda

avtomobilning bo'sh turgan vaqt va sabablarini tasdiqlovchi shaxslarning imzosi va buyurtmachi-tashkilotning muhri qo'yiladi.

Avtomobil naryaddan transport korxonasiqa qaytgach, haydovchi uni navbatchi mexanikka topshiradi. Haydovchi avtomobilni soz holatda topshirganligi va navbatchi mexanik uni soz holatda qabul qilib olganligi to'g'risida yo'l varaqasiga imzo chekadilar. Bundan tashqari navbatchi mexanik haydovchining yo'l varaqasida avtomobilning spidometr ko'rsatkichini, korxonaga qaytgan haqiqiy vaqtini (soat, daqiqa), bakda qolgan yog'ilg'i miqdorini tegishli kolonkalarga yozadi, ularni o'z imzosi va shtampi bilan tasdiqlaydi.

Haydovchilar ATVLar navbatchi mexanik tomonidan qabul qilingandan so'ng yo'l varaqalarini barcha ularga ilova qilinadigan hujjatlar bilan birga dispetcherlik bo'limiga imzo qo'yib topshiradi. Ushbu bo'lim xodimi yo'l varaqalariga qo'shimcha ma'lumotlarni, masalan avtomobilning garajdan birinchi xizmat joyigacha hamda oxirgi xizmat joyidan garajgacha yuksiz bosib o'tgan masafasini, bajargan ishining xarakteriga ko'ra yog'ilg'i sarfi koeffitsientini, ilova qilingan hujjatlar sonini va boshqa shu kabilarni aks ettiradi hamda ularni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

4-p (vaqtbay) shakldagi yo'l varaqalari boshqa shakldagi yo'l varaqalaridan farqli o'laroq maxsus kesib olinadigan talon qismiga ega. Bu talonda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar buyurtmachi tomonidan to'ldiriladi, imzolanadi va shtamp bilan tasdiqlanadi. Talon transport korxonasi tomonidan buyurtmachiga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun schyot-fakturna taqdim etishga asos bo'ladi.

№ 1 (xalqaro) hamda 4-m (shaharlارaro) shakllardagi yo'l varaqalarining asosiy qismlarini to'lg'azish tartibi 4-s (ishbay) va 4-p (vaqtbay) shakllardagi yo'l varaqalarini to'lg'azish tartibiga o'xshaydi. Faqat № 1(xalqaro) shakldagi yo'l varaqalarida qo'shimcha tarzda bosib o'tilgan yo'l uzunligi (km), tashilgan yuk (tonna), yuk aylanmasi hajmi (t/km), avtomobilning bo'sh turgan vaqtлari (soat, daqiqa) kabi ko'rsatkichlar mos ravishda O'zbekiston territoriyasi hamda chet el mamlakatlari territoriyalari bo'yicha ko'rsatiladi. Shuningdek, ushbu yo'l varaqasining «Yoqilg'i» bo'limida mos ravishda respublikamiz territoriyasida hamda chet el mamlakatlari territoriyasida olingan yoqilg'inining miqdori va sarfining hisob-kitobi alohida-alohida ko'rsatiladi. Bu bo'limning alohida ustularida avtomobilning chiqib ketish va qaytib kelish sanasiga bo'lgan yoqilg'inining qoldig'i, uning norma bo'yicha sarfi va haqiqiy sarfi, qilingan tejam va ortiqcha sarflar ko'rsatiladi. № 1(xalqaro) shakldagi yo'l varaqasida «Ish haqi hisob-kitobi» bo'limi bo'lib, uning alohida ustunlari ish turlari va ularga hisoblangan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Yo'l varaqalarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun transport korxonasi rahbari hamda ularni rasmiylashtirishga mas'ul xodimlar shaxsan javobgar hisoblanadi. Yo'l varaqalarini rasmiylashtirish funktsiyasi yuklatilgan mas'ul xodim yo'l varaqalar blankalarining sarfi to'g'risida oylik hisobot tuzishi va uni buxgalteriyaga taqdim etishi lozim. Yo'l varaqalarini rasmiylashtirishda bo'yab yozishga va tuzatishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Transport korxonalarida yuqorida keltirilgan tartibga muvofiq to'lg'azilgan barcha yo'l varaqalari ularga ilova qilingan hujjatlar bilan birga dispetcherlik bo'limi tomonidan buxgalteriyaga topshiriladi.

Transport korxonasi buxgalteriyasida yo'l varaqalariga ishlov beriladi, ya'ni ular asosida avtomobilarning ish faoliyati, bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromad, buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, haydovchilar bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar auditii yuritiladi.

Yo'riqnomaga muvofiq yo'l varaqalariga ishlov berish quyidagi usullarning biri bo'yicha amalga oshiriladi – kompyuterlar yordamida yoki qo'lida.

Yo'l varaqalariga kompyuterlar yordamida ishlov berishda barcha ma'lumotlar «Avtotrasport ish faoliyati auditı kartochkasi»ning elektron menyu shakliga har bir rekvizitning kodi orqali kiritiladi. Hisob-kitob qilinadigan ko'rsatkichlarni kompyuter o'zi hisoblaydi hamda kartochkaning tegishli qatorlari va ustunlariga yozadi. Shu yo'l bilan to'lg'azilgan elektron kartochkalarni kompyuterning ekraniga yoki bosmaga mos ravishdagi rejimlar orqali chiqarib olish mumkin. Kompyuter xotirasida to'plangan elektron kartochkalar unda ATVLar ish faoliyatiga doir ma'lumotlarni turli shakl va mazmundagi mashinogrammalar ko'rinishida olish imkonini beradi. Ushbu mashinogrammalar ma'lumotlari transport korxonasi boshqaruv apparati bo'linmalari tomonidan ATVLar ish faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini nazorat qilish, tahlil etish va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda keng foydalaniлади.

ATVLar ish faoliyati auditini yuritishga asos bo'lувchi yana bir boshlang'ich hujjat bo'lib tovar-transport naklodnoyi (TTN) hisoblanadi.

Tovar-transport naklodnoyi (TTN) yuk tashish jarayoni qatnashchilar uchun yagona shaklda tasdiqlangan boshlang'ich hujjat bo'lib, u tovar-moddiy boyliklarning bir joydan boshqa joyga ATVLar yordamida ko'chishidagi harakatini hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Nomi yuqorida zikr etilgan Yo'riqnomaga asosan respublikamizda transport korxonalar uchun TTNning uchta turdag'i namunaviy shakllari tasdiqlangan:

№ 1-t shakl – shaharichi va shahar atrofida yuk tashish uchun;

№ 2-tm shakl – shaharlарaro yo'llarda yuk tashish uchun;

SMR shakl – xalqaro yo'llarda yuk tashish uchun.

TTNning barcha shakllari yuk jo'natuvchilar tomonidan yo'riqnomada keltirilgan tartiblarga qat'iy amal qilingan holda tuzilishi lozim. Yuk jo'natuvchilar tomonidan tuzilgan TTNlarning ikki nusxasi avtoransport korxonasiiga taqdim etiladi. Transport korxonasida TTNning bir nusxasi yuk jo'natuvchi bilan hisob-kitob qilish uchun taqdim etiladigan schyot-fakturaga ilova qilinadi, ikkinchisi esa yo'l varaqasiga ilova qilinadi va ATV ish faoliyati auditini yuritishga asos bo'ladi.

ATVLarda naqd pul to'lash sharti bilan bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar yo'l varaqalari hamda ularga ilova qilinadigan hujjatlar (kirim kassa orderi kvitantsiyasi, chek va boshqalar) bo'yicha amalga oshiriladi.

Transport korxonalar buxgalteriyasining muhim vazifalaridan biri bo'lib ATVLar ish faoliyatidan olingan daromadlarning pul birligidagi auditini yuritish hisoblanadi.

ATVLar ish faoliyatidan olingan daromadlar deganda boshqa yuridik shaxslar (buyurtmachilarga) tuzilgan shartnomalar asosida, shuningdek jismoniy shaxslarga naqd pulga yuk tashish hamda yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan sof tushum tushuniladi.

Transport korxonalarining asosiy faoliyatidan olingan sof tushum ATVLar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan yalpi tushum hamda ularga to'g'ri keluvchi qo'shilgan qiymat solig'i summalari o'rtaсидagi farqdan tashkil topadi. Yagona soliq to'lovi rejimida ishlovchi transport korxonalarida ATVLar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan jami tushum ularning sof tushumi bo'lib hisoblanadi. Respublikamizning 21-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati AUDIT schyotlar rejasiga uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga»ga muvofiq transport korxonalarida ATVLar ish faoliyatidan olgan daromadlari 9030 «Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan daromadlar» schyotida hisobga olinadi. Chunonchi, bajarilgan ish

(ko'rsatilgan xizmat)larning to'lov shakliga ko'ra olingan daromadlar ushbu schyotda quyidagicha aks ettiriladi.

**ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni schyotlarda aks ettirilishi auditni**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schet</b>	<b>Kredit schet</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1	Naqd pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromad summasiga	5000000	5010	9030	Kirim kassa orderi
2	Naqd pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasiga	1000000	5010	6410	Kirim kassa orderi
3	Naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromad summasiga	30000000	4010	9030	Schyot-faktura
4	Naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasiga	6000000	4010	6410	Schyot-faktura
5	Yo'lovchi tashish transporti haydovchisi tomonidan yo'l haqi evaziga sotib olingan yoqilg'iga	500000	1040	9030	NKM cheki, Kvitantsiya
6	Yo'lovchi tashish transporti haydovchisi tomonidan yo'l haqi evaziga qilingan ta'mirlash ishlariiga	300000	2010	9030	Kvitantsiya, dalolatnama, rahbar buyrug'i (qarori)
7	ATV ish faoliyatidan olingan daromadlarni hisobga oluvchi schyotning yopilishiga	35800000	9030	9910	Buxgalteriya hisob-kitobi

ATVlar ish faoliyatidan olingan daromadlarning analitik auditni har bir avtomobil bo'yicha maxsus registr (mashinogramma)da yuritiladi.

**Mavzu bo'yich nazorat savollari**

1. Transport tashkilotlarida auditning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Yuk tashish ishlari qanday amalga oshiriladi ?
3. Transport tashkilotlarida asosiy vositalarning audit kanday amalga oshiriladi?
4. Buyurtmachilar bilan xisob – kitoblarni audit kilishda kanday xujjalarga asosiy e'tibor karatiladi?

## **9-MAVZU: “TRANSPORT TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITINING XUSUSIYATLARI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **REJA:**

- 1.Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.**
- 2.Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining umumiyligi va ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**
- 3.Transport tashkilotlari tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar tannarxini baholash va hisobga olish xususiyatlari.**
- 4.Transport tashkilotlari foya va xarajatlarining shakllanishi hamda buxgalteriyada hisobga olish jarayonini tekshirish tartibi.**
- 5.Transport tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayoni auditining xususiyatlari.**
- 6.Transport tashkilotlarida ijara munosabatlari va soliq hamda boshqa to'lovlar auditining xususiyatlari.**

**Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar;** transport tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar, transport tashkilotlaridagi mavjud resurslar, hisobotlarni tuzish, bajarilgan ish va xizmatlar tannarxini baholash, transport tashkilotlarida ijara munosabatlari, transport tashkilotlari foya, moliyaviy natijalar auditni.

### **1.Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.**

Turli mulkchilik shaklidagi korxonalarining moliyaviy natijalari daromad va xarajatlarga bevosita bog'liqdir. Transport tashkilotlaridagi mavjud resurslardan samarali foydalanishi talab etiladi, aks holda, korxona faoliyatida yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun daromadlar, xarajatlar ularning turlari va kelib chiqish manbalari doimiy ravishda nazorat qilib boriladi.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini o'tkazishdan maqsad – moliyaviy natijalarni shakllantirish va undan foydalanish bilan bog'liq amalga oshirilgan muomalalarning ishonchliligini aniqlash va ular bo'yicha moliyaviy hisobotlardagi ko'rsatkichlarning ishonchliligini baholashdan iboratdir. Shuningdek, tansport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditida asosiy e'tibor buxgalteriya hisobida va hisobotida tashkilot foya va zararlarini ishonchli aks ettirilganligi, sof foya qonuniy taqsimlanganligi va foydalaniyligini tekshirishga qaratiladi.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar to'g'ri shakllantirilganligi va foydadan to'g'ri foydalanganligining tekshiruvni jarayonida auditor quyidagi masalalarni hal etishi lozim:

- ko'rsatilgan xizmat, moliyaviy natijalar va boshqa mol-mulkni sotishdan olingan foya (zararlar)ni to'g'ri aniqlanganligi va hisobda aks ettirilganligini aniqlash;
- boshqa daromadlar va moliyaviy natijalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar to'g'ri hqisobga olinganligini tahlil qilish;
- turli soliqlar va yig'implarni to'lash uchun foydadan to'g'ri foydalaniyligini tekshirish;
- dividendlar to'lash uchun sof foydadan qonuniy va to'g'ri foydalaniyligini

tekshirish.

Transport tashkilotlarida ish va xizmatlar ko'rsatishdan olingen foyda to'g'ri aniqlanganligi bo'yicha tekshiruv natijalari ko'p jihatdan auditning oldingi bosqichlari, xususan, ish, xizmat ko'rsatish va sotish jarayonlarini nazorat qilish bosqichlarida moliyaviy natijalar va boshqa mol-mulkni tekshirishda, hisob-kitob bo'yicha operatsiyalar auditida nazorat muolajalari sifatli o'tkazilganligiga bog'liq. Sotuvdan tushumni va ko'rsatilgan ish, xizmat tannarxini, boshqa mol-mulkni sotishdan tushumlarni va xarajatlarni to'g'ri hisoblashlar, ushbu operatsiyalar bo'yicha moliyaviy natijani ham aniq hisoblash lozimligini taqozo etadi. Transport tashkilotlarida auditor ishlar, xizmatlarni ko'rsatish, moliyaviy natijalarini sotish va boshqa hisobdan chiqarishlar, boshqa aktivlarni sotish hisobvaraqlari bo'yicha hisob registrlarida aks etilgan foyda summalar foydalar va zararlarni hisobi hisobvarag'i bo'yicha hisob registrlarida aks etilgan shunga o'xshash summalar bilan muvofiq ekanligini tasdiqlashi etarlidir.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining ma'lumot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Ta'sis hujjatlari, ta'sischilar majlisi bayonnomalari, buyruqlar va farmoyishlar.
  2. Dastlabki hujjatlar (kim va chikim kassa orderlari, to'lov qaydnomalari, chiptalar, schetlar, to'lov topshiriqnomalari, ilova kilingan so'mdagi va valyutadagi schetlari bo'yicha bank ko'chirmalari, sotish, foyda va zararlar, soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydadan foydalanish schetlari bo'yicha hisob registrlari (qaydnomalar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar).
  3. Bosh kitob, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar va boshqalar hisoblanadi.
  4. 9000-«Asosiy faoliyatdan olingen daromadlar hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
  5. 9100 -"Sotilgan tovarlar tannarxining schetlari" ma'lumotlari.
  6. 9200 «Moliyaviy natjalarning sotilishi va turli chiqimi» ma'lumotlari.
  7. 9300-«Asosiy faoliyatdan olingen boshka daromadlar hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
  8. 9400-«Davr xarajatlarining hisobi» ma'lumotlari.
  9. 9500-«Moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlar hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
  10. 9600-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarning schetlari» ma'lumotlari.
  11. 9700 - «Favkulotda foyda (zarar)lar hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
  12. 9800 - «Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydaning ishlatalishi hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
  13. 9900 - «Yakuniy moliyaviy natija» ma'lumotlari.
- Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
- ❖ Moliyaviy natjalarning shakllanishi va to'g'ri hisoblanganligini tekshirish;
  - ❖ foydaning to'g'ri ishlatalishini tekshirish;
  - ❖ moliyaviy natjalarni buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligini aniqlash;
  - ❖ moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarning asosligi va to'g'ri tuzilganligini tekshirish.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natjalarning auditorlik tekshiruvi jarayonida quyidagi me'yoriy hujjatlardan foydalaniladi:

1. «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizom, 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori (o'zgarishlar bilan).

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Solik Qo'mitasining 2002 yil 24 yanvardagi 15, 2002-12-sonli «Huquqiy shaxslarning daromadi (foyda) bo'yicha soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalari», Adliya Vazirligidan 2003 yil 24 yanvarda 1209-ton Bilan ro'yxatdan o'tgan.

4. O'zbekiston Respublikasi Fukarolik Kodeksi 1996 yil 29 avgust 257-1-ton (o'zgarishlar bilan).

5. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 2007 yil dekabrdagi 391-6-tonli O'zbekiston Respublikasi qonuni Bilan tasdiqlangan (o'zgarishlar bilan).

6. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1996 yil 30 avgust.

7. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 2000 yil 26 may.

8. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat Mulk ko'mitasi va Davlat Soliq ko'mitasi tomonidan 2002 yil 25 martda 47, 10-1-48, 2002-33-tonli karori Bilan kabul qilingan «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan davlat tasarrufidagi aktsiyalar bo'yicha dividetnlarni hisoblash, to'lash va maqsadli foydalaniш tartibi to'g'risida»gi nizom.

Transport tashkilotlarda moliyaviy natijalarning auditini ma'lum xususiyatlarga ega bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- Moliyaviy natijalarning shakllanishi bir qancha ko'rsatkichlarga bog'liq;
- Moliyaviy natija hisobot davridagi korxona faoliyatining yakuni hisoblanadi;
- Korxonaning foyda bilan ishlashi yoki hisobot davrini zarar bilan yakunlanishi moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko'rsatkichlarga bevosita bog'liq bo'ladi;
- Moliyaviy natijalarga oldindan aniq bo'limgan xavf-xatarlar, tasodify hodisalar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Transport tashkilotlarda moliyaviy natijalar auditini o'tkazish mutaxassis auditordan ma'lum bilimni va ish tajribasini talab qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida turli mulkchilikka asoslangan transport tashkilotlarining faoliyatları bir-biridan farq qiladi. Ularning so'nggi moliyaviy natijalari ham turli operatsiyalar va omillar tufayli shakllanadi. Transport tashkilotlari moliyaviy natijalarining shakllanishi va unday foydalanimishi jarayonini qabul qilingan qonun-qoidalarga mosligini ekspertiza qilish, baholash, asosli xulosalarga kelish va tavsiyalar berish auditordan ko'p bilim va saviyani talab qiladi. Audit natijasida ishonchli xulosaga kelish ushbu jarayonda qo'llilanadigan usullarga bevosita bog'liqidir. Audit uslubining asosida mantiqiy mulohaza, ilm-fan yutuqlari, xo'jalik jarayonining o'zgaruvchanligi yotadi. Transport tashkilotlari faoliyatidagi operatsiyalar tufayli mablag'lar bir shakldan boshqa shaklga o'zgarib turadi. Ushbu jarayon natijasida transport tashkiloti samara (naf) olishi kerak. Bu samara, o'z navbatida qabul qilingan qonun - qoidalarga to'liq amal qilingan holda erishilgan bo'ladi. Moliyaviy natijalarni shakllanishi va hisobga olinishiga doir noqonuniy operatsiyalar mijozlarga faqat zarar keltiradi, xolos.

Transport tashkilotlari moliyaviy natijalari auditini jarayonida iqtisodiyotimizga xos bo'lgan xalqaro amaliyotda keng foydalilanadigan usullar qo'llaniladi. Auditor audit usullarini mustaqil ravishda belgilaydi va qo'llaydi. Mazkur usullardan qay birini qo'llash o'tkazilayotgan auditning maqsadi va vazifalari hamda auditorning bilimi va malakasiga

bevosita bog'liqdir. Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditii jarayonida quyidagi metodlardan foydalilanadi:

- solishtirish usuli (iqtisodiy hodisalar, ko'rsatkichlarni o'zaro va biznes-reja bilan solishtirish);
- gipoteza usuli (hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha "yashirin iqtisodiyot" natijalarini aniqlashda keng foydalilanadi);
- tahlil va sintez usuli (audit ob'ekti bo'lган ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mayjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi);
- taftish usuli (korxonaning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi);
- inventarizatsiya usuli (korxonadagi huquqiy aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga monandligi tekshiriladi);
- kalkulyatsiya usuli (bajarilgan ishlar, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi, umumi ovqatlanish korxonalarda esa taomlarning sotilish bahosi aniqlanadi);
- ekspertiza usuli (hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi);
- buxgalteriya schyotlari va ikkiyoqlama yozuv usuli (korxona aktivlari va majburiyatlarning harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi schyotlari orqali tekshiriladi);
- balans usuli (korxonadagi hodisalar, jarayonlarni rasmiylashtirish, dastlabki ma'lumotlarni umumlashtirish orqali nazorat qilish).

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditii jarayonida auditor me'yorashtirish, baholash, guruhash usullaridan ham foydalilanadi. Audit usullari har bir hodisaning kelib chiqish sabablari, ularning oqibatlari, ho'jalik jarayonlarining qonun-qoidalarga (mezonlarga) muvofiqligini aniqlashga yordam berishi kerak. Auditorlik faoliyatining rivojlanishi tufayli uning uslubi, unda qo'llaniladigan usullar ham takomillashib boraveradi. Keyingi paytlarda maxsus adapiyotlarda transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining quyidagi usullariga katta e'tibor berilmogda: xodimlar (yoki uchinchi shaxslar) bilan og'zaki so'rovlar o'tkazish, tekshirilayotgan tashkilot bo'yicha muqobil balans tuzish, audit ob'ektlari bo'yicha testlar, anketalar o'tkazish, kompyuter axborotlari texnolgiyalaridan keng foydalinish kabi usullar. Shuni ham qayd qilish kerakki, auditorlar (auditorlik tashkilotlari) audit jarayonida qabul qilingan umumiyy (an'anaviy) usullardan foydalinish bilan bir qatorda ular o'zlariga ma'qul bo'lган yoki boshqalar uchun "tijorat siri" hisoblangan noan'anaviy (lokal) usullardan ham foydalanshlari mumkin. Audit o'tkazishda milliy va xalqaro audit standartlariga asoslanadi. Shunday qilib, transport tashkilotlari moliyaviy natijalari auditida qo'llaniladigan usullar uning turi, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liqdir.

## **2.Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining umumiyy rejasи va ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.**

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining samaradorligi uni to'g'ri rejorashtirishga bevosita bog'likdir. Auditorlik tashkilotlari turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatlarini tekshiradi. Ushbu faoliyatlar o'z navbatida bir-biridan fark kiladi. Misol uchun, ishlab chikarish bilan shug'ullanuvchi korxonalarni xo'jalik jarayonlari ko'p hollarda xom ashyolarni sotib olish. Ularni ishlab chikarishda foydalinish, tayyor transport xizmatilar olish va ularni sotish bilan bog'liq bo'lsa, savdo bilan shugullanuvchi korxonalarning faoliyatlar esa tovarlarni sotib olish va qayta sotish

bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini audit qilishga rozilik berish va shartnoma tuzishdan oldin audit rejasini tuziladi.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining rejelashtirilishi ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib o'z ichiga auditorlik tekshiruvini umumiyligi hajmini aniqlash, audit dasturini tuzish, auditda qo'llaniladigan usullarni belgilash, tekshirish muddatlarini ko'rsatiladigan xizmatlarni va audit xatarini aniqlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Maxsus adabiyotlarda auditni rejelashtirishga auditning strategiyasi va taktikasini aniqlash deb ham e'tirof etilgan. Audit strategiyasi qo'yilgan maqsad va vazifalarni ma'lum ketma-ketlikda va aniq istiqbolga asoslanib bajarilishini ta'minlasa, audit taktikasi esa qo'yilgan maqsadlarga erishishning shakl va usullarini ifodalaydi. Auditni rejelashtirishdan asosiy maqsad audit jarayonidagi umumiyligi ish hajmini aniqlash, tekshirish muddatlarini belgilash, auditni o'tkazishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilg'or usullar tarkibini, ko'rsatiladigan auditorlik xizmati qiyamatini hamda auditorlik xatarini aniqlashdan iborat. Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini rejelashtirish 3-sodan «Auditni rejelashtirish» nomli AMS va 9 son «Auditorlik isboti va xatari» nomli AFMS talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu standartlarga asosan auditni rejelashtirishda quyidagi tamoyillar hisobga olinishi kerak bo'ladi: rejaning to'likligi; rejaning uzuksizligi; rejaning ixchamligi.

Auditning milliy standartlariga asosan transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini rejelashtirish quyidagi uch bosqichda amalga sshiriladi:

- auditning dastlabki rejasini tuzish;
- auditning umumiyligi rejasini tuzish;
- audit dasturini tuzish.

Auditning dastlabki rejasini auditorlik tekshiruvini o'tkazishga rozilik berishdan va auditorlik shartnomasidan oldin tuziladi. Ma'lumki ko'pmulkchilikka asoslangan korxonalarining faoliyatlarini, ulardagagi jarayonlar, audit ob'ektlari har xil bo'ladi. Shuning uchun auditorlik tashkilotlari auditning dastlabki rejasini tuzadi. Ushbu rejanan xo'jalik yurituvchi sub'ektning turi va faoliyat yo'naliishi; korxonaning tarkibiy tuzilishi va boshqarilishi; korxona mablag'larining turlari va shakllanish tartibi; moliyaviy xo'jalik ko'rsatkichlar va ularning bajarilishi; korxonada ichki nazoratni tashkil etilishi; xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqa shaxslar bilan o'zaro hisob-kitoblari kabi masalalar o'z ifodasini topadi.

Yuqoridagi masalalarni o'rganish va auditning dastlabki rejasini tuzishda auditorlik tashkiloti korxonaning nizomi, korxona faoliyatini qayd etishga asos bo'lgan hujjatlar, hisob siyosatini aks ettiruvchi hujjatlar, moliyaviy hisobot, bank, moliya, solik organlarining xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatiga oid ma'lumotnomalari, korxonalar o'rtasida tuzilgan shartnomalar va ularning bajarilishi ma'lumotlaridan foydalananadi.

Transport tashkilotlarida auditorlik shartnomasining maqsadi va qo'yilgan vazifalariga qarab auditning umumiyligi rejasini tuziladi. Moliyaviy natijalar auditning umumiyligi rejasida tekshirishga mo'ljallanayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning nomi, audit davri, auditga ajratilgan muddat, auditorlik guruhining tarkibi, rejelashtirilayotgan ishlarning turi, uning bajaruvchilari ko'rsatiladi. Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining umumiyligi rejasida auditorlik isboti va auditorlik xatarining darajasi xam keltiriladi. Ushbu reja auditorlik guruhi rahbari tomonidan imzolanadi va auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Quyidagi jadvalda transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining umumiyligi rejasini keltirilgan:

**Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar  
auditining umumiy rejasi**

<b>№</b>	<b>Rejalashtirilgan ishlar turlari</b>	<b>O'tkazish muddati va vaqtি</b>	<b>Bajaruvchilar</b>	<b>Qo'shi mcha va izohlar</b>
1	Moliyaviy natijalar auditining ishchi dasturini tayyorlash;	14.03.2013	Karimova M.	
2	Moliyaviy natijalar bo'yicha korxona ichki nazorat tizimi ma'lumotlarining ishonchliligini baholash va unga asosan auditorlik tanlash hajmini belgilash	14.03.2013	Karimova M.	
3	Moliyaviy natijalarni shakllanishi va taqsimlanishi bo'yicha amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligini yoki davlat tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mosligini o'rganish	15.03.2013	Karimova M., Alimova M, Komilov M.	
4	Moliyaviy natijalarni shakllanishi va taqsimlanishi bo'yicha amalga oshirilgan muomalalarni qonuniyligini yoki davlat tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mosligini o'rganish	15.03.2013	Karimova M.	
5	Moliyaviy natijalar bo'yicha amalga oshirilgan xo'jalik muomalalarini buxgalteriya hujjatlari va schyotlarida to'g'ri, to'liq va o'z muddatida aks ettirilganligini tekshirish	17.03.2013	Ashurov A, Vasiev A.	
6	Moliyaviy natijalar bo'yicha moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini yoki haqiqatga mosligini o'rganish	18.03.2013	Karimova M., Berdiev V.	
7	Moliyaviy natijalar auditni natijalarini oraliq va umumiy auditorlik ish hujjatlarida aks ettirish	18.03.2013	Karimova M., Alimova M, Komilov M, Asilov M, Berdiev V, Hakimov Z.	
8	Moliyaviy natijalar auditi natijasida aniqlangan xato yoki qoidabuzarliklarni paydo bo'lish sabablarini tahlil qilish va ularni kelgusida takrorlanmasligi yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish	19.03.2013	Karimova M., Alimova M, Komilov M, Asilov M, Berdiev V.	
9	Audit natijalarini mijoz-korxona rahbariyatiga taqdim etish va h.k.	20.03.2013	Hakimov Z., Karimova M.	

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining umumiy rejasiga asosan audit dasturi tuziladi.

Ushbu dasturda rejadagi vazifalarga yanada aniqliklar kiritilib bajaruvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Dasturda audit ob'ektlari, ularni tekshirishda qo'llaniladigan va auditorlik isbotini ta'minlaydigan "usullar", auditorlarning ishchi hujjatlari keltirilgan bo'ladi. O'zining mazmun mohiyatiga ko'ra, auditorlik dasturi audit o'tkazish uchun uslubiy manba va nazorat vositasini bo'lib xizmat qiladi.

Auditor transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini o'tkazish jarayonida ayrim operatsiyalarni chuqurroq tekshirish zaruriyati kelib chiqsa, bundan hollarda audit dasturiga tegishli o'zgarishlar kiritiladi va qabul qilingan

tartiblarga asosan hujjatlashtiriladi. Yuqorida keltirilgan auditning umumiy rejasiga asosan yuqoridagi 2-jadvalda kelitirilgan shaklda transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining audit dasturi tuziladi.

Audit rejasini va dasturi asosida o'tkazilgan tekshiruvlar ma'lum tartibda umumlashtirilib boriladi va hujjatlashtiriladi. Ushbu hujjatlar o'z navbatida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosalarini tuzishga asos bo'lib xizmat kiladi.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini rejalashtirish chog'ida auditor quyidagilarni hisobga olishi zarur:

- kelgusi davrdagi vaqt sarfi hisob-kitobi (takroriy audit o'tkazish hollarida) va haqikiy mehnat xarajatlari;
- muhimlik darajasi;
- auditorlik guruhini tuzish, audit o'tkazishga jalb qili-nadigan auditorlar soni va malakasi;
- auditorlarni, ularning malakaviy darajalari va lavo-zimlariga muvofiq audit o'tkaziladigan muayyan uchastkalarga taqsimlash;
- auditorlik guruhining barcha a'zolariga yo'l - yo'riq ko'r-satish, ularni mijozning moliya-xo'jalik faoliyatini bilan tanishtirish;
- auditorlik guruhi rahbarining reja bajarilishi va yordamchi auditorlar ishlari sifati ustidan nazorat o'rnati-shi;
- auditorlik amallarini bajarish bilan bog'liq uslubiy masalalarni tushuntirish.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini rejalashtirishda auditor o'z ishini shunday rejalashtirishi lozimki, buxgalterlik (moliyaviy) hisobotlarini, moliya-xo'jalik muomalalarining ishonchliligini va qonuniyligini, hamda ular buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishining to'g'riliгини o'z vaqtida va sifatli auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

**Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar  
auditining ish dasturi**

<b>Nº</b>	<b>Umumiy rejada belgilangan vazifalarni bajarish bosqichlari</b>	<b>O'tkazish muddati va vaqtি</b>	<b>Bajaruvchi lar</b>	<b>Tekshiruvda qo'llaniladigan metodlar va amallar</b>	<b>Tekshiriladigan ob'ekt(joy) va hujjatlar</b>
1	Transport tashkiloti hisob siyosatining moliyaviy natijalar hisobi bo'yicha talablariga rioya etilganlik holatini o'rganish	14.03.2014	Karimova M., Alimova M., Komilov M,	Hujjatlashtirish, solishtirish-taqqoslash, kuzatish, tahvil qilish, testlash	Hisob siyosati to'g'risidagi buyruq, hisob siyosatini o'rganish bo'yicha test-savolnoma,
2	Sotishdan olingen sof tushunning to'g'riliгини tekshirish.	15.03.2014	Karimova M., Alimova M., Komilov M., Asilov M,	Hujjatlash tirish, solishtirish-taqqoslash va inventarizatsiya	memorial-orderlar, aylamma qaydnomalari, jurnal-orderlar, bosh daftara va moliyaviy hisobot shakllari, auditorlik dalolatnoma yoki ma'lumotnomalari
3	Asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromadlarni tekshirish.	18.03.2014	Karimova M., Alimova M., Komilov M., Asilov M.	Hujjatlash tirish, solishtirish-taqqoslash, inventarizatsiya, tahvil qilish, arifmetik hisoblash va baholash	Auditorlik ma'lumotnomalari yoki dalolatnoma
4	Moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlarni tekshirish, Favquloddagi daromad (foyda)ni tekshirish		Karimova M., Alimova M., Komilov M., Asilov M., Berdiev V., Hakimov Z.	Hujjatlashtirish, solishtirish-taqqoslash, kuzatish, tahvil qilish, testlash	Oborot qaydnomasi, to'lov qaydnomalari
5	Daromadlarning so'nngi moliyaviy natijalar schyotiga to'g'ri o'tkazilganligini tekshirish. Xarajatlarning auditini		Karimova M., Alimova M., Komilov M.	Hujjatlashtirish, solishtirish-taqqoslash, kuzatish, tahvil qilish, testlash	Buxgalteriya balansi, jurnal-orderlar, qaydnomalar
6	Xarajatlarning rejalashtirishini tekshirish. Xarajatlarning tarkibini aniqlash. Mahsulot tannarxining auditini		Karimova M., Alimova M., Komilov M., Asilov M,	Hujjatlashtirish, solishtirish-taqqoslash, kuzatish, tahvil qilish, testlash	Moliyaviy hisobot, Bosh kitob Buxgalteriya balansi
7	Davr xarajatlarning auditi Moliyaviy faoliyat xarajatlari va favquloddagi zararlarni tekshirish. Foyda (zarar)niig auditini		Karimova M., Alimova M., Komilov M.	Hujjatlashtirish, solishtirish-taqqoslash, kuzatish, tahvil qilish, testlash, baholash	Buxgalteriya balansi, Bosh kitob, moliyaviy hisobot, oborot qaydnomasi
8	Xarajatlarning auditi. Foyda (zarar)ning auditini.		Karimova M., Alimova M., Komilov M.	Hujjatlashtirish, solishtirish-taqqoslash, kuzatish, tahvil qilish, testlash, baholash	Buxgalteriya balansi, to'lov qaydnomalari, moliyaviy hisobot, jurnal-orderlar, to'lov topshiriqnoma, Bosh kitob, kassa
9	<b>Moliyaviy natijalar auditini natijalarini oraliq va umumiy auditorlik ma'lumotnomalari(dalolatnomalari)da umumlashtirish, rasmiylashtirish va baholash</b>	19.03.2014	Karimova M., Alimova M., Komilov M., Asilov M.	Hujjatlash tirish, solishtirish-taqqoslash, inventarizatsiya, tahvil qilish,	Oraliq va umumiy auditorlik ma'lumotnomalari yoki dalolatnomalari, auditorlik hisoboti uchun ma'lumotnoma,

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini rejalashtirish quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- a) buxgalterlik hisobi va hisobotining holati hamda ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risida zarur axbo-rotlarni olish;
- b) bajarilishi lozim bo'lgan nazorat amallarining mazmunini, o'tkazish vaqtini va hajmini aniqlash;

Auditni rejalashtirish kutilayotgan ishlar rejasini tuzish va auditorlik dasturini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Kutilayotgan ishlar rejasida quyidagi ko'rsatkichlar aks ettiriladi:

- audit o'tkazish muddati va ishlarning davomiyligi;
- bajariladigan ishlar hajmi;
- auditor qo'llaydigan usullar va amallar.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini rejalashtirishda auditor o'z rejasini tekshiriladigan korxona rahbariyati va xodimlari bilan muhokama qilishi mumkin. Bu o'tkaziladigan auditning ta'sirchanligini oshirish va auditorlik amallarini korxona xodimlari faoliyati bilan muvofiqlashtirishga imkon yaratadi.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini rejalashtirishda auditor rejani yaxshi va sifatli tuzish hamda ishlarning kutilayotgan hajmini aniq hisobga olish uchun eng avvalo:

- auditorlik tekshiruvi o'tkazish shartnomasi shartlarini o'rganishi;
- o'tkaziladigan auditning eng muhim masalalarini ajratib olishi;
- maxsus e'tibor talab qiladigan shartlarni aniqlashi;
- tekshiriladigan korxona faoliyatining predmetini hisobga olgan holda yangi qonunlar, nizomlar, yo'riqnama-lar va boshqa aloqador me'yoriy hujjatlarning auditiga ta'sirini o'rganishi;
- tekshiriladigan korxonaning hisob tizimi va ichki audit tizimining ishonchlilik darajasini aniqlashi;
- ichki auditorlarning ishlarini va ularni auditga jalg qilish mumkinligini tahlil qilishi;
- korxonaning alohida balansga ajralib chiqarilgan filiallari, vakolatxonalar, bo'limlari va maxsus bo'linmala-rida audit o'tkazish maqsadga muvofiqligini o'rganishi;
- ekspertlarni jalg qilish zarurligini aniqlanishi lozim.

### **3.Transport tashkilotlari tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar tannarxini baholash va hisobga olish xususiyatlari.**

Avtotransport tashkilotlarining yuk va yo'lovchi tashuvini amalga oshirish jarayonida surʼat qilingan xarajatlari, yuk ortish va uni tashish ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlarini pul orqali ko'rsatilishi yuk tashish xizmatining tannarxini ko'rsatadi. Maxsulot ishlab chiqarilishi uchun qilingan xarajatlar nazorat qilish eng muxim masalalardan biri bo'lib unda maxsulotni tannarxini baxolash ko'rsatkichi korxolda ishning sifatini belgilaydi. Avtomobilda yuk tashish tannarxini hajmi, foyda, jamg'arma, zaxira shakillanishiga va soliq solinishiga ta'sir etadi.

**Sarflar auditining maqsadi** - ishlab chiqarishdagi pul ushlanib qolish xisobining to'g'ri amalga oshirilganligini aniqlash va avtomobilda yuk tashish, xizmatlar tannarxini aniqlashdan iboratdir. Tekshiruvni amalga oshirish davrida ishlab chiqarish bo'yicha qilingan «Xarajatlar tarkibi va maxsulot (ish va xizmatlar) realizatsiyasi, hamda moliyaviy natijalarini shakillantirish to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq xolda ish yuritish lozim.

Auditorlik tekshiruvi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar auditini o'tkazish audit bosqichlari bilan mos ravishda o'tkazilishi lozim. Auditor auditining birinchi bosqichda ishlab chiqarish xarajatlari auditini rejalashtiradi va tayloraydi. Ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar tekshiruvini amalga oshirish muvaffaqiyatli ish bo'lib, tekshiruychi auditordan me'yoriy va yo'riq ko'rsatuvchi ma'lumotlarni bilishdan tashqari, undan xo'jalik faoliyatining aloxida soxalarida maxsulotning tannarxini xisoblash xususiyatlarini yaxshi bilishni talab etadi. Avtotransport faoliyatini ma'lumki boshqa sanoat korxonalaridan ajralib turadi va o'zining ishlab chiqarish xususiyatlariiga ega. Shuning uchun auditor rasman tekshiruv o'tkazishdan oldin transport ishining texnologiya va tashkiliy xususiyatlarini, nimaga moslashtirilganligini, imkoniyat doirasini va ishlab chiqarish faoliyatini xar bir turini tuzilmasini o'rganib chiqish shart. Shunday qilib ishlab chiqarish xususiyatlari bilan tanishib chiqqan auditor, dastlabki ishlab chiqarish xisobini ko'rib chiqadi.

Dastlabki ma'lumotlar avtotransport korxonasining xodimlari bilan o'tkazilgan og'zaki suxbat asosida bajariladi, bu harakat xisob kitobini tashkil etish haqida ma'lumot olish, hamda saralab xujjatlarini ko'rib chiqish maqsadida amalga oshiriladi. Shuningdek auditor avtotransport korxonasining xisob siyosatini, tashkiliy va texnologik xususiyatlarini, ishlab chiqarish resurslarini rivojlanishini hamda ishdagi hamkorlarni bilishi zarur. Ishlab chiqilgan reja va berilgan joy auditining dasturi ikkinchi bosqichini amalga oshirishda qo'l keladi. Ishlab chiqarish xarajatlarni xisobot davri bo'yicha chegaralanishining to'g'rilingini auditor tekshirib aniqlashi lozim. Bu «Moliyaviy xisobotini tayyorlash va taqdim etish uchun kotseptual asos»: «Daromad va sarflar xisobchilik xisobida tan olinadi va ularni paydo bo'lishi, ketish moliyaviy xisobotda aks ettiriladi (pul mablag'larini olish yoki to'lash asosida emas)». Xarajatlarni o'rganish davrida auditor yuk tashish tannarxi xisobini aniqlashi xujjatlashtirilishi lozim. Avtomobilda yuk tashishga ketgan xarajatlar, ishlari va xizmatlar o'rnatilgan tartib bo'yicha dastlabki xujjatlarga asoslangan xolda o'tkaziladi, unda barcha avtomobilda yuk tashishni ishlab chiqish, hizmat va ish operatsiyalari to'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lib, o'zida barcha majburiy rekvizitlarni mujassam etishi lozim.

Avtomobil yuk tashuvi ishlab chaqarish tannarx surf xarajatlar tarkibi haqidagi Nizomga binoan, iqtisodiy mazmuni jihatdan quyidagi elementlarga guruxlanadi:

- ishlab chiqarishdagi pul xarajatlari (qaytadigan chiqindi hisobidan chiqarish hisobiga);
- ishlab chiqarishga bog'liq ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- ishlab chiqarishdagi surf harajatlar.

Sarflarni guruxlash zamirida kalkulyatsiyalash moddalari bo'yicha iqtisodiy jihatdan yordamchi hamda asosiy sarflarga guruxlash yotadi. Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha sarflarni guruxlanishi Amaliy jixatdan, hamda nazariy jixatdan barcha jabxalarini ko'rib chiqamiz. Yuk tashuvining aloxida turlari tannarxini xisobi avtomobil transportida quyidagicha kalkulyatsiyalash moddalari bo'yicha o'tkaziladi;

1. Haydovchilarning asosiy va qo'shimcha oylik maoshlarini to'lovi.
2. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.
3. Yoqilg'i.
4. Moy sotuvchi va boshqa eksplutatsiya ta'mirlov materiamllari.
5. Avtomobil rezinasi.
6. Avtomobilning texnik xizmat va eksplutatsiya qilish ta'mirlov ishlari.
7. Harakatlanuvchi tarkibiy qismni amortizatsiya ajratmalar.

## **8. Ishlab chiqarish xususidagi ustama sarflar (umumiy ilab chiqarish xarajatlari).**

Avtotransport tashkilotlarida avtomobilda yuk tashish va boshqa xarajatlar turi asosiy ishlab chiqarish bo'lib xizmat qiladi. Kalkulyatsiya xisobning 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyotida barcha sarflangan xarajatlar aks ettiriladi. 2010 schyotiga biz tomonimizdan quyidagi qo'shimcha schyotlar kiritiladi:

- 2011 – «1 tonna tashilgan yuk tarifi bo'yicha ishlaydigan yuk tashuvchi mashinalar»
- 2012 – «Soat tarifi bo'yicha ishlaydigan yuk tashuvchi mashinalar»
- 2013 – «Yuk tashish va ortish ishlari»
- 2014 – «Ekspeditsiya xizmatlari»
- 2015 – «Boshqa ishlar va xizmatlar turi»

Qo'shimcha schyotlar yuk tashuvining va boshqa xizmatlar turi bo'yicha qilinadigan axolida kalkulyatsiyalash moddalari bo'yicha xarajatlarga bog'liq. Auditor xisobchilik xisobida, hamda xisoblar saldosi bo'yicha aylanmalarini to'g'ri aks ettirilganliginisinchiklab tekshirishi lozim. Buning uchun ishlab chiqilgan auditorlik dasturida ko'rsatilgan muolajalarni bajarishi lozim ya'ni u xisobda qayd qilingan sonlarni va oylarni taqqoslab chiqishi, dastlabki xujjatlarni tekshirishi lozim; xisob qaydnomasida xisob aniqligini tekshirish, hamda bosh kitobda qayd qilingan ma'lumotlarni; kerakli xisobga va boshqa muolajalarga ketgan xarajatlarni tekshirishi zarur.

## **4.Transport tashkilotlari foyda va xarajatlarining shakllanishi hamda buxgalteriyada hisobga olish jarayonini tekshirish tartibi.**

Daromadlar auditni asosiy masalalardan biri bo'lib, qaysidir jixatdan butun auditorlik tekshiruvini belgilovchi xususiyatdir. Asosiy xujalik faoliyatidan daromad xisobi uchun O'zbekiston Respublikasining Qonuniga asoslanib «Xisobchilik xisobi haqida». «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad», me'yoriy yo'naltirilgan tizmning elementi bo'lib xizmat qiladi. Avtotransport korxonalarining audit uslubiy tekshiruv ob'ekti yoki davr asosida o'tkazish mumkin, lekin soxanining o'zga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurdir. Masalan, avtotransport korxonalarida auditni realizatsiya jarayoni o'z tovarlarini va tashilgan tovarlarni olmaydi, chunki bu berilgan soxa uchun xos emasdir. Boshqa sanoat soxalaridan farqli o'laroq avtotransport tashkilotlarida ishlab chiqarish hamda realizatsiya jarayoni mos tushadi, ya'ni bir vaqtda ikkala jarayon amalga oshiriladi, daromadlar auditini o'tkazish davri daromadlarning shakllanishi xususiyatini ham inobatga olish zarur.

Hisobchilik hisob – kitobida ko'rsatilgan ishlar va xizmatlar tabiiy ravishda xamda narxlar o'lchovida aks ettiriladi, bu esa ATTlarda bajariladigan yuk tashish ishlari o'tgan yillarni tahlil qilib, o'z faoliyatini bashoratlaydi va biznes rejalar tuzadi, unda yuklarni umumiy hajmini tonnalab o'rnatadi. Daromadlar olish auditni davrida umumiy maqsad berilgan davrga aloqasi bor hisoblar bo'yicha qoldiqlar, umumiy qabul qilingan hisobchilik tamoyillari bilan mosligini baholashdan iboratdir. Auditorlik tekshiruvini amalga oshirishni muvaffaqiyatlari kechishi uchun, auditor aniq maqsadga ega bo'lishi kerak, bunda u bosqichma –bosqich audit o'tkazishni esdan chiqarmasligi lozim. Birinchi navbatda auditor operatsiyalarni birin-ketin bajarish haqidagi dastlabki ma'lumotlar bilan, hamda tekshirish uchun tashkilotning nazorat tuzilmasi bilan tanishib chiqishi kerak bo'ladi.

Avtotransport tashkilotlarida asosan daromadlar va pul tushumlarin qabul qilish jarayonlari ko'proq uchraydi, shuning uchun berilgan davrning ichki nazoratini samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlarni testdan o'tkazishda, auditorlik tekshiruvi va ma'lumotlarini baholashda o'tkaziladigan operatsiyalar saralab o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Buyurtmachi hamda avtotransport tashkilotlari o'rtasida munosabatlar shartnoma asosida o'rnatiladi. Yuk tashuvchi avtotransport tashkilotlari uchun bir tipdagi shartnoma shakli ishlab chiqilgan. Auditor shartnomalarni to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqishi lozim. Shartnomada yuk tashish shartlari, majburiyatlar va ikki tomon mas'uliyati hisob-kitob shartlari va boshqa rekvizitlari ko'rsatilgan bo'lisi zarur. Yuk tashish harajatlari kelishilgan shaklda to'lansa, unda kelishilgan ta'rif to'lovi bo'yicha amalga oshiriladi. Vaqtinchalik ta'rif to'lovi bo'yicha amalga oshiriladigan yuk tashish hisob-kitoblari:

- xar bir kilometr masofaga qo'yilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda(Avtotransportlarda xar bir bosilgan masofa uchun to'lovlar daromadlarni umumiy masofaga qo'yilgan ta'riflarni amalga oshirishni belgilab beradi);

- boshqa ishlar va xizmatlari turi bo'yicha daromadlar bajarilgan ish hajmiga qo'yilgan ta'riflar bo'yicha shakllanadi.

Transport korxonasingin daromadlarini tekshirishda auditor pul ajratmalariga ahamiyat berishi kerak. Bunda auditor yo'l varaqalarining to'g'ri to'ldirilganligini, tovar-transport ustamalarini, schet-fakturalarni va boshqa shunga o'xshash xujjatlarni tekshiradi.

## **5.Transport tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayoni auditining xususiyatlari.**

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditii auditorlik tekshiruvining muhim va ajralmas qismalaridan sanalib, uni o'tkazish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bunda auditorlar transport tashkilotning faoliyat turi, moliyaviy natijaning shakllanishi, manbalari, moliyaviy natijalarni taqsimlanishi xususiyatlardan kelib chiqqan holda ishlarni amalga oshirishi zarur.

Auditor transport tashkilotlarida moliyaviy natijalarni shakllanishini kuyidagi buxgalteriya hisobi schyotlaridagi yozuvlar orqali tekshiradi: 9000-«Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari», 9300-«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi schyotlari», 9500-«Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari», 9700 - «Favkulotda foyda (zarar)lar hisobi schyotlari», 9800 — «Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi hisobi schyotlari», 9900 — «Yakuniy moliyaviy natija» va boshqa schyotlar.

Transport tashkilotlarida asosiy faoliyatdan daromadlar ko'rsatilgan ish-xizmatlarni, mulklarni sotishdan olingan daromadlar, bajarilgan ishlar va xizmatlardan olingan daromadlardan iborat. Ushbu daromadlar 9010 - «Tayyor maxsulotni sotishdan olingan daromadlar», 9020 - «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar», 9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar» schyotlarning kreditida va 4010 - «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan tovarlar, 5110 — «Hisob-kitob schyotining» debetida aks ettirilgan bo'ladi. Naqd pulga sotilgan tovarlar, ko'rsatilgan ish-xizmatlardan olingan tushumlar esa bevosita 5010, 5020 schyotlarda ifodalangan bo'ladi. Transport tashkilotlarida realizatsiyadan olingan daromadlar oy oxirida yakuniy moliyaviy natija schyotiga o'tkazilgan bo'ladi.

Shu maqsadda auditor transport tashkilotida 9010 - «ko'rsatilgan ish-xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar» (9020, 9030 schyotlar bo'yicha ham) schyotining debetidagi yozuvlar bilan 9900 - «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining kreditdagи yozuvlarni o'zaro solishtirib ko'radi. Ushbu ma'lumotlar Bosh kitob, aylanma qaydnomalari va «molivaviy hisobot» dagi 2-shakl: «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ko'rsatkichlari bilan taqkoslanadi. Transport tashkilotlarida foyda auditi jarayonida asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, ya'ni asosiy vositalarni sotishdan olingan daromadlar (9310 - schyot),

boshqa aktivlarni sotishdan olingan daromadlar (9320 - schyot), undirilgan jarimalar (9330 - schyot), boshka asosiy faoliyatning daromadlari (9340, 9390 -schyot bo'yicha) tekshirilib chiqiladi. Undirilgan jarimalar pul mablag'larini hisobga olib borilgan schyotlarda (5110, 5210, 5220) ifodalangan bo'ladi. Oy oxirida ushbu daromadlar ham 9900 - moliyaviy natija» schyotiga o'tkazilgan bo'ladi. Auditor ushbu operatsiyalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligiga e'tiborini qaratishi kerak.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalarni audit qilish jarayonida transport tashkilotlarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va tegishli tavsiyalar beriladi. Transport tashkilotlarining moliyaviy holatini baholovchi ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❖ transport tashkilotlarining mulkiy holati;
- ❖ transport tashkilotlari balansining likvidligi;
- ❖ transport tashkilotlarining to'lov qobiliyati;
- ❖ transport tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi;
- ❖ transport tashkilotlarining rentabellik darajasi.

Moliyaviy natija – hisobot davridagi foyda yoki zarardir. Rentabellik - samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Auditor transport tashkilotlarida moliyaviy natijani tekshirish jarayonida xarajatlar tarkibga kiritilgan foyda (zarar) ko'rsatkichiga ta'sirini aniqlashi kerak.

Transport tashkilotlari foydasi muhim sifat ko'rsatkichlaridan bo'lib resurslardan samarali foydalanganlikni ifodalaydi. Olingan foyda miqdoriga qarab aktivlarning rentabelligini bilish mumkin. Audit jarayonida aktivlarning turlari bo'yicha rentabellik darajasi tahlil qilingan foydani yanada oshirishga qaratilgan asosli tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi

Foyda auditning muhim ob'ekti hisoblanadi. Auditor tuzilgan shartnomaga asosan foydaning to'g'ri hisoblanganligini, yil davomida qonun talablari asosida ishlatilganligini tekshiradi. Bunday tekshiruv 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (koplanmagan zarari)», 9900 - «Yakuniy moliyaviy natija» va boshqa schyotlar orqali amalga oshiriladi.

Auditor transport tashkiloti foyda ko'rsatkichining to'g'ri hisoblanganligini quyidagi operatsiyalar orqali tekshiradi:

- daromad turlari bo'yicha operatsiyalar;
- xarajat turlari bo'yicha operatsiyalar;
- yil davomida ishlatilgan foyda bo'yicha operatsiyalar. Foydaning auditi 9900 - «Yakuniy moliyaviy natija» schyotidagi buxgalteriya yozuvlarini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tekshiruv tartibini «Marhamat» tashkiloti misolida ko'rib chiqamiz. Hisobot davri bo'yicha transport tashkilotlarining 9900 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotida quyidagi yozuvlar bo'lgan:

Dt	9900 - «Yakuniy moliyaviy natija»	Kt
Koldiq-	Qoldiq-	
2) 555000-00	1)1650000-00	
4) 368000-00	3) 834000-00	
5) 123000-00	6) 100000-00	
7) 50000	8) 50000-00	
06. 1196000-00	06. 2634000-00	
	qol. 1438000-00	

Transport tashkilotlarining hisobot davridagi barcha daromadlari 2634.0 ming so'm, barcha xarajatlari 1196.0 ming so'm, foydasi esa 1438.0 ming so'm bo'lgan. Ushbu

ko'rsatkichdan soliq to'lanishi kerak. Soliq summasi yil davomida 9810, 6410, 5110 schyotlarda aks ettilib borilgan. Auditor yil bo'yicha hisoblangan foyda solig'ini quyidagi buxgalteriya yozuvlari orqali tekshirib chiqadi. Yil davomida hisoblangan va to'langan foyda solig'i:

<b>Dt</b>	<b>Kt</b>	<b>Summa</b>
9810	6410	258840-00
6410	5110	258840-00

Yil yakuni bo'yicha qo'shimcha hisoblangan foyda solig'i quyidagi yozuvlar orqali tekshiriladi:

<b>Dt</b>	<b>Kt</b>	<b>Summa</b>
9900	6410	27890-00
6410	5110	27890-00

Ushbu operatsiyalarning soliq konunchiligiga mosligi auditor tomonidan chuqur o'r ganiladi. Buning uchun «Moliyaviy hisobot» dagi maxsus jadval «Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar to'g'risida»gi ma'lumotlardan keng foydalaniladi. Transport tashkilotlari foydasidan to'langan soliqning to'g'rilingini tekshirish uchun auditor maxsus jadval tuzadi. Buni OAJ "GLOBAL-TRANS" tashkiloti misolida hisobot davri uchun ko'rib chiqamiz:

**OAJ "GLOBAL-TRANS" tashkilotida foyda va undan to'langan  
soliqlar auditni natijalari**

<b>Nº</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Transport tashki loti</b>	<b>Auditor ma'lumot lari bo'yicha</b>	<b>Farqi (+;-)</b>
			<b>ma'lumotlar uchun</b>		
1	Transport tashkilotlarin nng umumi y	ming so'm	2800, 0	2800,0	
2	Soliqqa tortilmaydigan foyda	ming so'm	500,0	200,0	- 300,0
3	Soliqqa tortiladigan foyda	ming so'm	2300, 0	2600,0	300,0
4	Foyda solig'i stavkasi	%	18	18	-
5	Soliq summasi	Ming so'm	414,0	468,0	+54,0
6	Avans shaklida to'langan soliq	ming so'm	300,0	300,0	
7	To'lanishi kerak bo'lgan foyda solig'i	ming sum	114,0	168,0	+54,0
8	To'langan dividendlar	ming sum	30,0	30,0	
9	Yilning sof foydasi	ming so'm	2356, 0	2302,0	54,0

Foya ko'rsatkichining audit natijasida quyidagilar aniqlangan: transport tashkilotlari ma'lumotlari bo'yicha soliqqa tortilmaydigan foya 300,0 ming so'mga ko'p qilib ko'rsatilgan. Natijada soliqqa tortiladigan foya 300,0 ming so'mga kam bo'lган. Firma ko'shimcha 54,0 ming so'm foya solig'ini va soliq qonunchiligidagi belgilangan jarimalarni byudjetga to'lashi kerak bo'ladi.

Audit jarayonida transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar bo'yicha ko'rsatkichlar (daromadlar, xarajatlar, foya) «Buxgalgeriya balansi» (1-shakl), «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» (2-shakl), «Pul oqimlari to'g'risida hisobot» (4-shakl), «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» (5-shakl) ma'lumotlari bilan o'zaro taqqoslash yo'li bilan tekshirilib ko'rildi.

Transport tashkilotlariga kelib tushgan va sarflangan pul mablag'lari «Pul oqimlari to'g'risida hisobot»da ifodalansa, daromadlar, xarajatlar, foya ko'rsatkichlari esa «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotda o'z aksini topgan bo'ladi. Byudjetga to'lanishi kerak bo'lgan va to'langan soliqlar 2-shaklga ilova qilingan maxsus ma'lumotnomada keltiriladi.

Auditor ushbu hujjatlardagi ma'lumotlarni buxgalteriya hisobining joriy ma'lumotlari bilan o'zaro taqqoslab tekshiradi. Auditor hisobot yilidagi sof foydaning taqsimlanishini (zararning yopilishini) quyidagi buxgalteriya yozuvlari orqali tekshiradi:

D-t	Kt	Summa
8710	8532	1474000-00
8532	8710	(zarar summasi)

Transport tashkilotlarida moliyaviy natjalarga oid birlamchi hujjatlarning barcha asosiy rekvizitlarini o'rganar ekan, auditor bu hujjatlarning ishonchliligi va o'tkazilgan xo'jalik ishlaringning qonuniyligiga ishonch hosil qilishi shart. Bu erda auditor hujjatlarni rasmiylashtirish tartibiga qo'yilgan talablarga rioya qilinishini tekshirishi, shuningdek quyidagi jadvalda keltirilgan qoidabuzarliklar belgilari bo'yicha aniqlash mumkin bo'lgan sifatsiz yoki haqiqiy bo'lмаган hujjatlar bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratishi zarur.

#### **Transport tashkilotlarida moliyaviy natjalarga doir hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha qoidabuzarliklar mazmuni va belgilari**

Nº	Qoidabuzarliklar mazmuni	Qoidabuzarliklar belgilari
1	Tasdiqlovchi hujjatda ish bajarishga berilgan farmoyish yo'q.	Rahbarlarning imzolari, buyruqlardan, Direktorlar kengashi, ta'sischi (aktsionerlar) qarorlaridan ko'chirmalar yo'q.
2	Boshqaruv hujjatida tasdiqlovchi hujjat yo'q.	Qandaydir sabab bilan ish o'tkazilmagan.
3	Hujjatlar belgilangan shakli buzib tayyorlangan.	Ishonchnomalar, schetlar, dalolatlar va h.k. o'zbilar-monlik bilan tuzilgan.
4	Bir hujjatning o'zida rekvizitlar mos kelmaydi.	Hujjatlar bir tashkilot nomidan tuzilgan, muhr esa - boshqa tashkilotniki.
5	Hujjatlarda yozma rekvizitlar to'la yoki qisman yo'q.	Kerakli rekvizitlar yo'q, ish mazmuni to'g'ri ifoda etilmagan.
6	Hujjatlarda manbalar mavjud bo'lgan ilovalar yo'q.	Hujjatlarda ilovalar ko'rsatilgan, aslida esa ular yo'q.

7	Hujjatlar imzolashga huquqi bo'limgan kishilar tomonidan imzolangan.	Pul hujjatlarini kassir imzolagan, yuk xatlarni esa ombor mudiri imzolagan va h.k.
8	Imzolar qalbaki, o'chirilgan, tuzatilgan, qirilgan joylar bor.	O'chirilgan, qirilgan, to'g'rilangan joylar bor va h.k.
9	Tegishli hujjatlarda muhr yo'q.	Ishonchnomalar, tovar cheklari, kvitantsiyalar va h.k. muhrsiz.
10	Hujjatlardagi yozma rekvizitlar mazkur tashkilot uchun xos bo'limgan ishlarni ko'rsatib turibdi.	Hujjatlarda aslida asoslanmagan ishlar mavjud (haqiqiy emas).
11	Birgina bitimning o'zi bo'yicha hisob-kitob va to'lov hujjatlari ma'lumotlarini tadqiq etish ularning muvofiq emasligini ko'rsatib turibdi.	Shu hisoblarga haq to'lash bo'yicha to'lov topshiriq-nomalari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun taqdim etilgan schet-fakturalar ma'lumotlari mos kelmaydi.
12	Hujjatlar bo'yicha o'tkazilgan ishlar haqiqiy emas.	Tovar moddiy boyliklar xarajati ombordan chiqarish bilan tasdiqlanmagan. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul mablag'larini o'tkazishda schet-faktura va shartnoma taqdim etilmagan.

Bundan keyin auditor transport tashkiloti moliyaviy natijalari bo'yicha quyidagilarni tekshirishi lozim: ko'rsatilgan transport xizmatlari tannarxini to'g'ri hisoblanganligi va shakllanishing to'g'rili; transport xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan tushum hisobi va ularni hisobda to'liq aks ettirilganligi; ko'rsatilgan transport xizmatlarining to'g'ri baholanishi; tansport xizmatlaridan tushgan tushumning asosliligi va to'g'rili; moliyaviy natijalar hisobi ma'lumotlarining №15-APK jurnal-orderi, Bosh kitob va №2 formasi bo'yicha hisobotdagi hisob ma'lumotlari bilan muvofiqligi.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditni natijasida odatda quyidagi kamchilik uchraydi:

- moliyaviy xarajatlar tarkibiga soliq va boshqa nazorat qiluvchi idoralar tomonidan qo'llangan jarima summalarini kiritish;
- hisobot davridagi foydadan qonunga xilof ravishda foydalanish;
- boshqa daromadlar, moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarni aks etilishida hisobvaraqlar noto'g'ri korrespondentlanishi;
- foydadan qonunchilikda ko'zda tutilmagan maksadlar uchun foydalanish.

Transport tashkilotlari yuk va yo'lovchi tashuvini amalga oshirish jarayonida sarf qilingan xarajatlari, yuk ortish va uni tashish ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlarini pul orqali ko'rsatilishi yuk tashish xizmatining tannarxini keltirib chiqaradi. Transport xizmati ko'rsatilishi uchun qilingan xarajatlar nazorat qilish eng muhim masalalardan biri bo'lib, unda transport xizmatini tannarxini baholash ko'rsatkichi tashkilot ishining sifatini belgilaydi. Avtombilda yuk tashish tannarxini hajmi, foyda, jamg'arma, zahira shakllanishiga va soliq solinishiga ta'sir etadi.

Transport tashkilotlarida xarajatlar auditining maqsadi – transport tashkilotlarida qilingan sarf-xarajatlarni qonuniyligi, belgilangan me'yorlarga mosligi va ular bo'yicha moliyaviy hisobotlardagi ko'rsatkichlarni ishonchliligi yoki haqiqatga mosligini tekshirish

hamda avtomobilda yuk tashish, xizmatlar tannarxini aniqlashdan iboratdir. Tekshiruvni amalga oshirish davrida transport xizmatlarini ko'rsatish jarayoni «Xarajatlar tarkibi va mahsulot (ish va xizmatlar) realizatsiyasi hamda moliyaviy natijalarni shakillantirish to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq xolda amalga oshirilgan bo'lishini tekshirish lozim. Auditorlik tekshiruvi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Transport xizmatlarini ko'rsatishga ketgan xarajatlar auditini o'tkazish audit bosqichlari bilan mos ravishda o'tkazilishi lozim. Auditor auditning birinchi bosqichida transport xizmatlarini ko'rsatish xarajatlari auditini rejalashtiradi va tayyorlaydi. Transport xizmatlarini ko'rsatishga ketgan xarajatlar auditini sifatli amalga oshirilishi uchun auditordan transport xizmatiga doir me'yoriy hujjatlar talablarini bilishdan tashqari, undan xo'jalik faoliyatining alohida sohalarida transport xizmatining tannarxini hisoblash xususiyatlarini yaxshi bilishni talab etadi. Transport faoliyati ma'lumki, boshqa sanoat korxonalaridan ajralib turadi va o'zining transport xizmatlarini ko'rsatish xususiyatlariga egadir. Shuning uchun, auditor rasman tekshiruv o'tkazishdan oldin transport sohasining texnologiyasi va tashkiliy xususiyatlarini, nimaga moslashtirilganligini, imkoniyat doirasi va transport xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini har bir turi tuzilmasini chuqr o'rganib chiqishi shart. Shunday qilib transport xizmatlarini ko'rsatish xususiyatlari bilan tanishib chiqqach auditor, dastlabki transport xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan muomalalarning buxgalteriya hisobini tekshirishi lozim.

Mazkur bosqichda dastlabki ma'lumotlar transport tashkilotining xodimlari bilan o'tkazilgan og'zaki suhbat asosida bajariladi, bu harakat hisob-kitobini tashkil etish haqida ma'lumot olish hamda saralab hujjatlarni ko'rib chiqish maqsadida amalga oshiriladi. Shuningdek, auditor transport tashkilotining hisob siyosatini, tashkiliy va texnologik xususiyatlarini, transport xizmatlarini ko'rsatish resurslarini rivojlanishini hamda ishdagi hamkorlarini bilishi zarur. Ishlab chiqilgan reja va auditning dasturi ikkinchi bosqichni amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qildi. Transport xizmatlarini ko'rsatish xarajatlarini hisobot davri bo'yicha chegaralanishining to'g'rilagini auditor tekshirib aniqlashi lozim. Bu esa «Moliyaviy hisobotini tayyorlash va taqdim etish uchun kotseptual asos» nomli BHMSga muvofiqligi tekshiriladi. Xarajatlarni o'rganish davrida auditor yuk tashish tannarxi hisobini to'ri amalga oshirilganligi va xuijjatlashtirilganligini tekshirishi lozim. Avtomobilda yuk tashishga ketgan xarajatlar, ishlar va xizmatlar o'rnatilgan tartib bo'yicha dastlabki hujjatlarga asoslangan holda o'tkaziladi, unda barcha avtomobilda yuk tashishni ishlab chiqish, hizmat va ish operatsiyalari to'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lishi hamda barcha hujjatlar o'zida barcha majburiy rekvizitlarni mujassam etishi lozim.

Auditor, transport vositalarida yuk tashish tannarxi xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga binoan, iqtisodiy mazmuni jihatdan quyidagi elementlarga guruhlangan holda buxgalteriyada hisobga olinganligini teshirish lozim:

- transport xizmatlarini ko'rsatish xarajatlari (qaytadigan chiqindi hisobidan chiqarish hisobiga);
- transport xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- transport xizmatlarini ko'rsatishbilan bog'liq boshqa xarajatlar.

Transport tashkiloti xarajatlarini guruhlash zamirida kalkulyatsiyalash moddalari bo'yicha iqtisodiy jihatdan yordamchi hamda asosiy transport tashkiloti xarajatlariga guruhlash yotadi. Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha transport tashkiloti xarajatlarini guruhlanishi amaliy va nazariy jihatdan barcha jabhalari auditor tomonidan to'liq o'rganilishi lozim. Auditor tomonidan yuk tashish xizmatlarining tannarxini hisobi transport tashkilotlarida quyidagicha kalkulyatsiyalash moddalari bo'yicha hisobga oilingan bo'lishi tekshiriladi:

1. Haydovchilarning asosiy va qo'shimcha oylik maoshlarining to'lovi;
2. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
3. Yoqilg'i;
4. Moy sotuvchi va boshqa eksplutatsiya ta'mirlov materiamllari;
5. Avtomobil rezinasi;
6. Avtomobilni texnik xizmat va eksplutatsiya qilish ta'mirlov ishlari;
7. Harakatlanuvchi tarkibiy qismni amortizatsiya ajratmalari;
8. Transport xizmatlarini ko'rsatish xususidagi ustama transport tashkiloti xarajatlari (umumiyl ishlab chiqarish xarajatlari).

Transport tashkilotlarida yuk tashish va boshqa xarajatlар asosiy transport xizmatlari bo'lib hisoblanadi. Kalkulyatsiya buxgalteriya hisobida 2010 «Asosiy transport xizmatlarini ko'rsatish» schyotida barcha sarflangan xarajatlар aks ettiriladi. Bizning fikrimizcha, 2010 «Asosiy transport xizmatlarini ko'rsatish» schyotiga quyidagi qo'shimcha schyotlarni kiritish orqali hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir:

- 2011 – «1 tonna tashilgan yuk tarifi bo'yicha ishlaydigan yuk tashuvchi mashinalar»
- 2012 – «Soat tarifi bo'yicha ishlaydigan yuk tashuvchi mashinalar»
- 2013 – «Yuk tashish va ortish ishlari»
- 2014 – «Ekspeditsiya xizmatlari»
- 2015 – «Boshqa ishlar va xizmatlar turi»

Qo'shimcha schyotlar yuk tashish xizmati va boshqa xizmatlar turi bo'yicha qilinadigan alohida kalkulyatsiyalash moddalari bo'yicha xarajatlarga olib borilganligi tekshiriladi. Auditor buxgalteriya hisobida hamda schyotlar saldosi bo'yicha aylanmalmarni to'g'ri aks ettirilganligini sinchiklab tekshirishi lozim. Buning uchun ishlab chiqilgan auditorlik dasturida ko'rsatilgan muolajalarni bajarishi lozim ya'ni u hisobda qayd qilingan sonlar va oylnarni taqqoslab chiqishi, dastlabki xujjatlarni tekshirishi lozim; hisob qaydnomasida hisob aniqligini tekshirishi hamda bosh kitobda qayd qilingan ma'lumotlarni kerakli schyotlarga va boshqa muolajalarga ketgan xarajatlarni tekshirishi zarur.

Transport tashkilotlarida foyda auditni auditorlik tekshiruvining asosiy masalalaridan biri biri bo'lib, u butun auditorlik tekshiruvini belgilovchi xususiyatlardandir. Transport tashkilotlari moliyaviy natijalari auditini ma'lum uslubga asoslangan holda yoki ma'lum kema-ketlik asosida o'tkazish mumkin, biroq, albatta sohaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurdir. Masalan, transport tashkilotlarida realizatsiya jarayoni auditni o'z ichiga tovarlar va tashilgan tovarlar auditini olmaydi, chunki bu mazkur soha uchun xos emasdir. Boshqa sanoat sohalaridan farqli o'laroq, transport tashkilotlarida transport xizmatlarini ko'rsatish hamda realizatsiya jarayoni mos tushadi, ya'ni bir vaqtida ikkala jarayon amalga oshiriladi, foyda auditini o'tkazish davri foydaning shakllanishi xususiyatini ham inobatga olish zarur.

Buxgalteriya hisobida ko'rsatilgan ishlar va xizmatlar tabiiy ravishda xamda narxlar o'lchovida aks ettiriladi, bu esa auditordan transport tashkilotlarida bajariladigan yuk tashish ishlarini o'tgan yillarga nisbatan tahlil etgan holda, o'z faoliyatini bashorat qilish va biznes rejalar tuzish, unda yuklarni umumiy hajmini aniq belgilash kabi qo'shimcha professional xizmatlarni ko'rsatishni talab etadi. Transport tashkilotlarida foyda auditni jarayonda tekshirilayotgan davri bo'yicha schyotlar qoldiqlarini o'zaro taqqoslash, umumiy qabul qilingan hisob tamoyilliari bilan mosligini baholashga asosiy e'tibor qarataladi. Auditorlik tekshiruvini amalga oshirishni muvaffaqiyatli kechishi uchun, auditor aniq maqsadga ega bo'lishi kerak, bunda u bosqichma-bosqich audit o'tkazishi lozim. Birinchi navbatda, auditor moliyaviy natijalarni shakllanishi va taqsimlanishi bo'yicha muomalalarni

birin-ketin bajarishi, dastlabki ma'lumotlar tanishishi hamda tekshirish uchun tashkilotning nazorat tuzilmasi bilan tanishib chiqishi lozim bo'ladi.

Transport tashkilotlarida asosan foyda va pul tushumlarini qabul qilish jarayonlarida xatoliklar ko'proq uchraydi, shuning uchun tashkilot ichki nazorat tizimi samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlarni testdan o'tkazish, auditorlik tekshiruvi uchun dalil sifatida olingan ma'lumotlarni saralash maqsadga muvofiqdir.

Auditor buyurtmachi hamda transport tashkilotlari o'ttasida munosabatlardan shartnomada asosida o'rnatilganligiga asosiy e'tibor qaratishi zarur. Bu borada auditor shartnomalarni to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqishi lozim. Shartnomada yuk tashish shartlari, majburiyatlar va ikki tomon mas'uliyati hisob-kitob shartlari va boshqa rekvizitlari ko'rsatilgan bo'lishi zarur. Bunda auditor yuk tashish xarajatlari kelishilgan shakl va muddatda to'langanligi va unda kelishilgan ta'rif to'lovi bo'yicha amalga oshirilganligiga asosiy e'tibor qaratishi zarur.

#### **6.Transport tashkilotlarida ijara munosabatlari va soliq hamda boshqa to'lovlar auditining xususiyatlari.**

Transport tashkilotlarining asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy natijalarini sotish va boshqa chiqimlaridan olingan foyda;
- nomoddiy aktivlar, materiallar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda;
- undirilgan jarimalar;
- voz kechilgan kreditorlik qarzlar;
- qisqa muddatli ijaradan olingan daromadlar;
- beg'araz olingan moliyaviy yordam;
- xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olingan daromadlar;
- inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillarning foydasi va boshqalar.

21-sod BHMSga muvofiq transport tashkilotlarida asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar» tizimida ochiladigan alohida schyotlarning kreditida aks ettiriladi. Bunda asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarning aniq turlarini ifodalovchi schyotlar, chunonchi, 1000, 5010, 5110, 6400, 6710, 6520, 6990, 9210, 9220 va boshqalar debetlanadi. Hisobot davr oxirida 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar» tizimida ochiladigan alohida schyotlarning kreditida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti o'tkaziladi va shu yo'l bilan ular yopiladi.

Transport tashkilotlarida asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar) sotishdan olingan foyda (zarar) summasiga asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar summasini qo'shish hamda davr xarajatlari summasini ayirishdan keyin hosil bo'lgan summadan tashkil topadi. Buxgalteriya hisobida asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zarar summasi 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti ma'lumotlari asosida arifmetik yo'l bilan topiladi.

Transport tashkilotlarda moliyaviy natijalar auditini o'tkazishdan maqsad – moliyaviy natijalarini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog'liq amalga oshirilgan muomalalarning ishonchliliginini aniqlash va ular bo'yicha moliyaviy hisobotlardagi ko'rsatkichlarning ishonchliliginini baholashdan iboratdir. Shuningdek, tarsnsport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditida asosiy e'tibor buxgalteriya hisobida va hisobotida tashkilot foyda va zararlarini ishonchli aks ettirilganligi, sof foyda qonuniy taqsimlanganligi va foydalanylганligини tekshirishga qaratiladi.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar to'g'ri shakllantirilganligi va foydadan to'g'ri foydalanganligining tekshiruvi jarayonida auditor quyidagi masalalarni hal etishi lozim:

- ko'rsatilgan xizmat, moliyaviy natijalar va boshqa mol-mulkni sotishdan olingan foya (zararlar)ni to'g'ri aniqlanganligi va hisobda aks ettirilganligini aniqlash;
- boshqa daromadlar va moliyaviy natijalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar to'g'ri hqisobga olinganligini tahlil qilish;
- turli soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydadan to'g'ri foydalanilganligini tekshirish;
- dividendlar to'lash uchun sof foydadan qonuniy va to'g'ri foydalanilganligini tekshirish.

Transport tashkilotlarida ish va xizmatlar ko'rsatishdan olingan foya to'g'ri aniqlanganligi bo'yicha tekshiruv natijalari ko'p jihatdan auditning oldingi bosqichlari, xususan, ish, xizmat ko'rsatish va sotish jarayonlarini nazorat qilish bosqichlarida moliyaviy natijalar va boshqa mol-mulkni tekshirishda, hisob-kitob bo'yicha operatsiyalar auditida nazorat muolajalari sifatlari o'tkazilganligiga bog'liq. Sotuvdan tushumni va ko'rsatilgan ish, xizmat tannarxini, boshqa mol-mulkni sotishdan tushumlarni va xarajatlarni to'g'ri hisoblashlar, ushbu operatsiyalar bo'yicha moliyaviy natijani ham aniq hisoblash lozimligini taqozo etadi. Transport tashkilotlarida auditor ishlari, xizmatlarni ko'rsatish, moliyaviy natijalarni sotish va boshqa hisobdan chiqarishlar, boshqa aktivlarni sotish hisobvaraqlari bo'yicha hisob registrlarida aks etilgan foya summalar foydalar va zararlarni hisobi hisobvarag'i bo'yicha hisob registrlarida aks etilgan shunga o'xshash summalar bilan muvofiq ekanligini tasdiqlashi etarlidir.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining ma'lumot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Ta'sis hujjatlari, ta'sischilar majlisi bayonnomalari, buyruqlar va farmoyishlar.
10. Dastlabki hujjatlari (kirim va chikim kassa orderlari, to'lov qaydnomalari, chiptalar, schetlar, to'lov topshiriqnomalari, ilova kilingan so'mdagi va valyutadagi schetlari bo'yicha bank ko'chirmalari, sotish, foya va zararlar, soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydadan foydalanish schetlari bo'yicha hisob registrlari (qaydnomalar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar).
11. Bosh kitob, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar va boshqalar hisoblanadi.
12. 9000-«Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
13. 9100 -"Sotilgan tovarlar tannarxining schetlari" ma'lumotlari.
14. 9200 «Moliyaviy natjalarning sotilishi va turli chiqimi» ma'lumotlari.
15. 9300-«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
16. 9400-«Davr xarajatlarining hisobi» ma'lumotlari.
17. 9500-«Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
13. 9600-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarining schetlari» ma'lumotlari.
14. 9700 - «Favkulotda foya (zarar)lar hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
15. 9800 - «Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydaning ishlatalishi hisobi schyotlari» ma'lumotlari.
13. 9900 - «Yakuniy moliyaviy natija» ma'lumotlari.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ❖ Moliyaviy natijalarining shakllanishi va to'g'ri hisoblanganligini tekshirish;
- ❖ foydaning to'g'ri ishlatalishini tekshirish;
- ❖ moliyaviy natijalarni buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligini aniqlash;
- ❖ moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarning asosligi va to'g'ri tuzilganligini tekshirish.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalarining auditorlik tekshiruvi jarayonida quyidagi me'yoriy hujjatlardan foydalaniлади:

9. «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xaratjatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizom, 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori (o'zgarishlar bilan).

10. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Solik Qo'mitasining 2002 yil 24 yanvardagi 15, 2002-12-sonli «Huquqiy shaxslarning daromadi (foyda) bo'yicha soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'rqnoma.

11. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalari», Adliya Vazirligidan 2003 yil 24 yanvara 1209-sun Bilan ro'yxatdan o'tgan.

12. O'zbekiston Respublikasi Fukarolik Kodeksi 1996 yil 29 avgust 257-1-sun (o'zgarishlar bilan).

13. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 2007 yil dekabrdagi 391-6-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni Bilan tasdiqlangan (o'zgarishlar bilan).

14. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1996 yil 30 avgust.

15. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 2000 yil 26 may.

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat Mulk ko'mitasi va Davlat Soliq ko'mitasi tomonidan 2002 yil 25 martda 47, 10-1-48, 2002-33-sonli karori Bilan kabul qilingan «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan davlat tasarrufidagi aktsiyalar bo'yicha dividetnlarni hisoblash, to'lash va maqsadli foydalanish tartibi to'g'risida»gi nizom.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalarining auditni ma'lum xususiyatlarga ega bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- Moliyaviy natijalarining shakllanishi bir qancha ko'rsatkichlarga bog'liq;
- Moliyaviy natija hisobot davridagi korxona faoliyatining yakuni hisoblanadi;
- Korxonaning foya bilan ishlashi yoki hisobot davrini zarar bilan yakunlanishi moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko'rsatkichlarga bevosita bog'liq bo'ladi;
- Moliyaviy natijalarga oldindan aniq bo'lмаган xavf-xatarlar, tasodifiy hodisalar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditini o'tkazish mutaxassis auditordan ma'lum bilimni va ish tajribasini talab qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida turli mulkchilikka asoslangan transport tashkilotlarining faoliyatları bir-biridan farq qiladi. Ularning so'nggi moliyaviy natijalari ham turli operatsiyalar va omillar tufayli shakllanadi. Transport tashkilotlari moliyaviy natijalarining shakllanishi va unday foydalanilishi jarayonini qabul qilingan qonun-qoidalarga mosligini ekspertiza qilish, baholash, asosli xulosalarga kelish va tavsiyalar berish auditordan ko'p bilim va saviyani talab qiladi. Audit natijasida ishonchli xulosaga kelish ushbu jarayonda qo'llaniladigan usullarga bevosita

bog'liqdir. Audit uslubining asosida mantiqiy mulohaza, ilm-fan yutuqlari, xo'jalik jarayonining o'zgaruvchanligi yotadi. Transport tashkilotlari faoliyatidagi operatsiyalar tufayli mablag'lar bir shakldan boshqa shaklga o'zgarib turadi. Ushbu jarayon natijasida transport tashkiloti samara (naf) olishi kerak. Bu samara, o'z navbatida qabul qilingan qonun - qoidalarga to'liq amal qilingan holda erishilgan bo'ladi. Moliyaviy natijalarни shakllanishi va hisobga olinishiga doir noqonuniy operatsiyalar mijozlarga faqat zarar keltiradi, xolos.

**“BOSHQQA TARMOQLARDA AUDITNING XUSUSIYATLARI” FANIDAN  
AMALIY MASHG’ULOT MATERIALLARI**

## **1-MAVZU: “BOSHQA TARMOQLARDA AUDITNING XUSUSIYATLARI” FANINING PREDMETI, OB’EKTI VA METODI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **Mavzu bo’yicha savollari**

1. Boshqa tarmoqlarda audit deganda nimani tushunasiz?
2. Boshqa tarmoqlarda auditning ahamiyati nimada?
3. Boshqa tarmoqlarda auditning oldiga qanday maqsad va vazifalar qo’yilgan?
4. Boshqa tarmoqlarda audit nechta shakl va turga bo’linadi?
5. Boshqa tarmoqlarda auditning iqtisodiy tahlil fanidan qanday farqli va unga o’xshash tomonlari mavjud?
6. Ichki audit bo’limini ishini samarali deb hisoblash mumkinmi, agar u bo’lim bosh buxgalterga bo’ysinsa?
7. Agar audit nazoratni samarali shakli bo’lsa, barcha korxonalarda uni o’tkazish majburiyatini olishi lozimmi?
8. Nima sababdan auditorlik tashkiloti ochiq aktsionerlik jamiyatni sifatida tashkil etilishi mumkin emas?
9. Ichki audit xizmati samarali ishlayotgan bo’lsa, ochiq aktsionerlik jamiyatlarida Boshqa tarmoqlarda auditorlik tekshiruvlarini o’tkazish lozimmi?
10. Qaysi nuqtai nazar aktsioner uchun to’g’iroq: nazorat shaklini ixtiyoriy tanlash huquqiga egaligi, yoki bu xuquqdan maxrumligimi?
11. Audit nazariyasi boshqa tarmoqlarda auditorlik tekshiruvi o’tkazishga tayyorlanishda qanday ta’sir ko’rsatadi?
12. Auditorlik faoliyatining predmeti deganda nimani tushunasiz?
13. Boshqa tarmoqlar auditni jarayonida qanday tekshiruv metodlaridan foydalaniladi?
14. Boshqa tarmoqlarda audit moliyaviy nazoratning boshqa shakllaridan qanday farq qiladi?
15. Boshqa tarmoqlarda auditning ob’ekti nima, sub’ektlari kimlar?
16. Boshqa tarmoqlarda audit fanining iqtisodiy fanlar bilan aloqadorligi?
17. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fani predmetining mohiyati nimalarda aks etadi?
18. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining ob’ektini qanday izohlaysiz?
19. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining qanday metodlari mavjud?
20. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanida qanday xususiy usullar qo’llaniladi?
21. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining Audit va Amaliy audit fanlari bilan qanday o’zaro bog’liqligi mavjud?
22. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining «Buxgalteriya hisobi» fani bilan qanday o’zaro bog’liqligi mavjud?
23. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining «Soliqlar va soliqqa tortish» fanlari bilan qanday o’zaro bog’liqligi mavjud?
24. Tekshiruvda isbot va dalillar olishning necha xil usullarini bilasiz, ularni sanang?

### **MAVZU BO’YICHA KEYSALAR**

**Masala.** Bir necha hafta mobaynida tadbirkor Safarov A va auditor viloyatlar bo'ylab sayohat qilmoqda. Tadbirkor A. Safarov sayohati davomida turli xil korxonalarda hissa qo'shish imkoniyatini qidirmoqda. Auditor tadbirkorga kapital qo'yish borasida maslahatlar berishi hamda tadbirkor bilan sherikchilik asosida tashkil qilingan korxonaning yillik hisobotini tekshiruvdan o'tkazishi zarur.

**Talab qilinadi:** Yillik hisobotni tekshirayotganda auditorlarning mustaqillik tamoyilidan kelib chiqqan holda auditorga ham maslahatchi ham auditor, deb baho berish mumkinmi? Holatlarni tahlil qiling.

**Masala.** «ALFA» firmasi 2011- yilning mart oyida ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish maqsadida kredit olish uchun bankka murojaat qildi. Bank firmadan 2010- yil yillik hisobotini ishonchliligini tasdiqlab beradigan auditorlik xulosasini so'radi. «ALFA» firmasi majburiy auditorlik tekshiruviga tortiladigan korxonalar turkumiga kirmaganligi sababli auditorlik tekshiruvini o'tkazmagan edi. Lekin 2010- yilning noyabr oyida soliq inspeksiyasi tomonidan hujjatlik tekshiruv o'tkazilgan bo'lib, firma bankga ushbu tekshiruv dalolatnomasini taqdim etdi.

**Talab qilinadi:**

1. Bank ushbu tekshiruv dalolatnomasini auditorlik xulosasi sifatida qabul qilishga haqlimi?
2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim.

**Masala.** Auditorlik firmasida mijoz korxonaning quydagi buxgalterlik, iqtisodiy va huquqiy hujjatlari mavjud:

Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul mablag'larining harakati va xususiy kapital to'g'risidagi hisobotlar, balansga tushuntirish xati, biznes reja, buyruq va xo'jalik shartnomalari, korxonaning shtat jadvali, hujjat aylanish grafigi, o'tgan yilgi auditorlik tekshiruvi xulosasi.

**Talab qilinadi:**

1. Auditor rejalashtirish jarayonida mijoz haqidagi yana qaysi hujjatlarni to'plash kerak va tekshirish o'tkazishning qaysi usullaridan foydalanishni rejalashtiradi.
2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

**Masala.** «FOTON» tashkiloti auditorlik tashkilotiga buxgalteriya hisobini kompyuterlashtirish yuzasidan murojaat kildi. Ushbu auditorlik tashkiloti «FOTON» tashkilotini bir necha yildan beri tekshiruvdan o'tkazadi va tashkilotning moliyaviy va boshqaruv hisobi muammolarini va xususiyatlarini yaxshi biladi.

**Talab qilinadi:** Agar auditorlik tashkiloti korxonaga kompyuterlashtirish yuzasidan xizmat ko'rsatsa, auditorlik tekshiruvi o'tkazayotgan vaqtida auditorning mustaqilligiga ta'sir ko'rsatadimi?

**Masala.** Siz «AKFA» firmasini tekshirayotgan auditorsiz. Sizning auditorlik firmangizga ofis uchun ijara bino kerak. «AKFA» firmasi Sizga o'zining mulki hisoblangan binoni ijara olishni taklif qildi.

**Talab qilinadi:**

1. Bu taklif qabul qilinsa auditorlik firmasining mustaqilligi yo'qoladimi? Holatlarni tahlil qiling.

2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

**Masala.** "ODIL-AUDIT" auditorlik tashkiloti 3 yil oldin tashkil etilgan. U hozirgi kunga qadar kattalashib ketgan va o'z filliallariga ega. Firma auditorlik xizmati ko'rsatadi va qo'shimcha ravishda coliq qonunchiligi masalalari bo'yicha maslahatlar beradi.

**Talab qilinadi:** Bu maslahatlar auditorlik xizmatiga kanday ta'sir ko'rsatadi.

**Masala.** "ODIL-AUDIT" auditorlik firmasining auditori A.I.Axmedov o'zining malakaviy xizmati to'g'risida matbuotda va radioda reklama qilib, mahoratlilik darajasi va boshqa auditorlarga nisbatan yuqori malakali ekanligini e'lon qildi. Shuning bilan birgalikda xizmati uchun to'lanadigan summani ham oshkor qildi.

**Talab qilinadi:** Auditor A.I.Axmedovga kasbiy etik me'yorlariga rioya qilgan holda qanday bo'lishi haqida maslahat bergen bo'lar edingiz?

**Masala.** «ODIL-AUDIT» auditorlik firmasining 3 kishidan iborat auditorlari «XXX» sug'urta kompaniyasini auditdan o'tkazmoqda. Auditorlardan biri korxona bosh direktori muoviniga yaqin qarindoshchiligi borligi aniqlandi.

**Talab qilinadi:**

1. Bunday holda auditning etik me'yorlariga zid bo'ladimi?

2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

**Masala.** «BUSTON» korxonasida audit o'tkazildi. Auditorlar tomonidan kamchiliklar aniqlanmadи. Korxona rahbarlari tomonidan auditorlarga qimmatbaho sovg'alar berildi.

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

2. Bunday holatda auditorlar qanday yul tutishlari lozim?

**Masala.** «DAVR» xususiy korxonasida audit qilish natijasida soliqlardan kam to'langanligi ma'lum bo'ldi. Uni yashirish maqsadida korxona direktori har bir auditorga dam olish uchun yo'llanmalar taklif qildi va ulardan ijobjiy auditorlik xulosa berishlarini iltimos qildi.

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

2. Bunday holatda auditorlar qanday yul tutishlari lozim?

**Masala.** Tikuv-ishlab chiqarish firmasi auditorlik firmasi bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan talablarни bajarmaganligi sababli, tikuv-ishlab chiqarish firmasi va auditorlik firmasi o'rтasida o'zarо nizo kelib chiqdi. Shu sababli, tikuv-ishlab chiqarish firmasi auditorlik firmasi bilan amaldagi shartnomani buzib, sizning auditorlik firmangiz bilan shartnomaga tuzmoqchi.

**Talab qilinadi:** Bu holatda sizning auditorlik firmangiz qanday yo'l tutishi lozim?

**Masala.** «A» xususiy firmasi 2010 yildan boshlab aktsiyadorlik jamiyatni bo'lib qayta ro'yxatdan o'tdi. 2010 yilda jamiyatning bajarilgan ishlari xajmi 25000000 so'mni yillik ish xaki fondi 2,5 mln so'mni va jami byudjetga to'lovlari 3 mln 200 ming so'mni tashkil etdi.

**Topshiriq:** 2010 yil uchun yillik hisobot auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi shartmi?

**Masala.** «XXX» qo'shma korxonasi 2010 yilning oktyabr oyida «Inter-audit» auditorlik firmasiga analitik hisobni tiklab berish yuzasidan murojaat qildi. Sharhnomalar asosida xizmat ko'rsatilib, pul to'landi. 2008 yilning mart oyiga kelib «XXX» qo'shma korxonasi xuddi shu auditorlik firmasiga 2010 yil uchun yillik hisobotni tasdiqlab berish yuzasidan qayta murojat qildi.

**Topshiriq:** Auditorlik firmasi ushbu taklifni qabul qila oladimi?

**Masala.** Auditorlik tashkiloti «A» va «B» firmalaridan auditorlik tekshiruvini o'tkazib berish yuzasidan taklif oldi.

«A» firmasi besh yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan bo'lib, majburiy auditorlik tekshiruviga tortilmaydi. Soliq inspektsiyasi tomonidan o'tkazilgan xujjalni tekshiruv vaqtida «A» firmasiga katta miqdorda jarima sanktsiyasi qo'yilgan. Agarda firma ushbu jarimani to'lasa, uning moliyaviy barqarorligi yo'qoladi. Shu sababli firma auditorlik tashkilotiga Ushbu moliyaviy jarimani kamaytirib berish uchun tekshiruv o'tkazib berish taklifi bilan chiqdi va auditorlik tashkilotiga ushbu xizmat uchun bir million so'm to'lashini ma'lum qildi.

«B» firmasi majburiy auditorlik tekshiruviga tortiluvchi tashkilot hisoblanadi. Faoliyatining uchinchi yilda firma auditorlik tashkilotini o'zgartirib, yuqoridaqgi auditorlik tashkilotiga murojaat qildi. «B» firmasi auditorlik tekshiruvi uchun sakkiz yuz ming so'm to'lab berishini ma'lum qildi.

Auditorlik tashkilotida xodimlar soni cheklangan bo'lib, bir vaqtning o'zida ikkala taklifni qabul qila olmaydi. Ikkala taklifni qabul qilishi uchun chetdan xodimlar jalb qilishi kerak bo'ladi.

**Topshiriq:** Auditorlik tashkiloti ikkala taklifni qabul qila oladimi? Agar bitta bo'lsa qaysi taklifni qabul qilishi kerak?

**Masala.** Majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tadigan aktsiyadorlik jamiyati auditorlik tashkilotiga ushbu yilda o'tkaziladigan tekshiruvning ob'ekti qilib, ular uchun yangi soha bo'lgan eksport-import operatsiyalarini olishni taklif qildi.

**Topshiriq:** Majburiy auditorlik tekshiruvi bo'yicha sharhnomalar ob'ekti bo'lib faqatgina eksport-import operatsiyalarini bo'lishi mumkinmi?

**Masala.** Majburiy auditorlik tekshiruvi vaqtida, 2008 yil mart oyida, asosiy vositalar inventarizatsiyasi o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu mart oyida o'tkazilgan inventarizatsiya natijasi bilan 2008 yil 1 yanvar holatiga bo'lgan asosiy vositalar mavjudligi haqida xulosa berib bo'ladimi?

**Topshiriq:** Ushbu holatda auditor yana qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?

## **2-MAVZU. “QURILISH TASHKIOTLARI ASOSIY FAOLIYATI AUDITINING XUSUSIYATLARI”**

### **Mavzu bo'yica savollar**

1. Kapital qo'yilmalarni auditining uziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Kurilish – montaj ishlarni bajarishiga kura kapital qo'yilmalar necha turga bulinadi?
3. Kurilish tashkilotlarida asosiy vositalarning auditi kanday amalga oshiriladi?
4. Pudratchilar bilan xisob – kitoblarni audit kilishda kanday xujjatlarga asosiy e'tibor karatiladi?
5. 5.Tugallanmagan kapital qo'yilmalarni auditi kanday amalga oshiriladi?
6. Qurilish tashkilotlarida audit manbalari bo'lib qaysi hujjatlar hisoblanadi?
7. Qurilish tashkilotlarida hisob siyosatini tekshirish tartibi
8. Qurilish tashkilotlarida inventarizatsiya o'tkazish tartibi qanday?
9. Qurilish tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralar qoldig'ining me'yori qanday aniqlanadi?
10. Qurilish tashkilotlarida yalpi tushumni qanday aniqlanadi?
11. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni tekshirish manbai bo'lib qaysi hujjatlar hisoblanadi?
12. Qurilish tashkilotlarida omborlarda va buxgalteriyada hisob yuritish tartibi qanday tashkil etiladi?
13. Moddiy javobgar shaxs hisobotining to'g'ri yuritilishiga kim mas'ul hisoblanadi?

### **MAVZU BO'YICHA KEYSALAR**

**Masala.** “FTF-Audit” auditorlik tashkilotiga qurilish ishlari bilan shug'ullanadigan “Porloqqurilish” tashkiloti tomonidan amaliètda yuzaga kelgan muammolar bo'yicha murojaat qildi. Unga ko'ra qurilish tashkilotiga 2013 yil avgustida bosh pudratchi ularga KF-2 shaklini imzolab, qilingan ish uchun 25 000 000 so'm to'ladi. Ushbu summadan ular III chorak uchun 6%lik stavkada YaST to'ladi. 2014 yil 15 yanvarda bosh pudratchi 2 800 000 so'mlik hajmini olib tashladi. Olingen hajmlar hisobini amalga oshirish va ularni hisobga olgan holda YaST to'lash tartibi qanday?

Ikkinci savol. Ob'ektda ishlarning bir qismini bajarish uchun boshqa qurilish tashkilotini èllagan. Sharhnomaga ko'ra tashkilot èrdamchi pudratchini materiallar bilan ta'minlashi shart. Ishlarning umumiyligi - 30 000 000 so'm, shu jumladan tashkilot tomonidan 10 000 000 so'mlik qurilish materiallari (samorezlar, profil va hokazo) berilgan. Ishlar qabul qilingan, bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolangan. Berilgan materiallarni balansdan qanday qilib hisobdan chiqariladi? Bosh pudratchi ushbu ob'ektni qabul qilganda, ularga soliq solish kerakmi?

**Topshiriq:** 1. Birinchi va ikkinchi savollar bo'yicha buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini ko'rasisating 2. Soliq to'lovlar bo'yicha tashkilotda yuzaga keladigan muammolarga izox bering.

**Masala.** Korxonha chet tashkilot kuchi bilan sex qurmoqda. Buning uchun qurilish tashkiloti bilan pudrat sharhnomasi tuzildi .Sharhnomaga ko'ra pudrat tashkiloti obyektni zarur materiallar bilan ta'minlashi, shuningdek, ularning saqlanishi va qurilish subyektigacha tashilishini tashkil qilishi kerak. Buyurtmachining o'z omborida pudrat tashkilotiga berish majburiyatini olgan 3000000 so'mlik so'mmadagi materiallar, shu jumladan QQS-500 000

so‘m mavjud. Pudratchi uchun sexning umumiy smeta qiymati 70 mln so‘m (QQS bilan birga) Buyurtmachi subyektni 70 mln so‘mlik qiymat bo‘yicha kirim qiladi.

**Talab qilinadi:**

1. Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida keltirilgan muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.
2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
3. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?

**Masala.** Shakar ishlab chiqarish zavodidan temiryo‘l orqali ulgurji savdo tashkilotiga 25 tonna shakar jo‘natilgan. Yuk ortilgan vagon belgilangan stansiyaga 21.12.da kelgan va yuklarni tushirishga berilgan. Shakarni qabul qilish paytida 23.12 kuni dalolatnomalar rasmiylashtirilib, komissiya tarkibiga omor mudiri T.Nizomov va O.Egamovlar va buxgalter N.Qosimovlar kiritilgan. Dalolatnomada ko‘rsatilishicha mol yetkazib beruvchining hujjatiga muvofiq 25000 kg shakar, har bir kilogrammi 120 so‘mdan umumiy so‘mmasi 3000000 so‘mni tashkil qiladi. Shakarni tortib ko‘rilganda 150 kg shakar so‘mmasi 18000 so‘m kam kelganligi ko‘rsatilgan. Qabul qilish dalolatnomasiga asosan 24850 kg shakar buxgalteriyada kirimga olingan. Kamomad so‘mmasi 2010 «Ishlab chiqarish xarajatlari» schotiga hisobdan chiqarilgan. Dalolatnomada hech kim tomonidan tasdiqlanmagan. Shakarni tashish paytidagi tabiiy kamayish normasi 0,15% etib belgilangan.

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?
3. Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshiring va holatga baho bering.

**Masala.** Auditorlik tekshiruvi jarayonida auditor quyidagilarni aniqladi: Hisobot davri boshiga materiallar qoldig‘i 2000 ming so‘m bo‘lib, hisobot davrida asosiy ishlab chiqarish uchun 1000 ming so‘mlik, yordamchi ishlab chiqarishga 200 ming so‘mlik, transport vositalarining remonti uchun 50 ming so‘mlik, boshqaruv extiyojlari uchun 10 ming so‘mlik, yotoqxonani ta’mirlash uchun 70 ming so‘mlik material sarflangan. Ushbu muomalalarni aks ettirish uchun buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar qilingan:

**Debet** 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» -1000 ming so‘m;

**Debet** 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» -200 ming so‘m;

**Debet** 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» -60 ming so‘m;

**Debet** 9410 «Sotish xarajatlari» -70 ming so‘m;

**Debet** 9420 «Ma‘muriy-boshqaruv xarajatlari» -180 ming so‘m;

**Kredit** 1000 «Materiallar» -1330 ming so‘m.

**Talab qilinadi:** Materiallarni hisobdan chiqarish bilan bog‘liq noto‘g‘ri buxgalteriya provodkalarini aniqlang. Auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.

**Masala.** Qurilish korxonasi tomonidan ikki kamerali sovutkich 800 ming so‘mga sotildi. Uning xarid qiymati 620 ming so‘mni tashkil qiladi. Ushbu tovarda yashirin nuqsonlar borligi aniqlanganligi sababli xaridor bir haftadan keyin uni qaytarib berdi, o‘z navbatida, unga o‘zi to‘lagan to‘lov so‘mmasi qaytarildi. Korxonada tovarlar hisobi sotish narxi bo‘yicha yuritilgan. Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi operatsiyalar quyidagicha buxgalteriyada hisobga olingan:

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	So'mma, so'm	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
			Debet	Kredit	
1	Xaridorga sotilgan tovar uchun tushum olindi	600 000	6990	5010	Tovarni qabul qilish yuk-xati
2	Sotilgan tovar qiymati hisobdan chiqarildi	600 000	2920 9120	9120 2980	Tovarni qabul qilish yuk-xati, kassa chiqim orderi
3	Sotilgan tovar bo'yicha savdo ustamasi hisobdan chiqarildi	280 000	9020	9040	Buxgalteriya ma'lumotnomasi-hisob-kitobi
4	Xaridor tomonidan tovarni qaytarish aks ettirildi	600 000	9040	6990	Qo'shimcha hisobvaraq-faktura
5	Xaridorga pul so'mmasini qaytarish aks ettirildi	600 000	5010	9020	Buxgalteriya ma'lumotnomasi-hisob-kitobi
6	Tovarning sotish qiymati va qaytarilgan tovarga savdo ustamasi tiklandi	800 000 280 000	9120	2920	Buxgalteriya ma'lumotnomasi-hisob-kitobi
7	Yalpi tushumga tuzatishlar kiritildi	600 000	2980	9120	Buxgalteriya ma'lumotnomasi-hisob-kitobi

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida keltirilgan muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayorlang.

**Masala.** Korxona mol yetkazib beruvchidan 270000 so'mlik (QQS 45000) qurilish materiallari sotib oldi .shartnomada 45% oldindan tulov nazarda tutilgan kolgan so'mma 2 oyga kechiktiriladi. To'lov muddati kechikkani uchun kechiktirilgan so'mmaning 7% miqdorida haq to'lanadi.

**Debet** 4310-“Tovar yetkazib beruvchi va pudratchilarga TMB hisobidan berilgan bo'naklar” schoti -21500 so'm;

**Kredit** 5110-“Hisob-kitob schoti” schoti -21500 so'm;

**Debet** 1050-“Qurilish mollari” schoti-225000 so'm;

**Kredit** 6010-“Mol yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schotlar” schoti-225000 so'm;

**Debet** 4410-“Soliq bo'yicha bo'nak to'lovlar” schoti -45000 so'm;

**Kredit** 6010-“Mol yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schotlar” -schoti -45000 so'm;

**Debet** 6010-“Mol yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schotlar” -schoti -148500 so'm;

**Kredit** 5110-“Hisob-kitob schoti” schoti -148500 so'm;

**Debet** 9610-“Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar” schoti -10395 so'm;

**Kredit** 6920-“To'lanadigan foizlar” schoti -10395 so'm;

**Debet** 6920-“To‘lanadigan foizlar” schoti -10395 so‘m;

**Kredit** 5110-“Hisob-kitob schoti” schoti -10395 so‘m.

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim?
2. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?
3. Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida keltirilgan muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.

**Masala.** Курилиш корхонаси may oyida bo‘yoq sotib olish va sarflash bo‘yicha quyidagi operatsiyalar amalga oshirgan.

- 2-mayda 1 kg uchun 1200 so‘mdan 100 kg bo‘yoq olidi;
- 9-mayda 1 kg uchun 1170 so‘mdan 300 kg bo‘yoq olindi;
- 12-mayda ishlab chiqarishga 210 kg bo‘yoq sarflandi;
- 20-mayda 140 kg bo‘yoq sarflandi;
- 25-maydan 1 kg uchun 1230 so‘mdan 500 kg bo‘yoq olindi;
- Korxonada 1-may holatiga bo‘yoq zaxirasi bo‘Imagan. Korxona uziksiz hisob tizimidan fodalanadi;

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim?
2. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?
3. Bunday holatda auditorlar qanday yo‘l tutishlari lozim?

### **3-MAVZU. QURILISH TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITINING XUSUSIYATLARI**

#### **Mavzu bo'yicha savollar**

- 1.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari nimalardan iborat.
- 2.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining umumiyligi rejasi va ishchi dasturini tayyorlash tartibi.
- 3.Tugallangan qurilish-montaj ishlarini tannarxini aniqlashni audit qilish tartibi.
- 4.Tugallanmagan qurilishni baholash va hisobga olish audit.
- 5.Xo'jalik sub'ektlarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan qanday audit amallari mayjud.
- 6.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayoni auditining tartibi.
- 7.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.

#### **MAVZU BO'YICHA KEYSLAR**

**Masala.** Korxona materiallar qiymatini hisob bahosi bo'yicha aks ettiradi. Oktyabr oyiga boshidagi holatga ko'ra quyidagilar hisobda turgan;

- Ombordagi material qoldig'i -600000 so'm.
- 1610-“Materiallar qiymatidagi og‘ishlar” schotning kreditidagi saldo 80000 so'm.
- Oktabrdagi hisob bahosi bo'yicha 800000 so'mlik materiallar kirim qilindi. Mol yetkazib beruvchilar hisob-kitob hujjatlari ko‘ra materiallarni tannarxi 720000 (QQS 120000 so'm) tashkil qiladi. Oktabrdagi 1150000 so'mlik hisob bahosi bo'yicha material asosiy ishlab chiqarishga sarflandi.

**Debet** 1010-“Xomashyo va materiallar” schoti - 800000 so'm;

**Kredit** 1510-“Materiallarni tayyorlash va sotib olishning hisobvaraqlari” schoti - 800000 so'm;

**Debet** 4410-“Soliq bo'yicha bo'nak to'lovlar” schoti - 120000 so'm;

**Kredit** 6010-“Mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan schotlar” schoti -120000 so'm.

**Debet** 1510-“Materiallarni tayyorlash va sotib olishning hisobvaraqlari” schoti -200000 so'm;

**Kredit** 6010-“Materiallar qiymatidagi og‘ishlar” schoti -200000 so'm.

#### **Talab qilinadi:**

1. Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida keltirilgan muomalalar to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

3. Ushbu holatda auditor qanday audit foydalanishi lozim?

**Masala.** Auditorlik tekshiruvi jarayonida yagona soliq to‘lovi va QQS to‘lovchisi bo‘lgan korxona subyekt qurilishidan ortib qolgan qurilish materiallarini 1 050 ming so'mga sotganligi, shu jumladan bunda QQS 175 ming so'mni tashkil etganligi aniqlandi. Ushbu qurilish materiallarining haqiqatdagi tannarxi 600 ming so'mni tashkil qilgan. Xaridor tegishli to‘lovnii korxonamizning hisobraqamiga to‘liq hajmda o’tkazib bergen. O‘z navbatida korxona buxgalteri tomonidan 21-sonli BHMSga muvofiq, mazkur operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirilganligi aniqlandi:

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	So'mma, ming so'mda	Hisobvaraqlar Korrespondensiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
			Debet	Kredit	
1.	Materiallarni xarid qiluvchidan pul mablag'laring kelib tushishi aks ettirildi	1 050	5010	6010	Oldi-sotdi shartnomasi, bank ko'chirmasi, kassa kirim va chiqim orderlari
2.	Ilgari olingan bo'nak hisobga olindi	1 050	6010	4010	Shartnoma, bank ko'chirmasi va materiallar harakati bo'yicha oborot qaydnomasi
3.	Materiallarni sotish aks ettirildi	1 050	6410	9220	Yukxati, hisobvaraq-faktura, limit-zabor kartalari
4.	Hisoblab yozilgan QQS aks ettirildi	175	9220	4010	Kassa chiqim orderi, hisobvaraq-faktura
5.	Materiallarning sotib olish qiymati hisobdan chiqarildi	600	9320	1090	Oldi-sotdi shartnomasi, Yukxati, hisobvaraq-faktura

**Talab qilinadi:**

- Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim?
- Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida muomalalar buxgalteriya hujjatlari va schotlarida to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

**Masala.** Tekshirilayotgan қурилиш korxonasi 1000 kg moyli bo'yoq sotib olgan. Buxgalter tomonidan materiallar hisobi haqiqiy tannarx bo'yicha yuritilgan. Yetkazib beruvchining hisob-kitob hujjatlariغا muvofiq 1 kg bo'yoq narxi 3700 so'mni tashkil etgan, shu jumladan QQS - 617 so'm. Bo'yoq vositachi tashkilot orqali sotib olinib, uning xizmatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlar 120 000 so'mni, shu jumladan QQS 20 000 so'mni tashkil etgan.

Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida keltirgan operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettirilgan:

Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	So'mma, ming so'm	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
Moyli bo'yoq kirim qilindi (3700 x 1 000)	3 700	1010	6010	Shartnoma, hisob-kitob hisobvarag'idan bank ko'chirmasi
Vositachi tashkilotning xizmatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlar hisobga olindi	120	1010	6010, 6990	Shartnoma
O'tkazib beruvchiga bo'yoq qiymati va	3 820	6010, 6990	5110	Yukxat, hisobvaraq-faktura

vositachi tashkilotning				
xizmat haqi to'landi				

**Talab qilinadi:**

1. Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar buxgalteriya hujjatlari va schotlarida to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma’lumot tayyorlang.
2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim?
3. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?

## **4-MAVZU: “QISHLOQ XO’JALIGI KORXONALARI ASOSIY FAOLIYAT AUDITNING XUSUSIYATLARI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **Mavzu bo’yicha savollar**

1. Qishloq xo’jaligida audit manbayi sifatida qanday xujjatlardan foydalanish mumkin?
2. Qishloq xo’jaligida audit xususiyatlarini aytib bering?
3. Qishloq xo’jaligida ishlab chiqarish xarajatlari auditini qanday tashkil qilish mumkin?
4. Dexqonchilikda xarajatlarni qanday guruxlanadi?
5. Chorvachilikda xarajatlarni qanday guruxlanadi?
6. Qishloq xo’jaligida soliqlar va majburiy to’lovlarini to’lash uchun foydadan qanday foydalaniлади?
7. Qishloq xo’jaligida daromadlar, ularni moxiyati va turkumlanishini aytинг?

### **MAVZU BO’YICHA KEYSLAR**

**1- masala.** Auditorlik tekshiruvi jarayonida fermer xo’jaligi raisi A.Aliev javobgarligidagi yosh mollar o’stirilayotgan xo’jalikda qayta inventarizatsiya o’tkazilganda 2003 yilda to’g’ilgan 8 bosh buzoq kam chiqqanligi aniqlandi.O’tgan 2004 yilda tuzilgan yillik hisobot ma’lumotlariga ko’ra, 1 bosh buzoqnning o’rtacha tirik vazni 130 kg, semizligi o’rtacha bo’lgan. Bu yilda mollar 65 kun saqlangan. O’rtacha bir kunlik semirish 365 grammni tashkil qilgan. O’tgan yilda 1ts. tirik vaznning haqiqiy tannarxi 132000 so’m qilib rejalashtirilgan. Yirik shoxli yosh mollar uchun 1ts. tirik vaznning sotib olingan bahosi 150000 so’mni tashkil qilgan. Buxgalteriya hisobida buzoqlarni balans qiymatida yil boshidagi etishmovchilik sifatida qayd qilinganligi aniqlandi.

#### **Talab qilinadi:**

- 1.Fermer xo’jaligiga moddiy javobgar shaxs tomonidan etkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlang.
- 2.Amalga oshirilgan muomalalar qaysi buxgalteriya schyotlari va hujjatlarida aks ettirilishini tushuntirib bering.
- 3.Ushbu holatda auditor moddiy zararni aybdor shaxslardan qoplash bo’yicha qanday auditorlik amallarini bajarishi zarur.
- 4.Yuqoridagi holat bo’yicha auditorlik hisobot uchun ma’lumot tayyorlang.

**2-masala.** Qishloq xo’jaligi korxonasining 2014 yil 8 fevral kunida o’tkazilgan chorva mollari inventarizatsiyasi jarayonida quyidagilar aniqlandi:

Chorva mollarining aniq turlari va guruhlari	Bir bosh bahosi, so’m	Miqdori	
		Hisob ma’lumotlari bo’yicha	Haqiqatda
Qora mollar: a)joriy yilda tug’ilgan buzoqlar;	3500	196	193

b)o'tgan yilda tug'ilgan buzoqlar, shu jumladan qo'ylar:	6400	135	137
a)joriy yilda tug'ilgan urg'ochi qo'zilar;	1400	87	91
b)o'tgan yilda tug'ilgan urg'ochi qo'zilar.	2800	218	215

Auditorlik tekshiruvi jarayonida quyidagilar aniqlandi:

- 1.Mollarning qiymati reja bahosida ko'rsatilgan;
- 2.Joriy yilda tug'ilgan bir bosh buzoqning o'rtacha tirik vazni 205 kg.ni va o'tgan yilda tug'ilganlari esa 80 kg.ni tashkil qilgan;
- 3.Joriy yilda tug'ilgan qo'yrlarning o'rtacha tirik vazni 4,5 kg.ni va o'tgan yilda tug'ilganlari esa 34 kg.ni tashkil qilgan;
- 4.Mollarga moddiy javobgarlar sifatida E.Karimov va qo'zilarga esa B.Ismatov belgilangan;
- 5.Hayvonlar saqlanadigan bino iflos va talabga javob bermaydigan holatda ekanligi aniqlandi.

#### **Talab qilinadi:**

- 1.Mollarni sanoq qilish yakunlarini chiqaring.
- 2.Yuqoridagi holat yuzasidan auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.
- 3.Mollarni hisobdan chiqarish jarayoning to'g'riliqi va qonuniyligini tekshiring.

**3-masala.** Quyidagi 1-5 jadvallardagi ma'lumotlarga asoslanib qishloq xo'jaligi korxonasida mahsulot etishtirish jarayoni bo'yicha amalga oshirilgan muomalalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazing.

Kartoshka etishtirish jarayonini tekshirish natijalari:

1. Buxgalteriya uchetni ma'lumotlariga ko'ra №10 "Materiallar" schetida 540 tonna urug'lik kartoshka sentyabr oyida saqlashda uchun ombor mudiri O.Rahimov javobgarligiga berilgan. Aprel oyida kartoshkani urug'likka ajratish natijasida tabiiy yo'qolishiga 53 tonna chiqarilgan;
2. 10 dekabrdagi 174 sonli yuk qog'oziga binoan oshxonaga 6 t. va 12 martda 93-tonli yuk qog'oziga binoan 17 t. mollarga berish uchun kartoshka chiqarilgan;
3. Kartoshkani saqlashda tabiiy yo'qotish normalari: oktyabr – 1,3 %, noyabr – 0,8 %, dekabr va mart – 0,5 % dan, yanvar va fevralda – 0,3 % dan aprelda – 0,9 % va may oyida – 1,4 %. Kartoshkani kelishilgan bahosi – 4500 so'm.

#### **Talab qilinadi:**

- 1.Tabiiy yo'qotish normasini qo'llab, hisobdan chiqariladigan kartoshkaning miqdorini aniqlang;
- 2.Buxgalteriya xodimlari ishining qonuniyligini aniqlang;
- 3.Oxirgi natijani tabiiy yo'qolishni hisobga olgan holda chiqaring;
- 4.Yuqoridagi kartoshka etishtirish jarayoni auditni natijalari bo'yicha auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

1-jadval

**Ekin maydoni va hosildorlikni to'g'ri rejalarashtirilganini tekshirish**

Ekin turlari	Ekiladigan maydon		Hosildorlik ts.ga		
	Uch yillik o'rtacha ko'rsatkichlar	Joriy yil rejasি bo'yicha	Uch yillik o'rtacha ko'rsatkich	Rejalar	
				Ishlab chiqarish moliya rejasি bo'yicha	Istiqbolli reja bo'yicha
Paxta	1520	1420	35	34	35
Beda	170	180	150	145	150
Makkajo'xori don uchun	36	395	70	80	85
Sabzovot	150	140	130	135	140
Kartoshka	40	131	170	172	180
Jami	2226	2226			

## **5-MAVZU: “QISHLOQ XO’JALIK KORXONALARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **Mavzu bo’yicha nazorat savollari**

1. Qishloq xo’jaligida ishlab chiqarish xarajatlari auditini qanday tashkil qilish mumkin?
2. Dehqonchilikda xarajatlarning to’g’ri guruhanishini tekshirish tartibini tushintiring.
3. Chorvachilikda xarajatlarning to’g’ri guruhanishini tekshirish tartibini tushintiring.
4. Qishloq xo’jaligida soliqlar va majburiy to’lovlar auditni o’tkazish tartibi qanday?
5. Qishloq xo’jaligida daromadlar, ularning mohiyati va to’g’ri turkumlanganligini tekshirish tartibi qanday?
6. Qishloq xo’jaligida mehnatga haq to’lashning vaqtbay va ishbay shaklidan foydalanishni tekshirish tartibini tushuntiring.
7. Asosiy podani shakllantirish tartibi qanday aniqlanadi?
8. Qishloq xo’jaligida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni to’g’riligini tekshirish usullarini aniqlang.

### **MAVZU BO’YICHA KEYSALAR**

**Masala.** Qishloq xo’jaligi korxonasida quyida keltirilgan jadvallar ma’lumotlari va tovar-transport yuk hujjatlari auditorlik tekshiruvি jarayonida auditor tomonidan jo’natilgan va mavjud hujjatlar bo’yicha og’irliklarni tekshirib chiqilganda quyidagilar aniqlandi:

- Qishloq xo’jaligi korxonasida quyidagi unumsiz xarajatlarga yo’l qo’ylgan: vagonni vaqtida tushirib olmaganligi uchun 516 so’m, bank muassasiga ssudani to’lamaganligi uchun 9312 so’m, mahsulotlarni saqlashdagi kamchiliklarning natijasida 8315 so’m, xaridorlar va buyurtmachilarga 5314 so’m jarima to’langan;

- Qishloq xo’jaligi korxonasiga etkazilgan zararlarni o’z vaqtida to’lamaganligi uchun 9816 so’m jarima undirilgan, ammo shu davr me’yordagi 10 kun o’rniga 13 kun bo’lgan. Jarima (foiz) shartnomaga muvofiq har kuniga 0,5 % belgilangan, unda boshlangg’ich qiymat esa, 96848 so’nni tashkil qilgan. To’lov nizomiga rioya qilmaganligi uchun korxona 6312 so’m to’langan, undirilgan summa esa 5414 so’nni tashkil qilgan;

- Nafaqa, ishsizlar fondiga o’z vaqtida ajratmalar to’lanmaganligi uchun 3412 so’m jarima to’langan. Korxonaning hisobot davrida hisob-kitob schetida etarli mablag’ bo’lgan.

### **1-jadval**

#### **2016 yil ekinlardan yalpi mahsulotning o’sishiga ekin maydoni va hosildorlikning ta’sirini hisoblash**

Ekin turlari	Ekin maydoni (ga)		Hosildorlik (ts ga)		Yalpi hosil (ts)			Nima hisobiga ko’payishi yoki kamayishi bo’lgan	
	Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda	Reja	Haqi qatda	Rejadagi hosildorlik va haqiqatda agi may.	Jami	Shu jumla dan
								Hosildorlik bahosi	Maydon hisobid

								a
Paxta	142 0	1435	34	37,0				
Beda	180	175	145	142,0				
Sabzovot	140	154	135	131,0				
Kartoshka	131	120	172	174				
Jami	187 1	1875						

**2-jadval**

**Ekin o'stirishdagi ish jarayonlarining paxtaning yalpi hosil, hosildorligiga ta'siri**

	Texnologiya rejasi bo'yicha	Haqiqatda					
		Reja muddati bajarilishi		Muddatidan o'tib bajarilish		Bajarilmagan qismi	
Birinchi g'o'za qator orasiga ishlov berish	1435	951	40,1	239	36,0	24,5	36,3
Ikkinch g'o'za qator orasiga ishlov berish	1435	1050	42,1	100	40,0	285	15,4
Yagonalash	1435	815	39	150	35,7	470	34,3

**3-jadval**

**Dala ishlarini mexanizatsiyalash darajasini aniqlash**

Bajariladigan ishlar	O'lchov birligi	Rejada	Haqiqatda	Shu jumladan, mashinalar bilan	Mehanizatsiya darjasи
Yagonalash	ga	1435	1435	715	49,9
Paxta terilgan maydon, ga	ga	1435	1435	640	
Terilgan paxta	ts	48280	53195	19200	
Rejadagi terib olingga paxta	ts	4820	35300	19200	

**4-jadval**

**Chorvachilikda yalpi mahsulotni etishtirish, bosh soni va mahsuldorligini  
rejalashtirilishi va uning bajarilishi**

Mahsulot turlari	O'Ichov birligi	O'rtacha bosh soni (bosh)		Mahsulidorligi		Yalpi mahsulot	
		O'rtacha uch yilda	1994 yil rejasi	O'rtacha uch yilda	1994 yil rejasi	O'rtacha uch yilda	1994 yil rejasi
Sut	tsent.	560	600	24 ts	26 ts	13440	15600
Buzoq	bosh	560	600	95-100	90-100	480 bosh	540 bosh
Hisobot davridagi vazn o'sishi	tsent.	1050	1000	350	600	1320	2160
Tuxum	ming dona	6250	4000	80 dona	130 dona	500 ming dona	500 ming dona

**Talab qilinadi:**

1.Yuqoridagi muomalalar to'g'ri va qonuniy amalga oshirilganligini tekshirib, audit natijalari bo'yicha auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

**6-MAVZU: “SAVDO-TIJORAT KORXONALARIDA ASOSIY FAOLIYAT  
AUDITINING XUSUSIYATLARI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA  
MATERIALLARI  
REJA:**

**Mavzu bo'yicha nazorat savollari**

1. Savdo tashkilotlarida audit manbalari bo'lib qanday xujjatlar xisoblanadi?
2. Savdo tashkilotlarida hisob siyosatini tekshirish qanday bajariladi?
3. Savdo aylanmasini tekshirish usullarini aniqlang?
4. Chakana savdoda inventarizatsiya o'tkazish tartibi qanday?
5. Ulgurji savdoda inventarizatsiya o'tkazish tartibi qanday?
6. Tovarlar qoldig'ini me'yor qanday aniqlanadi?
7. Yalpi tushumni qanday aniqlanadi? Yalpi daromadnichi.
8. Savdo tashkilotlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni tekshirish manbasi qaysi xujjatlar hisoblanadi?
9. Savdo tashkilotlarida omborlarda va buxgalteriyada hisob yuritish tartibi qanday tashkil etiladi?
10. Moddiy javobgar shaxsni hisobotining to'g'ri yuritilishiga kim mas'ul hisoblanadi?

**MAVZU BO'YICHA KEYSALAR**

**1-Masala.** Savdo korxonasi 160,0 ming so'mlik bolalar assortimentidagi tovarlarni tekinga berdi. Tovarlarning xarid qilish qiymati - 160,0 ming so'm. Mazkur hol qanday soliq oqibatlariga olib keladi keltirgan operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	Hisobvaraqlar korrespondentsiyas i Debet Kredit	Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
Berilgan tovarlarning tannarxi hisobdan chiqarildi	160,0	9220	2810
Tovarlarni hadya shartnomasi bo'yicha berish aks ettirildi	160,0	2810	9130
Tovarlarni tekinga berishdan ko'rilgan zarar aks ettirildi	160,0	9430	2810

**Talab qilinadi:** Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida keltirilgan muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

**2-Masala.** "Coca-cola" firmasida 2006 yili 1 dekabrda 10 000\$ qiymatlari shartnomasi imzolandi "Pepsi" firmasi yaxna ichimliklar savdosini bilan Pepsi firmasi 10 dekabrda 10000\$ summani "Coca-cola" firmasiga to'lab bergan. Ammo soca-cola ichimliklari 2007 yilda

etkazib berilishi kelishilgan Coca-cola firmasi bosh buxgalteri 10000\$ summasini 9010 schyotiga kirim qilgan 2006 yilda firmaning soliqqa tortilguncha foydasi 300 000\$ coliq stavkasi 20% tashkil etadi.

**Talab qilinadi:** Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

**3-Masala.** Shakar ishlab chiqarish zavodidan temir yo'l orqali ulgurji savdo tashkilotiga 25 tonna shakar jo'natilgan. Yuk ortilgan vagon belgilangan stantsiyaga 21.12.da kelgan va yuklarni tushirishga berilgan. Shakarni qabul qilish paytida 23.12 kuni dalolatnomalar rasmiylashtirilib, komissiya tarkibiga ombor mudiri T.Nizomov va O.Egamovlar va buxgalter N.Qosimovlar kiritilgan. Dalolatnomada ko'rsatilishicha mol etkazib beruvchining hujjatiga muvofiq 25000 kg shakar, har bir kilogrammi 120 so'mdan umumiy summasi 3000000 so'mni tashkil qiladi. Shakarni tortib ko'rildganda 150 kg shakar summasi 18000 so'm kam kelganligi ko'rsatilgan. Qabul qilish dalolatnomasiga asosan 24850 kg shakar buxgalteriyada kirimga olingan. Kamomad summasi 2010 «dshlab chiqarish xarajatlari» schyotiga hisobdan chiqarilgan. Dalolatnomalar hech kim tomonidan tasdiqlanmagan. Shakarni tashish paytidagi tabiyi kamayish normasi 0,15% etib belgilangan.

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?
3. Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshiring va holatga baho bering.

**4-Masala.** Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona tomonidan ikki kamerali sovutkich 800 ming so'mga sotildi. Uning xarid qiymati 620 ming so'mni tashkil qiladi. Ushbu tovarda yashirin nuqsonlar borligi aniqlanganligi sababli xaridor bir haftadan keyin uni qaytarib berdi, o'z navbatida unga o'zi to'lagan to'lov summasi qaytarildi. Korxonada tovarlar hisobi sotish narxi bo'yicha yuritilgan. Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi operatsiyalar quyidagicha buxgalteriyada hisobga olingan:

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, so'm	Hisobvaraqlar korrespondentsiyasi Debet Kredit		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
1	Xaridorga sotilgan tovar uchun tushum olindi	600 000	6990	5010	Tovarni qabul qilish yuk-xati
2	Sotilgan tovar qiymati hisobdan chiqarildi	600 000	2920 9120	9120 2980	Tovarni qabul qilish yuk-xati, kassa chiqim orderi
3	Sotilgan tovar bo'yicha savdo ustamasi hisobdan chiqarildi	280 000	9020	9040	Buxgalteriya ma'lumotnomasi-hisob-kitobi
4	Xaridor tomonidan tovarni qaytarish aks ettirildi	600 000	9040	6990	Qo'shimcha hisobvaraql-faktura
5	Xaridorga pul summasini qaytarish	600 000	5010	9020	Buxgalteriya ma'lumotnomasi-

	aks ettirildi				hisob-kitobi
6	Tovarning sotish qiymati va qaytarilgan tovarga savdo ustamasi tiklandi	800 000 280 000	9120	2920	Buxgalteriya ma'lumotnomasi-hisob-kitobi
7	Yalpi tushumga tuzatishlar kiritildi	600 000	2980	9120	Buxgalteriya ma'lumotnomasi-hisob-kitobi

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

2. Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida keltirilgan muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik hisoboti uchun ma'lumot tayyorlang.

**5-Masala.** Kontrakt bo'yicha Polshaga 6120 dollarga uskunalar sotildi. Valyutaga sotilgan asosiy vositalar korxona buxgalteri tomonidan buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvlari orqali hisobga olingen:

**Debet** 9210-"Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingen foyda" schyoti -400000 so'm;

**Kredit** 0130-"Mashina va uskunalar" schyoti -400000 so'm.

**Debet** 0230-"Mashina va uskunalarning eskirishi" schyoti -392000 so'm,

**Kredit** 9210-"Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingen foyda" schyoti -392000 so'm,

**Debet** 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyoti - 979200 so'm,

**Kredit** 9210-"Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingen foyda" schyoti -979200 so'm,

**Debet** 4710-"Xodimlarning kreditga berilgan tovarlar bo'yicha qarzlar" schyoti -195840 so'm,

**Kredit** 6410-"Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" schyoti -195840 so'm, Xaridor to'lojni ikki marta amalga oshiradi.

1) 15.08. sanada 35000 doll. 868000 so'm. Shu sanada 1 doll.= 24,8 so'm.

2) 06.09. sanada 5000 doll. 126000 so'm. Shu sanada 1 doll. = 25,2 so'm. Uskuna jo'natish qabul-topshirish akti bo'yicha 10.09.da amalga oshirildi. Shu sanada doll. kursi 25,4 so'mni tashkil etgan.

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

3. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?

4. Bunday holatda auditorlar qanday yul tutishlari lozim?

**6-Masala.** Tekshirilayotgan korxona chakana savdo bilan shug'ullanadi. Korxona do'konlarining biri Paynet xizmatlarini ko'rsatgan. Unga maxsus hisobvaraq ochilib, avval-boshdan 1 500 000 so'm o'tkazilgan. Quyida ko'rsatilgan Paynet xizmatlari bo'yicha oylik yakuniy hisobotlar ilova qilingan.

**Tranzaktsiya bo'yicha agentning yakuniy hisoboti**

Provayder	Servis	Summa	Hisob-	Agentning	Tranzaktsiy
-----------	--------	-------	--------	-----------	-------------

			<b>varaqqa summa</b>	<b>vositachilik haqi</b>	<b>a-lar soni</b>
<i>UzMobile</i>	<i>Hisob-varaqni to'ldirish</i>	<i>3 000</i>	<i>2 820</i>	<i>120</i>	<i>1</i>
<i>Bilayn</i>	<i>Hisob-varaqni to'ldirish</i>	<i>344 400</i>	<i>323 990</i>	<i>13 522</i>	<i>114</i>
<i>UCell</i>	<i>Hisob-varaqni to'ldirish</i>	<i>514 905</i>	<i>484 549</i>	<i>20 058</i>	<i>218</i>
<i>Jami</i>		<i>862 305</i>	<i>811 359</i>	<i>33 700</i>	<i>333</i>

<b>Provayder</b>	<b>Naqd summa</b>	<b>Plastik kartalar- dan summa</b>	<b>Qayd etilgan naqd summa</b>	<b>Depozitda n olingen naqd summa</b>	<b>Haq</b>	<b>Tranzak- tsiyalar soni</b>
<i>UzMobile</i>	<i>3 000</i>	<i>0</i>	<i>2 820</i>	<i>2 880</i>	<i>120</i>	<i>1</i>
<i>Bilayn</i>	<i>344 400</i>	<i>0</i>	<i>323 990</i>	<i>330 878</i>	<i>13 522</i>	<i>114</i>
<i>Ucell</i>	<i>514 905</i>	<i>0</i>	<i>484 549</i>	<i>494 847</i>	<i>20 058</i>	<i>218</i>
<i>Jami</i>	<i>862 305</i>	<i>0</i>	<i>811 359</i>	<i>828 605</i>	<i>33 700</i>	<i>333</i>

Yuqorida keltirilgan muomalalar korxona buxgalteri tomonidan quyidagi tartibda hisobga olingan:

<b>Xo'jalik operatsiyasining mazmuni</b>	<b>Summa (so'm)</b>	<b>hisobvaraqlar</b>	
		<b>korrespondentsiyasi</b>	
		<b>Debet</b>	<b>kredit</b>
Bosh agent bilan shartnoma tuzish chog'ida kafillik	1 500 000	5530	5110
badali o'tkazilgan		4890	5530
Jismoniy shaxslardan naqd pul mablag'lari	862 305	5010	4890
(to'lovlar) qabul qilingan			
Naqd pul mablag'lari inkassatsiyalangan	862 305	5710 5531	5010 5710
Aholidan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha	33 700	5110	5531
ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingen haq summasi aks ettirilgan		4890	9030
Maxsus hisobvaraqdan pul mablag'lari bosh agentga kafillik badali sifatida o'tkazilgan	828 605	4890	5531

#### **Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?
3. Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshirib, auditorlik dalolatnomasini tuzing.

**7-MAVZU: “SAVDO-TIJORAT KORXONALARIDA MUOMALA  
XARAJATLARI VA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI” MAVZUSI BO’YICHA  
MA’RUZA MATERIALLARI**

**Mavzu bo’yicha nazorat savollari**

1. Savdo-tijorat korxonalarida audit manbalari bo’lib qaysi hujjatlar hisoblanadi?
2. Savdo-tijorat aylanmasini tekshirish usullarini aniqlang.
3. Chakana savdoda inventarizatsiya o’tkazish tartibi qanday?
4. Ulgurji savdoda inventarizatsiya o’tkazish tartibi qanday?
5. Tovarlar qoldig’ining me’yori qanday aniqlanadi?
6. Ulgurji savdoda Yalpi tushumni qanday aniqlanadi? Yalpi daromadinichi?
7. Savdo korxonalarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni tekshirish manbai bo’lib qaysi hujjatlar hisoblanadi?
8. Savdo korxonalarida omborlarda va buxgalteriyada hisob yuritish tartibi qanday tashkil etiladi?

**MAVZU BO’YICHA KEYSLAR**

**1-Masala.** Chakana savdo korxonasi 10 to’plamdagи oshxona servizini har bir to’plam uchun 750 ming so’m narx bo’yicha sotdi. Bir to’plam servizning xarid qiymati - 650 ming so’mni tashkil qilgan. Korxona buxgalteri tomonidan yuqorida keltirilgan muomalalar buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettirilgan:

T/r	Xo’jalik operatsiyalari-ning mazmuni	Summa, ming so’m	Hisobvaraqlar korrespondentsiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
			Debet	Kredit	
1.	Sotilgan servizlarning tannarxi hisobdan chiqarildi	6 500	9220	2820	Kassa kirim orderi, buxgalteriya hisob-kitobi
2.	Servizlarni sotishdan olingan daromad aks ettirildi	6 500	5110	9120	Kassa kirim orderi
3.	Sotilgan servizlar bo’yicha savdo ustamasi hisobdan chiqarildi	2 000	2880	9220	Buxgalteriya ma’lumotnomahisob-kitobi

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?
3. Bunday holatda auditorlar qanday ish tutishlari lozim?
4. Xato va kamchiliklar ro’yxati jadvalini tuzing.

**2-Masala.** Korxona import kontraktini imzoladi, unga asosan tovar kelib tushdi. U Markaziy bank kursi bo’yicha bojxona deklaratsiyasini to’ldirish sanasida kirim qilingan. Korxona tomonidan milliy bankning unga xizmat ko’rsatuvchi bo’limiga konvertatsiya

to'g'risida buyurtmanoma bergen, bank esa ijobiy qaror qabul qilgan. Mablag'lar birja kursi bo'yicha konvertatsiyalanganda, u Markaziy bank kursidan past ekanligi ma'lum bo'lgan. Birja kursi bilan Markaziy bank kursi o'ttasidagi ijobiy kurs farqi summasi korxonamizning daromadi hisoblanadimi? Korxona mazkur holatda qanday provodkalardan foydalanishimiz kerak, zero u etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarda aks ettirilmagan va mablag'lar konvertatsiya uchun berilganda hisobga olinmagan?

**3-Masala.** Xorijdagi savdo uyi muassisi bo'lgan korxona o'zi ishlab chiqargan mahsulotni konsignatsiya shartnomasiga ko'ra uning manziliga eksport qiladi. Bojxona deklaratasiysi eksport rejimida. Rasmiylashtiriladi. Korxona realizatsiyani qaysi sanada aks ettirishi kerak: BYuDni eksport rejimida rasmiylashtirish sanasidami yoki savdo uyi tomonidan realizatsiya qilingan sanadami (ya'ni savdo uyidan pul mablag'lari korxonaning O'zbekistondagi tranzit valyuta hisobraqamiga haqiqatda kelib tushgan sanadami)?

**4-Masala.** Korxona ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanib keladi. Biz o'tgan yili sug'urta kompaniyasi bilan 8 nafar xodimimizning hayotini uzoq muddatli sug'urtalash to'g'risida shartnoma tuzgandik. Shartnomaning amal qilish muddati 24 oydan iborat. Shartnomaga asosan korxona buxgalteriyasi sug'urta kompaniyasiga 820 ming so'm sug'urta mukofoti summasini o'tkazdi. Ana shu summadan soliq ushlanadimi va agar ushlansa, u buxgalteriyada qanday aks ettiriladi ?

**5-Masala.** Korxona ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanib keladi. Korxona o'tgan yili sug'urta kompaniyasi bilan 8 nafar xodimimizning hayotini uzoq muddatli sug'urtalash to'g'risida shartnoma tuzgan. Shartnomaning amal qilish muddati 24 oydan iborat. Shartnomaga asosan korxona buxgalteriyasi sug'urta kompaniyasiga 820 ming so'm sug'urta mukofoti summasini o'tkazdi. Ana shu summadan soliq ushlanadimi va agar ushlansa, u buxgalteriyada qanday aks ettiriladi?

## **8-MAVZU: “TRANSPORT TASHKILOTLARIDA ASOSIY FAOLIYAT AUDITINING XUSUSIYATLARI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **Mavzu bo’yicha nazorat savollari**

1. Transport tashkilotlarida auditning o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Yuk tashish ishlari qanday amalga oshiriladi ?
3. Transport tashkilotlarida asosiy vositalarning auditi kanday amalga oshiriladi?
4. Buyurtmachilar bilan xisob – kitoblarni audit kilishda kanday xujjatlarga asosiy e’tibor karatiladi?

### **MAVZU BO’YICHA KEYSALAR**

**1.Masala.** AJ “TOSHSAHARYO’LOVCHITRANS” korxonasida majburiy auditorlik tekshiruvi vaqtida, 2014 yil mart oyida, asosiy vositalar inventarizatsiyasi o’tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu mart oyida o’tkazilgan inventarizatsiya natijasi bilan 2014 yil 1 yanvar holatiga bo’lgan avtotransport vositalari mavjudligi haqida xulosa berib bo’ladimi?

**Talab qilinadi:**

1. Ushbu avtotransport vositalari auditida auditor yana qanday usullaridan foydalanishi lozim?
2. Auditor ushbu vaziyatni baholashda uchun qaysi me’yoriy hujjatlarga amal qilish lozim;

**2.Masala.** Xisobot yili yakunlangach ishlab chiqarish korxonasida auditor tomonidan avtotransport vositalari auditida quyidagi amallari bajarildi:

- 1) Transport vositalarini ro’yxatga olish hujjatlari tekshirildi;
- 2) Transport vositalarini kabul qilishdagi birlamchi hujjatlar va dalaltnomalar tekshirildi;
- 3) Transport vositalarining haqiqiy mavjudligi aniqlandi;
- 4) Transport vositalarini sotgan mol etkazib beruvchilardan og’zaki tasdiq olindi;

**Talab qilinadi:** Yuqorida bajarilgan auditorlik amallarining qaysi biri korxonaning avtotransport vositalariga egalik huquqini isbotlab beradi?

**3. Masala.** MChJ “MURAD BULDING” qurilish korxonasida muddatidan avval eskirishi oqibatida ikkita boshlang’ich qiymati 95 000 000 so’mdan bo’lgan “HOWO” yuk mashinalari hisobdan chiqarilgan. Yuk mashinalaridan birining amortizatsiya ajratmalari 88 000 000 so’mmi, ikkinchisini esa 92 000 000 so’mmi tashkil qilgan. Tugatish dalolatnomasida amortizatsiya to’liq hisoblanmaganaligining sababi ularni ta’mirlash uchun ehtiyyot qismlar yo’qligi deb ko’rsatilgan. Yuk mashinalarni hisobdan chiqarish uchun ishchilarga demontaj uchun 3 750 000 so’m ish haqi hisoblangan, 12 000 000 so’m metalalom hamda 9 500 000 so’mlik ehtiyyot qismlar korxona omboriga kirim qilingan. Korxona buxgalteri tomonidan yuk mashinani hisobdan chiqarishdan ko’rilgan moliyaviy natijani 10 650 000 so’m deb baholab, uni 9590 schyotiga aks ettirgang.

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan yuk mashinalarining hisobdan chiqarish opertsiyalari buxgalteriya hisobida moliyaviy natija to’g’ri hisoblanganligi va rasmiylashtirilganligini tekshirng;
2. Auditor “HOWO” yuk mashinalari hisobdan chiqarishda qaysi me’yoriy hujjatlar va axborot manbalarini o’rganishi lozim?

**4. Masala.** “TRANS SERVIS” MChJ avtokorxonasi yagona soliq to’lovchisi hisoblanadi va u QQS to’lovchilar toifasiga o’tmagan. Korxona “Atlantika” MChJ bosh pudratchi buyurtmachi korxonasi bilan 2014 yilning may oyida texnik soz, mashina va mexanizmlarni ajratish hamda xizmat ko’rsatish bo’yicha shartnoma imzolagan.

Shartnomaga asosan buyurtmachiga 2014 yil davomida 330 mln so’mlik mashina va mexanizmlarga xizmat ko’rsatilgan va ularga doir hisobvaraq-fakturalar rasmiylashtirilgan. Bundan tashqari, yil davomida yoqilg’i mahsuloti bilan uzlusiz ta’minlanish maqsadida buyurtmachi bizga 160 mln so’mlik avtomobil benzинini hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirgan holda shartnoma tuzmasdan etkazib bergan. Bu hisobvaraq-fakturalarda 6 mln so’mlik qo’shimcha xaratjatlar va 33 mln so’mlik QQS hisoblab yozilgan.

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan “TRANS SERVIS” MChJ avtokorxonasi muomalalarni amalga oshirilishiha etishmayotgan yoki qo’shimcha ravishda tuzilishi lozim bo’lgan hujjatni aniqlang?

2. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me’yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;

## **9-MAVZU: “TRANSPORT TASHKIOTLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITINING XUSUSIYATLARI” MAVZUSI BO’YICHA MA’RUZA MATERIALLARI**

### **MAVZU BO’YICHA KEYSLAR**

**1.Masala.** AJ “KIT INVESTTRANS” korxonasida auditorlik tekshiruvi jarayonida tasdiqlangan dalolatnomaga muvofiq eskirish natijasida 2 dona “KAMAZ” yuk avtomashinalari hisobdan chiqarilganligi aniqlanda. Ular bo'yicha amartizatsiya summasi 140 0000 000 so'mni tashkil etadi. Hisobdan chiqarish natijasida 30 000 000 so'mlik metallom kirimga olingan. Yuk avtomashinalarini demontaj qilish uchun ishchilarga 2 800 000 so'm ish haqi hisoblangan va 2010-«Asosiy ishlab chiqarish schyotiga» o'tkazilgan. Kirimga olingan metallom buxgalteriya hisobida 1090 - schyotning debeti va 9320-schyotning kreditiga yozuv qilingan. Har bir yuk avtomashinasining tugatish natijalari buxgalteriyada alohida hisobga olinmagan va tegishli analitik schyotlarda aks ettirilmagan. Dalolatnomada ko'rsatilishicha yuk avtomashinalarini muddatidan ilgari hisobdan chiqarilishiga asosiy sabab undan uzuksiz ravishda foydalanilganligi va yuqori namlik joyda ishlatalishi ekanligi ko'rsatilgan. Korxona buxgalteri tomonidan buxgalteriya hisobi registrlarida yuqoridagi muomalalar quyidagicha aks ettirilgan:

**Debet** 9210-“Asosiy vositalarning chiqib ketishi” schyoti;

**Kredit** 0160-“Transport vositalari” schyoti -180 000 000 so'm.

**Debet** 0260-“Mashina va uskunalarining eskirishi” schyoti;

**Kredit** 9210-“Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi” schyoti, - 140 000 000 so'm.

**Debet** 9430-“Boshqa operatsion xarajatlar” schyoti;

**Kredit** 9210-“Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi” schyoti, - 40 300 000 so'm.

**Debet** 1040-“Ehtiyyot qismlar” schyoti;

**Kredit** 9210-“Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi” schyoti, - 30 000 000 so'm.

**Debet** 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti;

**Kredit** 6710-“Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar” schyoti -2 800 000 so'm.

#### **Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Ushbu avtotransport auditida auditor qanday usullaridan foydalanishi lozim?
3. Korxona buxgalteri tomonidan yuqoridagi muomalalar to'g'ri hisobga olinganligini tekshiring va ushbu tekshiruv bo'yicha auditorlik dalolatnomasini tuzing;

**2.Masala.** MChJ «TexnoMASH» korxonasida transport vositalarni tanlov asosida inventarizatsiya qilishda dastlabki narxi 80 0000 0000 so'm, amortizatsiyasi 30 000 000 so'mlik “Sobalt” engil avtomashinasi etishmasligi aniqlandi.

Hisobot yilining dekabr oyida bu “Sobalt” engil avtomashinasi shartnomaga ko'ra uning narxi 156 000 000 so'm inventarizatsiya o'tkazish paytida auditorga shartnoma va qabul topshirish akti taqdim etilgan. Auditorlik tekshiruvi jarayonida korxona asosiy vositalaridan bir qismini sotib yuborganligi va bu muomalalar buxgalter tomonidan o'z vaqtida hisobga

olinmaganligi aniqlandi. Shuningdek, ushbu xo'jalik muomalalari hisobot yilining 31 dekabrigacha bo'lgan holati bo'yicha buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilmaganligi tekshiruv jarayonida ma'lum bo'ldi.

**Talab qilinadi:**

1. Auditor ushbu vaziyatni baholash uchun qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalanishi lozim;
2. Ushbu holatda auditor qanday audit usullaridan foydalanishi lozim?
3. Auditor sifatida "Sobalt" engil avtomashinasi muomalarini hisobga olinishini qayta tekshiring;

## FAN BO'YICHA MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

1. Boshqa tarmoqlarda auditning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Boshqa tarmoqlarda audit va umumiy auditorlik faoliyatining mohiyati.
3. Boshqa tarmoqlarda auditning maqsad va vazifalari.
4. Boshqa tarmoqlarda audit va buxgalteriya hisobi o'rtasida farqlar.
5. Boshqa tarmoqlarda audit va taftish, ularning o'xshashlik va farqli tomonlari mavjud.
6. «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari» fanining predmeti va ob'ekti.
7. Boshqa tarmoqlarda auditorlik tekshiruvining xususiyatlari.
8. Qishloq xo'jaligi korxonalarida auditning xususiyatlari
9. "Boshqa tarmoqlarda audit" fanining metodlari tavsifi.
10. 10."Boshqa tarmoqlarda audit" fanining "Moliyaviy hisob", "Boshqaruv hisobi", "Huquqshunoslik" fanlari bilan o'zaro bog'liqligi.
11. 11.Transport tashkilotlari auditining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
12. Transport tashkilotlarida audit o'tkazishning maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.
13. Transport tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralalar va asosiy vositalar auditining umumiy rejasi va ish dasturini tayyorlash xususiyatlari.
14. Transport tashkilotlari asosiy vosita va materiallarni turkumlash va ularni baholash.
15. Transport tashkilotlarida materiallar, butlovchi qismlar, konstruktsiyalar va boshqalarni audit qilishning xususiyatlari.
16. Transport tashkilotlarida tayyorlov-ombor xarajatlarini hisobga olish va taqsimlash jarayoni audit.
17. Transport tashkilotlari materiallarning omborda va buxgalteriyada hisobga olish holatini audit qilish tartibi.
18. Transport tashkilotlarida bajarilgan va buyurtmachilarga topshirilgan qurilish-montaj ishlari hisobining audit.
19. Transport tashkilotlarida asosiy vositalar hisobini tekshirish xususiyatlari.
20. Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar audit.
21. Transport tashkilotlarida audit o'tkazishning maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.
22. Transport tashkilotlarida audit o'tkazishning umumiy rejasi va ishchi dasturini tayyorlash xususiyatlari.
23. Transport tarmog'i faoliyati auditining o'ziga xos xususiyatlari.
24. Transport tashkilotlarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.
25. Transport tashkilotlarida asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralalar auditining xususiyatlari.
26. Transport tashkilotlarida ijara munosabatlari audit.
27. Transport tashkilotlarida majburiyatlar audit.
28. Transport tashkilotlarida kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar rezervidan foydalanishni tekshirish.
29. Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar audit.
30. Transport tashkilotlarida audit o'tkazishning maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.
31. Transport tashkilotlarida audit o'tkazishning umumiy rejasi va ishchi dasturini tuzish xususiyatlari.

32. Transport tashkilotlarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.
33. Transport tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralar audit xususiyatlari.
34. Transport tashkilotlarida kassa muomalalarini tekshirish xususiyatlari.
35. Transport tashkilotlarida ijara munosabatlari va soliq hamda boshqa to'lovlar auditining xususiyatlari.
36. Transport tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayonini audit qilish xususiyatlari.
37. Transport tashkilotlarida audit o'tkazishning maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.
38. Transport tashkilotlarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari.
39. Transport tashkilotlarida TMZ va asosiy vositalar auditining xususiyatlari.
40. Transport tashkilotlari lizing muomalalari auditining o'ziga xos xususiyatlari.
41. Transport tashkilotlarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi, yuk, bajarilgan ish va xizmatlarning tannarxini hisoblash audit.
42. Yuklar mamlakat ichida va mamlakat tashqarisida tashilganda surf
43. Transport tashkilotlarida qilinadigan xarajatlar va bu boradagi hisoblashishlarning auditi.
44. Transport tashkilotlarida moliyaviy natijalar auditi
45. "Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари" фанининг предмети, обьекти ва методи
46. "Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари" фанида кўлланиладиган усуллар
47. Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг хусусиятлари
48. Пудрагчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитини ўтказиш тартиби
49. Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг хусусиятлари
50. Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитини ўтказиш кетма-кетлиги ва унда кўлланиладиган амаллар
51. Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари
52. Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари
53. Кишлок хўжалиги корхоналарида аудит ўтказиш хусусиятлари
54. Кишлок хўжалиги корхоналарида аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари
55. Кишлок хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари ва молиявий натижалар аудити
56. Кишлок хўжалигида ишлаб чиқарилган маҳсулотларни қабул килиш, саралаш, сотишга тайёрлаш ва сотиш жараёнлари аудитининг хусусиятлари
57. Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг хусусиятлари
58. Савдо-тижорат корхоналарида ижара munosabatlari ва soliq ҳамда башқа тўловлар аудитининг хусусиятлари
59. Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудити
60. Савдо-тижорат корхоналарида молиявий хисоботларни тузиш ва тақдим этиш жараёнини аудит килиш хусусиятлари
61. Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг хусусиятлари

62. Транспорт ташкилотларида ишлаб чиқариш харажатларини ҳисоби, юк, бажарилган иш ва хизматларнинг таннархини ҳисоблаш аудити
63. Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари
64. Транспорт ташкилотлари фойда ва харажатларининг шаклланиши ҳамда бухгалтерияда ҳисобга олиш жараёнини текшириш тартиби
65. Omborlar, bazalar va buxgalteriyada tovarlarni hisobga olishning auditи

## **ФАН BO'YICHA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI**

**1-топширик.** **Quyidagi atamalarga izoh bering:** Boshqa tarmoqlarda audit, tadbirkorlik faoliyati, mustaqil nazorat, buxgalteriya hisoboti, xo'jalik yurituvchi sub'ekt, moliyaviy majburiyat va moliyaviy talablar, Boshqa tarmoqlarda auditorlik xizmati, buxgalteriya hisobotini tuzish bo'yicha tamoyillar, taftish, ixtiyoriy va majburiy Boshqa tarmoqlarda audit, tashqi Boshqa tarmoqlarda audit, ichki Boshqa tarmoqlarda audit, Boshqa tarmoqlarda auditorlik xizmatlari bozori, Boshqa tarmoqlarda auditning ob'ekti va sub'ekti, Boshqa tarmoqlarda auditning predmeti, Boshqa tarmoqlarda auditorlik tekshiruvining usullari, xo'jalik faoliyatining tahlili, inventarizatsiya, hujjatli tekshirish, tahliliy amallar, kuzatish, so'rovnama o'tkazish, kalkulyatsiya, baholash, taqqoslash, skanerlash, tanlash, xo'jalik shartnomalari.

**2-топширик.** **Quyidagi atamalarga izoh bering:** Pudrat shartnomasi, qo'rilish tashkiloti, audit, auditor, auditorlik tekshiruvi, auditorlik tashkiloti, aylanma mablag', bank, bankdagi hisob-kitob schyoti, buxgalteriya, buxgalter, bosh buxgalter, bo'nak jurnal-order, joriy hisob, joriy hisobot, inventarizatsiya, inventarizatsiya qaydnomasi, iste'molchi, kassa, kassa muomalasi, kassir hisoboti, kassa daftari, kassa cheki, kassa kirim orderi, kassa chiqim orderi, limit, limit-zabor karta, muomala xarajatlari, moliya-xo'jalik faoliyati, moddiy javobgar shaxs, moddiy javobgar shaxs hisoboti, omborxon, omor hisobi, omor varaqalar, ombordagi tovar qoldig'i, omor mudiri, pul, pul muomalasi, registrlar, reja, rekvizitlar, tovar-moddiy boyliklari, tovar-moddiy zaxirasi, tovar aylanmasi, tovarlar qoldig'ining me'yori.

**3-топширик.** **Quyidagi atamalarga izoh bering:** Audit, auditor, auditorlik tekshiruvi, auditorlik tashkiloti, aylanma mablag', bank, bankdagi hisob-kitob schyoti, buxgalteriya, bo'nak, bo'sh idishlar, bo'sh idishlar inventarizatsiyasi, do'kon, jurnal-order, joriy hisob, joriy hisobot, inventarizatsiya, inventarizatsiya qaydnomasi, iste'molchi, iste'mol tovarlari, kassa, kassa muomalasi, kassir hisoboti, kassa daftari, kassa cheki, kassa kirim orderi, kassa chiqim orderi, limit, limit-zabor karta, muomala xarajatlari, moliya-xo'jalik faoliyati, moddiy javobgar shaxs, moddiy javobgar shaxs hisoboti, nazorat-kassa mashinasi, omborxon, omor hisobi, omor varaqalar, ombordagi tovar qoldig'i, omor mudiri, pul, pul muomalasi, registrlar, reja, rekvizitlar, savdo, savdo tushumi, savdo aylanmasi, savdo shoxobchasi, savdo korxonai, tovar-moddiy boyliklari, tovar-moddiy zaxirasi, tovar aylanmasi, tovarlar qoldig'ining me'yori, tranzit, ulgurji savdo, chakana savdo.

## GLOSSARIY

<b>ATAMANING O'ZBEK TILIDA NOMLANISHI</b>	<b>ATAMANING INGLIZ TILIDA NOMLANISHI</b>	<b>ATAMANING RUS TILIDA NOMLANISHI</b>	<b>ATAMANING MA'NOSI</b>
Kompleks audit	Comprehensive audit	Комплексный аудит	Kompleks audit – xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy xo'jalik faoliyatini to'liq qamrab olgan auditorlik tekshiruvi
Tashqi audit	External audit	Внешний аудит	Tashqi audit bu - mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini belgilangan muddat va tartib asosida tekshirish jarayonidir
Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari	Republican public organization audit	Республиканский общественный организаций аудита	Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari auditorlarning ixtiyoriy asoslarda birlashtiradigan nodavlat notijorat tashkilotidir
Ichki audit	Internal audit	Внутренний аудит	Ichki audit bu - korxona boshqaruving ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga; ta'sis hujjatlariga va ichki hujjatlariga rioxqa qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo'li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishni to'liqliligi va ishonchlilagini ta'minlash, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarining saqlanishi hamda korporativ boshqarish tamoyillari joriy etilishi bo'yicha korxona tarkibiy bo'linmasining (ichki audit xizmati) faoliyatidir
Ichki audit xizmati	Internal Audit Service	Служба внутреннего аудита	Ichki audit xizmati - korxona kuzatuv kengashining qarori bilan tashkil etiladigan korxonaning ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo'linmasidir
Tashabbus tarzidagi audit	Initiative audit	Ициативный аудит	Tashabbus tarzidagi audit - xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlari tashabbusi bilan o'tkaziladigan auditdir. Ushbu audit xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zlari, investorlar, ta'sischilar, aktsionerlar, huquqni himoya qilish va boshqa nazorat organlari - prokuratura, sud, ichki ishlar organlari, soliq qonunchiliginiz buzilishiga qarshi kurashish deportamentlari buyurtmalari asosida

			o'tkaziladi
Tematicik audit	Thematic audit	Тематик аудит	Tematicik audit – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga tegishli bo'lgan u yoki bu jarayonlar va operatsiyalarni, hisobot ko'rsatkichlari yoki moddalarini, ayrim olingan bo'limlar faoliyati, hujjatlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdir
Auditorlik faoliyati	Audit activity	Аудиторская деятельность	Auditorlik faoliyati bu - auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tadbirdorlik faoliyatidir
Auditorning malaka sertifikati	Auditor Qualification Certificate	Квалификационный сертификат аудитора	Auditorning malaka sertifikati - auditorning malakasini tasdiqlovchi va auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xizmatlari ko'rsatish huquqini beruvchi hujjat
Auditor	Auditor	Аудитор	Auditor - auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir
Auditorning yordamchisi	Assistant auditor	Помощник аудитора	Auditorning yordamchisi auditor malaka sertifikatiga ega bo'lмаган va auditorlik hisobotida, auditorlik xulosasida auditorning ekspert xulosasida hamda auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan boshqa rasmiy hujjatda imzo chekish huquqiga ega bo'lмаган tarzda auditorning topshirig'iغا binoan auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan jismoniy shaxsdir
Majburiy auditorlik tekshiruvi	Mandatory audit	Обязательный аудит	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amaldagi qonun hujjatlarda belgilangan qat'iy muddat va tartib asosida maxsus malaka sertifikati va litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv tushuniladi
Auditorlik tekshiruvi o'tkazishdagi cheklovlar	Restrictions on conducting audit	Ограничения по проведению аудита	Auditorlik tekshiruvini tashkil etish, o'tkazish va yakunlash bosqichlaridagi cheklovlar yoki taqiqlar
Me'yoriy-huquqiy asos	Regulatory framework	Нормативно-правовые основы	Auditorlik faoliyatini tashkil etish, o'tkazish va yakunlash bosqichlari aks ettirilgan va respublikaning barcha hududlarida amal qiluvchi davlat tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmui
Audit tamoyillari	audit principles	принципы аудита	Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar, yondashuvlar va uslublar majmui
Auditorning malaka sertifikati	Auditor Qualification Certificate	Квалификационный сертификат аудитора	Auditorning malaka sertifikati - auditorning malakasini tasdiqlovchi va auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xizmatlari ko'rsatish huquqini beruvchi hujjat
Auditorlik	Auditing	Аудиторские	Auditorlik faoliyati standartlari auditorlik

faoliyati standartlari	standards	стандарты	tekshiruvini o'tkazish, professional xizmatlar ko'rsatish va auditorlar ishining sifatini nazorat qilish tizimini tashkil etish tartibini belgilovchi va mazkur faoliyatni amalga oshirish bo'yicha yagona talablar aks ettirilgan me'yoriy hujjatlar
Auditning xalqaro standartlari	International audit standards	Международные стандарты аудита	Xalqaro amaliyotda auditorlik tekshiruvini o'tkazish, professional xizmatlar ko'rsatish va audit ish sifatini nazorat qilish tartibini belgilovchi va xalqaro amaliyotda mazkur faoliyatni amalga oshirish bo'yicha yagona talablar aks ettirilgan me'yoriy hujjatlar
Auditor yoki auditorlik tashkilotining huquqlari	Auditor or audit rights	Аудитор или аудиторская права	Auditor yoki auditorlik tashkilotining auditorlik faoliyatini amalga oshirishda tekshirilayotgan sub'ekt yoki boshqa sub'ektlardan talab qilishi mumkin bo'lган jihatlari
Auditor yoki auditorlik tashkilotining majburiyatları	Auditors and audit obligation	Аудитор или аудиторская обязательство	Auditorlik tekshiruvi jarayonida tekshirilayotgan sub'ekt yoki boshqa sub'ektlarni auditor va auditorlik tashkilotlari talab qilishi mumkin bo'lган jihatlari
Auditorlik tekshiruvi	Auditing	Аудиторская проверка	Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riliqi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotini auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.
Auditor yoki auditorlik tashkilotining javobgarligi	The responsibility of the auditor or audit	Ответственность аудитора или аудиторской организации	Auditor yoki auditorlik tashkilotining auditorlik tekshiruvi buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi sub'ekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida moliyaviy hisobot hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risida noto'g'ri yakundan iborat bo'lган auditorlik xulosasini tuzish oqibatida yuzaga keladigan javobgarlik munosabatlari
bozor	market	рынок	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan joylarda va belgilangan qoidalar bo'yicha savdo faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, belgilangan tartibda ana shunday maqom olgan doimiy yoki vaqtinchalik asosda faoliyat ko'rsatadigan mulkiy kompleks
ulgurji savdo	wholesale	оптовая торговля	tijorat maqsadlarida yoki o'z ishlab

			chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanish uchun hisob-kitoblarning naqdinasiz shaklida xarid qilinadigan tovarlarni sotish;
chakana savdo	retail	розничная торговля	savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lмаган miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish;
turg'un chakana savdo shoxobchasi	stationary retail outlet	стационарная розничная торговая точка	joylardagi davlat hokimiyati organlari qarori bilan ajratilgan er uchastkalaridagi O'zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo'mitasi organlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihamet hujjatlari bo'yicha qurilgan, sanitariya va yong'in xavfsizligi normalari va talablariga javob beradigan, savdo zaliga, savdo asbob-anjomlariga hamda tovarlarni saqlash, sortlarga ajratish va qadoqlash uchun xonalarga ega bo'lgan, shuningdek nazoratkassa mashinalari bilan jihozlangan ob'ekt (bino, inshoot).
dehqon (oziq-ovqat) bozori	dehkan (food) market	дехканский (продовольственный) рынок	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan joylarda doimiy yoki vaqtinchalik asosda faoliyat ko'rsatadigan hamda savdo rastalari, savdo o'rnlari va turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari)dan foydalangan holda keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishslashdan olinadigan mahsulotlarning chakana savdosiga uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga mo'ljallangan mulkiy kompleks;
chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori	the market for the sale of livestock, poultry and other animals	рынок по продаже скота, птицы и других животных	yuridik shaxsnинг alohida bo'linmasi hisoblanadigan, dehqon (oziq-ovqat) bozorining chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotiladigan filiali;
ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori	the market for the sale of used assets	рынок по продаже бывшего в употреблении имущества	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan ixtisoslashuvi majburiy tartibda ko'rsatilgan holda belgilanadigan muayyan kunlar va joylarda ilgari foydalanishda bo'lgan nooziq-ovqat tovarlari va mol-mulkning chakana savdosiga amalga oshiriladigan bozor;

dam olish kuni yarmarkasi	fair	ярмарка выходного дня	mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bevosita qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan sotish uchun muayyan vaqtga (odatda dam olish kunlariga) shart-sharoitlar yaratish uchun maxsus ajratilgan hudud.
Uzoq muddatli majdburiyatlar	long term duties	Долгосрочные обязательства	Uzoq muddatli majdburiyatlar – uzoq muddatli majdburiyatlar korxonaning bir yildan ortiq (12 oydan ko'p bo'lgan) bo'lgan muddatda to'lanishi lozim bo'lgan qarzidir. Uzoq muddatli majdburiyatlar o'z ichiga obligatsiyalar va ipoteka qarzlarini oladi. Uzoq muddatli majdburiyatlarning murakkabroq turi ta'minlangan ipoteka obligatsiyasi, qaytarib sotib olish huquqi, moliyaviy fyucherslar, derivativlar, opcion va rejalashtirilmagan boshqa moliyaviy instrumentlardir.
Majburiyatlar shakllanishi	Occurrence	Возникновение.	Korxonada uzoq muddatli majburiyatlarning korxonadagi mas'ul shaxs tmonidan amalga oshirilishi kerak.
Majburiyatlarni maxsus ijozatga ega ekanligi	Permission	Разрешение	Har qanday katta summadagi majburiyatlar direktorlar kengashi yoki shu kabi vazifalarga mas'ul bo'lgan rahbarning yozma tasdig'i bilan amalga oshirilishi
To'liqlik.	Completeness.	Полнота.	Uzoq muddatli majburiyatlar, ularni to'lash, foizlarini hisoblash va to'lash bilan bog'liq operatsiyalar buxgalteriya yozuvlarida o'z vaqtida va to'liq berilayotganligi
Baholash.	Evaluation	Оценка	Majburiyatlarning baholanishi - Majburiyatlarning buxgalteriya yozuvlarida nominal qiymat bo'yicha va har qanday mukofot va diskontlarni chegirib va qo'shib yuritilishi
Tasniflanishi.	Classification.	Классификация.	Majburiyatlarning tasniflanishi - majburiyatlarning moliyaviy hisobotlarda to'g'ri yuritilishi. uzoq muddatli majburiyatlarning kelgusi yil to'lanishi lozim bo'lgan qismi qisqa muddatli majburiyat sifatida aks ettirilishi
Forvard	forward	Форвард	Bank va mijoz o'rtaida kelagusida belgilangan sanada belgilangan xorijiy valyuta 6 summasini sotish yoki sotib olish bo'yicha ijro etish majburiy bo'lgan bitimdir.
Ipoteka	mortgage	ипотека	Ipoteka - (yunon.hypotheke-garov)- qarz, kredit olish uchun biror-bir muayyan ko'chmas mulkni (er, imorat va hokazo)

			<b>garovga qo'yish.</b>
Fyuchers operatsiyalari	futures operations	фьючерсные операции	Birjalarda amalga oshiriladigan savdo-sotiq operatsiyalari. Bu operatsiyalar shartnoma tuzilganidan so'ng ishlab chiqariladigan yoki etishtirib beriladigan mahsulotlar bo'yicha amalga oshiriladi. Odatta, ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng buyurtmachi bajaruvchiga avans tariqasida ma'lum summani o'tkazib beradi.
Fond birjasi	Stock Exchange	фондовая биржа	Fond birjasi - qimmatbaho qog'ozlari bilan savdo-sotiq qilish maqsadida tuzilgan, doimo faoliyat ko'satib turuvchi birja. F.B. ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat : vaqtincha bo'sh mablag'larga qimmatbaho qog'ozlar sotib olib, ularni muomalaga kiritish, qimmatbaho qog'ozlarning bozor narxini aniqlash; turli tarmoqlar, korxonalar o'rtafigi kapitalning aylanishini ta'minlash va boshqalar.
Nazorat amallari	Control activities	Контрольные действия	Nazorat amallari - korxona xodimlari tomonidan bajariladigan maxsus tekshiruvlar.
Nazorat muhiti	Control environment	Контроль окружающей обстановки	nazorat muhiti - korxonada ichki nazorat uchun qulay bo'lgan o'zaro xizmat munosabatlарини aniqlaydigan belgilari yig'indisidir;
Riskni baholash	Risk assessment	Оценка риска	Riskni baholash — Tadbirkorlik sub'ekti va uning faoliyati muhitini, jumladan, ichki nazoratini tushunish, firibgarlik yoki xato sababli muhim buzib ko'satish riskini moliyaviy hisobot va taqdimnomalar darajalarida aniqlash va baholash uchun bajariladigan audit tartib-taomillardir.
Auditorlik riski	Audit risk	Аудиторский риск	Auditorlik riski – bu auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlar tomonidan sub'ektiv aniqla-nadigan, moliyaviy hisobotda, uning ishonchliligi tasdiqlanganidan so'ng xatolar mavjudligini tan olish yoki moliyaviy hisobotda bunday kamchiliklar haqiqatan ham yo'q bo'lgan-da, unda kamchiliklar mavjud deb tan olinish ehtimolidir.
Nazorat riski	Control risk	Контрольный риск	Nazorat riski – bu korxonaning mavjud va muntazam qo'llanilib kelinayotgan buxgalterlik hisobi tizimi va ichki nazorat tizimi vositalari alohida-alohida yoki birgalikda jiddiy ahamiyat-ga ega bo'lgan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlay olmaslik

			va tuzata olmaslik (yoki bunday kamchiliklar vujudga kelishining oldini olish) ehtimolining auditor tomonidan sub'ektiv tarzda aniqlangan ko'rsatkichdir.
bozor	market	Рынок	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan joylarda va belgilangan qoidalar bo'yicha savdo faoliyatini amalgalash uchun mo'ljallangan, belgilangan tartibda ana shunday maqom olgan doimiy yoki vaqtinchalik asosda faoliyat ko'rsatadigan mulkiy kompleks
ulgurji savdo	wholesale	Оптовая торговля	tijorat maqsadlarida yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanish uchun hisob-kitoblarning naqdinasiz shaklida xarid qilinadigan tovarlarni sotish;
chakana savdo	retail	розничная торговля	savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalgalash uchun
turg'un chakana savdo shoxobchasi	stationary retail outlet	стационарная розничная торговая точка	joylardagi davlat hokimiyati organlari qarori bilan ajratilgan er uchastkalaridagi O'zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo'mitasi organlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha qurilgan, sanitariya va yong'in xavfsizligi normalari va talablariga javob beradigan, savdo zaliga, savdo asbob-anjomlariga hamda tovarlarni saqlash, sortlarga ajratish va qadoqlash uchun xonalarga ega bo'lgan, shuningdek nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan ob'ekt (bino, inshoot).
dehqon (oziq-ovqat) bozori	dehkan (food) market	дехканский (продовольственный) рынок	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan joylarda doimiy yoki vaqtinchalik asosda faoliyat ko'rsatadigan hamda savdo rastalari, savdo o'rnlari va turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari)dan foydalangan holda keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning chakana savdosiga uchun zarur shart-sharoitlar

			yaratishga mo'ljallangan mulkiy kompleks;
chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori	the market for the sale of livestock, poultry and other animals	рынок по продаже скота, птицы и других животных	yuridik shaxsnинг alohida bo'linmasi hisoblanadigan, dehqon (oziq-ovqat) bozorining chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotiladigan filiali;
ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori	the market for the sale of used assets	рынок по продаже бывшего в употреблении имущества	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan ixtisoslashuvi majburiy tartibda ko'rsatilgan holda belgilanadigan muayyan kunlar va joylarda ilgari foydalanishda bo'lgan nooziq-ovqat tovarlari va mol-mulkning chakana savdosi amalga oshiriladigan bozor;
dam olish kuni yarmarkasi	fair	ярмарка выходного дня	mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bevosita qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan sotish uchun muayyan vaqtga (odatda dam olish kunlariga) shart-sharoitlar yaratish uchun maxsus ajratilgan hudud.
Kompleks audit	Comprehensive audit	Основные средства	Kompleks audit – xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy xo'jalik faoliyatini to'liq qamrab olgan auditorlik tekshiruvi
Tashqi audit	External audit	Нематериальные активы	Tashqi audit bu - mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini belgilangan muddat va tartib asosida tekshirish jarayonidir
Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari	Republican public organization audit	Патент	Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari auditorlarning ixtiyoriy asoslarda birlashtiradigan nodavlat notijorat tashkilotidir
Ichki audit	Internal audit	Торговые марки	Ichki audit bu - korxona boshqaruvining ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga; ta'sis hujjatlariga va ichki hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo'lli bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishni to'liqliligi va ishonchliligini ta'minlash, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarining saqlanishi hamda korporativ boshqarish tamoyillari joriy etilishi bo'yicha korxona tarkibiy bo'linmasining (ichki audit xizmati)

			faoliyatidir
Ichki audit xizmati	Internal Audit Service	Торговые марки	Ichki audit xizmati - korxona kuzatuv kengashining qarori bilan tashkil etiladigan korxonaning ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo'linmasidir
Tashabbus tarzidagi audit	Initiative audit	Лицензия на товарный знак	Tashabbus tarzidagi audit - xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlari tashabbusi bilan o'tkaziladigan auditdir. Ushbu audit xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zлari, investorlar, ta'sischilar, aktsionerlar, huquqni himoya qilish va boshqa nazorat organlari - prokuratura, sud, ichki ishlar organlari, soliq qonunchiligini buzilishiga qarshi kurashish deportamentlari buyurtmalari asosida o'tkaziladi
Tematicik audit	Thematic audit	Гудвиил	Tematicik audit - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga tegishli bo'lgan u yoki bu jarayonlar va operatsiyalarini, hisobot ko'rsatkichlari yoki moddalarini, ayrim olingan bo'limlar faoliyati, hujjatlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdir
Auditorlik faoliyati	Audit activity	Франшизы	Auditorlik faoliyati bu - auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tadbirdorlik faoliyatidir
Auditoring malaka sertifikati	Auditor Qualification Certificate	авторские права	Auditoring malaka sertifikati - auditoring malakasini tasdiqlovchi va auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xizmatlari ko'rsatish huquqini beruvchi hujjat
Auditor	Auditor	Промышленные права	Auditor - auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir
Auditoring yordamchisi	Assistant auditor	Комплексный аудит	Auditoring yordamchisi auditor malaka sertifikatiga ega bo'lman va auditorlik hisobotida, auditorlik xulosasida auditoring ekspert xulosasida hamda auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan boshqa rasmiy hujjatda imzo chekish huquqiga ega bo'lman tarzda auditoring topshirig'iga binoan auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan jismoniy shaxsdir
Majburiy auditorlik tekshiruvi	Mandatory audit	Ициативный аудит	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan qat'iy muddat va tartib asosida maxsus malaka sertifikati va litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv tushuniladi
Auditorlik tekshiruvi	Restrictions on conducting audit	Тематик аудит	Auditorlik tekshiruvini tashkil etish, o'tkazish va yakunlash bosqichlaridagi

o'tkazishdagi cheklovlar			cheklovlardan yoki taqiqalar
Me'yoriy-huquqiy asos	Regulatory framework	Аудиторская деятельность	Auditorlik faoliyatini tashkil etish, o'tkazish va yakunlash bosqichlari aks ettirilgan va respublikaning barcha hududlarida amal qiluvchi davlat tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmui
Audit tamoyillari	Audit principles	Квалификационный сертификат аудитора	Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar, yondashuvlar va uslublar majmui
Auditorning malaka sertifikati	Auditor Qualification Certificate	Аудитор	Auditorning malaka sertifikati - auditorning malakasini tasdiqlovchi va auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xizmatlari ko'rsatish huquqini beruvchi hujjat
Auditorlik faoliyati standartlari	Auditing standards	Помощник аудитора	Auditorlik faoliyati standartlari auditorlik tekshiruvini o'tkazish, professional xizmatlar ko'rsatish va auditorlar ishining sifatini nazorat qilish tizimini tashkil etish tartibini belgilovchi va mazkur faoliyatni amalga oshirish bo'yicha yagona talablar aks ettirilgan me'yoriy hujjatlar
Auditning xalqaro standartlari	International audit standards	аудиторской организации	Xalqaro amaliyotda auditorlik tekshiruvini o'tkazish, professional xizmatlar ko'rsatish va audit ish sifatini nazorat qilish tartibini belgilovchi va xalqaro amaliyotda mazkur faoliyatni amalga oshirish bo'yicha yagona talablar aks ettirilgan me'yoriy hujjatlar
Auditor yoki auditorlik tashkilotining huquqlari	Auditor or audit rights	Аудиторская проверка	Auditor yoki auditorlik tashkilotining auditorlik faoliyatini amalga oshirishda tekshirilayotgan sub'ekt yoki boshqa sub'ektlardan talab qilishi mumkin bo'lgan jihatlari
Auditor yoki auditorlik tashkilotining majburiyatları	Auditors and audit obligation	Обязательный аудит	Auditorlik tekshiruvi jarayonida tekshirilayotgan sub'ekt yoki boshqa sub'ektlarni auditor va auditorlik tashkilotlari talab qilishi mumkin bo'lgan jihatlari
Auditorlik tekshiruvi	Auditing	Ограничения по проведению аудита	Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riliqi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotini auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.

**ИЛОВАЛАР**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олиниди  
№BD-5230900-4.08  
2014йил "10" июнод



Олий ва ўрта маҳсус таълим  
вазирлигининг 2014йил "15"  
даги "420"-сонли  
бўйрги билан тасдикланган

БОШҚА ТАРМОҚЛАРДА АУДИТНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ  
ФАНИНИНГ  
ЎҚУВ ДАСТУРИ

- Билим соҳаси: 200 000 - Ижтимоий соҳа, иктисол ва хукук.  
Таълим соҳаси: 230 000 - Иктисол.  
Таълим йўналиши: 5230900 - Бухгалтерия хисоби ва аудит (реал сектор бўйича).

Тошкент – 2014

Фаннинг ўқув дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўкув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиклаштирувчи Кенгашининг 2014 йил 10 ноябрдаги 15-сонли баённомаси билан маъкулланган.

Фаннинг ўқув дастури Тошкент молия институтида ишлаб чиқилди.

**Тузувчилар:**

Кўзиев И.Н. - ТМИ, “Аудит” кафедраси мудири, и.ф.н., доцент;  
Мелиев И.И. - ТМИ, “Аудит” кафедраси катта ўқитувчиси.

**Тақризчилар:**

Ходжаева М.Х. - ТДИУ, “Иқтисодий таҳлил ва аудит” кафедраси доценти,  
и.ф.н. (*turdoasi OTM*);  
Машарипов О.А. - “Аудит-рейтинг” МЧЖ ижроия органи раиси (*кадрлар  
буюртмачиси*).

Фаннинг ўқув дастури Тошкент молия институти Кенгashiда кўриб чиқилган ва тавсия қилинган (2014 йил 22 август 1-сонли баённома).

## **КИРИШ**

Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган ислоҳотлар саноат ишлаб чиқариши билан бир қаторда иқтисодиётимизнинг туб негизини ташкил этувчи соҳаларда ҳам ўз самарасини бермоқда. Хусусан, қишлоқ хўжалиги, курилиш, савдо ва транспорт тармоқларида бошқарув ва назоратни самарали ташкил этиш ҳамда улардан олинаётган маълумотларнинг ишончлилигини таъминлашда аудитнинг роли бекиёсdir.

“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанида иқтисодиётимизнинг турли жабхаларидаги, жумладан қишлоқ хўжалиги, курилиш, савдо, транспорт соҳаларида аудитни ташкил қилиш ҳамда уни юритишнинг ўзига хос хусусиятлари ўрганилади. Шу боисдан турли тармоқларда аудитнинг хусусиятларини ўрганиш ўкув дастурининг ажралмас қисми бўлиб қолади.

### **Фаннинг мақсад ва вазифалари**

Ушбу фаннинг мақсади – қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва транспорт тармоқларида аудиторлик текширувларини ташкил этиш тажрибалари хусусида билим, кўникма ва малака шакллантиришdir.

Фаннинг вазифаси – талабаларга қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва транспорт тармоқларида аудиторлик текширувларини ташкил қилиш, ўтказиш ва аудит натижаларини умумлаштириш масалаларини ўргатишдан иборатdir.

### **Фан бўйича талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларига кўйиладиган талаблар**

“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанини ўзлаштириш жараёнида бакалавр:

- қишлоқ хўжалигига аудиторлик текшируви хусусиятлари;
- қурилиш тармоғига аудиторлик текширувини ўтказиш;
- савдо корхоналарида аудиторлик текширувларини ташкил қилиш;
- транспорт тармоғига аудиторлик текширувларини натижаларини умумлаштириш **ҳақида тасаввурга эга бўлиши;**
- миллий аудиторлик стандартлари асосида қишлоқ хўжалигига аудиторлик текширувини ўтказиш усулларини;
- қурилиш тармоғига аудиторлик текшируви режаси ва дастурини тузишни;
- савдо корхоналарида аудиторлик хulosаси ва хисоботини расмийлаштиришни **билиши ва улардан фойдалана олиши;**
- қишлоқ хўжалиги фаолиятини таҳлил қилиш;
- қурилиш тармоғига аудиторлик текширувларини ташкил қилиш;
- савдо корхоналари аудиторлик текширувларида далиллар тўплаш ва аудиторлик хисоботини тузиш **кўникмаларига эга бўлиши керак.**

### **Фаннинг ўкув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан узвийлиги**

“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фани асосий фан хисобланади. Дастурни амалга ошириш учун ўкув режасида режалаштирилган “Аудит”,

“Бухгалтерия хисоби” ва “Бошқа тармоқларда бухгалтерия хисобининг хусусиятлари” фанларидан етарли билим ва кўникмаларга эга бўлишлик талаб этилади.

### **Фаннинг ишлаб чиқаришдаги ўрни**

“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанида қурилиш, кишлок хўжалиги, савдо, транспорт тармоқларида аудиторлик текширувани ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари ўрганилади. Мазкур тармоқлар бугунги кунда иқтисодиётимизнинг ривожланишида муҳим ўрин тутмокда. Шу боисдан бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятларини ўрганиш ўкув дастурининг ажralмас қисми бўлиб қолади.

### **Фанни ўқитиша замонавий ахборот ва педагогик технологиялар**

Талабаларнинг «Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари» фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишининг илгор ва замонавий усулларидан фойдаланиш, янги информацион-педагогик технологияларни тадбик қилиш муҳим аҳамиятга эга. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўкув ва услубий кўлланмалар, маъруза матнлари, тарқатма материаллар, электрон материаллардан фойдаланилади. Маъруза ва амалий машғулотларида аклий ҳужум, кластер, амалий иш ўйини, портфолио, кейс-стади, дидактик ўйинлар, шунингдек, компьютер дастурларидан (AuditXP, 1С: Проф. Бухгалтерия, Бухгалтерия (ВС), Баланс, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, TopS Business Integrator, Hyperion Enterprise, WebTrust, SysTrust), слайдлардан, мультимедия воситаларидан, интернет сахифалари ва тизимларидан фойдаланилади.

### **АСОСИЙ ҚИСМ**

#### **Фаннинг назарий машғулотлари мазмуни**

#### **“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг предмети, обьекти ва методи**

“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фани ва унинг аҳамияти. Фаннинг предмети ва обьекти. “Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанида кўлланиладиган усуллар. “Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг “Аудит”, “Бухгалтерия хисоби”, “Бошқа тармоқларда бухгалтерия хисобининг хусусиятлари” фанлари билан ўзаро боғлиқлиги. Тармоқ аудитининг турлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари.

#### **Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг хусусиятлари**

Курилиш тармоғи фаолияти аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Курилишларнинг ташкилий шакллари ва уларнинг капитал қўйилмалар аудитини ўтказишга таъсири. Капитал қўйилмаларнинг таркиби ва капитал қўйилмалар аудитини ўтказиш тартиби. Пудратчи ташкилотларда аудит ўтказишни

ташкил этиш боскичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Пудратчи ташкилотларда молиявий хисоботларни тузиш ва тақдим этиш жараёни аудитининг хусусиятлари.

#### **Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг хусусиятлари**

Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Курилиш ташкилотларида товар-моддий захиралар ва асосий воситалар аудитининг умумий режаси ва иш дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Курилиш ташкилотлари асосий восита ва материалларини туркумлаш ва уларни баҳолаш. Курилиш материаллари, бутловчи қисмлар, конструкциялар ва бошқаларни аудит килишнинг хусусиятлари. Курилиш ташкилотларида тайёрлов-омбор харажатларини хисобга олиш ва тақсимлаш жараёни аудити. Материалларнинг омборда ва бухгалтерияда хисобга олиш ҳолатини аудит килиш тартиби. Очик жойда сақланётган қурилиш материалларини аудит килишнинг ўзига хос хусусиятлари. Бажарилган ва буюртмачиларга топширилган қурилиш-монтаж ишлари хисобининг аудити. Қурилиш ташкилотларида асосий воситалар хисобини текшириш хусусиятлари. Хўжалик усулидаги капитал кўйилмалар аудити.

#### **Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари**

Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Тугалланган қурилиш-монтаж ишларини таннархини аниқлашни аудит қилиш хусусиятлари. Тугалланмаган қурилишни баҳолаш ва хисобга олиш аудити. Хўжалик субъектларида аудит ўтказишни ташкил этиш боскичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Курилиш ташкилотларида молиявий хисоботларни тузиш ва тақдим этиш жараёни аудитининг хусусиятлари.

#### **Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказиш хусусиятлари**

Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказишнинг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Қишлоқ хўжалиги тармоғи фаолияти аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказишни ташкил этиш боскичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг хусусиятлари. Қишлоқ хўжалигига ижара муносабатлари аудити. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида мажбуриятлар аудити. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида келгуси давр харажатлари ва тўловлари резервидан фойдаланишни текшириш.

#### **Қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари ва молиявий натижалар аудити**

Ишлаб чиқариш харажатлари аудитининг вазифалари. Ўсимликичилек ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва маҳсулотлар таннархини ҳисоблашнинг аудити. Чорвачилик ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва маҳсулотлар таннархини ҳисоблаш аудитини ўтказиш тартиби. Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқарилган маҳсулотларни қабул килиш, саралаш, сотишга тайёрлаш ва сотиш жараёнлари аудитининг хусусиятлари. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида молиявий натижалар ҳисобининг аудити.

#### **Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг хусусиятлари**

Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг умумий режаси ва ишчи дастурини тузиш хусусиятлари.

Савдо-тижорат тармоги фаолияти аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Савдо корхоналарида товар моддий захиралар аудити хусусиятлари. Омборларда, базалар ва бухгалтерияда товарларни ҳисобга олишининг аудити. Чакана савдо корхоналарида касса муомалаларини текшириш хусусиятлари. Савдо-тижорат корхоналарида ижара муносабатлари ва солик ҳамда бошқа тўловлар аудитининг хусусиятлари.

#### **Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудити**

Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудитини ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатларини сотилган ва омборда қолган товарларнинг қийматига қўшиш тартибининг аудити. Товарларни истеъмолчиларга ва воситачиларга сотиш муомалалари аудити. Савдо устамаси ва савдо қўшимчасини ҳисобга олиш жараёнини аудит килиш. Чакана савдода сотиш муомалалари аудитининг хусусиятлари. Савдо ташкилотларининг бюджет ташкилотлари билан ҳисоблашишларини аудит қилишнинг ўзига хос хусусиятлари. Савдо-тижорат корхоналарида молиявий ҳисоботларни тузиш ва тақдим этиш жараёнини аудит килиш хусусиятлари.

#### **Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг хусусиятлари**

Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари.

Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Транспорт ташкилотларида ТМЗ ва асосий воситалар аудитининг хусусиятлари. Лизинг муомалалари аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Транспорт ташкилотларида ишлаб чиқариш харажатларини ҳисоби, юқ, бажарилган иш ва хизматларнинг таннархини ҳисоблаш аудити. Юклар мамлакат ичida ва мамлакат ташқарисида ташилганда сарф қилинадиган харажатлар ва бу борадаги ҳисоблашишларнинг аудити.

## **Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари**

Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Транспорт ташкилотлари томонидан бажарилган иш ва хизматлар таннархини баҳолаш ва хисобга олиш хусусиятлари. Транспорт ташкилотлари фойда ва харажатларининг шаклланиши ҳамда бухгалтерияда хисобга олиш жарабёни текшириш тартиби. Транспорт ташкилотларида молиявий хисоботларни тузиш ва тақдим этиш жарабёни аудитининг хусусиятлари. Транспорт ташкилотларида ижара муносабатлари ва солиқ ҳамда бошқа тўловлар аудитининг хусусиятлари.

### **Амалий машғулотларнинг тахминий рўйхати**

- “Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг предмети, обьекти ва методи.

- Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг хусусиятлари.
- Курилиш ташкилотларида товар-моддий захиралар ва асосий воситалар аудитининг хусусиятлари.
- Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари.
- Кишлопк хўжалиги корхоналарида аудит ўтказиш хусусиятлари.
- Кишлопк хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари ва молиявий натижалар аудити.
- Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг хусусиятлари.
- Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудити.
- Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг хусусиятлари.
- Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари.

### **Амалий машғулотларни ташкил этиш бўйича тавсиялар**

Амалий машғулотларини ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар асосий маъруза мавзулари бўйича олган билим ва кўнникмаларини амалий масалалар, кейслар орқали янада бойитадилар. Шунингдек, дарслик ва ўкув қўлланмалар асосида талабалар билимларини мустахкамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий маколалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар талабалар билимини ошириш, масалалар ечиш, мавзулар бўйича такдимотлар ва кўргазмали куроллар тайёрлаш, қонун ва меъёрий ҳужжатлардан фойдалана билиш ва бошқалар тавсия этилади.

### **Лаборатория ишларини ташкил этиш бўйича кўрсатмалар**

Фан бўйича лаборатория ишлари ўкув режада кўзда тутилмаган.

### **Курс ишларини тайёрлаш услублари**

Курс иши ўкув режага мувофиқ 5230900 -“Бухгалтерия хисоби ва аудит (реал сектор бўйича)” таълим йўналишида назарда тутилмаган.

## **Мустакил таълимни ташкил этишнинг шакли ва мазмуни**

Мустакил таълимни ташкил этишда фаннинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда куйидаги шакллардан фойдаланиш тавсия этилади:

- айрим назарий мавзуларни ўқув адабиётлари ва аудит стандартлари ёрдамида мустакил ўзлаштириш;

- берилган мавзулар бўйича реферат тайёрлаш;
- семинар ва амалий машгулотларга тайёргарлик кўриш;
- амалиётдаги мавжуд муаммоларнинг ечимини топиш;
- илмий мақола, анжуманга маъруза тезисларини тайёрлаш;
- фаннинг энг долзарб муаммоларини қамраб олувчи рефератлар ёзиш;
- назарий билимларни амалиётда кўллаш;
- амалиётдаги мавжуд муаммоларнинг ечимини топиш;
- илмий мақола, анжуманга докладлар, маъруза тезисларини тайёрлаш;
- ўрганилаётган фан бўйича мавжуд асосий илмий адабиётларга аннотация ёзиш ва бошқалар.

Таълим жараёнига янги педагогик технологияларни, ўқитишнинг интерфаол усулларини кўллаш талаба томондан мустакил танланади. Мақсад талабаларни мустакил ўқишига ўргатишидир. Талабаларнинг мустакил таълимини ташкил этиш систематик тарзда, яъни доимий узлуксиз равища амалга оширилади. Талаба аудиторияда олган билимини мустаҳкамлаш, шу билан бирга навбатдаги янги мавзуни пухта ўзлаштириши учун хар куни мустакил равища тайёргарлик кўриши керак.

## **Тавсия этилаётган мустакил ишларнинг мавзулари**

1. Курилиш корхоналарида материалларни туркумлаш ва уларни баҳолаш.
2. Курилиш материаллари, бутловчи қисмлар, конструкциялар ва бошқаларни аудит килишининг хусусиятлари.
3. Тайёрлов-омбор харажатларини ҳисобга олиш ва тақсимлаш тартиби аудити.
4. Курилиш ташкилотларида асосий ишлаб чиқариш ва ёрдамчи ишлаб чиқариш харажатларини аудит қилиш тартиби.
5. Тугалланмаган ишлаб чиқаришларни баҳолаш ва ҳисобга олиш аудити.
6. Давр харажатлари ва келгуси даврлар харажатларини аудит килиш тартиби.
7. Тугалланган қурилиш-монтаж ишларини таннархини аниқлашни аудит қилиш хусусиятлари.
8. Хўжалик ва пудрат усулида капитал кўйилмалар аудитини ташкил этиш.
9. Пудратчи ташкилотларда ҳисбот тузиш ва топшириш аудити.
10. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказишнинг ўрни ва вазифалари.
11. Қишлоқ хўжалигига ишлаб чиқарилган махсулотларни қабул қилиш, саралаш, сотишга тайёрлаш ва сотиш жараёнлари аудитининг хусусиятлари.
12. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида молиявий натижалар ҳисобининг аудити.
13. Савдо-тижорат корхоналарида аудитнинг хусусиятлари ва унинг олдига кўйилган вазифалар.
14. Улгуржи савдо корхоналарида товар моддий захиралари аудити.
15. Савдо устамаси ва савдо қўшимчасини ҳисобга олиш тартибини аудит қилиш.

16. Транспорт ташкилотларида молиявий натижаларни ҳисобга олиш аудитининг хусусиятлари.

## **Дастурнинг информацион-услубий таъминоти**

Мазкур фанни ўқитиш жараённида:

- капитал қўйилмалар (инвестициялар)ни пудратчи ташкилотларда аудитнинг хусусиятлари бўлимига тегишли маъруза дарсларида модуль тизимиға асосланган электрон мажмуудан;
- амалий машғулотларда, хусусан, қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказишинг амалий жиҳатларини ўрганишда педагогик ва ахборот технологияларидан, амалий иш ўйинларидан;
- транспорт ташкилотларида аудит ўтказиш масалаларига тегишли дарс машғулотларида таълимнинг бошқа методларидан фойдаланиш хам назарда тутилган.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати Асосий адабиётлар**

- 1.“Audit” (darslik). Tulaxodjayeva M.M., Ilhomov SH.I. va bosh. Toshkent 2.Davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot, 2010. – 456 b.
- 3.“Audit” (darslik). Tulaxodjayeva M.M. va boshqalar. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, “DeHause Print”, 2011. - 583 b.
- 4.Tulaxodjayeva M.M., Ilhomov SH.I. Audit. O’quv qo’llamma. - Т.: Iqtisodiyot, 2012. – 184 b.
- 5.Шоалимов А.Х., Илхомов Ш.И., Ходжаева М.Х. Бошқа тармоқларда иктисодий таҳдил ва аудит – Т.: ТДИУ, «Иктисодиёт», 2011. – 192 б.

### **Кўшимча адабиётлар**

- 1.Аудит: учебник /под ред. Булыги Р.П.-2-е изд., перераб. и доп. – М.: “ЮНИТИ – ДАНА”, - 2011 г. – 431 стр.
- 2.Уразов К.Б., Вахидов С.В. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари.- Т.: ADIB. 2011. – 494 б.
- 3.Файзиев Ш., Каримов А. Аудит. Учебное пособие. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013 г. – 328 с.
- 4.Шеремет А., Суйц В. Аудит. Учебник. – М.: “ИНФРА – М ”, 2010 г. – 448 стр.

### **Интернет сайлари**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz);
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz);
3. [www.gaap.ru](http://www.gaap.ru);
4. [www.audit.ru](http://www.audit.ru);
5. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz);
6. [www.gov.uz](http://www.gov.uz);
7. [www.mf.uz](http://www.mf.uz).

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ**

**Ўқув-услубий бошқарма томонидан**  
**рўйхатга олиниди**  
№ \_\_\_\_\_  
2017 йил “\_\_\_” июнь

**Институт кенгашининг**  
**№1 сонли қарори билан**  
**ТАСДИҚЛАНГАН**  
(2017 йил “\_\_\_” август)



### **БОШКА ТАРМОҚЛАРДА АУДИТНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ**

фанининг

#### **ИШЧИ ЎҚУВ ДАСТУРИ**

##### **Олий таълимнинг**

Билим соҳаси: 200 000 - Ижтимоий соҳа, иктиносод ва ҳукуқ.

Таълим соҳаси: 230 000 - Иктиносод.

Таълим йўналиши: 5230900 - «Бухгалтерия ҳисоби ва аудит» (тармоқлар бўйича).

**Тошкент-2017**

Фаннинг ишчи ўқув дастури ўқув, ишчи ўқув режа ва ўқув дастурига мувофиқ ишлаб чиқилди.

**Тузувчи:** Мелиев И.И. – ТМИ, “Аудит” кафедраси катта ўқитувчisi

**Тақризчилар:** Маматқұлов М. – ТИҚХММИ, “Сув хўжаликларида бухгалтерия хисоби ва аудит” кафедраси мудири и.ф.н., доцент;  
Авлокулов А. – ТМИ, “Аудит” кафедраси доценти, и.ф.н.

Фаннинг ишчи ўқув дастури кафедра (2017 йил \_\_\_\_ июндаги -сонли) мажлисида мухокама этилиб, факультет Кенгаши тасдигига тавсия этилган.

**Кафедра мудири**

**И.Кўзиев**

Фаннинг ишчи ўқув дастури Ҳисоб ва аудит факультети Кенгашида мухокама килинган ва тавсия этилган (2017 йил \_\_\_\_ июндаги - сонли карори).

**Факультет декани**

**К.Каримова**

**Келишилди:**

**Ўқув ишлари бўйича  
проректор**

**И.Кўзиев**

## **КИРИШ**

### **1.1. Фаннинг мақсади ва вазифалари**

Ушбу фаннинг мақсади – қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва транспорт тармоқларида аудиторлик текширувларини ташкил этиш тажрибалари хусусида билим, кўникма ва малака шакллантиришdir.

Фаннинг вазифаси – талабаларга қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва транспорт тармоқларида аудиторлик текширувларини ташкил килиш, ўтказиш ва аудит натижаларини умумлаштириш масалаларини ўргатишдан иборатdir.

Ҳар бир мавзу якунида келтирилган таълим технологиялари фаннинг УЎМда баён этилган.

### **1.2. Фанни ўзлаштирган талабанинг малакавий даражалари**

- қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва транспорт тармоқларида аудитни ташкил этиш ҳақида тасаввурга эга бўлади;

- қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва транспорт тармоқларида аудиторлик текширувни ўтказишида уларни тартибга солувчи меъёрий хужжатлар, аудиторлик фаолиятининг миллий стандарталари ҳақида тасаввурга эга бўлади;

- қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва транспорт тармоқларида аудиторлик текширувни ўтказишида кўлланиладиган амаллар ҳақида тасаввурга эга бўлади;

- қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва транспорт тармоқларида аудит натижаларини умумлаштириш, баҳолаш ва расмийлаштириш тартиблари ҳақида тасаввурга эга бўлади.

### **1.3. Фаннинг ўқув режасидаги фанлар билан боғлиқлиги**

“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фани танлов фани хисобланади. Дастурни амалга ошириш учун ўқув режасида режалаштирилган “Аудит”, “Бухгалтерия хисоби” ва “Бошқа тармоқларда бухгалтерия хисобининг хусусиятлари” фанларидан етарли билим ва кўникмаларга эга бўлишлик талаб этилади.

### **1.4. Фанни ўқитишида янги педагогик технологияларнинг қўлланилиши**

«Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари» фанининг маъруза машгулотларида маълумотларни кўргазмали тақдим этиш усуллари ва воситалари:

*инсерт жадвал:*

- мустакил ўқиши, маъруза тинглаш жараёнида олинадиган маълумотларни бир тизимга келтиришга имконият яратади.

- олдиндан олинган маълумотни янгиси билан ўзаро боғлаш қобилиятини шакллантиришга имкон беради.

*Кластер (Кластер - тутам, боғлаш):*

Маълумот харитасини тузиш ва воситаси-барча фикр конституциясини фокуслаш ва аниқлаш учун асосий омил атрофида foяларни ийғиши.

*Тоифали жадвал:*

Тоифа - мавжуд холат ва муносабатларни акс эттирадиган белги (умумий).

ажратилган белгиларга кўра олинган маълумотларни бирлаштиришни таъминлайди;

тизимли мушоҳада килиш, маълумотларни таркиблаштириш ва тизимлаштириш кўникмасини ривожлантиради.

*Концептуал жадвал:*

Ўрганилаётган ходиса тушунча, қараш, мавзуу ва шу кабиларни икки ва ундан ортиқ жиҳат бўйича таққослаш имконини беради. Тизимли мушоҳада килиш, маълумотларни таркиблаштириш ва тизимлаштириш кўникмасини ривожлантиради.

*БББ жадвали:*

Биламан, Билишни хохлайман, Билдим  
матн (мавзу, бўлим) бўйича тадқиқот ишлари олиб бориш имконини беради;  
тизимли муроҳаза қилиш, таркибга ажратиш кўникмаларини беради.

*T-жадвал:*

Битта концепция (маълумот)нинг жиҳати ўзаро солишириш (ҳа/йук, ҳа/карши).  
Танқидий муроҳаза ривожлантиради.

*БЛОТ-таҳлил жадвали:*

Ташкилот ресурслари ҳолатини таҳлил қилиш ва баҳолаш воситаси. Бу каби таҳлилни ташкилот бўйича умумий тарзда ёки алоҳида муаммо ёки лойиҳа бўйича ҳам амалга ошириш мумкин. Тизимли муроҳаза қилиш, таққослаш, солишириш, таҳлил ва синтезни амалга ошириш кўникмаларини ривожлантиради.

*Лойиҳалаш методи:*

Келажакда амалга ошириладиган ишларни режалаштириш бўлиб, лойиҳа, маълум бир ҳисоб-китоб, чизма ва бошқаларга асосланган ҳолда тавсифлаш, баён қилиш шаклида мужассамлашган фоя, фикр.

«Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари» фанининг амалиёт машғулотларида муаммони жамоали тарзда ҳал этишнинг усуллари ва воситалари:

*Ақлий ҳужум:*

Бу услубда қўйилган савол, муаммо, масалани бутун гуруҳ билан биргаликда муҳокама қилинади. У талабаларни ўкув жараёнида машғулотлар фаол қатнашишларини топиш ва баён қилиш чоғида бошқаларни ҳам фикрини жалб қилиш, ўз фикрларини айтишга йўналтирувчи методдир.

*Баҳс:*

Ўз фикрини ифода этишини хохловчилар орасида бирон бир мунозарали масалани муҳокама қилиш, ҳақиқатни аниқлаш ва тўғри қарорни қабул қилиш.

*Музокаралар:*

Эшитиш аниқ ташкил этилган икки томон фикрлари алмашинуви.

*Пинборд техникаси:*

Муаммони ҳал этиш бўйича гояларни тизимлаштириш ва гуруҳлаштириш ва ягона нуқтаи назарни ишлаб чиқиш имконини беради.

*Дельфи техникаси:*

Муаммони ҳал этишнинг жамоали баҳолаш ва танлаш имконини беради.

*6-б техникаси:*

Қўйилган муаммони ҳал этиш бўйича жамоа томонидан ифодаланган варианtlардан энг яхиси баҳоланади ва танланади, кейин ҳаракатлар алгоритмга мувофиқ маълум белгилар бўйича гурухланади.

*Кейс стади:*

Талабаларни қарор қабул қилишга ўргатишда муаммоли вазият ҳосил қилиб, уни ечишни ўрганиш методи.

Шунингдек «Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари» фанининг амалиёт машғулотларида компьютер дастурларидан (Аудит ХР Комплекс аудит, Аудит IT, 1С: Проf. Бухгалтерия, Бухгалтерия (ВС), Баланс, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Web Trust, SYS Trust), слайдлардан, мультимедия воситаларидан, интернет саҳифалари ва тизимларидан фойдаланиш тавсия этилади.

Талабаларга ушбу фанни ўзлаштиришда мавжуд адабиётлардан, электрон дарслик, ҳамда тест саволлари тўпламидан фойдаланиш тавсия этилади.

**«Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари» фанидан ўтиладиган мавзулар ва улар бўйича машгулот турларига ажратилган соатлар ҳажмининг тақсимоти**

т/р	Фан мавзуларининг номи	Жами соат лар	шу жумладан		
			Маъруза	Амал ий машғу лот	Муста қил таълим
<b>Кузги семестр</b>					
1.	“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг предмети, обьекти ва методи	14	4	4	6
2.	Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитнинг хусусиятлари	20	6	6	8
3.	Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг хусусиятлари	20	6	6	8
4.	Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари	12	4	4	4
5.	Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказиш хусусиятлари	26	8	8	10
6.	Қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари ва молиявий натижалар аудити	26	8	8	10
<b>Кузги семестр жами</b>		<b>120</b>	<b>36</b>	<b>36</b>	<b>48</b>
<b>Бахорги семестр</b>					
7.	Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг хусусиятлари	12	4	4	4
8.	Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудити	20	6	6	8
9.	Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг хусусиятлари	18	6	6	6
10.	Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари	12	4	4	4
<b>Бахорги семестр жами</b>		<b>60</b>	<b>20</b>	<b>20</b>	<b>20</b>
<b>Фан бўйича жами</b>		<b>180</b>	<b>56</b>	<b>56</b>	<b>68</b>

## **2. ЎҚУВ МАТЕРИАЛЛАРИ МАЗМУНИ**

### **2.1. МАЪРУЗА МАШГУЛОТЛАРИ**

#### **2.1.1. “Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг предмети, обьекти ва методи**

“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг пайдо бўлиши ва унинг аҳамияти. Фанининг предмети ва обьекти ва фанининг хусусиятлари. “Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг умумий ва хусусий усуллари, “Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг “Аудит”, “Амалий аудит”,

“Бухгалтерия хисоби” ва “Бошка тармокларда бухгалтерия хисобининг хусусиятлари” фанлари билан ўзаро боғлик ва фарқли жиҳатлари. Тармок аудитининг турлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A3, A4, K5, K8]

#### **2.1.2. Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг хусусиятлари**

Курилиш тармоғи фаолияти аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Курилишларнинг ташкилий шаклари ва уларнинг капитал қўйилмалар аудитини ўтказишга таъсири. Капитал қўйилмаларнинг таркиби ва капитал қўйилмалар аудитини ўтказиш тартиби. Пудратчи ташкилотларда аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Пудратчи ташкилотларда молиявий хисоботларни тузиш ва тақдим этиш жараёни аудитининг хусусиятлари.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A2, A4, K6, K9]

#### **2.1.3. Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг хусусиятлари**

Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Курилиш ташкилотларида товар-моддий захиралар ва асосий воситалар аудитининг умумий режаси ва иш дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Курилиш ташкилотлари асосий восита ва материалларини туркумлаш ва уларни баҳолаш. Курилиш материаллари, бутловчи қисмлар, конструкциялар ва бошқаларни аудит қилишнинг хусусиятлари. Курилиш ташкилотларида тайёрлов-омбор харажатларини ҳисобга олиш ва тақсимлаш жараёни аудити. Материалларнинг омборда ва бухгалтерияда ҳисобга олиш ҳолатини аудит қилиш тартиби. Очиқ жойда сакланётган курилиш материалларини аудит қилишнинг ўзига хос хусусиятлари. Бажарилган ва буюртмачиларга топширилган курилиш-монтаж ишлари ҳисобининг аудити. Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ҳисобини текшириш хусусиятлари. Хўжалик усулидаги капитал қўйилмалар аудити.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A3, A4, K7, K9]

#### **2.1.4. Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари**

Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Тугалланган қурилиш-монтаж ишларини таннархини аниклашни аудит қилиш хусусиятлари. Тугалланмаган қурилишни баҳолаш ва ҳисобга олиш аудити. Хўжалик субъектларида аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Қурилиш ташкилотларида молиявий ҳисботларни тузиш ва тақдим этиш жараёни аудитининг хусусиятлари.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A2, A3, A4, K7, K9]

#### **2.1.5. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказиш хусусиятлари**

Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказишнинг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Қишлоқ хўжалиги тармоги фаолияти аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг хусусиятлари. Қишлоқ хўжалигига ижара муносабатлари аудити. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида мажбуриятлар аудити. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида келгуси давр харажатлари ва тўловлари резервидан фойдаланишини текшириш.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A3, A4, K7, K9]

#### **2.1.6. Қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари ва молиявий натижалар аудити**

Ишлаб чиқариш харажатлари аудитининг вазифалари. Ўсимликчилик ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва маҳсулотлар таннархини ҳисоблашнинг аудити. Чорвачилик ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва маҳсулотлар таннархини ҳисоблаш аудитини ўтказиш тартиби. Қишлоқ хўжалигига ишлаб чиқарилган маҳсулотларни кабул қилиш, саралаш, сотишга тайёрлаш ва сотиш жараёнлари аудитининг хусусиятлари. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида молиявий натижалар ҳисобининг аудити.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A3, A4, K7, K9]

#### **2.1.7. Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг хусусиятлари**

Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг умумий режаси ва ишчи дастурини тузиш хусусиятлари.

Савдо-тижорат тармоги фаолияти аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Савдо корхоналарида товар моддий захиралар аудити хусусиятлари. Омборларда, базалар ва бухгалтерияда товарларни ҳисобга олишнинг аудити. Чакана савдо корхоналарида касса муомалаларини текшириш хусусиятлари. Савдо-тижорат корхоналарида ижара муносабатлари ва солик ҳамда бошқа тўловлар аудитининг хусусиятлари.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал.*

[A2, A3, A4, K7, K9]

#### **2.1.8. Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудити**

Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудитини ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатларини сотилган ва омборда қолган товарларнинг қийматига қўшиш тартибининг аудити. Товарларни истеъмолчиларга ва воситачиларга сотиш муомалалари аудити. Савдо устамаси ва савдо қўшимчасини хисобга олиш жараёнини аудит қилиш. Чакана савдода сотиш муомалалари аудитининг хусусиятлари. Савдо ташкилотларининг бюджет ташкилотлари билан ҳисоблашишларини аудит қилишининг ўзига хос хусусиятлари. Савдо-тижорат корхоналарида молиявий ҳисботларни тузиш ва тақдим этиш жараёнини аудит қилиш хусусиятлари.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал.*

[A2, A3, A4, K7, K9]

#### **2.1.9. Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг хусусиятлари**

Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари.

Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Транспорт ташкилотларида ТМЗ ва асосий воситалар аудитининг хусусиятлари. Лизинг муомалалари аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Транспорт ташкилотларида ишлаб чикариш харажатларини ҳисоби, юқ, бажарилган иш ва хизматларнинг таннархини ҳисоблаш аудити. Юклар мамлакат ичida ва мамлакат ташқарисида ташилганда сарф қилинадиган харажатлар ва бу борадаги ҳисоблашишларнинг аудити.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал.*

[A2, A3, A4, K7, K8]

#### **2.1.10. Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари**

Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Транспорт ташкилотлари томонидан бажарилган иш ва хизматлар таннархини баҳолаш ва ҳисобга олиш хусусиятлари. Транспорт ташкилотлари фойда ва харажатларининг шаклланиши ҳамда бухгалтерияда ҳисобга олиш жараёнини текшириш тартиби. Транспорт ташкилотларида молиявий ҳисботларни тузиш ва тақдим этиш жараёни аудитининг хусусиятлари. Транспорт ташкилотларида ижара муносабатлари ва солиқ ҳамда бошқа тўловлар аудитининг хусусиятлари.

Күлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A2, A4, K6, K9]

## **2.2. АМАЛИЙ МАШГУЛОТЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЮЗАСИДАН КҮРСАТМАЛАР**

### **2.2.1. “Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг предмети, объекти ва методи**

“Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг пайдо бўлиши ва унинг аҳамияти. Фанининг предмети ва объекти ва фанининг хусусиятлари. “Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг умумий ва хусусий усуллари, “Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг “Аудит”, “Амалий аудит”, “Бухгалтерия ҳисоби” ва “Бошқа тармокларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари” фанлари билан ўзаро боғлик ва фарқли жиҳатлари. Тармоқ аудитининг турлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари.

Күлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A3, A4, K5, K8]

### **2.2.2. Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг хусусиятлари**

Курилиш тармоғи фаолияти аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг максади, вазифалари ва маълумот манбалари. Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Курилишларнинг ташкилий шакллари ва уларнинг капитал қўйилмалар аудитини ўтказишга таъсири. Капитал қўйилмаларнинг таркиби ва капитал қўйилмалар аудитини ўтказиш тартиби. Пудратчи ташкилотларда аудит ўтказишни ташкил этиш боскичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Пудратчи ташкилотларда молиявий ҳисботларни тузиш ва тақдим этиш жараёни аудитининг хусусиятлари.

Күлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A2, A4, K6, K9]

### **2.2.3. Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг хусусиятлари**

Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг максади, вазифалари ва маълумот манбалари. Курилиш ташкилотларида товар-моддий захиралар ва асосий воситалар аудитининг умумий режаси ва иш дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Курилиш ташкилотлари асосий восита ва материалларини туркумлаш ва уларни баҳолаш. Курилиш материаллари, бутловчи қисмлар, конструкциялар ва бошқаларни аудит килишнинг хусусиятлари. Курилиш ташкилотларида тайёрлов-омбор харажатларини ҳисобга олиш ва тақсимлаш жараёни аудити. Материалларнинг омборда ва бухгалтерияда ҳисобга олиши ҳолатини аудит килиш тартиби. Очик жода сакланайтган курилиш материалларини аудит килишнинг ўзига хос хусусиятлари. Бажарилган ва буюртмачиларга топширилган курилиш-монтаж ишлари ҳисобининг

аудити. Қурилиш ташкилотларида асосий воситалар хисобини текшириш хусусиятлари. Хұжалик усулидаги капитал құйилмалар аудити.

Күлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A3, A4, K7, K9]

#### **2.2.4. Қурилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари**

Қурилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Қурилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Тугалланган қурилиш-монтаж ишларини таннархини аниқлашни аудит қилиш хусусиятлари. Тугалланмаган қурилишни баҳолаш ва хисобга олиш аудити. Хұжалик субъектларида аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Қурилиш ташкилотларида молиявий хисоботларни тузиш ва тақдим этиш жараёни аудитининг хусусиятлари.

Күлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A2, A3, A4, K7, K9]

#### **2.2.5. Қишлоқ хұжалиги корхоналарида аудит ўтказини хусусиятлари**

Қишлоқ хұжалиги корхоналарида аудит ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Қишлоқ хұжалиги корхоналарида аудит ўтказишнинг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Қишлоқ хұжалиги тармоги фаолияти аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Қишлоқ хұжалиги корхоналарида аудит ўтказишни ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Қишлоқ хұжалиги корхоналарида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг хусусиятлари. Қишлоқ хұжалигига ижара муносабатлари аудити. Қишлоқ хұжалиги корхоналарида мажбуриятлар аудити. Қишлоқ хұжалиги корхоналарида келгуси давр харажатлари ва тұловлари резервидан фойдаланишни текшириш.

Күлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A3, A4, K7, K9]

#### **2.2.6. Қишлоқ хұжалик корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари ва молиявий натижалар аудити**

Ишлаб чиқариш харажатлари аудитининг вазифалари. Ўсимлиқчилик ишлаб чиқариш харажатларини хисобга олиш ва маҳсулотлар таннархини хисоблашнинг аудити. Чорвачилик ишлаб чиқариш харажатларини хисобга олиш ва маҳсулотлар таннархини хисоблаш аудитини ўтказиш тартиби. Қишлоқ хұжалигига ишлаб чиқарылған маҳсулотларни қабул қилиш, саралаш, сотишга тайёрлаш ва сотиш жараёнлари аудитининг хусусиятлари. Қишлоқ хұжалиги корхоналарида молиявий натижалар хисобининг аудити.

Күлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал*.

[A1, A3, A4, K7, K9]

### **2.2.7. Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг хусусиятлари**

Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг умумий режаси ва ишчи дастурини тузиш хусусиятлари.

Савдо-тижорат тармоғи фаолияти аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишни ташкил этиши босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Савдо корхоналарида товар моддий захиралар аудити хусусиятлари. Омборларда, базалар ва бухгалтерияда товарларни хисобга олишнинг аудити. Чакана савдо корхоналарида касса муомалаларини текшириш хусусиятлари. Савдо-тижорат корхоналарида ижара муносабатлари ва солиқ ҳамда бошқа тўловлар аудитининг хусусиятлари.

Қўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал.*

[A2, A3, A4, K7, K9]

### **2.2.8. Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудити**

Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудитини ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатларини сотилган ва омборда қолган товарларнинг қийматига қўшиш тартибининг аудити. Товарларни истеъмолчиларга ва воситачиларга сотиш муомалалари аудити. Савдо устамаси ва савдо қўшимчасини хисобга олиш жараёнини аудит қилиш. Чакана савдода сотиш муомалалари аудитининг хусусиятлари. Савдо ташкилотларининг бюджет ташкилотлари билан ҳисоблашишларини аудит қилишнинг ўзига хос хусусиятлари. Савдо-тижорат корхоналарида молиявий ҳисботларни тузиш ва тақдим этиш жараёнини аудит қилиш хусусиятлари.

Қўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал.*

[A2, A3, A4, K7, K9]

### **2.2.9. Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг хусусиятлари**

Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари.

Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишни ташкил этиши босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари. Транспорт ташкилотларида ТМЗ ва асосий воситалар аудитининг хусусиятлари. Лизинг муомалалари аудитининг ўзига хос хусусиятлари. Транспорт ташкилотларида ишлаб чикариш харажатларини хисоби, юқ, бажарилган иш ва хизматларнинг таннархини ҳисоблаш аудити. Юклар мамлакат ичидаги мамлакат ташқарисида ташилганда сарф қилинадиган харажатлар ва бу борадаги ҳисоблашишларнинг аудити.

Қўлланиладиган таълим технологиялари: *кластер, тоифали жадвал, концептуал жадвал.*

[A2, A3, A4, K7, K8]

## **2.2.10. Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари**

Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг мақсади, вазифалари ва маълумот манбалари. Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари.

Транспорт ташкилотлари томонидан бажарилган иш ва хизматлар таннархини баҳолаш ва хисобга олиш хусусиятлари. Транспорт ташкилотлари фойда ва харажатларининг шаклланиши ҳамда бухгалтерияда хисобга олиш жарабёнини текшириш тартиби. Транспорт ташкилотларида молиявий хисоботларни тузиш ва тақдим этиш жарабёни аудитининг хусусиятлари. Транспорт ташкилотларида ижара муносабатлари ва солиқ ҳамда бошқа тўловлар аудитининг хусусиятлари.

Кўлланиладиган таълим технологиялари: *класстер, тоифали жадвал, концептуал жадвал.*

[A1, A2, A4, K6, K9]

### **3.1. МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ШАКЛИ ВА МАЗМУНИ**

Мустақил таълим талабанинг бажарадиган назарий-амалий изланиши бўлиб, аудитни ўрганишда фаннинг бирор бир мавзусини тўлароқ ўзлаштиради ва мавзу белгиланган шаклда бажарилади. Мустақил ишни бажаришдан мақсад, талабанинг ўқиши давомида олган билимини мустаҳкамлаш, чукурлаштириш ва умумлаштиришдан иборатdir.

Мустақил таълимни ташкил этишнинг мазмуни: талабалар мустақил ишлари мавзулари келгусида бажариладиган курс ишлари ва битирув малакавий ишлари мавзулари билан узвийликда бажарилади.

#### **“Бошқа тармоқларда аудитининг хусусиятлари” фани бўйича мустақил таълимнинг мазмуни**

Фани бўйича мазмуни	Мустақил таълимга оид бўлим ва мазулари	Мустақил таълимга оид топширик ва тавсиялар	Бажариш муддатлари
“Бошқа тармоқларда аудитининг хусусиятлари” фанининг предмети, обьекти ва методи	“Бошқа тармоқларда аудитининг хусусиятлари” фанида кўлланиладиган усуллар	Лойиха иши тайёрлаш, тақдимот ва слайдлар	Амалий машғулот давомида
Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитининг хусусиятлари	Пудратчи ташкилотларда капитал қўйилмалар аудитини ўтказиш тартиби	Кейс стади тайёрлаш	Мавзу жараёнда
Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитининг хусусиятлари	Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий захиралар аудитини ўтказиш кетма-кетлиги ва унда	Лойиха иши тайёрлаш, тақдимот ва слайдлар	Амалий машғулот давомида

	қўлланиладиган амаллар		
Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари	Қурилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг умумий режаси ва ишчи дастурини тайёрлаш хусусиятлари	Лойиха иши тайёрлаш, тақдимот ва слайдлар	Амалий машғулот давомида
Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказиш хусусиятлари	Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказиши ташкил этиш босқичлари ва уларда бажариладиган аудит амаллари	Лойиха иши тайёрлаш, тақдимот ва слайдлар	Оралиқ баҳолашда
Қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари ва молиявий натижалар аудити	Қишлоқ хўжалигига ишлаб чиқарилган маҳсулотларни қабул килиш, саралаш, сотишга тайёрлаш ва сотиш жараёнлари аудитининг хусусиятлари	Лойиха иши тайёрлаш, тақдимот ва слайдлар	Амалий машғулот давомида
<b>Баҳорги семестр</b>			
Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг хусусиятлари	Савдо-тижорат корхоналарида ижара муносабатлари ва солик хамда бошқа тўловлар аудитининг хусусиятлари	Кейс стади тайёрлаш	Мавзу жараёнида
Савдо-тижорат корхоналарида муомала харажатлари ва молиявий натижалар аудити	Савдо-тижорат корхоналарида молиявий ҳисоботларни тузиш ва тақдим этиш жараёнини аудит қилиш хусусиятлари	Лойиха иши тайёрлаш, тақдимот ва слайдлар	Амалий машғулот давомида
Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг хусусиятлари	Транспорт ташкилотларида ишлаб чиқариш харажатларини ҳисоби, юқ, бажарилган иш ва хизматларнинг таннархини ҳисоблаш аудити	Кейс стади тайёрлаш	Мавзу жараёнида
Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари	Транспорт ташкилотлари фойда ва харажатларининг шаклланиши хамда бухгалтерияда ҳисобга олиш жараёнини	Лойиха иши тайёрлаш, тақдимот ва слайдлар	Амалий машғулот давомида

	текшириш тартиби	
--	------------------	--

### 3.2. КУРС ИШЛАРИ БҮЙИЧА УСЛУБИЙ КҮРСАТМАЛАР

Мазкур йүналишларда ўкув режага мувофиқ «Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари» фани бўйича курс иши назарда тутилмаган.

#### 4. РЕЙТИНГ БАҲОЛАШ ТИЗИМИ

##### “Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари” фанидан талабалар билимини рейтинг тизими асосида баҳолаш мезони

“Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари” фани бўйича рейтинг жадваллари, назорат тури, шакли, сони ҳамда ҳар бир назоратга ажратилган максимал балл, шунингдек жорий ва оралиқ назоратларининг саралаш баллари ҳакидаги маълумотлар фан бўйича биринчи машғулотда талабаларга эълон қилинади.

Фан бўйича талабаларнинг билим давомида ўзлаштириш даражасининг Давлат таълим стандартларига мувофиқлигини таъминлаш учун қуидаги назорат турларини ўтказиш назарда тутилади:

**жорий назорат** – талабанинг фан мавзулари бўйича билим ва амалий қўникма даражасини аниқлаш ва баҳолаш усули. Жорий назорат фаннинг хусусиятидан келиб чиккан ҳолда, амалий машғулотларда оғзаки сўров, тест ўтказиш, сухбат, назорат иши, коллеквиум, уй вазифаларини текшириш ва шу каби бошқа шаклларда ўтказилиши мумкин;

**оралиқ назорат** – семестр давомида ўкув дастурининг тегишли бўлими тугаллангандан кейин талабанинг назарий билим ва амалий қўникма даражасини аниқлаш ва баҳолаш усули. Оралиқ назоратнинг шакли (ёзма, оғзаки, тест ва ҳоказо) ўкув фанига ажратилган умумий соатлар ҳажмидан келиб чиккан ҳолда белгиланади;

**якуний назорат** – семестр якунида муайян фан бўйича назарий билим ва амалий қўникмаларни талабалар томонидан ўзлаштириш даражасини баҳолаш усули. Якуний назорат асосан таянч тушунча ва ибораларга асосланган “Ёзма иш” шаклида ўтказилади ёки тестларга асосланган компьютер технологияларидан фойдаланган ҳолда ўтказилади.

О.Н. ўтказиш жараёни кафедра мудири томонидан тузилган комиссия иштирокида даврий равишда ўрганиб борилади ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, О.Н. натижалари бекор қилиниши мумкин. Бундай ҳолларда О.Н. қайта ўтказилади.

Олий таълим муассасаси раҳбарининг буйруғи билан ички назорат ва мониторинг бўлими раҳбарлигига тузилган комиссия иштирокида Я.Н. ни ўтказиш жараёни ва шакли даврий равишда ўрганиб борилади ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, Я.Н. натижалари бекор қилиниши мумкин. Бундай ҳолларда Я.Н. қайта ўтказилади.

Талабанинг билим давомида ўзлаштириш даражаси талабаларнинг қилишининг рейтинг тизими асосида талабанинг фан бўйича ўзлаштириш даражаси баллар орқали ифодаланади.

“Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари” фани бўйича талабаларнинг семестр давомидаги ўзлаштириш кўрсаткичи 100 баллик тизимда баҳоланади. Ушбу 100 балл баҳолаш турлари бўйича куйидагича тақсимланади:

Я.Н.-30 балл, қолган 70 балл эса Ж.Н.-36 балл ва О.Н.-34 балл қилиб тақсимланади.

<b>Балл</b>	<b>Баҳо</b>	<b>Талабаларнинг билим даражаси</b>
86-100	Аъло	Хулоса ва қарор қабул қилиш. Ижодий фикрлай олиш. Мустакил мушоҳада юрита олиш. Олган билимларини амалда кўллай олиш. Моҳиятини тушунтириш. Билиш, айтиб бериш. Тасаввурга эга бўлиш.
71-85	Яхши	Мустакил мушоҳаза қилиш. Олган билимларини амалда кўллай олиш. Моҳиятини тушунтириш. Билиш, айтиб бериш. Тасаввурга эга бўлиш
55-70	Қониқарли	Моҳиятини тушунтириш. Билиш, айтиб бериш. Тасаввурга эга бўлиш
0-54	Қониқарсиз	Аниқ тасаввурга эга бўлмаслик. Билмаслик

Саралаш бали 55 бални ташкил этади. Талабанинг саралаш балидан паст бўлган ўзлаштириши рейтинг дафтарчасида қайд этилмайди.

Талабаларнинг ўкув фани бўйича мустакил иши жорий, оралиқ ва якуний назоратлар жараёнида тегишли топширикларни бажариши ва унга ажратилган баллардан келиб чиқкан ҳолда баҳоланади.

Талабанинг фан бўйича рейтинги куйидагича аниқланади:  $R = \frac{V \cdot O'}{100}$ , бу ерда:  $V$ - семестрда фанга ажратилган умумий ўкув юкламаси (соатларда);  $O'$  - фан бўйича ўзлаштириш даражаси (балларда).

Фан бўйича жорий ва оралиқ назоратларга ажратилган умумий баллнинг 55 фоизи саралаш балл хисобланиб, ушбу фоиздан кам балл тўплаган талаба якуний назоратга киритилмайди.

ЖН ва ОН турлари бўйича 55 ва ундан юкори баллни тўплаган талаба фанни ўзлаштирган деб хисобланади ва ушбу фан бўйича якуний назоратта кирмаслигига йўл қўйилади.

Талабанинг семестр давомида фан бўйича тўплаган умумий бали ҳар бир назорат туридан белгиланган қоидаларга мувофиқ тўплаган баллари йигиндисига teng.

Оралиқ ва якуний назорат турлари календар тематик режага мувофиқ деканат томонидан тузилган рейтинг назорат жадваллари асосида ўтказилади.

Жорий ва оралиқ назоратларда саралаш балидан кам балл тўплаган ва узрли сабабларга қўра назоратларда қатнаша олмаган талабага қайта топшириш учун, якуний назоратгача бўлган муддат берилади.

Талабанинг семестрда жорий (ЖН) ва оралиқ (ОН) назорат турлари бўйича тўплаган баллари ушбу назорат турлари умумий балининг 54 фоизи ва ундан кам бўлса, у академик қарздор деб хисобланиб якуний назоратга қўйилмайди.

Талаба рейтинг натижаларидан норози бўлса, фан бўйича назорат тури натижалари эълон қилинган вактдан бошлаб бир кун мобайнода факультет деканига ариза билан мурожаат этиши мумкин. Бундай ҳолда факультет деканининг тақдимномасига қўра ректор бўйруғи билан З (уч) аъзодан кам бўлмаган таркибда апелляция комиссияси ташкил этилади.

Апелляция комиссияси талабаларнинг аризаларини қўриб чиқиб, шу куннинг ўзида хуносасини билдиради.

#### 4.1. Рейтинг назорати жадвали

VII семестр учун

Рейтинг	Семестр хафталари	Б ө С ә
---------	-------------------	---------

назорати турлари	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Мустакил	11	12	13	14	15	16	17	20	Мустакил таълим.	21	Аттестация	22	Аттестации
ЖН	0-6	0-6	0-6								0-6	0-6	0-6	0-6	0-6	0-6	0-6	0-6				0-36	39	
ОН			0-12				5				0-12					5					0-34			
$\sum$ (ЖН+ОН)							0-70														0-70			
ЯН																				0-30	0-30	0		
Жами																					0-100	55		

#### VIII семестр учун

Рейтинг назорати турлари	Семестр ҳафталари												Мустак ил 33 Аттеста ция	Баллар сағида ш баллар	0- 36	39
	23	24	25	26	27	Мустак ил	28	29	30	31	32					
ЖН	0-9	0-9				0-9	0-9								0-36	39
ОН		0-12			5		0-12					5			0-35	
$\sum$ (ЖН+ОН)					0-70										0-70	
ЯН												0-30			0-30	
Жами															0-100	55

Изоҳлар: 1. Рейтинг назорат тизими бўйича баллар электрон журналга белгиланган тартибда киритиб борилиши шарт;

2. Семестр ҳафталари сони таълим йўналиши (мутахассислик)нинг ўқув режаси ва ўқув жараёни графигига мувофиқ белгиланади ва фарқланиши мумкин (18-19 ҳафталар қисиши таътил даври ҳисобланади).

#### 4.2. ЖН бўйича баҳолаш мезонлари

ЖНда амалий машғулотлар ўзлаштирилиши бўйича юкоридаги жадвалда келтирилган семестр ҳафталари кесимида хар бир машғулотда талабанинг ўзлаштиришига мос равишда мезон асосида 7-семестрда жами 0-36, 8-семестрда жами 0-36 баллгача жамланиши белгиланган.

#### 4.3. ОН бўйича баҳолаш мезонлари

ОН маъруза машғулотлари материаллари асосида бир семестрда 2 марта ўтказилади. ОН бўйича талаба 7-семестрда жами 0-34 (7-семестрда 1-О.Н.да 0-17, 2-О.Н.да 0-17) шундан мустакил таълим бўйича жами 0-10 баллгача, 8-семестрда жами

0-34 баллгача шундан мустақил таълим бўйича жами 0-10 баллгача (8-семестрда 1-О.Н.да 0-17, 2-О.Н.да 0-17) жамлаши мумкин.

Фаннинг ўқитилган мавзулари бўйича ўзлаштириш назорати турли шаклларда ўтказилиши мумкин. Мазкур фандан ОН тест синови шаклида ўтказилганда тестлар сони ва уларга мос равишдаги мезон 7-семестрда 0-12/0-12 балл, 8-семестрда 0-12/0-12 балл кесимида кафедра томонидан алоҳида белгиланади.

#### 4.4. $\Sigma (\text{ЖН}+\text{ОН})$ бўйича баҳолаш мезонлари

$\Sigma(\text{ЖН}+\text{ОН})$  7- семестр учун 0-70 гача бўлган рейтинг баллари кўйидаги мезонларга мувофиқ умумлаштирилиши белгиланган:

Баҳолаш мезонлари	Рейтинг баллари		$\Sigma (\text{ЖН}+\text{ОН})$
	ЖН	ОН	
«Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари» фани машғулотлари мавзулари бўйича ҳар томонлама чуқур ва мукаммал билимга эга. Назарий ва амалий машғулотларда аудиторлик текшируви билан боғлиқ масалалар бўйича хulosса ва қарор қабул қила олади, мустақил мушоҳада юрита олади, амалда қўллай олади, моҳиятини тушунтира олади, айтиб беради, тасаввурга эга. Фан машғулотлари мавзулари бўйича тўла билимга эга. Машғулотларда аудиторлик текшируви билан боғлиқ масалалар бўйича мустақил мушоҳада юрита олади, амалда қўллай олади, моҳиятини тушунтира олади, айтиб беради, тасаввурга эга.	30-36	30-34	60-70
Фан машғулотлари мавзулари бўйича кониқарли билимга эга. Амалий машғулотда аудиторлик текшируви билан боғлиқ масалалар бўйича моҳиятини тушунтира олади, айтиб беради, тасаввурга эга.	25-29	24-30	49-59
Фан машғулотлари мавзулари бўйича кониқарсиз билимга эга. Амалий машғулотда аудиторлик текшируви билан боғлиқ масалалар юзасидан аниқ тасаввурга эга эмас, билмайди.	19-24	20-24	39-48
	0-19	0-19	0-38

$\Sigma(\text{ЖН}+\text{ОН})$  8- семестр учун 0-70 гача бўлган рейтинг баллари кўйидаги мезонларга мувофиқ умумлаштирилиши белгиланган:

Баҳолаш мезонлари	Рейтинг баллари		$\Sigma (\text{ЖН}+\text{ОН})$
	ЖН	ОН	
«Бошқа тармокларда аудитнинг хусусиятлари» фани машғулотлари мавзулари бўйича ҳар томонлама чуқур ва мукаммал билимга эга.	30-36	30-34	60-70

Назарий ва амалий машгулотларда аудиторлик текшируви билан боғлиқ масалалар бўйича хулоса ва қарор қабул қила олади, мустақил мушоҳада юрита олади, амалда қўллай олади, моҳиятини тушунтира олади, айтиб беради, тасаввурга эга . Фан машгулотлари мавзулари бўйича тўла билимга эга. Машгулотларда аудиторлик текшируви билан боғлиқ масалалар бўйича мустақил мушоҳада юрита олади, амалда қўллай олади, моҳиятини тушунтира олади, айтиб беради, тасаввурга эга. Фан машгулотлари мавзулари бўйича кониқарли билимга эга. Амалий машгулотда аудиторлик текшируви билан боғлиқ масалалар бўйича моҳиятини тушунтира олади, айтиб беради, тасаввурга эга . Фан машгулотлари мавзулари бўйича коникарсиз билимга эга. Амалий машгулотда аудиторлик текшируви билан боғлиқ масалалар юзасидан аниқ тасаввурга эга эмас, билмайди.	25-29	24-30	49-59
	19-24	20-24	39-48
	0-19	0-19	0-38

#### 4.5. ЯННИБАХОЛАШ МЕЗОНЛАРИ

Талабаларнинг ЯН дан тўплайдиган балларнинг намунавий мезонлари

**Якуний назорат факат ёзма иш ёки тест шаклида ўтказилиди. Бунда талабалар билимлари 30 баллик тизимда баҳоланади:**

№	Кўрсаткичлар	ЯН баллари	
		макс	Ўзгариш оралиги
	<b>Фан бўйича якуний ёзма иш назорати</b>	30	0-30
	Жами	30	0-30

### 5. ДАСТУРНИНГ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИОН ВА ИНТЕРНЕТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ХАМДА УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИ

Тавсия этилаётган мавзулар бўйича таълимнинг замонавий, хусусан, интерфаол методлари, педагогик ва ахборот-коммуникацион (медиатаълим, амалий дастур пакетлари, тақдимот, электрон-дидактик) технологиялари мажмуали тарзда қўлланилиши назарда тутилган. Жумладан, компьютер дастурлари ёрдамида аудит ўтказиш учун талаб этиладиган манбалар назарий-амалий жиҳатдан шакллантирилади ва олингандан маълумотлар ўрганилади. Бухгалтерия ҳисоботи, молиявий кўрсаткичлар ва аудиторлик текширувлари маълумотларини автоматлаштириш борасида амалий дастурний пакетлардан (“1С Предприятие”, “1С Бухгалтерия”, “БЭМ”, “Аудит-эксперт” ва ҳоказо) шунингдек, EXCEL жадвал просессори кабилардан фойдаланилади.

### 6. ТАВСИЯ ЭТИЛАДИГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

#### 6.1. Асосий адабиётлар

- “Audit” (darslik). Tulaxodjayeva M.M., Ilhomov SH.I. va bosh. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot, 2010. – 456 b.


2. "Audit" (darslik). Tulaxodjayeva M.M. va boshqalar. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, "DeHause Print", 2011. - 583 b.
3. Tulaxodjayeva M.M., Ilhomov SH.I. Audit. O'quv qo'llamna. - T.: Iqtisodiyot, 2012. – 184 b.
4. Шоалимов А.Х., Илхомов Ш.И., Ходжаева М.Х. Бошқа тармоқларда иқтисодий таҳлил ва аудит – Т.: ТДИУ, «Иқтисодиёт», 2011. – 192 б.

#### **6.2. Кўшимча адабиётлар**

5. Аудит: учебник /под ред. Булыги Р.П.-2-е изд., перераб. и доп. – М.: “ЮНИТИ – ДАНА”, - 2011 г. – 431 стр.
6. Уразов К.Б., Вахидов С.В. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари.- Т.: ADIB. 2011. – 494 б.
7. Файзиев Ш., Каримов А. Аудит. Учебное пособие. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013 г. – 328 с.
8. Шеремет А., Суйц В. Аудит. Учебник. – М.: “ИНФРА – М ”, 2010 г. – 448 стр.
9. Интернет сайtlари  
[www.ziyonet.uz;](http://www.ziyonet.uz)  
[www.lex.uz;](http://www.lex.uz)  
[www.gaap.ru;](http://www.gaap.ru)  
[www.audit.ru;](http://www.audit.ru)  
[www.bilim.uz;](http://www.bilim.uz)  
[www.gov.uz;](http://www.gov.uz)  
[www.mf.uz.](http://www.mf.uz)

## ТАРҚАТМА МАТЕРИАЛЛАР

Boshqa tarmoqlarda auditning predmetiga moliyaviy hisobotning to'g'riliqi, hisob siyosatiga to'liq amal qilinishini tekshirish ham kiradi. Boshqa tarmoqlarda auditning predmeti va ob'ekti mijoz bilan tuzilgan shartnomaga bevosita bog'liq bo'ladi. Bozor munosabatlari sharoitida Boshqa tarmoqlarda auditning asosiy ob'ektlari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim deb hisoblaymiz:



Boshqa tarmoqlarda auditning predmetiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga dolzarb masalalarda konsalting xizmatini ko'rsatish ham kiradi. Boshqa tarmoqlarda auditorlar va Boshqa tarmoqlarda auditorlik tashkilotlari korxonalarga o'zaro tuzilgan shartnomalarga asosan «biznes reja» tuzish, hisob siyosatini belgilash, soliqlarni to'g'ri hisoblash, mahsulot tannarximi asoslash, moliyaviy hisobotlarni tuzish kabi masalalarda yaqindan yordam beradi.

Boshqa tarmoqlarda auditning o'ziga xos usullari mavjuddir. Bu usullar Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Boshqa tarmoqlarda audit uslubining asosida mantiqiy mulohaza, ilm-fan yutuqlari, xo'jalik jarayonining o'zgaruvchanligi yotadi.

Boshqa tarmoqlarda audit jarayonida iqtisodiyotimizga xos bo'lgan usullar (milliy andozalar) hamda xalqaro amaliyotda keng qo'llilanadigan usullar (xalqaro andozalar) qo'llaniladi. Maxsus adabiyotlarda Boshqa tarmoqlarda auditning xalqaro amaliyotiga xos andozalari (standartlari) quyidagicha guruhi langan:


## **Boshqa tarmoqlarda auditning xalqaro amaliyotiga xos andozalari (standartlari) turlari**

Auditni tashkil qilish bilan  
bog'liq andozalar

Audit jarayonini o'tkazish bilan  
bog'liq andozalar

Audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bilan  
bog'liq andozalar

Auditning milliy andozalari iqtisodiyotimizning bozorga o'tish tamoyillari asosida tuzilgan. Boshqa tarmoqlarda auditor Boshqa tarmoqlarda audit jarayonida turli usullarni mustaqil belgilaydi va qo'llaydi. Ushbu usullar tarkibi Boshqa tarmoqlarda auditning maqsadi, predmeti va vazifalariga bevosita bog'liq. Boshqa tarmoqlarda audit nazariyasi va amaliyotida ushbu usullarning quyidagi turlari keltirilgan:



Boshqa tarmoqlarda auditor tekshirish jarayonida me'yorlashtirish, baholash, guruhash usullaridan ham foydalanadi. Shuni qayd qilish kerakki, Boshqa tarmoqlarda auditorlar Boshqa tarmoqlarda audit jarayonida qabul qilingan umumiy usullardan foydalanish bilan bir vaqtning o'zida ular o'zlariga ma'qul bo'lgan yoki boshqalar uchun «tijorat siri» bo'lgan noan'anaviy usullardan ham foydalanishlari mumkin. Shunday qilib, qo'llaniladigan Boshqa tarmoqlarda audit usullari Boshqa tarmoqlarda auditning turi, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liq bo'ladi.

**Boshqa tarmoqlarda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi  
asosiy me'yoriy huquqiy xujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi» Qonuni, 1996 yil 30-avgust(Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirish kiritilgan O'zR 30.04.2013 y. O'RQ-352-son Qonuni, O'zR 07.10.2013 y. O'RQ-355-son Qonuni,O'zR 27.12.2013 y. O'RQ-361-son Qonuni, O'zR 14.05.2014 y. O'RQ-372-son Qonuni);
2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risidagi» Qonuni, yangi tahriri 2000 yil 26- may;
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 1996 yil 29-may;
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Yangi taxriri 2007 yil 22 noyabrda tasdiqlangan;
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. 21.12.1995 yil tasdiqlangan;
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM» 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qaroriga ilova.
7. 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" (AV tomonidan 14.08.1998 y. 474-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 26.07.1998 y. 17-17/86-son bilan tasdiqlangan).
8. 2-son BHMS "Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar" (AV tomonidan 26.08.1998 y. 483-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 20.08.1998 y. 41-son bilan tasdiqlangan).
9. 3-son BHMS "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (AV tomonidan 27.08.1998 y. 484-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 25.08.1998 y. 43-son bilan tasdiqlangan).
10. 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralalar" (AV tomonidan 17.07.2006 y. 1595-son bilan ro'yxatga olingan moliya vazirining 15.06.2006 y. 52-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).
11. 5-son BHMS "Asosiy vositalar" (AV tomonidan 20.01.2004 y. 1299-son bilan ro'yxatga olingan moliya vazirining 09.10.2003 y. 114-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).
12. 15-son BHMS "Buxgalteriya balansi" (AV tomonidan 20.03.2003 y. 1226-son bilan ro'yxatga olingan moliya vazirining 12.03.2003 y. 45-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).
13. 17-son BHMS "Kapital qurilishga oid pudrat shartnomalari" (AV tomonidan 23.12.1998 y. 579-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 02.11.1998 y. 58-son bilan tasdiqlangan).
14. 19-son BHMS "Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish" (AV tomonidan 02.11.1999 y. 833-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi tomonidan 19.10.1999 y. EG/17-19-2075-son bilan tasdiqlangan).

15. Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risidagi Nizom (AV tomonidan 14.01.2004 y. 1297-son bilan ro'yxatga olingan moliya vazirining 23.12.2003 y. 131-son Buyrug'i bilan tasdiqlangan).

16. Tovar-moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalar berish va ularni ishonchnomalar bo'yicha berish tartibi to'g'risida Nizom (AV tomonidan 27.05.2003 y. 1245-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 62-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).

#### **TRANSPORT TASHKILOTLARI BUXGALTERIYA HISOBI ISHONCHLILIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

korxonalarning mulkiy holisligi

hisob siyosatini qo'llashning izchilligi

xo'jalik faoliyati faktlarining aniqligi

hisob siyosatiga doir farmoyish hujjatlarining mavjudligi va ularning tarkibi

hisob siyosatiga doir hujjatlar shakllari va qabul qilish muddatlarining me'yoriy  
huiiatlar talablariga munofialioi

me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan hisob usullaridan farq qiladigan, lekin korxonaning mulkiy holatini va  
moliyaviy natijalarini ishonarli aks ettirishga imkon beradigan usullar mavjudligi

hisob siyosatiga rioya qilish

ishchi schyotlar rejasи, namunaviy qabul qilinmagan dastlabki hujjatlar shakllari, hujjatlar aylanishi reja-grafigi va  
hisob axborotlariga ishlav berish texnologiyasi, inventarizatsiya o'tkazish va xo'jalik muomalalarini nazorat qilish

hisob siyosatiga kiritiladigan qo'shimcha va o'zgartishlar to'g'risida buyruq chiqarilganligi  
(№1 BHMS 56. 1. 56. 2. 56. 3. 56. 4 bandlari)

hisob siyosatini shakllantirish chog'ida tanlangan, korxona moliyaviy holatini baholash va qaror qabul qilishga  
sezilarli ta'sir ko'rsatadigan hisob yuritish usullarining mohiyati to'liq ochib berilganligi

**Qurilish tashkilotlarida audit dasturiga kiritilishi lozim  
bo'lgan savollar tartibi**

<b>Auditorlik amallarining nomlanishi va mazmuni</b>	<b>Auditorlik dalillarini olish amallari</b>	<b>Ma'lumot manbalari, auditor ish xujjatlari</b>	<b>Auditorlik amallarining natijalari</b>
<b>Qurilish – montaj ishlarning bajarilishini tekshirish dasturi</b>			
Qurilish - montaj ishlarni topshirish dalolatnomalarining to'g'ri rassmiylashtirilganligi tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish	№KS-6 forma bo'yicha bajarilgan ishlar hisobini yurituvchi jurnal	Buyurtma beruvchi tashkilot va pudrat tashilotlarida mavjud xarajatlar hisobiga ta'lqli ma'lumotlarning muvofiqligini belgilash
Bajarilgan ishlar xajmini tekshirish, Inventarizatsiyada ishtirok etish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, moddiy qiyamatini o'lchash	№ KS-2 formasi bo'yicha qo'rilib montaj ishlarning bajarilishi bo'yicha dalolatnomalar, inventarizatsiya dalolatnomalar,	Loyixa smeta xujjatlarida tasdiqlangan alohida ishlarni bajarish bo'yicha faktlarni aniqlash,
Kapital qurilishni amalga oshirish bilan bog'liq material xarajatlarni tekshirish bo'yicha dastur			
Ishlab chiqarishga sarflangan materiallarning haqiqiy tannarxining hisob siyosatida keltirilgan baholash tizimiga muvofiqligini tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, kuzatish, muqobil balans tayyorlash	Tashkilot hisob siyosati; hisobotlar, materiallarni hisobdan chiqarish dalolatnomalari	Materiallar buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilayotganligin tekshirish, TMZ larni baholashda tashkilot uchun qulay tavsiyanomalarni ishlab chiqish
Qurilish materiallarning haqiqiy tannarxining hisob bahosidan og'ishishlarning to'g'ri sarflanishini tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish, hisob qoidalariga muvofiq kelishini tekshirish	Hisob – kitoblar, hisobotlar, materiallarning sarflanishi bo'yicha dalolatnomalar	Materiallarning buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilishini tekshirish
Materiallarning qo'shimcha sarflanishi bo'yicha nakladnoy talabnomalarni va ularning keyinchalik hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish	Nazoratlash Kuzatish	0800 schyoti bo'yicha Bosh kitobda yuritilishi, nakladnoy – talabnama (M-1 shakl); materiallar hisobi bo'yicha kartochkalar(M-17 shakl, №18	Materiallarning haqiqatda jo'natilgan miqdoridan ortiqcha sarflanishi orqali qurilish tannarhining oshirib qo'rsatilishini tasdiqlash

		(qaydnama)	
Yonilg'i moylash materiallarining mashina va mexanizmlariga to'g'ri sarflanishini tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish, tasdiqlash	Yonilg'i moylash materiallarining me'yirlari Mashina va mexanizmlarining hisobini yuritishi jurnali	Me'yordan ortiqcha yonilg'i moylash materiallarining sarflanishini aniqlanishi
Mashina va mexanizmlarga elektr energiyaning sarflanishini asoslanishi	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish, tasdiqlash	kVt/s sarflar normasi, hisob jurnali	Me'yordan ortiqcha elektr energetikaning sarflanishini aniqlanishi
Mashina va mexanizmlarni jalb etilishi bo'yicha xarajatlarni tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish	№2 shakl bajarilgan ishlar bo'yicha dalolatnama, № KS-3 ma'lumotnomasi, №ESM -7 ma'lumotnomasi	Shartnoma munosabatlарining to'g'ri rassmiylashtirishini tekshirish, xarajatlar hajmining nomuvofiqligining aniqlanishin

## **Qurilish korxonalarida nazorat vositalarini testlash tartibi**

Moliya-xo'jalik operatsiyalari o'tkazishini aks ettiradigan hujjatlari tekshirish va shu munosabat bilan nazorat vositalari tegishli tarzda faoliyat ko'rsatishining auditorlik dalil-isbotlarini olish

Buning to'g'ridan-to'g'ri hujjatlari tasdig'ini olish mumkin bo'lмаган hollarda nazorat vositalari faoliyat ko'rsatishining auditorlik dalil-isbotlarini olish maqsadida operatsiyalarni rasmiylashtirish ustidan kuzatishlar va so'rov o'tkazish

Nazorat vositalari ish qobiliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun boshqa auditorlik rusum-qoidalari natijalaridan foydalanish

## **Qurilish korxonalarida nazorat muhit elementlari**

Siyosat va boshqaruv uslublari

Korxonaning boshqaruv tuzulmasi

Direktorlar kengashi, xususan uning auditorlik komiteti faoliyi

boshqaruv funktsiyalari va mas'uliyatlarni taqsimlash uslublari


nazorat boshqaruv uslublari, shu jumladan ichki audit

Kadrlar siyosati va amaliyot


tashqi ta'sirlar (banklar tekshiruvi, soliq nazorati)




## **Qurilish tashkilotlarida nazorat amallari samaradorligini belgilovchi mezonlar**



### **Qishloq xo'jalik korxonalarida audit o'tkazishning vazifalari**



### **Qishloq xo'jalik korxonalarida auditorlik tekshiruvining ma'lumot manbalari**





**Buxgalteriya hisobi tizimini baholash bo'yicha savolnoma**

<b>Nº</b>	<b>Yo'nalishlar bo'yicha nazorat savollari</b>	<b>Javob</b>	<b>Izoh</b>
	Mayjudligi va saqlanishi bo'yicha		
	-Bosh buxgalter rahbarligidagi buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etilganmi yoki shartnomaga asosida jalg qilingan buxgalterning xizmatidan foydalilaniladimi?		
	-Buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi tanlanganmi?		
	-Xo'jalikda buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklining qaysi turi yuritiladi: a) buxgalteriya hisobining oddiy shakli; b) buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli.		
	-Xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar Rejasini tuzilganmi?		
	-Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Kapital qo'yilmalarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Boquvdagi va o'stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladi?		
	-Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasidan foydalilaniladimi?		
	-Ombor binolariga begona shaxslarning kirishi ta'qilanganmi? -yong'inga qarshi moslamalar bilan jihozlanganmi? -moddiy zaxiralarning kirimi va chiqimi nazorat qilinadimi?		
	-moddiy zaxiralalar inventarizatsiyasi o'tkaziladi? (rejali, tasodifiy).		
	-Inventarizatsiya natijalari hujjatlashtiriladimi?		
	-Inventarizatsiya natijasi bo'yicha moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobot tuziladimi?		

	-Doimiy faoliyat yurituvchi inventarizatsiya komissiyasi mayjudmi?		
	-O'g'irliklar, talon-tarojlik sodir etgan shaxslar va moddiy javobgar shaxslar javobgarlikka tortiladimi?		
	-Omborda tovarlarning miqdori va navi bo'yicha analistik hisob yuritiladimi?		
	-Hujjatlar operatsiya sodir bo'lgan vaqtida tuziladimi?		
	-To'ldirilgan hujjatlar, moddiy javobgar shaxslar imzolarining namunalari mayjudmi?		
	-Birlamchi hujjatlar numeratsiyasi amalga oshiriladimi?		
	-Registratsiya jurnallarida hujjatlar(schet-faktura, ishonchnama) aks ettiriladimi?		
	-Kirim qilingan tovarlarning to'liligi tekshiriladimi?		
	-Qaydnomalardagi, Jurnal-orderlardagi, Bosh-kitobdagi ma'ulmatlar doimiy taqqoslanadimi?		

#### AUDITNING UMUMIY REJASI

**Tekshirilayotgan tashkilot**                   **«Kelajak-baraka» fermer xo'jaligi**  
**Audit davri**   **10.03.14 - 25.03.14**  
**Kishi-soatlar soni**                                   **749**  
**Auditorlik guruhi rahbari**                       **Akbarov S.I.**  
**Auditorlik guruhi tarkibi**                       **Pulatov G.R., Mavlonov V.T., Vasikov P.N.**  
**Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari**       **0.166**  
**Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi**       **26.800 so'm**

Rejalashtirilayotgan ish turlari	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Izoh lar
Qishloq xo'jalik korxonasining ta'sis hujjatlarini tekshirish.	10.03.14	Vasikov P.N.	
Hisob siyosatini mavjudligi, to'g'rilingini tekshirish	11.03.14	Vasikov P.N.	
Asosiy vositalarning mavjudligi, saqlanishini va hisobga olish qaydnomasi tekshirish	12.03.14	Vasikov P.N.	
Ombordagi moddiy-zaxiralar hisobini to'g'rilingini tekshirish	13.03.14	Pulatov G.R.	
Boquvdagi va o'stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasini nazorat qilish	13.03.14	Vasikov P.N.	
Hisoblashishlar va kredit operatsiyalarini tekshirish	14.03.14	Pulatov G.R.	
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olishni tekshirish	15.03.14	Pulatov G.R.	
Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga	16.03.14	Mavlonov V.T.	

olish auditi			
Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olinishini tekshirish	17.03.14	Akbarov S.I.	
Qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish tartibi tekshirish	18.03.14	Akbarov S.I.	
Foydani shakllantirilishi va ishlatilishini tekshirish	10.03.14	Vasikov P.N.	

**Auditorlik tashkilotining rahbari  
Auditorlik guruhining rahbari**

**Sadriev I.  
Akbarov S.I.**

## AUDITNING UMUMIY REJASI

**Tekshirilayotgan tashkilot** «DUNYO» MCHJ

**Audit davri** 10.03.14 - 25.03.14

**Kishi-soatlar soni** 749

**Auditorlik guruhi rahbari** AkbarovS.I.

**Auditorlik guruhi** Pulatov G.R., Mavlonov V.T., Salimov D.G.

**tarkibi**

**Rejallashtirilayotgan auditorlik xatari** 0.0166

**Rejallashtirilayotgan jiddiylik darajasi** 21.800 so'm

Nº	Rejallashtirilayotgan ish turlari	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Izox
1.	Savdo korxonasini ta'sis hujjatlarini tekshirish.	10.03.14	Vasikov P.N.	
2.	Hisob siyosatini mavjudligi, to'g'rilingini tekshirish	11.03.14	Vasikov P.N.	
3.	Asosiy vositalarning mavjudligi va saqlanishini tekshirish	12.03.14	Vasikov P.N.	
4.	Ombordagi tovarlar hisobini to'g'rilingini tekshirish	13.03.14	Pulatov G.R.	
5.	Savdo korxonalarida boshqa aktivlari auditি	13.03.14	Vasikov P.N.	
6.	Hisoblashishlar va kredit operatsiyalarini tekshirish	14.03.14	Pulatov G.R.	
7.	Ulgurji savdo faolyaini hamada tovar muomalalari xarajatlarini to'g'rilingini tekshirish	15.03.14	Pulatov G.R.	
8.	Chakakna savdo faolyaini hamada tovar muomalalari xarajatlarini to'g'rilingini tekshirish	16.03.14	Mavlonov V.T	
9.	Davr xarajatlari auditи	17.03.14	Akbarov S.I.	
11	Savdo korxonalarini soliqqa tortish tartibi tekshirish	18.03.14	Akbarov S.I.	
12	Foydani shakllantirilishi va ishlatalishini tekshirish	19.03.14	Pulatov G.R.	
13	Auditning yakuniy muolajalarini bajarish	20.03.2014-23.03.11	Pulatov G.R.	
14	Auditor hisoboti va auditlik xulosa	24.03.11	Akbarov S.I.	
15	Auditning sifatning ichki nazorati	24.03.11	Akbarov S.I.	
16	Byurtmachi bilan audit natijalari xaqida muloqat	25.03.11	Akbarov S.I.	

**Auditorlik tashkilotining rahbari**

**Auditorlik guruhining rahbari**



Sadiev I.

Akbarov S.I.

**Ichki nazorat tizimini baholash bo'yicha savolnoma**

<b>Nº</b>	<b>Yo'nalishlar bo'yicha nazorat savollari</b>	<b>Javob</b>	<b>Izoh</b>
<b>Mayjudligi va saqlanishi bo'yicha</b>			
1.	-Ombor binolariga begona shaxslarning kirishi ta'qiqlanganmi? -qo'riqchi mayjudmi? -yong'inga qarish moslamalar bilan jihozlanganmi? -Tovarlarning kirimi va chiqimi nazorat qilinadimi?		
2.	Tovarlar inventarizatsiyasi o'tkaziladi? (rejali, tasodifiy).		
3.	Inventarizatsiya natijalari hujjatlashtiriladimi?		
4.	Inventarizatsiya natijasi bo'yicha moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobot tuziladimi?		
5.	Doimiy faoliyat yurituvchi inventarizatsiya komissiyasi mayjudmi?		
6.	O'g'irliklar, talon-tarajlik sodir etgan shaxslar va moddiy javobgar shaxslar javobgarlikka tortiladimi?		
7.	Omborda tovarlarning miqdori va navi bo'yicha analitik hisob yuritiladimi?		
8.	Ombor mudiri va omborchilar bilan moddiy javobgarlik tusidagi shartnomaga tuziladimi?		
9.	Tovarlarni saqlash, kirimi va chiqimiga javobgar shaxslarni xuquq, majburiyatlarini chegaralovchi lavozim yo'rqnomalari ishlab chiqilganmi?		
Tovarlar xarakati, birlamchi hisob			
1.	Xar bir operatsiyaga kirim va chiqim hujjatlari tuziladimi?		
2.	Hujjatlardagi barcha rekvizitlar to'liq to'ldiriladimi?		
3.	Hujjatlar operatsiya sodir bo'lgan vaqtida tuziladimi?		
4.	To'ldirilgan hujjatlar, moddiy javobgar shaxslar imzolarining namunalari mayjudmi?		
5.	Birlamchi hujjatlar tartib raqamlari amalga oshiriladimi?		
6.	Registratsiya jurnallarida hujjatlar(schet-faktura, ishonchnama) aks ettiriladimi?		
7.	Kirim qilingan tovarlarning to'liqligi tekshiriladimi?		
Birlamchi hisob ma'lumotlarini umumlashtirish			
1.	Birlamchi hujjatlar moddiy javobgar shaxsning hisobotiga ilova qilinadimi?		
2.	Hisobot ma'lumotlari birlamchi hujjat ma'lumotlari bilan taqoslanadimi?		
3.	Hisobotdagi arifmetik hisob-kitoblar to'g'riliği tekshiriladimi?		
4.	Tovarlar hisobi avtomatlashtirilganmi?		
5.	Hisob siyosatida tovarlarni hisobga olishning usullari keltirilganmi?		
6.	Qaydnomalardagi, Jurnal-orderlardagi, Bosh-kitobdagi		

	ma'ulmatlar doimiy taqqoslanadimi?		
--	------------------------------------	--	--





## **Transport tashkilotlarida ish hujjatlarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar**

Ish hujjatlari o'z vaqtida: auditning boshlanguniga qadar, uning borishi chogida va tugashi bilan tuzilishi lozim. Xo'jalik yurituvchi sub'ektga auditorlik xulosasining taqdim etilishi vaqtida barcha ish hujjatlari tuzilgan (olingan) va rasmiylashtirilishi nihoyasiga etkazilgan bo'lisi lozim

Ish hujjatlari tarkibiga kiruvchi hujjatlar quyidagi rekvizitlarga ega bo'lisi

Auditning ish hujjatlari sirasiga kiruvchi hujjatlar ularga kiritilgan ma'lumotlar manbaini o'zida mujassamlashtirgan bo'lisi

Agar ish hujjatlarida shartli belgilar (timsollar)dan foydalilanigan bo'lsa, u holda bunday belgilar (timsollar) tushuntirib berilishi

Har bir ish hujjati o'zining raqam ko'rsatkichiga ega bo'lisi

**TRANSPORT TASHKIOTLARIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINING  
UMUMIY REJASI**

**Buxgalteriya hisobi tizimini baholash bo'yicha savolnoma**

<b>Nº</b>	<b>Yo'nalishlar bo'yicha nazorat savollari</b>	<b>Javob</b>	<b>Izoh</b>
<b>Mavjudligi va saqlanishi bo'yicha</b>			
	-Bosh buxgalter rahbarligidagi buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etilganmi yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalterning xizmatidan foydalaniadimi?		
	-Buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi tanlanganmi?		
	-Xo'jalikda buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklining qaysi turi yuritiladi: a) buxgalteriya hisobining oddiy shakli; b) buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli.		
	-Xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar Rejasini tuzilganmi?		
	-Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnomasidan foydalaniadimi?		
	-Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish qaydnomasidan foydalaniadimi?		
	-Kapital qo'yilmalarni hisobga olish qaydnomasidan foydalaniadimi?		
	-Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish qaydnomasidan foydalaniadimi?		
	-Boquvdagi va o'stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasidan foydalaniadimi?		
	-Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasidan foydalaniadidi?		
	-Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasidan foydalaniadimi?		
	-Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasidan foydalaniadimi?		
	-Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasidan foydalaniadimi?		
	-Ombor binolariga begona shaxslarning kirishi ta'qiqlanganmi? -yong'inga qarshi moslamalar bilan jihozlanganmi? -moddiy zaxiralarning kirimi va chiqimi nazorat qilinadimi?		
	-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi o'tkaziladi? (rejali, tasodifiy).		
	-Inventarizatsiya natijalari hujjatlashtiriladimi?		
	-Inventarizatsiya natijasi bo'yicha moddiy javobgar		

	shaxslar tomonidan hisobot tuziladimi?		
	-Doimiy faoliyat yurituvchi inventarizatsiya komissiyasi mavjudmi?		
	-O'g'irliliklar, talon-tarjlik sodir etgan shaxslar va moddiy javobgar shaxslar javobgarlikka tortiladimi?		
	-Omborda tovarlarning miqdori va navi bo'yicha analitik hisob yuritiladimi?		
	-Hujjatlar operatsiya sodir bo'lgan vaqtda tuziladimi?		
	-To'ldirilgan hujjatlar, moddiy javobgar shaxslar imzolarining namunalari mavjudmi?		
	-Birlamchi hujjatlar numeratsiyasi amalga oshiriladimi?		
	-Registratsiya jurnallarida hujjatlar(schet-faktura, ishonchnoma) aks ettiriladimi?		
	-Kirim qilingan tovarlarning to'liqligi tekshiriladimi?		
	-Qaydnomalardagi, Jurnal-orderlardagi, Bosh-kitobdagagi ma'ulmatlar doimiy taqqoslanadimi?		

**Transport tashkilotlarida ichki nazorat tizimini baholash  
bo'yicha savolnoma**

Nº	Yo'nalishlar bo'yicha nazorat savollari	Javob	Izoh
<b>Mavjudligi va saqlanishi bo'yicha</b>			
1.	-Ombor binolariga begona shaxslarning kirishi ta'qiqlanganmi? -qo'riqchi mavjudmi? -yong'inga qarish moslamalar bilan jihozlanganmi? -Tovarlarning kirimi va chiqimi nazorat qilinadimi?		
2.	Tovarlar inventarizatsiyasi o'tkaziladi? (rejali, tasodifiy).		
3.	Inventarizatsiya natijalari hujjatlashtiriladimi?		
4.	Inventarizatsiya natijasi bo'yicha moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobot tuziladimi?		
5.	Doimiy faoliyat yurituvchi inventarizatsiya komissiyasi mavjudmi?		
6.	O'g'irliliklar, talon-tarjlik sodir etgan shaxslar va moddiy javobgar shaxslar javobgarlikka tortiladimi?		
7.	Omborda tovarlarning miqdori va navi bo'yicha analitik hisob yuritiladimi?		
8.	Ombor mudiri va omborchilar bilan moddiy javobgarlik tusidagi shartnoma tuziladimi?		
9.	Tovarlarni saqlash, kirimi va chiqimiga javobgar shaxslarni xuquq, majburiyatlarini chegaralovchi lavozim yo'riqnomalari ishlab chiqilganmi?		
Tovarlar xarakati, birlamchi hisob			
1.	Xar bir operatsiyaga kirim va chiqim hujjatlari tuziladimi?		
2.	Hujjatlardagi barcha rekvizitlar to'liq to'ldiriladimi?		

3.	Hujjatlar operatsiya sodir bo'lgan vaqtida tuziladimi?		
4.	To'ldirilgan hujjatlar, moddiy javobgar shaxslar imzolarining namunalari mavjudmi?		
5.	Birlamchi hujjatlar tartib raqamlari amalga oshiriladimi?		
6.	Registratsiya jurnallarida hujjatlar(schet-faktura, ishonchnama) aks ettiriladimi?		
7.	Kirim qilingan tovarlarning to'liqligi tekshiriladimi?		
Birlamchi hisob ma'lumotlarini umumlashtirish			
1.	Birlamchi hujjatlar moddiy javobgar shaxsning hisobotiga ilova qilinadimi?		
2.	Hisobot ma'lumotlari birlmehi hujjat ma'lumotlari bilan taqqoslanadimi?		
3.	Hisobotdagi arifmetik hisob-kitoblar to'g'riliги tekshiriladimi?		
4.	Tovarlar hisobi avtomatlashtirilganmi?		
5.	Hisob siyosatida tovarlarni hisobga olishning usullari keltirilganmi?		
6.	Qaydnomalardagi, Jurnal-orderlardagi, Bosh-kitobdagi ma'ulmatlar doimiy taqqoslanadimi?		

**Transport tashkilotlari audit dasturiga kiritilishi lozim  
bo'lgan savollar tartibi**

<b>Auditorlik amallarining nomlanishi va mazmuni</b>	<b>Auditorlik dalillarini olish amallari</b>	<b>Ma'lumot manbalari, auditor ish xujjatlari</b>	<b>Auditorlik amallarining natijalari</b>
Qurilish – montaj ishlarining bajarilishini tekshirish dasturi			
Qurilish - montaj ishlarini topshirish dalolatnomalarining to'g'ri rassmiylashtirilganligi tekshirish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish	№KS-6 forma bo'yicha bajarilgan ishlar hisobini yurituvchi jurnal	Buyurtma beruvchi tashkilot va pudrat tashilotlarida mavjud xarajatlar hisobiga ta'lulqi ma'lumotlarning muvofiqligini belgilash
Bajarilgan ishlar xajmini tekshirish, Inventarizatsiyada ishtirok etish	Nazoratlash Xujjatlarni tekshirish, moddiy qiyamatini o'lchash	№ KS-2 formasi bo'yicha qo'rilib montaj ishlarining bajarilishi bo'yicha dalolatnoma, inventarizatsiya dalolatnomalari,	Loyixa smeta xujjatlarida tasdiqlangan alohida ishlarni bajarish bo'yicha faktlarni aniqlash,
Kapital qurilishni amalga oshirish bilan bog'liq material xarajatlarni tekshirish bo'yicha dastur			
Ishlab chiqarishga sarflangan materiallarning haqiqiy tannarxining hisob siyosatida keltirilgan baholash tizimiga muvofiqligini tekshirish	<b>Nazoratlash</b> Xujjatlarni tekshirish, muqobil kuzatish, muqobil balans tayyorlash	Tashkilot hisob siyosati; hisobotlar, hisobdan yuritilayotganligin chiqarish dalolatnomalari	Materiallar buxgalteriya hisobida to'g'ri materiallarni hisobdan yuritilayotganligin tekshirish, TMZ larni baholashda tashkilot uchun qulay tavsiyanomalarini ishlab chiqish
Qurilish materiallarning haqiqiy tannarxining hisob bahosidan og'ishishlarining to'g'ri qilish, sarflanishimi tekshirish	<b>Nazoratlash</b> Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qoidalariga muvofiq kelishini tekshirish	Hisob – kitoblar, hisobotlar, materiallarning sarflanishi bo'yicha dalolatnomalar	Materiallarning buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilishini tekshirish
Materiallarning qo'shimcha sarflanishi bo'yicha nakladnoy talabnomalarini va ularning keyinchalik hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish	<b>Nazoratlash</b> Kuzatish	0800 schyoti bo'yicha Bosh kitobda jo'natilgan miqdoridan yuritilishi, nakladnoy ortiqcha sarflanishi orqali – talabnomasi (M-1) qurilish tannarhining shakl); materiallar oshirib qo'rsatilishini hisobi bo'yichat asdiqlash kartochkalar(M-17 shakl, №18 qaydnama)	Materiallarning haqiqatda jo'natilgan miqdoridan ortiqcha sarflanishi orqali – talabnomasi (M-1) qurilish tannarhining shakl); materiallar oshirib qo'rsatilishini hisobi bo'yichat asdiqlash kartochkalar(M-17 shakl, №18 qaydnama)

Yonilg'i moylash materiallarining mashina vatekshirish, qayta mexanizmlariga to'g'ri hisob – kitob sarflanishini tekshirish	<b>Nazoratlash</b> Xujjatlarni qayta qilish, tasdiqlash	Yonilg'i moylash materiallarining me'yorlari Mashina mexanizmlarining hisobini yuritishi jurnali	Me'yordan ortiqcha yonilg'i moylash materiallarining vasarflanishini aniqlanishi
Mashina va mexanizmlarga elektr energiyaning sarflanishini asoslanishi	<b>Nazoratlash</b> Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish, tasdiqlash	kVt/s sarflar normasi, hisob jurnalni	Me'yordan ortiqcha elektr energetikaning sarflanishini aniqlanishi
Mashina va mexanizmlarni jalb etilishi bo'yicha xarajatlarni tekshirish	<b>Nazoratlash</b> Xujjatlarni tekshirish, qayta hisob – kitob qilish	No2 shakl bajarilgan ishlar bo'yicha munosabatlарining to'g'ri dalolatnomaga, № KS-3 rassmiylashtirishini ma'lumotnomasi, №ESM -7 ma'lumotnomasi	Shartnama munosabatlарining to'g'ri dalolatnomaga, № KS-3 rassmiylashtirishini tekshirish, xarajatlar -7 hajmining nomuvofiqligining aniqlanishin

**TRANSPORT TASHKIOTLARI AUDITINING  
UMUMIY REJASI**

Tekshiriladigan tashkilot *Avtotransport korxonasi*

*Audit davri*

*Kishi - soat soni*

Auditorlik ishchi guruh rahbari \_\_\_\_\_

Auditorlik ishchi guruh tarkibi \_\_\_\_\_

Rejalashtirilgan auditorlik tavakkalchilik \_\_\_\_\_

Rejalashtirilgan muhimlilik darajasi \_\_\_\_\_

	<b>Rejalashtirilgan ish turlari</b>	<b>O'tkazish davri</b>	<b>Bajaruv chi shaxs</b>	<b>Eslatma</b>
1.	Auvtotransport tashkiloti muassislar bilan hisoblashishlar va ta'sis hujjatlarini tekshirish			
2.	Avtotransport korxonalarini hisob siyosati va biznes rejasini to'g'ri ishlab chiqilganligi o'rGANISH			
3.	Pul mablag'lari auditni			
4.	Yoqilg'i, yoqilg'i – moylash mahsulotlari va boshqa tovar moddiy zahiralari auditni			
5.	Harakatdag'i transport tarkibining butligi va undan foydalanish auditorlik tekshirish			
6.	Asosiy vositalarning mavjudligi, saqlanishi va undan foaydalananish auditni			
7.	Avtotransport korxonasida mavjud bo'lgan boshqa aktivlarni tekshirish			
8.	Hisob kitob va kredit muomalarini auditni			
9.	Ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar)ni tashish xarajatlar va tashish tannarxi kalkulyatsiyasini auditni			
10	Davr xaradatlari auditni			
11	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va daromadlarning auditorlik teshiruvi			
12.	Aks ettirilgan daromadlarning ishonchlilagini tekshirish			
13.	Avtotransport korxonalarini soliqqa tortilishni auditni			
14.	Foydaning shakllanishi va undan to'ri foydalanganlikning auditni.			
15	Moliyaviy hisobotlar ochiqligini tekshirish va tekshirish natijalari bo'yicha yakuniy hujjatlar tayyorlash			

Auditorlik tashkiloti rahbari \_\_\_\_\_

Auditorlik guruhi rahbari \_\_\_\_\_

**Avtotransport korxonalarida auditni tashkil qilish va  
rejalashtirish bo'yicha testlar**

№	Tekshirish uchun testlar	Tekshirish uchun hujjatlar	Javob mazmuni		Izoh
			Ha	Yo'q	
1	Avtotransport korxonasining ta'sis hujjatlari belgilangan tartibda ruyxatdan o'tganmi?	Ustav nizomi, ta'sis shartnomasi, ro'yxatdan o'tkazganlik haqida hujjatlar			
2	Korxonaning tashkiliy tuzilmasi: -AJ; - MChJ; - X/K va boshqalar	Ustav Nizomi			
3.	Ustav fondida davlatga tegishli ulush bormi?	AJ bo'sla, emissiya prospekti			
4	Sho'ba va filial tashkilotlar bormi? - Shuba; - Filiallar;	Ustav, uning tashkiliy struktrini tasdiqlovchi hujjat			
5	Avtotransport korxonasi (mijoz)ni tekshirish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladimi?				
6	Shtatdagi ishchilar soni, jami: shu jumladan -boshqaruv; - ishlab chiqarish xodimlari;	Shtat jadvali			
7	Korxona o'zining xo'jalik yuritish dasturini va ustav nizomdagi faoliyatini bajaryaptimi	Kuzatuv kengashi, yig'ilishlari aktsiyadorlar yig'ilishmajlilari			
8	Aktivlarning butligi ta'minlanganligi (harakatdagi tarkib ehtiyyot qismlar, v.b.aktivlar),				

**Avtotransport korxonalarida asosiy vositalar hisobini tekshirish  
bo'yicha testlar**

№	Tekshirish uchun testlar	Tekshirish uchun xujjatlar	Javobning mazmuni		Izoh
			ha	yo'q	
1	Avtotransport korxonasida quyidagi asosiy vositalar bormi? a) xususiy ijara olingan;  b) ishlab chiqarishga; noishlab chiqarishga oid; v) harakatdagi harakatsiz	Buxgalteriya balansi (1-shakl)  Titul ro'yxati inventar kartochkalar (AV-6-shakl) Inventar kartochkalar yozuvi (AV-7-shakl)			
2	Korxonada mavjud AVlar: a) ekspluatatsiyada; b) rekonstruktsiyada; v) rezervda	Titul ro'yxati loyixa-smeta hujjatlari; Inventar kartochkalar (AV-6-shakl) 01, 08-schetlar ma'lumotlari			
3	Avtotranspot korxonasi asosiy vositalarning qanday qismini harakatlanuvchi tarkib tashkil etadi?	Titul ro'yxati Inventar kartochkalar (AV-6-shakl) Inventar kartochkalar ro'yxati (yozuvi) (AV-7-shakl)			
4	AVlar butligini ta'minlovchi moddiy javobgar shaxslar doirasi belgilanganmi?	Buyruq; Moddiy javobgarlik xaqida shartnoma.			
5	AVlar butligini ta'minlovchi sharoitlar yaratilganmi?				
6	AVlar ob'ektlari inventarizatsiyasi o'tkaziladimi?	Buyruq; Inventarizatsiya akti.			
7	Inventarizatsiya to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazilganmi?	Buyruq; Inventarizatsiya akti; Inventarizatsiya va qo'shma (taqqoslama) vedemostlar; Inventarizatsion komissiyalar yig'ilishlari bayonnomalari.			
8	Buxgalteriya hisobida inventarizatsiya natijalari to'g'ri aks ettirilganmi?	Taqqoslama vedemost; Tushintirsh xatlari va moddiy javobgar shaxslar majburiyatlari; Birlamchi xujjatlar va hisob registrlari.			

9	Asosiy vositalarning kelib tushishi va buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini tekshirish: a) kapital qo'yilmalari; - kapital qurilishlari; - to'lov bilan boshqalardan sotib olish; b) tekinga olish; v) muassasalar tomonidan ustav kapitali hisobraqamiga omonatlar kiritilishi; g) moliyalashtirilayotgan lizing shartnomasi bo'yicha olish.	Oldi sotdi shartnomalari; Kapital qurilish uchun loyiha-smeta xujjatlari; Muassislik shartnomasi; Xatlar, bayonnomalar; Lizing shartnomalari v.b.		
10	AVlardan faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha foydalanishlar tekshiriladimi?			
11	AVlarga shikast etkazishdan aybdor shaxs aniqlanadimi?	Tushuntirish xatlari; Birlamchi hujjatlar		
12	AVlar ta'mirlari hajmi va sifatini tekshirish	Pudrat ishlariga shartnomalar; Loyixa smeta hujjatlar; Nuqsonlar defekti; Naryad-buyurtmalar		
13	AVlarning mos keluvchi guruxlarga tasgniflanishi o'tkazilganmi?	Titul ro'yxati Inventar kartochkalari		
14	Asosiy vositalar turlari bo'yicha eskirish stavkalari to'g'ri qo'llanilganmi?	Soliq kodeksi Inventar kartochkalari; AVlar eskirish hisob-kitoblari		
15	Eskirishni hisoblashda qshllaniladigan usullar; a) to'g'ri chiziqli; b) ishlab chiqarishga oid; v) kamayuvchi qoldiq g) kumulyativ;	Korxonaning hisob siyosati		
16	Inventar kartochkalarida eskirishni yozishning tugash muddati sanasi aks etganmi?	Inventar kartochkalari		
17	Eskirishni yozish o'z vaqtida tugatiladimi?	Inventar kartochkalari; AV eskirish hisob siyosati		
18	Ijaraga olingan AVlar hisobi to'g'ri yuritiladimi?	Ijara shartnomasi; Hisob registrlari		
19	Buxgalteriya hisobida chiqib ketgan AVlar to'g'ri aks ettirilganmi ?: a) likvidatsiya (yo'q qilish); b) realizatsiya; v) ustav kapitalga qo'yilma;	Bayonnomalar, xatlар, buyruqlar; Avni likvidatsiya qilish haqida akt (AV-3,AV-4 shakllar)		

	g) moliyaviy lizing shartnomasi bo'yicha berish; d) tezkor lizing shartnomasi bo'yicha	Oldi-sotdi shartnomasi; Muassislik shartnomasi; Ijara shartnomasi			
20	Korxonada lizinga berilgan AVlar mavjudmi?: a) tezkor; b) moliyaviy	Lizing haqida shartnomalar			
21	Lizing shartnomasi bo'yicha berilgan AVlar hisobi to'g'ri yuritiladimi? a) tezkor; b) moliyaviy	Lizing haqida shartnomalar Hisob registrlari			
22	Quyidagi holatlar bo'yicha korxonada asosiy vositalarni qayta baholash o'tkazilganmi? a) 01.04.1992 b) 01.04. 1993 v) 01.01.1995	O'z.R. hukumati qarori; Qayta baholash hisob-kitoblari			
23	Avlarning samarali analitik hisobi tashkil etilganmi, AVlar hisobi inventar kartochkasi yuritiladimi?	Inventar kartochkalarini			
24	AVlar harakatlari bo'yicha hujjatlar aylanishi grafigiga amal qilinadimi?				
25	Balans ma'lumotlarining analitik hisob ma'lumotlariga mosligi	Inventar kartochkalarini; Moddiy javobgar shaxslar bo'yicha korxona bo'yicha yaxlit holdagi inventar ro'yhatlari bilan inventar yozuv (ro'yxat)lari; Bosh kitob bo'yicha 01 va 03 schetlar saldosining korxona bo'yicha inventar ro'yxati; Bosh kitobda balans bilan 01 va 03 schetlar saldosini (1-shakl)			
26	Korxonada asosiy vositalar sotib olish bo'yicha to'lanmagan majburiyatlar bormi?	Hisob registrlari Balans (1-shakl)			
27	Asosiy vositalarning dastlabki qiymati mulkka soliq hisobiga o'z vaqtida va to'liq kiritilganmi?	Buxgalteriya balansi (1-shakl) Mulkka soliq hisobi			
28	Eskirish koefitsienti asosiy fondlar	Buxgalteriya balansi (1-			

	eskirishi summasi asosiy fondlarning mos keluvchi sanaga dastlabki qiymati	shakl)			
29	Yaroqlilik koeffitsientining asosiy fondlarning qiymat qoldig'i asosiy fondlarining dastlabki qiymati	Buxgalteriya balansi (1-shakl)			
30	Asosiy vositalr rentabelligining foydalar Asosiy vositalarning o'rtacha yilli qiymati	Buxgalteriya balansi (1-shakl); Moliyaviy natijalar haqida hisobot (2-shakl); Asosiy vositalar harakatlari haqida hisobot.			

#### ATVlarning sotib olinishini schyotlarda aks ettirilishi auditni

Nº	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schet	Kredit schet	Asos bo'luvchi hujjat
1	ATV ning sotib olish bahosidagi qiyamatiga (QQS bilan birga)	1500000 0	0820	6010	Schyot-faktura, invoys, bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD)
2	ATV bo'yicha bojxona to'lovlar summasiga	9000000	0820	6990	BYuD
3	Sotib olishdagi vositachilik haqi summasiga	150000	0820	6990	Schyot-faktura
4	Sotib olish bo'yicha safar xarajatlari summasiga	750000	0820	6970	Bo'nak hisoboti
5	Transport xarajatlari summasiga	200000	0820	6990	Schyot - faktura
6	Davlat avtonazoratiga to'lovlar summasiga	15525	0820	6990	Schyot-faktura
7	Yo'l fondiga sotib olish qiyamatidan 6 foizlik to'lov summasiga	900000	0820	6520	Schyot, to'lov topshiriq-nomasi
8	ATVni boshlang'ich qiyati bo'yicha kirimiga	2801552 5	0160	0820	Hisob-kitob

**ATVlarning tugatilishini schyotlarda aks ettirilishi auditi**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schet</b>	<b>Kredit schet</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000	9210	0160	Tugatish dalolatnomasi
2	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	5000000	0260	9210	Tugatish dalolatnomasi
3	Tugatishdan olingan ehtiyoq qismlar va metallolomning baholangan qiymatiga	100000	1040, 1090	9210	Tugatish dalolatnomasi
4	Tugatish xarajatlariga	25000	9210	6710, 6520, 6990	Tugatish dalolatnomasi
5	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Tugatish dalolatnomasi
6	Tugatishdan olingan moliyaviy natijaga: -oligan foyda summasiga -ko'rilgan zarar summasiga	575000	9210 - 9430	9310 9210	Tugatish dalolatnomasi

**ATVlarning sotilishini schyotlarda aks ettirilishi auditi**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schet</b>	<b>Kredit schet</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000	9210	0160	Schyot-faktura, ma'lumotno ma
2	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	4000000	0260	9210	Schyot-faktura, ma'lumotno ma
3	ATVning sotish qiymatiga	3000000	4010	9210	Schyot-faktura,
4	QQS summasiga (agar korxona ushbu soliqni to'lovchisi bo'lsa, sotish qiymati va qoldiq qiymat o'rtasidagi farq summasidan) (3000000-1000000)*20%/120%)	333333	9210	6410	Schyot-faktura , hisob-kitob
5	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan	500000	8510	9210	Buxgalteriya ma'lumot-

	rezerv kapitalini kamaytirilishiga				nomasi
6	Sotishdan olingen moliyaviy natijaga: - foyda summasiga - zarar summasiga	2166667 -	9210 9430	9310 9210	Hisob-kitob

**ATVlarning bepul berilishini schytatlarda aks ettirilishi auditi**

Nº	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schet	Kredit schet	Asos bo'luvchi hujjat
1	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000	9210	0160	Schyt-faktura, ma'lumotnomasi
2	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	4000000	0260	9210	Schyt-faktura, ma'lumotnomasi
3	ATVni bepul berishdagi shartnoma qiymatiga	2000000	4010	9210	Schyt-faktura,
4	QQS summasiga (agar korxona ushbu soliqni to'lovchisi bo'lsa, sotish qiymati va qoldiq qiymat o'rtaqidagi farq summasidan) (2000000-1000000)*20%/120%)	166667	9210	6410	Schyt-faktura , Hisob-kitob
5	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Buxgalteriya ma'lumotnomasi
6	Bepul berilgan ATV bo'yicha 9210 schyotning yopilishiga (2000000-1000000Q 500000-166667)	1333333	9210	4010	Hisob-kitob
7	Bepul berishdan ko'rilgan zarar summasiga (2000000-1333333)	666667	9430	4010	Hisob-kitob

**ATVlarning uzoq muddatli ijara berilishini schytatlarda aks ettirilishi auditi**

Nº	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schet	Kredit schet	Asos bo'luvchi hujjat
1	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	15000000	9210	0160	Ijara shartnomasi, schyt-

					faktura, buxgalteriya ma'lumot- nomasi
2	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	14000000	0260	9210	Ijara shartnomasi, schyot-faktura, buxgalteriya ma'lumot-nomasi
3	ATVni uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha shartnoma qiyamatiga	3000000	0920	9210	Ijara shartnomasi, schyot-faktura,
4	ATVni uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha shartnoma qiyamatining joriy qismiga (misol uchun ijara 5 yilga berilgan bo'lsa, joriy yilga doir ijara haqi 600000 so'mni tashkil etadi – 3000000/5)	600000	4810	0920	Ijara shartnomasi, schyot-faktura hisob-kitob
5	Uzoq muddatli ijara to'lovi summasining kelib tushushiga	600000	5110	4810	Bank ko'chirmasi
6	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Buxgalteriya ma'lumot-nomasi
7	Uzoq muddatli ijaradan olingan daromadni kechiktirilgan summasiga	2500000 -	9210	7230	Hisob-kitob
8	Kechiktirilgan daromadning joriy qismiga (2500000/5)	500000	7230	6230	Hisob-kitob
9	Uzoq muddatli ijaradan olingan daromadni hisobot davr daromadiga qo'shilishiga	500000	6230	9390	Hisob-kitob

**ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan  
daromadlarni schyotlarda aks ettirilishi audti**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schet</b>	<b>Kredit schet</b>	<b>Asos bo'lувчи hujjat</b>
1	Naqd pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromad summasiga	5000000	5010	9030	Kirim kassa orderi
2	Naqd pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasiga	1000000	5010	6410	Kirim kassa orderi
3	Naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromad summasiga	30000000	4010	9030	Schyt-faktura
4	Naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasiga	6000000	4010	6410	Schyt-faktura
5	Yo'lovchi tashish transporti haydovchisi tomonidan yo'l haqi evaziga sotib olingan yoqilg'iga	500000	1040	9030	NKM cheki, Kvitantsiya
6	Yo'lovchi tashish transporti haydovchisi tomonidan yo'l haqi evaziga qilingan ta'mirlash ishlariga	300000	2010	9030	Kvitantsiya, dalolatnomalar, rahbar buyrug'i (qarori)
7	ATV ish faoliyatidan olingan daromadlarni hisobga oluvchi schyotning yopilishiga	35800000	9030	9910	Buxgalteriya hisob-kitobi

## **ФАН МАВЗУЛАРИ ВО'YICHA TESTLAR**

### **1. Auditorlik faoliyati deganda nima tushuniladi?**

- A. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati.
- B. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishi.
- C. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati.
- D. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va moliyaviy hisobotga xulosa berishi, natijalarni yuqori tashkilotga taqdim qilishiga doir faoliyati.
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

### **2. Auditorlik xizmatlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat?**

- A. Axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirishdir.
- B. Axborotdan foydalanuvchilarga ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlashga yordam beradi.
- C. Iqtisodiy axborotlarni haqqoniyligini tasdiqlash.
- D. Inqirozga tushmaslik uchun qarorlarning qabul qilinishini nazorat qilish.
- E. To'g'ri javob B, C, D.

### **3. Qaysi turdag'i tashkilotlarga auditorlik faoliyatini amalga oshirish taqiqlanadi?**

- A. MCHJ ko'rinishidagi auditorlik tashkilotlariga.
- B. Yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatni shaklidagi auditorlik tashkilotlariga.
- C. Davlat hokimiyati va boshqaruva organlariga.
- D. A va B.
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

### **4. Qaysi javobda auditorlik tashkilotiga to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A. Auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.
- B. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish malaka sertifikatiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.
- C. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.
- D. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish patentiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.
- E. To'g'ri javob mavjud emas

### **5. Germaniyada auditorlik kasbi nima, deb nomlangan?**

- A. Jamoatchi-buxgalter.
- B. Buxgalter ekspert.
- C. Schotlar bo'yicha komissar.
- D. Xo'jalik nazoratchisi.
- E. B va C javoblar to'g'ri.

### **6. Hisob registrlari va hujjatlar tekshirilishi auditorlik faoliyatining qaysi turiga tegishli?**

- A. Tasdiqlovchi audit.
- B. Maqsadli sistemali audit.
- C. Tavakkalchilikka asoslangan audit.

- D. Tekshiruvchi va nazorat qiluvchi audit.  
E. C va D javoblari to‘g‘ri.

**7. Auditorlar qachon ichki nazorat orqali ekspertiza o‘tkaza boshlashdi?**

- A. Tavakkalchilikka asoslangan audit shakllanishi bilan.  
B. Maqsadli sistemali audit shakllanishi bilan.  
C. Tasdiqlovchi audit shakllanishi bilan.  
D. Bosh auditorlik apparati shakllanishi bilan.  
E. A, D javob to‘g‘ri.

**8. Audit va buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi asosiy farq nimada namoyon bo‘ladi?**

A. Auditning buxgalteriya hisobidan asosiy farqi korxonada sodir etilgan xo‘jalik operatsiyalarini faqatgina korxona rahbariyati talab qilgandagina hisobga olishi va tekshirishida namoyon bo‘ladi.

B. Auditning buxgalteriya hisobidan asosiy farqi korxonada sodir etilgan va hisobga olingan barcha xo‘jalik operatsiyalarini mustaqil shaxs hisoblangan auditor tomonidan tekshirishida namoyon bo‘ladi.

C. Auditning buxgalteriya hisobidan asosiy farqi mustaqil shaxs hisoblangan auditor yoki korxona xodimlari tomonidan korxonada sodir etilgan va hisobga olingan barcha xo‘jalik operatsiyalarini hamda moliyaviy hisobotlarini qonunchilikka muvofiq va axborotlar ishonchli ekanligini tekshirib, yakunda ular bo‘yicha xolisona xulosa berishda namoyon bo‘ladi.

- D. Audit bilan buxgalteriyasi o‘rtasida farq mavjud emas.  
E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

**9. Auditning yuzaga kelish shart-sharoitlari nimalarda namoyon bo‘ladi?**

A. Axborot yyetkazib beruvchilar (ma’muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aksiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi.

B. Noto‘g‘ri axborotlarga asoslangan holda xo‘jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi.

C. Korxonalarning soni juda ham ko‘payib ketishi natijasida ularni nazorat qiluvchi organlar sonini ham oshirish sharoitining vujudga kelish natijasida.

- D. A va B.  
E. A va C.

**10. Nazorat taftish bo‘linmalarining asosiy funksiyasi nimadan iborat?**

- A. Davlat budjeti daromadlar qismining to‘ldirilishini nazorat qiladi.  
B. Budjet mablag‘larining to‘g‘ri sarflanishini nazorat qiladi.  
C. Korxonalarni moliva-xo‘jalik faoliyatiga baho berish va nazorat qilish.  
D. A va B.  
E. B va C.

**11. Majburiy audit to‘g‘risidagi qonun dastlab qaysi mamlakatda qabul qilingan?**

- A. Fransiya.  
B. Germaniya.  
C. Angliya.  
D. AQSH.  
E. Gollandiya.

**12. Auditning dastlabki rivojlanish bosqichi?**

- A.Tizimli audit.
- B.Tasdiqlovchi audit.
- C.Tavakkalchilikka asoslangan audit.
- D.Aralash audit.
- E.Baholovchi audit.

**13. O‘zbekistonda davlat hokimiyyati organlari auditorlik tekshiruvlarini...**

- A. O‘tkazishlari mumkin.
- B. O‘tkazishlari mumkin emas.
- C. O‘tkazishlari mumkin, litsenziyaga ega bo‘lsa.
- D. VM qarori bilan.
- E. Sud qarori bilan.

**14. O‘zbekistonda malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil, notijorat jamoat tashkiloti?**

- A. Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi.
- B. Auditorlar palatasi.
- C. Auditorlar kongressi.
- D. Buxgalterlar palatasi.
- E. Moliya vazirligi.

**15. Auditning xalqaro standartlari qaysi tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan?**

- A. Xalqaro buxgalterlar uyushmasi.
- B. AQSH auditorlar kengashi.
- C. Yevropa ittifoqi auditorlar uyushmasi.
- D. Auditorlik amaliyoti bo‘yicha xalqaro Komitet.
- E. Milliy auditorlik uyushmalari qo‘mitasi.

**16. «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilindi?**

- A. 1999, 25- may.
- B. 2000, 26- may.
- C. 2001, 13- aprel.
- D. 2002, 17- may.
- E. 2003, 4 - avgust.

**17. O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining milliy standartlari qaysi organ tomonidan ishlab chiqiladi?**

- A. Auditorlar palatasi.
- B. Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi.
- C. Iqtisodiyot vazirligi.
- D. Moliya vazirligi.
- E. Davlat soliq qo‘mitasi.

**18. Quyidagi tashkilotlardan qaysi biri har yili majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazishi shart emas?**

- A. Aksionerlik jamiyatlari.
- B. Banklar va boshqa kredit tashkilotlari.
- C. Sug'urta tashkilotlari.
- D. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar.
- E. Investitsiya fondlari.

**19. Majburiy auditorlik tekshiruvining o'tkazish muddati qanday?**

- A. Hisobot yilidan keyingi yilning 1 - mayigacha.
- B. Hisobot yilidan keyingi yilning 1 - fevraligacha.
- C. Hisobot yilidan keyingi yilning 1- apreligacha.
- D. Hisobot yilidan keyingi yilning 1- martigacha.
- E. Hisobot yilidan keyingi yilning 1- iyunigacha.

**20. Majburiy auditorlik tekshiruvidan bo'yin tovlaganligi uchun undiriladigan jarimalar miqdori qanchani tashkil etadi?**

- A. Minimal ish haqining 100 baravarigacha.
- B. Minimal ish haqi 50 baravaridan 500 baravarigacha.
- C. Minimal ish haqi 200 baravaridan 400 baravarigacha.
- D. Minimal ish haqi 100 baravaridan 300 baravarigacha.
- E. Minimal ish haqi 100 baravaridan 200 baravarigacha.

**21. Auditorlik faoliyati deganda nima tushuniladi?**

- A. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati.
- B. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishi.
- C. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati.
- D. Auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va moliyaviy hisobotga xulosa berishi, natijalarni yuqori tashkilotga taqdim qilishiga doir faoliyati.
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

**22. Auditorlik xizmatlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat?**

- A. Axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirishdir.
- B. Axborotdan foydalanuvchilarga ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlashga yordam beradi.
- C. Iqtisodiy axborotlarni haqqoniyligini tasdiqlash.
- D. Inqirozga tushmaslik uchun qarorlarning qabul qilinishini nazorat qilish.
- E. To'g'ri javob B, C, D.

**23. Qaysi turdag'i tashkilotlarga auditorlik faoliyatini amalga oshirish taqiqlanadi?**

- A. MCHJ ko'rinishidagi auditorlik tashkilotlariga.
- B. Yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatni shaklidagi auditorlik tashkilotlariga.
- C. Davlat hokimiyati va boshqaruva organlariga.
- D. A va B.
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

**24. Qaysi javobda auditorlik tashkilotiga to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A. Auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.
- B. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish malaka sertifikatiga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir.
- C. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir.
- D. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish patentiga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir.
- E. To‘g‘ri javob mavjud emas

**25. Germaniyada auditorlik kasbi nima, deb nomlangan?**

- A. Jamoatchi-buxgalter.
- B. Buxgalter ekspert.
- C. Schotlar bo‘yicha komissar.
- D. Xo‘jalik nazoratchisi.
- E. B va C javoblar to‘g‘ri.

**26. Hisob registrlari va hujjatlar tekshirilishi auditorlik faoliyatining qaysi turiga tegishli?**

- A. Tasdiqlovchi audit.
- B. Maqsadli sistemali audit.
- C. Tavakkalchilikka asoslangan audit.
- D. Tekshiruvchi va nazorat qiluvchi audit.
- E. C va D javoblari to‘g‘ri.

**27. Auditorlar qachon ichki nazorat orqali ekspertiza o‘tkaza boshlashdi?**

- A. Tavakkalchilikka asoslangan audit shakllanishi bilan.
- B. Maqsadli sistemali audit shakllanishi bilan.
- C. Tasdiqlovchi audit shakllanishi bilan.
- D. Bosh auditorlik apparati shakllanishi bilan.
- E. A, D javob to‘g‘ri.

**28. Audit va buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi asosiy farq nimada namoyon bo‘ladi?**

- A. Auditning buxgalteriya hisobidan asosiy farqi korxonada sodir etilgan xo‘jalik operatsiyalarini faqatgina korxona rahbariyati talab qilgandagina hisobga olishi va tekshirishida namoyon bo‘ladi.
- B. Auditning buxgalteriya hisobidan asosiy farqi korxonada sodir etilgan va hisobga olingan barcha xo‘jalik operatsiyalarini mustaqil shaxs hisoblangan auditor tomonidan tekshirishida namoyon bo‘ladi.
- C. Auditning buxgalteriya hisobidan asosiy farqi mustaqil shaxs hisoblangan auditor yoki korxona xodimlari tomonidan korxonada sodir etilgan va hisobga olingan barcha xo‘jalik operatsiyalarini hamda moliyaviy hisobotlarini qonunchilikka muvofiq va axborotlar ishonchli ekanligini tekshirib, yakunda ular bo‘yicha xolisona xulosa berishda namoyon bo‘ladi.
- D. Audit bilan buxgalteriyasi o‘rtasida farq mavjud emas.
- E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

**29. Auditning yuzaga kelish shart-sharoitlari nimalarda namoyon bo‘ladi?**

- A. Axborot yyetkazib beruvchilar (ma’muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aksiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi.

B. Noto‘g‘ri axborotlarga asoslangan holda xo‘jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi.

C. Korxonalarning soni juda ham ko‘payib ketishi natijasida ularni nazorat qiluvchi organlar sonini ham oshirish sharoitining vujudga kelish natijasida.

D. A va B.

E. A va C.

**30. Nazorat taftish bo‘linmalarining asosiy funksiyasi nimadan iborat?**

A. Davlat budjeti daromadlar qismining to‘ldirilishini nazorat qiladi.

B. Budjet mablag‘larining to‘g‘ri sarflanishini nazorat qiladi.

C. Korxonalarni moliya-xo‘jalik faoliyatiga baho berish va nazorat qilish.

D. A va B.

E. B va C.

**31. Majburiy audit to‘g‘risidagi qonun dastlab qaysi mamlakatda qabul qilingan?**

A. Fransiya.

B. Germaniya.

C. Angliya.

D. AQSH.

E. Gollandiya.

**32. Auditning dastlabki rivojlanish bosqichi?**

A.Tizimli audit.

B.Tasdiqlovchi audit.

C.Tavakkalchilikka asoslangan audit.

D.Aralash audit.

E.Baholovchi audit.

**33. O‘zbekistonda davlat hokimiyyati organlari auditorlik tekshiruvlarini...**

A. O‘tkazishlari mumkin.

B. O‘tkazishlari mumkin emas.

C. O‘tkazishlari mumkin, litsenziyaga ega bo‘lsa.

D. VM qarori bilan.

E. Sud qarori bilan.

**34. O‘zbekistonda malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil, notijorat jamoat tashkiloti?**

A. Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi.

B. Auditorlar palatasi.

C. Auditorlar kongressi.

D. Buxgalterlar palatasi.

E. Moliya vazirligi.

**35. Auditning xalqaro standartlari qaysi tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan?**

A. Xalqaro buxgalterlar uyushmasi.

B. AQSH auditorlar kengashi.

C. Yevropa ittifoqi auditorlar uyushmasi.

D. Auditorlik amaliyoti bo‘yicha xalqaro Komitet.

E. Milliy auditorlik uyushmalari qo'mitasi.

**36. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilindi?**

- A. 1999, 25- may.
- B. 2000, 26- may.
- C. 2001, 13- aprel.
- D. 2002, 17- may.
- E. 2003, 4 - avgust.

**37. O'zbekistonda auditorlik faoliyatining milliy standartlari qaysi organ tomonidan ishlab chiqiladi?**

- A. Auditorlar palatasi.
- B. Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi.
- C. Iqtisodiyot vazirligi.
- D. Moliya vazirligi.
- E. Davlat soliq qo'mitasi.

**38. Quyidagi tashkilotlardan qaysi biri har yili majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishi shart emas?**

- A. Aksionerlik jamiyatları.
- B. Banklar va boshqa kredit tashkilotları.
- C. Sug'urta tashkilotları.
- D. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar.
- E. Investitsiya fondları.

**39. Majburiy auditorlik tekshiruvining o'tkazish muddati qanday?**

- A. Hisobot yilidan keyingi yilning 1 - mayigacha.
- B. Hisobot yilidan keyingi yilning 1 - fevraligacha.
- C. Hisobot yilidan keyingi yilning 1- aprelijacha.
- D. Hisobot yilidan keyingi yilning 1- martigacha.
- E. Hisobot yilidan keyingi yilning 1- iyunigacha.

**40. Majburiy auditorlik tekshiruvidan bo'yin tovlaganligi uchun undiriladigan jarimalar miqdori qanchani tashkil etadi?**

- A. Minimal ish haqining 100 baravarigacha.
- B. Minimal ish haqi 50 baravaridan 500 baravarigacha.
- C. Minimal ish haqi 200 baravaridan 400 baravarigacha.
- D. Minimal ish haqi 100 baravaridan 300 baravarigacha.
- E. Minimal ish haqi 100 baravaridan 200 baravarigacha.

**41. Auditor tovar-moddiy zaxiralarni to'g'ri baholanishini tekshirganda qaysi BHMSga muvofiqligini tekshirishi kerak?**

- A. 1-BHMS bilan;
- B. 5-BHMS bilan;
- C. 15-BHMS bilan;
- D. 4-BHMS bilan;
- E. To'g'ri javob mavjud emas.

**42. TMZlarni tekshirishda auditorlik amallari qanday amallarga bo‘linadi?**

- A. Inventarizatsiyagacha bajariladigan amallar.
- B. Inventarizatsiya vaqtida bajariladigan amallar.
- C. Inventarizatsiyadan so‘ng bajariladigan amallar.
- D. A, B, C.
- E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

**43. Auditor tovar-moddiy zaxiralarining tushumi va kirim qilinishi qanday hujjatlar asosida tekshiradi?**

- A. Mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida.
- B. Tovar-transport nakladnoylari, schot-fakturalar asosida.
- C. Qadoqlash (upakovka) yorliqlari, sifat guvohnomasi, qabul kvansiyasi va boshqalar asosida.
- D. Mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar va kuzatib boruvchi hujjatlar asosida.
- E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

**44. Omborxonada sodir bo‘lgan kirim muomalalarini tekshirishning umumiy usuli aniqlang?**

- A. Inventarizatsiya usuli.
- B. Omborxona kirim hujjatlarini mol yetkazib beruvchilarning kuzatib boruvchi hujjatlari yoki materiallarni chakana savdoda naqd pulga sotib olish hujjatlari bilan solishtirish.
- C. Omborxona kirim hujjatlarini mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar bilan solishtirish.
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.
- E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

**45. Tekshiruv mobaynida tuziladigan taqqoslash qaydnomalarini kimlar imzolaydi?**

- A. Faqat auditor.
- B. Bosh buxgalter va moddiy javobgar shaxs
- C. Auditor va bosh buxgalter
- D. Auditor, bosh buxgalter va moddiy javobgar shaxs
- E. To‘g‘ri javob mavjud emas

**46. TMZlar kamomadining aniq aybdorlari topilmagan yoki moddiy javobgar shaxslardan undirib olish imkonini bo‘laman hollarda ko‘rilgan zarar so‘mmasi daromad (foyda) solig‘ini hisoblashda umumiy belgilangan tartibda soliqqa tortiladigan bazaga qo‘shiladimi?**

- A. Ha.
- B. Yo‘q.
- C. Ba’zi paytlarda qo‘shiladi.
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.
- E. Aksincha soliq bazasidan ayrıldi.

**47. Tekshiruv jarayonida korxonada konsignatsiya shartlari asosida olingan tovarlar mavjud ekanligi hamda bu tovarlar 2910-“Ombordagi tovarlar”-**

**hisobvaraqda aks ettirilganligi aniqlandi. Aslida bunday tovarlar qaysi hisobvaraqda hisobga olinishi zarur?**

- A. 001-“Operativ lizing bo‘yicha olingan asosiy vositalar”;
- B. 002-“Mas’ul saqlashga olingan tovar-moddiy boyliklar”;
- C. 003-“Qayta ishlashga olingan materiallar”;
- D. 004-“Komissiyaga olingan tovarlar”;
- E. To‘g‘ri javob mavjud emas.

**48. Tovar moddiy zaxiralari audit qaysi BHMSlarga asosan o‘tkaziladi?**

- A. 5, 6, 10;
- B. 1, 4, 19;
- C. 12, 16, 20;
- D. 3, 9, 15;
- E. 5, 4, 16.

**49. Agar TMZ sotilayotgan paytda uning bahosi tannarxidan tushib ketsa, QQS qaysi so‘mmadan hisoblanadi?**

- A. Realizatsiya bahosidan.
- B. Tannarxidan.
- C. Realizatsiya va tannarx baholari farqidan.
- D. Bozorda yurib turgan bahodan.
- E. Boshlang‘ich bahoda.

**50. TMZ larning sotilishi bo‘yicha auditor qaysi schot ma’lumotlarini tekshirishi kerak?**

- A 1010, 9220, 6410;
- B 0110, 1510, 2010;
- C 2810, 5010, 5710;
- D 9220, 1010, 0110;
- E To‘g‘ri javob mavjud emas.

**51. Mamlakatimizda avtomobilda yuk va yo’lovchilar tashish faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar kim tomonidan beriladi?**

- A. O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi
- B. O’zbekiston avtomobil agentligi
- C. “O’zavtotemiryo’lnazorat” inspeksiysi
- D. “O’zavtoavianazorat” inspeksiysi

**52. Mamlakatimizda avtomobilda yuk va yo’lovchilar tashish faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar kim tomonidan beriladi?**

- A. O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi\*
- B. O’zbekiston avtomobil agentligi
- C. “O’zavtotemiryo’lnazorat” inspeksiysi
- D. “O’zavtoavianazorat” inspeksiysi

**53. Quyidagilardan qaysi biri temiryo’l transportida yo’lovchilarni va yuklarni tashish uchun lisensiya talablari emas?**

- A. Yo’lovchi va bagajni tashish qoidalariiga rioya qilish
- B. Yuklarni tashish qoidalariiga rioya qilish

- C. Harakat va texnika xavfsizligini ta'minlash
- D. Yuqoridagilarning barchasi

**54. Tekshiruv jarayonida transport sohasida faoliyat yuritayotgan korxona rahbariyati va xodimlar malakaviy darajalarining pastligi aniqlandi, bu qaysi riskka ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi?**

- A. aniqlanmaslik riski
- B. ichki xo'jalik riski
- C. nazorat riski
- D. ishonchlilik riski

**55. Aholining hayoti va sog'ligini xavf ostiga qo'ygan epidemiya talablarini tugatish ishlari bilan bog'liq tashishni amalga oshirayotgan korxonalarga temir yo'l transportida yo'lovchilarни va yuklarni tashish uchun litsenziya talab etiladimi?**

- A. Mahalliy yo'nalishda tashish uchun talab etiladi
- B. Xalqaro yo'nalishda tashish uchun talab etiladi
- C. Umuman talab etilmaydi
- D. Har doim talab etiladi

**56. Mahalliy va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchi va yuklarni tashish faoliyati bilan jismoniy shaxslar shug'ullanishi mumkinmi?**

- A. Mahalliy yo'nalishlarda mumkin
- B. Mahalliy yo'nalishlarda faqat yo'lovchi tashish mumkin
- C. Mahalliy yo'nalishlarda faqat yuk tashish mumkin
- D. Mumkin emas

**57. Mahalliy va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha temir yo'l transportida yo'lovchi va yuklarni tashish faoliyati uchun beriladigan litsenziyaning muddati qanday?**

- A. Muddati cheklanmagan
- B. 5 yil
- C. 3 yil
- D. 10 yil

**58. Transport tashkilotlarida o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvini rejalashtirish nechanchi «Auditorlik faoliyatining milliy standarti» bilan belgilangan?**

- A. № 3
- B. № 9
- C. № 14
- D. № 16

**59. Transport tashkilotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazayotgan auditor tekshiruvni hisobotdagi har bir satr bo'yicha moddiylikni alohida satrlar bo'yicha yig'ilishi usulidan foydalanib o'tkazmoqda, ushbu usulning nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?**

- A. analiz usuli
- B. induktsiya usuli
- C. sintez usuli
- D. deduktsiya usuli

**60. Transport tashkilotlarida tashkil etilgan ichki nazorat tizimi quyidagi qaysi tarkibiy qismlarga bo'linadi?**

- A. kadrlar masalasi va amaliyoti boshqaruv funksiyalari, ma'suliyatni taqsimlash uslublari
- B. siyosat va boshqaruv uslublari va tuzilmasi
- C. nazorat muhiti, korxonadagi buxgalterlik hisobi tizimi, nazorat amallari
- D. Ichki nazorat tizimi tarkibiy qismlarga ega emas

**61. Transport tashkilotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazayotgan auditor 3-son AFMSga muvofiq auditni rejalashtirishni necha bosqichda amalga oshiradi?**

- A. 2 bosqich
- B. 4 bosqich
- C. 5 bosqich
- D. 3 bosqich

**62. Transport tashkilotlarida o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvining dastlabki rejasini tuzishdan tortib, to umumiyligi rejasi va dasturini tuzgunga qadar bo'lgan barcha bosqichlarni o'zaro bog'liqligi va muvofiqligini ta'minlovchi tamoyil qaysi?**

- A. uyg'unlik
- B. mustaqillik
- C. uzluksizlik
- D. konfidentsiallik

**63. Transport tashkilotlarida o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvining kutilayotgan ishlardan quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi biri aks ettirilmaydi?**

- A. audit o'tkazish muddati va ishlarning davomiyligi
- B. auditorlik tekshiruvi uchun haq
- C. bajariladigan ishlardagi hajmi
- D. auditor qo'llaydigan usullar va amallar

**64. Tekshiruv o'tkazayotgan auditor transport tashkilotining buxgalteriya hisobining shakli va tashkiliy tuzilishining bayonini rejalashtirishning qaysi bosqichida tayyorlashi lozim?**

- A. ikkinchi bosqichida
- B. to'rtinchi bosqichida
- C. birinchi bosqichida
- D. uchinchi bosqichida

**65. Transport tashkilotining iqtisodiga ta'sir qiladigan ichki omillarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?**

- A. mamlakatdagi mavjud infliyatsion holat
- B. mamlakatning transport tarmoq holati
- C. mamlakat soliq siyosati
- D. transport tashkilotining uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlari

**66. Transport tashkilotining hisob siyosati to'g'risidagi taqdim etilgan buyruq (farmoyish) auditning qaysi usuliga ko'ra tekshiriladi?**

- A. test sinoviga ko'ra
- B. skanerlashga ko'ra
- C. inventarizatsiyaga ko'ra
- D. hisob siyosati tekshirilmaydi

**67. Transport tashkilotlarida o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish shakllari va uslublari kim tomonidan aniqlanadi?**

- A. Transport tashkiloti tomonidan
- B. Auditorlik tashkiloti
- C. Transport tashkiloti va auditorlik tashkiloti birqalikda
- D. Auditorlar palatasi

**68. Transport tashkilotlarida o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari natijasidan quyidagilarning qaysi biri moliyaviy hisobotdan manfaatdor foydalanuvchilar guruhiiga kiradi?**

- A. sug'urta kompaniyalar
- B. auditorlik tashkilotlari
- C. kreditorlar va aktsiyadorlar
- D. fermer xo'jaliklari

**69. Transport tashkiloti xodimlari tomonidan bajariladigan maxsus tekshiruvlar nima deb ataladi?**

- A. korxonadagi buxgalterlik hisobi tizimi
- B. nazorat muhiti
- C. ichki nazorat tizimi
- D. nazorat amallari

**70. Transport tashkilotlarida o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari natijasida to'plangan auditorlik dalillaridan qaysi biri ishonchliroq?**

- A. Transport tashkilotidan olingen yozma dalillar
- B. Transport tashkilotidan olingen og'zaki dalillar
- C. Transport tashkilotidan olingen rasmiy dalillar
- D. Transport tashkilotidan olingen ichki dalillar

**71. Transport tashkiloti faoliyatining umumiy tavsifi auditorlik hisobotining qaysi qismida ko'rsatiladi?**

- A. Tahlil
- B. Kirish
- C. Adresat
- D. Yakuniy

**72. Quyidagilardan qaysi birini yo'lovchi tashishga mo'ljallangan transport tashkilotlari uchun tannarxni kalkulyatsiya qilish birligi sifatida qarash mumkin?**

- A. 1 tonna-kilometr
- B. 1 kishi-kilometr
- C. 1 ta yo'lovchi
- D. b va c javoblar

**73. Transport tashkiloti tomonidan moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish natijalarini to'g'risidagi axborotlar auditorlik hisobotining qaysi qismida ko'rsatiladi?**

- A. Yakuniy
- B. Adresat
- C. Kirish
- D. Tahlil

**74. Transport tashkilotlari idagi mayjud nomoddiy aktivlarning inventarizatsiyasini amalga oshirishda auditor qaysi standartga asoslanadi?**

- A. BHMS №4
- B. BHMS №19
- C. BHMS №5
- D. BHMS №1

**75. Transport tashkilotlarda transport yordamida yo'lovchi tashishda shaharichi marshrutlaridan tushgan tushumlar QQSGa tortiladimi?**

- A. QQSGa tortiladi
- B. QQSGa tortilmaydi
- C. O foizlik stavkada tortiladi
- D. Transport tashkilotining mulkchilik shakliga bog'liq

**76. Transport tashkilotiga kirim qilinayotgan avtotransport vositasining boshlang'ich qiymati qaysi normativ-huquqiy hujjatga muvofiq belgilanadi?**

- A. Transport tashkilotining dastlabki hujjatlariga muvofiq
- B. BHMS №5 muvofiq
- C. BHMS №7 muvofiq
- D. Transport tashkilotining nizomiga muvofiq

**77. Transport tashkilotlarda uzoq muddatli aktivlar auditida dalillar yig'ish qaysi standart talablari asosida bo'lishi kerak?**

- A. 70-ton AFMS
- B. 60-ton AFMS
- C. 50-ton AFMS
- D. 90-ton AFMS

**78. Transport tashkilotlarda o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari jarayonida tanlashni amalga oshirishda olingan natijalarni butun tekshirilayotgan jamlanmaga tatbiq etish nima deb ataladi?**

- A. Determinlash
- B. Difraktsiyalash
- C. Dispersiyalash
- D. Ekstrapolyatsiyalash

**79. Tekshiriladigan to'plamning barcha elementlaridan teng miqdorda tanlah ehtimolining ta'milanishi nima deb ataladi?**

- A. Stratifikatsiya
- B. Dispersiya

- C. Ekstrapolyatsiya
- D. Reprezentativlik

**80. Quyidagi operatsiyalardan qaysi biri transport tashkilotlarida tekin olingan avtotransport vositalarini buxgalteriyada to'g'ri aks ettiradi?**

- A. Dt 0160
- Kt 8530
- B. Dt 0820
- Kt 6010
- C. Dt 0820
- Kt 6990
- D. Dt 0160
- Kt 8510

**81. Tekshiruv chog'ida auditor transport tashkiloti ustav kapitalini ko'paytirishning quyidagi manbalaridan qaysi birini noqonuniy deb hisoblaydi?**

- A. oldingi yil yakuni bo'yicha taqsimlanmagan foyda
- B. jamg'arma, iste'mol va boshqa fondlar hamda ishlatilmagan zahiralar mablag'lari
- C. uzoq muddatli bank kreditlari
- D. emitent-aktsiyadorlik jamiyatining o'z aktsiyalarini ularning nominal qiymatidan yuqori bahoda sotishdan olingan mablag'lar ya'ni emission daromad

**82. Auditorlik tekshiruvi natijasida etkazilgan zararlarni undirish bo'yicha daromadlar moliyaviy daromadlar tarkibiga qo'shilganligi aniqlandi. Qonunchilikka binoan bu turdag'i daromad qaysi qatorga qo'shilishi kerak?**

- A. asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar
- B. moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar
- C. mahsulot sotishdan olingan sof tushum
- D. favqulodda daromadlar

**83. Transport tashkilotlarida 1 tonna-kilometr (t/km) yuk aylanmasining tannarxi qanday aniqlanadi?**

- A. Yuk tashish avtomobil transportini ekspluatsiyasi uchun sarflangan jami xarajatlarni jami bajarilgan ish hajmi, ya'ni yuk aylanmasi miqdoriga bo'lish orqali
- B. Texnik soz yuk tashish uchun yaroqli bo'lgan avtomobillar sonini ularning shu davrda jami ro'yxatdagi soniga bo'lish orqali
- C. Jami ishga chiqqan avtomobillar sonini shu davrda xo'jalikda mayjud bo'lgan jami avtomobillar soniga bo'lish orqali
- D. Avtomobillarning ma'lum davrda yuk bilan bosib o'tgan masofasini jami yuk bilan va yuksiz bosib o'tgan masofasiga bo'lish orqali

**84. Transport tashkilotlari faoliyatini tekshirishda boshlang'ich hujjat bo'lgan yo'il varaqalarining shakllari, ularni to'lg'azish va ishlovdan o'tkazish tartibi kim tomonidan tasdiqlanadi?**

- A. O'zbekiston respublikasi avtomobil va daryo transporti agentligi
- B. Transport tashkilotining o'zi tasdiqlaydi
- C. Moliya vazirligi
- D. Vazirlar Mahkamasi

**85. Transport tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlari mobaynida tuziladigan taqqoslash qaydnomalarini kimlar imzolaydi?**

- A. auditor, transport tashkilotining bosh buxgalteri va moddiy javobgar shaxs
- B. transport tashkilotining bosh buxgalteri va moddiy javobgar shaxs
- C. transport tashkilotining bosh buxgalteri
- D. faqat auditor

**86. Tekshiruv davomida transport tashkilotining bo'lim boshlig'i o'ziga yuklatilgan majburiyatlarini to'liq bajarmaganligi aniqlandi. Ushbu jarayon auditning qaysi shakli orqali aniqlanadi?**

- A. mos keluvchanlik auditi
- B. operatsion audit
- C. moliyaviy hisobotlar auditi
- D. majburiy audit

**87. Transport tashkilotida o'tkazilayotgan auditda majburiyatlar auditi nimadan boshlanadi?**

- A. omborchidan tilxat olishdan
- B. Majburiyatlar inventarizatsiyasidan
- C. Majburiyatlar auditini rejalashtirishdan
- D. omborni muxrlashdan

**88. Transport tashkilotining moliyaviy hisobotiga qo'shimcha sharhlar kim tomonidan tuziladi?**

- A. Transport tashkiloti ma'muriyati tomonidan
- B. Transport tashkiloti boshqaruvchisi tomonidan
- C. auditor tomonidan
- D. Transport tashkilotining ishchilarini tomonidan

**89. Aeroportlarda havo kemalariga tijorat asosida amalga oshiriladigan tashish ishlari bilan bog'liq faoliyat litsenziyalanishi kerakmi?**

- A. Har doim kerak
- B. Xalqaro yo'nalishlarda kera
- C. Mahalliy yo'nalishlarda kerak
- D. Kerak emas

**90. Muhimlilik darajasi deganda nima tushuniladi?**

- A. moliyaviy hisobotni buzishning eng yuqori qiymati, undan boshlab ana shu hisobotning malakali foydalanuvchisi uning asosida to'g'ri xulosalar chiqarish va to'g'ri qarorlar qabul qilishga qodir bo'lmay qoladi
- B. korxona faoliyatining moliyaviy natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yo'l qo'yiladigan tafovutlar
- C. auditni rejalashtirish bosqichida hisoblangan va auditorlik xatarini belgilash uchun foydalaniladigan miqdor

D. moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari aniqligining ushbu hisobotning malakali foydalanuvchisi uning asosida to'g'ri xulosalar chiqarish va to'g'ri qarorlar qabul qilishga qodir bo'ladigan darajasi

**91. Transport tashkilotlarida majburiy auditorlik tekshiruvining o'tkazish muddati qanday?**

- A. hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevraligacha
- B. hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha
- C. hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreligacha
- D. hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha

## «BOSHQA TARMOQLARDA AUDITNING XUSUSIYATLARI» FANINING

2017/2018 O'QUV YILI UCHUN MO'LJALLANGAN

### SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Toshkent moliya instituti	Amir Temur shoh ko'chasi, 60-A	
Kafedra:	Audit	Hisob va audit fakulteti tarkibida	
Ta'lim sohasi va mutaxassisligi:	230000 – “Iqtisod” ta'lim sohasi	5230900 - «Buxgalteriya hisobi va audit» (tarmoqlar bo'yicha)	
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	k.o'q.Meliiev I.I. Kafedra tel: 2358077	e-mail:	isroil.meliyev@gm ail.com
Dars vaqtি va joyi:	Dars jadvali asosida	Kursning davomiyligi:	02.09.2017 - 08.04.2017
Individual grafik asosida ishlash vaqtি:	seshanba, payshanba va shanba kunlari 14.00 dan 17.00 gacha		
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari Ma'ruza: 56	Mustaqil ta'lim: Amaliyot 56	68
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	“Audit”, “Amaliy audit”, “Ichki audit”, “Moliyaviy hisobot audit”		
Fanning mazmuni			
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<p><u>Fanni o'qitishdan maqsad</u> - qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo va transport tarmoqlarida auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish tajribalari xususida bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p><u>Fanning vazifasi</u> - talabalarga qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo va transport tarmoqlarida auditorlik tekshiruvlarini tashkil qilish, o'tkazish va audit natijalarini umumlashtirish masalalarini o'rgatishdan iboratdir.</p>		
Talabalar uchun talablar	<ul style="list-style-type: none"><li>- o'qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish;</li><li>- institut ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish;</li><li>- uyali telefonni dars davomida o'chirish;</li><li>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;</li><li>- ko'chirmachilik (plagiat) qat'yan man etiladi;</li><li>- darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o'zlashtirilishi shart;</li><li>- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirot etish;</li><li>- talaba o'qituvchidan so'ng, dars xonasiga - mashg'ulotga kiritilmaydi;</li></ul>		

Отформатировано: Шрифт: (по умолчанию) Times New Roman, 13 пт

	- talaba reyting ballidan norozi bo'lsa, e'lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'ttasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqt soat 15.00 dan 20.00 gacha

**«BOSHQA TARMOQLARDA AUDITNING XUSUSIYATLARI» FANIDAN  
O'TILADIGAN MAVZULAR VA UALAR BO'YICHA MASHG'ULOT TURLARIGA  
AJRATILGAN SOATLAR HAJMINING TAQSIMOTI**

т/р	Фан мавзуларининг номи	Жами соат лар	шу жумладан		
			Маъруза	Амалий машғулот	Мустақил таълим
<b>Кузги семестр</b>					
1.	“Бошқа тармоқларда аудитнинг хусусиятлари” фанининг предмети, обьекти ва методи	14	4	4	6
2.	Пудратчи ташкилотларда капитал кўйилмалар аудитининг хусусиятлари	20	6	6	8
3.	Курилиш ташкилотларида асосий воситалар ва товар-моддий заҳиралар аудитининг хусусиятлари	20	6	6	8
4.	Курилиш ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари	12	4	4	4
5.	Қишлоқ хўжалиги корхоналарида аудит ўтказиш хусусиятлари	26	8	8	10
6.	Қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари ва молиявий натижалар аудити	26	8	8	10
<b>Кузги семестр жами</b>		<b>120</b>	<b>36</b>	<b>36</b>	<b>48</b>
<b>Бахорги семестр</b>					
7.	Савдо-тижорат корхоналарида аудит ўтказишнинг хусусиятлари	12	4	4	4
8.	Савдо-тижорат корхоналарида муюмала харажатлари ва молиявий натижалар аудити	20	6	6	8
9.	Транспорт ташкилотларида аудит ўтказишнинг хусусиятлари	18	6	6	6
10.	Транспорт ташкилотларида молиявий натижалар аудитининг хусусиятлари	12	4	4	4
<b>Бахорги семестр жами</b>		<b>60</b>	<b>20</b>	<b>20</b>	<b>20</b>
<b>Фан бўйича жами</b>		<b>180</b>	<b>56</b>	<b>56</b>	<b>68</b>

**Talabalar bilimini baholash tizimi:**

t/r	Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi	Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan ball
	I. Joriy nazoratdagи ballar taqsimoti <i>Ma'ruza va amaliy mashg'uotlarda</i>	36 ball
1.	Talabaning amaliy mashg'uotlardagi faolligi va o'zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati	26
2.	Modulli topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi (keysstadilar va boshqa turdagi topshiriqlari)	10
	II. Oraliq nazorat	34 ball
1.	Talabaning ma'ruza mashg'uotlardagi faolligi va o'zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati	10
2.	Modulli topshiriqlar (ma'ruza o'qituvchi tomonidan qabul qilinadi). 25 ball talaba yakka tartibda topshiriqlar oladi va himoya qiladi. (Ilmiy loyiha, taqdimotlar, tarqatma materiallar va boshqa turdagi topshiriqlari) Belgilangan haftalar oralig'ida talabalarga biriktiriladi. Guruhnинг faolligi, berilgan topshiriqnini nazariy va amaliy jihatdan yoritilishi, xulosalarning mantiqiy bog'liqligi, kreativ mulohazalarning mavjudligi, huquqiy-normativ hujjatlarni biliishi va boshqa talablarga mosligi hisobga olinadi. Himoya kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan grafik asosida dars mashg'uotlaridan so'ng tashkil o'tiladi.	24
	III. Yakuniy nazorat	30 ball
	Jami:	100 ball

<b>Asosiy adabiyotlar:</b>	"Audit" (darslik). Tulaxodjayeva M.M., Ilhomov SH.I. va bosh. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot, 2010. – 456 b. "Audit" (darslik). Tulaxodjayeva M.M. va boshqalar. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, "DeHause Print", 2011. - 583 b. Tulaxodjayeva M.M., Ilhomov SH.I. Audit. O'quv qo'llamna. - T.: Iqtisodiyot, 2012. – 184 b. Shoalimov A.X., Ilxomov Sh.I., Xodjaeva M.X. Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil va audit – T.: TDIU, «Iqtisodiyot», 2011. – 192 b.
<b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b>	Audit: uchebnik /pod red. Buligi R.P.-2-e izd., pererab. i dop. – M.: "YuNITI – DANA", - 2011 g. – 431 str. Urazov K.B., Vaxidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari.- T.: ADIB. 2011. – 494 b.

Fayziev Sh., Karimov A. Audit. Uchebnoe posobie. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013 g. – 328 s.  
Sheremet A., Suyts V. Audit. Uchebnik. – M.: “INFRA – M ”, 2010 g. – 448 str.  
Internet saytlari  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz);  
[www.lex.uz](http://www.lex.uz);  
[www.gaap.ru](http://www.gaap.ru);  
[www.audit.ru](http://www.audit.ru);  
[www.bilim.uz](http://www.bilim.uz);  
[www.gov.uz](http://www.gov.uz);  
[www.mf.uz](http://www.mf.uz).

## **MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT**

**MELIEV ISROIL ISMOILOVICH**

**TMI "AUDIT" KAFEDRASINING KATTA O'QITUVCHISI**



2003 yilda Toshkent moliya instituti Hisob-iqtisod fakulteti "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishini, 2005 yilda Toshkent moliya instituti Magistratura bo'limi "Audit" mutaxassisligini tugatgan. 2005 yildan Toshkent moliya institutining "Audit" kafedrasining assistenti, katta o'qituvchisi va dotsent vazifasini bajaruvchisi lavozimida faoliyat olib borgan. 2008 yildan buyon Toshkent moliya instituti "Audit" kafedrasining katta o'qituvchisi lavozimida faoliyat olib bormoqda. Uning hammuallifligida 10 ga yaqin o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar nashr etilgan. Hozirgi kunda "Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazish uslubiyatini takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanish olib bormoqda.

**QO'SHMATOV OTAXON QURBONALIYEVICH**

**TMI "AUDIT" KAFEDRASINING KATTA O'QITUVCHISI**



2007 yilda Toshkent moliya instituti Boshqaruv fakulteti "Kasb-ta'limi"(Buxgalteriya hisobi va audit) yo'nalishini, 2008 yilda Toshkent moliya instituti Magistratura bo'limi "Iqtisodiy tahlil" mutaxassisligini tugatgan. 2008 yildan Toshkent moliya institutining "Audit" kafedrasining assistenti, katta o'qituvchisi lavozimida faoliyat olib borgan. 2008 yildan buyon Toshkent moliya instituti "Audit" kafedrasining o'qituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda. Uning hammuallifligida 10 ga yaqin o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar nashr etilgan. Hozirgi kunda "Audit ish-xizmatlar sifatini nazorat qilishni takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanish olib bormoqda.